



@buxdu\_uz



@buxdu1



@buxdu1




www.buxdu.uz



E-ISSN 2181-1466

9 772181 146004



ISSN 2181-6875

9 772181 687004

7(2)/2025

Научный вестник Бухарского государственного университета  
Scientific reports of Bukhara State University



# BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



7(2)/2025

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI**  
**SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY**  
**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**

**Ilmiy-nazariy jurnal**

**2025, № 7, iyul**

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023-yil 29-avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

**Muassis: Buxoro davlat universiteti**

**Tahririyat manzili:** 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

**TAHRIR HAY'ATI:**

**Bosh muharrir:** Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bosh muharrir o'rinbosari:** Samiyev Kamoliddin A'zamovich, texnika fanlari doktori (DSc), dotsent

**Mas'ul kotib:** Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich**, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

**Danova M.**, filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

**Margianti S.E.**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

**Minin V.V.**, kimyo fanlari doktori (Rossiya)

**Tashqarayev R.A.**, texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

**Mo'minov M.E.**, fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

**Mengliyev Baxtiyor Rajabovich**, filologiya fanlari doktori, professor

**Adizov Baxtiyor Rahmonovich**, pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasulov To'liqin Husenovich**, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

**Abuzalova Mexriniso Kadirovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Amonov Muxtor Raxmatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Barotov Sharif Ramazonovich**, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

**Baqoyeva Muhabbat Qayumovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich**, biologiya fanlari doktori, professor

**Jumayev Rustam G'aniyevich**, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

**Djurayev Davron Raxmonovich**, fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Durdiyev Durdimurod Qalandarovich**, fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Olimov Shirinboy Sharofovich**, pedagogika fanlari doktori, professor

**Qahhorov Siddiq Qahhorovich**, pedagogika fanlari doktori, professor

**Umarov Baqo Bafoyevich**, kimyo fanlari doktori, professor

**Murodov G'ayrat Nekovich**, filologiya fanlari doktori, professor

**O'rayeva Darmonoy Saidjonovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Hayitov Shodmon Ahmadovich**, tarix fanlari doktori, professor

**To'rayev Halim Hojiyevich**, tarix fanlari doktori, professor

**Rasulov Baxtiyor Mamajonovich**, tarix fanlari doktori, professor

**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Quvvatova Dilrabo Habibovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Axmedova Shoira Nematovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Bekova Nazora Jo'rayevna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Amonova Zilola Qodirovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Hamroyeva Shahlo Mirjonovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Nigmatova Lola Xamidovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Boboyev Feruz Sayfullayevich**, tarix fanlari doktori

**Jo'rayev Narzulla Qosimovich**, siyosiy fanlar doktori, professor

**Xolliyev Askar Ergashovich**, biologiya fanlari doktori, professor

**Artikova Hafiza To'ymurodovna**, biologiya fanlari doktori, professor

**Norboyeva Umida Toshtemirovna**, biologiya fanlari doktori, professor

**Hayitov Shavkat Ahmadovich**, filologiya fanlari doktori, professor

**Qurbonova Gulnoz Negmatovna**, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Ixtiyarova Gulnora Akmalovna**, kimyo fanlari doktori, professor

**Rasulov Zubaydullo Izomovich**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Mirzayev Shavkat Mustaqimovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Esanov Husniddin Qurbonovich**, biologiya fanlari doktori, dotsent

**Raupov Soyib Saidovich**, tarix fanlari nomzodi, professor

**Zaripov Gulmurot Toxirovich**, texnika fanlari nomzodi, professor

**Jumayev Jura**, fizika-matematika fanlari nomzodi, professor

**Ochilov Alisher To'lis o'g'li**, tarix fanlari doktori, dotsent

**Klichev Qybek Abdurasulovich**, tarix fanlari doktori, dotsent

**G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

## **SERIYA: IJTIMOIIY - GUMANITAR FANLAR**

| <b>MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS</b>        |                                                                                                                                                                                   |    |
|-----------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ</b> |                                                                                                                                                                                   |    |
| <b>Jo‘raboyeva G.S.</b>                             | «Farg‘ona» joy nomining kelib chiqishiga doir                                                                                                                                     | 4  |
| <b>Bozorova G.F.</b>                                | Til birliklarining matn kontekstda talqin qilinishi: o‘zbek va ingliz tillari misolida                                                                                            | 9  |
| <b>Karimova Z.D.</b>                                | O‘zbek tili leksik birliklarining grammatik tahlili va POS teglashning nazariy asoslari                                                                                           | 13 |
| <b>Mo‘minova M.A.</b>                               | Reklamaning kelib chiqishi va uning rivojlanishiga bo‘lgan dastlabki yondashuvlar                                                                                                 | 17 |
| <b>Omarova D.T.</b>                                 | Jahon tilshunosligida tabiiy tilga ishlov berish sohasida matnlar ichidagi iboralarni aniqlash masalasi                                                                           | 22 |
| <b>Qurbonova D.F.</b>                               | Ertak qahramonlari tilida psixolingvistik xarakter ifodasi: ingliz va o‘zbek ertaklari asosida                                                                                    | 26 |
| <b>Saidkodiroya D.S.</b>                            | Terminologik uyaning freym tahlili                                                                                                                                                | 31 |
| <b>Sidiqova M.A.</b>                                | Tilshunoslikda termin bilan bog‘liq ilmiy-nazariy qarashlar                                                                                                                       | 35 |
| <b>Xoliyorova Ch.D.</b>                             | Til va tafakkur munosabatining inson nutqidagi ahamiyati                                                                                                                          | 39 |
| <b>Хушмуродова К.Б.</b>                             | Раскрытие значения полисемантических слов путём пояснения в русском и узбекском языках                                                                                            | 43 |
| <b>Mamadaliyeva N.S.,<br/>Mamadaliyeva O.N.</b>     | Стандартлаштириш, метрология, сертификатлаштириш ва сифатни бошқариш соҳаларидаги атамалар ва таърифларнинг русча-ўзбекча жамланган луғати: долзарблиги, ютуқлари ва истиқболлари | 48 |
| <b>Hojiyeva M.T.</b>                                | Ingliz va o‘zbek tillarida expressiv va implisit taqiqlovchi vositalar: lingvomadaniy yondashuv                                                                                   | 53 |
| <b>Sayfullaeva R.R.,<br/>G‘aybullayeva N.I.</b>     | O‘zbek xalq olqishlarida «kasallik» va «salomatlik» konseptining ifodalanishi                                                                                                     | 57 |
| <b>Axmedova D.B.,<br/>Ziyodullayeva G.F.</b>        | “Choy” leksemali xalq maqollarining lingvomadaniy jihatlar                                                                                                                        | 62 |
| <b>Babaqulova D.M.</b>                              | O‘zbek va rus tillarida aqliy faoliyat fe’llarining grammatik va semantik tavsifi                                                                                                 | 66 |
| <b>Tosheva D.M.</b>                                 | Ingliz va o‘zbek tillari ta’limida o‘quv izohli lug‘atlar hamda assotsiativ tajribaning nazariy asoslari                                                                          | 70 |



|                                                                                                                                          |                                                                                                                                    |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Azimov A.Kh.</b>                                                                                                                      | Frazeologik birliklarning S.Sheldonning “If tomorrow comes” asari misolida lingvokulturologik tahlili va tarjimadagi muammolar     | 76  |
| <b>ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM ***<br/>ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ</b>                                                                |                                                                                                                                    |     |
| <b>Berdiyeva N.R.</b>                                                                                                                    | The influence of self-help literature on modern society: an intercultural study of Western motivation and Uzbek ethical philosophy | 81  |
| <b>Bozorova N.Kh.</b>                                                                                                                    | Female images in the prose of A.P. Chekhov                                                                                         | 85  |
| <b>Ergasheva X.E.</b>                                                                                                                    | Hozirgi hikoyalarda ijtimoiy-falsafiy muammolar talqini                                                                            | 89  |
| <b>Khikmatova A.K.</b>                                                                                                                   | Simile as a translation challenge: English vs Uzbek                                                                                | 94  |
| <b>O'rmonova N.M.</b>                                                                                                                    | Islomiy qo'lyozmalar kontekstida Katta Langar Qur'oni: O'zbekiston merosi va xalqaro tadqiqotlar                                   | 99  |
| <b>Otamuratova S.T.</b>                                                                                                                  | Shermuhammad Munisning “Toparmen” g'azali tahlili                                                                                  | 104 |
| <b>Radjabova M.R.</b>                                                                                                                    | Existensial hero archetype                                                                                                         | 108 |
| <b>Sadullayeva M.A.</b>                                                                                                                  | Isajon Sultonning “Bo'ri” hikoyasi tahlili                                                                                         | 112 |
| <b>Xasanova M.J.</b>                                                                                                                     | Pahlavonquli Ravnaq qasidasida charx masalasi                                                                                      | 117 |
| <b>MATNSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK *** TEXTOTOLOGY AND<br/>LITERARY SOURCE STUDY *** ТЕКСТОЛОГИЯ И ЛИТЕРАТУРНОЕ<br/>ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ</b> |                                                                                                                                    |     |
| <b>Eshonqulov H.P.,<br/>Hamidov A.H.</b>                                                                                                 | Zamondosh shoirlar she'rlarining Navoiyona tahrirlari xususida                                                                     | 121 |
| <b>JURNALISTIKA *** JOURNALISM*** ЖУРНАЛИСТИКА</b>                                                                                       |                                                                                                                                    |     |
| <b>Qodirova N.S.</b>                                                                                                                     | Internet tanqidchiligida uslub qirralari                                                                                           | 125 |
| <b>NAVOIY GULSHANI</b>                                                                                                                   |                                                                                                                                    |     |
| <b>Rajabova M.,<br/>Hamidova S.</b>                                                                                                      | Fano mayxonasidagi haqiqat                                                                                                         | 130 |
| <b>Hamidov A.H.</b>                                                                                                                      | Yo Rab, ul oy husnin el fahmig'a nomaftum qil...                                                                                   | 133 |
| <b>TARIX *** HISTORY *** ИСТОРИЯ</b>                                                                                                     |                                                                                                                                    |     |
| <b>Norov Sh.S.,<br/>Abduraxmonov M.M.</b>                                                                                                | Zarafshon vohasida OAV faoliyatining yoshlar tarbiyasi va ma'naviy kamolotidagi ahamiyati                                          | 135 |

|                                                                                                                         |                                                                                                                                           |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Nurulloyev Sh.Sh.</b>                                                                                                | Shirbudun saroyining qurilish tarixi xorijiy va mahalliy tarixchilar nigohida                                                             | 141 |
| <b>Rahmatov M.A.</b>                                                                                                    | Mirzo Ulugʻbekning ilm-fan sohasidagi faoliyati: Sharq renessansi yuzasidan ilmiy tadqiq                                                  | 146 |
| <b>Shukurov J.A.,<br/>Badirdinov D.R.</b>                                                                               | Central Asian archaeobotany: a historical review                                                                                          | 150 |
| <b>Давронова Н.Ф.</b>                                                                                                   | Архитектура Бухары XVI века: источниковедческий и методологический анализ в контексте культурного наследия Средней Азии                   | 156 |
| <b>Исматова Н.А.</b>                                                                                                    | Бухоро амирлигида вақф мулкларини таъсис этиш механизми (XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошларига оид хужжатлар асосида)                   | 164 |
| <b>Сайманов С.С.</b>                                                                                                    | Отражение этноисторических процессов южного Приаралья в трудах исследователей XVIII века                                                  | 171 |
| <b>Халилов Ж.Н.</b>                                                                                                     | Бухоро амирларининг тахт маросими (Бухоро давлат музей-қўриқхонаси экспонатлари мисолида)                                                 | 176 |
| <b>Rajabov S.S.</b>                                                                                                     | “Bahr ul-Asror” asarida Buxoro xonligidagi maʼmuriy boshqaruv                                                                             | 187 |
| <b>FALSAFA VA HUQUQ, SIYOSATSHUNOSLIK *** PHILOSOPHY, LAW AND POLITICAL SCIENCES *** ФИЛОСОФИЯ, ПРАВО И ПОЛИТОЛОГИЯ</b> |                                                                                                                                           |     |
| <b>Axmedova D.K.</b>                                                                                                    | Korrupsiyaning tarixiy ildizlari va zamonaviy koʻrinishlari                                                                               | 193 |
| <b>Arslonov Z.D.</b>                                                                                                    | Oʻzbekiston hamda xalqaro tajribalar misolida yoshlarga oid davlat siyosati mexanizmlarining huquqiy, boshqaruv va amaliy asoslari        | 197 |
| <b>Muitov D.S.</b>                                                                                                      | Siyosiy PR mavzusini tadqiq etishning ayrim dolzarb tendensiyalari                                                                        | 206 |
| <b>Рүзимуродов Б.Р.</b>                                                                                                 | Голосование на основе блокчейна: теоретические обещания и методологические препятствия в обеспечении прозрачных и демократических выборов | 210 |
| <b>Ikromov X.A.</b>                                                                                                     | Davlat ijrochilarining ish yuklamasini qisqartirish va sohani raqamlashtirishning qoʻshimcha vositalarini joriy etish masalalari          | 215 |
| <b>IQTISOD *** ECONOMY *** ЭКОНОМИКА</b>                                                                                |                                                                                                                                           |     |
| <b>Norov Sh.S.,<br/>Islomov O.I.</b>                                                                                    | Yoshlarning turizmga qiziqishi va uni rivojlantirish yoʻllari                                                                             | 220 |

«FARG‘ONA» JOY NOMINING KELIB CHIQISHIGA DOIR

**Jo‘raboyeva Gulrux Solijonovna,**

Farg‘ona davlat universiteti dotsenti,  
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

gjraboyeva2021@gmail.com

ORCID ID 0009-0009-1126-4574

**Annotatsiya.** Maqoladada juda qadim o‘tmishga ega bo‘lgan Farg‘ona joy nomining kelib chiqishi va etimologiyasi tarixiy manbalar asosida bayon etiladi. Qadimiy Farg‘ona nomi, xususan, Farg‘ona xoronimi Markaziy Osiyo tarixiga doir manbalarining aksariyatida, jumladan, milodiy VI asrgacha yozilgan xitoy solnomalari, XIII asrning birinchi choragiga oid Mug‘ tog‘idan topilgan sug‘d hujjatlari, X asrda noma‘lum muallif tomonidan yozib qoldirilgan «Kitob hudud ul-olam min al-mashriq ila-l-mag‘rib», «Tarixi Tabariy» kitoblari hamda arab geograflari Ibn Havqal, Istaxriy, Muqaddasiy va Sam‘oniy asarlarida joy nomi sifatida ko‘p kuzatiladi. Shuningdek, Farg‘ona viloyati haqidagi muhim ma‘lumotlar keng va atroflicha yoritilgan manbalardan yana Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma», Is‘hoqxon to‘ra Ibratning «Farg‘ona tarixi» asarlari ham tahlilga tortiladi. Ularda ham nom etimologiyasi bilan bog‘liq boy ma‘lumotlar berilgan. Farg‘ona toponimi etimologiyasiga doir xilma-xil izoh, taxmin va mulohazalar mavjud bo‘lib, shu o‘rinda maqolada mazkur mavzu yuzasidan ba‘zi tahlillarimizni tarixiy manbalar, rivoyat va naqlar hamda mutaxassislarning shu sohada olib borgan ko‘p yillik izlanishlariga asoslangan holda bayon etishga harakat qildik.

**Kalit so‘zlar:** toponim, xoronim, etimon, etimologiya, substrat, morfema, atributiv munosabat, motivatsiya.

О ПРОИСХОЖДЕНИИ НАЗВАНИЯ МЕСТНОСТИ “ФЕРГАНА”

**Аннотация.** В статье на основе исторических источников описывается происхождение и этимология названия местности Фергана, имеющей очень древнее прошлое. Древнее название Ферганы, в частности, хороним Фергана, часто встречается в качестве топонима в большинстве источников по истории Центральной Азии, включая китайские летописи, написанные до VI века нашей эры, согдийские документы, найденные на горе Муг, относящиеся к первой четверти XIII века, книги «Китаб хууд аль-алам мин аль-маширик иля-ль-магриб» и «Тарих ат-Табари», написанные неизвестным автором в X веке, а также в трудах арабских географов Ибн Хаукаля, аль-Истахри, аль-Мукаддаси и ас-Самани. Наряду с источниками, в которых широко и всесторонне освещены важные сведения о Ферганской области, анализируются также произведения Захириддина Мухаммада Бабура «Бабур-наме» и Исхаqxана тюрка Ибрата «История Ферганы». Они также содержат богатую информацию, связанную с этимологией названия. Существуют различные толкования, предположения и мнения относительно этимологии топонима Фергана, и в этой связи в статье мы попытались представить некоторые наши анализы по этой теме, основанные на исторических источниках, легендах и преданиях, а также многолетних исследованиях специалистов в этой области.

**Ключевые слова:** топоним, хороним, этимон, этимология, субстрат, морфема, атрибутивное отношение, мотивация.

ABOUT THE ORIGIN OF THE PLACE NAME “FERGANA”

**Abstract.** The article describes the origin and etymology of the place name Fergana, which has a very ancient history, based on historical sources. The name of ancient Fergana, particularly the choronym Fergana, is frequently mentioned as a place name in most sources on Central Asian history. These include Chinese chronicles written before the 6th century AD, Sogdian documents found on Mount Mug dating to the first quarter of the 13th century, the books «Kitab Hudud al-Alam min al-Mashriq ila al-Maghrib» and «Tarikh al-Tabari» written by an unknown author in the 10th century, as well as works by Arab geographers Ibn Hawqal, al-Istakhri, al-Muqaddasi, and al-Sam‘ani. Additionally, «Baburnama» by Zahiriddin Muhammad Babur and «History of Fergana» by Ishaqkhan Tura Ibrat, which provide extensive and comprehensive information about the Fergana region, are also analyzed. These works offer rich information

*related to the etymology of the name. There are various interpretations, assumptions, and considerations regarding the etymology of the Fergana toponym. In this article, we have attempted to present some of our analyses on this topic based on historical sources, legends, and narratives, as well as the many years of research conducted by specialists in this field.*

**Keywords:** toponym, choronym, etymon, etymology, substrate, morpheme, attributive relation, motivation.

**Kirish.** Qadimiy Farg‘ona nomi, xususan, Farg‘ona xoronimi Markaziy Osiyo tarixiga doir manbalarning aksariyatida, jumladan, milodiy VI asrgacha yozilgan xitoy solnomalari, XIII asrning birinchi choragiga oid Mug‘ tog‘idan topilgan sug‘d hujjatlari, X asrda noma‘lum muallif tomonidan yozib qoldirilgan «Hudud ul-ol», «Tarixi Tabariy» [1, 2] kitoblari hamda arab geograflari Ibn Havqal, Istaxriy, Muqaddasiy va Sam‘oniy [3, 4, 5] asarlarida joy nomi sifatida ko‘p kuzatiladi. Farg‘ona toponimi etimologiyasiga doir xilma-xil izoh, taxmin va mulohazalar mavjud. Shu o‘rinda biz ham mazkur mavzu yuzasidan ba‘zi tahlillarimizni tarixiy manbalar, rivoyat va naqlar hamda mutaxassislarning shu sohada olib borgan ko‘p yillik izlanishlariga asoslangan holda bayon etishga harakat qildik.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, qadimgi Farg‘ona davlatiga oid dastlabki ma‘lumotlar miloddan avvalgi II asrdan boshlab yozib kelingan xitoy manbalarida, ya‘ni «24 tarix» ning 1-2 jildi «Shiji» («Tarixiy xotiralar») va «Xan shu» («Xannoma») da ham beriladi [6, 8-9]. Xitoy manbalarida Farg‘ona toponimi «Dayyuan» («Davan») deb yuritilib, «Tarixiy xotiralar» kitobida Farg‘ona haqidagi ilk ma‘lumot Chjang Chyaning (Farg‘onaga birinchi marta yuborilgan elchi) Xitoy xoqoniga bergan axborotidan olingan: «... farg‘onaliklar (dayyuanliklar) avloddan-avlodga o‘troq hayot kechirib kelgan ekan. [Ular] dehqonchilik bilan shug‘ullanib, sholi, bug‘doy ekar ekan. Uzum sharobi chiqarar ekan. Farg‘ona (Dayyuan) da asl otlar ko‘p bo‘lib, mazkur otlarning hammasi tulpor otlardan ekan. Badanida qizil ter tomchilari [yaltirab] chiqib turar ekan. [Dayyuanda] shahar, qal‘a, uy-imoratlari bor, kattayu kichik 70 dan ko‘p shahar qarar ekan. Bir necha yuz ming aholisi bor ekan. Bu davlat askarlari o‘q-yoy, nayza ishlata va ular otga minishga, o‘q-yoydan foydalanishga mohir bo‘lar ekan...» [7, 489-490]

Xan sulolasining, ya‘ni xitoyliklarning Farg‘onaga harbiy yurishi (milod. avv. 104 va 102 yillari) Xitoy tarixida katta ahamiyat kasb etganligi bois Davan davlati va uning shaharlariga oid qimmatli ma‘lumotlar mazkur xalq manbalaridan alohida joy olgan. Xususan, «Xannoma»da: «Farg‘ona davlati markazi Guyshan, ... shimol tomoni Qangqa, janubiy-g‘arb tarafi Ulug‘yuejilar xonliklari bilan tutashgan. Farg‘ona davlatining eri, iqlimi, boyligi, urf-odatlar Ulug‘yuejilar va Arshak (Parfiya) bilan o‘xshash. Farg‘onadan uzum sharobi chiqadi. Bu sharoblar bir necha o‘n yil tursada buzilmaydi. Otlari beda eydi», – deb yozilgan [6, 10-11]. Mazkur ma‘lumotlarda ko‘hna Farg‘ona davlatida qadimdan dehqonchilik bilan birga chorvachilik ham rivojlanganligi, uning shaharlari esa kamida 2500 yillik tarixni qamrab olganligi ko‘rsatiladi.

**Natijalar va muhokama.** Farg‘ona o‘lkasi, uning geografiyasi, tabiati va iqlimi, shaharlari nomi haqidagi ma‘lumotlar X asrda arab sayyohlari tomonidan yozilgan qator manbalarda, shuningdek, fors tilida yozilgan «Kitob hudud ul-olam min al-mashriq ila-l-mag‘rib» («Olamning mashriqdan mag‘ribgacha bo‘lgan chegaralari haqida kitob») asarida ham aks etadi. Mazkur asar o‘rta asrlardagi Farg‘ona nohiyati, uning tasarrufidagi yigirmadan ortiq joy nomlari haqida eng sara va ishonarli ma‘lumotlarni o‘zida saqlagan qimmatli manbadir: «Farg‘ona – katta va obod nohiyat, unda noz-ne‘matlar farovon erur; tog‘lar ko‘p, dashtu shaharlari, oqar suvlari bor. Turkistonning eshigidir. U erga ko‘plab turk qullar keltiriladi. Tog‘lari oltin, kumush, mis, qo‘rg‘oshin, navshodir, simob, yonartosh, poyzahr toshi, magnit toshi va turli minerallarga boy; u erda tabarxun va antiqa dorilar tayyorlashda ishlatiladigan giyohlar bor» [1, 15].

Mazkur yodgorlikda Farg‘ona xoronimining nomlanishi, uning etimoni xususida hech qanday ma‘lumot berilmagan bo‘lsa-da, asar o‘lkaning o‘sha davrdagi tabiati va iqlimi, joylashish o‘rni, qolaversa, ushbu toponim o‘rta asr manbalarining deyarli barchasida aynan Farg‘ona atamasi bilan yuritilganligini asoslovchi ilmiy hujjat ekanligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Farg‘ona viloyati haqidagi muhim ma‘lumotlar keng va atroflicha yoritilgan manbalardan yana biri Z.M.Boburning qomusiy «Boburnoma» asaridir: «Farg‘ona viloyati beshinchi iqlimdindur. Ma‘muraning kanorasida voqe‘ bo‘lubtur. Sharqi Koshg‘ar, g‘arbi Samarqand, janubi Badaxshonning sarhadi tog‘lar, shimolida agarchi burun shahrlar bor ekanur, misli: Olmoluq va Olmotu va Yangi kim, kutublarda Tarozkent bitirlar, mo‘g‘ul va o‘zbek jihatdin bu tarixda buzulubtur, aslo ma‘mura qolmabdur. Muxtasar viloyattur, oshliq va mevasi farovon. Girdo-girdi tog‘ voqe‘ bo‘lubtur. G‘arbiy tarafidakim, Samarqand va Xo‘jand bo‘lg‘ay, tog‘ yo‘qtur. Ushbu jonibtin o‘zga hech jonibtin qish yog‘iy kela olmas. Sayhun daryosikim, Xo‘jand suyig‘a mashhurdur, sharq va shimoliy tarafidin kelib, bu viloyatning ichi birla o‘tub, g‘arb sori oqar, Xo‘jandning shimoli Fanokatning janubi tarafidinkim, holo Shohruxiyag‘a mashhurdur,

o'tub yana shimolg'a mayl qilib, Turkiston sori borur. Turkistondin xeyli quyiyoq bu daryo tamom qumga singar, hech daryog'a qotilmas. Yetti pora qasabasi bor: beshi Sayhun suyining janub tarafida, ikki shimoli jonubida» [8, 7-8].

Zahiriddin Bobur Farg'ona hududi toponimiyasiga tegishli Taka Sekretku, Kandibodom, Hodarvash singari joy nomlarining etimoniga doir bir qancha qiziqarli fikrlarni keltirsa-da, lekin viloyatning «yetti pora qasabalari» - Andijon, O'sh, Marg'inon, Isfara, Xo'jand, Axsi, Koson singari yirik shaharlarining, jumladan, Farg'ona viloyatining ham joylashish o'rni, chegaralari, iqlimi, odamlarining kasb-kori, o'simlik va hayvonot dunyosi haqidagi mulohazalarini berish bilangina chegaralanadi [8, 8-13]. Nom hech qachon asossiz, o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Biror hududga nom berayotgan nomlovchi (ko'pincha xalq) mazkur joy uchun, albatta, eng muhim belgi-xususiyatlarni topadi va shu asosida toponimlar yuzaga keladi. Soha mutaxassisleri ta'kidlaganidek, geografik nomlar – xaritaning muhim elementidir. Joy nomlari obyektlarning manzillari bo'lishi bilan birga hududning tabiati, tabiiy boyliklari va boshqa geografik xususiyatlari haqida ma'lumot beradi [9, 19]. Shu ma'noda Boburning Farg'ona viloyati tabiati va joylashish o'rnini mukammal tarzda tasvirlashi ham toponimlarning motivatsiyasi bilan chambarchas bog'liq.

XX asr boshlarida muarrix va shoir Is'hoqxon to'ra Ibrat tomonidan yozilgan «Farg'ona tarixi» asari ham vodiy toponimiyasi etimologiyasiga oid ma'lumotlarni jamlagan nodir manbalardan biri sifatida xizmat qiladi. Mazkur asarda Farg'ona xoronimining kelib chiqishiga oid fikrlar bir qancha tarixiy – «Shohnoma», «Ravzat us-safo», «Mulhaqot us-Suroh» hamda Yoqut Hamaviyning «Ajoyib ul-buldon» asarlaridan keltirilgan parchalar orqali izohlanadi. Unga ko'ra, «Farg'onani avvali insho etguchi kishi faylasuf Farg'ona bino qilg'on ekan. Ul kishi Afrosiyobi Turonshohiyning umarolaridan ekan» [10, 82]. Shu bilan bir qatorda asarda Farg'ona nomi «har xona» iborati bilan bog'lanadi: «Ajoyib ul-buldon» da masturdurki, Farg'ona iborati «har xona» dur. ...podshoh Iskandar, arzlaring nimadur, deganlarida: «Arzimiz bul turgon joyimizni shahar qilib bersangiz!» deganlarida, umarolaridan bir bofarosat sohibi aqlli kishini ta'yin qilib, shahar qilmoqg'a amr qilg'on ekanlar. Ul kishining oti Farg'ona bahodir ekan. Ul kishi necha yillar harakat qilib, har shahardan va har xoandan odam olub, o'tquzub, oti «har xona» deb qo'yub, «harxona»ni «Farg'ona» o'qub, parxona, parg'ona deb o'qub va ham ul muassis kishining ismi qaviyroq bo'lib, Farg'ona shuhrat topgan» [10, 84].

Ibratning ushbu Farg'ona toponimiga oid qarashlari yozma manbalarga asoslangan bo'lsa-da, ular xalqona etimologiyadan iborat, ilmiy jihatdan esa munozaralidir. «Farg'ona» va «har xona» so'zlari o'rtasidagi bog'liqlik ham o'z navbatida shakliy va mazmuniy o'xshashlikdan boshqa narsa emas.

Nom qancha ko'hna bo'lsa, uning etimologiyasini bilish ham shuncha qiyin bo'ladi [9, 18]. Ayniqsa, kelib chiqishi ikki ming – uch ming yillik tarixga ega bo'lgan yurtimizdagi ko'plab toponimlar nomlanishi juda chuqur tekshirishlarni talab etadi. Jumladan, Farg'ona xoronimi etimoni yechimi ham mutaxassislar e'tiroficha, qadimgi xitoy manbalari va sug'd hujjatlariga borib tutashadi.

Ma'lumki, Farg'ona atamasi xitoy solnomalarida «Davan» shaklida uchraydi. O'z paytida bizning tariximizga tegishli qadimgi xitoy yozma manbalari sharqshunos olimlar N.L.Bichurin va N.V.Kyunerlar tomonidan tarjima qilinib, O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi xitoy manbalariga asoslangan qismlari ana shu tarjimalar asosida yozib kelinadi. Bu borada fikr yuritgan akademik A.Asqarov tarjimalar xususida o'z mulohazalarini bildirib, avvalo, Farg'ona atamasi solnomalarda «Davan» tarzidami yoki «Dayyuan» tarzida yuritilganmi, degan munozarali savolni o'rta tashlaydi va buning izohi sifatida quyidagilarni bayon etadi: «Tarjimalarda toponimlar, etnonimlar va tarixiy shahar nomlari xitoy ierogliflarining qadimgi talaffuzida emas, balki zamonaviy o'qilishida, ya'ni tegishli sharhlarsiz hozirgi zamon xitoy tilida beriladi. Natijada ularning ishi oddiy tarjimadan iborat bo'lib, ko'p noaniqliklar va chalkashliklarga yo'l qo'yilgan» [11, 25]. Keyinchalik tarixchi va xitoyshunos olim A.Xo'jayev tadqiqotlarida mazkur chalkashliklar bartaraf etilib, toponim etimoniga doir ham asosli fikrlar ilova etilganligi ta'kidlanadi: «... xitoy manbalaridagi ma'lumotlarni chuqur o'rganish natijasida qadimgi Farg'ona mamlakati va uning poytaxt-shahri bir nom bilan atalganligi aniqlandi, ya'ni qadimgi Farg'ona davlatining xitoycha nomi «Yuan» bo'lib, uning zamonaviy o'qilishi «Van» ieroglifi bilan ifodalangan. Bir nomdagi shahar bilan viloyat, o'lka, mamlakat o'rtasidagi chalkashliklarning oldini olish uchun qadimgi xitoy tarixchilari viloyat, mamlakat oldiga «Day» so'zini qo'shgan, ya'ni «Yuan» oldiga «Day» qo'yilsa (Dayyuan) viloyat, mamlakat tushunilgan, shahar demoqchi bo'lsa, «Yuan» orqasiga «Cheng» so'zini qo'shgan (Yuancheng). Zamonaviy xitoycha o'qilishida Yuan – Van deb o'qiladi. Shuning uchun «Davan» bo'lib ketgan. Aslida «Dayyuan» dir. Shahar esa «Yuancheng» dir» [11, 26].

Dayyuan toponimi tarkibidagi «day» birligi «katta, buyuk» ma'nosini anglatib, «buyuk Yuan» davlati, Yuancheng tarkibidagi «cheng» birligi «atrofi devorlar bilan o'ralgan shahar» ma'nosini anglatgan. «Yuancheng» esa o'z navbatida «Yuanga tegishli shahar yoki poytaxt» ma'nosini ifodalaydi va bu mulohaza mutaxassislar tomonidan Yuancheng shahri Farg'onaning qadimgi poytaxti Axsikentga to'g'ri keladi degan



g'oyani ilgari surishlariga sabab bo'ladi. Xo'sh, unda davlat va shahar nomi uchun asos bo'lgan «yuan» ieroglifi qanday ma'noni ifodalaydi? Tadqiqotchi A.Xo'jayev xitoy yozma manbalari sharhiga bag'ishlangan «Farg'ona tarixiga oid ma'lumotlar» kitobida bu haqidagi fikrlarini davom ettirib, qadimgi Farg'ona mahalliy xalq tilida Parkona (Parkana) deb atalgani, xitoylar uni Dayyuan deb tarjima qilishgani, chunki bu ikkala atama ham «tog'lar bilan o'ralgan tekislik», «tog'lar orasidagi chuqurlik, pastlik» degan bir ma'noni berishini aytib o'tadi. «Yuan» ieroglifi haqida esa qadim zamonda atrofi tog'lar yoki baland tepaliklar bilan o'ralgan, o'rta sathi tekis va nisbatan pastroq shakldagi, ya'ni kosaning tubiga o'xshaydigan joyni xitoylar aynan mazkur atama – «yuan» deb atashganini qayd etadi. Zamonaviy xitoy tilida ushbu ieroglif ko'proq ovqatlanish uchun ichiladigan «kosa» ma'nosida ishlatiladi [12, 129-131].

A.Xo'jayev tadqiqotlarida, fikrimizcha, Farg'ona xoronimining xitoycha tarjimasini Dayyuan va Yuan atamalari bo'yicha etarlicha hamda ishonarli ma'lumotlar berilgan. Quyida biz uning mahalliy aholi tilida qo'llanilgan qadimgi varianti Parkona (Pargana, Parg'ona) atamasi etimoni, uning xitoycha tarjimasiga qay darajada muvofiq kelishi haqida to'xtalib o'tmoqchimiz.

«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»da olimlar «Farg'ona» so'zining bundan XIII asr ilgari sug'd yozuvlarida «Parg'ana», «Prag'ana» shakllarida yozilganligini hamda hind-sanskrit tilida «kichik viloyat»; fors tillarida «Tog' oralig'idagi vodi», «Atrofi berk soylik» degan ma'nolarga ega bo'lganligi qayd etilgan [13, 56].

M.S.Andreevning ta'kidlashicha, atama fors-tojik tilida «parvan» yoki «parkana» tarzida talaffuz etilib, u «atrofi berk vodi» degan ma'noni anglatgan [14, 35]. Toponimshunos olim H.Hasanov ham Farg'ona atamasining kelib chiqishi haqida 10 ga yaqin farazlarni keltirib, Pomirdagi rushon shevasida «parkana» deb, «har tarafi tog', bir yog'igina ochiq vodi» ga aytiladi degan fikrni beradi va yuqoridagi tahlillarni «Boburnoma» dan keltirilgan ushbu parcha bilan izohlashga harakat qiladi: «Girdo-girdi tog' voqe' bo'lubtur. G'arbiy tarafidakim ... tog' yo'qtur. Ushbu jonibtin o'zga hech jonibtin qish yog'iy kela olmas» [15, 106].

Geograf olim S.Qoraev M.Ishaqovning qadimiy sug'd tilida «par» so'zi devor yoki aylanma shaklidagi balandlik, «kan» so'zi esa jamlanish, bironta boylikning yig'ilgan joyi kabi ma'nolarni anglatishi haqidagi mulohazasiga ishora qilib, Parkona, ya'ni Farg'ona toponimining ma'nosi mana shu ikki so'z birikmasidan hosil bo'lganligini asosli deb topgan [16, 90]. E.M.Murzaevning e'tirofiga ko'ra, Pomir tillarida «pargana», «bargana» so'zlari mavjud bo'lib, ular atrofi balandliklar bilan o'ralgan tekislik joy ma'nosida ishlatiladi [17, 128].

Akademik A.Muhammadjonov ham Farg'ona toponimi, qolaversa, vodiyning boshqa yirik shaharlari, Andijon, Namangan, Quva, Marg'ilon, Izboskan joy nomlari etimoni xususida bir qancha ilmiy maqolalar e'lon qilgan [18, 19, 20]. U «Farg'ona nomining ma'nosiga doir» nomli maqolasida ko'pchilik mutaxassislarning mulohazalarini tahlil qilish barobarida, «Farg'ona» atamasining tarkibiy tuzilishi haqida quyidagilarni qayd etadi: «Farg'ona» tilshunoslik jihatidan ikki bo'g'inli nomdir. Uning birinchi bo'g'ini «far» yoki «par», ikkinchisi «g'on», «gan», «kon» va «kan» shakllarida qadimiy tarixiy toponimlar tarkibida substrat yoki morfemalar sifatida uchraydi. «Far» yoki «par» – tushmoq, enmoq, inmak, pastlamoq, «g'on», «gan», «kon» va «kan» – daryo, soy, havza va vodi yoki tushunchalarini bildirgan» [21, 10].

Bizningcha ham, Parkona (Parkana, Parg'ana) xoronimi ikki tarkibli atama hisoblanib, «par» va «kon» («gan», «kan», «g'on») morfemalaridan tashkil topgan. Toponim tarkibidagi birliklar dastlab til qurilishi imkoniyatlaridan kelib chiqib, atributiv (aniqlovchi va aniqlanmish) munosabat orqali aloqaga kirishgan. Qadimiy sug'd tilida «par» so'zi «devor yoki aylanma shaklidagi balandlik» [16, 90] («par» birligining «aylana, aylanma» ma'nosi fors-tojik tiliga mansub pargar (sirkul), parma (aylanma harakat qilib teshadigan asbob), parvona so'zlariga ham aloqador bo'lishi mumkin), yana boshqa izoh bo'yicha «par» - eroniy tillarga oid «yuqori, baland» ma'nosida [22, 206], «kon» («gan», «kan», «g'on») birligi esa umuman joy ma'nosini ifodalagan. Yurtimizdagi ko'plab toponimlar tarkibida qo'llanuvchi «par» birligi ham asosan «yuqori, baland», «devor bilan aylanasiga o'ralgan» ma'nolari bilan bog'lanadi: Parmetan – yuqori qishloq, Pandiron – baland devorli qo'rg'on, Panji – yuqoridagi joy, Fankad – yuqori qo'rg'on, Farob – yuqori tomondagi suv. Shu o'rinda yana bir ma'lumotni qo'shimcha qilish joizki, atqli toponimshunos olim T.Nafasov -kan / -kana / -xona toponimik formantlarini makon, yashaydigan maskan sifatida talqin qiladi [22, 23]. Demak, Parkona (Farg'ona) xoronimi tarkibidagi «par» birligini «balandliklar bilan qurshalgan» yoki «tog'lar bilan o'ralgan» tarzida, -kon / -kana, -g'ona formantini «joy, maskan, makon, vodi», sifatida izohlash to'g'ridir.

**Xulosa.** Farg'ona xoronimining kelib chiqishi, etimologiyasiga doir fikrlarni xitoy yozma manbalari va sug'd hujjatlari orqali aniqlash mumkin. Farg'ona atamasi qadimgi xitoy solnomalarida Dayyuan, sug'd hujjatlarida Parkona (Pargana, Fragana), arab manbalarida esa asosan Farg'ona atamasi bilan yuritilgan va bularning barchasi sug'diy va pomir tillariga oid, «tog' tizmalari oralig'idagi joy» yoki «tog'lar bilan

qurshalgan vodiya» degan bitta ma'noni anglatadi. Hozirda tilimizda faol qo'llanadigan Farg'ona xoronimi esa qadimgi Parkonaning arablar tomonidan talaffuz etilishi natijasida hozirgi ko'rinishga kelgan shaklidir.

### ADABIYOTLAR:

1. Худуд ул-олам. – Тошкент: O'zbekiston, 2008.
2. История ат-Табари. – Тошкент, 1987.
3. Ибн Хавқал. БГА. 2-жилд.
4. Истахрий. Китоб ул-масолик вал-мамолик. БГА, 1-жилд.
5. Муқаддасий. Аҳсан ул-тақосим фи маърифати ул-ақолим. БГА. 3-жилд.
6. Абдухолиқ Абдурасул ўғли. – Қадимги Фарғона тарихидан. Тошкент: Фан, 2002.
7. Си Мачян. Фарғона тазкираси. Тарихий хотиралар. – Урумчи, 1989.
8. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.
9. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006.
10. Исҳоқхон тўра Ибрат. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2005.
11. Асқаров А. «Фарғона тарихига оид маълумотлар» китобида туркий халқларнинг этногенезисига оид фикр-мулоҳазалар таҳлили // «Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда» мавзуидаги III республика илмий анжумани материаллари. – Фарғона, 2014.
12. Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар. – Фарғона, 2013.
13. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2002. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) кутубхонаси.
14. Андреев М.С. Новые данные по установлению значения слова «Фергана» // Сообщение тадж. Филиалы АН. Вып. 2. – Душанбе, 1950.
15. Ҳасанов Ҳ. Географик номлар сири. – Тошкент: Ўзбекистон, 1985.
16. Караев С.К. Топонимия Узбекистана. – Тошкент, 1991.
17. Мурзаев Э.М. География в названиях. – Москва, 1982.
18. Муҳаммаджонов А. «Андукон», «Андигон» ва «Андижон» топонимлари // Ўзбек тили ва адабиёти. 2002 йил, 2-сон.
19. Муҳаммаджонов А. Марғилон – Марғинон номининг маъноси ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 2007 йил, 3-сон.
20. Муҳаммаджонов А. «Қува» ёки «Қубо» топоними ва «Қубод» атамасининг этимологик асослари // Ўзбек тили ва адабиёти. 2008 йил, 3-сон.
21. Муҳаммаджонов А. Фарғона номининг маъносига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. 2007 йил, 6-сон.
22. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. – Тошкент: Муҳаррир, 2009.

## TIL BIRLIKLARINING MATN KONTEKSTDA TALQIN QILINISHI: O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA

**Bozorova Gulruh Furqat qizi,**

Webster universiteti, MA TESOL dasturi magistranti

ORCID: 0009-0000-7103-7896

gulruhbozorova695@gmail.com

**Annotatsiya.** Bu maqola o‘zbek va ingliz tillarida ko‘p uchraydigan turli yo‘nalishlarda ba’zi til birliklarining matn kontekstida qay tarzda talqin qilinishini tahlil qiladi va unga mos kerakli namunalarni ham keltirib o‘tadi. Bunda asosan zamon, olmoshlar, bog‘lovchilar va tinish belgilarining har xil ilmiy, nutqiy matnlarda qanday ma’noga ega bo‘lishi haqida fikrlar muhokama qilinadi. Ushbu maqolada til birliklari matn ichida qanday semantik va pragmatik vazifani bajarishi, hamda ularning nutqni madaniyatlararo tafovutini ko‘rsatib beradi. Xususan, tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, matnga yondashuv va namunalar orqali til vositalarining kontekstga bog‘liqligi haqida fikr yuritiladi. Maqola o‘zbek va ingliz tillarining semantik va pragmatik tomondan tahlil etilishiga oid tadqiqotlarga hissa qo‘shadi.

**Kalit so‘zlar:** kontekst, til birliklari, zamon, olmosh, pragmatika, bog‘lovchi, tinish belgisi, qiyosiy tahlil, pragmatik.

## ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЯЗЫКОВЫХ ЕДИНИЦ В КОНТЕКСТЕ ТЕКСТА: НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКСКОГО И АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКОВ

**Аннотация.** В данной статье анализируется, как некоторые языковые единицы интерпретируются в контексте текста в различных аспектах, часто встречающихся в узбекском и английском языках, и приводятся соответствующие примеры. В основном обсуждается, какое значение имеют время, местоимения, союзы и знаки препинания в различных научных и речевых текстах. В статье показано, какую семантическую и прагматическую функцию выполняют языковые единицы в тексте, а также их межкультурные различия в речи. В частности, в процессе исследования рассматривается зависимость языковых средств от контекста посредством сравнительного анализа, подхода к тексту и примеров. Статья вносит вклад в исследования по семантическому и прагматическому анализу узбекского и английского языков.

**Ключевые слова:** контекст, языковые единицы, время, местоимение, прагматика, союз, знак препинания, сравнительный анализ.

## INTERPRETATION OF LANGUAGE UNITS IN TEXTUAL CONTEXT: EXAMPLES FROM UZBEK AND ENGLISH

**Abstract.** This article analyzes how certain language units commonly found in Uzbek and English are interpreted within textual contexts and provides relevant examples. It primarily discusses the meanings of tenses, pronouns, conjunctions, and punctuation marks in various scientific and spoken texts. The article examines the semantic and pragmatic functions that language units perform within texts, as well as how they reflect intercultural differences in speech. Specifically, the research process employs comparative analysis, textual approaches, and examples to explore the context-dependency of linguistic tools. This study contributes to research on the semantic and pragmatic analysis of the Uzbek and English languages.

**Keywords:** context, language units, tense, pronoun, pragmatics, conjunction, punctuation, comparative analysis.

**Kirish.** Bugungi kundagi zamonaviy tilshunoslikda kontekst tushunchasi alohida ilmiy e’tibor beriladigan sohalardan biri hisoblanadi. Tilshunoslikda til birliklarining ma’nosi hamda vazifasi aksariyat hollarda ushbu birliklarni qanday kontekstdan foydalanishga bog‘liq hisoblanadi. Ushbu jihatni biz asosan ikki yoki undan ortiq tillarni bir- biriga solishtirish jarayonida yaqqol ko‘zga tashlanadi. O‘zbek va ingliz tillari misolida olib borilgan kuzatuvlar natijasida til birliklarining kontekstda semantik va pragmatik tomondan qan tartibda o‘zgarishlar kuzatilishini ko‘rsatadi. Shu kabi birliklar, zamon shakllari, olmoshlar, bog‘lovchilar yoki tinish belgilarni har xil nutqiy vaziyatlarda turli ta’sir va ma’no kasb etishi mumkin.

Ushbu holat til o'rganayotganlar va o'rgatayotgan shaxslar, tarjimonlar va til o'qituvchilari uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

**Mavzuga doir adabiyotlar tahlili.** Til birliklari va kontekst nazariyasi. Til birliklari –tildagi ma'no anglatadigan kichik va murakkab tuzilmalar hisoblanib, ular orqali biz nutq jarayonidagi muloqotni ta'minlashda keng xizmat qiladi. Ularning asosini so'zlar, so'z birikmalari, gaplar hamda ularning sintaktik shakllar tashkil etadi. Til birliklari har doim qaysidir matning kontekstida qo'llaniladi hamda ushbu kontekst ularning ma'nosiga, urg'usiga va vazifasiga ta'sir ko'rsatadi.

**Kontekst**– bu so'z yoki ibora ishlatilayotgan nutqiy vaziyat, munosabat va madaniy fon hamda boshqa omillar yig'indisidan tashkil topgan. Tilshunoslarning pragmatik tahlil jarayonida aynan ushbu kontekstni chuqurroq o'rganadilar va talqin qiladilar. Misol uchun, aksariyat bir xil olmosh ("you" yoki "siz") rasmiy vaziyatda boshqacha, norasmiyda esa boshqa ohang hamda ifoda bilan talqin va talaffuz qilinadi. Oxirgi tadqiqotlarga tayanib shuni ko'rish mumkinki, til birliklarining ma'nosi, urg'usi hamda yuklamasi nafaqat ularning grammatik shakliga, balki ular ishlatilgan **matnga** ham kuchli bog'liq bo'ladi (Yule, 1996). Shu kabi holatlarni biz, ayniqsa, ikki til birliklarini solishtirgan paytda yaqqol ko'rsak bo'ladi.

Zamon formasi bu har bir tilda harakatning vaqti va jarayoniga oid ma'lumotlarni beradi. Ingliz va o'zbek tillarida zamon tushunchasi grammatik jihatdan farq qilsa-da, biz ularning matnga bog'liq semantik yuklamalari o'zaro qiyoslash o'rganishimiz mumkin. Ingliz tilida zamon shakllari ancha murakkab tizimga ega bo'lib, biz asosan ularni 3 ta asosiy katta guruhlarni, ya'ni Present Perfect, Past Continuous yoki Future Perfect kabi ko'plab shakllarini inobatga olamiz. Aynan **Present Perfect** zamoni ingliz tilida aksariyat hollarda oldin sodir bo'lgan, ammo hozirgi vaziyat uchun ta'siri saqlanib qolgan harakatni ifodalashda qo'llanadi.

I have lost my money. (Endi men hozirda pulimni topolmayapman – kontekst hozirgi holatga ta'sir qilmoqda ammo ish harakat o'tgan zamonda sodir bo'lgan)

Ammo o'zbek tilida esa bu kabi vaziyatlar odatda "-gan" qo'shimchasi bilan ifodalanadi: Pullarimni yo'qotganman. Ushbu vaziyatda ayni holat uchun aloqadorligi mavjud emas. Ammo ushbu shakl ba'zan faqat faktni bildirish uchun ham ishlatiladi. Matn kontekstga qarab "yo'qotganman" degan jumla achinish, xijolat yoki oddiy xabar ma'nosini anglatishi mumkin.

Yana bir misol — ingliz tilidagi **Past Simple zamonini tahlil qilamiz:**

She said she knew the number of her house.

Ushbu gapda "knew" (bilar edi) degan so'z voqea vaqtida ma'lumotga ega bo'lganligini bildirsa, o'zbek tilida bu ikki xil tarzda ifodalanadi:

U javobni bilgan edi.

U aytdi: "Men javobni bilaman."

Matn kontekstga qarab o'zbek tilida zamon shakli hozirgi zamon sifatida ham ishlatilishi mumkin, ayniqsa, bevosita nutqda. Bu esa matn jarayonida zamonning "siljishi"ni ko'rsatadi. Bundan tashqari, ingliz tilida **Future Continuous** zamoni ("I will be playing") ish harakat davomiyligini bildirsa, o'zbek tilida bu odatda "o'ynayotgan bo'laman" shaklida ifodalanadi. Ammo bu shakl o'zbek tilida har doim ham ishlatilavermaydi — ba'zan matn bu turdagi davomiylikni shunchaki "o'ynayman" shakli bilan ifodalash imkonini beradi. Demak, zamon formalarining talqini tilning grammatik tuzilmasi bilan bir qatorda, **kontekstga bog'liq holda semantik darajada ham o'zgaradi**. Bu til o'rganuvchilar til o'rgatuvchilar va tarjimonlar uchun muhim qiyinchiliklar tug'diradi.

Olmoshlar — bu ikki tildagi asosiy birliklaridan bo'lib, ular gapda shaxsni, narsani, joyni yoki miqdorni ko'rsatishda asosiy xizmat qiladi. Ammo ularning qo'llanilishi har doim ham grammatik ma'noga tayanmaydi aksincha, aksariyat hollarda olmoshlarning **kontekstual va madaniy talqini** muhim ahamiyat kasb etadi. Misol uchun, ingliz tilida "you" olmoshi yagona bo'lib, u rasmiy va norasmiy muloqotda ham qo'llanadi. Bu soddalik shunchaki olib qaralganda qulay tuyuladi, lekin matnda **hurmat yoki yaqinlik darajasini** aniqlash jarayonini qiyinlashadi. Bunday holatda **intonatsiya, tana tili va kontekst** asosiy vositaga aylanadi.

Could you please stay here? Sit here, please.

Ko'rinib turibdiki, har ikkala gapda ham "you" ishlatilgan bo'lsa-da, ohang va kontekst bu so'zning **hurmatli yoki buyrug' sifat** ekanini ko'rsatadi. O'zbek tilida esa "sen", "siz", "ular" kabi olmoshlari orqali shaxsga bo'lgan **munosabat, hurmat, rasmiylik yoki masofa** darajalari aniq ifodalanadi. Masalan: Siz menga kitobni olib bera olasizmi? — rasmiy, hurmatli Sen qayerga boryapsan? — norasmiy, yaqin do'st yoki bola.

Bundan tashqari, o'zbek tilida "biz" olmoshi ko'p hollarda **muomala yumshoqligi yoki indirekt ifoda** uchun ishlatiladi:

Biz hozir yo'lga chiqamiz. (aslida: "menyo'lga chiqman")



Biz bu yerni ko'rib chiqamiz. (aslida: "siz ko'rib chiqing" degan yumshoq buyruq)

**Tahlil va natijalar.** Ingliz tilida esa shu kabi uslubiy yumshoqlik asosan **modal fe'llar** ("could, would, may") yoki **ifodaviy iboralar** ("would you mind...") orqali beriladi. Bu farqlar **madaniy asosga** ega: ingliz tilida **individuallik**, o'zbek tilida esa **hurmat, jamiyatga moslashish** yuqori baholanadi. Shu sababdan, olmoshlarning ishlatilishi faqat grammatik emas, balki **madaniy-pragmatik kontekstga** ham bog'liq bo'ladi (Brown & Levinson, 1987). Til birliklarining matn kontekstida talqin qilinishi bo'yicha olib borilgan tahlil natijalari o'zbek va ingliz tillari o'rtasidagi semantik va pragmatik tafovutlarni chuqur anglash imkonini berdi. Tahlil davomida har ikki tildagi turli leksik, frazeologik va grammatik birliklar matn kontekstida qanday ma'nolarni ifodalashi, ularning funksional yuklamasi va stilistik xususiyatlari o'rganildi.

Birinchidan, o'zbek tilidagi til birliklari ko'proq ko'pma'nolilik (polisemantiklik) va obrazlilikka ega bo'lib, ularning matndagi talqini ko'p hollarda madaniy va konnotativ kontekstga tayanadi. Misol uchun, "ko'ngil" so'zi o'zbek adabiy matnlarida ruhiy holat, sevgi, muhabbat, istak, ranjish kabi ko'plab ma'nolarda ishlatiladi. Bu esa o'quvchidan madaniy va kontekstual bilimni talab qiladi.

Ikkinchidan, ingliz tilida til birliklari asosan aniq semantik chegaralarga ega bo'lib, matn kontekstida ko'proq mantiqiy aniqlik va funktsional samaradorlikka asoslanadi. "Heart" yoki "mind" so'zlari belgilangan semantik doirada ishlatiladi va o'zbek tilidagidek keng ma'no qatlamlariga ega emas. Bunday hollarda tarjimada to'g'ri kontekstni topish va ekvivalentlikni saqlash muhim bo'ladi.

Uchinchidan, har ikkala tilda ham frazeologizmlar va idiomatik birliklar kontekstda o'ziga xos ma'noga ega bo'lib, ularning noto'g'ri talqini butun matn mazmunining buzilishiga olib kelishi mumkin. Ingliz tilidagi "spill the beans" yoki o'zbek tilidagi "og'zidan chiqib ketmoq" iboralar matnda konkret voqeaga qarab turlicha ma'no kasb etadi.

To'rtinchidan, til birliklarining kontekstual talqini til o'rgatishda, tarjimada, madaniyatlararo muloqotda va diskurs tahlilida muhim vosita hisoblanadi. Ular nafaqat ma'no uzatadi, balki madaniy ko'rsatkich, ijtimoiy maqom, emotsional munosabatni ham ifodalaydi. Xulosa qilib aytganda, o'zbek va ingliz tillaridagi til birliklarining kontekstual talqini ularning madaniy asoslari, ma'no yuki va pragmatik funktsiyalarini o'rganishda muhim ilmiy manba hisoblanadi. Bu yondashuv tilshunoslik tadqiqotlarini yanada boyitadi. Til birliklarining matn kontekstida talqin qilinishi bo'yicha olib borilgan tahlil natijalari o'zbek va ingliz tillari o'rtasidagi semantik va pragmatik tafovutlarni chuqur anglash imkonini berdi. Tahlil davomida har ikki tildagi turli leksik, frazeologik va grammatik birliklar matn kontekstida qanday ma'nolarni ifodalashi, ularning funksional yuklamasi va stilistik xususiyatlari o'rganildi.

O'zbek tilidagi til birliklari ko'proq ko'pma'nolilik (polisemantiklik) va obrazlilikka ega bo'lib, ularning matndagi talqini ko'p hollarda madaniy va konnotativ kontekstga tayanadi. Misol uchun, "ko'ngil" so'zi o'zbek adabiy matnlarida ruhiy holat, sevgi, muhabbat, istak, ranjish kabi ko'plab ma'nolarda ishlatiladi. Bu esa o'quvchidan madaniy va kontekstual bilimni talab qiladi. Ingliz tilida til birliklari, asosan, aniq semantik chegaralarga ega bo'lib, matn kontekstida ko'proq mantiqiy aniqlik va funktsional samaradorlikka asoslanadi. "Heart" yoki "mind" so'zlari belgilangan semantik doirada ishlatiladi va o'zbek tilidagidek keng ma'no qatlamlariga ega emas. Bunday hollarda tarjimada to'g'ri kontekstni topish va ekvivalentlikni saqlash muhim bo'ladi.

Har ikkala tilda ham frazeologizmlar va idiomatik birliklar kontekstda o'ziga xos ma'noga ega bo'lib, ularning noto'g'ri talqini butun matn mazmunining buzilishiga olib kelishi mumkin. Ingliz tilidagi "spill the beans" yoki o'zbek tilidagi "og'zidan chiqib ketmoq" iboralar matnda konkret voqeaga qarab turlicha ma'no kasb etadi. Til birliklarining kontekstual talqini til o'rgatishda, tarjimada, madaniyatlararo muloqotda va diskurs tahlilida muhim vosita hisoblanadi. Ular nafaqat ma'no uzatadi, balki madaniy ko'rsatkich, ijtimoiy maqom, emotsional munosabatni ham ifodalaydi. Xulosa qilib aytganda, o'zbek va ingliz tillaridagi til birliklarining kontekstual talqini ularning madaniy asoslari, ma'no yuki va pragmatik funktsiyalarini o'rganishda muhim ilmiy manba hisoblanadi. Bu yondashuv tilshunoslik tadqiqotlarini yanada boyitadi. Ayniqsa, zamonaviy matnlarda — siyosiy nutqlar, ommaviy axborot vositalari, bloglar va reklama matnlarida — til birliklari ko'pincha manipulyativ, metaforik yoki ironik ma'noda ishlatiladi. Masalan, o'zbek tilida "xalq dardi" iborasi rasmiy nutqda jiddiy ijtimoiy muammolarni anglatishi mumkin bo'lsa, satirik matnda bu ibora kinoya va ijtimoiy tanqid vositasi sifatida qo'llanadi.

**Muhokama.** Ingliz tilidagi "people's issues" iborasi esa, kontekstga qarab, ijtimoiy adolat, huquq, yoki hatto, siyosiy marketing vositasi sifatida ham ishlatilishi mumkin. Bu farqlar matn kontekstida til birliklarining talqinini ancha murakkablashtiradi. Shuningdek, so'nggi yillarda til birliklarining intertekstual va intermedial kontekstlarda talqin qilinishi alohida ahamiyat kasb etmoqda. O'zbek adabiy matnlarida xalq og'zaki ijodidan olingan so'zlar yoki iboralar yangi zamonaviy kontekstlarda yangi ma'nolar bilan boyitilib, yangi estetik yuklamalar bilan yuzaga chiqmoqda. Ingliz tilida esa pop madaniyat, kino, internet memlari orqali keng tarqalgan iboralar matnga yangi konnotatsiyalar olib kiradi. Masalan, "to be or not to be" iborasi

adabiy kontekstda felsefiy muammolarni anglatadi, biroq zamonaviy ingliz matnlarida bu ibora ko'pincha kinoya yoki hazil sifatida ishlatiladi. Tahlil natijalariga ko'ra, til birliklarining kontekstda talqini ularning statik emas, balki harakatdagi, madaniy va diskursga bog'liq holatda mavjudligini ko'rsatmoqda. Har bir til birligi o'zining asosiy ma'nosidan tashqari, ijtimoiy, madaniy va emotsional ko'rinishlarga ham ega bo'lishi mumkin. Shu sababli, bunday tahlillar matn tahlili, pragmatika, tarjima nazariyasi, madaniyatlararo kommunikatsiya va kognitiv tilshunoslikda keng qo'llanilishi lozim.

**Xulosa.** O'zbek va ingliz tillaridagi til birliklarining kontekstual talqini ularning nafaqat grammatik, balki semantik, pragmatik va madaniy xususiyatlariga ham bevosita chambarchas bog'liqdir. Ushbu maqolada ko'rib chiqilgan zamon formasi, olmoshlar, bog'lovchilar hamda tinish belgilarining ishlatilishi shuni ko'rsatadiki, til birliklari kontekstda turlicha ma'no va yuklama kasb etishi mumkin. Biz shu kabi qo'shimcha til yuklamarini matn konteksida ishlatishimiz orqali gaplardagi izchillikka va mutunosiblikka erishamiz. Aksariyat ingliz tilida zamonlar ko'proq grammatikani asos qilib olgan bo'lsa, o'zbek tilida ularning talqini ko'proq nutqiy vaziyat va madaniy kontekstga tayangan. Xuddi shuningdek, olmoshlar va bog'lovchilar orqali ifodalanadigan hurmat, ohang va gap mazmuni ham kontekstga bog'liq ravishda o'zgaradi.

Til o'rganuvchilar, tarjimonlar va tilshunoslar uchun bu xususiyatlarni bilish va tahlil qilish muhim ahamiyatga ega, chunki u muloqotda noaniqliklar yoki noto'g'ri talqinlarning oldini olishga yordam beradi. Mazkur maqola til birliklarini pragmatik yondashuvda o'rganishga doir yondashuvni boyitadi va qiyosiy tahlilga asoslangan ilmiy ishlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Til birliklarining matn kontekstida talqin qilinishi — tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri bo'lib, u til va tafakkur, til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro munosabatni ochib berishga xizmat qiladi. O'zbek va ingliz tillaridagi til birliklari matn kontekstida turlicha semantik va pragmatik yuklama kasb etadi. Bu esa har bir tilning ichki qonuniyatlari, madaniy xususiyatlari va kommunikativ maqsadlar bilan bog'liqdir.

O'zbek tilida ko'p hollarda til birliklari ko'proq obrazlilik, kinoya, ramziy ma'no, konnotativ mazmun orqali boyitilsa, ingliz tilida esa aniqlik, ixchamlik va kontekstga bog'liq ravishda ko'proq strukturaviy ifoda ustuvorlik qiladi. Masalan, "ko'ngil" so'zi o'zbek tilida ko'plab ma'no qatlamlariga ega bo'lib, kontekstda turlicha talqin qilinadi: xushnudlik, mehr, yurak, ruhiy holat va boshqalar. Ingliz tilidagi "heart" yoki "mind" kabi so'zlar esa ma'nosi aniq va kontekst asosida tor doirada ishlatiladi. Mazkur mavzuni o'rganish jarayonida aniqlanganki, har ikki til matnida til birliklarining talqini faqat lug'aviy ma'no bilan emas, balki madaniy kontekst, kommunikativ vaziyat, muallifning niyati va o'quvchining bilim darajasiga qarab ham o'zgarishi mumkin.

Bu esa tarjima, til o'rgatish, pragmatika, sotsiolingvistika kabi sohalarida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, til birliklarini to'g'ri talqin qilish va tahlil etish uchun kontekstual yondashuv zarur. Bu yondashuv matnning mazmunini chuqur anglash, madaniy tafovutlarni hisobga olish va interaktivlikni oshirishga xizmat qiladi. O'zbek va ingliz tillaridagi til birliklari kontekstda qanday ishlatilishini chuqur tahlil qilish esa xalqaro madaniyatlararo muloqotni mustahkamlashga yordam beradi.

### ADABIYOTLAR:

1. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). *Politeness: Some universals in language usage*. Cambridge University Press.
2. Crystal, D. (2003). *The Cambridge encyclopedia of the English language* (2nd ed.). Cambridge University Press.
3. Halliday, M. A. K., & Hasan, R. (1976). *Cohesion in English*. London: Longman.
4. Jo'rayev, N. (2010). *Hozirgi o'zbek adabiy tili: Sintaksis*. Toshkent: Fan.
5. Leech, G. (1983). *Principles of pragmatics*. London: Longman.
6. Nurmukhamedov, U. (2021). Teaching modal verbs for polite requests: An ESL perspective. *TESOL Journal*, 12(3), 88–101. <https://doi.org/10.1002/tesj.565>
7. Yo'ldoshev, A. (2006). *Tilshunoslikka kirish*. Toshkent: O'zMU nashriyoti.
8. Yule, G. (1996). *Pragmatics*. Oxford University Press.

O‘ZBEK TILI LEKSIK BIRLIKLARINING GRAMMATIK TAHLILI VA POS  
TEGLASHNING NAZARIY ASOSLARI**Karimova Zilola Dilmurod qizi,***Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek  
tili va adabiyoti universiteti Kompyuter  
lingvistikasi mutaxassisligi magistranti  
karimovazilola791@gmail.com*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola o‘zbek tili leksik birliklarining grammatik xususiyatlari va ularni avtomatik tarzda Part-of-Speech (POS) teglash jarayonidagi nazariy va amaliy muammolarini chuqur tahlil qiladi. Maqolada so‘z turkumlarining morfologik, sintaktik va semantik mezonlarga asoslangan tasnifi, ayniqsa, ravish va olmosh turkumlariga xos grammatik ko‘rsatkichlar yoritilib, ularning avtomatik identifikatsiyasi uchun zarur bo‘lgan tilshunoslik va texnik yondashuvlar bayon etiladi. Zamonaviy kompyuter lingvistikasi vositalari, xususan, neyron tarmoqlar, statistik modellar (HMM, CRF) va chuqur o‘rganish algoritmlarining o‘zbek tili uchun moslashtirish masalalariga alohida e‘tibor qaratadi. Maqolada o‘zbek tilining agglutinatив xususiyati, omonim birliklarning ko‘pligi va grammatik turlanishlarning murakkabligi POS teglash jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolar sifatida baholanadi. POS teglashda qoidaviy va statistik metodlarning cheklovlari, shuningdek, chuqur o‘rganilgan modellar (masalan, BERT, BiLSTM)ning afzalliklari asosli ravishda tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** leksik birlik, POS teglash, grammatik tahlil, o‘zbek tili, mashinali o‘qitish, so‘z turkumlari, neyron tarmoqlar, leksik modellar, NLP tizimlari.

ГРАММАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА И  
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ POS-РАЗМЕТКИ

**Аннотация.** В данной статье глубоко анализируются грамматические особенности лексических единиц узбекского языка, а также теоретические и практические проблемы процесса их автоматической разметки Part-of-Speech (POS). В статье рассматривается классификация частей речи на основе морфологических, синтаксических и семантических критериев, особенно грамматических показателей, характерных для наречий и местоимений, и излагаются лингвистические и технические подходы, необходимые для их автоматической идентификации. Особое внимание уделяется вопросам адаптации современных средств компьютерной лингвистики, в частности, нейронных сетей, статистических моделей (HMM, CRF) и алгоритмов глубокого обучения для узбекского языка. В статье агглютинативные свойства узбекского языка, обилие омонимичных единиц и сложность грамматических форм оцениваются как основные проблемы, возникающие в процессе POS-разметки. Обоснованно анализируются ограничения правилых и статистических методов в POS-разметке, а также преимущества моделей глубокого обучения (например, BERT, BiLSTM).

**Ключевые слова:** лексическая единица, POS-разметка, грамматический анализ, узбекский язык, машинное обучение, части речи, нейронные сети, лексические модели, системы NLP.

GRAMMATICAL ANALYSIS OF LEXICAL UNITS IN THE UZBEK LANGUAGE AND  
THEORETICAL FOUNDATIONS OF POS TAGGING

**Abstract.** This article provides an in-depth analysis of the grammatical features of lexical units in the Uzbek language and the theoretical and practical challenges in the process of automatic Part-of-Speech (POS) tagging. The article covers the classification of parts of speech based on morphological, syntactic, and semantic criteria, with particular emphasis on grammatical indicators specific to adverbs and pronouns. It describes the linguistic and technical approaches necessary for their automatic identification. Special attention is given to the issues of adapting modern computational linguistics tools, particularly neural networks, statistical models (HMM, CRF), and deep learning algorithms for the Uzbek language. The article assesses the agglutinative nature of the Uzbek language, the abundance of homonymous units, and the complexity of grammatical variations as the main challenges arising in the process of POS tagging. The

*limitations of rule-based and statistical methods in POS tagging, as well as the advantages of well-studied models (such as BERT and BiLSTM), are thoroughly analyzed.*

**Keywords:** lexical unit, POS tagging, grammatical analysis, Uzbek language, machine learning, parts of speech, neural networks, lexical models, NLP systems.

**Kirish.** Zamonaviy kompyuter lingvistikasi tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) vositalari yordamida til birliklarini aniqlash va tahlil qilishda muhim vositaga aylandi. Xususan, Part-of-Speech (POS) teglash — tilshunoslik va sun'iy intellekt chorrahasida turgan asosiy texnologiyalardan biridir[1].

O'zbek tili morfologik jihatdan murakkab, agglutinatив xususiyatga ega bo'lib, so'zlar ko'plab grammatik ma'no yuklovchi affikslar yordamida shakllanadi. Shu boisdan bu tilda so'z turkumlarini avtomatik aniqlash umumiy yondashuvlardan ko'ra o'ziga xos usullarni talab etadi.

Maqolada leksik birliklarning turkumlanishi, grammatik kategoriyalari, va ularni POS teglash jarayonidagi dolzarb muammolar chuqur ko'rib chiqiladi. Tadqiqot kompyuter lingvistikasining nazariy asoslariga tayanadi va amaliy model yechimlarini taklif etadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** O'zbek tilshunosligida teglash masalasi bo'yicha amaliy va nazariy ishlar olib borilmoqda. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kompyuter lingvistikasi kafedrası o'qituvchilari tomonidan POS teglash bo'yicha bir qancha ishlar olib borilmoqda. Xususan, B.Elov, Sh.Xamroyeva, N.Xudoyberganov, O.Abdullayeva, D.Elova va boshqalarning ishlari diqqatga sazovordir. POS teglash – bu berilgan gapdagi har bir so'z shakliga uning turkum (ot, fe'l, sifat, son, ravish yoki olmosh)ga mansubligini belgilash (teglash) vazifasidir. POS teglash tabiiy tilga ishlov berish (Natural Language Processing, NLP) sohasining asosiy vazifalaridan biri bo'lib, pipeline konveyerining muhim bosqichi hisoblanadi. POS teglash korpusdagi har bir so'zga grammatik kategoriya belgilashni o'z ichiga oladi. Ya'ni so'zning morfologik xususiyatlarini aniqlashda ushbu teglashdan foydalanish samarali hisoblanadi. Ushbu teglashda otlar, fe'llar, sifatlar, ergash gaplar, olmoshlar, bog'lovchilar, yuklamalar va boshqalarni teglashni kiritish mumkin. POS belgilari jumla tuzilmalarini tahlil qilish va lingvistik tadqiqotlar o'tkazishda yordam beradi. O'zbek maxsus lingvistik korpuslarini tuzish va ularni teglash masalasi bo'yicha Sh.Hamroyeva, N.Abdurahmonova M.Abjalova A.Eshmo'minov Sh.Gulyamova, O.Abdullayeva, D.Elova kabilarning tadqiqotlari alohida ahamiyatga molik.

Zamonaviy texnologiyalar, jumladan, kompyuter lingvistikasi sohasida ravish so'z turkumini avtomatik aniqlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda Part-of-Speech (POS) teglash algoritmlaridan foydalaniladi. POS teglash jarayonida tilning o'ziga xos morfologik va sintaktik xususiyatlari inobatga olinadi, bu esa lingvistik modellarni samarali qo'llashni talab qiladi[2].

So'z turkumlari tilshunoslikda tilning grammatik tizimini tushunishga yordam beradigan asosiy konseptlardan biridir. Ravish (pronominal) so'z turkumi, o'zining grammatik funksiyasi va strukturasi jihatidan boshqa so'z turkumlaridan farq qiladi[3]. Ravish so'zlarning grammatik teglashini avtomatik ravishda amalga oshirish esa tilni tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega, chunki bu jarayon tilning sintaktikva semantik tuzilishini anglash uchun zarur bo'lgan asosiy bosqichlardan biridir[4]. Maqolada ravish so'z turkumini grammatik POS teglash algoritmlari, lingvistik modellari, ularning turlari va metodologiyalari haqida so'z boradi.

**Tahlil va natijalar.** O'zbek tilida POS teglash jarayoni tilning agglutinatив tuzilishi tufayli murakkab bo'lib, so'zning shakli ko'plab grammatik ma'no yuklovchi qo'shimchalar orqali yuzaga keladi.

Fe'l, sifat, son, ravish, olmosh kabi so'z turkumlari o'ziga xos grammatik kategoriyalarga ega bo'lib, ularning avtomatik ravishda aniqlanishi maxsus korpuslarga asoslangan modellar orqali amalga oshiriladi.

O'zbek tilidagi ko'plab so'zlar kontekstual noaniqlikka ega: masalan, "yaxshi" so'zi sifat ham, ravish ham bo'lishi mumkin. Bu holat neyron modellar, xususan BERT kabi transformerlarga asoslangan yondashuvlar orqali aniqlanishi mumkin[5].

POS teglashda qo'llaniladigan metodlar orasida qoidaviy, statistik va chuqur o'rganilgan yondashuvlar mavjud. Ularning har biri afzallik va kamchiliklarga ega.

**1-jadval. Leksik birliklarning grammatik kategoriyalari**

| Leksik birlik | Grammatik kategoriya | Namuna                      |
|---------------|----------------------|-----------------------------|
| Fe'l          | Zamon, shaxs, nisbat | <i>yurdi, boryapti</i>      |
| Sifat         | Daraja, nisbat       | <i>yaxshi, eng chiroyli</i> |
| Ravish        | Payt, holat, miqdor  | <i>bugun, sekin</i>         |
| Olmosh        | Shaxs, ko'plik       | <i>men, ular</i>            |
| Son           | Tartib, miqdor       | <i>bir, uchinchi</i>        |
| Ot            | Shaxs, narsa         | <i>quruvchi, gul</i>        |



Jadval tilshunoslikdagi morfologik tahlil mezonlariga asoslanadi va har bir birlikning sintaktik-vazifaviy xususiyatlarini ochib beradi.

Fe'l – harakat, holat yoki voqelikni bildiruvchi asosiy mustaqil soʻz turkumi boʻlib, u zamon (oʻtmish, hozirgi, kelasi), shaxs (birinchi, ikkinchi, uchinchi) hamda nisbat (ergativ, refleksiv va h.k.) kategoriyalarida morfologik jihatdan tahlil qilinadi. Masalan: yurdi, boryapdi.

Sifat – predmetning belgi-xossasini bildiruvchi soʻzlar boʻlib, ular daraja (oddiy, orttirma, eng yuqori) va nisbat (narsaga yoki shaxsga nisbatan) kategoriyalarida oʻzgaradi. Masalan: yaxshi, eng chiroyli.

Ravish – harakatning bajarilish usuli, holati, vaqti yoki miqdorini bildiradi. Ravishlar koʻpincha payt, holat, miqdor kategoriyalari asosida tahlil qilinadi. Masalan: bugun, sekin.

Olmosh – ot, sifat, son va ravishlarning oʻrnini bosib, ular oʻrniga ishlatiladigan soʻz turkumidir. Asosiy grammatik kategoriyalari shaxs va koʻplikdir. Masalan: men, ular.

Son – miqdoriy va tartibiy tushunchalarni ifodalaydi. Miqdor (bir, ikki, uch) va tartib (birinchi, ikkinchi) kategoriyalarida namoyon boʻladi. Masalan: bir, uchinchi.

Ot – mavjudot, narsa, tushuncha yoki shaxs nomini bildiruvchi soʻz turkumi boʻlib, u shaxs va narsa kategoriyalarida tasniflanadi. Masalan: quruvchi, gul[6].

Oʻzbek tilida POS teglash — bu tilshunoslik va kompyuter texnologiyalari chorrahasida joylashgan murakkab tahliliy jarayonlardan biridir. POS teglash jarayonida har bir leksik birlik oʻz grammatik turkumiga koʻra belgilanishi lozim. Ammo oʻzbek tilining agglutinatив xususiyati va koʻp shakllilik imkoniyatlari tufayli soʻzlarning grammatik turkumini aniqlash koʻp hollarda kontekstga bogʻliq boʻladi. Bu holat, ayniqsa, omonim birliklarda yaqqol namoyon boʻladi. Masalan, “tez” soʻzi sifat ham, ravish ham boʻlishi mumkin: Tez yugurdi (ravish) va Tez mashina keldi (sifat)[7].


POS teglashdagi muammolarni bartaraf etish uchun bir nechta yondashuvlar mavjud. Birinchi yondashuv — bu qoidaviy tahlilga asoslangan metod boʻlib, bunda har bir morfologik shakl va grammatik koʻrsatkich uchun alohida qoidalar tuziladi. Biroq bu yondashuv oʻzbek tilining murakkab soʻz yasash tizimi sababli yetarlicha moslashuvchan emas. Ikkinchi yondashuv — statistik modellar asosidagi tahlil boʻlib, bu yerda soʻzlarning ehtimollik asosidagi ketma-ketligi aniqlanadi (masalan, HMM va CRF modellarida)[8].

Uchinchi va eng zamonaviy yondashuv — bu chuqur oʻrganilgan neyron tarmoqlarga asoslangan modellar (BERT, BiLSTM, GPT va h.k.) boʻlib, ular matnni kontekstda toʻliq tahlil qiladi. Aynan shunday modellar orqali soʻzlarning kontekstual rolini hisobga olib, yuqori aniqlikda POS teglashga erishish mumkin. Oʻzbek tilida bu kabi modellar uchun moslashtirilgan Annotatsiyalangan Korpuslar mavjud boʻlmasa-da, Universal Dependencies Treebank kabi tashqi manbalar asosida oʻrgatish mumkin.

Shuningdek, POS teglash jarayonida soʻzning turlanish shakllari, feʼlning zamoni, olmoshlarning shaxs va koʻplik shakllari, sonlarning tartibiy va miqdoriy koʻrinishlari, sifat va ravishlarning daraja holatlari tahlil uchun asosiy ahamiyatga ega. Bu grammatik kategoriya va ularning oʻzaro bogʻliqligi avtomatik teglashning aniqligini belgilab beradi.

## POS teglashda modellardan foydalanish.

POS teglashda modellardan foydalanish ulushi



[9]

**Xulosa.** Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi muhim xulosalarga kelish mumkin: Oʻzbek tilining leksik birliklari grammatik jihatdan murakkab tizimga ega boʻlib, ularning avtomatik tarzda belgilanishi

zamonaviy NLP tizimlarida alohida muammo hisoblanadi. Ayniqsa, omonim birliklarning ko'pligi, shakl jihatdan o'xshash so'z turkumlari, kontekstual o'zgaruvchanlik — bularning barchasi POS teglash aniqligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Biroq zamonaviy neyron yondashuvlar, statistika asosidagi modellar va qoida asosidagi tizimlarning uyg'unlashuvi orqali bu muammolarni minimallashtirish mumkin. O'zbek tilining grammatik xususiyatlarini to'liq hisobga olgan holda ishlab chiqilgan chuqur o'rgatilgan teggerlar tilning raqamli makonda faol ishtirokini ta'minlaydi.

Kelgusida: Annotatsiyalangan korpuslar bazasini kengaytirish; POS teglash uchun yangi neyron arxitekturalarni sinovdan o'tkazish; Tilshunoslar va dasturchilar hamkorligida qoidaviy modellarga asoslangan tizimlarni yaratish — bu sohaning asosiy vazifalaridan biridir[10].

O'zbek tilining morfologik murakkabligi POS teglashni qiyinlashtiradi. Ammo zamonaviy neyron tarmoqlar, korpus lingvistikasi va mashinali o'qitish modellarining qo'shilishi bu sohadagi muammolarni hal etishga imkon beradi.

Kelajakda o'zbek tiliga mos, chuqur o'rgatilgan POS teggerlar yaratish, turli korpuslarni kengaytirish, teglash sxemalarini ishlab chiqish tilni avtomatik qayta ishlashda katta yutuqlarga olib keladi.

### ADABIYOTLAR:

1. Jurafsky D., Martin J.H. *Speech and Language Processing*. 3rd Ed. – Pearson, 2020.
2. Toshpo'latov Z. *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. – T.: Fan, 2017.
3. Brants T. *TnT – A Statistical Part-of-Speech Tagger*. – ANLP, 2000.
4. Manning C.D., Schütze H. *Foundations of statistical NLP*. – MIT Press, 1999.
5. Roepke B. *A Quick Guide to POS Tagging*. – 2021.
6. Ne'matov H., Rasulov R. *O'zbek tili system leksikologiyasi asoslari*. – T.: Fan, 1975.
7. Devlin J. et al. *BERT: Pre-training of deep bidirectional transformers for language understanding*. – NAACL, 2019.
8. Habash, N. (2010). *Introduction to Arabic natural language processing*. Morgan & Claypool Publishers. (8-9)
9. Mikolov, T., Sutskever, I., Chen, K., Corrado, G. S., & Dean, J. (2013). *Distributed representations of Words and phrases and their Compositionality*. // *In Advances in Neural Information Processing Systems* (pp. 3111–3119).
10. Pennington, J., Socher, R., & Manning, C. D. (2014). *GloVe: Global Vectors for Word Representation*. // *In Proceedings of the Empirical Methods in Natural Language Processing (EMNLP)* (pp. 1532–1543).

REKLAMANING KELIB CHIQISHI VA UNING RIVOJLANISHIGA BO'LGAN  
DASTLABKI YONDASHUVLAR

**Mo'minova Muhayyo Abdumurot qizi,**  
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti  
abdumuratovamuhayyo@gmail.com

**Annotatsiya.** Reklama bir necha asr davomida iste'molchilar ehtiyojlarini shakllantirish va brendlar o'rtasidagi raqobatni kuchaytirish uchun qudratli vositaga aylandi. Ushbu maqolada reklamaning paydo bo'lishi va rivojlanishiga bo'lgan dastlabki yondashuvlar tahlil qilinadi. Maqolada reklama san'atining tarixiy ildizlari, uning ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan aloqasi, dastlabki reklama strategiyalari va ularning rivojlanishi o'rganiladi. Shuningdek, reklamaning turli davrlarda madaniy va lingvistik jihatdan qanday o'zgarishlarga uchragani tahlil etiladi. Reklamaning mohiyati uning psixologik va madaniy jihatlarini inobatga olgan holda bir nechta misollar yordamida yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** reklama, reklama matni, qadimgi reklama matnlari, brend, reklamaning lingvistik xususiyatlari, reklamaning madaniy xususiyatlari.

THE ORIGINS OF ADVERTISING AND FORMATIVE APPROACHES TO ITS PROGRESS

**Abstract.** Advertising has evolved over several centuries into a powerful tool aimed at shaping consumer demands and intensifying competition among brands. This article analyzes the emergence and early approaches to the development of advertising. The article examines the historical roots of the art of advertising, its connection to socio-economic factors, and the impact of early advertising strategies and their evolution. Additionally, it analyzes how advertising has undergone certain changes in different eras in terms of its cultural and linguistic features. The essence of advertising is illustrated through several examples, considering its psychological and cultural aspects.

**Keywords:** advertising, advertising text, ancient advertising texts, brand, linguistic features of advertising, cultural features of advertising.

ИСТОКИ РЕКЛАМЫ И ФОРМИРУЮЩИЕ ПОДХОДЫ К ЕЁ РАЗВИТИЮ

**Аннотация.** Реклама за несколько столетий эволюционировала в мощный инструмент, направленный на формирование потребительского спроса и усиление конкуренции между брендами. В данной статье анализируются возникновение и ранние подходы к развитию рекламы. Рассматриваются исторические корни искусства рекламы, его связь с социально-экономическими факторами, а также влияние ранних рекламных стратегий и их эволюция. Кроме того, анализируется, как реклама претерпевала определённые изменения в разные эпохи с точки зрения её культурных и языковых особенностей. Сущность рекламы иллюстрируется на нескольких примерах с учётом её психологических и культурных аспектов.

**Ключевые слова:** реклама, рекламный текст, древние рекламные тексты, бренд, языковые особенности рекламы, культурные особенности рекламы.

**Kirish.** Reklama – ijtimoiy-iqtisodiy jarayonning ajralmas qismidir. U biznes va iste'molchi o'rtasida aloqani o'rnatish davrida muhim rol o'ynaydi. Reklamaning paydo bo'lishi va taraqqiyoti haqida turli yondashuvlar mavjud, bu esa uning ahamiyatini yanada oshiradi. Reklama insoniyat tarixida axborot almashinuvi va ommaviy kommunikatsiyaning eng qadimiy shakllaridan biri hisoblanadi. U o'zining ilk ko'rinishlarida ham ma'lum bir auditoriyani xabardor qilish, e'tiborini jalb etish, yoki sotish jarayonini rag'batlantirish kabi vazifalarni bajargan. Tarixiy manbalar shuni ko'rsatadiki, reklama matnlarining dastlabki namunalari miloddan avvalgi 3000-yillarga taalluqli bo'lib, qadimgi Misr papiruslarida qullar haqida e'lonlar, yoki Rim imperiyasida devor yozuvlari shaklida uchragan (Presbrey, 1929).

Qadimiy reklama matnlari o'zining madaniy va lingvistik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ular jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy tuzilmalarga, diniy e'tiqodlarga va iqtisodiy faoliyatlarga qarab turlicha shakllanadi. Biroq, barcha qadimiy reklama matnlarida bir umumiy jihat mavjud — ularning maqsadi auditoriyani ma'lum bir axborot bilan tanishtirish va xabarni tezda yetkazishdir. Qadimgi reklama matnlaridagi lingvistik vositalar asosan yuqori darajada to'g'ridan-to'g'ri va aniqlik bilan tuzilgan bo'lgan.

Reklama matnlari ko‘pincha ma‘lum bir mahsulot yoki xizmatni sotishni rag‘batlantirish yoki yordam so‘rash maqsadida yozilgan, shuning uchun ularning tuzilishi va tili aniq va maqsadga yo‘naltirilgan. Misol uchun, Qadimgi Misr papiruslarida qullar yoki xizmatlar haqida e‘lonlar ishlatilgan. Bu reklama matnlarining sintaktik tuzilishi ko‘pincha soddaligi bilan ajralib turadi, chunki ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri amaliy axborotni etkazish uchun xizmat qilgan. Misol:

"Qochgan qul topilsa, mukofot beriladi. Egasi — Hapu."

Bu matnda, sintaktik jihatdan, predikativ tuzilma "topilsa, mukofot beriladi" aniq va qisqa ifodalangan. Fe‘l va predikatning soddaligi auditoriyani tezda harakatga keltirishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, Rim imperiyasida reklama ko‘pincha yopiq va sirli tarzda bo‘lgan. Masalan, devor yozuvlari orqali reklama e‘lonlari berilgan bo‘lib, ularning maqsadi shunchaki jamiyatga umumiy axborot yetkazish emas, balki ma‘lum bir kulturani targ‘ib qilish edi. Sintaktik jihatdan bu matnlar ko‘proq rivojlangan, ozroq ellipsalarning (tushirib qolish) ishlatilgan ifodalariga ega bo‘lgan. Masalan:

"Rimning eng yaxshi kulolchisi: jahonning eng chiroyli buyumlari sizni kutmoqda."

Bu tarzda reklama matnlari, o‘z navbatida, metafora va rivojlangan predikativ tuzilmalar orqali auditoriyani ko‘proq jalb qilishga qaratilgan.

Qadimgi reklama matnlaridagi sintaktik vositalar ko‘pincha soddalik va aniqlikka asoslangan. Biroq ba‘zi hollarda reklama tilida ellipsalar (so‘z yoki gapning qisqartirilishi) yoki repetitsiyalar (takrorlanish) keng qo‘llanilgan, chunki bu auditoriyani xabarga diqqatini jalb qilishda yordam beradi. Sintaktik vositalarning bunday ishlatilishi matnning ta‘sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

Qadimgi Misr e‘lonlari misolida:

- Yuzaki tarzda: "Qochgan qul topilsa, mukofot beriladi."
- Rivojlangan tarzda: "Topilsa, mukofot beriladi, mukofotni olish uchun shu manzilga boring."

Bu ikki matn orasidagi farq, sintaktik jihatdan, ikkinchisida qo‘shimcha izohlar va yo‘riqnomalar orqali axborotni aniqroq yetkazishga xizmat qilgan. Birinchi misol qisqacha, ikkinchisi esa o‘quvchining ta‘limotga bo‘lgan ehtiyojini qondiradi.

Qadimiy reklama matnlarida ishlatilgan sintaktik vositalar va ularning tuzilishi ko‘pincha jamiyatning madaniy va iqtisodiy ehtiyojlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Masalan, Rimdagi reklama ko‘pincha ko‘proq sotsial daraja va statusni aks ettirishga qaratilgan bo‘lsa, Qadimgi Misrda matnlar ko‘proq praktik ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan edi. Bu reklama matnlaridagi sintaktik strukturalar, o‘z navbatida, auditoriyaning kognitiv va madaniy ehtiyojlariga mos ravishda tuzilgan.

Reklama tushunchasining eng oddiy shakllari, bizning eramizdan oldin qadimgi Rimda gladiatorlar janglari, qullar va uy hayvonlari savdosi haqidagi e‘lonlar ko‘rinishida mavjud bo‘lgan. Dunyoning qadimiy davlatlarida ma‘lumot tarqatishning muhim vositalaridan biri jarchilar bo‘lib, ular orqali siyosiy chaqiriqlar, tanqidlar, mashhur qo‘mondonlarni sharaflash va sof tijorat reklamalari kabi turli ma‘lumotlar tarqatilgan. Dastlabki reklamalar o‘ziga jalb qiluvchi bir necha rangli va murakkab tasvirlardan iborat bo‘lib, unda oq-qora matnlardan foydalanilmagan. Madaniyat rivojlanishining dastlabki bosqichlarida reklama yozma matn shaklida paydo bo‘la boshlagan. Reklama tarixida 1440- yilda Iogan Gutenberg almashtirib bo‘ladigan harf-shriftni ixtiro qilib, reklama sohasini yangi bosqichga olib chiqdi. Reklama rivojlanishidagi yangi sifat bosqichi 1450- yilda Gutenberg tomonidan bosmaxonaning paydo bo‘lishi va matbaa ixtirosi bilan boshlandi. Birinchi marta reklama maqsadida matbuot afishalari, varaqalar va gazeta e‘lonlari ushbu ixtiro tufayli yuzaga keldi. Keyinchalik, fotografiya paydo bo‘lishi bilan reklama matni fotosuratlar bilan to‘ldirila boshladi, bu esa ma‘lumotlarning ishonchlilik va haqiqatini hamda jozibadorligini oshirdi. 1704- yilda "Boston nyusletter" gazetasida dastlabki reklama e‘lonlari chop etila boshlanadi. 1844 -yilda "Sazern Massenjer" jurnalida birinchi marta jurnal reklamalari bosilib chiqadi. Yillar o‘tishi bilan asta-sekin rivojlanish natijasida ilk reklama agentliklari paydo bo‘ldi. Haqiqiy ma‘nodagi reklama agentligi 1841- yilda Filadelfiyada Uolna Palmer tomonidan tashkil etilgan bo‘lib, shu yili bu reklama agentligi o‘z tijorat faoliyatini boshlaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Reklama so‘zining kelib chiqishi va lug‘aviy ma‘nosiga etibor beradigan bo‘lsak, o‘zbek tilining izohli lug‘atida reklama so‘zi "Reklama (fr. *reclamer* < lot. *reklamere* – qattiq qichqirmoq)- muayyan tovar yoki xizmat turlari haqida xaridorni xabardor qilish, ularga nisbatan talab ehtiyojini yuzaga keltirish yoki kuchaytirish maqsadida ana shu tovar va xizmatlar to‘g‘risida berilgan ma‘lumot" [1, 373] deya ta‘riflangan.

Y.V. Medvedeva o‘zining "Reklama aloqalari" kitobida quyidagicha o‘zbek tilida reklamalar yondashadi: "Reklama – bu ommaviy yo‘naltirishning bir turi bo‘lib, unda bir yo‘nalishga ega va shaxsiy bo‘lmagan ma‘lumotli, majoziy, ekspressiv taklif qiluvchi matnlar yaratiladi va tarqatiladi, reklama beruvchi tomonidan moliyalashtiriladi va odamlar guruhlariga yuboriladi. Reklama beruvchining tanlovi va xatti-harakati munosib baholanadi." [2, 279]. Ushbu ta‘rif barcha reklama turlari (tijorat, ijtimoiy va siyosiy, hatto



reklama maqolalari va jamoat munosabatlari) ga xos matnlarni qamrab olgan bo'lib, reklamaning maqsadga muvofiqligi, ya'ni reklamaning shaxsga ma'lum shartlar yoki muayyan harakatlar uchun turtki yaratish maqsadidagi ta'siri haqida fikr yuritadi. Reklama matnidagi taklifning maqsadi iste'molchi his-tuyg'ulariga va ular orqali shaxsning irodasi va ongiga ta'sir qilishdir. L.G. Feshchenko, "reklama matni marketing kommunikatsiyasi sohasida faoliyat yuritadigan kommunikativ birlik" ekanligini ta'kidlaydi [3, 154].

F. Kotlarning ta'rifiga keladigan bo'lsak, diaxron nazariya hisobga olinmaganligi ko'rinib turibdi. Nemis tilshunosi R. Harveg o'z davrida matn lingvistikasini to'liq ilmiy asoslash va tadqiq qilish uchun kamida yuz yil kerakligini to'g'ri ta'kidlagan edi [4, 25].

Stuart Hallning kodlash va dekodlash nazariyasidan kelib chiqib, reklama turli zamonlarda o'z auditoriyasiga har xil semantik "xabar" yetkazgan va bu jarayonda til va madaniyatning roli muhim hisoblanadi [5, 232-233].

Stuart Hallning kodlash va dekodlash nazariyasi media va kommunikatsiya tadqiqotida muhim o'rin tutadi. U, asosan, media matnlarini qanday qilib ishlab chiqarish (kodlash) va ularning qanday qabul qilinishi (dekodlash) jarayonlarini o'rganadi. Quyida bu nazariyaga oid bir nechta misollar keltirilgan:

Bir reklama kompaniyasi mahsulotni ma'lum bir tarzda taqdim etadi (kodlash). Masalan, bir avtomobil reklamasida xavfsizlik va qulaylik ko'rsatilgan bo'lsa, tomoshabinlar bu xususiyatlarni turli xil usullarda (dekodlash) talqin qilishlari mumkin: ba'zi tomoshabinlar avtomobilni oila uchun xavfsiz deb hisoblasa, boshqalari esa uni zamonaviylik va status belgisi sifatida ko'rishi mumkin.

Adorno, "Reklama va madaniyat" asarida reklamaning psixologik va lingvistik ta'sirini tahlil qilgan. U reklama tilining manipulyatsiya va boshqarish funksiyasini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, reklama matnlarida ishlatiladigan sintaktik vositalar (buyruqlar, takrorlashlar, soddalashgan iboralar) auditoriyani psixologik jihatdan manipulyatsiya qilish maqsadida ishlatiladi. Bu vositalar orqali reklama o'z maqsadlariga erishishga harakat qiladi, ya'ni mahsulotni sotib olishga yoki brendga jahon miqyosida bog'lanishga undaydi.

Adorning fikridan iqtibos:

"Reklama tili shunchaki mahsulotni tavsiflab berish emas, balki auditoriyaning ongi bilan o'ynash, ularni o'z manfaatlariga mos ravishda shakllantirishdir. Sintaktik soddalashuv va takrorlanish bu jarayonni amalga oshirishda eng samarali vositalardir." [6]

Yurtimizda reklamaning o'sish tarixi bosqichlariga nazar tashlaganda, uning ildizlari juda qadimgi davrlarga borib taqalishini ko'rishimiz mumkin. Ko'plab tarixchilar reklamaning axborot yetkazuvchi vosita sifatidagi asosini qadimgi sivilizatsiyalardan boshlangan deb hisoblashadi. Bu fikrni uzoq tarixga asoslanib, sopol, yog'och yoki toshda yozilgan yozuvlar, shahar ko'chasidagi peshlavhalar reklamaning dastlabki shakllari sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi. O'sha paytlarda aholining aksariyati o'qish va yozishni bilmagan, shuning uchun reklama ko'proq tasviriy shaklda amalga oshirilgan. Masalan, poyafzal ustaxonalarida biror oyoq kiyimining osib qo'yilishi bunday "ibtidoiy usul"ning misolidir. Qadimda buyumlarga turli belgi va ma'lumotlar qo'yilgan. Kulolchilik buyumlariga xattotlar reklama vazifasini bajara oladigan shakllarni qo'shgan. Xalq bozorlarida sotuvchilarning o'z mahsulotlari haqida baland ovozda maqtashlari ham qadim zamonlardan reklamaning dastlabki ko'rinishlaridan biri sifatida qabul qilinadi. Yevropa madaniyati asosida shakllangan reklama davridan farqli o'laroq, Osiyoda, xususan, O'zbekistonda reklamaning paydo bo'lishi va taraqqiyotiga nazar tashlaydigan bo'lsak, har bir davrning o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sharoitlari hisobga olinib, bir necha bosqichlarga ajratiladi.

### 1. Ashyo-savdo davri (Qadimiy O'lka)

O'zbekistonda reklamaga o'xshash dastlabki tushunchalarni qadimgi savdo munosabatlari davrida kuzatish mumkin. O'zbekiston hududida joylashgan qadimiy shaharlarda (masalan, Buxoro, Samarkand, Tashkent) savdo-sotiq aloqalari rivojlangan. Bu davrda savdogarlar o'z mahsulotlarini qandaydir so'zlar va belgilashlar orqali reklama qilganlar. Misol uchun, savdo joylari atrofida bannerlar yoki boshqa belgilashlar qo'yilgan.

### 2. Rivojlanish davri

XIX asrga kelib O'zbekistonda rus imperiyasining ta'sirining kuchayishi, savdo aloqalarning kengayishi natijasida bakalavriyat darajasida reklama jarayonlari boshlandi. Bu davrda gazeta va jurnallar ko'paydi va ularda yangiliklarni e'lon qilish, mahsulotlarni reklama qilish shug'ullanila boshlandi. O'zbekistondagi dastlabki gazetalar, masalan, "Tashkent" (1868- yilda nashr etilgan) va "Turkiston viloyati gazetasi" (1865- yilda nashr etilgan) reklama joylash uchun bir maydon bo'lib xizmat qildi.

### 3. Sovet davri (1924-1991)

O'zbekiston Sovet Ittifoqiga qo'shilgandan so'ng, reklama jarayonlari ko'plab cheklovlariga duch keldi. Mamlakatda kommunistik ideologiya siyosati natijasida, reklama davlat tomonidan nazorat qilindi va asosan sotsialist g'oyalarni tarqatishga qaratildi. Biroq bu davrda ham reklama shakllari mavjud bo'lib, ular ko'proq

plakatlar, devor yozuvlari va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali bo'lgan. Masalan, "Sovetskiy Uzbekistan" gazetasida ko'plab reklama e'lonlari joylashtirilgan.

#### 4. Mustaqillik davri (1991-yildan hozirgi kungacha)

1991-yilda O'zbekiston mustaqil davlat sifatida o'z faoliyatini boshladi va reklama sektori ham yangicha yo'nalishlarga ega bo'ldi. Bu davrda bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni reklama sohasida jiddiy o'zgarishlarga olib keldi. Shaxsiy bizneslarning ko'payishi, xorijiy investitsiyalarning kiritilishi, yangi brendlarning paydo bo'lishi reklama sohasida raqobatni kuchaytirdi. O'zbekiston hududida reklama agentliklari tashkil etila boshladi. Tashkilotlar o'z mahsulotlarini raqobatbardosh qilib tanitish maqsadida innovatsion yondashuvlar, marketing strategiyalaridan foydalanishga kirishdi. Televizor va radiolar orqali reklama kampaniyalari ko'paydi va internet reklama ham rivojlana boshlandi. Bu davrda O'zbekistonda birinchi marta reklama festivallari va tanlovlari o'tkazila boshlandi.

#### 5. Zamonaviy davr (2020-yildan hozirgi kungacha)

Hozirda O'zbekistonda reklama sohasida raqamli texnologiyalar va internet marketingning rivojlanishi kuzatilmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning kengayishi bilan reklama strategiyalari o'zgarishlarga uchrab, mobil ilovalar va internet platformalarida jamiyatda keng tarqalmoqda. Brendlar va mahsulotlarning ta'siri kuchaymoqda, va bu ijtimoiy ongda savdo va reklama haqidagi tushunchalarni yangilashga yordam bermoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Umuman olganda, O'zbekistonda reklamani rivojlanishi iqtisodiy va ijtimoiy kontekstlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu jarayonlar davomida reklama madaniyati va shakllari doimo yangilanib bormoqda.

O'zbekistonda dastlabki reklama matnlari o'zining madaniy va lingvistik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu reklama matnlari, asosan, o'sha davrdagi milliy qadriyatlar, til, madaniyat va jamoatchilikdagi talablar bilan bog'liq bo'lgan unsurlarni o'z ichiga oladi. Quyida bunday reklama matnlariga xos bo'lgan madaniy va lingvistik xususiyatlar hamda misollar keltiriladi:

##### Madaniy xususiyatlar:

Dastlabki reklama matnlari ko'pincha O'zbekistonning an'anaviy qadriyatlari va madaniyatiga mos ravishda yozilgan. Masalan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari — g'alla, mevalar, sabzavotlar va boshqalar, xalqning oziq-ovqati va undagi milliy an'analar aks ettirilgan.

"Bizning qishloq go'zalliklarini tanlang, an'anaviy ta'mlarni his eting" — bu matn xalqning an'anaviy taomlariga e'tibor qaratadi.

Reklama matnlarida odatda, ijtimoiy mas'uliyat va ekologiya muammolariga diqqat qaratilgan. O'zbekistonning ekologik ahvolini yaxshilash masalalari reklama matnlarida ko'plab uchraydi.

"Pok va toza muhit uchun birgalikda harakat qilamiz!" — bu matn jamiyatning atrof-muhitni asrashga chaqiradi.

##### Lingvistik xususiyatlar:

Dastlabki reklama matnlarida O'zbek tilida sodda, tushunarli va aniq ifodalar ishlatiladi. Bu matnlar ko'pincha milliy urf-odatlariga mos ravishda yozilgan.

"Sizning sog'lig'ingiz biz uchun muhim!" — bu matn oddiy va samimiy til bilan yozilgan bo'lib, odamlarni jalb etishga mo'ljallangan.

Ba'zan reklama matnlari orasida yoshlar orasida mashhur bo'lgan so'zlar yoki iboralar kiritilib, ular orqali yanada yaqin aloqa o'rnatishga harakat qilinadi.

"Biz bilan birga bo'lganda, har doim onlayn bo'ling!" — bu yerda zamonaviy so'zlar, jumladan "onlayn", yoshlarni jalb qilishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasida dastlabki reklama taraqqiyoti 1990-yillarning boshlarida mustaqil davlat sifatida faol rivojlana boshladi. Bu davrda ko'plab brendlari o'z mahsulotlarini reklama qilishni yo'lga qo'yildi. Quyida ba'zi brendlari va ularning reklama matnlariga oid misollar keltiriladi:

"O'zdunyo" (O'zbek paxta) brendining reklama matni quyidagicha edi: "O'zbekiston paxtasi – sifatni tanlang! Bizning paxta – o'ziga xos, tabiiy va yuqori sifatli!" Ushbu reklama matni O'zbekistonda paxta sanoatini targ'ib qilishda ishlatilgan. O'z vaqtida, paxta O'zbekiston iqtisodiyoti uchun juda muhim bo'lib, sifatli paxta yetishtirishga qaratilgan e'tiborni oshirish maqsadida tayyorlangan predmetli reklama edi.

Keyingi brend "Lazzat" (O'zbekiston oziq-ovqat mahsulotlari) bo'lib uning reklama matni: "Lazzat – har bir oilaga sifatli va mazali yog'li mahsulotlar!" Ushbu brend O'zbekiston bozorida o'zining oqlanganligi va sifatli ingridiyentlaridan foydalangan holda yanada kengroq auditoriyaga erishishga harakat qilgan.

"UzAuto Motors" brendi ostidagi avtomobil ishlab chiqarish korxonasining reklama matni "O'zbekistonda ishlab chiqarilgan avtomobillar – sizning ishonchingiz!" bo'lib, bu reklama O'zbekiston avtosanoatining yuksalishida muhim rol o'ynadi va mahalliy brendlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida yaratildi.

"Go'zal" brendi ostida ishlab chiqarilgan kosmetika va parfyumeriya mahsulotlari esa quyidagi reklama matni orqali ommaga namoyish etilgan: "Go'zallik – bu o'z-o'zini sevish, Go'zal mahsulotlari bilan yanada chiroyli bo'ling!" Mahalliy kosmetik brendlar reklamasida ayollarga qaratilgan e'tibor bilan, go'zallik va o'zini parvarish qilishni targ'ib qilgan.

**Xulosa va takliflar.** Har bir mamlakatda reklama o'sha mamlakat auditoriyasiga qaratilgan bo'lib, u ma'lum bir davlat aholisi uchun mo'ljallangan. Yagona jihati shundaki, turli mamlakatlarda iste'mol qilinadigan mahsulotlar va xizmatlar bir-biriga mos keladi, lekin shu bilan birga, reklama o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ma'lum bir madaniyatning tilini tushunadigan insonlarga ta'sir o'tkazadi. Bejizga J. Russel[7] reklamani "jamiyat ko'zgusi" deb atamagan. Reklama nafaqat ishlab chiqaruvchilar, balki iste'molchilar uchun ham katta ahamiyatga ega. Reklama jamiyatning harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, undagi barcha o'zgarishlarni aks ettiradi va shu jarayonda insonlarning ehtiyojlari va istaklarini ham ko'rsatadi.

Dastlabki reklama matnlari ko'pincha mahsulotlarning o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor qaratgan va iste'molchilarni jalb qilishga intilgan. O'zbekistonning iqtisodiy o'sishi va brendlarining rivojlanishi bilan reklama metodlari ham o'zgarib, zamonaviy uslublar va texnologiyalarni qo'llashga o'tdi. Shunga ko'ra, O'zbekistonda dastlabki reklama matnlari madaniy va lingvistik jihatdan boy va rang-barang bo'lib, xalqimizning an'ana va qadriyatlarini o'zida aks ettiradi.

### ADABIYOTLAR:

1. A. Madvaliev. *O'TIL, III tom.* – Toshkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2011.
2. Медведева, Е. В. Рекламная пропаганда или "Почём опиум для народа", Вестник МГУ, Сер.19, 2003. -373с
3. Медведева, Е. В. Рекламная коммуникация. Москва: Издательство Едиториал УРСС, 2004.- 279с
4. Harweg, R. *Textlinguistik – Yn: Prospektiken der Linguistik, Bd.2.* – Stuttgart, 1974.-25
5. S. Hall. *Culture, Media, Language.* London : Routledge, 1980.-232-233p
6. Theodor W. Adorno & Max Horkheimer. *Dialectic of Enlightenment.* – New York: Verso Books, 1972.
7. Russell J., Thomas W., Lane R. *Kleppner's Advertising Procedure. 13th ed.* Prentice-Hall International, Inc., A Simon & Schuster Company. 1996.

## JAHON TILSHUNOSLIGIDA TABIIY TILGA ISHLOV BERISH SOHASIDA MATNLAR ICHIDAGI IBORALARNI ANIQLASH MASALASI

**Omarova Durdona Tajatdin qizi,**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti*

*Kompyuter lingvistikasi fakulteti 1-kurs magistranti*

*omarovadurdona@gmail.com*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tabiiy tilga ishlov berish (NLP) sohasida matn ichidagi iboralarni aniqlash masalasi yoritilgan. Avvalo, iboraning tilshunoslikdagi va kompyuter tilshunosligidagi tushunchasi tahlil qilinadi. So'ngra, iboralarni aniqlashda qo'llaniladigan zamonaviy algoritmlar, xususan, qoidaga asoslangan, statistik va neyron tarmoqlarga asoslangan yondashuvlar solishtiriladi. Shuningdek, turli modellar asosida iboralarni aniqlash samaradorligi tahlil qilinib, ularni o'zbek tiliga moslashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** tabiiy tilga ishlov berish, ibora, iborani aniqlash, algoritim, tilshunoslik, o'zbek tili, kompyuter lingvistikasi.

## ПРОБЛЕМА ОПРЕДЕЛЕНИЯ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В ТЕКСТЕ В ОБЛАСТИ ОБРАБОТКИ ЕСТЕСТВЕННОГО ЯЗЫКА В МИРОВОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

**Аннотация.** В данной статье рассматривается вопрос определения фразеологизмов в тексте в области обработки естественного языка (NLP). Прежде всего, анализируется понятие фразеологизма в лингвистике и компьютерной лингвистике. Затем сравниваются современные алгоритмы, используемые для определения фразеологизмов, в частности, подходы, основанные на правилах, статистике и нейронных сетях. Также анализируется эффективность определения фразеологизмов на основе различных моделей и рассматриваются возможности их адаптации к узбекскому языку.

**Ключевые слова:** обработка естественного языка, фразеологизм, определение фразеологизма, алгоритм, лингвистика, узбекский язык, компьютерная лингвистика.

## IDENTIFICATION OF IDIOMS IN TEXTS IN THE FIELD OF NATURAL LANGUAGE PROCESSING IN WORLD LINGUISTICS

**Abstract.** This article addresses the issue of identifying idioms within texts in the field of natural language processing (NLP). First, the concept of idioms in linguistics and computational linguistics is analyzed. Then, modern algorithms used in idiom identification are compared, particularly rule-based, statistical, and neural network-based approaches. Additionally, the effectiveness of idiom identification based on various models is analyzed, and the possibilities of adapting them to the Uzbek language are considered.

**Keywords:** natural language processing, idiom, idiom identification, algorithm, linguistics, Uzbek language, computational linguistics.

**Kirish.** Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda tabiiy tilga ishlov berish (Natural Language Processing, qisqacha NLP) texnologiyalari tilda mavjud bo'lgan murakkab birliklarni, jumladan, iboralarni avtomatik tarzda aniqlash, tasniflash va ularni semantik jihatdan anglash vazifalarini bajarishda muhim o'rin egallaydi. Bugungi kunda NLP sun'iy intellektning eng faol yo'nalishlaridan biri bo'lib, u tilshunoslik, kompyuter fanlari, hisoblash lingvistikasi va axborot izlash tizimlari bilan uzviy bog'liq holda rivojlanmoqda. Bu kontekstdagi asosiy masalalardan biri – matnlardagi iboralarni avtomatik aniqlash (phrase extraction or multi-word expression identification) hisoblanadi. Matndagi iboralarni aniqlash NLPning bir nechta asosiy vazifalari, jumladan, frazeologizmlarni avtomatik ajratish, termin birliklarini aniqlash, tarkibiy sintaktik analiz, semantik tahlil, va machine translation tizimlarining sifatini oshirishda zarur bo'lgan bosqich sifatida e'tirof etiladi. Chunki iboralar ko'pincha tildagi birikkan, ko'p so'zli birliklar bo'lib, ularni tahlil qilish alohida algoritmik yondashuvni talab etadi. Masalan, “anqoga shafe”, “aqldan ozmoq”, “aqli yetadi” kabi iboralar o'ziga xos leksik va semantik yaxlitlikka ega bo'lib, ularni oddiy so'zlar sifatida analiz qilish yetarli emas. Jahon tajribasida bu yo'nalishda bir nechta ilg'or metodologiyalar shakllangan bo'lib, ular orasida




statistik yondashuvlar (PMI, t-test, chi-squared), qoidaga asoslangan (rule-based) usullar, hamda chuqur o'rganish (deep learning) asosidagi modellar yetakchi hisoblanadi. Ayniqsa, BERT, RoBERTa, SpanBERT kabi zamonaviy pre-trained transformer modellar yordamida iboralar kontekstual ravishda aniqlash mumkin bo'lib qoldi. Bu esa nafaqat frazeologik birliklar, balki sintaktik bog'liqligi kuchli bo'lgan nom birikmalari va kollokatsiyalarni ham izolyatsiya qilish imkonini bermoqda. Masalan, Span-based extraction yondashuvi orqali model har bir matn segmenti ichidagi ibora bo'lishi mumkin bo'lgan span'larni baholaydi va semantik jihatdan izchil fragmentlarni ajratib oladi. Shu bilan birga, sequence tagging (BIO) metodlari ham keng qo'llanilib, har bir tokenning ibora tarkibida yoki tashqarisida ekanligini belgilash orqali iboralar aniqlashga xizmat qiladi. Xalqaro miqyosdagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tabiiy tildagi iboralar to'g'ri aniqlash:

- avtomatik tarjima tizimlarida so'zma-so'z tarjimalarning oldini olishga,
- matnlar klasterlash va tasniflashning aniqligini oshirishga,
- sentiment tahlilida konnotatsiyani to'g'ri tushunishga,
- avtomatik savol-javob tizimlarida savol va javob mosligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, iboralar aniqlashda bir qancha muammolar mavjud bo'lib, ularning eng asosiylari – ma'nodosh iboralar ko'p shaklliligi, stilistik rangdorlik, kontekstga bog'liqlik, va nominal iboralar chegaralarini belgilashdagi noaniqlikdir. Bugungi kunda ingliz, nemis, fransuz, xitoy kabi tillar uchun ko'plab tayyor annotatsiyalangan ibora korpuslari mavjud bo'lsa-da, o'zbek tili uchun bu yo'nalishda dastlabki izlanishlar olib borilmoqda. Bu esa o'zbek tili uchun maxsus korpuslar yaratish, iboralar ustlabiy, semantik va statistik xossalari o'rganish, shuningdek, zamonaviy modellarni milliy tilga moslashtirish orqali yechim topishni taqozo etadi. Xulosa qilib aytganda, jahon tilshunosligida NLP doirasida iboralar aniqlash muammosi til birliklarini chuqur tahlil qilish, avtomatlashtirish va sun'iy intellekt vositalari orqali ularning semantik mohiyatini anglashda muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi. Bu yo'nalishdagi yutuqlar tilshunoslikning amaliy sohalariga – avtomatik tarjima, nutqni aniqlash, chatbotlar, til o'rgatish dasturlari va boshqa ko'plab texnologiyalarga asos bo'lmoqda.

**Mavzuga doir adabiyotlar tahlili.** Iboralar tahlil qilishda jahon tilshunosligida olib borilgan tadqiqotlar faqat lingvistik tahlil emas, balki avtomatik tarjima, matnlarni sarlavhalashtirish, savol-javob tizimlari, tavsiyaviy tizimlar va mavzuga asoslangan modellar kabi amaliy yechimlarda ham dolzarb ahamiyatga ega. Chunki iboralar — semantik jihatdan yaxlit birlik bo'lib, ularni tashkil qiluvchi tarkibiy qismlar tahlil qilinayotganda yakka-yakka emas, balki butun holatda idrok qilinishi lozim. Ikki yoki undan ortiq so'zdan tarkib topib, yaxlit bir ma'no ifodalaydigan lug'aviy birliklarni biz iboralar yoki frezeologizmlar yoxud frazeologik birliklar deymiz. Odatda, iboralar ma'nosi bir so'z (leksema)ga teng keladigan birliklar sifatida baholanadi. To'g'ri, o'zaro birikib, turg'un birikmani, ya'ni iborani tashkil qilgan birliklar asosan yaxlit bir ma'no, bir tushunchani ifodalaydi, ammo bunda leksemadagidan ortiqroq bo'yoqlar, bo'rttirmalar mavjud. Shuning uchun leksik ma'no frazeologik ma'noga teng bo'lolmaydi. Aks holda bir tushunchani ifodalash uchun iboralardan foydalanib o'tirmas edik [1]. Bunday iboralar, ko'pincha, so'zma-so'z tarjima qilinsa, semantik jihatdan noto'g'ri yoki noaniq ma'noga ega bo'ladi. Masalan, ingliz tilidagi *"spill the beans"* iborasi "fasollarni to'kmoq" emas, balki "sirni ochib qo'ymoq" degan ma'noni bildiradi. Shu bois, kompyuter tomonidan bunday iboralar aniqlanishi va to'g'ri talqin qilinishi uchun maxsus algoritmlar va tilga moslangan modellar zarur bo'ladi. Qilingan tadqiqotlardan Xitoy tilida qilingan ishlarni ko'rib chiqsak iboralar, xitoy tilida "成语" (ChengYu) deb ataladi, kunlik muloqotda va turli adabiy janrlarda keng qo'llaniladi. Iboralar — bu xitoy tilida juda ixcham shaklda ifodalangan, kam sonli so'zlardan iborat bo'lsa-da, murakkab ijtimoiy ma'no va nozikliklarni o'zida mujassam etgan iboralaridir. Bundan tashqari, xitoy iborolari ko'pincha bir xil hodisa yoki voqealarni tasvirlash uchun ishlatiladi. Bu esa ba'zi hollarda iboralar ularning so'zma-so'z ma'nosi bilan tushunib bo'lmavligini anglatadi. Shuning uchun ham, xitoy iboralarini aniqlash masalasi nafaqat til bilmaydiganlar, balki ona tili xitoy tili bo'lganlar uchun ham doimiy muammo bo'lib qolmoqda [2]. Masalan, quyidagi "鱼肉百姓" (YuRouBaiXing) iborasi 1-rasmda keltirilgan bo'lib, u "odamlarni ezish, zo'ravonlik qilish" degan ma'noni bildiradi. So'zma-so'z tarjimada esa bu "baliq go'shti — xalq" degan mantiqsiz ibora bo'lib chiqadi. Haqiqiy hayotda, agar kimdir iboralar ma'nosini tushunmasa, u holda biz bu iboralar oddiyroq, tushunarli tarzda so'z birikmalariga aylantirib tushuntirishga majbur bo'lamiz. Ushbu tadqiqotda biz hisoblash yondashuvlari yordamida iborali gaplarni avtomatik tarzda oddiyroq, ya'ni iborasiz gaplarga aylantirishni taklif qilamiz. Bu esa iborani kontekst asosida parafrazlash imkonini beradi va xitoy tilidagi tabiiy tilga ishlov berish (NLP) hamda ijtimoiy sohadagi amaliyotlarga foyda keltiradi. Iboralar ko'plab NLP vazifalari uchun to'siq bo'lgani sababli, CIP (Chinese Idiom Processing) bosqichi oldindan ishlov berish bosqichi sifatida ishlatilishi mumkin. Bu mashina tarjimasi tizimlarining natijadorligini oshiradi [3], xitoycha iboralar to'ldirish (idiom cloze)

vazifasini yaxshilaydi, shuningdek, xitoy iboralarini uchun embeddinglar yaratishda ham samarali [4]. Bundan tashqari, CIP asosidagi ilovalar bolalar, xitoy tilini yangi o'rganayotganlar va kognitiv qiyinchiliklarga ega insonlar uchun o'qish tushunchasini yaxshilashda samarali yordamchi bo'lishi mumkin.



**1-rasm. Xitoy-Ingliz tarjima korpusi asosida CIP ma'lumotlar to'plamini yaratish jarayonining ketma-ket bosqichlar orqali ifodalanishi**

**Metodologiya.** Bu rasmda ko'rishimiz mumkinki korpus xitoycha iboralar ro'yxatiga asoslanib, ibora mavjud bo'lgan va ibora mavjud bo'lmagan kichik korpuslarga ajratilgan, ulardan biri modelni o'qitish uchun, ikkinchisi esa test va pseudo-parallel korpus yaratish uchun ishlatilgan. Ibora mavjud bo'lmagan kichik korpus asosida mashina tarjimasi tizimi (MT system) o'rgatiladi. So'ng, ushbu model yordamida ibtidoiy (pseudo) CIP dataset yaratiladi: ya'ni asl iborali xitoycha gaplar, tarjima qilingan iborasiz xitoycha gaplar bilan juftlanadi. Yaratilgan juftliklar sifatini oshirish maqsadida, inson annotatorlari tarjima qilingan jummalarni ko'rib chiqib, tuzatishlar kiritadi. Natijada, CIP Dataset hosil bo'ladi: Chinese with idioms ↔ Chinese without idioms (annotatsiyalangan, soddalashtirilgan) [5].

**Tahlil va natijalar.** Bu diagramma xitoy tilidagi iboralarni soddalashtirish uchun ma'lumotlar to'plamini yaratishdagi uchta asosiy bosqichni ko'rsatadi:

1. **Korpusni ajratish** (iboralilar va iborasizlar)
2. **Mashina tarjimasi tizimini o'rgatish va ibtidoiy CIP to'plamini yaratish**
3. **Inson tomonidan ko'rib chiqish** va yakuniy, sifatli CIP to'plamni shakllantirish.

Bu tadqiqotda mavjud parafrazlash ishlanmalaridan farqli ravishda xitoycha iboralarni qayta ifodalash (Chinese Idiom Paraphrasing) masalasiga e'tibor qaratilgan. Ya'ni ibora ishtirok etgan jummalarni iborasiz shaklga o'zgartirishga qaratilgan yondashuv ilgari surilgan.

Ingliz tilida olib borilgan tadqiqotlarda iboralarni avtomatik aniqlash masalasi ko'rib chiqilgan. Masalan, "a diamond in the rough" iborasi ba'zan sayqal berilmagan olmos (literal), ba'zan esa qo'pol, ammo ichki fazilatlar bor inson (iboraviy) ma'nosida ishlatiladi. Ushbu farqlarni to'g'ri anglash sintaktik tahlil, mashina tarjimasi va semantik belgilash kabi ko'plab qo'llanmalar uchun zarur hisoblanadi. So'nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlardan biri ingliz tilidagi Wiktionary lug'ati asosida iboralarni avtomatik aniqlashga qaratilgan bo'lib, bu yo'nalishdagi ilk tajribalardan biri sanaladi. Ushbu ishda lug'atdagi ta'riflar literal yoki iboraviy ekanligini belgilash uchun ikkilik Perceptron klassifikatori ishlab chiqilgan. Belgilash uchun esa "iboraviy ma'no" deganda "kompozitsion bo'lmagan semantik birlik" nazarda tutiladi.[6] Modelga o'rgatish jarayonida WordNet va Wiktionary manbalaridan olingan leksik va grafik xususiyatlar asosida so'zlar orasidagi semantik o'xshashliklar hisobga olingan. Shuningdek, "diamond in the rough" kabi iboralarning literal va iboraviy ta'riflari orasidagi yaqinlik darajasi solishtirilgan.

**Aniqlash (Identification):** Bu bosqichda quyidagi shakldagi ma'lumotlar bilan ishlanadi:

$$(p_i, d_i, y_i): i=1 \dots n \{ (p_i, d_i, y_i) : i = 1 \dots n \} (p_i, d_i, y_i): i=1 \dots n,$$

bu yerda:

- $p_{\langle sub \rangle i \langle /sub \rangle}$  — ibora,
- $d_{\langle sub \rangle i \langle /sub \rangle}$  — unga tegishli ta'rif,
- $y_{\langle sub \rangle i \langle /sub \rangle} \in \{literal, idiomatic\}$  — belgisi.

Masalan: Literal juftlik: "leave for dead" — "Jarohatlangan yoki yordamga muhtoj tirik mavjudotni tashlab ketish, ya'ni uning o'limi yaqin deb hisoblash". Iboraviy juftlik: "leave for dead" — "Muhim emas

*deb hisoblab, e'tibordan chetda qoldirish*". Maqsad – ( $p<sub>i</sub>$ ,  $d<sub>i</sub>$ ) juftligi asosida  $y<sub>i</sub>$  ni bashorat qilish. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, taklif etilgan model **65% aniqlik (precision)** va **52% qamrov (recall)** ko'rsatkichlariga erisha olgan. Model **Wiktionary** dagi iboralarning avtomatik belgilanmagan holatlarini aniqlab, ularning sonini **7,764 tadan 18,155 tagacha** oshirishga muvaffaq bo'lgan [7]. Bu esa, o'z navbatida, turli gaplardagi iboralarni aniqlashga ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Misol uchun, Lesk algoritmi asosida iboraning kontekstdagi ma'nosi aniqlanib, u ta'riflar bilan solishtirilgan holda tasniflangan. Bu yondashuv iborani aniqlashda sintaktik strukturaga bog'liq bo'lmagan, keng miqyosli qo'llanmani ta'minlaydi. Aniqlash samaradorligi, ayniqsa, ta'riflar asosida tuzilgan gaplar ustida sinovdan o'tkazilganda, **28 foiz punktga oshgan** [8]. Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, iboraviy birliklarni aniqlashda lug'at asosidagi yondashuvlar, xususan, **Wiktionary va WordNet** kabi ochiq manbalarga tayanilgan modellar katta imkoniyatlarga ega. Bunday tizimlar mashina tarjimasi, nutqni tushunish va kompyuter lingvistikasi kabi yo'nalishtalarda iboralarning yanada aniqroq semantik tahlilini amalga oshirishga xizmat qiladi.

**Xulosa.** Iboraviy ifodalarni avtomatik tarzda aniqlash masalasi zamonaviy kompyuter lingvistikasi va mashina tarjimasi sohasida dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa, iboralarning literal va ko'chma ma'nolari o'rtasidagi farqlarni to'g'ri tushunish tilni chuqur anglaydigan tizimlar uchun zarurdir. Ushbu maqolada tahlil qilingan yondashuv – Wiktionary platformasidagi lug'aviy birliklarni asos qilib olib, iboralarni tasniflashga qaratilgan dastlabki samarali urinishlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Tadqiqotda iboralarning lug'atdagi ta'riflari asosida ularning iboraviy yoki literal ekanini aniqlovchi Perceptron modeli ishlab chiqilgan. Model WordNet va Wiktionary kabi ochiq leksik resurslar orqali semantik yaqinlikni aniqlovchi xususiyatlardan foydalangan. Natijada model 65% aniqlik va 52% qamrov ko'rsatkichlariga erishgan bo'lib, Wiktionary'dagi iboraviy birliklar sonini ikki baravar ko'paytirishga imkon yaratgan. Bu esa iboralarni kontekst asosida aniqlash masalasida ham sezilarli yutuqlarni keltirib chiqargan. Shuningdek, bu yondashuvning muhim afzalligi shundaki, u iboralarning sintaktik tuzilishiga bog'liq bo'lmagan holda keng miqyosda ishlatilishi mumkin. Natijada, bunday tizimlar mashina tarjimasi, avtomatik belgilash, semantik tahlil va boshqa tabiiy tilni qayta ishlash vazifalarida iboralarning aniq va samarali identifikatsiyasini ta'minlaydi. Ushbu metodologiya o'zbek tilidagi iboraviy birliklarni avtomatik aniqlashga yo'naltirilgan keyingi tadqiqotlar uchun ham muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR:

1. Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov Z.Xolmanova, I.O'razova, K.Rixsiyeva. *O'zbek tili frazeologik lug'ati*: – T.: G'afur G'ulom nomidaginashriyot matbaa ijodiy uyi, 2022. – 636 bet.
2. Wan Yu Ho, Christine Kng, Shan Wang, and Francis Bond. 2014. *Identifying idioms in Chinese translations*. In *LREC*, pages 716–721.
3. Zhiying Jiang, Boliang Zhang, Lifu Huang, and Heng Ji. 2018. *Chengyu cloze test*. In *Proceedings of the Thirteenth Workshop on Innovative Use of NLP for Building Educational Applications*, pages 154–158.
4. Yuanchao Liu, Bo Pang, and Bingquan Liu. 2019. *Neural-based Chinese idiom recommendation for enhancing elegance in essay writing*. In *Proceedings of the 57th Annual Meeting of the Association for Computational Linguistics*, pages 5522–5526. Florence, Italy. Association for Computational Linguistics.
5. Jipeng Qiang<sup>1</sup> Yang Li<sup>1</sup> Chaowei Zhang<sup>1</sup> Yun Li<sup>1</sup> Yi Zhu<sup>1</sup> Yunhao Yuan<sup>1</sup> Xindong Wu, Chinese Idiom Paraphrasing Yangzhou University, China, Hefei University of Technology, China, Zhejiang Lab, China {jppqiang,cwzhang,liyun,zhuyi,yhyuan}@yzu.edu.cn, xwu@hfut.edu.cn
6. Automatic Idiom Identification in Wiktionary Grace Muzny and Luke Zettlemoyer Computer Science & Engineering University of Washington Seattle, WA 98195 {muznyg,lsz}@cs.washington.edu
7. Automatic Idiom Identification in Wiktionary Grace Muzny and Luke Zettlemoyer Computer Science & Engineering University of Washington Seattle, WA 98195 {muznyg,lsz}@cs.washington.edu
8. P. Cook, A. Fazly, and S. Stevenson. 2007. *Pulling their weight: Exploiting syntactic forms for the automatic identification of idiomatic expressions in context*. In *Proceedings of the workshop on a broader perspective on multiword expressions*.

**ERTAK QAHRAMONLARI TILIDA PSIXOLINGVISTIK XARAKTER IFODASI:  
INGLIZ VA O‘ZBEK ERTAKLARI ASOSIDA**

**Qurbonova Dilnoza Faxridinovna,**

Fakultetlararo chet tillar kafedrasida tayanch doktoranti  
fqurbonov703@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek xalq ertaklaridagi mashhur qahramonlarning nutqiy portretlari psixolingvistik nuqtayi nazardan chuqur tahlil qilinadi. Cinderella, Jack, Zumrad va Qimmat kabi personajlarning leksik-semantik boyligi, stilistik uslublari, nutq ohangi va emotsional ifodalar orqali ularning xarakter xususiyatlari, psixologik holatlari va ijtimoiy roli ochib beriladi. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ishtirokida o‘tkazilgan tajriba asosida, qahramon nutqining ta’limdagi lingvistik va tarbiyaviy samarasi baholanadi. Maqolada psixolingvistik modellashirish yondashuvi asosida bolalar ongida ijobiy va salbiy obrazlarning shakllanish jarayoni ham ko‘rsatib beriladi. Bu tahlil til o‘rgatishda ertaklardan samarali foydalanish imkoniyatlarini ochib beradi.

**Kalit so‘zlar:** ertak qahramoni, psixolingvistika, til portreti, xarakter ifodasi, emotsional nutq, drammatizatsiya, bola tasavvuri, lingvistik model, qiyosiy tahlil.

**ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ ВЫРАЖЕНИЕ ХАРАКТЕРА СКАЗОЧНЫХ  
ПЕРСОНАЖЕЙ НА ПРИМЕРЕ АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ СКАЗОК**

**Аннотация.** В данной статье осуществляется глубокий психолингвистический анализ речевых портретов персонажей английских и узбекских народных сказок. На примере Золушки, Джекa, Зумрад и Киммат рассматриваются их лексико-семантическое богатство, стилистические средства, интонационные особенности и эмоциональные выражения, отражающие черты характера, психологическое состояние и социальную роль. Особое внимание уделяется результатам педагогического эксперимента, проведенного среди младших школьников, в ходе которого оценивалось влияние речи сказочных героев на формирование речевой активности и нравственного восприятия. Использование психолингвистического моделирования позволяет показать, как в сознании детей формируются позитивные и негативные образы, что способствует эффективному использованию сказок в образовательной практике.

**Ключевые слова:** сказочный персонаж, психолингвистика, речевой портрет, выражение характера, эмоциональная речь, драматизация, образ героя, лингвистическая модель, сравнительный анализ.

**PSYCHOLINGUISTIC EXPRESSION OF CHARACTER IN FAIRY TALE HEROES:  
BASED ON ENGLISH AND UZBEK FOLKTALES**

**Abstract.** This article provides an in-depth psycholinguistic analysis of the speech portraits of prominent characters from English and Uzbek folk tales. Focusing on Cinderella, Jack, Zumrad, and Qimmat, the study examines their lexical-semantic richness, stylistic features, intonation patterns, and emotional expressions to reveal their personality traits, psychological states, and social roles. Furthermore, the article includes findings from a pedagogical experiment involving primary school students, assessing how character speech impacts linguistic development and moral perception. Through the method of psycholinguistic modeling, the article illustrates how children construct mental images of positive and negative figures. The results underscore the pedagogical value of using folk tales as effective tools in foreign language education.

**Keywords:** fairy tale character, psycholinguistics, speech portrait, character expression, emotional speech, dramatization, mental imagery, linguistic model, comparative analysis.

**Kirish.** Zamonaviy tilshunoslikning ilg‘or yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan psixolingvistika tildagi jarayonlarni inson tafakkuri, emotsional holati va nutqiy faoliyati bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganadi. Ayniqsa, bolalar nutqining shakllanishida til va tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar, emotsional ong va idrokning rivojlanishi o‘ta muhim hisoblanadi. Bu jarayonda xalq og‘zaki ijodi, ayniqsa, ertaklar muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ertaklar bolalar ongida obrazlar dunyosini shakllantiradi, ularni axloqiy,



ijtimoiy va madaniy qadriyatlar bilan tanishtiradi hamda eng muhimi — ularning nutqiy va psixologik rivojiga ta'sir ko'rsatadi. Xalq ertaklarida aks etgan personajlarning xarakteri ko'pincha ularning til vositalari orqali namoyon bo'ladi. Har bir qahramonning fe'l-atvori, niyatlari, ijobiy yoki salbiy jihatlari uning nutqidagi so'z tanlovi, ifoda uslubi, sintaktik tuzilmalari va emotsional ohangi orqali ochiladi. Shunday qilib, ertak qahramonlarining til portretini o'rganish orqali nafaqat lingvistik, balki psixologik va pedagogik ma'lumotlarga ham ega bo'lish mumkin.

Til orqali xarakterni modellashtirish yondashuvi bugungi psixolingvistik tadqiqotlarda dolzarb mavzulardan biri bo'lib, ayniqsa, ta'lim jarayonida katta ahamiyat kasb etadi. Chunki o'quvchilar ertaklarni tinglar ekan, qahramonlar obrazini tasavvur qiladi, ularning harakatlariga baho beradi va bu orqali ongida axloqiy-me'yoriy mezonlar shakllanadi. Ushbu jarayon til vositasi orqali yuzaga kelgani sababli, personajlarning nutqiy xususiyatlarini tahlil qilish o'quvchilarning lingvistik va psixologik rivojini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Mazkur maqolada ingliz va o'zbek xalq ertaklarida uchraydigan mashhur qahramonlar — Cinderella, Jack, Zumrad va Qimmatning til portretlari psixolingvistik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan o'tkazilgan kuzatuvlar va tajriba asosida ertak matnlaridan foydalanishning ta'limiy samaradorligi baholanadi. Maqola xalq ertaklaridagi personajlar nutqi orqali xarakter modellashtirish jarayonini chuqur yoritishga, shuningdek, ularning bola ongiga ta'sirini ochib berishga qaratilgan.

**Tadqiqot obyekti va metodlar.** Ushbu tadqiqotning obyekti sifatida ingliz va o'zbek xalq ertaklarida ishtirok etuvchi mashhur qahramonlarning nutqiy faoliyati, til vositalari orqali namoyon bo'ladigan xarakter xususiyatlari, shuningdek, ularning bola ongidagi psixolingvistik aks sadosi olingan. Cinderella, Jack, Zumrad va Qimmat kabi obrazlarning til qurilishi, ularning ijtimoiy-psixologik portretini ochib berishda muhim rol o'ynaydigan lingvistik birliklar asosiy tahlil nuqtasi sifatida tanlangan. Shuningdek, bolalar bilan olib borilgan amaliy tajribalar orqali ushbu personajlar tilining bola nutqiga, idrokiga va emotsional sezgirlikiga ko'rsatadigan ta'siri tadqiqot obyektining muhim qismini tashkil qiladi. Tadqiqot predmeti esa mazkur qahramonlarning nutqiy portretida kuzatilgan leksik-semantik birliklar, stilistik vositalar, sintaktik tuzilmalar, emotsional ifodalar va pragmatik unsurlar hisoblanadi. Bu birliklar orqali har bir personajning xarakteri, ijtimoiy pozitsiyasi, psixologik holati va axloqiy yondashuvi ifodalangan. Aynan shu elementlar orqali psixolingvistik modellashtirish nazariyasi asosida personajlarning til portreti shakllantirilib, ular bolaning ongida qanday tarzda aks etishini aniqlash maqsad qilingan.

Tadqiqotda quyidagi metodlar majmuaviy tarzda qo'llanildi:

1. Qiyosiy-lingvistik tahlil – ingliz va o'zbek ertaklaridagi personajlarning nutqiy strukturasi, leksik mazmuni va uslubiy xususiyatlarini solishtirish orqali ularning o'xshash va farqli jihatlari aniqlandi.
2. Matnshunoslik va diskurs tahlili – personajlar nutqi tarkibidagi semantik yuklama, metafora, epitet, emotsional iboralar kabi vositalarning xarakter ifodasidagi roli tahlil qilindi.
3. Psixolingvistik modellashtirish – til birliklari asosida personajlar obrazining bola ongida qanday shakllanishi, ularning ruhiy va axloqiy idrokida qanday o'rin tutishi o'rganildi.
4. Pedagogik tajriba – boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan olib borilgan dars jarayonlarida Cinderella va Zumrad personajlari asosida rolli o'yin, drammatizatsiya va suhbat metodi orqali o'quvchilarning nutqiy faolligi va xarakter identifikatsiyasi kuzatildi.
5. So'rovnomalar va kuzatuv – tajriba ishtirokchilariga ertak matnlarini eshitganidan so'ng berilgan savollar orqali ularning personajlar haqidagi emotsional va axloqiy taassurotlari o'rganildi.

Maqolada nafaqat xalq ertaklari tahlili, balki ularning ta'limiy jarayonga integratsiyasi orqali bola psixikasi va lingvistik sezgirlikiga ko'rsatuvchi ta'siri ham izchil yoritiladi. Shuningdek, til vositasida xarakter modellashtirishning nazariy asoslari amaliy tajribalar bilan boyitiladi. Mazkur metodlar kombinatsiyasi natijasida olingan tahliliy ma'lumotlar maqolaning asosiy ilmiy xulosalarini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi.

**Adabiyotlar tahlili.** Ertaklar tili va u orqali personaj xarakterini ifodalash masalasi turli sohalar kesimida – lingvistika, psixolingvistika, madaniyatshunoslik va pedagogika doirasida qizg'in tadqiq qilinayotgan mavzulardan biridir. Xususan, xalq ertaklari matnidagi personajlar tili orqali ularning ichki dunyosini ochish, obrazni bola ongida to'g'ri shakllantirish, ularni emotsional va axloqiy jihatdan yetuk shaxs sifatida tarbiyalash bugungi ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Bu boradagi eng muhim nazariy asoslarni L.S. Vygotskiy (1978) tomonidan ishlab chiqilgan “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasida ko'rish mumkin. Unga ko'ra, bolaning psixik va nutqiy rivojlanishi tashqi til ta'siri ostida, avval tashqi, keyinchalik ichki nutq faoliyati orqali yuzaga chiqadi. Aynan ertak matnlari bola tafakkurini tashqi og'zaki ifoda bilan boyitadi, bu esa bola tafakkuri va nutq o'rtasidagi bog'liqlikni kuchaytiradi. S. Krashen (1982) esa tilni ikkilamchi til sifatida o'zlashtirishda emotsional omillar, xususan “affektiv filtr” modelini ilgari surgan. Bu modelga ko'ra, bolada tilni qabul qilish va faol foydalanishning muvaffaqiyati emotsional

tayyorgarlik darajasi bilan bog'liq. Bu nuqtayi nazardan ertaklardagi yumshoq, mehribon, adolatli qahramonlarning nutqi bolalarda tilga nisbatan iliq munosabat uyg'otadi va emotsional to'siqlarni pasaytiradi. Perekrestova A.V. (2003) tomonidan ishlab chiqilgan psixolingvistik yondashuv esa badiiy matn orqali xarakter modellashtirishning muhim vositasi sifatida til birliklarining funktsional imkoniyatlarini ochib beradi. Uning izlanishlarida personaj nutqining pragmatik qirralari – gapning ohangi, nutq axtarlari, modal birliklar xarakter tafsilotlariga bevosita bog'liqligi e'tirof etiladi. E. I. Frolova (2005) tomonidan bola rivojlanishida ertaklarning o'rni chuqur o'rganilgan. Muallif o'z asarlarida ertak personajlari tilining takroriyliigi, soddaligi va emotsional bo'yoqlarga boyligi bolaning leksik repertuarini kengaytirish va obrazli tafakkurini shakllantirishdagi ahamiyatini asoslab bergan.

Ingliz tilidagi adabiyotlarda ham ertaklar psixolingvistik vosita sifatida keng yoritiladi. Carol Harris (2010) tadqiqotida drammatizatsiya va dialogli ertak o'yinlari orqali chet tili o'rganish samaradorligi ko'rsatiladi. Uning fikricha, ertak personajlarini jonlantirish orqali o'quvchilarda tilga motivatsiya ortadi, nutqiy faoliyat faollashadi va nutq kontekst asosida shakllanadi. Robert Ellis (2008) esa tilni o'zlashtirishda kognitiv jarayonlar va psixolingvistik elementlar integratsiyasini tahlil qilib, bolaning idroki va o'zlashtiruvchi kompetensiyasi matn mazmuniga bog'liq ravishda rivojlanishini asoslaydi. Bu yondashuv aynan ertak matnlaridagi xarakterlar tahliliga tatbiq etilganda, o'quvchining til sezgirliigi va emotsional differensiasiyasi chuqurlashishini ko'rsatadi.

O'zbek tilshunosligida esa bu mavzuni Hasanova N. (2020) keng yoritgan bo'lib, u xalq ertaklari obrazlarining psixologik va tarbiyaviy xususiyatlarini tahlil qilgan. Uning fikriga ko'ra, Zumrad va Qimmat kabi obrazlar o'zbek bolasi ongida yaxshi-yomon, adolatli-nohaq, halol-xarom tushunchalarini shakllantiradi. Hasanova asarida Qimmatning tilida buyruq ohangi, tahdid va salbiy emotsiyalar ko'p ishlatilishi, bola tafakkurida salbiy obraz shakllanishiga olib kelishini qayd etadi. Xolmatova S. (2021) esa o'zbek xalq ertaklarining pedagogik ahamiyatini o'rganib, bolalar nutqida til birliklarining shakllanishida ertakning asosiy vosita ekanini ko'rsatadi. Unga ko'ra, bola ertak tinglash jarayonida nafaqat til elementlarini o'zlashtiradi, balki ularni his etadi, xarakterlar bilan "yashaydi" va ular orqali o'z shaxsiy pozitsiyasini shakllantiradi.

Yana bir dolzarb adabiyot – Navarro & Garcia (2018) tomonidan xalq ertaklaridagi lingvokulturologik ramzlar va qahramonlarning identiteti bo'yicha olib borilgan tadqiqot bo'lib, u turli madaniyatlardagi personajlar o'rtasida emotsional va semantik farqlanishlarni ochib beradi. Bu yondashuv xalq ertaklarining qahramonlarini faqat individual nutqiy birlik emas, balki butun xalq tafakkurining ramziy ifodasi sifatida ko'rishga imkon beradi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xalq ertaklari matni va undagi personajlarning nutqiy modeli bolalar psixologiyasi va lingvistik rivojida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ilg'or xorijiy va o'zbek tadqiqotlari bu mavzuga turli nazariy yondashuvlar orqali yondashgan bo'lsa-da, ularning umumiy xulosasi — ertaklar orqali tilga, tafakkurga va xarakterga bir vaqtning o'zida ta'sir etish mumkinliigi — bugungi psixolingvistik tahlil uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot davomida ingliz va o'zbek xalq ertaklaridagi to'rtta mashhur personaj – Cinderella, Jack, Zumrad va Qimmat – nutqiy va emotsional ifodalar, til vositalarining semantik va stilistik xususiyatlari nuqtayi nazaridan chuqur tahlil qilindi. Bu personajlarning nutqidagi leksik birliklar, gap tuzilmalari, ohang va pragmatik vositalar orqali ular ifodalagan xarakter xususiyatlari, ijtimoiy roli va psixologik portreti modellashtirildi.

1. Personajlarning nutqiy portreti va xarakter ifodasi: Cinderella obrazi odatda e'tiborli, sabrli, kamtar va mehribon qiz sifatida tasvirlanadi. Uning nutqida ko'proq muloyim, ohangdor, kamtarona iboralar uchraydi. Jumladan: "I'm sorry", "I'll do my best", "Thank you" kabi iboralar uning xarakteridagi itoatkorlik va sadoqatni ko'rsatadi. Gap tuzilmalari qisqa, to'g'ridan-to'g'ri va hissiy jihatdan ijobiy ohangda bo'ladi. Emotsional yuklama orqali bola Cinderella bilan o'zini tenglashtiradi, unga taqlid qiladi. Jack obrazi esa jasorat, ishonch va sarguzashtga intiluvchi personaj sifatida o'z ifodasini topgan. Uning nutqidagi harakatga yo'naltirilgan fe'llar (climb, jump, fight), kuchli gaplar va ohang bu xarakterni mustahkamlaydi: "I will climb this beanstalk!", "I'm not afraid!" kabi ifodalar orqali Jackning jasoratli xakteri til orqali ochiladi.

Zumrad obrazi o'zbek ertaklarida halollik, sabr, mehr va poklik timsoli bo'lib, uning nutqida quyidagi xususiyatlar ajralib turadi: Hurmat ifodalovchi gaplar: "Ona, izn bering", "Rahmat, otajon"; Shirin, mehrli, ohangli va yumshoq so'zlar uning ruhiy holati va odobini ifodalaydi. Qimmat esa salbiy personaj bo'lib, bu obrazda tilda buyruq, jahldorlik, egosentrizm ustunlik qiladi: "Tez bo'l!", "Menga olib kel!", "Sen bunga loyiq emassan!" kabi emotsional salbiy gaplar orqali bola bu obrazni ichki rad etadi. Qimmatning nutqida tanbeh ohangi, negativ emotsiyalar ko'p uchraydi, bu orqali uning xakteri salbiy bo'yoqda ko'rinadi. Shu asosda har bir personaj nutqi orqali xakterning psixolingvistik modeli ishlab chiqildi va quyidagi asosiy komponentlar aniqlashtirildi: Leksik-semantik vositalar: mehr, jahldorlik, jasorat, sabr kabi emotsiyalarni

ifodalovchi soʻzlar; Sintaktik qurilmalar: buyruqli gaplar, shaxsga yoʻnaltirilgan iboralar, hissiy intonatsiyalar; Stilistik boʻyoqlar: metafora, epitet, ifodali vositalar.

2. Qiyosiy tahlil: Ingliz va oʻzbek ertaklaridagi madaniy va psixolingvistik tafovutlar. Tahlil davomida ingliz va oʻzbek ertaklaridagi personajlar tilining madaniyatlararo tafovutlari ham aniqlandi: Ingliz ertaklarida qahramonlar odatda oʻz his-tuygʻularini ochiq ifoda etadi, ularning nutqida faol harakat, oʻziga ishonch, yangilikka ochiqlik mavjud. Oʻzbek ertaklarida esa til orqali axloqiy mezonlar, sabr-toqat, kattaga hurmat, murosabi kabi qadriyatlar singdiriladi. Bu farqlilik har bir xalqning mentaliteti, tarixiy tajribasi va axloqiy tizimining tilda ifodalanishidan dalolat beradi. Bolalar bu xarakterlarni idrok etar ekan, ularning tilga boʻlgan munosabati ham, axloqiy qiyofasi ham shakllanadi.

### 3. Pedagogik kuzatuv va soʻrovnoma natijalari

Tajribaviy bosqichda Buxoro viloyatidagi 2 ta maktabning 3-sinf oʻquvchilari ishtirokida Cinderella va Zumrad obrazlari asosida dramatisatsiya darslari oʻtkazildi. Darslardan oldin va keyin oʻquvchilarning emotsional reaksiyasi, xarakterlarga bergan bahosi va til bilan ishlashga boʻlgan faolligi kuzatildi.

Natijalar quyidagicha boʻldi: Oʻquvchilarning 85% Cinderella va Zumrad obrazlariga ijobiy munosabat bildirgan; 76% oʻquvchi rolli oʻyin orqali xarakterni yaxshiroq tushunganini taʼkidlagan; Darsdan soʻng 60% bolalar til boyligida yangi emotsional iboralaridan foydalangan (masalan: “kechirasiz”, “iltimos”, “dadir boʻl” va boshqalar); Soʻrovnoma orqali aniqlanishicha, salbiy obraz boʻlgan Qimmatga boʻlgan munosabatda 93% oʻquvchi tanqidiy yondashgan. Bu natijalar shuni koʻrsatadiki, til vositasi orqali xarakter ifodasini oʻrgatish orqali bolalarda: emotsional idrok, lingvistik sezgirlik, axloqiy baholash koʻnikmalari rivojlanadi.

Tahlillar va amaliy kuzatuvlar shuni koʻrsatadiki, ertak qahramonlarining til vositasidagi xakteri bolaning idroki va nutq faoliyatiga bevosita taʼsir qiladi. Psixolingvistik modellastirish orqali personajlarning nutqiy xususiyatlarini aniqlash va ularni taʼlim jarayonida qoʻllash, bolalarning oʻquv motivatsiyasi, ijtimoiy axloqiy qadriyatlar va tilga estetik yondashuvini shakllantirishda juda samarali yoʻnalish hisoblanadi.

**Muhokama.** Olib borilgan tahlil va kuzatuv natijalari shuni koʻrsatdiki, ertak matnlarida personaj xarakterining til orqali ifodalanishi oʻquvchilarning psixolingvistik rivojlanishida muhim oʻrin tutadi. Cinderella, Jack, Zumrad va Qimmat kabi obrazlar misolida aniqlangan til vositalari — leksik-semantik birliklar, sintaktik tuzilmalar, nutqdagi emotsional va stilistik vositalar — bolaning obrazni idrok etishiga, unga emotsional munosabat bildirishiga va oʻz axloqiy pozitsiyasini shakllantirishiga sabab boʻladi.

Psixolingvistika fanida nutq faqat aloqa vositasi emas, balki insonning ichki dunyosini, emotsiyalarini, axloqiy qarashlarini tashqi muhitga ifodalovchi vosita sifatida qaraladi. Aynan ertak matnlarida bu jihat juda aniq koʻzga tashlanadi. Cinderella va Zumrad obrazlari bolaning ichki dunyosida mehr, sabr, odob, kamtarlik kabi ijobiy xislatlar bilan bogʻlanadi. Bu obrazlarning nutqida sokinlik, rahm-shafqat, muloyimlik, ilqlik ifoda etiladi. Aksincha, Qimmat kabi salbiy personajlar nutqida buyruq ohangi, qoʻpol leksika, gʻazab va manmanlik hukm suradi. Bu esa bolaning axloqiy differensiasiyasiga xizmat qiladi: u qaysi xakterni qabul qilish, qaysisiga qarshi turish kerakligini til orqali anglaydi. Muhokama jarayonida, xalq ertaklarida qahramonlarning nutqi nafaqat ularning xakterini ochib berishi, balki oʻquvchining til oʻrganishga boʻlgan qiziqishini ham kuchaytirishi aniqlandi. Psixolingvistik yondashuv personaj tilini shunchaki tahlil qilish emas, balki uni modellastirish, yaʼni til elementlari orqali xakter strukturasi va uning bola ongi bilan oʻzaro taʼsirini aniqlash imkonini beradi. Bu jarayonda til vositasi obrazga emotsional rang bagʻishlaydi, obraz esa oʻz navbatida tilni oʻzlashtirishda vosita sifatida xizmat qiladi.

Pedagogik kuzatuv natijalari shuni koʻrsatdiki, dramatisatsiya va rolli oʻyinlar yordamida oʻquvchilarda qahramonlar obraziga kirish, ularning nutqiy uslubini takrorlash orqali emotsional idrok va ijtimoiy-his tuygʻular kuchayadi. Bu esa, oʻz navbatida, nutqiy faollik, empatiya, axloqiy sezgi va til boyligini oshiradi. Shuningdek, oʻquvchilar salbiy obrazlardan yiroq boʻlishni, ijobiy obrazlarni esa ibrat sifatida qabul qilishni boshlaydi. Aynan til orqali bu jarayonlar mustahkamlanadi. Xalq ertaklaridagi ijobiy obrazlar (Cinderella, Zumrad) odatda bolaning nutqida koʻproq til birliklari orqali ifodalanadi, yaʼni bola bu obrazni faollashtiradi. Salbiy obrazlar (Qimmat) esa tanqidiy yondashuvga olib keladi, bola ularni tushunadi, ammo qabul qilmaydi. Bu oʻz navbatida psixolingvistik faoliyatning yuqori bosqichga koʻtarilganidan dalolat beradi. Shuningdek, ingliz va oʻzbek ertaklaridagi madaniy tafovutlar ham muhim oʻrin egallaydi. Ingliz ertaklarida personajlar oʻz his-tuygʻularini ochiq ifoda etadi, faol va sarguzashtparast boʻlsa, oʻzbek ertaklarida feʼl-atvor, odob, sabr-toqat, kattaga hurmat kabi fazilatlar til orqali yetkaziladi. Bu esa maktab darslarida ikki madaniyatning emotsional va lingvistik obrazlarini solishtirish orqali qiziqarli taʼlimiy natijalarga olib keladi. Shunday qilib, ertak personajlari nutqidagi psixolingvistik vositalarni chuqur tahlil qilish orqali nafaqat tilning semantik boyligi ochiladi, balki bola shaxsiyati, axloqiy dunyoqarashi va

muloqot kompetensiyasini rivojlantirish uchun ham keng imkoniyatlar yaratadi. Bu esa psixolingvistikaning ta'limdagi amaliy ahamiyatini yana bir bor isbotlaydi.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, xalq ertaklaridagi personajlar nutqining psixolingvistik tahlili til va tafakkur o'rtasidagi murakkab bog'liqlikni ochib berish bilan birga, o'quvchilar shaxsiyati, emotsional dunyosi va axloqiy qarashlariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Cinderella, Jack, Zumrad va Qimmat obrazlarining nutqiy xususiyatlari orqali ularning xarakteri modellashtirilib, til birliklarining psixologik va semantik yuklamasi tahlil qilindi. Shuningdek, til orqali qahramon obrazining bola ongida qanday aks etishi kuzatuv va tajribalar orqali aniqlashtirildi.

Ingliz va o'zbek ertaklarining qiyosiy tahlili bu ikki madaniyatda personaj tilining xarakter ifodasidagi o'rni, uslubiy farqlari va emotsional ohanglaridagi o'xshashlik hamda tafovutlarni yoritdi. Ingliz ertaklarida nutq odatda ochiq, harakatga asoslangan, emotsional ekspressiv bo'lsa, o'zbek ertaklarida esa kamtarona, odobli va axloqiy bo'yoqli nutq shakllari ustunlik qiladi. Bu farqlar madaniy tafakkurda tilning qanday rol o'ynashini ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan o'tkazilgan pedagogik tajriba shuni ko'rsatdiki, ertak asosidagi drammatizatsiya va rolli o'yinlar orqali o'quvchilar nafaqat til boyligini oshiradi, balki xarakterni tushunish, emotsional farqlash, axloqiy mezonlarni ajratish kabi ko'nikmalarga ham ega bo'ladi. Bu esa ertaklarni faqat badiiy matn emas, balki ta'limiy, tarbiyaviy va lingvistik vosita sifatida samarali qo'llash zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, ertak matnlarini psixolingvistik yondashuv asosida tahlil qilish va ularning ta'limga integratsiyasi nafaqat til o'rgatishda, balki shaxsiy fazilatlarini shakllantirish, madaniy ongni rivojlantirish, estetik didni tarbiyalashda ham beqiyos imkoniyatlar yaratadi. Kelajakda bu yondashuvni kengaytirish, ko'proq personajlarni qamrab olish va turli yoshdagi o'quvchilar bilan ishlash orqali yanada boy ilmiy-amaliy natijalarga erishish mumkin.

### ADABIYOTLAR:

1. Халматова С. Ўзбек халқ эртақларининг педагогик аҳамияти // Тошкент: Ўзбекистон Миллий университети нашриёти, 2021. – 120 б.
2. Krashen S. D. *Principles and Practice in Second Language Acquisition*. – Oxford: Pergamon Press, 1982. – 191 p.
3. Perekestova A. V. *Psycholinguistics and Pedagogy: Theoretical Approaches*. – Moscow: Higher School Publishing, 2003. – 248 p.
4. Vygotsky L. S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. – Cambridge (MA): Harvard University Press, 1978. – 159 p.
5. Frolova E. I. *The Role of Fairy Tales in Child Development*. – St. Petersburg: Nauka Publishers, 2005. – 176 p.
6. Harris C. *Fairy Tales as Pedagogical Tools for Language Learning* // *Language Education Journal*. – 2010. – Vol. 14, № 2. – P. 34–45.
7. Navarro R., Garcia M. *Linguistic Identity and Cultural Symbols in Folk Tales* // *Modern Education Research*. – 2018. – Vol. 6, № 3. – P. 210–224.
8. Хасанова Н. Эртақлар ва болалар психологияси: назария ва амалиёт. – Бухоро: Илм Зиё, 2020. – 132б.
9. Ellis R. *The Study of Second Language Acquisition*. – Oxford: Oxford University Press, 2008. – 824 p.
10. Юлдашева Д. Тил ўргатишида маданий компонентлар. – Тошкент: Фан, 2019. – 140 б.



## TERMINOLOGIK UYANING FREYM TAHLILI

Saidkodirolva Dirlfuza Saidkodirolvna,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, f.f.d.

saidkodirolva\_dilfuza@gmail.com

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada terminologik uya tushunchasi va uning kognitiv-lingvistik jihatlarl batafsil tahlil qilinadi. Muallif terminologik uya — konseptual jihatdan bog'langan va bir mavzu doirasida zanjir sifatida tashkil topgan terminlar majmuasi ekanini asoslaydi. Tadqiqotda freym nazariyasi asosida terminologik uyaning shakllanish jarayoni, uning tarkibiy tuzilishi va ilmiy terminologiyani sistemalashtirishdagi o'rni ko'rsatib beriladi. Kompyuter va internet terminologiyasidagi uya shakllari — zanjir, daraxtsimon va juft uyalar misollar bilan yoritiladi. Shuningdek, transterminologizatsiya hodisasi natijasida terminlarning semantik evolyutsiyasi va nomlashdagi o'zgarishlar kuzatilishi tushuntiriladi. Maqola terminologik tizimlarni kognitiv asosda o'rganish va ularni standartlashtirish uchun nazariy zamin yaratadi.

**Kalit so'zlar:** terminologik uya, freym tahlili, transterminologizatsiya, kompyuter terminologiyasi, internet terminlari, kognitiv lingvistika, nomlash jarayoni, semantik evolutsiya.

## ФРЕЙМОВЫЙ АНАЛИЗ ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКОЙ ЯЧЕЙКИ

**Аннотация.** В статье рассматривается понятие терминологического гнезда и его когнитивно-лингвистические аспекты. Автор показывает, что терминологическое гнездо представляет собой сложную структуру взаимосвязанных терминов, объединённых в цепочку в рамках определённой предметной области. На основе теории фреймов анализируются этапы формирования терминологических гнёзд, их внутренняя и внешняя структура, а также роль в систематизации научной терминологии. Особое внимание уделяется примерам структур гнёзд (цепочечных, древовидных и парных) в компьютерной и интернет-терминологии. Рассматривается феномен транsterминологизации и его влияние на семантическую эволюцию и номинацию терминов. Работа создаёт теоретическую базу для когнитивного изучения и стандартизации терминологических систем.

**Ключевые слова:** терминологическое гнездо, фреймовый анализ, транsterминологизация, компьютерная терминология, интернет-термины, когнитивная лингвистика, процесс номинации, семантическая эволюция.

## FRAME ANALYSIS OF THE TERMINOLOGICAL CELL

**Abstract.** This article explores the concept of the terminological nest and its cognitive-linguistic dimensions. The author substantiates that a terminological nest constitutes a complex structure of interrelated terms organized in a chain within a specific thematic domain. Drawing on frame theory, the study analyzes the processes of forming terminological nests, their internal and external structures, and their function in the systematization of scientific terminology. Particular emphasis is placed on examples of nest structures (chain, tree-like, and paired nests) in computer and internet terminology. The phenomenon of transterminologization is discussed, explaining how it contributes to the semantic evolution and shifts in term nomination. The paper lays a theoretical foundation for the cognitive study and standardization of terminological systems.

**Keywords:** terminological nest, frame analysis, transterminologization, computer terminology, internet terms, cognitive linguistics, nomination process, semantic evolution.

**Kirish.** Freym tushunchasining ilmiy sohaga kiritilishi aynan biz tadqiq qilayotgan soha, ya'ni kompyuterni dunyoviy bilim imkoniyatlari bilan ta'minlash, sun'iy intellekt nazariyasini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, intilishlar bilan bog'lashadi [1] Freym tushunchasini M.Minskiy ma'lum bir tushuncha doirasida jamlangan til bilimlari tizimi sifatida tushunadi, bunda turli turdagi axborotlar to'g'risida assotsiatsiyalar paydo bo'lishi mumkin [2] deb hisoblaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** E.A.Ponomareva uyani turli darajalardan tashkil topgan freym-tuzilma sifatida ko'rib chiqadi. Bu tuzilma turli darajalardan: ichki (propozitsional daraja, propozitsiya va

katakchalar (slotlar) darajasi) va tashqi (ma'lum bir hosilaning leksik va so'z yasalish ma'nosi darajasi) [3] dan iborat bo'lishi mumkin.

Uyani freym sifatida ifodalash nafaqat so'z hosil qilishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, balki undagi bilimlarni kashf qilish, shuningdek, uni tuzish va tizimlashtirish imkonini beradi. Terminologik uya masalasi L.V.Ivina, S.G.Kazarina, N.A.Shurygina, S.I.Bogomolova, R.Shimuli, A.V.Superanskaya, N.V.Podolskaya, M.V.Polovets, N.V.Vasilyeva va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan [4].


Terminologik uya deganda, odatda, har bir keyingisi oldingisi bilan zanjirsimon bog'langan, konseptual munosabatga kirishadigan murakkab tuzilma tushuniladi.

Har bir terminologik uyaning yadrosini ma'lum bir mavzuga tegishli bo'lgan, boshqa terminologik uya elementlariga nisbatan umumiyroq tushunchani bildiradigan birlik tashkil etadi. Binobarin, terminologik uya terminologiyani birlamchi strukturasini tashkil etuvchi maxsus birliklar yig'indisidir.

Terminologik uyalarni shakllantirishda transterminologizatsiya, ya'ni ma'nosini to'liq yoki qisman qayta ko'rib chiqish bilan birlikning boshqa mavzu sohasiga o'tishi natijasida olingan nominatsiyalarning ma'nolarida «o'zgarishlar» kuzatilishi mumkin [5].

**1-jadval.**

|    | Uya hosil qilish modeli | Tushunchani ifodalovchi terminlar soni | Asosiy konseptga oid umumiy terminlardan olingan % |
|----|-------------------------|----------------------------------------|----------------------------------------------------|
| 1. | Kompyuter obyekt        | 110                                    | 29,4%                                              |
| 2. | Foydalanuvchi subyekt   | 98                                     | 26,2%                                              |
| 3. | Tashqi ta'sir           | 45                                     | 12%                                                |
| 4. | Vositachi               | 41                                     | 10,9%                                              |



**1-rasm. Kompyuter obyekt. Foydalanuvchi subyekt. Tashqi ta'sir. Vositachi**

Tushuncha va leksik birliklar sanalgan terminning xossalari va xususiyatlari tilshunoslikda kognitiv va terminologik tuzilmalarning voqelanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ular konseptual komponentlarni belgilaydi va terminlar mazmunidagi o'zgarishlarni va ularning semantik evolyutsiyasini aks ettiradi. I.V.Uvarova fan tilining kognitiv-terminologik uyasi tushunchasini kiritish zarur, deb hisoblaydi va uning o'ziga xosligini nafaqat nutqning qisman derivatsion tuzilishi nuqtayi nazaridan, balki terminda ifodalangan va mustahkamlangan kognitiv faoliyat natijasini belgilash nuqtayi nazaridan ham aks ettiradi. U kognitiv-terminologik uyani mustaqil terminologik birlik va mantiqiy-semiotik hodisa sifatida ajratib olish zarurligini ta'kidlaydi [6]. Chunki «inferensial bilimlarni obyektivlashtirish, verballashtirishning asosiy lingvokognitiv

va operativ vositasi til va bilishning o'ziga xos psixologik-semiotik birligi sifatidagi termindir» [7]. Zero, terminlarning «uyalanishi» barcha soha terminologiyalarining o'ziga xos xususiyatidir [8].

**Natijalar va ularning muhokamasi.** Terminologik uyalarning shakllanishi terminologik tizimlarning kognitiv nuqtayi nazardan nominatsiyasining tabiiy mexanizmidir.

Terminologik uya deganda, odatda, murakkab strukturaviy shakllanish, har biri keyingisi oldingisi bilan turtki bo'lgan va oldingi konseptual munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan so'z yasash zanjirlari to'plami tushuniladi. Terminologik uyaning asosi avval qayd qilinganidek, ma'lum bir mavzuga oid yoki yuqori tartibli boshqa bir sohaga taalluqli bo'lgan yasovchi o'zak bo'lib, bir uyaga birlashgan terminologik uyaning qolgan elementlariga qaraganda umumiyroq tushunchani ifodalaydi. Binobarin, terminologik uyan hosil etuvchi terminlar terminologiyaning birlamchi strukturasi tashkil etuvchi maxsus birliklar [9] bo'lib xizmat qiladi. Terminologik uyalarni yaratishda asosiy e'tibor terminologiyaning leksik va semantik xususiyatlarini saqlab qolishga qaratilgan bo'lib, bu terminologiya tizimini yanada rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Biroq maqsadli terminologiyaning ochiq tabiati tufayli, yangi terminlar mavjudlari bilan bir-biriga mos kelishi mumkin, shu sababli uning dinamik xususiyatini hisobga olish muhimdir. «Termin yasovchi uyarlar, o'zak morfemasiz ot turkumidan fe'l va sifat turkumi, fe'l turkumidan esa otlashgan terminlarning yasashiga yordam berishi, terminologik birliklarning konversiya hodisasiga uchrashi natijasida V+N modeliga muvofiq (derivativ holati) fe'l turkumidan otlashgan so'zlar, ya'ni fe'l asos morfemasi bilan talqin etilishi tarjimon e'tiborida bo'lmog'i terminologik birliklarni mos tarjima qilishga zamin yaratadi» [9].

Shuni ta'kidlash kerakki, terminologik uya kompyuter va internet terminologiyasini standartlashtirish va tizimlashtirish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Bu ma'no va mavzu jihatidan bir-biriga bog'liq bo'lgan terminlarni mantiqiy va qulay tartibga solish imkonini beruvchi kuchli vositadir.

I.G.Kudryavseva: «Har qanday sohaning terminologiyasi – bu terminologik maydonlar va terminologik uyalarni o'z ichiga olgan quyi va mikrotizimlardan iborat tizimdir» [11] ta'rif beradi.

Tilshunoslarning fikriga ko'ra, so'z yasovchi uyaning bir nechta strukturaviy turlari mavjud:

- 1) so'z uyasi (bir so'zli uyarlar, ya'ni yakka so'zlar, o'zak, unumdor bo'lmagan so'zlar);
- 2) uya-juft so'z (ikki so'zli uya);
- 3) uya-zanjir (zanjirli uyarlar);
- 4) uya-daraxt (daraxtga o'xshash uyarlar) [12].

Kompyuter va internet terminologik uyalarga so'z yasovchi uyaning bir nechta strukturaviy turlarini keltirish mumkin:

| Kompyuter terminlari                  | Internet terminlari       |
|---------------------------------------|---------------------------|
| cancel                                | call                      |
| cancel                                | call                      |
| Cancell+ed character                  | Call-back                 |
| Cancell+ation of an entry             | Call-back number          |
| un+cancel+ed driver                   | Un+calldot                |
| Cancell+ing Driver file               | Over+call dot-com         |
| Cancell+ing Driver file specification | Down+call dot-com company |

Termin nominatsiyasida uyarlar orqali yasalgan ko'p komponentli terminlarni ko'rish mumkin:

| Kompyuter terminlari                      | Internet terminlari                      |
|-------------------------------------------|------------------------------------------|
| Dual                                      | Domain                                   |
| Dual-in-line memory mode                  | Domain SAP server                        |
| Dual basic rate interface                 | Domain Form of web page                  |
| Dual Field programmable logic array       | Domain Hypertext Transfer Protocol       |
| Dual Routing information protocol         | Internet Domain Architecture Board       |
| Dual Rubber-band selection                | Internet Domain Engineering Task Force   |
| Dual Standby uninterruptible power supply | Internet Domain Control Message Protocol |

**Xulosa.** Internet terminologik uylarining kognitiv tahlili murakkab jarayon bo'lib, bu ma'lum bir internet terminlarining yangi paydo bo'lgan tushunchalarni nomlash uchun qo'llanilishi bilan izohlanadi.

## ADABIYOTLAR:

1. Сафаров Ш. Когнитив тилишунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б.41.

2. Минский М. Фреймы для представления знаний / пер с англ. О. Н. Гринбаума; под ред. д-ра техн. наук Ф.Кулакова. – М.: Энергия, 1979. – С.84.
3. Пономарева Е.А. Фреймовый анализ лексико-словообразовательного гнезда с вершиной «foot». freymovyy-analiz-leksiko-slovoobrazovatel'nogo-gnezda-s-vershinoy-foot-na-materiale-angliyskogo-yazyka.pdf
4. Ивина Л.В. Лингво-когнитивные основы анализа отраслевых терминотерминологий (на примере англоязычной терминологии венчурного финансирования). – М.: Академический Проект, 2003. – 304 с.; Казарина С. Г. Типологические характеристики отраслевых терминологий: Дисс. ... д-ра филол. наук. Краснодар, 1998. – 276 с.; Шурыгин Н. А. Лексикологическая терминология как система. Нижневартонск: Изд-во Нижневарт. пед. ин-та, 1997. – 167 с.; Шимуля Р. Лексикализация словосочетаний как наиболее продуктивный способ пополнения терминологии (на примере подязыка информатики и вычислительной техники в русском языке) // Studia Wschodnioslowianskie. T. 6 / Wydawnictwo Uniwersytetu w Bialymstoku. Bialystok, 2006. – С.261–267; Пономарева Е. А. Фреймовый анализ лексико-словообразовательного гнезда с вершиной «foot». file:///C:/Users/ACER/Downloads freymovyy-analiz-leksiko-slovoobrazovatel'nogo-gnezda-s-vershinoy-foot-na-materiale-angliyskogo-yazyka.pdf; Суперанская А. В. Общая терминология: Вопросы теории. – М.: Наука, 1989. – 246 с.; Половец М. В. Использование программного обеспечения для автоматического извлечения терминов // Молодые ученые в инновационном поиске: Материалы международной научной конференции. – Минск, 24–25 мая 2012 г.: В 2 ч. / Отв. ред. Т. П. Карпилович. – Минск: МГЛУ, 2012. Ч. 2. – С.90–95.
5. Суперанская А. В. Общая терминология: Вопросы теории / А. В. Суперанская Н.В. Подольская Н. В. Васильева. М.: Наука, 1989. – С. 240.
6. Уварова И. В. Термин как системообразующий компонент когнитивно-терминологического гнезда / Культурная жизнь Юга России. № 1 (56), 2015. – С.69-71.
7. Buyanova L. Y. Gnosilogic conceptualization of the world: semiotic-and-terminologicalodus // Cognitive studies of language: materialy mezhdunarodnogo congressa po cognitivnoy linguistike. – М.; Tambov; Chelyabinsk, 2014. – Р. 206–209.
8. Buyanova L.Y. Ko 'rsatilgan asar, o 'sha bet.
9. Половец М. В. Терминологические гнёзда как способ отражения системности терминологии (на примере англоязычных терминов компьютерной лингводидактики). file:///C:/Users/ACER/Downloads/terminologicheskie-gnezda-kak-sposob-otrazheniya-sistemnosti-terminologii
10. Ахмедов. О.С. Инглиз ва ўзбек тилларида солиқ-божхона терминларининг лингвистик таҳлили ва таржима муаммолари: Филол. фан. д-ри дисс.... автореф. – Тошкент, 2016. – Б.23.
11. Кудрявцева И.Г. English in computer science and IT technologies: учебно-методическое пособие. – М., 2021. – С.84-85.
12. Моисеев А.И. Статья на тему: Этапы развития лингвистической терминологии. Лингвистическая терминология в XIX-XXI вв. М., 1991. – С.90.



TILSHUNOSLIKDA TERMIN BILAN BOG‘LIQ ILMIY-NAZARIY QARASHLAR

*Sidiqova Ma'mura Adhamdjanovna,  
Toshkent shahar Oriental universiteti  
Sharq tillari kafedrası o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada tilshunoslikda termin tushunchasining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va unga oid ilmiy-nazariy qarashlar tahlil etiladi. Terminologik birliklarning lingvistik xususiyatlari, ularning boshqa leksik birliklardan farqlari, termin yaratish tamoyillari va zamonaviy terminologiyaning muammolari yoritiladi. Shuningdek, turli tilshunoslar tomonidan ilgari surilgan qarashlar solishtirilib, terminlarning ilmiy sohalaridagi o'rni ko'rsatiladi. Maqolada tilshunoslikda terminologiya bilan bog'liq bo'lgan ilmiy-nazariy qarashlarni o'z ichiga olgan bo'lib, hozirgi kunga bu sohaning rivojlanishi, termin va atama so'zlarining farqlari va terminologiyaning rivojlanish bosqichlari haqida bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** terminologiya, termin, atama, tilshunoslik, leksika.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ, СВЯЗАННЫЕ С ТЕРМИНОМ В  
ЛИНГВИСТИКЕ

**Аннотация.** В данной статье анализируется формирование понятия термина в лингвистике, этапы его развития и связанные с ним научно-теоретические взгляды. Освещаются лингвистические особенности терминологических единиц, их отличия от других лексических единиц, принципы терминообразования и проблемы современной терминологии. Также сравниваются взгляды, выдвинутые различными лингвистами, и показана роль терминов в научных областях. Статья содержит научно-теоретические взгляды, связанные с терминологией в лингвистике, и описывает развитие этой области на сегодняшний день, различия между терминами и понятиями, а также этапы развития терминологии.

**Ключевые слова:** терминология, термин, понятие, лингвистика, лексика.

SCIENTIFIC AND THEORETICAL PERSPECTIVES ON TERMINOLOGY IN  
LINGUISTICS

**Abstract.** This article analyzes the formation of the concept of terminology in linguistics, the stages of its development, and related scientific and theoretical views. It highlights the linguistic features of terminological units, their differences from other lexical units, the principles of term creation, and the challenges of modern terminology. Additionally, the article compares views put forward by different linguists and demonstrates the role of terms in scientific fields. The paper encompasses scientific and theoretical perspectives related to terminology in linguistics, describing the current development of this field, the distinctions between terms and nomenclature words, and the stages of terminology development.

**Keywords:** terminology, term, nomenclature, linguistics, lexicon.

**Kirish.** Tilshunoslik sohasida "termin" tushunchasi muhim ilmiy kategoriyalardan biri bo'lib, u fan tili va ilmiy nutqning ajralmas qismi hisoblanadi. Har bir fan o'zining ixtisoslashgan so'z boyligiga ega va bu so'zlar ko'pincha termin sifatida namoyon bo'ladi. Terminlar yordamida ilmiy g'oyalar ifodalanadi, bilimlar tizimlashtiriladi va uzatiladi. Mazkur maqolada terminologik birliklarning lingvistik mohiyati, tarixiy shakllanishi, ularni o'rganishga doir nazariy qarashlar tahlil qilinadi.

Hozirgi taraqqiy etgan adabiy tillarda terminologiya masalasi muhim rol o'ynaydi. Terminologiya odatda "ilmiy til" deb ataluvchi muhim qatlamni o'z ichiga oladi. Shuning uchun tilshunoslikda terminning til tizimidagi o'rni, uning umumiy til xususiyatlari, terminning ilm-fan taraqqiyotiga ta'siri, texnika ishlab chiqarish, ta'lim, boshqaruv sistemalaridagi ahamiyati, yangi terminlarning hosil bo'lishi kabi masalalar doim o'rganib kelinadi.

Bu sohani sharhlashdan avval termin o'zi nima degan savolga javob topish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu savolga ko'plab aniq va uncha aniq bo'lmagan javoblar berilgan. Termin so'ziga berilgan ta'riflar ichida quyidagi ta'riflar haqiqatga yaqinroqdir.

Termin – bu kasbiy (professional) ahamiyatga ega bo‘lgan so‘z yoki so‘z birikmasi bo‘lib, kasbiy tushunchani anglatadi, shakllantiradi va ma‘lum bir obyektlar, ular orasidagi munosabatlarni, ma‘lum bir soha nuqtayi nazaridan bilish jarayonida ishlatiladi[1].

**Mavzuga doir adabiyotlar tahlili.** *Termin va uning belgilari.* Termin — bu aniq fan sohasida muayyan tushuncha yoki predmetni ifodalovchi so‘z yoki so‘z birikmasidir. Terminlar odatda quyidagi xususiyatlarga ega: aniq ma‘no va shaklga ega bo‘ladi; ommalashgan tildan farq qiladi; ko‘p hollarda bir ma‘nolilikni saqlaydi; fanlararo izchillikni ta‘minlaydi.

*Terminologiyaning rivojlanish bosqichlari.* Terminologiya qadim zamonlardan boshlab shakllangan bo‘lsa-da, u mustaqil fan sifatida XX asrda rivojlandi. Taniqli tilshunoslar — E. Wüster, D.S. Lotte, R.A. Budagov va boshqa olimlar bu sohada muhim nazariy asoslar yaratgan.

*Termin va boshqa leksik birliklar o‘rtasidagi farq* Terminlar umumxalq tilidagi so‘zlardan shaklan farq qilmasligi mumkin, lekin ularning semantik doirasi torroq, aniqligi yuqori, kontekstga bog‘liqligi esa kuchlidir. Oddiy leksik birliklar ko‘p ma‘noli, emotsional bo‘lishi mumkin, terminlar esa iloji boricha obyektiv va aniqlikka asoslanadi.

*Zamonaviy terminologiyaning muammolari.* Bugungi kunda termin yaratishda quyidagi muammolar mavjud: terminlarning ortiqcha o‘zbeklashtirilishi yoki noto‘g‘ri tarjima qilinishi; fanlararo terminlar bir-biridan farq qilishi; xalqaro standartlarga mos kelmasligi; sinonimik terminlar orqali chalkashliklar paydo bo‘lishi.

Terminologiyaning yana bir ta‘rifi - ilm-fan, texnika, qishloq xo‘jaligi va boshqa ko‘plab sohalarga oid tushunchalarning aniq ifodasi bo‘lgan so‘z yoki so‘z birikmasiga termin deyiladi [2]. Termin deganda nomlanayotgan kontseptsyani (qarashlar, fikrlar yo‘nalishi tizimi; fikr yuritish, dunyoni tushunish, anglash usuli) belgilaydigan va kontseptual sohani qat‘iy cheklaydigan, umumiy lug‘atning omonim so‘zining ma‘nolaridan ajratilishini ta‘minlaydigan aniq ta‘rif berilgan har qanday so‘z bo‘lishi mumkin. Sun‘iy ravishda yaratilgan so‘z ham termin bo‘lishi mumkin.

Terminning ta‘rifi umumiy tilda bir xil nomdagi so‘zga xos bo‘lgan noaniqlikni yo‘q qilish bilan birga, nomlangan obyekt haqida umumiy tasavvur beradi (u aniq va moddiy yoki mavhum aqliy konstruktsiya bo‘lishi mumkin).

Determinologizatsiya (barcha hodisalarning o‘zaro obyektiv qonuniy aloqadorligi va sababiy bog‘lanishi to‘g‘risidagi falsafiy ta‘limot) bilan termin o‘zining qat‘iy kontseptualligini, tizimlilikini va noaniqligini yo‘qotadi; undagi tushuncha soddalashtiriladi; oldingi termin kundalik tilda tushunishga moslashadi. Terminologik ma‘noga ega bo‘lgan bunday so‘zlar umumiy lug‘atning boshqa so‘zlari kabi ta‘rifni emas, balki izohlashni talab qiladi.

Binobarin, nom - bu leksik birlik bo‘lib, uning yordamida biz ko‘rinadigan obyektни nomlaymiz va obyektни tasniflash tizimidagi aniq o‘rni tushunmasdan va boshqa obyektlar bilan bog‘liq holda idrok qilamiz. Nomlar leksika turkumiga kiradi, shuning uchun ularning tushunchalar bilan aloqasi zaiflashadi. Bundan farqli o‘laroq, terminlar kognitiv[3] jarayonni aks ettiruvchi va tizimda ma‘lum o‘rin egallagan holda logotiplar (belgi) toifasiga kiradi.

Terminologiya fanning rivojlanishiga bevosita bog‘liq bo‘lgan soha bo‘lib, har bir yangi kashfiyot yoki tushuncha yangi terminni talab qiladi. Shu sababli, tilshunoslar va mutaxassislar o‘rtasida termin yaratish, uni standartlashtirish va ommalashtirish masalalari yuzasidan turli yondashuvlar mavjud. Ba‘zi olimlar mavjud so‘z asosida yangi termin yaratishni ma‘qul ko‘rishsa, boshqalari xorijiy atamalarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qilinishini tarafdori. Bu holat turli tillarda terminologik tizimlarning har xil bo‘lishiga olib kelmoqda. Har bir fan, soha yoki kasb o‘z terminlariga, shu terminlar jamidan iborat leksikaga ega bo‘ladi. Bunday maxsus leksika fanda terminologiya deb ham yuritiladi. Ular huquq terminologiyasi, lingvistik terminologiya va boshqalar.

**Metodologiya.** Shu o‘rinda termin va atama so‘zlariga izoh berish bilan, ularning farqlari xususida ham to‘xtalib o‘tish zarurdir. Ma‘lumki, “termin” so‘zi rus leksikasiga oid so‘z bo‘lib, uning muqobili sifatida o‘zbek leksikasiga oid bo‘lgan “atama” so‘zini olish yoki olmaslik xususida tilshunos olimlar o‘rtasida ko‘plab bahs-munozaralar bo‘lib o‘tgan va termin so‘zini atama so‘ziga almashtirishni ma‘qullab bo‘lmaydi, degan xulosaga kelingan. Chunki, birinchidan, atama umuman “narsa-hodisa, belgi va harakat kabilarni atovchi so‘z” degan ma‘noga ega. Masalan: olma, katta, kelmoq so‘zlari narsa, belgi va harakatning atovchisi (atamasi) hisoblanadi [4]. Termin so‘ziga nisbatan bunday deya olmaymiz. Yuqorida aytib o‘tganimizdek termin bu biror sohaga oid tushunchaning aniq va barqaror ifodasidir. Atama so‘zi termin haqida aytilgan ta‘rif va xususiyatga ega emas. Xuddi shuning uchun ham “termin” ma‘nosida ilgari qo‘llangan istiloh va atama so‘zlari, vaqti kelib, terminga qo‘yiladigan talablarga to‘la javob bera oladigan shu so‘z (termin so‘zi) bilan almashtirilgan edi. Bundan tashqari, dunyoning deyarli barcha tillarida, jumladan, turkiy tillarda terminga xos yuqorida keltirilgan ma‘noda shu so‘z (termin so‘zi) qo‘llanadi, ya‘ni

u haqiqiy ma'noda baynalminal so'z hisoblanadi. Atama so'zi umuman nom ma'nosini bildiradi. Yuqoridagi dalillarga tayanib bu ilmiy ishni yozishda ham termin so'zidan foydalanamiz.

Terminlarning hosil bo'lishi nazariy bilimlarning o'sishi, fan-texnika taraqqiyoti bilan bog'liq deb o'ylash xatodir. O'tmishda ham, hozirgi vaqtda ham har qanday soha o'z terminologiyasiga ega bo'lgan. Ko'pgina odatiy nutqda ishlatiladigan so'zlar kasbiy nutqda termin bo'lishi mumkin. Terminlar muayyan bir sohaga oid tushunchalarni aniq ifoda etuvchi so'zlar bo'lsada, lekin bu so'zlarning qo'llanilishi shu soha kishilari doirasi bilan chegaralangan bo'lishi shart emas. Bunda ikki xil holatni kuzatish mumkin:

1. Ayrim terminlarning ma'nosi shu sohaga aloqasi bo'lmagan kishilar uchun ham tushunarli bo'ladi va ko'pchilik tomonidan foydalanilaveradi. Masalan, botanikaga oid terminlar: g'o'za, bug'doy, o'rik; san'atshunoslikka oid terminlar: sahna, afisha, aktyor, nikoh masalasiga oid terminlar: bolig', bolig'a, nikoh; meditsinaga oid: ukol, narkoz, savdo-sotiqqa oid terminlar: ko'tara, badal, taklif, aksept va boshqalar.

2. Ayrim terminlar faqat shu sohaga oid kishilar uchungina tushunarli bo'ladi va shu soha kishilari nutqidagina qo'llaniladi. Masalan, tilshunoslikka oid: fonema, morfema, o'zak, urg'u; kimyoga oid: oksid, indikator; islom huquqi nikoh masalasiga oid: kafoat, ishg'or nikoh, mut'a nikoh, savdoga oid: kredit, chakana, depozit.

Shuni aytish kerakki, umumiste'moldagi so'zlar ma'lum bir sohaga oid tushunchani ifodalaydigan so'z sifatida qo'llanilib, terminga aylanishi mumkin. Bunday hollarda u dastlabki ma'nosi bilan umumiste'moldagi leksikaga, maxsus (terminologik) ma'nosi bilan esa terminologik leksikaga oid bo'ladi. Masalan, kundalik nutqda ishlatiladigan "tom", "devor", "shift" kabi oddiy so'zlar quruvchilar va arxitektorlar nutqida termin hisoblanadi. Bir soha odamlari orasida ishlatiladigan terminlar o'zaro faoliyat jarayonida munosabat-aloqani ta'minlab beradi va o'sha ishning samaradorligiga ta'sir etadi. Shunday qilib lug'at tarkibidagi ma'lum bir so'z umumiste'moldagi so'z ham, termin ham bo'lishi mumkin ekan.

Terminologiya masalasining shu kunga qadar murakkabligi va hal qilinmagan tomonlari mavjudligiga qaramay shuni ta'kidlash mumkinki, termin bu kasbiy tafakkurning quroli va natijasidir. Shuning uchun ham bu soha mutaxassisleri termin so'z yoki so'z birikmasi bilan ifodalangan bo'lishidan qat'iy nazar, u ochiq oydin ma'noga ega bo'lishi va yagona tushunchani ifodalashi kerakligini ta'kidlaydilar.

**Tahlil va natijalar.** Termin bu til birligini belgilab va nomlab beruvchi leksik birlikdir. Terminlarning yasalishi umumiy so'z yasash qoidalariga bo'ysunadi. Terminlarning morfologik xususiyati ot so'z turkumlari kabi hamma tillar uchun yagona bo'lgan grammatik qurilma qoidalariga bo'ysunadi. Terminlarning sintaktik holati ham so'zlarning nutqdagi oddiy holatidan farq qilmaydi. Demak, terminologiya til ichidagi til emas, balki tilning alohida leksiko-frazeologik qatlamidir va u insonlarning kasbiy ehtiyojlari uchun xizmat qiladi. Bu degani terminlarda o'ziga xos xususiyatlar, odatiy leksikadan farqlanuvchi tomonlar yo'q degani emas. Oddiy so'zlarda bo'ladigan ma'no nozikligi, emotsionallik va hayajonni ifodalash kabilar terminlarda uchramaydi. Terminning ma'nosi umumiy ishlatiladigan so'zlar ma'nosiga qaraganda, o'ta aniq bo'ladi, unda qo'shimcha ma'nolar bo'lmaydi. Ma'lum bir sohaga oid terminlar o'zaro so'z yasovchilik va tushuncha munosabatlari jihatidan bog'liq bo'ladi. Masalan, "grammatika", "morfologiya", "sintaksis" kabi tilshunoslik terminlari o'zaro so'z yasovchilik jihatidan bir-biriga tobe, bog'liq bo'lmasada, ma'no, tushuncha jihatidan o'zaro bog'liqdir. Lekin buning aksi, ya'ni so'z yasash jihatidan bog'lanish bo'lib, tushuncha bog'liqligi yo'q bo'lishi mumkin emas. "Morfema", "morfologiya", "morf" kabi terminlar so'z yasalishi nuqtayi nazaridan bog'liq bo'lsalarda, ularda tushuncha bog'liqligi ham mavjud.

**Muhokama.** Terminlar qo'llanilishi sohasiga ko'ra ikki katta guruhga bo'linadi:

1. Ilmiy terminlar – ilm-fanga oid terminlardir.

a) Tilshunoslikka oid: fonema, fonetika, leksika semantika, frazeologiya, morfologiya, sintaksis va hokazo;

b) Adabiyotshunoslikka oid: sifatlash, o'xshatish, mubolag'a, tajnis, talmeh, roman, hikoya;

v) Tarixga oid: kapitalizm, feodalizm, kommunizm.

Shu va shu kabi boshqa ko'plab ilm-fan sohalariga oid terminlar ilmiy terminlar deb ataladi.

2. Professional terminlar. Ma'lum kasb-hunarga va mutaxassislikka oid monosemantik so'zlar professional terminlar bo'lib, ulardan ba'zilar bilan quyida tanishishimiz mumkin: a) kulolchilik kasbiga oid: angob, taqsir (sopol idishlarning yuziga beriladigan bo'yoq), gulbo'ta (tog'dan chiqadigan ko'kimtir oq tusli loy); b) poyabzaldo'zlik kasbiga oid: bigiz, qolip, beshlik, dastak, giocho'p; v) tikuvchilikka oid: igna, mato, bichim, andoza, chok, ip.

Endi fiqhiy terminlar haqida qisqacha to'xtalib o'tadigan bo'lsak, u tarixan rivojlanishning ikki bosqichini o'z ichiga oladi.

1. Klassik davr;

2. Zamonaviy davr[5].

O'rta asrlarda diniy ilm hisoblangan islom huquqi, arab tilshunosligi, tarix, adabiyot, falsafa va boshqa fanlarga oid manbalar an'anaviy arab tilida yozilgan. Ularda o'ziga xos mazmunga ega bo'lgan terminlarning ko'pligi shu davrda arab tilshunosligida terminologiya sohasi ancha taraqqiy etganligini ko'rsatadi.

**Xulosa.** Termin va terminologiyaning ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish lingvistik tadqiqotlarda muhim ahamiyatga ega. Terminlar fan tili va tafakkur vositasi sifatida xizmat qilgani bois, ularni yaratish, rasmiylashtirish va izchil qo'llash zarur. Har bir ilmiy soha uchun maxsus terminologik baza zarur bo'lib, bu nafaqat fan taraqqiyotiga, balki o'zbek tilining ilmiy tilda mustahkamlanishiga ham xizmat qiladi. Kelajakda terminologik izchillik va milliy terminlarni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lishi lozim.

### ADABIYOTLAR:

1. Кодуков М. *Общее языкознание*. –М., 1974. –С.105.
2. Shoabdurahmonov Sh., Asqarov M. *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. –T.: O'qituvchi, 1980. - 280 b.
3. Tursunova U., Muxtorov A., Rahmatullaev Sh. *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. –T.: O'zbekiston, 1992.
4. Hojiev A. *Termin tanlash mezonlari*. –T.: Fan, 1996. - 190 b.
5. Dadaboyev Hamidulla. *O'zbek terminologiyasi*. –T.: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 2019
6. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Kognitiv\\_tizim](https://uz.wikipedia.org/wiki/Kognitiv_tizim).



TIL VA TAFAKKUR MUNOSABATINING INSON NUTQIDAGI AHAMIYATI

*Xoliyorova Charosxon Davron qizi,*

*O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

*charosxondavronovna@gmail.com*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola neyrolingvistikada til va tafakkur munosabati va uning ahamiyatini o'rganadi. Unda tilshunos olimlar, psixologlar va hattoki, faylasuflarning til va tafakkur munosabati va uning inson nutqida hamda ijtimoiy hayotdagi faolligini ifoda etgan adabiyotlar tahlili va munozaralari haqida fikrlar ilgari surilgan. Til va tafakkurning borliqdagi o'rni haqida o'rganilgan ma'lumotlar asosida atroflicha misollar keltirilgan. Maqola so'ngida o'rganilgan ma'lumotlarga tayangan holda takliflar va xulosalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** til, tafakkur, tilshunoslik, neyrolingvistika, nutq, fikr, ong, madaniyat.

ЗНАЧЕНИЕ ОТНОШЕНИЯ ЯЗЫКА И МЫШЛЕНИЯ В РЕЧИ ЧЕЛОВЕКА

**Аннотация.** Данная статья исследует взаимосвязь языка и мышления в нейролингвистике и её значение. В ней представлены мнения лингвистов, психологов и даже философов о соотношении языка и мышления, а также анализ и обсуждение литературы, отражающей его роль в человеческой речи и общественной жизни. На основе изученных данных о роли языка и мышления в бытии приведены подробные примеры. В заключение статьи представлены предложения и выводы, основанные на изученных материалах.

**Ключевые слова:** язык, мышление, лингвистика, нейролингвистика, речь, мысль, сознание, культура.

THE IMPORTANCE OF THE RELATIONSHIP BETWEEN LANGUAGE AND THOUGHT  
IN HUMAN SPEECH

**Abstract.** This article examines the relationship between language and thought in neurolinguistics and its significance. It presents perspectives from linguists, psychologists, and even philosophers on the analysis and discussion of literature that explores the relationship between language and thought and its manifestation in human speech and social life. Detailed examples are provided based on studied information about the role of language and thought in existence. The article concludes with proposals and conclusions drawn from the analyzed data.

**Keywords:** language, thought, linguistics, neurolinguistics, speech, idea, consciousness, culture.

**Kirish.** Zamonaviy tilshunoslikning neyrolingvistika sohasida til va tafakkur tushunchalarining o'rni beqiyosdir. Inson miya neyronlarida tafakkurning til bilan uzviy bo'lishi nutqning shakllanishi va tinglovchilarga tushunarli bo'lish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Til va tafakkur insonlarni yer yuzidagi boshqa jonzotlardan ajratib turuvchi asosiy jihatlardan biri hisoblanadi. Aslida bu ikki tushuncha bir-biri bilan o'xshash tushunchalar emas. Tafakkur- bu tashqi olamning inson ongida nomoyyon bo'lishi bo'lsa, til esa inson ongida nomoyyon bo'lgan fikrni bir shaklga solib tashqi olamga ifodalab berishdir. Bunday vaziyatda tafakkur mantiq ilmiga tayangan holda shakllansa, til qonunlari esa grammatikani o'rganishni va undan kerakli joyda unumli foydalanishni talab qiladi. Til va tafakkur go'yoki, shakl-mazmun munosabatiga daxldordek, ya'ni mazmun qanchalik chuqur hamda to'liq bolsa, shakl ham shunchalik rang barang va chiroyli bo'ladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Til va tafakkur munosabatining nutqdagi ahamiyatini o'rganar ekanmiz tilshunoslik, psixolingvistika, falsafa, madaniyatshunoslik va mantiq kabi ko'plab fanlarga murojaat qildik. Ushbu sohalarda faoliyat olib borgan va til va tafakkur munosabati haqida izlanishlar olib borgan ko'plab olimlar va ularning turli asarlari bilan tanishib chiqdik. Xususan, E. Sepirning "Language: An Introduction to the Study of Speech", Vigotskiyning "Fikrlash va nutq", amerikalik tilshunos N. Chomskiylar kabi olimlarni bunga misol qilib keltirish mumkin. N. Chomskiyning sintaktik nazariya aspektlari kabi asarlarni tahlil qilar ekanmiz til va tafakkur munosabati va ularning inson nutqidagi o'rni nechog'lik muhim ekanligini bilib oldik. Til va tafakkur munosabatiga nafaqat tilshunoslar, psixologlar balki o'z davrining yetuk faylasuflari ham fikr bildirishgan. Amerikalik faylasuf J. Searlni bunga misol qilib olsak

bo'ladi. Uning "The construction of social reality" asarida til faqat fikrli ifodalash vositasi emas, balki ijtimoiy haqiqatni yaratishda ham faol ishtirok etishini ta'kidlab o'tgan.

Biz monografiya, asarlarni o'rganish jarayonida, olimlarning biri ikkinchisini fikrlarini o'rgangani va ularning qarashlarini maqola orqali qisqacha va mazmunli qilib izlanuvchilarga taqdim etganini ham guvohi bo'ldik. Bunga misol qilib E.N Zaltaning "Vilgelm fon Gumbolt" maqolasini olsak. Ushbu maqolada avtor V. Gumboldtning til va tafakkur haqidagi fikrlarini o'z nuqtayi nazari bilan qo'llab quvvatlagan.

Shuningdek, nemis mumtoz gumanizmning yirik vakillari Gyote va F. Shiller "Yava orolidagi kavi tili haqida" asarida tilshunoslikdagi qiyosiy-tarixiy metodning falsafiy asoslarini yaratdi. Shuningdek, Gyote tillarning morfologik tasnifini ham ustida bir muncha ishlar olib bordi.

O'rganishlarimiz davomida o'zbek tilshunosligida ham til va tafakkur munosabatlarining nutqdagi o'rni mavzusida sezilarli darajada ilmiy izlanishlar olib borilganini guvohi bo'ldik. A. Madvaliyev, S. Madiyeva, G'. Raxmatullayev va E. Begmatovlarning asarlarida tilning tafakkur bilan aloqasining nutqda mujassam bo'lishi hususida masalalar yoritilgan. Tilni tafakkurning tashqi ko'rinishi sifatida talqin qilgan G' Raxmatullayevning asarlari aynan biz qiziqayotgan nutqning fikrni ifodalashdagi ahamiyatiga kuchliroq urg'u bergan.

Til vatafakkur o'rtasidagi bog'liqlik nutqda o'z ifodasini to'liq topishi haqida adabiyotlarni tahlil qilishimiz davomida amin bo'ldik. Qisqacha qilib aytganda til tafakkurning tashqi ko'rinishi bo'lsa, tafakkur tilning mazmuniy asosidir. Nutq esa tafakkurning voqelanishi bo'lib, insonning ijtimoiy, madaniy, aqliy tajribalarini aks ettiradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Til va tafakkur o'rtasidagi munosabat va uning inson nutqidagi ahamiyati haqida o'rganar ekanmiz, tilshunoslik, psixolingvistika, falsafa, kognitiv fanlar va albatta neyrolingvistika sohalariga yuzlanishga to'g'ri keldi. Bu ikki tushuncha va ularning faolligi biz yuqorida keltirgan fanlarning bir bo'lagi sifatida talqin qilinadi. Aslida har bir o'rganilayotgan tadqiqotning o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalari mavjud bo'lib, neyrolingvistik jihatdan o'rganishdan maqsad- til va tafakkurning inson nutqida qay tarzda nomoyyon bo'lishi va ularning nutqdagi o'rni hisoblanadi.

Tadqiqotni olib borish uchun, avvalo, Vigotskiy, N.Chomskiy, E. Sapir, V. Gumbolt, M.V. Lomonosov va A. Leontev kabi olimlarning nazariyalariga murojaat qilindi. Ushbu olimlar ilgari surgan nazariy bilimlar esa til va tafakkur haqida asosiy manbalar sifatida xizmat qila oladi.

Tadqiqotni olib borishda tajribaviy, ya'ni experimental metodlar ham katta ahamiyat kasb etadi. Bunda psixolingvistik experimentlar, assotsiativ tajribalar, matn tahlili kabi metodlar alohida o'rin egallaydi. Matn

asosida tahlil qilish pragmatika bilan bog'liqlikni ko'rsatib beradi. Bu vaziyatda aynan gap nima haqida ketayotgani yaqqol namoyyon bo'ladi. Demak, bizning ishimizda kontekstdan yoki vaziyatdan kelib chiqib xulosa chiqarish masalaga to'g'ri yondoshuvni belgilaydi.

Tilning tafakkurga qanday tasir qilishi yoki aksincha, tafakkurning til orqali qanday ifodalanishi bizning tadqiqotimizning predmeti deyishimiz mumkin.

**Tahlil va natijalar.** Ko'plab olimlar til va tafakkur munosabati va ularning inson nutqidagi o'rni haqida bir qancha o'rganishlar olib borishgan va o'zlarining fikrlarini bayon etishgan. Xususan, Vilgelm fon Gumboldt, Eduard Sepir [2.258] kabi mashhur tilshunoslarning til va tafakkurning aloqasi haqidagi fikrlari o'z davrida va bugungi kunda ham o'z ahamiyatiga egadir. "Til tafakkurimiz va hissiyotlarimizni predmetlar sifatida ifoda etadi, biroq u hissiyot va fikrlarimiz harakatiga ergashadi. Inson tili faqatgina vosita ekanligini va tildan tashqarida biz bilmagan dunyo bo'lib, biz uni til yordamida o'zlashtirishga harakat qilayotganligimizni tushunib turadi"[3.8] deydi buyuk tilshunos V. Gumboldt. Bu iqtibosdan olimning fikri, til bu tafakkurni tashqi olamda aks ettiruvchi vosita ekaniga urg'u berganini tushunishimiz mumkin. Agatha Christiening ABC murders nomli detektiv asaridagi bazi parchalar orqali fikrimizni yanada chuqurroq tushuntirishni maqul topdik.

- *After he'd broken the news to us, he said he'd leave any questions till later when we'd got over the first shock.*

- *"It is too cruel. Oh, it is too cruel," cried Mrs Bernard tearfully. "The cruellest thing that over was, is it [8.73]"*.

Yuqoridagi misolda ko'rishimiz mumkinki, marhumaning onasi juda qattiq iztirobni va kuchli alamni boshidan o'tkazaypti. Bu jarayondau atrofidagi insonlarga gapirganda, uning nutqida takrorlanish kuzatilmoqda. Tergovchi unga kasbi nuqtayi nazaridan ba'zi savollar bilan murojaat qilmoqchi, lekin ona hali hanuz bu voqeadan shok holatdaligini uning nutqi orqali tushunib olish qiyin emas. Va tilshunos olim takidlagani kabi, onaizorning nutqi orqali uning ichidagi hissiyotlari qanchalar kuchli ekanligini anglab olish mumkin. Inson emotsiyalarga va hissiyotlarga berilar ekan, bevosita bu jarayon uning tafakkuri va tilida nomoyyon bo'lishi mumkinligi yuqoridagi keltirilgan misolimizda o'z isbotini topdi.

E.Sepir ishlarida ham bu ikki hodisaning mohiyati haqida salmoqli fikr ko'rinadi. "Til o'z mohiyatiga ko'ra tafakkurgacha bo'lgan holatdir. U tafakkurni kuzatib boradi va bunda shakl va struktura yashirin bo'ladi... Til tayyor fikrga keltirib o'rnatiladigan yorliq emas... til insonga dunyoni qanday ko'rishni o'rgatadi" [3.24]. Xuddiki, bu yerda olim til inson miyasidagi fikrlar qanday bo'lsa shundayligicha emas, balki ularni shaklga solib tashqi muhitga chiqarishi kabi hususiyatga egaligi haqida takidlamochi.

Yana bir olim B. Uorfning fikriga ko'ra, "Har qanday til fikr ifodalashning quroligina emas, inson fikrlashi barcha tafakkur jarayonlari uchun grammatik dasturamal bo'lib xizmat qiladi". Uning ushbu fikri zahirida insonlar borliqini o'z tillari doirasida tushunadilar. Bunday vaziyatda insonning til va madaniyatlari ham xuddi tafakkur singari muhim ahamiyat kasb etadi.

Turli davrning olimlari o'z mentaliteti va fikrlash doirasi nuqtayi nazaridan bu ikki tushunchaga turlicha yondoshib turlicha fikrlarni keltirib o'tishgan. "*Kishining ko'ngli daryodur, so'z esadur, so'zlovchi esa g'avvosdur*". A. Navoiy qalamiga mansub ushbu misralarga nazar soladigan bo'lsak, ko'ngildan o'tgan har bir so'z yoki fikrlarni, inson o'z tafakkuri bilan til orqali maromiga yetkazgan holda nomoyyon etishi kerakligi haqida uqtirgandek go'yoki. XX asrda yashab ijod etgan sovet psixologi A. Leontev esa til ijtimoiy faoliyat orqali shakllanadigan tafakkurning asosiy elementi hisoblanadi, tafakkur esa ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, til orqali shakllanadi deya o'z asarlarida ma'lumot qoldirgan. Darhaqiqat, tilshunoslar lingvistik nuqtayi nazaridan, psixologlar inson hissiyotlarini etiborga olgan holda bu ikki tushunchaga e'tibor qaratishgan. Neyrolingvistik nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak, til va tafakkur inson miyasida vujudga kelgan biror bir fikrni miyada nutqiy muommolarning mavjudligi yoki aksinchaligi asosida shakllantirgan. Ya'ni insonda afaziya yoki qo'rquv, hayajon kabi muommolar bo'lgan taqdirda fikrlar to'raligicha nutqda paydo bo'lmasligi mumkin. Shuningdek, ba'zan qo'rquv tufayli inson yolg'on gapirishi yoki aksincha, aytishni xohlamagan ma'lumotini aytib yuborishi holatlari kuzatiladi. Misol tariqasida, Agatha Christiening "ABC murders" asaridan parcha keltirsak, "*I was ashamed of myself for being so suspicious. But – but i was suspicious... I thought of going to the front and watching her when she left the cafe*[8.88]. Bu qisqa parchada Donald Fraser uning bo'lajak rafiqasining o'limida gumondor sifatida chaqirilgan bo'lib, u o'zining gumondor bo'lganidan hayratda va shu jarayonda nima deb gapini davom ettirishni bilmay qolgan holatni kuztishimiz mumkin. Aslida ham qotillik daxshatli voqea hisoblanib, bu jarayonda tergovchi tomonidan berilayotgan savollar insonni har qanday holatga solib qo'yadi va inson beixtiyor nutqini yo'qotadi. Bu jarayonda tafakkur va til bogliqligi shundaki, kuchli hayrat tufayli gumondor ongida tafakkur jarayoni sustlashdi va bu tilda yaqqol nomoyyon bo'ldi.

Rus olimi M.V. Lomonosovning o'z davrida aytilgan va hozirga qadar o'z salohiyatini yo'qotmagan so'zlariga e'tibor qaaratsak "O'lo' tomonidan berilgan hayvonlardan ajratib turuvchi eng oliyanob qobiliyat tafakkurdir, birlamchi so'zdir[4.113–127]". Fikrlay olish, tahlil qilish va u orqali nimanidir tushunish va qaror qabul qilish bu insonga xos xususiyatdir. Yer yuzidagi boshqa jonzorlardan ham inson aynan shu tomonlama farqi kattadir, ya'ni inson fikrlaydi va tafakkur atalmish qobiliyatini nomoyish etadi. Uning insonligi ham aynan onga ega bo'lishida, til sohibi ekanligida va tafakkurli faoliyat egasi ekanligidadir.

Yana bir olim A.A. Potebnya ta'limotiga nazar soladigan bo'lsak, so'z masalasi, til va tafakkur munosabati masalalari uning asarlarida markaziy o'rinni egallagan va bosh g'oyasi hisoblanadi. "Til faqat aloqa vositasi emas, balki tafakkurning shakllanishi va amalga oshishidagi asosiy vositadir" [7.13]", deydi olim. Darhaqiqat, biz fikr yuritar ekanmiz uni miyamizda shakllantiramiz va bu jarayon tafakkur bilan tasavvurimizni uyg'unlashtiradi, so'ngra til yordamida uni tinglovchiga yetkazamiz. Olim go'yoki, tilni faqat aloqa vositasi sifatida chegaralab qo'ymaslikni yo'qlab chiqqandek.

Italiya mutafakkiri A. Dantening fikricha, odamzod tug'ulishi bilan qalbga, ruhga sohib bo'lavermaydi, insonga ruhni nutq ato etadi. Nutq esa lisoniy qobiliyatning faollashuvidir va ushbu qobiliyat faqat inson taqdiriga bitilgan, zero uning faoliyati ong orqali kechadi, aqlu farosat negizida yuzaga keladi[5.215]. Nutqiy tafakkur - doimiy va abadiy faoliyat hamda siz bilan biz inson ekanligimiz bois uning ijrochisi va egasimiz. Shuningdek, agar insonda neyrolingvistik muommolar aynan tilda vujudga kelgan bo'lsa, ma'lum bir vaqtga inson nutqini yo'qotishi va tafakkur inson ongida qolib ketishi mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Tilshunoslikda yangi paydo bo'lgan neyrolingvistika sohasi bugungi kunga kelib, aynan biz ko'rib chiqayotgan til va tafakkurning inson tushunchasi va nutqidagi o'rni va ahamiyati haqida ham o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygani, uning yangi fan doirasida ham sezilarli darajada ahamiyatini ochib beradi. Dunyo tillari juda ko'p qonun va qoidalarga ko'ra farqlansa, tafakkur tamoyillari esa irq, din millati jihatidan farqlanadi. Neyrolingvistika esa insonning fikr yuritishi va nutq munosabatini izchilligini, bu jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tildagi va tafakkurdagi muommolarni o'rganadi. Shu nuqtayi nazardan, biz ushbu maqolamizda til va tafakkurning o'zoro munosabati, ularning inson nutqidagi ahamiyati va bu borada tilshunos, psixolog va hattoki, faylasuf olimlarning fikrlarini ham atroflicha o'rganib chiqdik.

### ADABIYOTLAR:

1. Zalta E. N. Wilhelm von Humboldt // *The Stanford Encyclopedia of Philosophy* / ed. by Edward N. Zalta. – Stanford University, 2020
2. Sapir E. *Language: An Introduction to the Study of Speech*. – New York.: Harcourt, Brace and Company, 1921.
3. Горелов И.Н. *Основы психолингвистики*. -М., 1997
4. Safarov Sh. *Kognitiv tilshunoslik*. – Jizzax, 2006
5. Ломоносов М. В. *Полное собрание сочинений: В 11 т. – М.: Изд-во АН СССР, 1952. – Т. 7: Философские произведения.*
6. Данте А. *О народном красноречии: Книга I–II / Перевод с латинского, вступительная статья и комментарии Я. А. Лентулова. – Москва: Наука, 1968.*
7. Потебня А.А. *Мысль и язык. — Харьков: Университетская типография, 1862. Ст-13*
8. Agatha Christie. *The ABC Murders*. – London: 2013
9. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Tafakkur>



## РАСКРЫТИЕ ЗНАЧЕНИЯ ПОЛИСЕМАНТИЧЕСКИХ СЛОВ ПУТЁМ ПОЯСНЕНИЯ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

*Хушмуродова Камола Бахтиёр кизи,  
преподаватель русского языка университета Турон*

**Аннотация.** Данная статья посвящена исследованию значений многозначных слов в русском и узбекском языках. В статье анализируются значения полисемантических слов путём пояснения. Результаты исследования позволяют лучше понять значения полисемантических слов и оценить их эффективность в устной речи. При обучении узбекских студентов русскому языку, особенно когда речь идёт о многозначной лексике, крайне важно провести тщательный сравнительный анализ использования таких слов в обоих языках. Это позволяет выявить как сходства, так и различия в семантических полях аналогичных слов в русском и узбекском языках, что, в свою очередь, помогает разработать эффективные методические подходы для обучения.

**Ключевые слова:** полисемантические слова, русско-узбекский перевод, семантическая структура, лексико-семантика, фразеологизм, лингвистический контекст, пейорация, амелиорация, лексическое значение слова.

## RUS VA O'ZBEK TILIDA IZOH YO'LIDA POLISEMANTIK SO'ZLAR MA'NOSINI OSHKOR QILISH

**Annotatsiya.** Maqola o'zbek va rus tillaridagi ko'p ma'noli so'zlarning ma'nolarini izohlashga bag'ishlanadi. Maqolada polisemantik so'zlarning ma'nolari izohlash usuli bilan aniqlanadi. Tadqiqot natijalari polisemantik so'zlarning ma'nolarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi va shu bilan birga ularning og'zaki nutqdagi samaradorligini baholaydi. O'zbek talabalarga rus tilini o'rgatishda, ayniqsa, ko'p ma'noli leksikaga oid so'zlar haqida gap ketganda, bunday so'zlarning har ikki tildagi qo'llanilishini puxta taqqoslab tahlil qilish nihoyatda muhimdir. Bu rus va o'zbek tillaridagi o'xshash so'zlarning semantik maydonlaridagi umumiyliklar va farqlarni aniqlash imkonini beradi hamda, o'z navbatida, o'qitish uchun samarali metodik yondashuvlarni ishlab chiqishga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** ko'p ma'noli so'zlar, ruscha-o'zbekcha tarjima, semantik struktura, leksik-semantika, frazeologizm, lingvistik kontekst, peyoratsiya, amelioratsiya, so'zlarning leksik ma'nosi.

## DISCLOSURE OF THE MEANING OF POLYSEMANTIC WORDS BY EXPLANATION IN RUSSIAN AND UZBEK LANGUAGES

**Abstract.** This article explores the meanings of polysemantic words in Russian and Uzbek. The study analyzes the meanings of these words through explication. The findings provide a deeper understanding of the meanings of polysemantic words and assess their effectiveness in spoken language. When teaching the Russian language to Uzbek students, especially when it comes to polysemantic vocabulary, it is essential to conduct a thorough comparative analysis of how such words are used in both languages. This helps to identify both similarities and differences in the semantic fields of analogous words in Russian and Uzbek, which, in turn, contributes to the development of effective teaching methodologies.

**Keywords:** polysemantic words, Russian-Uzbek translation, semantic structure, lexical semantics, phraseologism, linguistic context, pejoration, amelioration, lexical meaning of words.

**Введение.** Сопоставительное изучение многозначных слов русского и узбекского языков выявляет важность корректных межъязыковых сопоставлений, которые должны учитывать особенности лексической системы узбекского языка. Это осознание способствует не только количественному, но и качественному обогащению словарного запаса учащихся, расширяя их понимание и возможности использования русской многозначной лексики.

Особое значение приобретает создание научно обоснованной методики обучения, основанной на тщательном сопоставлении и анализе лексико-семантических групп в русском и узбекском языках. Такой подход позволяет более полно раскрыть семантику и функциональные особенности лексики обоих языков, что является фундаментом для эффективного обучения многозначной лексике.

**Обзор литературных источников.** Развитие представлений о значении слова и его трансформациях в лингвистике действительно представляет собой сложную и многогранную область исследований. В процессе изучения семантических переносов, то есть изменений в значении слова под влиянием различных факторов, можно выделить несколько ключевых тенденций, которые могут способствовать формированию целостной теории семантических трансформаций:

1. Метафорические и метонимические переносы: Одни из наиболее распространённых типов семантических трансформаций, при которых значение слова расширяется или изменяется через ассоциативные связи.

2. Полисемия и моносемия: изучение многозначности слов и процессов, в результате которых слова приобретают новые значения или, наоборот, утрачивают часть своих значений, сосредоточиваясь на одном основном.

3. Исторические изменения в значении: анализ того, как и почему значения слов менялись со временем, что может включать явления, такие как амелиорация (поднятие статуса слова) и пейорация (понижение статуса).

4. Влияние культурных и социальных изменений: рассмотрение того, как изменения в обществе и культуре влияют на значение слов и приводят к появлению новых значений или устареванию старых.

5. Лингвистический контекст и употребление: изучение роли контекста и употребления слова в процессе его семантических изменений, включая вариативность значений в разных языковых средах.

В мировом языкознании изучение полисемии имеет богатую историю, и сегодня продолжают исследования, в том же числе и в гибридном аспекте. В своих работах В.В. Виноградов, А.А. Уфимцева, Ю.Д. Апресян исследовали различные аспекты полисемии [1].

Семантические свойства многозначных слов изучали А.Ю.Романов, О.А.Булгакова, С.Ф.Акабиров, Р.А. Будагов, О.С.Ахманова, Л.П.Алекторова и другие [2].

В узбекской лингвистике проблема многозначности исследовалась Ш. Рахматуллаевым, А. Хожиевым, М. Аскаровой и другими.

**Методология исследования.** Трудности в создании целостной теории семантических трансформаций возникают как из-за объективной сложности самой семантической системы языка, так и из-за субъективных интерпретаций значений, различных у говорящих и слушающих. Объективные трудности также связаны с определением исходного состояния значения и его последующих трансформаций, что требует комплексного подхода, включающего исторический, культурный, социальный и когнитивный анализ. Создание универсальной теории, объясняющей все аспекты семантических изменений, представляет собой сложную задачу, требующую междисциплинарного подхода и учёта множества переменных.

Разберём слово «звезда»:

В русском языке «звезда» имеет 4 значения:

1. небесное тело;
2. фигура с треугольными выступами;
3. известная личность в спорте, искусстве;
4. офицерский знак. [3]

В узбекском языке, как и в русском языке, слово «звезда» имеет 4 значения.

1. Qizigan gaz (plazma)lardan tarkib topgan, tabiatiga ko'ra quyoshga o'xshaydigan, kechasi nur sochuvchi nuqta bo'lib ko'rinadigan osmon jismi.

2. Bir necha o'tkir uchli geometrik shakl hamda shunday shaklga ega bo'lgan narsa.

3. (ko'chma) Mashhur bo'lib tanilgan, shuhrat qozongan shaxs haqida.

4. Yulduz (xotin-qizlar ismi) [4].

Из этих значений 1,2,3 значения слово «звезда» одинаково в двух языках.

Размышления о многоуровневой системе языка и изоморфизме его структур с физикой представляют собой глубокий анализ семиотической природы языка. Включение фонологических элементов и оппозиций в лингвистический анализ действительно открывает новые возможности для понимания динамики и механизмов языка [5]. Проблема разграничения значения слова от логического понятия влечёт за собой необходимость глубокого понимания природы лексического значения. Лексикографу предстоит не просто фиксировать значения слов, но и раскрывать новые способы восприятия и интерпретации мира через язык, отражая его в лексике, не превращаясь при этом в энциклопедиста. Это подчёркивает важность учёта контекстуальной и культурной специфики в языке.

Действительно, существует различие между научными понятиями и лексическими значениями, которые включают в себя не только понятия, но и эмоциональные, культурные и контекстуальные аспекты. Различия в лексических значениях слов разных языков отражают не только разное восприятие мира, но и различные способы его категоризации и описания.

Языковые значения не являются наивными; они накапливают и передают человеческий опыт, отражая и адаптируя достижения научного познания. Понимание лексического значения как совокупности семантических компонентов или как результат взаимодействия с контекстом помогает осмыслить сложность и многогранность языка.

Слово «*сердце*» в русском языке иллюстрирует явление полисемии, когда одно слово обладает несколькими значениями, которые объединены общим корнем, но различаются в зависимости от контекста. Рассмотрим подробнее каждое из значений:

1. **Анатомическое значение:** Слово «*сердце*» обозначает жизненно важный орган в теле человека и животных, отвечающий за кровообращение. Это самое прямое и буквальное значение слова, которое используется в медицине и биологии.

2. **Переносное значение (символ души и чувств):** В переносном смысле «*сердце*» выражает эмоции, чувства и настроения человека. Это одно из самых распространённых метафорических значений, в котором сердце ассоциируется с местом происхождения глубоких переживаний, любви, сострадания или жестокости. Используется в литературе, поэзии и повседневной речи.

3. **Переносное значение (средоточие, центр):** «*Сердце*» также может обозначать центральную или самую важную часть чего-либо, например, города, страны или даже какого-то процесса. Это значение подчёркивает ключевую роль или значимость чего-либо в общей структуре.

4. **Символическое значение:** В культуре и искусстве «*сердце*» часто используется как символ любви и романтических чувств, особенно в виде стилизованного изображения. Это значение широко распространено в валентинках, ювелирных изделиях и других предметах, связанных с выражением любви и привязанности.

Каждое из этих значений раскрывает разные аспекты слова «*сердце*» и демонстрирует его глубокую семантическую насыщенность в русском языке. Это слово охватывает широкий спектр человеческих эмоций и отношений, отражая важные культурные и философские концепции. [3]

В узбекском варианте 5 значений:

1.(anat.) Odam va hayvonlar ko'krak qafasi ichida joylashgan, ularning qon aylanish sistemasidagi muskul qopchiqqa o'xshash markaziy a'zo.

Yurak bir-biri bilan tutashmaydigan ikki qismdan iborat bo'lib, bu qismlar bir-biridan yaxlit to'siq bilan ajralgan. Anatomiya

Kumushning harorati kuchli, yurak urishi favqulodda tez edi. A. Qodiriy, O'tgan kunlar.

2. (ko'chma) Kishining his-sezgisi, ruhi, kechinmalarining ramziy markazi, ular saqlanadigan joy; qalb, dil.

Qisman u [Zebo] haqli edi. Zotan asrlar fojiasi va quvonchi bo'lgan muhabbat juda qadimiy narsa bo'lsa ham, har bir yurakda misli ko'rilmagan o'ziga xoslik bilan barq uradi. Shuhrat, Shinelli yillar.

3. Qo'rqmaslik, jasorat va shu kabilar ramzi.

Men uning O'tapboy qushbegiga qilgan muomalasini eshitib, yuragingga balli, degan edim. A. Qodiriy, O'tgan kunlar.

4.(ko'chma) Biror narsaning asosi, markazi.

Ha, ular Toshkent temir yo'l ustaxonasi Turkistonda qo'zg'olonning yuragi ekanini tushunadilar. N. Safarov, Sharq Tongi.

5.(s. T.) Qorin, oshqozon.

Uning yuragi g'ijimlab og'riyapti. [4]

**Анализ полученных результатов.** Понимание транспозиции (переноса значений слов из одного языка в другой) и интерференции (влияния первого языка на второй) играет ключевую роль в преподавании. Студенты могут столкнуться с трудностями, связанными с различиями в объёме и оттенках значений многозначных слов между их родным языком и русским. Например, слово, которое в русском языке имеет множество значений, может иметь в узбекском только одно или два основных значения, что делает процесс понимания и использования этого слова в речи более сложным.

Задача методиста заключается в разработке таких учебных материалов и упражнений, которые бы не только демонстрировали разнообразие значений многозначного слова в русском языке, но и способствовали формированию у учащихся способности корректно интерпретировать эти значения в различных контекстах. Это включает в себя работу с контекстуальными примерами, упражнения на

дифференциацию значений слова в разных ситуациях, а также обучение тому, как избегать типичных ошибок, связанных с неправильным переносом значений из родного языка.

Кроме того, важно использовать сравнительный подход, который помогает учащимся осознать и понять различия между русским и узбекским языками в плане семантического объёма слов и способствует более глубокому осмыслению процесса обучения. В идеале, это приводит к более успешному усвоению многозначных слов и улучшению навыков их употребления в речи. Для достижения обозначенной цели предпринятого антропоцентрического исследования мы обратились к следующим научным методам: сравнительному методу, методу установления количественных и процентных характеристик, методу сравнения определений, методу структурно-семантического анализа. Проблема многозначности ставит переводчика перед выбором. Большинство учёных считают полисемию объективной данностью, но, несмотря на это, нельзя отрицать тот факт, что такое явление до сих пор вызывает большой интерес и споры. Действительно, все учёные признают, что слова могут быть однозначными или многозначными. В то же время они рассматривают многозначность как естественный процесс развития языка и лексической системы: в частности, она служит показателем качества языковой культуры. Кроме того, неоднозначность является результатом человеческого мышления, расширяющего кругозор и мировоззрение человека. С помощью раскрытия понятия читатель текста может сделать соответствующие выводы о выборе нужного слова. Переводчик как бы «взвешивает» различные лексические возможности, синонимы и в конечном итоге выбирает ту лексическую единицу, которая наиболее подходит данному контексту. Не следует исключать ряд личных особенностей как переводчика, так и автора. Помимо этих проблем, стоит отметить лингвокультурологическую или страноведческую специфику. Проиллюстрируем сказанное на примере слова «поездка». В русском языке это слово имеет значение «перемещение по территории или акватории в целях ознакомления». [6]

Многозначность слов – это действительно fascinирующее явление в языке, которое указывает на его динамичность и адаптивность к изменениям в обществе и культуре. Процесс приобретения словами новых значений иллюстрирует, как язык отражает и реагирует на новые реалии, концепции и технологии, возникающие в жизни общества.

Как было правильно замечено, развитие словарного запаса происходит не только за счёт создания новых слов, но и за счёт увеличения количества значений уже существующих слов. Это приводит к тому, что слова становятся многозначными, при этом старые и новые значения могут сосуществовать, дополняя друг друга и обогащая языковую картину мира.

Аристотель действительно был одним из первых, кто обратил внимание на явление многозначности, особенно в контексте искусства и риторики. В его работах многозначность слов рассматривалась как средство для создания богатых, многослойных текстов, способных вызывать различные ассоциации и интерпретации у аудитории [7].

Современный язык продолжает эволюционировать, и слова регулярно приобретают новые значения. Пример с узбекскими словами o't, означающими как «растение», так и «пройди», иллюстрирует, как в одном языке могут существовать слова с различными значениями, при этом сохраняя свою идентичность и обогащая языковое разнообразие.

Таким образом, многозначность является не только свидетельством гибкости и адаптивности языка, но и важным инструментом для выражения множества идей и понятий в рамках ограниченного словарного запаса. Она открывает широкие возможности для изучения языка, его истории, культуры и социальных процессов, отраженных в языковых единицах.

Многозначность слов в языке – это важная и неотъемлемая его характеристика, позволяющая языку быть экономичным и эффективным инструментом коммуникации. Она возникает как результат стремления к максимальной информативности и выразительности при минимальном количестве используемых лексических единиц. Это, безусловно, делает язык более гибким и адаптируемым к разнообразным ситуациям общения.

**Заключение.** Сравнение многозначных слов в разных языках открывает возможности для более глубокого понимания культурных особенностей и специфики мышления носителей этих языков. Такой анализ может обогатить процесс изучения иностранных языков, предоставляя студентам не только лингвистические, но и культурные знания.

В заключение, полисемия далеко не является помехой для изучения иностранных языков. Наоборот, она делает язык более богатым и интересным для изучения, предоставляя учащимся уникальную возможность проникнуть в суть языка и культуры его носителей.



### *ЛИТЕРАТУРА:*

1. Виноградов, В. В. Основные типы лексических значений слова / В. В. Виноградов // *Вопр. языкознания*. 1953./ Уфимцева, А. А. Слово в лексико-семантической системе языка / А. А. Уфимцева. -М.: Наука, 1968. 272 с./ Апресян, Ю. Д. Избранные труды: в 2 т. Т. 1. Лексическая семантика / Ю. Д. Апресян. 2-е изд., испр. и доп. - М.: Школа «Языки русской культуры», 1995.-472 с.
2. Романов А.Ю. Многозначные слова и работа над ними. // *Russian language journal*. Vol.50. No.165 /167 /.
3. Булгакова О.А. Представленность многозначных слов в словарных статьях пропозиционально-фреймового словаря. // *Ученые записи Новгородского государственного университета*. 2017. №10.
4. Будагов Р.А. Закон многозначности слова, -М.,1976.
5. Ахманова О.С. Очерки по общей и русской лексикологии.
6. Ожегов С. Толковый словарь русского языка.М. 2012. - С.1737.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5-jild.A. Madvaliyev Tahriri ostida. Toshken. - 2006. 4-Jild. - 310 b.
8. Макеенко И. В. Семантика цвета в разноструктурных языках: универсальное и национальное: дис. канд. филол. наук // И. В. Макеенко; Саратов, гос. ун-т. Саратов, 1999. – С.258.
9. Маслова В. А. Лингвокультурология. М.: «Академия», 2001. – С.79.
10. Аристотель: Риторика. Поэтика; Редактор: Никитенко Н; Издательство АСТ, 2018 г.

**СТАНДАРТЛАШТИРИШ, МЕТРОЛОГИЯ, СЕРТИФИКАТЛАШТИРИШ ВА СИФАТНИ БОШҚАРИШ СОҲАЛАРИДАГИ АТАМАЛАР ВА ТАЪРИФЛАРНИНГ РУСЧА-ЎЗБЕКЧА ЖАМЛАНГАН ЛУҒАТИ: ДОЛЗАРБЛИГИ, ЮТУҚЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ**

**Mamadaliyeva Naibaxon Saydaminovna,**

*filologiya fanlari doktori, professor*

*naibakhon@bk.ru*

ORCID: <https://orcid.org/0009-0009-0489-3380>

**Mamadaliyeva Odinaxon Nozim qizi,**

*O'zbekiston Milliy universiteti*

*kamilovaodina49@email.com*

**Аннотация.** Ушбу илмий мақолада стандартлаштириш, метрология, сертификатлаштириш ва сифатни бошқариш соҳаларидаги атамалар ва таърифларнинг русча-ўзбекча изоҳли луғати яратилишининг илмий-методологик асослари, долзарблиги, ютуқ ва камчиликлари, фойдаланиш аҳамияти ҳамда истиқболлари таҳлил қилинади. Луғатнинг мутахассислар, олимлар, муҳандис-техник ходимлар ва талабалар учун ахборот манбаи сифатидаги ўрни ёритилади. Ушбу луғат Ўзбекистон Республикасида техник жиҳатдан тартибга солиш соҳасида давлат тилини мустаҳкамлаш ва тармоқлараро ҳамкорликни ривожлантиришида муҳим қадам сифатида баҳоланади.

**Калит сўзлар:** атамашунослик, луғат, стандартлаштириш, метрология, сертификатлаш, сифат менежменти, русча-ўзбекча терминология.

**СОВРЕМЕННЫЙ РУССКО-УЗБЕКСКИЙ СЛОВАРЬ ТЕРМИНОВ И ОПРЕДЕЛЕНИЙ В ОБЛАСТЯХ СТАНДАРТИЗАЦИИ, МЕТРОЛОГИИ, СЕРТИФИКАЦИИ И УПРАВЛЕНИЯ КАЧЕСТВОМ: АКТУАЛЬНОСТЬ, ДОСТИЖЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ**

**Аннотация.** В данной научной статье рассматриваются научно-методологические основы, актуальность, достижения и недостатки, а также перспективы создания русско-узбекского толкового словаря терминов и определений в области стандартизации, метрологии, сертификации и управления качеством. Анализируется значимость словаря как информационного ресурса для специалистов, учёных, инженерно-технических работников и студентов. Словарь оценивается как важный шаг в укреплении государственного языка в сфере технического регулирования и развитии межотраслевого сотрудничества в Республике Узбекистан.

**Ключевые слова:** терминология, словарь, стандартизация, метрология, сертификация, менеджмент качества, русско-узбекская терминология.

**A MODERN RUSSIAN-UZBEK DICTIONARY OF TERMS AND DEFINITIONS IN STANDARDIZATION, METROLOGY, CERTIFICATION, AND QUALITY MANAGEMENT: RELEVANCE, ACHIEVEMENTS, AND PROSPECTS**

**Abstract.** This scientific article analyzes the scientific and methodological foundations, relevance, achievements, shortcomings, and prospects of developing a Russian-Uzbek explanatory dictionary of terms and definitions in the fields of standardization, metrology, certification, and quality management. The article highlights the importance of the dictionary as an information resource for professionals, scientists, engineering and technical staff, and students. It is considered a significant step in strengthening the use of the state language in technical regulation and fostering intersectoral cooperation in the Republic of Uzbekistan.

**Keywords:** terminology, dictionary, standardization, metrology, certification, quality management, Russian-Uzbek terminology.

**Қириш.** Маълумки, атамашунослик – бирор-бир фаолият соҳасида қўллаш учун атамалар мажмуи (тўплами)дир. Атоқли олим А.А.Реформатскийнинг таъбири бўйича, атамашунослик ва “атамалар, уларнинг таркибий қисми сифатида, улар ёрдамида илмий назариялар, қонунлар, принциплар, қоидалар шаклланадиган восита ҳисобланади”[1], яъни “атамаларда ижтимоий ташкил

этилган вокелик акс этади, шунинг учун атамалар ижтимоий мажбурий хусусиятга эга”. Илм-фаннинг ҳар бир соҳасидаги атамашунослик маълум ҳажмдаги атамалар билан чегараланган, чунки унинг асосий тушунчалари тизимини оғзаки акс эттиради. Шу сабабли миллий атамалар луғатлари ва тармоқлараро атамалар луғатларини яратиш муҳим аҳамиятга эга [2].

Атамалар ва таърифларга доир талаблар ва ёндашишнинг ягона яхлит тизимини яратиш, шунингдек, мутахассислар, муҳандис-техник ходимлар ва тадбиркорларни тегишли қўлланма билан таъминлаш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Техник жиҳатдан тартибга солиш агентлиги ва унинг тизим ташкилоти, стандартлар бўйича Миллий орган – Ўзбекистон Стандартлар институти масъул ходимлари ва олимлари томонидан “Стандартлаштириш, метрология, сертификатлаштириш ва сифатни бошқариш соҳаларидаги атамалар ва таърифларнинг русча-ўзбекча жамланган луғати” нашр қилинди[3] ва унга Интеллектуал мулк маркази томонидан муаллифлик гувоҳномаси[4] олинди.

**Методология ва илмий ёндашув.** Изоҳли луғатни тайёрлашда ISO[5], ГОСТ”[6], Ўзбекистон миллий стандартлари[7], VIM”[8] ва VIML”[9] каби халқаро ва маҳаллий норматив ҳужжатлар таҳлил этилди. Атамаларни танлашда уларнинг соҳавий аҳамияти, қўлланиш частотаси, ҳуқуқий кучга эга ҳужжатлардаги мавжудлиги ва тиллараро семантик аниқлик мезонлари инобатга олинди.

Луғатда 1987 та атама берилган бўлиб, уларни тизимлаштириш жараёнида лексикографик таҳлил, этимологик муқояса, мутахассислар фикрлари ва семантик ўзгарувчанликни ҳисобга олиш усуллари қўлланилди. Луғат алифбо тартибида тузилган ва ҳар бир атама учун таржима, қисқача таъриф, зарурат бўлса, мисол ва манба келтирилган.

**Натижалар ва таҳлил.** Амалдаги норматив-техник ҳужжатларда метрологиянинг асосий тушунчаларини тўғри талқин қилишни қийинлаштирувчи ноаниқликлар учраб туради, масалан, “физик катталиқ”, “физик катталиқнинг ҳақиқий қиймати”, “ўлчаш”, “ўлчаш воситаси” ва бошқалар. Ҳар бир мутахассисни қаноатлантирадиган атамалар ва тушунчалар таърифи тизимини шакллантиришни амалга ошириб бўлмайди, чунки турли тажриба ва ҳар хил шахсий идрок этиш натижасида худди ўша таъриф ёки атама турли кишиларда бир қадар бошқа тасаввурни келтириб чиқариши мумкин. Шу муносабат билан ушбу атамашунослик луғати ишлаб чиқилди, унга стандартлаштирган атамалар билан бир қаторда ҳам халқаро ҳужжатлардан олинган, ҳам муаллифлар томонидан ишлаб чиқилган атамалар ва таърифлар киритилган.

Мазкур луғат аббревиатуралар, акронимлар, қисқартмалар ва шартли белгиларнинг катта миқдорини ўз ичига олган ҳамда рус ва ўзбек тилларида стандартлаштириш, метрология, сертификатлаштириш бўйича илмий, техник ва махсус адабиётлар билан ишлашда асосий маълумот берадиган лексикографик қўлланма ҳисобланади. Шу нуқтаи назардан ҳам, луғатни тайёрлаш ва нашр қилиш зарурати ҳам давлат, ҳам рус тилларининг қонуний ривожланиши ва табиий эҳтиёжи, айрим анъанавий тушунчаларнинг маъновий таърифлари ўзгаргани, янги, “халқаро” атамалар пайдо бўлгани билан юзага келди.

Мустақиллик йилларида Ўзбекистон халқ хўжалигининг жадал ривожланиши техник тараққиёт, илм-фан ва техниканинг замонавий ютуқларидан кенг фойдаланиш, автоматик бошқарувнинг замонавий тизимларини қўллаш, компьютер технологияларидан кенг фойдаланиш билан чамбарчас боғлиқлиги ушбу атамалар ва таърифлар луғатини ишлаб чиқишга туртки бўлди. Саноатнинг янги тармоқларини яратиш, янги технологияларни кенг жорий этиш жуда катта ҳажмдаги махсус техник адабиётни ишлаб чиқиш ва нашр этишга олиб келди. Шу билан бирга, бошқарув, логистиканинг янги йўналишлари ривожланмоқда, замонавий ахборот технологияларидан фойдаланиб бошқариш, ишлаб чиқаришнинг автоматлаштирилган бошқаруви, иктисодиётни режалаштиришнинг такомиллашган тизимлари ишлаб чиқилмоқда ва яратилмоқда. Буларнинг барчаси техник адабиётларга бўлган катта қизиқишни қатъий талаб қилади ва юзага келтиради.

Илм-фан ва техниканинг янги йўналишлари, қайта ташкил этилган ва шиддат билан ривожланаётган илмий йўналишлар мавжуд техник атамашуносликнинг узлуксиз такомиллашишига ва янгилари кириб келишига олиб келади. Буларнинг барчаси илмий-техник атамашуносликни пухта ўрганиш, тизимлаштириш ва аниқлаштириш заруратини келтириб чиқарди. Илм-фан ривожланишининг замонавий босқичида бир вақтнинг ўзида ҳисобга олиб бўлмайдиган барча жараёнларнинг шиддатли жадаллашуви кузатилмоқда.

Маълумки, стандартлаштириш, метрология, сертификатлаштириш ва сифатни бошқариш соҳаларига тегишли бўлган кўпгина ўзига хос атамалар лотин, юнон, инглиз, рус ва бошқа тиллардаги ўзакларга эга ва давлат тилига таржима қилинган. Лекин тармоқлараро, ишлаб чиқариш ва бошқа ҳужжатларни таржима қилишда ёки давлат тилида янги лойиҳаларни ишлаб чиқишда фойдаланиш учун мажбурий бўлган тегишли атамашунослик луғатларининг йўқлиги сабабли ўз-ўзидан турли ва қарама-қарши тушунчалар ҳосил

бўлишига сабаб бўлади. Шунинг учун миллий стандартлари ёки соддалаштирилган давлатлараро стандартлар, метрологик ҳужжатлар билан ишлаш қоидалари тўғрисида гап кетганда, ишланаётган ҳужжатнинг асл моҳияти бузилишига олиб келиши мумкин бўлган у ёки бу атаманинг нотўғри таржима қилиниши ёки изоҳланиши мумкинлиги ҳар доим мавжуд. “Стандартлаштириш, метрология, сертификатлаштириш ва сифатни бошқариш соҳаларидаги атамалар ва таърифларнинг русча-ўзбекча жамланган луғати”ни яратиш шу каби хатоларни чеклаш ёки уларга йўл қўймаслик мақсадини кўзлайди ва у стандартлаштириш, метрология, сертификатлаштиришнинг барча соҳаларида кенг фойдаланиш учун мўлжалланган ва амалдаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни рус тилидан давлат тилига таржима қилиш бўйича ишларда ниҳоятда зарур.

Луғатнинг ютуқлари сифатида шуни айтиш мумкинки, ҳозирги вақтда Ўзбекистон иқтисодиётининг барча тармоқларида стандартлаштириш, техник жиҳатдан тартибга солиш, метрология, сертификатлаштириш, таснифлаш ва кодлаш, сифат менежменти тизими каби фаолият соҳалари қўлланилмоқда. Норматив-ҳуқуқий ва норматив-методик ҳужжатлар нашр қилинди ва уларга амал қилинмоқда. Сўнгги йилларда ушбу фаолият соҳалари илм-фан ва амалий фаолият соҳалари сифатида жуда жадал ривожланмоқда ва уларга талаб ҳам ортиб бормоқда. Уларнинг самарали шакллари ва усулларини қўллаш масалалари давлат сиёсати даражасида ҳал қилинмоқда.

Махсус атамаларни тизимлаштириш ва мувофиқлаштириш бўйича амалга оширилган ишлар катта фактик материал йиғиш имконини беради ва атамашуносликни ушбу фаолият соҳаларида илмий, фан ва амалий фаолият йўналиши сифатида комплекс тарзда кўриб чиқиш вазифасини ҳал қилади. Шу нуқтаи назардан, стандартлаштириш, метрология, сертификатлаштириш амалиётида ўзига хос ва кўплаб умумий атамалар қўлланилади, ушбу ва турдош соҳаларда фаолият юритувчи мутахассислар уларни билиши, бир хил ва тўғри шарҳлаши талаб қилинади.

Луғатда техник жиҳатдан тартибга солиш, стандартлаштириш, метрология, сертификатлаштириш, сифат менежменти тизими ва мувофиқликни баҳолаш бўйича билимлар соҳаларида энг кўп тарқалган ва қўлланиладиган 1987 та атама келтирилган. Луғатда берилган атамалар ва таърифларни тизимли маънода шарҳлашга қўмаклашувчи амалий қўлланма сифатида тақдим этилди. Луғат стандартлаштириш, метрология, сертификатлаштириш ва сифатни бошқариш, шунингдек, турдош соҳалар бўйича мутахассисларга, муҳандис-техник ходимлар ва тадбиркорлар, олимлар, ўқитувчиларга, олий таълим муассасалари, коллежлар ўқувчиларининг кенг доирасига мўлжалланган бўлиб, асосий атамалар “ҳарфма-ҳарф” принципи бўйича, яъни яхлит ҳисобланадиган сарлавҳа барча сўзларининг ҳарф таркиби бўйича тўғридан-тўғри алифбо тартибида келтирилган.

Шунингдек, илк бор стандартлаштириш, метрология, сертификатлаш ва сифатни бошқариш соҳаларидаги русча-ўзбекча атамалар илмий-амалий жиҳатдан тизимлаштирилди. ISO, ГОСТ ва Ўзбек миллий стандартлари билан мувофиқлик таъминланди. Атамалардаги аниқлик, контекстуал изоҳлар ва тавсия этилган таржима варианты берилди. Луғат таълим, илмий тадқиқот, мутахассислик тайёрлови ва таржимонлик соҳаларида кенг қўлланилиши мумкин.

Тақдим этилаётган изоҳли луғатни тайёрлаш жараёнида қатор муаммо ва эътибор қаратиш лозим бўлган жиҳатлар кузатилди. Уларнинг барчаси лойиҳани янада такомиллаштириш, уни амалиётга жорий этишда эътиборга олиниши лозим. Қуйида ушбу масалалар ҳақида батафсил маълумот келтирилади, лекин бу масалалар нашр қилинган луғат сифатига таъсир қилмайди:

1. **Айрим атамаларнинг ўзбек тилида бевосита муқобилининг мавжуд эмаслиги:** Хусусан, стандартлаштириш, метрология ва сифатни бошқариш соҳаларида қатор атамалар борки, уларнинг давлат тилидаги тўлиқ ёки тўғридан-тўғри лексик мувофиқлиги мавжуд эмас. Бундай ҳолларда маъноли тушунтиришлар ва шарҳлар орқали атаманинг мазмунини очиқ берилди. Бу эса луғатнинг турли тушунишларга сабаб бўлиши мумкин бўлган нисбий субъективлик даражасини оширган.

2. **Айрим атамаларнинг рус тилида бир неча маъноли вариантларга эга бўлиши:** Рус тилидаги техник ва соҳавий атамалар кўпинча турли соҳаларда турлича маъноларга эга бўлади. Бу эса ўзбек тилига таржима қилишда семантик ноаниқлик ва талқинда зичлик юзага келишига сабаб бўлди. Айрим ҳолларда атамалар умумлаштирилган ёки кенг қамровли маънода олинди.

3. **Луғатнинг электрон ва интерактив муҳитда жойлаштирилмаганлиги:** Ҳозирда мазкур луғат фақатгина текстли шаклда мавжуд бўлиб, у веб-сайт, мобил иловалар ёки интерактив платформада жойлаштирилмаган. Бу эса фойдаланувчилар томонидан қулайлик, тезкор қидирув, филтрлаш ва контекстуал маълумотларга кириш имкониятини чеклайди.

4. **Луғатни мунтазам янгилаш ва такомиллаштириш учун юқори малакали мутахассислар иштирокининг етарли эмаслиги:** Атамалар тизими жаҳонда жадал ўзгариб бораётган илмий-техник муҳитни инобатга олган ҳолда доимий равишда қайта кўриб чиқишини



талаб қилади. Бу эса юқори малакали соҳа мутахассислари, атамашунослар ва амалиётчиларнинг доимий ҳамкорлиги асосида амалга оширилиши лозим. Ҳозирда бундай мулоқот ва ҳамкорлик тизимли йўлга қўйилмаган.

**Муҳокама.** Терминология соҳаси тил ва фан, амалиёт ва таълим ўртасидаги боғловчи кўприқдир. Икки тилда ишлаб чиқилган луғат нафақат академик манба, балки ҳуқуқий, иқтисодий ва амалий фаолият учун муҳим асосий восита ҳисобланади. Халқаро стандартлар билан миллий атамаларни уйғунлаштириш жараёнида, луғат орқали тиллараро муносабатларда барқарорлик ва аниқлик таъминланади.

Мутахассислар ушбу луғатдан таржима, таҳлил, лойиҳа ва сертификатлаш ҳужжатлари, ишлаб чиқариш жараёнларида фойдаланишлари мумкин. Луғатда келтирилган атамалар соҳавий англашувда бирлиكنи таъминлаб, турли соҳалар ўртасидаги терминологик узилишларни бартараф этади.

Амалий лингвистик таҳлил шуни кўрсатадики, айрим халқаро атамалар ўзбек тилида тўғридан-тўғри таржимага эга эмас. Масалан, “traceability”, “validation”, “compliance” атамалари кўп ҳолларда контекстда англанади. Уларнинг таржима ва шарҳлари лексикографик мутахассислар билан ҳамкорликда яратилди.

## Алоҳида мисоллар билан намуналар:

| Русча атама      | Ўзбекча таржима        | Таъриф                                                                        | Манба         |
|------------------|------------------------|-------------------------------------------------------------------------------|---------------|
| Прослеживаемость | Кузатиб бориш имкони   | Ўлчаш натижаларининг манбадан тайёр маҳсулотгача тўлиқ қайд этилиши           | VIM           |
| Качество         | Сифат                  | Маҳсулотнинг белгиланган талабларга мослиги даражаси                          | ISO 9000      |
| Сертификация     | Сертификатлаш          | Маҳсулотнинг белгиланган стандартга мослигини расмий тасдиқлаш жараёни        | ГОСТ 12.0.003 |
| Верификация      | Текшириш (верификация) | Ўлчаш воситасининг белгиланган талабларга жавоб беришини тасдиқлаш            | VIM           |
| Аккредитация     | Аккредитация           | Лаборатория ёки органнинг муайян фаолиятни амалга ошириш салоҳиятини тан олиш | ISO/IEC 17011 |

**Қиёсий таҳлил: Қозоғистон, Туркия ва Озарбайжон тажрибалари:** Қозоғистонда ҳам техник тартибга солиш соҳасида икки тилли луғатлар яратилган бўлиб, уларда давлат тили (қозоқча) ва русча терминлар давлат органлари томонидан тасдиқланган ҳолда қўлланилади [10]. Туркияда ISO ва EN стандартлари асосида турк тилида луғатлар шакллантирилади, уларда лотинча-туркча таржималарга урғу берилади[11]. Озарбайжонда эса «АзСтандарт» агентлиги таржимонлар гуруҳи орқали ҳар бир норматив ҳужжат учун алоҳида атамалар тизимини шакллантиради”[12]. Ушбу тажрибаларни ўрганиш ва луғатнинг 2-босқичли янгиланиш тизимини йўлга қўйиш мақсадга мувофиқ.

Луғат нафақат тилшунослар, балки соҳавий муҳандислар, лаборатория ходимлари, аудиторлар учун ҳам амалий қўлланма вазифасини ўтайди. Уни тарғибот қилиш, таълим жараёнида қўллаш, давлат органлари фаолиятида тавсия сифатида қабул қилиш муҳим.

Юқоридаги таҳлил ва хулосаларга асосан, стандартлаштириш, метрология, сертификатлаштириш ва сифатни бошқариш соҳаларида атамаларнинг мақсадли ва тизимли тарзда изоҳланиши ҳамда улардан самарали фойдаланишни таъминлаш мақсадида қуйидаги амалий таклифлар илгари сурилади:

1. **Электрон луғат платформасини яратиш (веб ва мобил версияларда):** Луғатнинг веб ва мобил илова форматида ишлаб чиқилиши атамаларга доимий, қулай ва интерактив кириш имконини яратади. Бу платформа изоҳлар, қидирув функцияси, тематик бўлимларга ажратилган интерфейс, мисоллар билан бойитилган маълумотлар базасига эга бўлиши лозим.

2. **QR-кодли чоп этиш вариантини жорий этиш:** Луғатнинг анъанавий босма версиясида ҳар бир муҳим атама ёки бўлимга махсус QR-код жойлаштириш таклиф этилади. Бу код орқали фойдаланувчи смартфон ёрдамида тўғридан-тўғри манба ёки атаманинг кенгайтирилган электрон изоҳлар базасига ўта олади.

3. **Атама ҳақида видео-таъриф тайёрлаш:** Олий ва ўрта махсус таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ҳамда атамаларни кенг аудиторияга тушунарли қилиб етказиш мақсадида анимацияланган ёки реал видеороликлар орқали ҳар бир асосий атаманинг видеотаърифи тайёрланиши мақсадга мувофиқ. Бу таълимда визуал таъсир кучини оширади.

4. **Мутахассислар фикрини жамлаш учун онлайн платформа яратиш:** Атамаларни доимий равишда такомиллаштириш ва уларнинг амалиётдаги қўлланишини мониторинг қилиш учун соҳавий мутахассислар, олимлар ва ўқитувчилар фикр-мулоҳазаларини жамлашга хизмат қиладиган махсус фикр алмашинув платформаси ташкил этилиши таклиф этилади. Бу платформа орқали ҳар бир атама юзасидан таклиф ва мулоҳазалар қабул қилинади, муҳокама жараёнида консенсус шаклланади.

5. **Терминологик глоссарий ишлаб чиқиш:** Атамаларнинг ягона, ҳукукий жиҳатдан маъқулланган таърифларини расмийлаштириш, уларни соҳа фаолиятида тўғри ва бир хил тушунишни таъминлаш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Техник жиҳатдан тартибга солиш агентлиги, унинг тизим ташкилотлари билан ҳамкорликда “Терминологик глоссарий” ишлаб чиқиш таклиф этилади. Ушбу глоссарий миллий меъёрий ҳужжатлар ва таълим стандартларига мувофиқ бўлиши, шу билан бирга халқаро тажрибани ҳам инобатга олиши керак.

6. **Луғатдаги сўз ва атамаларни “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”га киритиш:** Муҳим ва кўп қўлланиладиган соҳавий атамаларни “Ўзбек тилининг изоҳли луғати” таркибига киритиш орқали уларнинг лингвистик мақоми мустаҳкамланади. Бу нафақат тилнинг бойиши, балки атамаларнинг умумий илм-фан ва таълим тизимидаги ролини оширишга хизмат қилади. Бунда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Давлат тилини ривожлантириш Департаменти, Фанлар академияси Ўзбек тили, адабиёти ва фольклор институти ва тегишли соҳавий муассасалар ҳамкорлигида иш олиб борилиши лозим.

**Хулоса.** Мазкур мақолада кўрсатилган атамашунослик луғати соҳадаги илмий-интеллектуал эҳтиёжларга жавоб беради, унинг изчилликда янгиланиб бориши давлат тилидаги техник ва ҳукукий ҳужжатлар сифатига бевосита таъсир кўрсатади. Луғат – бу фақат сўзлар тўплами эмас, балки коммуникациянинг асосий воситаси, ислохотлар асоси ва фан ҳамда ишлаб чиқаришнинг кўприк нуқтасидир.

Ушбу атамалар ва таърифларнинг жамланган луғатидаги сўзлар ва атамалар, республика иктисодиётининг барча тармоқларига тегишли бўлган стандартлаштириш, метрология, сертификатлаштириш бўйича асосий ташкилий ва техник талаблар баён этилган норматив-ҳукукий ҳужжатларни ўрганишда, ишлаб чиқишда фойдали бўлади.

Соҳага оид сўз ва атамалар ўзига хос тушунча ва ҳодисаларни акс эттиради, шу боисдан уларни тўғри тушуниш, қўллаш ва ифодалашнинг аҳамияти катта. Чунки ушбу луғатда урғу сўз ва атамаларнинг этимологиясига қаратилмасдан, балки уларни талқин қилишга, маъносини тўғри очиб беришга асосий эътибор берилди.

## АДАБИЁТЛАР:

1. Реформатский А. А. Термин как член лексической системы языка // Проблемы структурной лингвистики. — М.: Наука, 1968. — С. 15–22.
2. Madvaliev A., Mahkamov N., Miraxmedova Z., Saidno'monov A. Xalqaro termin elementlarning izohli-illustrativ lug'ati. —Toshkent: Donishmand ziyosi, 2023. — 432 b.
3. Жуманазаров А. ва б. Стандартлаштириш, метрология, сертификатлаштириш ва сифатни бошқариш соҳаларидаги атамалар ва таърифларнинг русча-ўзбекча жамланган луғати. — Тошкент: Ёшлар матбуоти, 2025. — 294 б.
4. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги ҳузуридаги Интеллектуал мулк маркази томонидан берилган 009016-муаллифлик гувоҳномаси
5. <https://www.iso.org/ru/home.html>
6. <https://www.gost.ru/portal/gost/home/standarts/catalognational>
7. <https://www.uzsti.uz/shop>
8. <https://www.oiml.org/en/publications/other-language-translations/russian/russian/v001-ru13.pdf>
9. <http://viml.oiml.info/en/index.html>
10. <https://www.gov.kz/memleket/entities/mti-ktrm/press/article/details/35887?lang=ru>
11. <https://ru.lisungroup.com/standards/tse-turkish-standards-institution.html>
12. <https://azstand.gov.az/az>

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA EXPRESSIV VA IMPLISIT TAQIQLOVCHI  
VOSITALAR: LINGVOMADANIY YONDASHUV

*Hojiyeva Marjona To‘lqinovna,*  
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ekspressiv va implitsit taqiqlovchi vositalarning ingliz va o‘zbek tillaridagi pragmatik hamda madaniy xususiyatlari tahlil qilingan. Mashhur ingliz yozuvchisi Zadie Smithning “White Teeth” romani va XXI asr o‘zbek adabiyotining tanikli namoyondalaridan biri bo‘lgan Erkin A‘zamning “Hijron kunlari” asari asosida ushbu vositalarning lingvomadaniy asoslari va qo‘llanish shakllarini solishtiradi. Ekspressiv taqiqlovchilar bevosita, rasmiy kontekstlarda qo‘llanilsa, implitsit taqiqlovchilar ijtimoiy normativlar va odob me‘yorlariga tayangan holda bilvosita ifodalanadi. Maqolada nutq harakatlari nazariyasi va madaniyatlararo kommunikatsiya tamoyillari asosida til vositalarining semantik xususiyatiga baho beriladi.

**Kalit so‘zlar:** ekspressiv taqiqlash, implitsit taqiqlash, lingvopragmatika, madaniyatlararo muloqot, nutq harakatlari, badiiy matn.

ЭКСПРЕССИВНЫЕ И ИМПЛИЦИТНЫЕ СРЕДСТВА ЗАПРЕТА В АНГЛИЙСКОМ И  
УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ: ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЙ ПОДХОД

**Аннотация.** В данной статье анализируются прагматические и культурные особенности экспрессивных и имплицитных запретительных средств в английском и узбекском языках. На основе романа «White Teeth» известной английской писательницы Зейди Смит и произведения «Дни разлуки» Эркина Аъзама, одного из видных представителей узбекской литературы XXI века, сравниваются лингвокультурные основы и формы употребления этих средств. В то время как экспрессивные запреты используются непосредственно в официальных контекстах, имплицитные запреты выражаются косвенно, опираясь на социальные нормы и правила этикета. В статье оценивается семантическая природа языковых средств на основе теории речевых актов и принципов межкультурной коммуникации.

**Ключевые слова:** экспрессивный запрет, имплицитный запрет, лингвопрагматика, межкультурная коммуникация, речевые акты, художественный текст.

EXPRESSIVE AND IMPLICIT PROHIBITIVE DEVICES IN ENGLISH AND UZBEK  
LANGUAGES: A LINGUOCULTURAL APPROACH

**Abstract.** This article analyzes the pragmatic and cultural features of expressive and implicit prohibitive devices in English and Uzbek. Based on the novel «White Teeth» by the renowned English author Zadie Smith and the story «Hijron kunlari» by Erkin Azam, a prominent representative of 21<sup>st</sup> century Uzbek literature, the study compares the linguocultural foundations and usage patterns of such expressions. Expressive prohibitions are direct and typically occur in formal contexts, while implicit prohibitions are conveyed indirectly, relying on social norms and ethical codes. The article evaluates the semantic characteristics of these language tools within the framework of speech act theory and principles of intercultural communication.

**Keywords:** expressive prohibition, implicit prohibition, linguopragmatics, intercultural communication, speech acts, literary text.

**Kirish.** Taqiqlovchi nutq aktlari har bir madaniyatda ijtimoiy me‘yor va tartibni saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Taqiqlovchi ifodalar grammatik tuzilma, kontekst va madaniy qadriyatlarga qarab ekspressiv (aniq) yoki implitsit (bilvosita) bo‘lishi mumkin. Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi taqiqlovchi vositalarning tuzilma va madaniy jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, bu vositalarning kommunikativ vazifasi, ularning ijtimoiy va pragmatik qiymati ham ko‘rib chiqiladi.

**Tadqiqot materiallari va metodologiya.** Taqiqlovchilarning yuqorida aytib o‘tilgan turlarini batafsil yoritib berish maqsadida tilshunos olimlar J.L.Austin va J.R.Searle maqola va ilmiy ishlaridan foydalanildi, hamda ingliz tilidagi misollar Zadie Smithning “White teeth” romanidan, o‘zbek tilidagi misollar esa E‘rkin A‘zamning “Hijron kunlari” asarlaridan olindi.

**Tadqiqot natijalari va muhokama.** Ekspressiv taqiqlovchi vositalar nima ekanligini tushunish uchun dastlab ushbu taqiq turi haqida qisqacha nazariy ma'lumot berib o'tish joiz. *Ekspressiv (aniq) taqiqlovchi ifodalar* bevosita, aniq shaklda aytilib, harakatni ochiqcha cheklaydi. Ular rasmiy nutqda, ogohlantirishlarda va qonuniy matnlarda ko'p uchraydi. Bunday ifodalar odatda huquqiy, ma'muriy yoki tartibni ta'minlash maqsadida ishlatiladi. Ingliz tilida:

*"Don't touch it!"*

*"You must not speak like that."*

*"It is prohibited to enter this area."*

Bu ifodalar ko'pincha maktablarda, davlat idoralarida, jamoat joylarida yoki qonunchilik hujjatlarida ishlatiladi. Ular orqali gapiruvchi aniq bir harakatni taqiqlab, tinglovchidan aniq rioya qilishni talab qiladi. Maqolamizda ingliz tilidagi ekspressiv taqiqlovchi vositalarni XXI asrning mashhur ingliz yozuvchisi Zadie Smithning "White teeth" asari asosida tahlil qilganimizni inobatga olgan holda, ushbu asar taqiqlovchi vosilarni ifodalashda qanchalik ahamiyatli ekanligi haqida so'z yuritsak.

Zadie Smithning "White Teeth" romani ko'p madaniyatli Londonda yashovchi turli millat va ijtimoiy qatlam vakillarining muloqot uslublari ko'rsatib beradi. Ushbu asarda ekspressiv va implitsit taqiqlovchi vositalar muallif tomonidan ijtimoiy ziddiyatlar, madaniy to'qnashuvlar va shaxsiy erkinliklar bilan bog'liq kontekstlarda qo'llaniladi.

Masalan, quyidagi jumlada ekspressiv taqiqlash mavjud:

*"Don't talk to me like that in front of your children."*

Bu jumla nafaqat ochiqcha taqiqlashni, balki ijtimoiy rol va ota-onalik maqomi asosidagi ijtimoiy bosimni ham anglatadi. Gapiruvchi bu yerda bevosita harakatni taqiqlabgina qolmay, bu harakatning ijtimoiy oqibatlariga ishora qiladi.

Implitsit taqiqlovchi vositalarga esa quyidagicha misollarni keltirish mumkin:

*"That's not how we do things in this family."*

*"We don't usually say things like that."*

Bu kabi jumlar bevosita "mumkin emas" demasdan, madaniy me'yor va oilaviy qadriyatlar asosida harakatni cheklaydi. Ayniqsa, immigrant oilalar o'rtasida madaniyatlararo muammolar ko'tarilgan sahnalarda bu kabi ifodalar muhim semantik qiymatga ega.

Erkin A'zamning "Hijron kunlari" asarida taqiqlash to'g'ridan-to'g'ri buyruq orqali emas, balki madaniy kodlar, ijtimoiy odob va psixologik bosim orqali ifodalanadi. Asarda ishlatilgan implitsit taqiqlovchi vositalar o'zbek xalqining urfi, axloqiy qadriyatlari va katta-kichik munosabatlari asosida shakllanganligini ko'rsatadi.

Masalan, quyidagi kabi iboralar orqali bevosita "qilma" deyish o'rniga, noqulaylik, uyat, yoki ijtimoiy bosim orqali taqiqlash amalga oshiriladi:

*"Odam nima deydi?"*

*"Uyat bo'ladi, axir!"*

*"Katta-kichik bor-ku!"*

Bu kabi ifodalarda gapiruvchi tinglovchini ijtimoiy me'yorlar doirasiga qaytaradi, lekin bu ochiq buyruq emas, balki madaniy tanbeh shaklida bo'ladi. Ayniqsa, oila, mahalla va qarindoshlik munosabatlarida bunday uslub odamiylik belgisi sifatida qabul qilinadi. Erkin A'zam asarida bu vositalar ko'pincha ona-bola, kattalar va yoshlar, yoki erkak-ayol o'rtasidagi dialoglarda namoyon bo'ladi. Taqiqlovchi gaplar o'rniga sukut, imo-ishora, ko'z qarashi yoki "boshqa joyda gaplashamiz" kabi bilvosita iboralar ishlatiladi. Bu, o'z navbatida, o'zbek tilida taqiqlovchi nutqning ko'proq kollektiv madaniyatga xos implikatsiyalar asosida ishlashini ko'rsatadi.

O'zbek tilida ham ekspressiv taqiqlovchi iboralar rasmiy kontekstda, ayniqsa, hukumat, tibbiyot, ta'lim tizimi va transport sohalarida uchraydi. Bunday ifodalar ko'pincha qat'iy ohangda aytiladi va intizomni saqlashga xizmat qiladi. Masalan:

*"Bo'lmaydi"*

*"Mumkin emas"*

*"Chekish man etiladi"*

*Implitsit taqiqlovchi vositalar* bilvosita, madaniy va ijtimoiy me'yorlar asosida shakllanadi. Ular odatda nozik, diplomatik ifodalar orqali norozilik yoki rad etishni bildiradi. Bu vositalar madaniyatdagi axloqiy me'yorlar, odob-axloq kodekslari va ijtimoiy rol taqsimoti asosida shakllanadi.

Ingliz tilida:

*"I wouldn't do that if I were you."*

*"That's not appropriate."*

*"That's not how we do things here."*



Ushbu ifodalar gapiruvchining to'g'ridan-to'g'ri buyruq bermasdan, tinglovchiga bosim o'tkazmasdan, muloyimlik bilan harakatni cheklashiga imkon beradi. Ular ko'pincha ingliz tilidagi muomala madaniyatining muloyim va ehtiyotkorlikka asoslanganligini ko'rsatadi. O'zbek tilida:

"Uyatda!"

"Katta-kichik bor-ku!"

"Unday qilish odatimizda yo'q."

O'zbek tilida bu kabi ifodalar ijtimoiy-normativ qadriyatlarga asoslanadi. Bu vositalar yordamida odamlar bir-biriga og'zaki taqiqlovsiz, lekin madaniy kodlar orqali qanday harakatlar joiz emasligini anglatadi. Ko'pincha bunday taqiqlashlar qarindoshlik munosabatlari, yosh farqi, jinsiy rol va odob bilan bog'liq bo'ladi. Jismoniy shaxslar va qonun chiqaruvchi idoralar, sudlar, fuqarolik birlashmalari, korporatsiyalar va muassasalar boshqalarni cheklash imkoniyatiga ega. Shu bilan birga, biz odamlarning umumiy xohish-irodasi, etnik-madaniy urf-odatlar, diniy urf-odatlar bilan qabul qilingan qonun hujjatlari taqiqlovchi kuchga ega bo'lgan holatlarni taqiqlar doirasidan ozod qila olmaymiz.

Qiyosiy tahlil:

Ingliz: *You must not enter. I wouldn't go there if I were you.*

O'zbek: *Kirish mumkin emas. Odam nima deydi?!*

Tahlil natijalariga ko'ra, ingliz tilidagi ekspressiv taqiqlashlar odatda yuridik, aniq va individualist xarakterda bo'lsa, o'zbek tilidagi implitsit taqiqlashlar ko'proq ijtimoiy fikr, jamiyat odobi va kollektiv qadriyatlar asosida shakllanadi. Bu farqlar o'zaro muloqotda va tarjimada sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Ingliz va boshqa ko'plab tillarda to'g'ridan-to'g'ri nutq harakatlarining kichik turi mavjud bo'lib, ular har birining o'z sintaksisiga ega bo'lgan to'g'ridan-to'g'ri nutq harakatlarining uchta asosiy toifasidan tashqariga chiqishga imkon beradi. Bu bajaruvchi fe'llarni qo'llash orqali o'z maqsadlariga erishadigan to'g'ridan-to'g'ri nutq harakatlaridir. Bayonotlar, so'rovlar va buyruqlarni ifodalash bilan bog'liq bo'lgan uchta asosiy nutq harakati (f) - (h) turlarini ham bajaruvchi fe'llar bilan ishlatish mumkin:

*Men Jenni tug'ilgan kuni uchun telefon olganini ta'kidlayman.*

*Men sizdan fotosuratlarini kim olganini so'rayman.*

*Men sizga eshikni yopishingizni buyuraman.*

Masalaning mohiyati so'zlovchining to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita nutq harakatini qo'llashi yoki ishlatmasligiga ham ta'sir qiladi. Bu, ayniqsa, inson anatomiyasi, o'lim va chiqindilar kabi masalalarga kelganda seziladi. To'g'ridan-to'g'rilik va bilvositalik ma'lum darajada ma'ruzachi va tinglovchining roli bilan boshqariladi. Shifokor, masalan, siydik, najas, o'lim va boshqalar kabi iboralarni ishlatishi mumkin. Hatto, u najas, cho'kish, qulash va o'lish kabi evfemizm atamalarini tanlashi mumkin. Biroq o'z maslahat xonasining to'rtta devori ichida, u yomon odam deb nomlanmasdan turib, ochiqchasiga gapira oladi. Boshqa tomondan, bunday aniq pozitsiyani bajarmagan odamlar ekspress-semantik rolni ishlatmasliklari kerak. Tematik asos barcha tillarda bo'lgani kabi ingliz tilida ham uchta maqsadga xizmat qiladi. Birinchisi, mavjud va yangi ma'lumotlarni uzatish, ikkinchisi esa yangi ma'lumotlarni uzatishdir. Uchinchi ramka va insert, shuningdek, predikat. Ma'ruzachilar o'z iboralarini tinglovchilar bilishi kerak bo'lgan narsaga moslashtirishlari kerak. Odamlar suhbatlashganda, ular buni o'ziga xos tarzda qiladilar. Ularda muhokama qilmoqchi bo'lgan mavzu va ularning ehtiyojlariga mos iboralar mavjud.

**Xulosa.** Taqiqlovchi ifodalar madaniy belgilar va pragmatik me'yorlarga bog'liq. Ekspressiv taqiqlash rasmiy sohalarida aniq ishlatilsa, implitsit taqiqlash chuqur madaniy kodlarni ifodalaydi. O'zbek tilida taqiqlashlar ko'pincha jamiyat qadriyatlari, yosh-nasab tartibi va odobga bog'liq bo'lsa, ingliz tilida bu mas'uliyat va aniq ifodaga asoslanadi. Bu farqlarni anglash tarjima va madaniyatlararo muloqotda muhim ahamiyatga ega. Kelgusida bu mavzuni yozma matnlar va badiiy asarlar asosida chuqurlashtirib o'rganish lingvomadaniy tafovutlarni yanada aniqroq ko'rsatishga xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR:

1. Qobilova, N. S. (2016). *Literary interpretation of social psychology in the novel "Martin Eden"*. World science, 4(3 (7)), 52- <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=25619815> [Qobilova, N. S. (2016). "Martin Eden romanida ijtimoiy psixologiyaniing adabiy sharhi". Jahon fani, 4(3 (7)), 52- <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=25619815>]
2. Searle J. R. *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. — Cambridge: Cambridge University Press, 1969. — 203 p.
3. Brown P., Levinson S. C. *Politeness: Some Universals in Language Usage*. — Cambridge: Cambridge University Press, 1987. — 345 p.
4. Вежбицкая А. *Язык. Культура. Познание*. — М.: Русские словари, 1996. — 412 с.

5. Levinson S. C. *Pragmatics*. — Cambridge: Cambridge University Press, 1983. — 420 p.
6. Wierzbicka A. *Cross-cultural Pragmatics: The Semantics of Human Interaction*. — Berlin: Mouton de Gruyter, 1991. — 340 p.
7. Crystal D. *A Dictionary of Linguistics and Phonetics*. — 6th ed. — Oxford: Blackwell Publishing, 2008. — 560 p.
8. Yus R. *Pragmatics of Discourse*. — Oxford: Oxford University Press, 2023. — 290 p.
9. Ганиева Г. М. Ўзбек тилида сўзлашув нутқининг прагматик хусусиятлари. — Т.: Фан, 2018. — 204 б.
10. Жумаева З. Т. Ўзбек тилида нутқ маданияти. — Тошкент: Ўқитувчи, 2016. — 180б.
11. A'zam E. *Hijron kunlari: Qissalar*. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2005. — 176 b.
12. Smith Z. *White Teeth*. — London: Penguin Books, 2000. — 560 p.

O‘ZBEK XALQ OLQISHLARIDA «KASALLIK» VA «SALOMATLIK» KONSEPTINING IFODALANISHI

*Sayfullaeva Ra’no Raufovna,*

*O‘zbekiston Milliy universiteti professori, f.f.d.*

*G‘aybullayeva Nafisa Izatullayevna,*

*Buxoro davlat universiteti professori, f.f.d (DSc)*

*nafisa.ped@mail.ru*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek xalq og‘zaki ijodining qadimiy janrlaridan biri bo‘lgan olqishlar tarkibida “kasallik” va “salomatlik” konseptlarining ifodalanish xususiyatlari lingvokulturologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida olqishlar turli kommunikativ holatlarga qarab tasniflanib, ularning semantik va pragmatik vazifalari aniqlanadi. Xususan, uchrashuv va xayrlashuv, dasturxon atrofidagi muloqot, xayrli ish boshlanishi, safar yoki aksirish holatlarida aytiladigan olqishlarda salomatlik konseptining yetakchi mavzu sifatida aks etishi ilmiy asosda yoritiladi. Maqolada xalq tafakkurida salomatlikka nisbatan qarashlar, uni til orqali ifodalash usullari, shuningdek, sog‘liqning ijtimoiy, ruhiy va diniy qadriyatlar bilan uzviy bog‘liqligi lingvistik faktlar asosida ko‘rsatib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** olqish, salomatlik konsepti, kasallik, xalq og‘zaki ijodi, lingvokulturologiya, til va tafakkur, nutqiy madaniyat, xalq e’tiqodi, pragmatik til birliklari.

ВЫРАЖЕНИЕ КОНЦЕПТОВ «БОЛЕЗНЬ» И «ЗДОРОВЬЕ» В УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ БЛАГОПОЖЕЛАНИЯХ

**Аннотация.** В данной статье с лингвокультурологической точки зрения анализируются особенности выражения концептов «болезнь» и «здоровье» в составе одного из древнейших жанров узбекского устного народного творчества — олқиш (благопожелания). В ходе исследования благопожелания классифицируются по различным коммуникативным ситуациям, выявляются их семантические и прагматические функции. В частности, научно обосновано доминирующее отражение концепта здоровья в благопожеланиях, произносимых при встрече и прощании, за столом, перед началом важного дела, в пути или в ответ на чихание. В статье раскрываются народные представления о здоровье, способы его выражения через язык, а также взаимосвязь здоровья с социальными, духовными и религиозными ценностями. В результате благопожелания рассматриваются как устойчивые речевые модели концепта здоровья и символ культурного наследия в узбекском языке.

**Ключевые слова:** благопожелание, концепт здоровья, болезнь, узбекский устный фольклор, лингвокультурология, язык и мышление, речевая культура, народные верования, прагматические речевые единицы.

THE REPRESENTATION OF THE CONCEPTS OF «ILLNESS» AND «HEALTH» IN UZBEK FOLK BLESSINGS

**Abstract.** This article examines the expression of the concepts of “illness” and “health” within one of the oldest genres of Uzbek oral folklore — blessings (olqish) — from a linguocultural perspective. During the study, blessings are classified according to different communicative situations, and their semantic and pragmatic functions are identified. In particular, the article explores how the concept of health is prominently featured in blessings used during greetings and farewells, mealtime conversations, the beginning of significant undertakings, journeys, or in response to sneezing. The article highlights the Uzbek people's traditional worldview related to health, the linguistic means of expressing it, and its connection with social, spiritual, and religious values. As a result, blessings are presented as a stable speech model of the health concept and a symbol of cultural heritage in the Uzbek language.

**Keywords:** blessing, health concept, illness, Uzbek oral folklore, linguoculturology, language and thinking, speech culture, folk beliefs, pragmatic speech units.

**Kirish.** O‘zbek xalqining asrlar davomida yaratgan og‘zaki so‘z san’ati namunalarini milliy madaniyatimizning ajralmas va betakror tarkibiy qismi sifatida baholash mumkin. Har qanday xalq

madaniyati, avvalo, uning ogʻzaki ijodi orqali namoyon boʻladi. Oʻzbek xalqi ham bu borada boy tarixiy merosga ega boʻlib, xalq donishmandligi va estetik tafakkurining mahsuli boʻlgan ogʻzaki adabiyot durdonalari orqali oʻzining ijtimoiy-maʼnaviy qarashlarini, estetik didini, axloqiy-meʼyoriy qadriyatlarini ifoda etib kelgan.

Xususan, xalq tomonidan yaratilgan va isteʼdodli ijodkorlar tomonidan sayqallanib, avloddan-avlodga ogʻzaki tarzda uzatilgan turli janrdagi asarlar – afsona va rivoyatlar, maqol va matallar, duolar va olqishlar, topishmoq va qoʻshiqlar, latifalar va xalq naqllari, shuningdek, ertaklar va dostonlar oʻzbek ogʻzaki ijodining mazmunan boy va shaklan xilma-xil namunalari sifatida eʼtiborga loyiqdir.

Bu badiiy-nutqiy janrlar orasida olqish va duolar alohida ahamiyat kasb etadi. Ular xalqning hayotiy tajribasi, ezgu niyatlari, maʼnaviy qadriyatlari va dunyoqarashining ifodaviy shakli boʻlib, koʻpincha ijtimoiy-madaniy munosabatlar, sogʻliq va salomatlik, baxt va saodat kabi tushunchalar bilan bevosita bogʻliq holda voqe boʻladi. Ayniqsa, «kasallik» va «salomatlik» kabi konseptlarning xalq ongida qanday ifodalangani, qanday semantik va pragmatik yuklama kasb etgani ogʻzaki nutq vositalarini tahlil qilish orqali oʻyinlashadi.

Ogʻzaki nutqning eng qadimiy funksiyalaridan biri bu — soʻz orqali inson ongiga va ruhiyatiga bevosita taʼsir koʻrsatish, uni ruhiy va jismoniy jihatdan davolashga xizmat qilishidir. Bu holat, ayniqsa, xalq ogʻzaki ijodida saqlanib qolgan va faol ishlatiladigan olqish, duo, qargʻish kabi janrlar orqali namoyon boʻladi. Soʻzning sehrli (magik) va ruhiy-psixologik taʼsir kuchiga boʻlgan ishonch, uning inson salomatligiga ijobiy taʼsir koʻrsatish xususiyati — xalq dunyoqarashining tub ildizlaridan biri sanaladi. Bu holat, oʻz navbatida, animistik eʼtiqodlar bilan bogʻliq boʻlib, qadimgi insoniyat tafakkurida soʻz va tabiat oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlikni ifodalaydi.

Shu bois, «baxshi» soʻzining maʼnosida nafaqat hikoya qiluvchi yoki doston aytuvchi, balki marazdan xalos etuvchi, sogʻlik va totuvlik bagʻishlovchi shifo beruvchi obraz ham mujassam. «Baxshilik» tushunchasi xalq orasida aynan sogʻlik, baraka, fazilat singari ijobiy tushunchalar bilan qoʻshib tasavvur qilinadi. Sharq mutafakkirlaridan Barxurdor ibn Mahmudning: “Sogʻlom hayot va uzoq umr uchun xalqning duosi va quvonchidan afzalroq posbon va qoʻriqlovchi yoʻq”[2], — degan fikri soʻz kuchiga ishonch, ezgu tilaklarning inson salomatligi bilan bogʻliqligi gʻoyasini yanada kuchaytiradi. Bu fikr xalq ongidagi “salomatlik – baraka – tilak” zanjirli konseptlar tizimini oʻyinlashtirishga xizmat qiladi.

Xalq orasida ezgu niyat bildiruvchi soʻzlar “olqish” deb yuritiladi, salbiy mazmunga ega tilaklar esa “qargʻish” nomi bilan maʼlum. Bu juftlik — xalq tilining binar asosda tashkil topgan semantik tizimini ifoda etadi. “Olqish” atamasi tarixiy-lingvistik jihatdan turkiy tillarga mansub boʻlib, “maqtash”, “ulugʻlash”, “yaxshi niyatda boʻlish”, “hurmat bildirish” singari maʼnolarni anglatuvchi semantik doiraga kiradi. Etimologik jihatdan bu soʻz qadimgi oltoy turkiy tillaridagi “al” (ulugʻlamoq, sharaflamoq, koʻtarmaq) feʼli, “qi” (buyruq mayli) va “sh” (harakat nomi yasovchi suffiks) morfemalarining qoʻshilishi orqali hosil boʻlgan.

Mazkur til birliklari orqali xalqning “salomatlik” va “kasallik” konseptlariga munosabati, ularni baholash mezonlari, ruhiy-axloqiy yondashuvlari aniqlanadi. Shu bois, olqishlar faqatgina nutqiy-madaniy hodisa emas, balki xalq tibbiyoti, milliy ong va mentalitetni oʻzida mujassam etgan lingvokulturologik hodisa sifatida ham alohida eʼtiborni talab etadi.

**Mavzuga doir adabiyotlar tahlili.** Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodida salomatlik gʻoyasi markaziy konseptlardan biri sifatida qaraladi. Ayniqsa, xalq olqishlarida bu tushuncha doimiy tilak, istak va duolar orqali namoyon boʻladi. Bu holat xalq tafakkurida salomatlikning nafaqat shaxsiy farovonlik, balki ijtimoiy barqarorlik va avlod kamoloti uchun ham asosiy omil sifatida qaralishini koʻrsatadi.

Oʻzbek xalq olqishlarida salomatlik mavzusi ustuvor mavzulardan biri boʻlib, ularning mazmunida tan sihatligi, baxt, baraka, totuvlik, tinchlik kabi tushunchalar bilan semantik aloqadorlikda aks etadi. Olqishlarning poetik struktura va funksional xarakteriga qarab, ular quyidagi ikki asosiy guruhga ajratiladi:

Anʼanaviy marosimlar doirasida ijro etiladigan olqishlar. Bu guruhga toʻy, motam, ramazon, hayit kabi muhim ijtimoiy-marosimiy tadbirlarda aytiladigan olqishlar kiradi. Ular koʻp hollarda tantanaviy ohangda, jamoaviy ishtirok bilan ijro etiladi va muayyan shaxs yoki guruhning sogʻligʻi, barakasi, hayoti, farzandlari salomatligi haqida ezgu tilaklar bildiriladi. Bunday olqishlar ijtimoiy birlik, sogʻlom turmush tarzini targʻib etish kabi pragmatik vazifani bajaradi:

"Yuzy yorugʻ, koʻngli toza boʻlsin, doim sogʻ-omon yuringlar!", "Farzandlaring sogʻ-salomat boʻlsin, rizqing koʻp boʻlsin!"

Kundalik maishiy olqishlar. Bu guruhdagi olqishlar oddiy muloqot davomida, kundalik hayotda yuzaga keladigan vaziyatlarda qoʻllaniladi. Ular turmushning oddiy holatlarini ifodalasa-da, salomatlik tilagi asosiy motiv sifatida takror-takror qaytariladi:

"Sogʻ boʻling!", "Yaxshi yuring!", "Tirikchilikka baraka boʻlsin!"



Ushbu olqishlarning ikkalasi ham xalqning dunyoqarashi, madaniy-tarixiy merosi va sog'liq konseptiga bo'lgan yondashuvini ifodalaydi. Xalq tilida salomatlik tushunchasi mustaqil semantik birlik sifatida emas, balki boshqa ijobiy ijtimoiy qadriyatlar bilan bog'langan ko'p komponentli konsept sifatida ifodalanadi.

Kundalik maishiy olqishlar ijro o'rniga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

O'zbek xalqining og'zaki madaniyatida kundalik muloqot doirasida tilga olinadigan olqishlar o'zining ijtimoiy, psixologik va lingvistik funksiyalari bilan ajralib turadi. Bunday olqishlar insonlar o'rtasidagi ijobiy ruhda aloqa o'rnatish, tinchlik, salomatlik va baraka tilash vositasi sifatida xizmat qiladi. Ularning qo'llanilish konteksti va ijro shakliga qarab quyidagi guruhlariga ajratish mumkin.

### 1. Uchrashuv olqishlari.

Salomlashish jarayonida aytiladigan olqishlar — o'zbek xalqining ijtimoiy-etiket madaniyatining ajralmas qismi bo'lib, salomatlik tilashning eng sodda, ammo eng keng tarqalgan shaklidir. Bu turdagi olqishlar verbal va nonverbal vositalar bilan amalga oshiriladi.

Verbal shakllar:

“Assalomu alaykum” – ya'ni “Sizga salomatlik, omonlik tilayman”, “Va alaykum assalom” – “Sizga ham tinchlik, sog'lik tilayman”, “Salomatmisiz?”, “Sog'-omon yuribsizmi?”, “Ko'rinishingiz yaxshi”, “Sog'-salomat ko'rganimdan xursandman” kabi ijobiy niyat bildiruvchi so'z birikmalari.

Nonverbal shakllar:

Bosh silkitish, tabassum qilish, qo'lni ko'ksiga qo'yib salom berish, qo'l berib ko'rishish, qosh qoqish kabi nutqdan tashqari vositalar ham olqishning semantik yukini tashiydi.

Bu holat o'zbek tilining o'ziga xos kommunikativ xususiyatlaridan biridir: salomlashuv — faqatgina odob ko'rinishi emas, balki bir vaqtning o'zida salomatlik, xotirjamlik, tinchlik tilashga asoslangan verbal olqish akti sifatida xizmat qiladi.

Bunday olqishlar zahirida quyidagi nutqiy ifodalar ham ko'p uchraydi:

“Omin, tinchlik-omonlikni, salomatlik-xotirjamlikni bersin”, “Omin, qadam yetdi, balo yetmasin”, “Sog'-salomat yurish nasib qilsin”, va h.k.[3]

Bu kabi olqishlar orqali sog'lik konsepti kundalik muloqotda doimiy aktual mavzu sifatida shakllanadi. Xalq tilida sog'liq faqat jismoniy holat emas, balki umumiy farovonlik, tinchlik, xotirjamlik bilan bog'liq yuksak ijtimoiy qadriyat sifatida namoyon bo'ladi.

### 2. Xayrlashish olqishlari.

**Tadqiqot metodologiyasi.** O'zbek xalq og'zaki nutq madaniyatida salomatlik nafaqat muloqot boshlanishida, balki uning yakunida ham ijobiy niyat va ruhiy ko'tarinkilik ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Xayrlashish olqishlari muloqot yakunida aytiladigan ezgu tilaklar orqali nafaqat odob-axloq mezonlariga amal qilinadi, balki insoniy ilqlik, do'stona munosabat, ijobiy psixologik ta'sir ham yuzaga keladi.

Bu turdagi olqishlar ham formalashtirilgan (barqaror, doimiy takrorlanuvchi) va erkin (holatga mos ravishda o'zgaruvchi) nutqiy konstruksiyalar asosida voqe bo'ladi. Bular o'zbek tilining ijtimoiy-madaniy qatlami, etik-normativ qadriyatlar tizimi hamda sog'liq konseptining doimiy aktual mavzu ekanini ko'rsatadi.

Xayrlashish olqishlariga quyidagi ijobiy tilaklar kiradi:

“Sog' bo'ling” — salomatlik tilashning eng qisqa va ifodali shakli;

“Salomatlikda ko'rishaylik” — oraliq vaqt mobaynida sog'lik saqlanishi niyati bilan;

“Tanu-joningiz sog' bo'lsin” — butun vujud sog'ligini tilovchi to'liq formula;

“Tani omonlikka ko'rishaylik” — omonlik, tinchlik niyatida aytiladi;

“Kuningiz xayrli bo'lsin”, “Tunlaringiz osuda o'tsin”, “Shirin tushlar ko'ring” — kun va tun bo'yicha alohida ruhiy holatni nazarda tutuvchi olqishlar;

“Oq yo'l” — safarga o'tlanayotgan, joyidan ketayotgan kishiga aytiladigan baraka va sog'lik istovchi olqish.

Mazkur olqishlar har qanday holatda inson ruhiyatini yengillashtirish, ijobiy energiya bag'ishlash, suhbat yakunini ijobiy ohangda tugatish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ular nutqiy-madaniy konvensiyalar orqali sog'liq konseptining kommunikativ-funksional ahamiyatini ochib beradi.

Shuningdek, bu olqishlar jamiyatda sog'lom munosabatlar, mehr-muruvvat va o'zaro hurmat kabi qadriyatlarning mustahkamlanishiga xizmat qiluvchi lingvopragmatik vosita sifatida ham qaralishi mumkin.

### 3. Dasturxon olqishlari.

O'zbek xalqining og'zaki madaniyatida dasturxon — nafaqat ovqatlanish joyi, balki baraka, salomatlik, mehr-oqibat, duoning timsoli sifatida qadrlanadi. Shu bois dasturxon atrofida aytiladigan olqishlar o'zbek tilining doimiy ifodaviy boyligi, xalq tafakkurining sog'liq va farovonlikka bo'lgan chuqur munosabatining dalili sifatida namoyon bo'ladi.

Dasturxon olqishlari odatda ikki vaziyatda – taom iste'mol qilishdan avval va so'ng aytiladi. Bunday holatda og'zaki til vositalari orqali baraka, tan sihatligi, ko'ngil xotirjamligi, Allohga shukronalik bildirilib, do'stona ijtimoiy muhit mustahkamlanadi.

Bu turdagi olqishlarning asosiy pragmatik funksiyalari:

Rizq uchun shukronalik bildirish;

Ne'mat yaratuvchisi va tayyorlovchisiga duo qilish;

Jamiyatda mehr-oqibat va minnatdorchilik tuyg'usini mustahkamlash;

Sihat-salomatlikni tilash orqali ruhiy va ijtimoiy barqarorlikni ifodalash.

Dasturxon atrofida aytiladigan olqishlar odatda yoshi ulug', hurmatli insonlar tomonidan duo ko'rinishida bayon qilinadi. Bu olqishlar xalq tafakkurida sog'liq va rizq o'rtasidagi uzviy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi:

“Omin, ovqat tayyorlagan kishining qo'llari dard ko'rmasin” — yaqin kishilar sog'ligi va ularning mehnatini qadrlash;

“Omin, keng fe'l, ketmas davlat, uzoq umr, sihat-salomatlikni bersin” — individual fazilatlar va sog'liqni birgalikda tilash;

“Omin, xayri-baraka, xotirjamlik, to'kin-sochinlik, sog'lik-omonlikni bersin, Allohu Akbar” — ruhiy, moddiy va jismoniy ne'matlarning jamlanmasi.

Bu kabi olqishlar salomatlik konseptining faqat tibbiy-fiziologik holat emas, balki baraka, davlat, xotirjamlik bilan uyg'unligida ifodalangan lingvokulturologik fenomen ekanligini ko'rsatadi. Dasturxon — sog'liq va rizqiy munosabatlar makoni sifatida til birligida ham semantik sathda chuqur ildiz otgan.

4. Xayrli ish boshlanishida aytiladigan olqishlar.

**Olingan natijalar tahlili.** O'zbek xalq og'zaki ijodida olqishlar faqatgina muloqot davomida aytiladigan oddiy til birliklari emas, balki ular muayyan vaziyatda shaxsiy va jamoaviy ruhiy holatni mustahkamlovchi kuchli nutqiy vosita sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, biror xayrli ishni boshlash oldidan aytiladigan olqishlar — xalq tafakkurining “niyat → tilak → natija” kabi uzviy zanjirda shakllangan ezgulik falsafasini ifodalaydi.

Xalq orasida qanday ishga qo'l urilmasin, avvalo yaxshi niyat va ezgu tilak bilan fотиha olish odati keng tarqalgan. Bu an'ana harakat oldidan psixologik tayyorgarlik, Allohga suyanish, va ommaviy qo'llab-quvvatlash g'oyalarini o'zida mujassam etadi. Shuning uchun bu turdagi olqishlar ko'pincha oqsoqollar, piru badavlat kishilar, yoki duogo'ylar tomonidan aytiladi va baraka, sog'lik, ijobiy natija, jismoniy quvvat singari konseptlar atrofida tuziladi.

Quyidagi namunaviy olqishlar buni yaqqol tasdiqlaydi:

“Omin, boshlagan ishingizga Alloh madadkor bo'lsin” — ishonch va ma'naviy tayanch;

“Hazrati Nuh o'zi qo'llasin, tanangiz dard ko'rmasin” — diniy va salomatlik motivlarining uyg'unligi; “Maqsadingizga yetinglar, rizqingiz keng, yurtingiz tinch bo'lsin” — baraka va ijtimoiy farovonlik istagi.

Bunday olqishlar ko'p hollarda imorat qurilishi, ekin ekish, safarga o'tlanish, tijorat boshlash, to'y-tomosh tashkil qilish kabi hayotiy muhim voqealarning og'zaki ramzi sifatida xizmat qiladi. Shu tariqa, ezgu so'z orqali ishning barakali bo'lishi, tan salomatligi bilan birgalikda ruhiy holatning yengillashuvi ko'zlanadi.

Bundan tashqari, xalq og'zaki nutqida salomatlik konsepti bilan bog'liq olqishlar muayyan muqaddas holatlarda ham tilga olinadi:

Yangi oy chiqqanida: “Keyingi oy chiqquncha salomatlikdan ayirmasin” — vaqt bo'yicha salomatlik tilash;

Qabriston yonidan o'tganda: “O'tganlarga jannat, qolganlarga sog'lik, umr, rizq bersin” — hayot va o'lim o'rtasidagi dua mazmuni;

Safarga chiqqanda: “Oy borib, omon qayting” — safar xavfsizligi va salomatlikka doir muhim olqish formulasi.

Bu kabi og'zaki birliklar xalq orasida olqishlarning barhayot, ezgulikka undovchi, salomatlik konseptini amaliy faoliyat bilan bog'lovchi nutqiy-madaniy hodisa sifatida mavjudligidan dalolat beradi.

5. Aksirish holatidagi olqishlar.

**Muhokama.** O'zbek xalqining og'zaki muloqotida aksirish holati – jismoniy reaksiya bo'lishi bilan birga, e'tiqodiy va ijtimoiy konnotatsiyalarga ham ega bo'lgan holat sifatida qabul qilinadi. Bu holatga nisbatan bildiriladigan olqishlar va duolar — xalq orasidagi sog'liq konseptining og'zaki til vositalarida qanday namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

Aksirganda kishining atrofida gilar tomonidan bildiriladigan tilaklar ko'pincha quyidagi shakllarda ifodalanadi:

“Sog‘ bo‘ling!”, “Salomat bo‘ling!”, “Rahmat, siz ham sog‘ bo‘ling!”, “Alloh sog‘liqdan ayirmasin!”

Bu iboralar nafaqat odob-axloq belgisi, balki aksa urgan kishining salomatligini mustahkamlashga bo‘lgan psixologik ijobiy ta‘sir, ma‘naviy qo‘llab-quvvatlash sifatida ham qaraladi[4].

Qadimdan xalq orasida “kasal odam aksirsa, bu sog‘ayish belgisidir” degan e‘tiqod mavjud bo‘lib, hozirgi kungacha ham aksirish – shifo jarayonining boshlanishi sifatida talqin qilinadi. Shunday paytda kishiga “endi sog‘ayasan” deb aytilishi – bu og‘zaki tibbiy psixologiyaning xalqona ifodalaridan biridir.

Ushbu xalq e‘tiqodi islomiy manbalarda ham o‘z tasdig‘ini topadi. Hadisi shariflarda aytilishicha, agar kishi aksirganda “Alhamdulillah” desa, va yonidagilar unga javoban “Yarhamukallah” deb javob qaytarsa, u inson uch kasallikdan omonda bo‘ladi: Tish og‘rig‘i, Jigar og‘rig‘i, Qorin og‘rig‘i.

Bu e‘tiqodlar sog‘liqning nafaqat tibbiy, balki diniy-ma‘naviy kontekstdagi talqinini ham aks ettiradi. Shu bois, aksirish bilan bog‘liq olqishlar diniy-madaniy qatlam, xalq e‘tiqodlari va nutqiy odatlarning tutashgan joyida joylashgan, barhayot og‘zaki hodisa sanaladi. Bu kabi nutqiy birliklar orqali xalq sog‘liq konseptini faqat fizika yoki biologiyaga oid holat sifatida emas, balki butunlay ezgulik, duolar, e‘tiqod va jamiyatdagi munosabatlar bilan bog‘liq holat sifatida qabul qiladi.

**Xulosa.** O‘zbek xalqining og‘zaki ijodi namunalari, ayniqsa, olqish janri orqali milliy tafakkur, qadriyatlar va til tizimidagi muhim konseptlar – “salomatlik” va “kasallik” mazmunan va shaklan aniq ifodalangan. Ushbu maqolada olib borilgan tahlillar asosida aniqlanishicha, xalq olqishlarida aynan "salomatlik" konsepti yetakchi mavzulardan biri bo‘lib, u yaxshilik tilash, sog‘liq istash, baraka, xotirjamlik, tinchlik kabi boshqa ijobiy tushunchalar bilan uzviy bog‘liq holda ifodalanadi.

Olqishlarning har xil kommunikativ vaziyatlardagi qo‘llanishi – uchrashuv, xayrlashuv, dasturxon atrofida, xayrli ish boshlanishida, safarga chiqqanda yoki aksirish kabi holatlarda – xalq orasida salomatlikka doir ijobiy istaklarning doimiy ifoda shakliga aylanganini ko‘rsatadi. Bu esa sog‘liq tushunchasining nafaqat fiziologik holat, balki ma‘naviy-ruhiy va ijtimoiy farovonlik bilan chambarchas bog‘liq ekani, u xalq tafakkurida kompleks konseptual birlik sifatida shakllanganidan dalolat beradi.

Olqishlar tarkibidagi salomatlikka oid iboralar xalq nutqida yuqori darajadagi lingvistik barqarorlikka, madaniy izchillikka va axloqiy-ma‘naviy yuklamaga ega bo‘lib, ular o‘zbek tilining ekspressiv-emotsional boyligi bilan bir qatorda, xalq e‘tiqodi va diniy qarashlarining ham ifodasidir. Xalq olqishlarida "kasallik" holati ko‘proq inkor etiladigan yoki yengib o‘tilishi tilanadigan holat sifatida qayd qilinadi, "salomatlik" esa doimo ezgulikka yetaklovchi markaziy qadriyat sifatida madh etiladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek xalq olqishlari xalq tafakkurida sog‘liq konseptining chuqur ildiz otgan, izchil til va madaniyat orqali uzatiladigan barhayot modelini tashkil etadi. Bu jihat sog‘liq konseptining lingvokulturologik o‘rganilishida xalq og‘zaki ijodining muhim manba ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

### ADABIYOTLAR:

1. Омонтурдиев А. *Профессионал нутқ эвфемикаси (чорвадорлар нутқи мисолида): ф.ф. д. дисс. автореф.* – Тошкент, 2009. – 23б.
2. “Одоб бўстони ва ахлоқ гулистони”. М.Касаний таржимаси. Т.: 1994, 77-бет.
3. Саримсоқов Б. *Олқишлар ва қарғишлар. // Ўзбек фольклори очерклари. 3 томлик, 1-том, «Фан», 1988, 128-130- бетлар.*
4. Наврузова М. “Ўзбек фольклори тилида тиббий birlikларнинг этнолингвистик ва лингвопoeтик ифода хусусиятлари” ф.ф.ф.д. дис. 2023. 134.б
5. Алефиренко Н.Ф. *Лингвокультуроология. Ценностно-смысловое пространство языка.* – Москва: Флинта, Наука, 2010. – С. 89 – 95.
6. *O‘zbek folklori: darslik / T.Mirzayev, Sh.Turdimov, M.Jo‘rayev, J.Eshonqulov, A.Tilavov.* – Toshkent.

“CHOY” LEKSEMALI XALQ MAQOLLARINING LINGVOMADANIY JIHATLARI

**Axmedova Dildora Bahodirovna,**

*Buxoro davlat pedagogika instituti, O‘zbek tili  
va adabiyoti kafedrası professori, f.f.d. (DSc)*

*daxmedova77@gmail.com*

**Ziyodullayeva Gulchehra Fatillo qizi,**

*Buxoro davlat pedagogika instituti I bosqich magistranti  
ziyodullayevaguli2001@gmail.com*

**Annotatsiya.** Maqollar millatning o‘zligi, o‘ziga xosligi, madaniyati, ijtimoiy-siyosiy hayotini aks ettiruvchi oyna sifatida doimo tadqiqotchilar diqqat markazida bo‘lgan. Ular mehnatkash xalq ommasining ma‘naviy qiyofasi, ideali, orzu-umidi, intilishlari hamda tabiat va jamiyat haqida yuritgan mulohazalarining sintezi, hayot tajribalarining umumlashma ifodasidir. Shu sababli xalq maqollarini lingvopoetik, lingvokulturologik, antroposentrik kabi jihatlariga ko‘ra ilmiy jihatdan tadqiq etish dolzarblik kasb etadi. Ushbu maqolada choy konseptining o‘zbek, xitoy va rus xalqlari madaniyatida tutgan o‘rni, bu so‘z ifodalaydigan ma‘nolar hamda shu leksema ishtirok etgan xalq maqollarining lingvomadaniy o‘ziga xosliklari tahlilga tortilgan. Maqolada keltirilgan maqollar xalq an‘nanalarining o‘ziga xos ifodachisi, milliy madaniy belgilari jarchisi sifatida namoyon bo‘ladi. Aynan maqollar xalq turmushidagi tavofutlar, o‘ziga xosliklar bilan ro‘baro‘ bo‘lamiz.

**Kalit so‘zlar:** konsept, lingvokulturologiya, assotsiativ fon, maqol, leksema, lakuna, mikromaydon.

ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ АСПЕКТЫ НАРОДНЫХ ПОСЛОВИЦ С ЛЕКСЕМОЙ «ЧАЙ»

**Аннотация.** Пословицы всегда находились в центре внимания исследователей как зеркало, отражающее самобытность, своеобразие, культуру, общественно-политическую жизнь нации. Они представляют собой синтез духовного облика, идеалов, мечтаний, стремлений трудового народа и его размышлений о природе и обществе, обобщённое выражение жизненного опыта. Поэтому научное исследование народных пословиц с точки зрения таких аспектов, как лингвопоэтический, лингвокультурологический, антропоцентрический, приобретает особую актуальность. В данной статье анализируется роль концепта чая в культуре узбекского, китайского и русского народов, значения, выражаемые этим словом, а также лингвокультурные особенности народных пословиц, в которых присутствует эта лексема. Приведённые в статье пословицы выступают своеобразным выразителем народных традиций, глашатаям национальных культурных символов. Именно в пословицах мы сталкиваемся с различиями и особенностями в жизни народа.

**Ключевые слова:** концепт, лингвокультурология, ассоциативный фон, пословица, лексема, лакуна, микрополе.

LINGUOCULTURAL ASPECTS OF FOLK PROVERBS CONTAINING  
THE LEXEME «TEA»

**Abstract.** Proverbs have always been the focus of researchers as a mirror reflecting the identity, uniqueness, culture, and socio-political life of a nation. They are a synthesis of the spiritual image, ideals, hopes, aspirations, and reflections of the working masses on nature and society, a generalized expression of their life experiences. Therefore, the scientific study of folk proverbs in terms of linguopoetic, linguocultural, and anthropocentric aspects is highly relevant. This article analyzes the role of the concept of tea in the cultures of Uzbek, Chinese, and Russian peoples, the meanings expressed by this word, and the linguocultural peculiarities of folk proverbs that include this lexeme. The proverbs cited in the article serve as unique expressions of folk traditions and heralds of national cultural markers. It is through proverbs that we encounter differences and distinctive features in the life of a people.

**Keywords:** concept, linguoculturology, associative background, proverb, lexeme, lacuna, microfield.

**Kirish.** Lingvokulturologiya xalqning an‘analarini, madaniyatini turli konseptual birliklar vositasida aks ettiradi. So‘zlarning diaxron bosqichdan sinxrona o‘tish jarayoni, tilshunoslik sohasining boyib borishi, so‘zlarning turli konnonativ ma‘no ifodalashi bularning barchasi – tilshunoslikning qon tomiri.



Lingvokulturologiyada xalqning azaliy an'analarini, milliyligini ko'rsatuvchi konseptlardan biri – choy. Choy konsepti xalqimizning milliy qadriyatlarini namoyish etuvchi o'ziga xos belgilarga ega. Choy – nafaqat o'zbek xalqining, balki xitoy, rus va boshqa xalqlarda ham milliylikni ifodalovchi ichimlik. Bilamizki, choyning vatani Xitoy va ularda choy o'zgacha e'zoz qilinadi. Ruslarda-chi? Rus madaniy hayotida choy qay darajada o'rin egallaydi? Ko'plab odamlarning fikricha, ruslarda choy emas, qahva milliy ichimlik hisoblanadi. Aslida ham shundaymi? Rus choy madaniyati tadqiqotchisi V.V.Poxlebkina quyidagicha ta'kidlaydi: "Rus dramaturgiyasi milliy g'urur uchun doim bahsli va nozik bo'lgan savolga – rusning haqiqiy milliy ichimligi nima – choymi (xitoy choyi bo'lsa-da) yoki o'zimizniki bo'lgan aroqmi, degan savolga aniq javob beradi: bu – choy.

**Mavzuga doir adabiyotlar tahlili.** Nega? Chunki choy XVIII asrdan to hozirgi kungacha barcha rus pyesalarida voqealar rivojida ichiladi. Choy faqat to'xtovsiz emas, balki butun rus dramaturgiyasi tarixida ichilgan hamda barcha ijtimoiy qatlam vakillari tomonidan ichilgan. Shu bois, choy oxir-oqibatda umummilliy, **"siftsiz" ichimlikka aylangan.** Aynan shu jihat choyni noyob va albatta, **umumxalq hodisasi** sifatida ko'rsatadi [2,15]. Bundan ko'rinadiki, choy nafaqat o'zbek xalqi uchun, balki rus va xitoy madaniyati uchun ham lingvomadaniy kompetensiyani tashkil qiladi. Choy nafaqat ichimlik ma'nosini, balki boshqa konseptual mazmunni ham aks ettiradi. Turli "madaniy qatlam"larda (Y.S.Stepanov talqinicha) turlicha ma'no ifodalarni hosil qiladi. Jumladan, rus xalqi madaniyatida "choy" quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

- 1) "o'simlik";
- 2) "quritilgan barglar";
- 3) "ichimlik";
- 4) "choy ichish marosimi"dir.

Xitoylarda esa "choy" quyidagi ma'no qirralarini namoyon qiladi:

- 1) ichimlik;
- 2) o'simlik;
- 3) to'q jigarrang;
- 4) unashtirilganda keltiriladigan sovg'a;
- 5) choy moyi.

O'zbek xalqi madaniyatida "choy" konseptual birligi boshqa fonda namoyon bo'ladi:

- 1) milliy ovqatlanish maskani nomlanishi uchun asos (choyxona);
- 2) mehmon kelganda ko'rsatiladigan dastlabki iltifot;
- 3) qiz nazokatini, farosatini ko'rsatib beruvchi ko'zgu (kelin bo'lmish qiz birinchi choy quyib uzatadi va choy quyish jarayonining tartiblari);
- 4) chanqovbosdi ichimlik (hatto, saratonda ham issiq va yaxna choylardan iste'mol qilamiz);
- 5) ko'chim vositasida, umuman, ovqatlanish ma'nosida (Eshikka kirsangiz, bir piyola choyimiz bor);
- 6) kishilar o'rtasidagi diydor, samimiy suhbat uchun vosita;
- 7) bosh og'rig'ini qoldiruvchi ichimlik;
- 8) ming dardga davo – malham va hokazo. [1,64]

Ko'rinib turibdiki, turli madaniyatlarda choy turli xil shakl va mazmun kasb etadi. Bu ma'lum millat vakillari uchun turli lakunalarni hosil qiladi. Misol uchun, choyning mehmondo'stlik, marosim ma'nosini ifodalashi xitoyliklar uchun lakuna bo'lsa, o'zbek xalqi uchun to'q jigarrang ma'nosini ifodalashi xuddi shunday holat bo'la oladi. Choy turli mikromaydonlarni hosil qilishini unutmasligimiz lozim. Bu faqat kontekstdan anglashiladi. Aytib o'tish o'rinliki, xitoy xalqi choyni sof, tabiiy ta'mini qadrlaydi, ular hech qachon choyga nimalardir qo'shib tanovul qilmas ekan, lekin o'zbek va rus xalqlarida choyni asal, shakar, limon va yalpiz kabilarni qo'shib iste'mol qilish yoki biror shirinlik bilan yeyish urf bo'lgan.

Xitoy xalq adabiyotida choy bilan bog'liq ko'plab maqollar uchraydi. Masalan:

1. *Ovqatsiz bir kun yashagan afzal, lekin choysiz bir kun yo'q!* [2,13]

Bu maqolda xitoy xalqi choyni shunchalik qadrlashi, hatto uni ovqatdan ham muhimroq deb bilishi ifodalangan. Bu choyning kundalik hayotdagi o'rnini, uning energiya, dam olish va sog'liq manbayi sifatidagi rolini aks ettiradi.

2. *Yuqori navli choydan bir piyola ichilsa, shifokor chaqirishga hojat qolmaydi* [2,13]

Xitoy an'anaviy tabobatida choy shifo vositasi hisoblanadi. Uning shifobaxsh ekanligi ta'kidlanmoqda. O'zbek xalqida ham choy tabiiy dori sifatida baholanadi.

3. *Kunduzi teri suvni o'rab turadi, kechqurun esa suv terini* (ya'ni kechqurun choy ichish foydaliroq) [2, 13].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bu obrazli maqol xitoy tabobati bilan bog'liq. Unda inson organizmi va suyuqliklar o'rtasidagi muvozanat haqida so'z boradi. Kechqurun choy ichish organizmni yumshatadi, stressni kamaytiradi, degan qarash mavjud.

4. *Choysiz hech qanday marosim bo'lmaydi.* [2, 13]

Bu maqol xitoy madaniyatida choy ichishning muqaddas va marosimiy ahamiyatga ega ekanini bildiradi.

5. *Sigarani(tamagini) aroq bilan birga iste'mol qilish mumkin, ammo choy bilan emas — ular dushman.* [2,13]

Maqolda choyni sog'liq uchun foydali, tamaki esa zararli ekanligi o'zaro taqqoslangan. Choy sog'liqni asrash uchun xizmat qilishi, chekish esa salomatlikka zarar keltirishi ta'kidlangan. Bu o'rinda choy tozalik, poklik, hayot manbai, tamaki esa zaharlilik timsoli sifatida kelgan.

Bundan tashqari, Xitoy adabiyotida ko'plab maqollar bilan yuzma-yuz bo'lishimiz tayin. Rus madaniyatida bu maqollar kamroq songa ega:

1. *"Чай пить – не дрова рубить"* [2, 13]

(Choy ichish — bu o'tin yorish emas).

Bu maqol rus xalqining choy ichishni dam olish, suhbatlashish va ijtimoiy muloqot vositasi sifatida qabul qilishini ko'rsatadi. Choy ichish og'ir mehnat emas, balki rohat va madaniy marosim sifatida qadrlanadi. Choy ichish nafaqat ichimlik, balki ijtimoiy hodisa. Lingvokulturologik jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, bu maqol xitoycha tafakkurda kam uchraydi, chunki u yerda choy ko'proq estetik va sog'liq bilan bog'liq.

2. *"Чай – малый неглупый, но без сахара и он дурак"* [2,13]

(Choy aqli bor ichimlik, lekin shakar bo'lmasa u ham ahmoq).

Bu maqol rus xalqida choyni shirinlik bilan ichish an'anasi mavjudligini aks ettiradi. Rus choyxona madaniyatida choy, odatda, shakar bilan iste'mol qilinadi. Assotsiativ fonda choy "shirin" = "mazali, to'laqonli" ma'nolarini aks ettiradi.

3. *"По-купечески чай пьют, но не по-купечески расплачивается"* [2,13]

(Savdogardek choy ichadi, lekin pulni savdogardek to'lamaydi).

Bu maqolda ayrim kimsalarning gapi va amali to'g'ri kelmasligi qoralangan. O'zbeklarda bu maqolga sinonim sifatida "Nomi ulug' – suprasi quruq" frazeologik birligini keltirishimiz mumkin. Ruslarda choy marosimi ko'pincha boylik, hashamat bilan bog'langan.

4. *"Чай – а Москву через него видать"* [2,13]

(Choy – undan Moskvani ko'rish mumkin).

5. *"Такой чай, что Кронштадт видно"* [2,13]

(Shunaqa choyki, hatto Kronshtadni ko'rsa bo'ladi).

Ikkala maqolda ham choyni tiniqligi, sifati haqida gap ketmoqda. Bunda choy kognitiv jihatdan ko'zgudek tiniq, eng yuqori sifatli mahsulot sifatida qaraladi. Moskvani ko'rish / Kronshtadni ko'rish – haddan ortiq tiniq degan metaforik ifoda. Xitoyliklar uchun bu obrazli ifodalar begona bo'lishi mumkin, chunki ular choyni tiniqlik belgisiga ko'ra emas, hidi, ta'mi, navi bilan o'laydilar.

O'zbeklarda choy konsepti ishtirok etgan quyidagi maqollarga duch kelamiz va ularda choy turli konnotativ ma'nolarni ifodalash xususiyatiga ega:

1. *Joying kapa bo'lsa ham, choying quyuq bo'lsin.* [3,213]

**Olingan natijalar tahlili.** Ushbu maqolda xalqimizning azal-azaldan mehmondo'st ekanligiga ishora qilinmoqda. Turar joying hashamdor bo'lmasa-da, mehmonning ko'nglini ovlab, xursand qilib jo'natish kerak. Zero, yuqoridagi maqol "Mehmon – atoyi xudo" yoki "Mehmon otangdek ulug'" kabi maqollar bilan sinonimik munosabat hosil qiladi. Choy so'zi metonimik asosda ma'no ko'chishni yuzaga keltirmoqda va bu o'rinda antonimik munosabat ham yuzaga chiqqan: joyning kapa bo'lishi-yu choyni quyuq bo'lishi o'zaro zidlangan.

2. *Palovning qamchisi – choy.* [4, 359]

Metaforik ma'no ifodalayotgan choy birligi orqali bu maqolda oshdan keyin juda ko'p choy iste'mol qilinishiga ishora qilinayapti. Palov – o'zbek milliy taomi. Choy esa taomdan keyingi asosiy ichimlik, uni "qamchi" deb atash palovga yakun yasashni bildirmoqda. Madaniy konnotatsiya jihatdan yondashsak, deyarli har qanday mehmondorchilik choy bilan boshlanib, choy bilan tugashi ayonlashadi.

3. *Choyni so'ngini otangga ham berma.* [4,364]

Nega aynan so'ngini? Tibbiyot nuqtayi nazaridan olib qaraydigan bo'lsak, ko'p dam olgan choy, ko'p turgan choy zahar bo'ladi va unda inson salomatligi uchun zararli bo'lgan turli xil moddalar yuzaga chiqadi.

4. *Choy to'kilib soy bo'lmas,*

*Yulduz yig'ilib oy bo'lmas.* [4,414]

Berilgan maqolga diqqat qiladigan bo'lsak, tomchi choy to'kilgani bilan hech qachon soydek oqmaydi, bunga o'xshatish sifatida keltirilib bir etak yulduz bo'lsa ham, ularning hech biri oy bo'la olmasligi ta'kidlanadi. Choy bu yerda axloqiy saboq beruvchi timsol sifatida ishlatilmoqda.

5. *Hamma choy – bir yoq,*

*Shama choy – bir yoq. [4,424]*

Choyning turlari ko'p, ta'mlari xilma-xil, lekin xalqimiz qadrlaydigan choy turi bu shama choy. Aytish o'rinliki, aynan qadimdan mana shu shama choy bilan shirchoy pishirishgan. Ma'lumotlarga ko'ra, shama sutga alohida ta'm bera olgan. Bu yerda sifat tafovuti ko'rsatiladi.

6. *Pishmagan etni – yegali bo'lmas,*

*Qaynamagan choyni – ichgani. [4,447]*

Pishmagan go'shtni yeb bo'lmaganidek, qaynamagan choyni ham ichib bo'lmaydi. Choy faqat qaynatilsa, ya'ni damlansa, ichimlik sifatida foydalidir. Har bir ishning vaqti, pishgan payti bor. Tayyor bo'lmagan narsani ishlatish yaramaydi, degan falsafiy ma'no jamlangan.

7. *Yog'i yo'q, qaymog'i yo'q choyni qursin,*

*Xayri yo'q, ehsoni yo'q boyni qursin. [4,489]*

**Muhokama.** Agar choyda yog', qaymoq, shirinlik bo'lmasa, u mazmunsiz bo'ladi. Xuddi shuningdek, boy odam xayrsiz bo'lsa, u ham qadrsiz. Bu o'rinda choy saxiylik, boylik ramzi, lingvomadaniy jihatdan yondashadigan bo'lsak, maqolda xalq boylikni faqat moddiy emas, balki ruhiy va axloqiy saxovat bilan o'lchaydi.

8. *Choyning so'ngini do'stingga ber [4,102].*

Bu maqolda o'zbek xalqining mehmondo'stligi va do'stona munosabatiga urg'u beriladi. "Choyning so'ngi" odatda quyuqroq va mazaliroq bo'ladi, ya'ni eng yaxshi qismini do'stga tortiq etish kerak. Eng yaxshisini birovga berish – bu hurmat, sadoqat va chin mehmondo'stlik belgisi. Assotsiativ fonda quyidagicha ma'no yuzaga keladi: "so'nggi tomchi" – qadrlilik. Bu maqol "Choyning so'ngini otangga ham berma" maqoli bilan binar oppozitsiyani yuzaga keltirgan deyish mumkin. Bu o'rinda maqoldagi ziddiyat jumboqli tavofut.

9. *Shirin choying bo'lmasa,*

*Shirin tiling bo'lsin. [4,167]*

Bu maqolda "shirin choy" – boylik va mehmondo'stlik, shirin til esa axloq va odob ramzi sifatida ishlatilgan. Mol-mulk bo'lmasa ham, gap-so'z bilan mehmon ko'nglini olish, albatta, o'zbeklarga xos katta qadriyat hisoblanadi. Bunday "ko'ngil topish" qadriyati boshqa madaniyatlarda (ayniqsa, g'arbda) deyarli ko'zga tashlanmaydi va ular uchun lakunani hosil qiladi.

**Xulosa** qilib aytganda, yuzaga kelgan har bir maqol xalqning lingvomadaniy hamda konseptual jihatlarini namoyish etadi va ular o'ziga xos madaniy makon, madaniy sfera(muhit) hosil qiladi. Bu ma'nolar xalqning turmush tarzi, xulq-atvori, madaniyati bilan chambarchas bog'liq.

### ADABIYOTLAR:

1. Abuzalova M.K, G.F.Ziyodullayeva. Choy konseptining xalqlar qadriyatida aks ettishi. *The reflection of the tea concept in the values of nations. // European Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE).* – 2025.-NO. 2. – B-247

2. *Ma'nolar maxzani.* -T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2001.- B- 448

3. Цзоу Сюэцянь. Лингвокультурная специфика концепта «чай» и её учёт в обучении русскому языку китайских студентов. - Sankt-Peterburg, 2007. - B- 23.

4. *O'zbek xalq maqollari.* -T.: Sharq, 2005. - B- 512.

O'ZBEK VA RUS TILLARIDA AQLIY FAOLIYAT FE'LLARINING GRAMMATIK VA SEMANTIK TAVSIFI

**Babaqulova Dilobar Mustafayevna,**  
Osiyo texnologiyalar universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek va rus tillarida aqliy faoliyat fe'llarining grammatika hamda semantik xususiyatlari keng qamrovli tarzda taqqoslanadi. Tadqiqot jarayonida korpus tahlili asosida turli kontekstlardagi fe'l shakllari, ularning sintaktik roli va semantik og'ishlari o'rganildi. Shuningdek, deskriptiv metod yordamida fe'llarning grammatik kategoriyalari tahlil qilindi, leksikosemantik metod orqali esa asosiy ma'no komponentlari va metaforik kengayishlari aniqlandi. O'zaro solishtirish natijalari til ichidagi va tillar oralig'idagi xususiyatlar va farqlarni ochib beradi. Tadqiqot xulosalari aqliy faoliyat fe'llarining semantik strukturasini chuqur tushunishga yo'l ochadi. Maqolada zamonaviy lingvistik nazariyalar yoritilgan bo'lib, amaliy tadqiqot natijalari tilshunoslik va tarjimashunoslik sohalarida qo'llanilishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** aqliy faoliyat fe'llar, semantik maydon, grammatik kategoriya, aspekt, valentlik, korpus tahlili, leksikosemantik analiz, deskriptiv metod.

ГРАММАТИЧЕСКАЯ И СЕМАНТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ГЛАГОЛОВ УМСТВЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УЗБЕКСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКАХ

**Аннотация.** В данной статье всесторонне сравниваются грамматические и семантические особенности глаголов умственной деятельности в узбекском и русском языках. В процессе исследования на основе корпусного анализа были изучены глагольные формы в различных контекстах, их синтаксическая роль и семантические отклонения. Также с помощью дескриптивного метода были проанализированы грамматические категории глаголов, а посредством лексико-семантического метода были определены основные компоненты значения и метафорические расширения. Результаты сопоставительного анализа выявляют особенности и различия как внутри каждого языка, так и между языками. Выводы исследования открывают путь к глубокому пониманию семантической структуры глаголов умственной деятельности. В статье освещены современные лингвистические теории, а результаты практических исследований могут быть применены в области лингвистики и переводоведения.

**Ключевые слова:** глаголы умственной деятельности, семантическое поле, грамматическая категория, аспект, валентность, корпусный анализ, лексико-семантический анализ, дескриптивный метод.

GRAMMATICAL AND SEMANTIC DESCRIPTION OF MENTAL ACTIVITY VERBS IN UZBEK AND RUSSIAN LANGUAGES

**Abstract.** This article comprehensively compares the grammatical and semantic features of mental activity verbs in Uzbek and Russian. During the research process, verb forms in various contexts, their syntactic roles, and semantic variations were studied based on corpus analysis. Additionally, the grammatical categories of verbs were analyzed using the descriptive method, while the main semantic components and metaphorical extensions were identified through the lexico-semantic method. The results of the comparative analysis reveal characteristics and differences both within and between the languages. The research findings provide a deeper understanding of the semantic structure of mental activity verbs. The article covers modern linguistic theories, and the results of the practical research can be applied in the fields of linguistics and translation studies.

**Keywords:** mental activity verbs, semantic field, grammatical category, aspect, valency, corpus analysis, lexico-semantic analysis, descriptive method.

**Kirish.** Fe'llarning sintaktik va leksikosemantik tahlili tilshunoslikda til tizimini ichki tuzilishi va ma'no qatlamlarini chuqur o'rganish uchun zarur bo'lgan asosiy yo'nalishlardan biridir. Aqliy faoliyat fe'llari — e'tibor bermoq, tushunmoq, eslab qolmoq, tahlil qilmoq, xulosa qilmoq kabi leksik birliklar — kognitiv va kommunikativ jarayonlarda markaziy rol o'ynab, nutqning strukturaviy va semantik qatlamlari



o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni namoyon etadi. Ularning aspektual juftliklari (masalan, tushunmoq/tushunib olmoq), valentlik ramkalarini va semantik maydonlari turli til tizimlarida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, fe'l kategoriyalari va konstruksiyalarning til ichidagi funksiyalarini belgilaydi.

O'zbek tilida analitik konstruksiyalar va yordamchi fe'llar birikmasi (masalan, "xotira saqlamoq", " mantiqiy kuzatmoq") semantik noaniqliklarni bartaraf etib, murakkab ma'nolarni aniq ifodalaydi. Rus tilida esa boy fleksion shakllar va izoh-shakl variatsiyalari (masalan, "обращать внимание" vs. "увеличить внимание") fe'l ma'nosidagi nuanslarni va aspektual qarama-qarshiliklarni ifoda etishda keng imkoniyatlar yaratadi.

Mazkur tadqiqot O'zbek til korpusidan (5 000 000 so'z) va Rus til korpusidan (10 000 000 so'z) olingan ma'lumotlar Sketch Engine va WordSmith vositalari yordamida tahlil qilinishiga, jami 50 dan ortiq kognitiv fe'l atamalarini kongruent va no-kongruent juftliklari doirasida sintaktik roli, valentlik xususiyatlari va semantik maydonlari bo'yicha xaritalanishiga asoslanadi. Deskriptiv grammatik tahlil va leksikosemantik yondoshuv natijalari fe'l-fe'l tarjima ekvivalentlarini aniqlash, kognitiv metaforik naqshlarni ochib berish hamda tarjimashunoslik, leksikografiya va kompyuter lingvistikasi sohalarida amaliy modellarni ishlab chiqishga imkon beruvchi konseptual poydevor yaratadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Korpus materiallari O'zbek tilining Milliy korpusi 6.0 versiyasi, turli janrlar (ilmiy maqolalar, badiiy adabiyot, ommabop matnlar) hamda 1990–2020 yillar oralig'ida nashr qilingan elektron nashrlardan yig'ilgan to'plamlardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 75 million so'z birlikni tashkil etdi. Matnlar avtomatik tozalash, tokenizatsiya va lemmalash bosqichlaridan o'tkazilib, noto'g'ri belgilar va ekstraneous elementlar olib tashlandi. Sketch Engine muhitida morfologik teglash va konkordans tahlili amalga oshirildi, shuningdek Python va NLTK kutubxonalarida yozilgan skriptlar yordamida vid juftliklari va kontekstual kollokatsiyalar olinib, ularning frekvensiyasi va distribusiyasi o'lchandi. Korpusdagi namuna hajmini tekshirish uchun stratifikatsiyalangan tasodifiy namuna olish yo'li tanlandi; har bir janrdan va yildan teng miqdorda namunalar ajratildi. Fe'llarning morfologik paradigmalarini aniqlash uchun dependens graf analizatorlari va UDPipe modellaridan foydalangan holda sintaktik rol aniqligi oshirildi. Deskriptiv grammatik tahlilda fe'llarning vid, temporal, transitivity va valentlik parametrlariga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekiston Milliy universiteti va Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tilshunoslik fakultetlaridan ikki bosqichli ekspert tekshiruvlari o'tkazilib, interannotator kelishuv darajasi Cohen's kappa koeffitsienti yordamida 0.82 ga yetkazildi. Ekspertlar ko'rsatkichlari Likert shkalasi asosida yig'ildi, har bir parametr bo'yicha statistik tahlil uchun chi-square testlari va korrelyatsion tahlillar R dastur muhitida bajarildi. Leksikosemantik yondoshuv doirasida WordNet.Uz tarmog'i, distributional semantics usullari va korpus kollokatsion tahlili asosida semantik soha modellarini yaratish amalga oshirildi. Semantik tarmoq diagrammalari Gephi dasturida qurildi, metaforik kengayish xususiyatlari esa skoring metodlari orqali regressiya tahlili bilan baholandi. Tadqiqot jarayonida metodologiya to'liq moslashuvchanligini ta'minlash maqsadida korpus, deskriptiv va leksikosemantik bosqichlardan olingan natijalar muntazam ravishda validatsiya qilinib, natijalar o'rtasida izchil solishtirish va sinxron tahlil realizatsiya qilindi. Qo'shimcha sifatida, fe'llar ishlatilish dinamikasini aniqlash uchun vaqt qatorli tahlil qo'llanildi, bunda yilma-yil frekvensiya trendlari va z-score indikatorlari hisoblab chiqildi. Bu yondoshuv fe'llarning til tizimidagi dinamik strukturaviy xususiyatlarini aniqlash va ularning semantik-dinamika parametrlarini model qilish imkonini berdi.

**Muhokama.** Korpus tahlili ko'rsatdiki, o'zbek tilida aqliy faoliyat fe'llarining analitik konstruksiyalari nafaqat morfologik soddaligi bilan, balki semantik aniqlikni oshirishi bilan ham ajralib turadi. Masalan, «tushunmoq» fe'li odatda yagona asosiy shaklda ishlatiladi, ammo «tushunib olmoq» konstruksiyasi orqali mavhumlik darajasi pasayadi hamda kelajak yoki davomiylik kabi grammatik-semantik kategoriyalar aniqlashtiriladi. Bu holat fe'l vidining nuanslarini chuqurroq ochib berish imkonini beradi.

Rus tilidagi aqliy faoliyat fe'llariga oid korpus tahlillari shuni ko'rsatdiki, ular asosan fleksion va prefixal mexanizmlar orqali semantik aniqlik va vid farqlarini ifodalaydi. Masalan, "понимать/понять" juftligi doimiy jarayon (понимать) va natijaviy o'zgarish (понять) orasidagi aspektual qarama-qarshilikni aniq belgilaydi. Shu bilan birga, bosqichma-bosqich tushunishni ifodalovchi "допонимать/допонять", "разбираться/разобраться" kabi prefiksial variantlar ham keng tarqalgan.

Fe'llarning valentlik ramkalarini o'rganish jarayonida aniqlanishicha, o'zbek tilida ba'zi aqliy faoliyat fe'llari (masalan, «e'tibor bermok», «eslab qolmoq») ikki yoki undan ortiq argument talab qiladi. Bu fe'llar bilan izchil ravishda obyektlar ro'yxati, ko'makchi so'zlar yoki qo'shimcha morfemalar yordamida aniqlik kiritiladi. Masalan, «e'tibor bermok» konstruksiyasi «kimga/nechiga», «qaysi narsa/holatga» singari parametrlarga bo'linadi, bu esa fe'l ma'nosining turli jihatlarini kontekstga moslashuvchanlik bilan ifodalaydi.

Valentlik ramkalarini o'rganishda "обращать внимание" fe'li ikki to'ldiruvchi — direkt obyekt (кого? что?) va prepozitsion ramka (на что?) — orqali noziklikka erishadi, "вспоминать/вспомнить" esa "о чем?" savoliga mos keluvchi prepozitsion birikmalar yordamida kontekstga bog'lanadi. "Анализировать/проанализировать" fe'llari ham ikki argumentli bo'lib, obyekt (что?) va metod yoki vosita (с помощью чего?) parametrlarini talab qiladi.

Aspektual juftliklar tahlilida o'zbek fe'llarida vid farqi ma'lum miqdorda analitik vositalar orqali ifodalanadi, ikkinchi darajali prefiksatsiyaga kamdan-kam murojaat qilinadi. Biroq vaqt qatorli tahlillar shuni ko'rsatdiki, korpusdagi zamonaviy ommabop uslub matnlarida va ommaviy axborot vositalarida analitik vid konstruksiyalari yanada faol ishlatilmoqda, bu esa til evolyutsiyasida ma'lum o'zgarishlarga olib kelmoqda.

Semantik maydon tadqiqoti aniqladi: aqliy faoliyat fe'llarining metaforik kengayishlarida «tushunmoq» fe'li boyroq tasviriy vositalar bilan birikadi (masalan, «xotira to'lmoq», «mantiqiy izdan chiqmoq»), bu esa nutq rang-barangligini oshiradi. Shu bilan birga, konstruksion tahlil fe'l-fe'l kombinatsiyalarining stilistik qulayligini va diskursga kiritadigan emotsional ohangini ham ko'rsatdi.

Semantik maydon tahlili rus tilida ham metaforik kengayishlarning boyligini namoyish etdi: "запоминать" fe'li "xotiraga yozyapti" kabi ma'noni berish uchun "в памяти откладываться" frazeologik birikmalari bilan birlashadi, "делать вывод/сделать вывод" esa ratifikatsiyalangan fikrni "оформлять умозаключение" orqali ifodalaydi. Prefiksali fe'llar ("выяснять/выяснить", "договариваться/договориться") esa jarayon va natija orasidagi aloqani yanada aniq ko'rsatadi.

**Tahlil natijalari** asosida fikr yuritish shuni ko'rsatdiki, o'zbek tilidagi aqliy faoliyat fe'llarini chuqurroq o'rgangan holda semantik-dinamika modeli tuzish mumkin, bu esa til nazariyasiga yangi metodologik va amaliy yo'nalishlar ochadi. Masalan, psixolingvistik eksperimentlar yordamida sintaktik konstruksiya va kognitiv jarayonlar o'rtasidagi aloqani tadqiq etish imkoniyatlari izlanmoqda. Natijada, aqliy faoliyat fe'llarining nazariy ahamiyati va kommunikativ funksiyasi yanada ravshanlashadi.

Diaxronik korpus qiyoslari shuni ko'rsatdiki, ommaviy axborot vositalarida va ilmiy adabiyotlarda rus tilida ham analitik-prepozitsion konstruksiyalar ("принимать во внимание", "расширять понимание") tobora faol ishlatilmoqda. Bu esa kognitiv fe'llarning kommunikativ funksiyasini kengaytirib, til evolyutsiyasida yangi tendensiyalarni yuzaga keltirmoqda. Shunday qilib, o'zbek va rus tillaridagi aqliy faoliyat fe'llarining qiyosiy tahlili sintaktik, valentlik va semantik parametrlar bo'yicha chuqurroq tadqiqotlar uchun zamin yaratadi.

**Natijalar.** O'zbek tilida aqliy faoliyat fe'llari analitik konstruksiyalar yordamida ifodalanadi, bu orqali semantik aniqlik va vid farqlari aniqroq yetkaziladi. Misol uchun: "Men mazkur masalani **tushunib oldim**", bu yerda "tushunib oldim" konstruksiyasi harakatning yakuniyligini va aniqligini ko'rsatadi.

Valentlik tahlillari fe'llarning boshqaruv kuchi va argumentlar sonini tilga xos tarzda aniqlaydi; masalan, "e'tibor bermoq" konstruksiyasi "kimga", "qachon" va "qanday" parametrlar orqali kontekstga moslashadi. Misol: "U darsga diqqat bilan **e'tibor berdi**", bu erda "e'tibor berdi" fe'li ikki argumentli bo'lib, aniq kontekstni belgilaydi.

Aspektual tahlillar natijasida o'zbek tilida fe'llarning aspektual juftliklari analitik vositalar ("o'qib chiqdi", "qilmoqda") yordamida ifodalanadi va yakun hamda davomiylilik nuanslarini yetkazadi. Misol: "U kecha matnni **o'qib chiqdi**" orqali harakatning yakuniyligi yoritilgan.

Semantik maydon tahlili mental fe'llarning metaforik kengayishlari nutqqa badiiylilik va tasviriylilik bag'ishlaydi. Misol: "Mavzu ustida o'ylab, uning **xotirasi to'lib qoldi**", bu yerda "xotirasi to'lib qoldi" metaforasi kuchli tasvir beradi.

Frekvensiya trendlari o'zbek korpusida analitik vid konstruksiyalarining so'nggi dekalalarda ortib borayotganini ko'rsatadi, bu esa tilning morfologik yondoshuvdan semantik-dinamika yondoshuvga o'tishini aks ettiradi. Misol: "Talabalar **o'rganib chiqyapman** kabi konstruksiyalarni tobora ko'proq ishlatishyapti."

Ekspert bahosi va statistik tahlillar fe'llarning valentlik parametrlarida o'zgarishlar borligini ko'rsatadi; ayrim fe'llar 3–4 argumentli kontekstlarda ham uchraydi. Misol: "U o'qituvchiga, mavzuga, materialga va vaqtga **e'tibor berdi**", bu yerda "e'tibor berdi" to'rt argumentli kontekstni ifodalaydi.

Vaqt qatorli tahlil kontekstda ishlatilish trendlarida muhim statistik farqlarni aniqladi, bu esa tildagi evolyutsion jarayonlar va kognitiv jarayonlar o'rtasidagi bog'liqlikni ochib beradi. Misol: 2000 -yilda "o'qidi" kam uchragan bo'lsa, 2020- yilda bu forma tez-tez **ko'rinmoqda**.

**Xulosa.** Ushbu solishtirma tadqiqot o'zbek va rus tilidagi aqliy faoliyat fe'llarining analitik va konstruksion mexanizmlar orqali semantik-dinamika parametrlarini aniqlashga imkon berdi. Aspektual juftliklar va vid konstruksiyalari madaniyatlararo farqlarini o'rganish, fe'l vidining yakuniyligi va davomiyligi nuanslarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etgani ma'lum bo'ldi. Valentlik tahlillari "e'tibor bermoq", "eslab qolmoq" kabi fe'llarning argumentlar soni va turlari kontekstga bog'liqligini ko'rsatdi va bu tadqiqotda 3–4 argumentli konstruksiyalar ham aniqlanganligi tajriba uchun yangi imkoniyatlar ochdi.

Korpusdagi frekvensiya trendlarining o'sish dinamikasi analitik konstruktsiyalarning tillardagi funksional rolini kuchaytirayotganini ko'rsatdi. Semantik maydon tahlili esa metaforik kengayishlar orqali fe'llarning nutqga badiiy va stilistik o'lcham qo'shayotganini namoyish etdi. Bu natijalar fe'llarning kognitiv jarayonlar bilan bog'liqligini va kommunikativ vazifasini yanada kengroq tahlil qilish zaruratini uqtirdi.

Kelgusida tadqiqot doirasi kengaytirilgan korpus manbalari, turli genreylar va diaxron tahlillar bilan boyitilishi, shuningdek, psixolingvistik va kognitiv eksperimentlar orqali sintaktik konstruktsiyalar va kognitiv o'rganish jarayonlari o'rtasidagi aloqani sinovdan o'tkazish tavsiya etiladi. Bu esa til nazariyasida konstruktsion, kognitiv va semantik yondashuvlarni integratsiyalashga yo'l ochadi va fe'llarning tushunilishi hamda ta'lim jarayonlarida qo'llanilishini yanada takomillashtirish imkonini beradi.

### ADABIYOTLAR:

1. Апресян, Ю. Д. (2000). *Семантика русского языка*. Москва: Наука.
2. Ras kin, S. (1986). *Semantic Mechanisms of Humor*. D. Reidel Publishing.
3. Abdullayev, M. (2015). *O'zbek tilidagi fe'l sintaksisi*. Toshkent: Fan.
4. Mirziyoev, A. (2018). *Leksikosemantik tahlil metodlari*. Toshkent: Universum.
5. Mollayeva, G. (2012). "Analitik konstruktsiyalar o'zbek tilida." *Til va Adabiyot*, 4(2), 45–58.
6. Petrova, N. (2017). "Aspectual Features in Russian Mental Verbs." *Slavic Studies*, 12(1), 23–37.
7. Собиров, И. (2020). "Валентность глаголов в узбекском языке". *Лексикология*, 3(4), 67–80.
8. Zemskaya, E. (2005). *Grammar of Russian*. Cambridge: Cambridge University Press.
9. Tursunova, D. (2019). "Korpus tahlili va lingvistik tadqiqot." *O'zbek tilshunosligi*, 7(1), 101–

115.

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI TA’LIMIDA O‘QUV IZOHLI LUG‘ATLAR HAMDA  
ASSOTSIATIV TAJRIBANING NAZARIY ASOSLARI

**Tosheva Dilbar Muzaffar qizi,**  
Qarshi davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi, PhD

**Annotatsiya.** Ushbu maqola ingliz va o‘zbek tillarida o‘quv izohli lug‘atlarning til o‘rganish jarayonidagi nazariy asoslarini chuqur tahlil qiladi. Izohli lug‘atlar til o‘rganuvchilarga so‘zlarning leksik, grammatik va pragmatik xususiyatlarini tushunishda yordam beruvchi asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Maqolada shuningdek, assotsiativ tajriba konsepsiyasi — yangi ma’lumotlarni ilgari olingan bilimlar bilan bog‘lash mexanizmi — til o‘rganish samaradorligini oshirishdagi o‘rni va ahamiyati o‘rganiladi. Tadqiqotda ingliz va o‘zbek tillaridagi izohli lug‘atlarning tuzilishi va mazmuniy yondashuvi, ularning pedagogik funksiyalari hamda til o‘rgatishda qo‘llanilishi sohalari yoritiladi. Assotsiativ tajriba psixologik jarayon sifatida yangi leksik birliklarni eslab qolish va nutqiy ko‘nikmalarni mustahkamlashda muhim rol o‘ynashi ta’kidlanadi. Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida izohli lug‘atlar va assotsiativ tajribaning nazariy asoslari o‘rganilib, til ta’limidagi roli tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** o‘quv izohli lug‘atlar, assotsiativ tajriba, til o‘rganish, til pedagogikasi, psixolingvistika, leksik birliklar, grammatik xususiyatlar, til ta’limi metodikasi, integratsiya.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ УЧЕБНЫХ ТОЛКОВЫХ СЛОВАРЕЙ И  
АССОЦИАТИВНОГО ОПЫТА В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ И УЗБЕКСКОМУ ЯЗЫКАМ

**Аннотация.** Данная статья представляет собой глубокий теоретический анализ роли учебных толковых словарей в процессе изучения английского и узбекского языков. Толковые словари служат важным инструментом для изучающих язык, помогая им понимать лексические, грамматические и прагматические особенности слов. В статье также рассматривается концепция ассоциативного опыта — механизма, связывающего новую информацию с ранее полученными знаниями, и его значение в повышении эффективности процесса изучения языка. В исследовании освещаются структура и содержательный подход толковых словарей английского и узбекского языков, их педагогические функции и области применения в обучении. Ассоциативный опыт как психологический процесс играет ключевую роль в запоминании новых лексических единиц и укреплении речевых навыков. В статье исследуются теоретические основы толковых словарей и ассоциативного опыта в контексте английского и узбекского языков, а также анализируется их значение в языковом образовании.

**Ключевые слова:** учебные толковые словари, ассоциативный опыт, изучение языка, языковая педагогика, психоллингвистика, лексические единицы, грамматические особенности, методика преподавания языка, интеграция.

THEORETICAL FOUNDATIONS OF EDUCATIONAL EXPLANATORY DICTIONARIES  
AND ASSOCIATIVE EXPERIENCE IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGE TEACHING

**Abstract.** This article provides an in-depth analysis of the theoretical foundations of educational explanatory dictionaries in the process of language learning in English and Uzbek. Explanatory dictionaries serve as a primary tool for language learners to understand the lexical, grammatical, and pragmatic features of words. The article also explores the concept of associative experience — a mechanism that links new information with previously acquired knowledge — and its role and significance in enhancing the effectiveness of language learning. The study highlights the structure and semantic approaches of explanatory dictionaries in English and Uzbek, their pedagogical functions, and areas of application in language teaching. Associative experience, as a psychological process, is emphasized as playing a crucial role in memorizing new lexical units and reinforcing speech skills. This article investigates the theoretical foundations of explanatory dictionaries and associative experience in English and Uzbek languages and analyzes their role in language education.

**Keywords:** educational explanatory dictionaries, associative experience, language learning, language pedagogy, psycholinguistics, lexical units, grammatical features, language teaching methodology, integration.



**Kirish.** Til o'rganish jarayonida lug'atlar va ularning samarali qo'llanilishi muhim ahamiyatga ega. Ingliz va o'zbek tillarida o'quv izohli lug'atlar so'zlarning ma'no va grammatik xususiyatlarini batafsil yoritib, til o'rganuvchilarga leksik qobiliyatlarini rivojlantirishda yordam beradi. Shuningdek, assotsiativ tajriba — yangi so'z va iboralarni mavjud bilimlar bilan bog'lash orqali eslab qolishni yaxshilash mexanizmi — til o'rganish samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Til o'rganishning samaradorligi ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ulardan biri sifatida lug'atlardan samarali foydalanish va yangi leksik materiallarni o'zlashtirish usullarini hisobga olish muhimdir. Ingliz va o'zbek tillarida o'quv izohli lug'atlar til o'rganuvchilarga so'zlarning ma'no va grammatik xususiyatlarini chuqurroq tushunish imkonini beruvchi asosiy vositalardan biridir. Shu bilan birga, til o'rgatishda assotsiativ tajriba — yangi so'z va iboralarni ilgari olingan bilimlar va tushunchalar bilan bog'lash orqali eslab qolish jarayonini yengillashtiruvchi psixologik mexanizm — til ta'limining samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega.

Tadqiqotning predmeti — ingliz va o'zbek tillarida o'quv izohli lug'atlar va assotsiativ tajribaning nazariy asoslari hamda ularning til o'rgatish jarayonidagi o'rni hisoblanadi.

Tadqiqotning obyekti esa ushbu lug'atlar va assotsiativ metodlarning til o'rganish samaradorligiga ta'sir ko'rsatish jarayoni sifatida belgilanadi.

Ushbu maqolaning maqsadi ingliz va o'zbek tillaridagi izohli lug'atlar hamda assotsiativ tajribaning nazariy asoslarini tahlil qilib, til ta'limidagi samaradorligini aniqlashdan iborat. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar qo'yilgan:

1. Ingliz va o'zbek tillaridagi o'quv izohli lug'atlarning tuzilishi va mazmunini tahlil qilish;
2. Assotsiativ tajribaning psixologik va lingvistik jihatlarini o'rganish;
3. Lug'at va assotsiativ metodlarning til o'rganish jarayonidagi o'zaro aloqasi va ta'sirini aniqlash;
4. Til ta'limida ushbu yondashuvlarning pedagogik ahamiyatini baholash.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi. Bugungi kunda til o'rgatishda yangi metod va vositalarni joriy qilishga bo'lgan ehtiyoj bilan bog'liq. Global miqyosda ingliz tili kommunikatsiya vositasi sifatida keng tarqalganligi, o'zbek tilining esa milliy madaniyat va ta'lim sohasidagi o'rni, lug'at va o'rganish metodikasining uzviy bog'liqligini tadqiq qilishni dolzarb qiladi. Bundan tashqari, assotsiativ tajriba asosida til o'rgatish metodlarini rivojlantirish o'quvchilarning leksik boyligini tez va samarali oshirishga yordam beradi.

Tadqiqotning yangiligi shundaki, u ingliz va o'zbek tillaridagi izohli lug'atlar va assotsiativ tajribani kompleks tarzda o'rganib, ularning nazariy va amaliy jihatlarini birlashtiradi hamda til ta'limida yangi pedagogik yondashuvlarni shakllantirishga asos yaratadi. Bu esa til o'rgatish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Til ta'limida o'quv izohli lug'atlar va assotsiativ yondashuvlar zamonaviy lingvodidaktikaning dolzarb yo'nalishlaridan biri sanaladi. Ushbu masalalar xorijiy va mahalliy tilshunoslar tomonidan keng o'rganilgan bo'lib, har ikki vosita ham til o'rganish jarayonida leksik bilimlarni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Ingliz tili ta'limida Nation, I. S. P. (2001) tomonidan yozilgan "Learning Vocabulary in Another Language" asari so'z boyligini oshirish, izohli lug'atlardan foydalanish va ularning ta'limdagi samarasi bo'yicha muhim nazariy asoslarni beradi. Muallif o'quv izohli lug'atlarni til o'rganishda mustaqil faoliyatni shakllantiruvchi vosita sifatida ko'radi. Shuningdek, Schmitt, N. (2008) o'zining "Vocabulary in Language Teaching" kitobida leksik kompetensiyani rivojlantirishda izohli lug'atlar va assotsiativ usullarni birgalikda qo'llashning metodologik jihatlarini tahlil qilgan. Oxford Advanced Learner's Dictionary (OALD) va Longman Dictionary of Contemporary English (LDOCE) kabi akademik izohli lug'atlar esa talaba va o'qituvchilar uchun asosiy amaliy manbalardan hisoblanadi. Bu lug'atlar nafaqat so'zning ma'nosini, balki ularning fonetik yozuvini, grammatik xususiyatlarini, kontekstdagi qo'llanilishini va sinonimik tarmoqlarini ham aks ettiradi. Bu esa assotsiatsiyani faollashtirishga xizmat qiladi.

Psixolingvistik asoslarni yoritishda A.A. Leontyevning "Psixologiya obshcheniya" (1974) va V. V. Vinogradovning leksik-semantik tizim haqidagi ishlari, ayniqsa assotsiativ bog'lanishlarning shakllanish mexanizmlarini ochib beradi. Shu bilan birga, C.G. Jungning "Studies in Word Association" (1906) asari til o'rgatishdagi assotsiativ tajriba tushunchasining ilk psixologik asoslarini bergan eng muhim manba hisoblanadi.

Mahalliy adabiyotlardan Tursunov M. X. (2019)ning "O'zbek tilini o'qitishda kontekst va izohli lug'atlardan foydalanish" nomli risolasida izohli lug'atlarning lingvodidaktik imkoniyatlari ochib berilgan. Muallif fikricha, o'quv lug'atlar o'quvchi ongida semantik maydonlarni shakllantirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, Qurbonov O. Q. (2021) o'zining "Assotsiativ tafakkur va til o'rganish: lingvomadaniy yondashuv" asarida assotsiatsiyalarning lisoniy tafakkurdagi roli, ularni til ta'limida qo'llash yo'llari haqida to'xtalgan. Unga ko'ra, assotsiativ metod o'rganuvchining milliy-madaniy tafakkurini

rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Rossiyalik tilshunoslardan Zalevskaya G. A. (2001)ning "Psixolingvistika" asarida assotsiativ tajriba jarayonlari, konnotativ va denotativ bog'lanishlar, shuningdek, ularning ta'limdagi qo'llanilishi ilmiy asosda bayon qilingan. Shuningdek, Karpov A. V. (2020) tomonidan yozilgan " Лингводидактика и словарная работа " nomli monografiyada o'quv izohli lug'atlardan foydalanish, ularning struktura va funktsional imkoniyatlari keng yoritilgan.

Yuqorida ko'rib chiqilgan manbalar asosida shuni aytish mumkinki, o'quv izohli lug'atlar til o'rganish jarayonida semantik tafakkurni shakllantirishda va o'rganilayotgan til materiallarini tizimli o'zlashtirishda zaruriy didaktik vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, assotsiativ yondashuv esa so'zlar, tushunchalar va holatlarni o'zaro bog'lab, ularning xotirada mustahkam joylashuviga xizmat qiladi. Bu ikki uslubni integratsiyalashgan holda qo'llash orqali chet tillarini o'rgatishda yuqori natijalarga erishish mumkin.

Til o'rganish va ta'lim jarayonida o'quv izohli lug'atlar va assotsiativ tajriba mavzusi ko'plab tilshunoslik, pedagogika va psixolingvistika sohalarida keng o'rganilgan. Lug'atlarning til ta'limidagi roli haqida ilk nazariy yondashuvlar Robert Lado (1957) va Brown (2007) tomonidan keltirilgan bo'lib, ular lug'atlarni faqat so'zlarning ma'nosini beruvchi vosita sifatida emas, balki til o'rganuvchilarning lingvistik kompetentsiyasini shakllantirishdagi muhim element deb hisoblaydilar. Lado o'z ishlarida til o'rganishda lug'atlarning funktsional xususiyatlariga alohida e'tibor qaratgan bo'lsa, Brown til o'rganish jarayonidagi kognitiv jarayonlarni chuqurroq tahlil qiladi.

O'zbekiston tilshunos olimlari, xususan Akbarov (2018) va Zafarova (2019), o'zbek tilida o'quv izohli lug'atlar tuzilishi va pedagogik ahamiyati masalasini yoritib, ularning o'quvchilarning leksik va grammatik bilimlarini oshirishdagi o'rni haqida ilmiy asoslangan fikrlarni ilgari suradilar. Ularning tadqiqotlari asosida izohli lug'atlarning til ta'limidagi samaradorligi nafaqat ma'no izohlari, balki grammatik va pragmatik ma'lumotlarni ham o'z ichiga olishi zarurligi ta'kidlanadi.

Assotsiativ tajriba tushunchasi esa, asosan psixolinguistika doirasida o'rganilgan bo'lib, Pavlenko (2014) va Vygotsky (1978) kabi olimlar yangi ma'lumotlarni ilgari olingan bilimlar bilan bog'lash jarayonining til o'rganishda qanday rol o'ynashini yoritadilar. Ushbu yondashuv yangi so'zlarni o'zlashtirishda samaradorlikni oshirish uchun muhim psixologik mexanizm sifatida tan olinadi. Karimova (2020) assotsiativ metodlarning til o'rgatishdagi amaliy qo'llanilishi va samaradorligi haqida o'z ilmiy ishida batafsil tahlil qilib beradi. Richards va Schmidt (2010) esa lug'atlar va assotsiativ jarayonlarning til ta'limidagi birgalikdagi ahamiyatini ko'rsatib, bu ikki vositani integratsiyalash orqali o'quvchilarning til ko'nikmalarini yanada rivojlantirish mumkinligini ta'kidlaydilar. Bu nuqtai nazardan, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodikalar lug'atlar va assotsiativ tajribani uyg'unlashtirishga qaratilgan.

Shunday qilib, mavjud adabiyotlar o'quv izohli lug'atlar va assotsiativ tajribani til ta'limida birgalikda qo'llashning nazariy va amaliy asoslarini ta'minlaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot metodologiyasi sifatida adabiyotlar tahlili va komparativ tahlil usullari qo'llanildi. Ingliz va o'zbek tillaridagi o'quv izohli lug'atlar namunalaridan foydalanib, ularning tuzilishi va taqdim etilish usullari solishtirildi. Assotsiativ tajriba tushunchasini psixolingvistik manbalar orqali tahlil qilib, til o'rgatish jarayoniga tatbiq etilish imkoniyatlari ko'rib chiqildi. Ushbu tadqiqotda ingliz va o'zbek tillarida o'quv izohli lug'atlar hamda assotsiativ tajribaning nazariy asoslarini o'rganish uchun sifat va miqdoriy tadqiqot metodlarining integrativ yondashuvi qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi asosida mavjud ilmiy adabiyotlarni sistematik tahlil qilish, komparativ lingvistik yondashuv va psixolingvistik konsepsiyalarni solishtirish usullari asosiy o'rin tutdi.

Birinchidan, adabiyotlar tahlili usuli yordamida ingliz va o'zbek tillaridagi o'quv izohli lug'atlar tuzilishi, mazmuni va pedagogik funksiyalariga oid ilmiy manbalar yig'ildi va tahlil qilindi. Ushbu bosqichda tilshunoslik, pedagogika va psixolingvistika sohalariga oid xalqaro va mahalliy nashrlar, ilmiy maqolalar va monografiyalar o'rganildi. Bu orqali lug'atlarning leksik, grammatik va pragmatik xususiyatlari hamda ularning til o'rgatish jarayonidagi samaradorligi haqida chuqur nazariy tushunchalar hosil qilindi.

Ikkinchidan, assotsiativ tajriba tushunchasining psixologik va lingvistik asoslarini o'rganish uchun psixolingvistika va til o'rganish nazariyalariga murojaat qilindi. Bunda yangi ma'lumotlarni ilgari olingan bilimlar bilan bog'lash mexanizmi va uning til o'rganish jarayonidagi roli atroflicha tahlil qilindi. Shu bilan birga, pedagogik adabiyotlardan foydalanib, assotsiativ metodlarning amaliy qo'llanilishi va samaradorligini aniqlashga harakat qilindi.

Uchinchidan, komparativ tahlil usuli yordamida ingliz va o'zbek tillaridagi o'quv izohli lug'atlar tarkibi va taqdimot usullari solishtirildi. Bu taqqoslash o'quvchilarning lug'atlarni qabul qilish va yangi leksik birliklarni o'zlashtirish jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan omillarni aniqlashga imkon berdi. Shu tariqa, ikki til o'rtasidagi lug'at tuzilishidagi o'xshashlik va farqlar aniqlandi.

To'rtinchidan, tadqiqot davomida nazariy yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini ko'rib chiqish uchun pedagogik metodlar ham o'rganildi.

Mazkur tadqiqotda o'zbek va ingliz tili ta'limida o'quv izohli lug'atlar hamda assotsiativ yondashuvning nazariy va amaliy asoslarini o'rganishga qaratilgan ilmiy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning metodologik asoslari sifatli (sifat jihatidan) tadqiqot paradigmasiga tayanib, tavsifiy (deskriptiv) va qiyosiy (komparativ) metodlar bilan uyg'unlashtirildi. Bu metodologik yondashuv til ta'limida leksik kompetensiyani shakllantirishda lug'at vositalari va assotsiativ o'rganish strategiyalarining o'rnini kompleks tarzda yoritishga xizmat qiladi. Tadqiqot bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Dastlab, mavzu bo'yicha mavjud ilmiy manbalar, ya'ni ingliz va o'zbek tillarida tuzilgan o'quv lug'atlar, psixolingvistik tadqiqotlar, til o'rganish nazariyalari va ta'limiy texnologiyalar tahlil qilindi. Bu bosqichda asosiy e'tibor lug'atshunoslik, psixolingvistika, semasiologiya hamda zamonaviy pedagogika fanlari nuqtai nazaridan asosiy tushuncha va yondashuvlarni aniqlashga qaratildi. Keyingi bosqichda, ingliz va o'zbek tillarida chop etilgan o'quv izohli lug'atlarning tarkibiy tuzilmasi, semantik izohlarning darajasi, misollar bilan ishlash uslubi, hamda madaniy va kognitiv assotsiatsiyalarni ifodalash usullari kontent-tahlil (mazmuniy tahlil) metodi asosida o'rganildi. Bunda lug'atlardagi didaktik yondashuv, kontekstual izohlar va semantik bog'liqlik mezonlari asosida tahliliy taqqoslash amalga oshirildi.

Tadqiqot doirasida tajriba-sinov asosida kichik miqyosli kuzatuv ishlari ham olib borildi. Tajriba guruhida assotsiativ o'rganish usullari — ya'ni semantik xaritalar, konnotativ bog'lanishlar, tasvirli assotsiatsiyalar — o'quv lug'atlar bilan integratsiya qilinib, til o'rgatish jarayoniga tatbiq etildi. Dars kuzatuvlari, yozma topshiriqlar va oraliq testlar asosida bu yondashuvlarning samaradorligi, o'quvchilarning faol ishtiroki va leksik bilimni o'zlashtirish darajasi baholandi.

Ma'lumotlarni yig'ish jarayonida asosan ilmiy nashrlar, elektron kutubxonalar, ilmiy maqolalar manbalari asos qilib olindi. Tahlil qilingan adabiyotlarning dolzarbligi 2010–2025-yillar oralig'idagi manbalarni o'z ichiga oldi, bu esa tadqiqotning zamonaviyligini ta'minlaydi.

**Tadqiqot natijalari.** Tahlil natijasida ingliz va o'zbek tillaridagi izohli lug'atlar so'zlarning leksik, grammatik va pragmatik jihatlarini o'z ichiga olgan holda, ularni o'rganish jarayonini samarali qo'llab-quvvatlayotgani aniqlanadi. Shuningdek, assotsiativ tajriba til o'rganuvchilarda yangi ma'lumotlarni mavjud bilimlar bilan bog'lashni osonlashtirib, ularning til ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida ingliz va o'zbek tillarida o'quv izohli lug'atlar va assotsiativ tajribani nazariy jihatdan o'rganish natijasida bir qator muhim xulosalar va ilmiy yangiliklar aniqlandi.

Birinchidan, o'quv izohli lug'atlarning til o'rgatish jarayonida nafaqat so'zlarning asosiy ma'nolarini aniqlashda, balki ularning grammatik, fonetik va pragmatik kontekstlarini tushunishda ham muhim vosita ekanligi tasdiqlandi. Ingliz tilida tuzilgan izohli lug'atlar ko'proq kontekstual va funksional yondashuvga asoslangan bo'lsa, o'zbek tilidagi lug'atlarda esa an'anaviy leksik izohlar bilan bir qatorda, til pedagogikasining zamonaviy talablari asosida ko'p qatlamli tushuntirishlar mavjudligi kuzatildi.

Ikkinchidan, assotsiativ tajriba til o'rganishda kognitiv jarayonlarning samarali faollashuvini ta'minlovchi psixologik mexanizm sifatida tasdiqlandi. Yangi leksik birliklarni ilgari olingan bilimlar, tushunchalar va tajribalar bilan bog'lash orqali o'quvchilarning eslab qolish qobiliyati sezilarli darajada oshadi. Bu esa o'z navbatida til ta'limining samaradorligini yuqori darajaga olib chiqadi. Tadqiqotda ko'rsatildiki, lug'atlarning izohli qismi va assotsiativ usullarni uyg'un qo'llash, o'rganuvchilarga murakkab leksik birliklarni osonroq va tezroq o'zlashtirish imkonini beradi.

Uchinchidan, ingliz va o'zbek tillaridagi o'quv izohli lug'atlar va assotsiativ tajribaning pedagogik qo'llanilishi sohasida integratsiyalashgan yondashuvning dolzarbligi aniqlanib, bu ikki vositaning birgalikdagi ta'lim jarayonida qo'llanilishi til o'rganuvchilarning nutqiy va yozma ko'nikmalarini yanada mustahkamlashga xizmat qilishi ma'lum bo'ldi. Bunda lug'atning izohli mazmuni va assotsiativ bog'lanishlarni rivojlantirish vositalari sifatida ishlatilishi o'rganuvchilarni faollashtirib, mustaqil o'rganishga undaydi.

Yuqoridagi natijalar asosida, o'quv izohli lug'atlar va assotsiativ tajribaning nazariy asoslarini chuqur o'rganish til ta'limining samaradorligini oshirishga, yangi pedagogik yondashuvlarni shakllantirishga va til o'rgatuvchi hamda o'rganuvchilar uchun amaliy qo'llanmalar yaratishga imkon beradi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, til o'rganish jarayonida bu ikki vositaning uyg'un qo'llanilishi nafaqat til ko'nikmalarini yaxshilash, balki o'quvchilarni tilga nisbatan ijobiy motivatsiyalash va mustaqil o'rganishga undashda ham samarali.

**Muhokama.** O'quv izohli lug'atlar va assotsiativ tajriba integratsiyasi til o'rgatishda samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Ingliz va o'zbek tillarida lug'atlarning mazmunan boyligi va pedagogik jihatdan moslashuvchanligi til o'rganuvchilarning lingvistik kompetensiyasini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Assotsiativ metodlarning qo'llanilishi esa til o'rganuvchilar uchun yangi so'zlarni tez va samarali o'zlashtirishga imkon beradi. Shu bilan birga, kelajakda ushbu yondashuvlarning amaliy aspektlarini chuqurroq tadqiq etish va yangi pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish zarur. Tadqiqot natijalari

shuni ko'rsatadiki, o'quv izohli lug'atlar va assotsiativ yondashuv til ta'limida sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi ikki asosiy vosita sifatida ajralib turadi. Mazkur metodologik yondashuvlar ayniqsa ikkinchi til o'rgatuvchi muhitda so'z boyligini shakllantirish, semantik tafakkurni rivojlantirish va til o'zlashtirish jarayonini ongli tarzda boshqarishda samarali vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Eng avvalo, o'quv izohli lug'atlar tahlili shuni ko'rsatdiki, bunday lug'atlar o'quvchilarga so'zning nafaqat lug'aviy ma'nosini, balki uning kontekstual ishlatilishini, grammatik xususiyatlarini, madaniy va emotsional soyalarini ham anglash imkonini beradi. Ayniqsa, ingliz tilida tuzilgan zamonaviy lug'atlar foydalanuvchi markazida yaratilgan bo'lib, har bir so'zga oid misollar, kollokatsiyalar, fonetik yozuv va piktogrammalar orqali o'quvchining eslab qolish jarayonini qulaylashtiradi. O'zbek tilidagi o'quv lug'atlar ham bu yo'nalishda rivojlanib bormoqda va keyingi bosqichda raqamli formatlarga o'tish orqali yangi bosqichga ko'tarilishi mumkin. Shu bilan birga, assotsiativ o'rganish strategiyalari — xususan, semantik xaritalar, konnotativ bog'lanishlar, vizual eslatmalar va shaxsiy tajribalarga asoslangan so'z bog'liqliklari — o'quvchilarning so'zlar o'rtasidagi munosabatni mustaqil tarzda anglashiga yordam beradi. Tajriba-sinov asosida olib borilgan kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, assotsiatsiyalar asosida o'rgatilgan so'zlar o'quvchilar xotirasida uzoqroq saqlanadi, ular nutqda faolroq qo'llaniladi va o'zlashtirilgan leksik birliklar orqali yangi ma'lumotlarni tezroq bog'lash imkoniyati yaratiladi. Bu esa assotsiativ yondashuvni nafaqat yordamchi, balki asosiy o'quv strategiyasi sifatida qo'llash zarurligini ko'rsatadi. Tadqiqotda ishtirok etgan o'qituvchilarning fikricha, o'quv lug'atlari va assotsiativ metodlar o'zaro uyg'unlashganda, o'quvchilar tilni o'rganishga ko'proq qiziqish bilan yondashadi, yangi so'zlarni o'zlashtirishda mustaqil fikrlashga intiladi va dars jarayoni jonli, interaktiv tus oladi. Ayniqsa, interaktiv lug'atlar, vizual materiallar va audio-tasviriy assotsiatsiyalar orqali boyitilgan metodlar o'quvchining turli kognitiv uslublariga moslashadi, bu esa ta'limning individuallashtirilishini ta'minlaydi.

Muhokama natijalariga tayangan holda, assotsiativ tajriba va o'quv lug'atlar o'rtasidagi integratsiya o'quv jarayonida yuqori darajadagi samaradorlikni ta'minlay olishi, o'quvchilarning mustaqil til o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlandi. Bu esa zamonaviy til ta'limining asosiy tamoyillaridan biri — shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirishda muhim vosita sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, o'quv izohli lug'atlar va assotsiativ metodlarning uyg'unlashtirilgan holda qo'llanilishi til o'rganishni yanada samarali, qiziqarli va kognitiv jihatdan mazmunli jarayonga aylantiradi.

**Xulosa.** Ushbu tadqiqot ingliz va o'zbek tillarida o'quv izohli lug'atlar hamda assotsiativ tajribaning nazariy asoslarini chuqur tahlil qilib, ularning til o'rganish jarayonidagi samaradorligini aniqlashga qaratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quv izohli lug'atlar nafaqat lug'at boyligini oshirishda, balki grammatik va pragmatik jihatlarni tushunishda ham muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, assotsiativ tajriba til o'rganuvchilar uchun yangi ma'lumotlarni yanada tezroq va samaraliroq o'zlashtirish imkonini beruvchi psixologik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ingliz va o'zbek tillaridagi o'quv izohli lug'atlar mazmunan va strukturalar nuqtai nazaridan farqlarga ega bo'lsa-da, har ikkisi ham til ta'limining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ingliz tilidagi lug'atlar ko'proq kontekstual va kommunikativ yondashuvga asoslangan bo'lsa, o'zbek lug'atlarida an'anaviy izoh usullari bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik talablar ham inobatga olinganligi kuzatiladi.

Assotsiativ tajribaning pedagogik ahamiyati shundaki, u yangi so'zlarni o'rganish jarayonida ilgari olingan bilim va tushunchalar bilan samarali bog'lanishni ta'minlaydi, bu esa o'rganuvchilarning eslab qolish qobiliyatini oshiradi va tilga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'quv izohli lug'atlar va assotsiativ metodlarni uyg'unlashtirish til o'rganuvchilarni faollashtirish, mustaqil o'rganishga rag'batlantirish va til ko'nikmalarini chuqurlashtirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Mazkur tadqiqot ishning ilmiy yangiligi shundaki, u ingliz va o'zbek tillaridagi o'quv izohli lug'atlar va assotsiativ tajribani kompleks tarzda o'rganib, ularning pedagogik integratsiyasiga yangi yondashuvlarni taklif qiladi. Bu yondashuv til ta'limining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o'zbek tillarida o'quv izohli lug'atlar va assotsiativ tajribaning birgalikda qo'llanilishi til ta'limida innovatsion pedagogik yondashuvlarni rivojlantirishga, o'rganuvchilarning til ko'nikmalarini sifat jihatdan yaxshilashga xizmat qiladigan samarali vosita hisoblanadi.

### ADABIYOTLAR:

1. Akbarov, N. (2018). *Til o'rganishda lug'atlarning ro'li*. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
2. Brown, H. D. (2007). *Principles of Language Learning and Teaching* (5th ed.). Pearson Education.



## LINGUISTICS

---

3. Karimova, D. (2020). *Assotsiativ metodlarning til ta'limidagi ahamiyati. Tilshunoslik jurnali*, 15(2), 45-53.
4. Lado, R. (1957). *Linguistics Across Cultures: Applied Linguistics for Language Teachers*. University of Michigan Press.
5. Pavlenko, A. (2014). *The Bilingual Mind and What It Tells Us About Language and Thought*. Cambridge University Press.
6. Richards, J. C., & Schmidt, R. (2010). *Longman Dictionary of Language Teaching and Applied Linguistics* (4th ed.). Routledge.
7. Skinner, B. F. (1957). *Verbal Behavior*. Appleton-Century-Crofts.
8. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
9. Zafarova, M. (2019). *Ingliz tilini o'rgatishda izohli lug'atlardan foydalanish. // Pedagogika va psixologiya*, 3(4), 123-130.

**FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING S.SHELDONNING “IF TOMORROW COMES” ASARI MISOLIDA LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI VA TARJIMADAGI MUAMMOLAR**

**Azimov Abdixamidullo Kholmonovich,**

Qarshi davlat universiteti dotsenti,

Fakultetlararo ingliz tili kafedrası mudiri, mustaqil tadqiqotchi

azimovhamid082@gmail.com

**Annotatsiya.** Maqolada amerikalik taniqli yozuvchi Sidni Sheldon qalamiga mansub “If tomorrow comes” asarida qo‘llangan idiomalarning o‘zbek va rus tillariga qilingan tarjimalari lingvokulturologik jihatdan tahlil qilingan. Xususan, aslyatdagi frazeologik birliklarning tarjimalardagi muqobillari har bir xalqning madaniyati va adabiyotiga tegishli bo‘lgan misollar bilan asoslangan holda atroflicha o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** aslyat, tarjima, ibora, lug‘at, mazmun, muqobil variant, o‘xshashlik, metafora, metaforik, tarixiy, diniy, adabiy, mif.

**ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ И ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗА С. ШЕЛДОНА «ЕСЛИ НАСТУПИТ ЗАВТРА»**

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются особенности перевода идиоматических выражений, встречающихся в романе Сидни Шелдона «Если наступит завтра», на узбекский и русский языки с точки зрения лингвокультурологии. Особое внимание уделено тому, как смысл фразеологизмов, наполненный историко-культурным и литературным контекстом, передаётся средствами целевых языков, учитывая менталитет и традиции соответствующих народов.

**Ключевые слова:** оригинал, перевод, выражение, словарь, значение, эквивалент, сходство, метафора, метафоричность, исторический, религиозный, литературный, миф.

**LINGUISTIC ANALYSIS AND TRANSLATION PROBLEMS OF PHRASEOLOGICAL UNITS ON THE EXAMPLE OF S. SHELDON'S «IF TOMORROW COMES»**

**Abstract.** This article examines the peculiarities of translating idiomatic expressions found in Sidney Sheldon's novel «If Tomorrow Comes» into Uzbek and Russian from a linguocultural perspective. Special attention is given to how the meaning of phraseological units, imbued with historical, cultural, and literary context, is conveyed in the target languages, taking into account the mentality and traditions of the respective peoples.

**Keywords:** original, translation, expression, vocabulary, meaning, equivalent variant, similarity, metaphor, metaphorical, historical, religious, literary, mythological.

**Kirish.** Har qanday tildagi frazeologiya ayni o‘sha xalqning madaniyati, tarixi, milliy mentaliteti va turmush tarzini aks ettirishi qadimdan ma‘lum. Shu sababli, frazeologik birliklar o‘z tabiatiga ko‘ra hayotning barcha sohalariga oid bilim tuzilmalarini ifodalash uchun xizmat qiladi. Tilning frazeologik fondi xalq madaniyati va mentalitetining qimmatli ma‘lumotlar manbai hisoblanadi. Frazeologizmlarda ma‘lum bir xalqning tarixi, afsona va rivoyatlari, udumlari, urf-odatları, madaniyati haqidagi tasavvurlar aks etadi. Atoqli rus tilshunoshi A. I. Fedorova frazeologizmlar haqida shunday fikr bildiradi, “Olamning lisniy manzarasini yaratishda frazeologizmlar alohida rol o‘ynaydi. Ular “xalqning ko‘zgusi” dir. Frazeologik birliklarning tabiati til egasining bilimlari, hayotiy tajribasi va mazkur tilda so‘zlashuvchi xalqning madaniy tarixiy an‘analari bilan chambarchas bog‘liqdir. Frazeologik birliklarning semantikasi inson va uning faoliyatini tavsiflashga qaratiladi” (7. 13).

**Mavzuga doir adabiyotlar tahlili.** Shu nuqtayi nazardan frazeologik birliklarni diniy, mifologik, badiiy va tarixiy bilim tuzilmalarini aks ettiruvchi aniq guruhlariga ajratish mumkin.

**Diniy bilimlarga asoslangan:** *a forbidden fruit* (taqiqlangan meva) Bunday frazeologik birliklar diniy bilimlar va diniy kitoblardagi voqealar bilan bog‘liq bilimlarga asoslanadi. Masalan, *a forbidden fruit* iborasi o‘quvchi ongida Xudo tomonidan qat‘iyan taqiqlangan Edem bog‘idagi daraxt mevasini yeb qo‘ygan Odam Ato va Momo Havo haqidagi hikoyani esga soladi (8. 34).

**Mifologik bilimlarga asoslangan:** *Achilles’ heel* (Axilles tovonı) *Achilles’ heel* frazeologik birligi qadimgi yunon qahramoni Axilles haqida mifologik rivoyatga asoslangan. Rivoyatga ko‘ra, Axilles xudo

bo'lgan onasi tomonidan osmon daryosining muqaddas suvida cho'miltirilgan va natijada tanasi zarbga chidamli bo'lgan, faqat onasi ushlab turgan tovonni zaifligicha qolgan. Urush paytida aynan shu tovonga tekizilgan o'q uni halok qilgan. Hozirda bu ibora "kichik bo'lib ko'ringan, ammo hal qiluvchi zaif nuqta; ayniqsa, inson xarakteridagi zaiflik" ma'nosida qo'llaniladi (8. 34.).

*Adabiyotga oid bilimlarga asoslangan: the last of the Mohicans (so'nggi mogikan)* Adabiyotga oid bo'lgan frazeologik birliklarni tushunish uchun badiiy adabiyotdan yetarli xabardorlik talab etiladi. Masalan, *the last of the Mohicans* iborasi J.F. Kuperning shu nomli mashhur asaridan olingan bo'lib, "biror jamiyat, millat yoki guruhning so'nggi vakili" degan ma'noni anglatadi (8. 34.).

*Tarixiy bilimlarga asoslangan: cross the Rubicon*

*cross/pass the Rubicon* (Rubikondan o'tmoq) iborasi Yuliy Tsezar nomi bilan bog'liq bo'lib, u Rubikon daryosini kesib o'tib, Rim senatiga qarshi urush boshlagan. Bugungi kunda bu iboralar "orqaga qaytib bo'lmaydigan qaror qabul qilish yoki harakat qilish" ma'nolarida ishlatiladi (8. 34.).

O'zbek tilshunosi Sh. Usmonova frazeologizmlar haqida, "Frazeologizmlar vositasida yaratilgan olamning lisoniy manzarasi tahlilida uning antroposentrik manzarasi frazeologizmlar yo'nalishining insonga qaratilganligi bilan ifodalanadi. Olamning lisoniy manzarasi turfa ranglar, xususan, mifologemalar, obrazli metaforik so'zlar, o'xshatishlar, konnotativ so'zlar, stereotiplar, ramzlar va hkz. vositasida yaratiladi. Har qanday til o'zida mazkur til egasining dunyoqarashini belgilaydigan va olam manzarasini shakllantiradigan milliy, o'ziga xos xususiyatlar tizimini mujassamlashtiradi", deb fikr bildiradi (9. 80-100).

**Tadqiqot metodologiyasi.** Yuqoridagilardan kelib chiqib misol keltiramiz.

Rus xalqida **свинья (cho'chqa)** so'zi tarbiyasiz va befarosat kishilarga ishora qilish, ularni haqoratlash uchun ishlatiladi.

**Свинья** - перен. О том, кто поступает низко, подло, а также (грубо) о грязном человеке, неряхе (разг.).

*Ну и свинья же ты!* (11. 1764)

Inglizlarda **pig (cho'chqa)** so'zi gapga tushunmaydigan, ongsiz kishilarga va yebto'ymas, ochofat kishilarga ishora qilish uchun ishlatiladi.

**pig** (unpleasant person) a person who is unpleasant and difficult to deal with:

*He was an absolute pig to her.*

*He's a real pig of a man.* (Cambridge University Press 2013)

**pig** (eats too much) a person who eats too much:

*You greedy pig! You're not having another chocolate biscuit!* (Cambridge University Press 2013)

Musulmon xalqlarida, shu jumladan, o'zbek xalqida **cho'chqa** so'zi diniy nuqtayi-nazardan o'ta haqoratni ifodalaydi. Shu bilan birga, **cho'chqa** so'ziga O'zbek tilining izohli lug'ati da shunday ta'rif beriladi.

**cho'chqa** (so'kinish) Ablah, hayvon. Mana, Ismat degan yangi direktor keldi. Shu tuzukmi deb o'ylovdik. G'irt **cho'chqa** ekan. (Yoshlik) (10. 85)

Shuningdek, ingliz va o'zbek lingvokulturologiyasida "sodir bo'lishiga ko'zimiz yetmaydigan, ro'yobga chiqishi juda qiyin bo'lgan" ish-harakat haqida gapirganimizda, amalga oshishi qiyin bo'lgan vaziyat har bir xalq madaniyatida asosiy o'rin tutgan hayvonlar nomi bilan bog'lanadi:

**Pigs might fly** (said when you think that there is no chance at all of something happening)

*"I'll have finished it by tomorrow." "And pigs might fly!"* (Cambridge University Press 2013)

**Tuyaning dumi yerga yetganda** - hech qachon. *Hasan so'fi tog'ning ikki tomonini sinchiklab qaradida, kallasini chayqab: «Suv chiqadi-yu, lekigin boyga yarasha chiqadi. Bu suvdan bizga tuyaning dumi yerga yetganda tegadi», - dedi. M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha.* (5. 514)

Endi, tadqiqotimizning obyekti bo'lgan amerikalik atoqli yozuvchi S. Sheldonning "If comes tomorrow" (orziqib kutaman ertani) asaridan keltirilgan idiomalarni lingvokulturologik jihatdan tahlil qilamiz. Quydagi matnlarda keltirilgan "oil and water", "нефть и вода", "yo'g bilan suvdek" iboralarini lingvokulturologik jihatdan tahlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur iboralar nafaqat til jihatdan, balki madaniyat va ijtimoiy tabaqalanish bilan ham bog'liq bo'lib, ular har bir madaniyatda turlicha aks etishi mumkin.

**(Eng)** *The Stanhopes and the Whitneys would never mix, Tracy thought. Oil and water. And the Stanhopes are the oil.* (1.7)

**(Rus)** *«Стенхоупы и Уитни никогда не породнятся, – размышляла Трейси. – Нефть и вода. И нефть – это именно Стенхоупы.*

**(Uzb)** *«Стэнхоуплар билан Уитнейлар ҳеч қачон бирлаша олмайдилар, - дея ўйлади Трейси, - худди ёғ билан сувдек. Стэнхоуплар олий табақа.* (3.10)

**Olingan natijalar tahlili.** Shu o'rinda keltirib o'tishimiz kerakki, ingliz tilining *Easy Learning Idioms Dictionary* lug'atida "Oil and water" idiomasi quyidagicha ta'rif beriladi: "*two people who are like oil and water are very different from each other*", ya'ni "*bir-biridan butunlay farq qiladigan, fikrlari bir-biriga mos kelmaydigan, bir-biriga nomunosib kishilar*" degan ma'noni bildiradi va ayni ma'noni isbotlash uchun quyidagi misolni keltirib o'tadi:

*He and the general did not get along. The two were like oil and water together. (U general bilan chiqishmas edi. Ular xuddi yog' bilan suvga o'xshar edilar.)*

"Oil and water" iborasi ingliz tilining frazeologik lug'atlarida "oil and vinegar" (4. 551) ko'rinishida ham uchraydi va bu rus tilidagi "лёд и пламень", o'zbek tilida "suv va olov" yoki "muz va alanga" iboralariga mos keladi va "umuman mos kelmaydigan, qarama-qarshi" degan ma'nolarni anglatadi.

*Men get such different habits that they become as oil and vinegar to one another.*

*У людей такие разные склонности и привычки, что совершенно непонятно, как они могут совмещаться. (4. 551)*

**"Лёд и пламень - Полные противоположности"**

*Кошель и Лузин считались полными антиподами: лёд и пламень! Пётр Тимофеевич — постарше, спокойный, выдержанный, неторопливый. Пётр Петрович — наоборот — взрывной, нетерпеливый (А. Слущкий. Директор из Светлого). (4. 551)*

Keling, yuqorida keltirilgan har bir iborani alohida tahlil qilamiz.

**(Eng) Oil and water:**

Madaniy kontekstda, "oil and water" iborasi o'zaro mos kelmaslik, ijtimoiy notenglik, o'zaro chiqisha olmaslik ma'nolarini anglatadi va bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki guruhni, odamni, yoki holatni tasvirlash uchun ishlatiladi.

Lingvistik jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, bu ibora "oil" and "water" so'zlari o'zaro aralashmaslik haqidagi tasavvur hosil qilimizga turtki beradi. Kundalik hayotda ham "oil" va "water" so'zlari o'rtasidagi farq, ularning kimyoviy xususiyatlari haqidagi bilimimizga asoslangan holda ham xulosa chiqarishimiz mumkinki, bu ibora butun madaniyatda keng qo'llaniladi va "oil" so'zi boylikni va ijtimoiy jihatdan ustun, yuqori tabaqani anglatadi. Ingliz tilidagi "*oil and water will never mix*" maqoli ham so'zmizga isbot bo'la oladi.

Qo'shimcha ma'lumot uchun keltiradigan bo'lsak, "oil" so'zi ingliz tilida "mo'may pul", "pora" ma'nosida ham boylik, katta pul ramzini ifodalab keladi.

**(eng) oil of palms (palm oil); (rus) взятка; (uzb) pora;**

*I dare say you may manage to soften the justice's sentence by a little oil of palms (E. Bulwer-Lytton, 'Paul Clifford', ch. VIII)*

*Осмелюсь заметить, что вы можете смягчить приговор, если "подмажете" судей. (4. 551)*

**(eng) Oil somebody's fist (hand); (rus) дать кому-л. взятку, "подмазать" кого-л.; (uzb) pora bermoq, og'zini moylamoq;**

*I ought to be able to get a deed recorded without anyone knowing' it if I oil Charlie's hand a little. (Sh. Anderson, 'Poor White', ch. X)*

*Я смогу оформить дело так, что комар носа, не подточит. Нужно только задобрить Чарли. (4. 551)*

**(Rus) Нефть и вода:**

Madaniy kontekstda, rus tilidagi "нефть и вода" iborasi ham ingliz tilidagi "oil and water" iborasi kabi o'zaro bir-biriga mos kelmaslik ma'nosini anglatadi. Rus madaniyatida ham "нефть" boylik va qudrat ramzi sifatida qabul qilinadi, suv esa oddiy, hamma foydalanishga mo'ljallangan tabiiy narsa sifatida tasvirlanadi (Lingvolive online dictionary). Shu bilan birga, "нефть и вода" iborasiga "Свинья с гусем не подружиться" maqoli bilan bir xil ma'noni anglatadi.

Lingvistik jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, rus tilida "нефть" so'zi boylik, ijtimoiy jihatdan yuqori tabaga, yuqori mavqe ma'nolari bilan bog'liq bo'lib, kishilar, narsalar va ijtimoiy tabaqalar o'rtasidagi keskin farqlarni ifodalaydi. "Вода" so'zi esa, keng tarqalgan, qo'lga kiritish oson bo'lgan, oddiy bir narsani ifodalaydi, bu esa har ikkala burning bir-biri bilan mos kelmasligini ifodalaydi.

**(Uzb) Yog' bilan suvdek:**

O'zbek tilidagi "yog' bilan suvdek" iborasi ham ingliz tilidagi va rus tilidagi muqobillari bilan o'xshash ma'noda ishlatiladi. O'zbek tilida ham bu ibora ikki kishining fikrlari bir-biriga mos kelmasligini, ikkita narsa bir-biriga mutlaqo to'g'ri kelmasligini, bir joyda birga yashay olmaydigan kishilarni anglatadi. Shu bilan birga "yog'" so'zi o'zbek tilida ham ijtimoiy guruhlar, oilalar o'rtasidagi tafovutni bildiradi, ya'ni "yog'" so'zi boylikni, "suv" so'zi esa oddiylikni ifodalaydi. O'zbek tilida "yog'" so'zining sinonimi sifatida



“moy” soʻzi ham ishlatiladi, va “moy” soʻzi ishlatilgan “pichogʻi moy ustida boʻlmoq” yoki “ogʻzi burni moy boʻlmoq” iboralarida ham “moy” yoki “yogʻ” soʻzi boylikni ifodalaydi (5. 132).

Tahlillardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, yuqorida keltirilgan iboralar har bir tilda madaniy va ijtimoiy notenglikni, bir-biriga mos kelmaslikni ifodalaydi. Har bir ibora oʻsha xalqning tili va madaniyatidan kelib chiqib, vaziyatning oʻziga xos tasvirini beradi.

**Muhokama.** Yana bir misolni tahlilga tortamiz.

*“In front of him stood the district attorney, Ed Topper, a slight man in his forties, with crinkly **salt-and-pepper** hair cut en brosse, and cold, black eyes.”* (1.32)

*“Перед ним стоял окружной прокурор Эд Топпер – худощавый мужчина лет сорока, с вьющимися короткими волосами с сильной **проседью** и холодными темными глазами.”* (2.25)

*“Қаршисида **мош-гуруч** сочлари хурпайган, қора кўзлари совуқ, ёши қирққа борган, нимжон, наст бўйли, округ прокурори Эд Топпер турарди.”* (3.40)

Quyida “salt-and-pepper hair”, “волосами с сильной проседью”, va “мош-гуруч сочлар” iboralarini lingvokulturologik jihatdan tahlil qilamiz. Bu iboralar song rangining qorayib oqargan holatini tasvirlash uchun ishlatiladi. Biroq ularning ifodalanish shakli va madaniy asoslari turlicha. Masalan, ingliz va oʻzbek tillarida berilgan misollarda sochning qorayib oqarishi metaforik oʻxshatish jihatdan tasvirlaydi, yaʼni ingliz tilidagi salt-and-pepper iborasida qora sochlarni pepper (murch) ga, sochlardagi oq tolalarni esa salt (tuz) ga oʻxshatadi. Oʻzbek tilidagi mosh-guruch iborasida esa qora va oq sochlarni mosh va guruchni bir-biriga aralashtirilganda hosil boʻladigan rangga oʻxshatiladi. Rus tilida esa oq oralagan sochlar metaforik oʻxshatish jihatdan tasvirlanmaydi, balki с проседью iborasi bilan toʻgʻridan- toʻgʻri visual holatni tasvirlab oʻtiladi.

1. Salt-and-pepper iborasi boshqa manbalarda pepper-and-salt koʻrinishida ham berilishi mumkin. Masalan, pepper and salt - с проседью (о волосах)

*His hair was now steel grey, not **pepper and salt**. (C. P. Snow, ‘Last Things’) Волосы Волтера, еще недавно только тронутые сединой, теперь были совсем белые.* (4. 573)

**pepper-and-salt** describes hair that is a mixture of dark hairs and grey or white hairs (qora sochlar va oq sochlarning aralshuvini tasvirlaydi) (6. 2013)

Salt-and-pepper iborasini lingvokulturologik jihatdan tahlil qiladigan boʻlsak, salt-and-pepper iborasi metaforik ibora hisoblanadi, salt (tuz) va pepper (qalampir, murch) kundalik hayot asosiy oʻrin tutadigan ikkita ziravor va aynan shu ziravorlarning rangi orqali soch rangi tabiiy jihatdan oʻxshatib beriladi.

2. С проседью iborasini lingvokulturologik jihatdan tahlil qiladigan boʻlsak, bu ibora rus tilida metaforik oʻxshatish usulida emas, deskriptiv (taʼriflovchi) usulda berilgan, koʻrinib turgan holatda hech bir nuyumga oʻxshatmasdan, toʻgʻridan toʻgʻri tasvirlagan.

3. **Mosh-guruch** iborasi oʻzbek tilida oq va qora ranglarning aralashgan holatini ifodalaydi va bu ibora xalqona ibora boʻlib kishining sochiga oralagan oq tolalarni ifodalaydi.

Yana bir misolning tahliliga eʼtiboringizni qaratamiz.

*“On the other hand, if I dress in one of my sale things from Post Horn, they'll think their son is marrying **beneath** him.”* (1.11)

*“С другой стороны, если ее увидят в какойнибудь вещи с распродажи на Пост-Хорн, решат, что невеста **не по сыну**.”* (2.12)

*“Лекин чайқовдан сотиб олган кўйлақларимдан бирини кийиб борсам, улар ўғиллари **ўз тенгини топпабди** деб ўйлашади.”* (3.14)

Yuqorida keltirilgan misollardagi soʻz birikmalarini lingvokulturologik jihatdan tahlil qilishda, har bir til va madaniyatda oʻzaro ajralish va ijtimoiy tabaqalar oʻrtasidagi farqni tasvirlashda ishlatilgan iboralarni koʻrib chiqamiz.

**(Eng) “Beneath him”**

Aslida, ingliz tilidagi **beneath** predlogi denotativ maʼnoda **pastda, quyida, ostida** degan maʼnolarni anglatadi. **Beneath - in or to a lower position than someone or something, under someone or something:**

*Jeremy hid the letter **beneath** a pile of papers.*

*We huddled together for warmth **beneath** the blankets.*

*After weeks at sea, it was wonderful to feel firm ground **beneath** our feet once more.* (6. 2013)

Konnotativ maʼnoda esa, **beneath** predlogi **be beneath somebody** iborasida beriladi **oʻziga mos kelmaydigan, tengi boʻlmagan, oʻzidan past boʻlgan** degan maʼnolarni ifodalaydi. **Be beneath somebody - to not be good enough for someone:**

*Office work of any description he felt **was beneath him**.*

Keltirilgan misolda, **“beneath him”** iborasi, ijtimoiy pozitsiyadagi pastlikni ifodalaydi, yaʼni nikoh yoki turmushda ikki tarafning ijtimoiy darajasi oʻrtasidagi farqni anglatadi.

"Beneath" so'zi misolda metaforik jihatdan ishlatilgan bo'lib, odatda **o'ziga nisbatan kamroq statusga ega** yoki **past mavqega ega bo'lgan** biror narsa yoki shaxsni tasvirlash uchun ishlatiladi.

**(Rus) "Не по сыну"**

Rus tiliga tarjima qilingan variantdagi misoldagi **"не по сыну"** iborasi ham o'xshash ijtimoiy tafovutni anglatadi. Bu ibora, asosan, biror narsa yoki odamning kishi yoki oilaning ijtimoiy mavqeyiga mos kelmasligini ta'kidlaydi. **"Не по сыну"** (ya'ni **"o'g'ilga mos emas"**) iborasi, er-xotin o'rtasidagi turli darajalar, ijtimoiy mavqe yoki statusni ta'kidlaydi. Bu ifoda, ayniqsa, boylik yoki ma'naviy darajalar o'rtasidagi tafovutni ko'rsatadi.

**(Uzb) "Ўз тенгини топмабди"**

O'zbek tiliga tarjima qilingan variantdagi misoldagi **"Ўз тенгини топмабди"** iborasi, ijtimoiy pozitsiyadagi farqni ko'rsatish uchun ishlatilgan. Bu ibora, o'zaro ijtimoiy darajalardagi farqni, bir-biriga mos kelmaslikni ifodalashda ishlatiladi.

O'zbek tilidagi **"Ўз тенгини топмабди"** iborasi, ruscha **"не по сыну"** va inglizcha **"beneath"** iboralari bilan taqqoslanadi. Bu yerda, turmush o'rtog'ining ijtimoiy darajasi yoki mavqeyi, o'zaro tenglikka asoslanadi va yuqori sinfnin past sinf bilan birlashmasligini bildiradi.

*Nima qilaylik, qorachamiz, xo'jalar ning tengi emasmiz. Bilib turib baland dorga osildik, ayb o'zimizda.* M. Ismoilov. *Farg'ona tong otguncha* (5. 58).

**Xulosa.** Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, keltirilgan har uchala misoldagi **"beneath him"**, **"не по сыну"** va **"Ўз тенгини топмабди"** kabi iboralar, oilalar o'rtasidagi ijtimoiy va iqtisodiy tafovutlarni kuchli tarzda aks ettiradi va bu madaniyatlarda mavjud bo'lgan sinfiy ajralishlarni ta'kidlaydi.

### ADABIYOTLAR:

1. Sydney Sheldon. *If tomorrow comes. United States, Warner Books, 1985. 441 pages.*
2. Сидни Шелдон. *Если наступит завтра. Москва, "АСТ" 1985. 248 стр.*
3. Sidni Sheldon. *Orziqib kutaman ertani. Toshkent, "Yangi Asr Avlodi", 2018. 376 bet.*
4. Кунин А. В. *Большой англо-русский фразеологический словарь. Москва. - «Русский язык» 1984. 945 стр.*
5. Shavkat Rahmatullayev va boshqalar *"O'zbek tili frazeologik lug'ati"* Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. 636 bet.
6. Cambridge Advanced Learner's Dictionary - 4th Edition. Cambridge University Press 2013.
7. Федорова А. И. *Фразеологический словарь русского литературного языка. М. 1996. 878 стр.*
8. Ashurova D. U., Galiyeva M. R. *Cognitive linguistics. T. 2018. 107 bet.*
9. Usmonova Sh. *Lingvokulturologiya. T. 2019. 248 bet.*
10. O'TIL. *Ch harfi. 87 bet.*
11. Ожегов С. И., Шведова Н. Ю. *Толковый словарь русского языка. М. 2018. 2314 стр.*

**THE INFLUENCE OF SELF-HELP LITERATURE ON MODERN SOCIETY: AN INTERCULTURAL STUDY OF WESTERN MOTIVATION AND UZBEK ETHICAL PHILOSOPHY**

**Berdiyeva Nasiba Rustamovna,**  
Bukhara State Pedagogical Institute,  
Teacher of the Department of English Language and Literature

**Abstract.** In recent decades, self-help literature has emerged as a powerful force shaping individual behavior and societal values. While Western figures like Dale Carnegie and Napoleon Hill emphasize personal autonomy and success-driven strategies, similar concepts are deeply rooted in the ethical and philosophical traditions of Uzbekistan, particularly in the works of Al-Farabi and Alisher Navoiy. This paper explores the intersection of Western motivational theory and Uzbek moral philosophy through a qualitative comparative analysis. By examining shared themes such as self-discipline, inner harmony, and community well-being, the study reveals how globalization has fostered a hybrid personal development model among Uzbek youth—one that blends ambition with ethical responsibility. Case studies and historical parallels further contextualize this synthesis, illustrating the relevance of intercultural perspectives in understanding modern self-help ideologies.

**Keywords:** self-help literature, intercultural comparison, Dale Carnegie, Napoleon Hill, Al-Farabi, Alisher Navoiy, motivational philosophy, Uzbek ethics, personal development, Komil Inson, Western motivation, moral philosophy, globalization, youth identity, leadership education.

**O‘Z-O‘ZINI RIVOJLANTIRISH ADABIYOTINING ZAMONAVIY JAMIYATGA TA’SIRI: G‘ARB MOTIVATSIYASI VA O‘ZBEK AXLOQIY-FALSAFIY QARASHLARINING MADANIYATLARARO TAHLILI**

**Annotatsiya.** So‘nggi o‘n yilliklarda o‘z-o‘zini rivojlantirish adabiyoti shaxsiy xulq-atvor va jamiyat qadriyatlarini shakllantiruvchi kuchli omilga aylangan. G‘arb olamida Dale Carnegie va Napoleon Hill kabi mualliflar shaxsiy avtonomiya va muvaffaqiyatga yo‘naltirilgan strategiyalarni ta’kidlasalar-da, o‘xshash tushunchalar O‘zbekistonning axloqiy va falsafiy an‘analari, xususan, Al-Farabi va Alisher Navoiy asarlarida ham chuqur ildiz otgan. Ushbu maqolada G‘arb motivatsion nazariyasi va o‘zbek axloq falsafasining o‘zaro to‘qnashuvlari sifatida sifatli komparativ tahlil o‘tkaziladi. O‘z-o‘zini intizom, ichki uyg‘unlik va jamoat farovonligi kabi umumiy mavzularni tahlil qilish orqali tadqiqot globalizatsiya sharoitida o‘zbek yoshlarida ambitsiyani axloqiy mas’uliyat bilan uyg‘unlashtirgan gibrid shaxsiy rivojlanish modelini qanday yuzaga keltirganini ko‘rsatadi. Vaziyat tahlillari va tarixiy parallelar bu sintezni kontekstlashtirib, zamonaviy o‘z-o‘zini rivojlantirish g‘oyalarini madaniyatlararo nuqtayi nazardan tushunish muhimligini namoyish etadi.

**Kalit so‘zlar:** o‘z-o‘zini rivojlantirish adabiyoti, madaniyatlararo taqqoslash, Dale Carnegie, Napoleon Hill, Al-Farabi, Alisher Navoiy, motivatsion falsafa, o‘zbek etikasi, shaxsiy rivojlanish, komil inson, G‘arb motivatsiyasi, axloqiy falsafa, globalizatsiya.

**ВЛИЯНИЕ ЛИТЕРАТУРЫ ПО САМОРАЗВИТИЮ НА СОВРЕМЕННОЕ ОБЩЕСТВО: МЕЖКУЛЬТУРНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ЗАПАДНОЙ МОТИВАЦИИ И УЗБЕКСКОЙ ЭТИЧЕСКОЙ ФИЛОСОФИИ**

**Аннотация.** В последние десятилетия литература по саморазвитию стала мощным фактором, формирующим поведение личности и общественные ценности. В то время как западные авторы, такие как Дейл Карнеги и Наполеон Хилл, акцентируют внимание на личной автономии и стратегиях достижения успеха, аналогичные концепции глубоко укоренены в этико-философских традициях Узбекистана — особенно в трудах Аль-Фараби и Алишера Навои. Настоящее исследование представляет собой качественный сравнительный анализ, раскрывающий точку пересечения западной мотивационной теории и узбекской моральной философии. Рассматривая общие темы, такие как самодисциплина, внутренняя гармония и общественное благо, автор показывает, как глобализация способствовала формированию гибридной модели личностного развития среди узбекской молодёжи — модели, сочетающей стремление к успеху с этической

ответственностью. Кейс-стади и исторические параллели дополняют анализ, подчёркивая значимость межкультурного подхода в понимании современных идеологий саморазвития.

**Ключевые слова:** литература по саморазвитию, межкультурное сравнение, Дейл Карнеги, Наполеон Хилл, Аль-Фараби, Алишер Навоий, мотивационная философия, узбекская этика, личностное развитие, совершенный человек, западная мотивация, моральная философия, глобализация, идентичность молодёжи, лидерское образование.

**Introduction.** In recent decades, self-help literature has emerged as a powerful force shaping individual behavior, professional aspirations, and societal values. Defined by its focus on personal development, emotional resilience, and success strategies, this genre bridges the gap between psychology, leadership, and philosophy. While the Western canon of self-help literature - represented by influential figures like Dale Carnegie and Napoleon Hill - emphasizes self-discipline, interpersonal skills, and the cultivation of a success-oriented mindset, similar themes have long existed in the moral and intellectual traditions of other cultures. Caroline

In Uzbekistan, for instance, the philosophical works of Al-Farabi and Alisher Navoiy introduced ethical models of the “Ideal Man” (“Komil Inson”), advocating inner harmony, disciplined selfhood, and a moral approach to life’s challenges. This article aims to examine the mutual reinforcement between global self-help narratives and Uzbek national philosophy, tracing how classical ethics and modern motivational theory converge in the contemporary search for self-actualization. As globalization accelerates and societal pressures evolve - particularly for youth navigating work-life balance and identity in a digitalized world - understanding this intersection becomes both timely and culturally significant.

Ramz (arab – ishora qilmoq) (badiiy adabiyotda) – voqelikni badiiy aks ettirishning shartli usuli; badiiy shartlilik shakllaridan. Ramz majozdan farq qilib, mazmuni obrazli qurilishi bilan bog'liq bo'ladi va ko'p ma'noliligi bilan ajralib turadi. Ramz barcha xalqlar folklori va adabiyotida qadimdan mavjud. Ramziy obrazlar muayyan tizimni tashkil etadi va ayrim hollarda ko'pchilik xalqlar adabiyoti va san'atida mushtarak mazmunni ifodalaydi. O'zbek mumtoz adabiyotida sariq rang tasvirini juda ko'p o'rinlarda uchratishimiz mumkin. Xalq orasida esa bemor bo'lish, kutish, intizorlik, eskirish summolari ma'nolariga nisbatan ham sariq rang qo'llaniladi. Ba'zan esa bu rang tushkunlik, unutish kabi ma'nolarni ifodalab keladi. Hikoyada ham sariq rangi xuddi shunday holda tasvirlangan *"Iffat hamishagi joyimizda o'tirardi. Boshi egik. Bir o'rim sochi ko'ksi ustida qabariq shakl hosil qilib tizzasiga tushgan. Qo'lida za'faron yaprog' – Sariq rang hukmda qolgan terak yaprog'i – bandiga yaqin qismi yashiltob, uchlari qizg'ish tus ola boshlagan. Sariq rang – Van Gog tasavvurining ohanrabosi. Qizning holati esa kuzning o'ziday sokin. Umuman, Iffatda kuzga xos jihatlar ko'p"*[6;66].

**Xulosa.** Muallif qahramonni sariq rang bilan uyg'unlikda tasvirlaydi. Hikoyaning davomida qahramon vaqtни to'xtatishga juda ko'p urinadi, ammo so'ngiga borib esa barchasini tushunib yetadi. Chunki u onaginam To'xta momoning oldiga keldim deb o'ylab Iffatni yoniga kelgan bo'ladi. Vaqtning qudratini qarangki, hikoyaning boshida yosh nafis deb ta'riflangan qiz To'xta momo kabi qarigan holga kelgandi. Vaqt shunchalik qudratliki, uni hech qachon o'zgartirib yoki to'xtatib bo'lmaydi, uni xos qilish mumkin-u, ko'rish mumkin emas. Sariq rangi esa tushkunlikni ifodalaydi, qahramon vaqtning o'tib borayotganini anglarkan, vaqtни kuzning kelishi va daraxt barglarining sarlayishiga qiyoslaydi. Vaqt shunchalik qudratliki, uni hech qachon o'zgartirib yoki to'xtatib bo'lmaydi, uni his qilish mumkin-u ko'rish mumkin emas. Sariq

rangi esa tushkunlikni ifodalaydi, qahramon vaqtning o'tib borayotganini anglarkan, vaqtni kuzning kelishi va daraxt barglarining sarg'ayishiga qiyoslaydi.

Umuman aytganda, bugungi zamonaviy hikoyachilikda Abduqayum Yo'ldosh va Ne'mat Arslonlarning o'z o'rnini bor. Ular yaratgan hikoyalarda ijodkor uslubi va individualligi o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Yuqoridagi ikkita hikoya tahlillari misolida aytish joizki, ikkala yozuvchi ham hozirgi kunning eng dolzarb, og'riqli muammolarini qalamaga olganligi va o'z badiiy niyatini amalga oshirishda ramz va majoz, timsollardan unumli foydalanishganini ko'rish mumkin. Ular o'rtasida farqli jihatlar bilan birga mushtarakliklar ham ko'zga tashlanadi. Xususan, sarlavha tanlashdagi o'ziga xoslik, personajlarni nomlashdagi boshqalarga o'xshamaydigan novatorlik, falsafiylik va shu kabilar ayniqsa, e'tiborlidir. Demak, o'zbek adabiyotida ular yaratgan asarlar kitobxon uchun ma'naviy ozuqa bo'lib xizmat qiladi.

### ADABIYOTLAR:

1. Гегел. Эстетика. — Шарқ юлдузи. 2014. 1-2 сонлар.
2. Ёўлдош Қ., Ёўлдош М. Бадий таҳлил асослари. — Т.: Камалак, 2016. — 464 б.
3. То'rayev В. О., *Vaqt muammolari*, 2000-yil;
4. То'rayev В. О., *Kosmik. Vaqt. Rivojlanish*, 1992.
5. Abduqayum Yo'ldosh. *Puankare*. T.: Akademnashr. 2022.
6. Неъмат Арслон. *Ёзувчи учун атир*. Т.: Адабиёт. 2022.

## SIMILE AS A TRANSLATION CHALLENGE: ENGLISH VS UZBEK

**Khikmatova Aziza Kuvvat kizi,**

*The third year student of Bukhara State University*

**Abstract.** This article explores the translation challenges of similes from English into Uzbek. It analyzes how literal, cultural, and stylistic differences affect the rendering of figurative comparisons. Using examples from literary texts, the study identifies major translation strategies: literal translation, cultural substitution, adaptation, and omission. Results show that direct translation is limited, while cultural adaptation offers more accurate and resonant outcomes. The research highlights the translator's role as both a linguistic and cultural mediator. It concludes with practical implications for translation theory, education, and practice, emphasizing the need for creativity, cultural sensitivity, and stylistic awareness in simile translation.

**Key words:** simile, translation, metaphor, comparison, figurative language, meaning, source language, target language, equivalence.

## O'XSHATISH IBORALARINI TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLAR: INGLIZCHA VA O'ZBEKCHA TAQQOS

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ingliz tilidagi o'xshatish iboralarining o'zbek tiliga tarjimasidagi muammolar tahlil qilingan. Tadqiqotda badiiy matnlardan olingan misollar asosida turli tarjima strategiyalari — so'zma-so'z tarjima, madaniy almashtirish, moslashtirish va tushirib qoldirish — o'rganiladi. Natijalar ko'rsatadiki, so'zma-so'z tarjima cheklangan bo'lib, madaniy moslashtirish orqali ifoda aniqroq yetkaziladi. Maqolada tarjimonning tilshunos va madaniyatlararo vositachi sifatidagi roli yoritiladi. Tarjimonlar uchun nazariy va amaliy tavsiyalar beriladi, jumladan, badiiy iboralarni ijodiy va madaniy yondashuv bilan tarjima qilish zarurligi ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar:** o'xshatish, tarjima, metafora, qiyoslash, majoziy til, ma'no, manba tili, maqsadli til, ekvivalentlik.

## СРАВНЕНИЕ КАК ПЕРЕВОДЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА: СРАВНЕНИЕ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

**Аннотация.** В статье рассматриваются трудности перевода сравнений (сравнительных оборотов) с английского на узбекский язык. Исследование анализирует примеры из художественной литературы и выявляет основные стратегии перевода: буквальный перевод, культурная замена, адаптация и опущение. Результаты показывают, что буквальный перевод часто недостаточен, в то время как культурная адаптация позволяет точнее передать смысл. Подчеркивается роль переводчика как посредника между языками и культурами. В заключение даны рекомендации для переводчиков и исследователей, подчеркивая важность творческого и культурно-чувствительного подхода при передаче сравнений.

**Ключевые слова:** аналогия, перевод, метафора, сравнение, образный язык, значение, исходный язык, целевой язык, эквивалентность.

**Introduction.** Language is not merely a tool for communication, but a carrier of culture, emotion, and thought. One of the most expressive elements of language is **figurative speech**, especially **similes**, which create vivid imagery and enhance narrative style. In English, similes like “as sly as a fox” or “as white as snow” are not only decorative but also convey nuanced meanings and cultural associations. Similarly, Uzbek uses comparisons such as “qor kabi oppoq” or “bo'riday qora” to enrich expression. However, the act of translating similes from English into Uzbek is complex. These figures of speech often rely on cultural references, idiomatic norms, and syntactic structures that do not have direct counterparts in other languages. As such, translators must navigate not only the semantics of a phrase but also its cultural and emotional resonance.

**Problem Statement.** While many studies have addressed figurative language in literary translation, few focus specifically on similes in English-Uzbek pairs. The lack of equivalence, both linguistic and



cultural, leads to similes being mistranslated, omitted, or altered in ways that diminish their stylistic effect. This research seeks to fill this gap by providing a detailed analysis of translation strategies used for similes.

### Research Objectives

- To identify the types and structures of similes in English and Uzbek.
- To analyze the strategies used in translating similes from English into Uzbek.
- To assess how meaning and stylistic effect are preserved or altered.
- To propose practical recommendations for translators working with figurative language.

### Research Questions

1. What are the most common structural types of similes in English and Uzbek?
2. Which strategies are predominantly used in translating similes?
3. How do cultural and linguistic differences influence simile translation?
4. What are the challenges and possible solutions in ensuring fidelity and naturalness?

**Research Design.** This is a qualitative and comparative study employing **descriptive linguistic analysis**. It examines similes extracted from English texts and their corresponding Uzbek translations to identify patterns, shifts, and strategies.

**Data Collection.** A corpus of **50 English similes** was compiled from literary texts by authors such as William Shakespeare, Charles Dickens, Jane Austen, Mark Twain, and contemporary writers. Their **Uzbek translations** were obtained from official published versions by professional Uzbek translators.

**Sampling Criteria.** The similes selected met the following criteria:

- Clear structure involving "like" or "as".
- Represent figurative rather than literal comparisons.
- Appear in both the English original and the Uzbek translated text.
- Cover a range of semantic fields (emotion, character traits, nature, etc.)

### Analytical Framework

Each simile was analyzed according to:

- **Structure:** Simple (e.g., "as cold as ice") vs. Complex (e.g., "He moved like a shadow in the dark").
- **Meaning:** Transparent (easily understood) vs. Culture-specific.
- **Translation Strategy:**
  - Literal translation
  - Cultural substitution
  - Functional equivalent
  - Adaptation/paraphrase
  - Omission

### Evaluation Criteria

- **Semantic fidelity:** How accurately the simile's meaning is preserved.
- **Stylistic impact:** Whether the translated simile maintains the rhetorical or aesthetic effect.
- **Cultural appropriateness:** Suitability for Uzbek cultural norms.

**Results.** The analysis of the selected similes and their corresponding translations into Uzbek revealed a variety of translation strategies and challenges. Out of the 50 similes studied, five main approaches were observed in how translators dealt with the figurative content, structure, and cultural nuances of each simile. These strategies include literal translation, functional equivalence, cultural substitution, adaptation/paraphrasing, and, in a few cases, omission. Each approach had its own strengths and limitations, depending on the nature of the simile, the cultural background of the phrase, and the context in which it was used.

**Literal Translation.** Literal translation of similes occurred in just over a quarter of the examples analyzed. In these instances, the simile's original structure and components were directly rendered into Uzbek with little or no modification. This was most effective when the simile used a universally recognizable image or concept. For example, the English simile "*as white as snow*" was translated into Uzbek as "*qordek oppoq*", where both the visual image (snow/white) and the comparative structure are easily understood in both cultures. Another successful case of literal translation was "*as brave as a lion*", rendered as "*sherdek jasur*", again relying on a culturally shared perception of the lion as a symbol of courage. However, even among similes that appear translatable on the surface, minor cultural or grammatical adjustments were sometimes required to fit Uzbek syntax and stylistic norms.

**Functional Equivalence.** In approximately one-fifth of the cases, translators opted for what can be described as functional equivalence. This method focuses on preserving the intended meaning or emotional tone of the simile rather than adhering to its literal structure or imagery. For example, the English expression "*as poor as a church mouse*", which refers to someone extremely poor, was translated as "*saxovatli odamdek*".

*kambag'al*" (literally: "as poor as a generous man"), where the image of a "church mouse" would not evoke the same association in Uzbek culture. Instead, the translator conveyed the semantic load — extreme poverty — through an image more accessible to the Uzbek reader. Another good example is "*as pale as a ghost*", which was rendered in Uzbek as "*oqarib ketgan*" or in more expressive terms "*qorachadek oqarib ketgan*". Since the image of a ghost may not carry the same visual or cultural weight in Uzbek, especially in secular or realist contexts, the translator compensated by amplifying the sense of shock and paleness. This approach proves especially useful in emotionally charged similes where mood and tone are more important than specific metaphorical references.

**Adaptation and Paraphrasing.** In about ten percent of cases, similes were not translated through direct comparison at all. Instead, translators opted for paraphrasing or rewording the idea entirely, often because the original simile was too idiomatic, humorous, or obscure. For example, the highly idiomatic simile "*as dead as a doornail*", commonly used in English to emphasize complete death or uselessness, was rendered simply as "*butkul o'lik*" ("completely dead") in Uzbek. The idiom "doornail" has no cultural or linguistic equivalent in Uzbek, and maintaining it would confuse readers. Thus, paraphrasing helps avoid misunderstanding while preserving the core message. Similarly, "*as useless as a chocolate teapot*", a humorous simile in English meant to describe something entirely impractical, was translated as "*hech narsaga yaramaydi*" ("it's good for nothing"). Although this loses the original's humor and specificity, it maintains the criticism of uselessness in a way that is immediately clear to Uzbek readers. In these cases, stylistic and semantic adequacy take precedence over exact equivalence.

**Discussion.** The results of this study underscore the complexity and nuance required when translating similes between English and Uzbek. Similes, though often regarded as simple comparative expressions, carry dense layers of **semantic**, **cultural**, and **stylistic** meaning. As observed in the data, literal translation is effective only in limited cases. The overwhelming majority of similes required **interpretive**, **creative**, or **culturally adaptive** approaches, confirming the view in translation studies that figurative language is among the most sensitive and difficult to render across languages.

**Similes as Culture-Bound Expressions.** One of the most salient findings is that many English similes are **culture-bound**, meaning their imagery and emotional force depend on shared cultural knowledge. For instance, "*as poor as a church mouse*" only works in English because of the cultural connotation of churches being quiet, solemn, and not associated with food or wealth. In Uzbek, where mosques serve a different social and symbolic role and mice are associated with different ideas, this simile has no immediate resonance. Consequently, translators must reconstruct the image in culturally meaningful ways — not just linguistically, but ideologically and symbolically. This confirms Eugene Nida's distinction between **formal equivalence** and **dynamic equivalence** in translation. Literal translation often achieves formal equivalence, preserving structure and wording, but fails in dynamic equivalence — which aims to evoke the same response or meaning in the target audience. The most successful simile translations in this study were those that prioritized dynamic equivalence, even if it meant abandoning the original metaphor.

**Figurative Meaning vs. Stylistic Effect.** A key issue in simile translation is preserving not just meaning, but **stylistic effect**. A simile may be humorous, sarcastic, exaggerated, poetic, or solemn — and this tone must be replicated. The

simile "*as useless as a chocolate teapot*", for instance, is humorous and absurd in English, but Uzbek has no ready-made equivalent that carries both the ridiculousness and criticism embedded in the original. Translators must either invent a local metaphor or accept a loss of stylistic nuance. Some chose to translate it simply as "*hech narsaga yaramaydi*", losing the humor but maintaining the message. Such challenges reveal that similes function as more than decorations — they are integral to **authorial voice**, **narrative tone**, and **reader engagement**. Removing or flattening similes, as seen in some Uzbek translations, may produce clearer text but risks **erasing the author's stylistic fingerprint**, particularly in literary works.

### Linguistic Structure and Grammatical Constraints.

Structural differences between English and Uzbek also affect simile translation. English similes often follow the pattern "as + adjective + as + noun" or "like + noun/phrase", whereas Uzbek similes frequently use postpositions like *dek*, *kabi*, *go'yoki*, or even imply comparison without direct markers. For example, "*He was as silent as the grave*" becomes "*go'yo qabrday jim*" or even simply "*jim edi*". The translator must decide whether to keep the simile structure or simplify for fluency and clarity. Moreover, Uzbek similes sometimes embed traditional or poetic imagery, and translators who are attuned to this can use *classical simile forms* (from Uzbek poetry and oral traditions) to enrich the translation. This approach, however, requires both linguistic dexterity and cultural literacy.

The Translator's Role: Linguist, Artist, and Cultural Mediator. This study confirms that the translator's role extends beyond mere linguistic substitution. A translator must act as:

- a linguist, ensuring semantic accuracy;
- an artist, preserving style, tone, and beauty;
- and a cultural mediator, bridging gaps in worldview and symbolism.

For instance, in adapting the simile "*as proud as a peacock*", the translator must evaluate whether peacocks symbolize pride in Uzbek culture, and if not, substitute it with a locally meaningful image — such as "*g'ozday kerilgan*" (like a goose strutting). While such a shift may alter the animal, it preserves the figurative function — expressing pride or arrogance.

**Ethical and Aesthetic Considerations.** There is a growing debate in translation studies around ethical translation versus aesthetic fidelity. Should a translator prioritize reader comprehension or faithfulness to the original text? In literary translation, where similes abound, this question is crucial. For educational texts or technical materials, simplifying or omitting similes may be justified. But in literature, poetry, and drama, similes are part of the artistic craft, and their loss may significantly impact the reading experience. This study supports the idea that creative equivalence, though subjective, is often the most effective path. In translating Shakespeare, for example, Uzbek translators have frequently used creative metaphors from Uzbek classical poetry (such as from Alisher Navoi) to replace archaic or obscure English similes, allowing readers to access the emotional and symbolic dimensions more fully.

**Implications for Translation Practice and Pedagogy.** From a practical perspective, this research highlights the need for greater emphasis on figurative language in translator training programs. Similes, metaphors, idioms, and other non-literal elements are often treated as secondary in formal education, yet they are central to stylistically rich texts. Courses on cultural semiotics, comparative phraseology, and poetic translation techniques could help develop the creative and analytical skills necessary to navigate simile translation. Moreover, the creation of bilingual phraseological dictionaries or digital simile corpora could serve as valuable resources for professional translators. These tools would allow practitioners to consult previous translations and evaluate their effectiveness, improving consistency and creativity in future translations.

**Conclusion.** This study has aimed to investigate the intricacies of simile translation between English and Uzbek, focusing on the challenges and strategies involved in preserving meaning, style, and cultural relevance. By analyzing 50 similes drawn from English literary works and their corresponding Uzbek translations, this research has shed light on how different linguistic, cultural, and stylistic elements interact in the translation process. One of the most significant conclusions drawn from this research is that similes are not merely linguistic ornaments, but key carriers of meaning and cultural identity. They are often deeply rooted in the source language's worldview, traditions, and emotional fabric. As such, translating similes requires more than linguistic fluency; it demands cultural insight, contextual awareness, and creative decision-making. The study revealed that literal translation, though occasionally effective, is limited in scope and often insufficient in conveying the full rhetorical and emotional force of the original simile. Instead, functional equivalence, cultural substitution, and creative adaptation emerged as the most practical and stylistically faithful strategies. In conclusion, simile translation is a rich and complex area that reflects broader issues in translation studies—such as the tension between fidelity and creativity, the challenge of intercultural communication, and the role of the translator as an active co-creator of meaning. For English–Uzbek translation, where cultural and structural differences are pronounced, an effective translation of similes requires a fine balance between linguistic knowledge, cultural literacy, and artistic intuition. As Uzbek translation practice and scholarship continue to develop, it is hoped that more attention will be given to figurative language, allowing for more expressive, faithful, and culturally resonant translations in the years to come.

### REFERENCES:

1. Бейкер М. *In Other Words: A Coursebook on Translation*. – 2-е изд. – Лондон: Routledge, 2011. – 332 с.
2. Ларсон М. *Значение в переводе: Руководство по межъязыковому эквиваленту*. – М.: URSS, 2004. – 368 с.
3. Нида Е.А., Табер Ч. *Теория и практика перевода*. – Лейден: Brill, 1982. – 218 с.
4. Newmark P. *A Textbook of Translation*. – Oxford: Prentice Hall, 1988. – 292 p.
5. Винай Ж.П., Дарбельне Ж. *Сравнительная стилистика французского и английского языков: Приемы перевода*. – М.: Прогресс, 1995. – 350 с.
6. Karimov O. *Simile in Uzbek and English: Comparative Analysis* // *Journal of Linguistic Studies*. – 2021. – Т. 7, № 1. – С. 43–55.

## LITERARY CRITICISM

---

7. Crystal D. *A Dictionary of Linguistics and Phonetics*. – 6th ed. – Malden, MA: Wiley-Blackwell, 2008. – 560 p.
8. Комилова Г. *Til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik*. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2019. – 178 b.
9. Хожиев А. *Tilshunoslikka kirish*. – Toshkent: Fan, 2007. – 240 b.
10. Ganieva D. *Issues of Translating Similes in English and Uzbek // Philology and Translation Studies*. – 2023. – Vol. 4, No. 2. – P. 27–34.



### ISLOMIY QO'LYOZMALAR KONTEKSTIDA KATTA LANGAR QUR'ONI: O'ZBEKISTON MEROSI VA XALQARO TADQIQOTLAR

*O'rmonova Nigoraxon Mo'minova,*  
O'zbekiston Milliy universiteti  
Fransuz filologiyasi kafedrası dotsenti, f.f.n.  
m.forestiere@mail.ru

**Annotatsiya.** Ushbu maqola Qur'oni Karimning eng qadimiy qo'lyozmalaridan biri – VIII asrga oid va O'zbekistonda saqlanayotgan "Katta Langar Qur'oni"ni o'rganishga bag'ishlangan. Qo'lyozma nafaqat musulmon olami, balki butun insoniyat sivilizatsiyasi uchun muhim bo'lgan noyob ma'naviy-madaniy meros hisoblanadi. Maqolada qo'lyozmaning tarixiy va ilmiy ahamiyati, mintaqaning diniy o'ziga xosligini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, Fransua Desroch va Efim Rezvan kabi chet ellik tadqiqotchilarning uni o'rganish va xalqaro ilmiy maydonda ommalashtirishga qo'shgan hissasi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Katta Langar, Qur'on, qo'lyozma, kufiy yozuv, islom madaniyati, paleografiya, ma'naviy meros.

### БОЛЬШОЙ ЛАНГАРСКИЙ КОРАН В КОНТЕКСТЕ ИСЛАМСКИХ РУКОПИСЕЙ: НАСЛЕДИЕ УЗБЕКИСТАНА И МЕЖДУНАРОДНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

**Аннотация.** Данная статья посвящена изучению одной из древнейших рукописей Священного Корана — Корана Катта Лангар, датируемого VIII веком и хранящегося на территории Узбекистана. Рукопись рассматривается как уникальное духовное и культурное наследие, имеющее значение не только для мусульманского мира, но и для всей человеческой цивилизации. В статье анализируется историко-научная ценность манускрипта, его роль в формировании религиозной идентичности региона, а также освещается вклад зарубежных исследователей, таких как Франсуа Дерош и Ефим Резван, в его изучение и популяризацию на международной научной арене.

**Ключевые слова:** Катта Лангар, Коран, рукопись, кufическое письмо, исламская культура, палеография, духовное наследие.

### THE GREAT LANGAR QUR'AN IN THE CONTEXT OF ISLAMIC MANUSCRIPTS: UZBEKISTAN'S HERITAGE AND INTERNATIONAL RESEARCH

**Abstract.** This article is devoted to the study of one of the most ancient manuscripts of the Holy Quran — the Katta Langar Quran, dating back to the 8th century and stored in Uzbekistan. The manuscript is considered as a unique spiritual and cultural heritage, which is important not only for the Muslim world, but also for the entire human civilization. The article analyzes the historical and scientific value of the manuscript, its role in the formation of the religious identity of the region, and also highlights the contribution of foreign researchers, such as François Desroches and Efim Rezvan, to its study and popularization in the international scientific arena.

**Key words:** Katta Langar, Koran, manuscript, Kufic script, Islamic culture, paleography, spiritual heritage.

**Kirish.** Islom dinining eng muqaddas manbasi hisoblangan Qur'oni Karimning qadimiy qo'lyozma nusxalari musulmon dunyosi va umuman, insoniyat sivilizatsiyasi uchun bebaho madaniy va ruhiy boylik sanaladi. Ular orasida respublikamizning Qashqadaryo viloyati Qamashi tumanidagi Langar ota masjidida uzoq vaqt saqlanganligi bois shunday nom olgan, VIII asrga oid Katta Langar Qur'oni alohida o'rin tutadi. Mazkur qo'lyozma xalqimizning diniy-ma'naviy merosi sifatida milliy hamda jahon ilmiy doiralari ham katta e'tiborga sazovor bo'lmoqda. Qo'lyozmaga ilmiy qiziqish XX asrda paydo bo'ldi, ayniqsa, uning qadimiyligi va noyoblighi tadqiqotchilar e'tiborini tortdi. Katta Langar Qur'oni nafaqat o'zbek, balki xorijlik tadqiqotchilarning ham qiziqishini uyg'otdi. Rossiya, Yevropa va Arab mamlakatlari olimlari bu qo'lyozmani Qur'onning boshqa qadimiy nusxalari, jumladan, Samarqand, Topkapi, shuningdek, Qohira va Istanbul muzeylaridagi qo'lyozmalar bilan taqqoslab tahlil qilganlar.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqotda manbalar tavsifiy tahlil qilinadi.

**Mavzuga doir adabiyotlar tahlili.** Islom madaniyati va Qur'onshunoslik tarixida O'zbekiston hududida topilgan qadimiy Mus'haf lardan biri bo'lgan Katta Langar Qur'oni alohida o'rin egallaydi. Ushbu noyob qo'lyozma nafaqat islom dunyosi, balki jahon madaniyati uchun ham muhim ahamiyatga ega, chunki u bugungi kungacha saqlanib qolgan eng qadimgi Qur'on nusxalari sirasiga kiradi.

Katta Langar Qur'oni VIII asrga oid bo'lib, u pergamentga kufiy xat bilan bitilgan (2). Kufiy yozuvi islom yozma madaniyatining ilk bosqichlarida keng qo'llanilgan bo'lib, xat shaklining geometrikligi va bezaksizligi bilan ajralib turadi (7). Qur'on matnining katta qismini o'z ichiga olgan Katta Langar Qur'oni sahifalarining o'lchami va xattotlikdagi aniqlik o'sha davr nusxalovchilari yuqori san'at darajasiga ega bo'lganini ko'rsatadi.

Qo'lyozmaning O'zbekiston hududiga qanday kelib qolganligi to'g'risida ko'plab rivoyatlar va taxminlar bor. Aytishlaricha, bu qo'lyozma o'rta asrlarda Markaziy Osiyoga olib kelingan va uzoq vaqt davomida Qashqadaryo viloyatidagi qadimiy ma'naviyat maskani bo'lgan Katta Langar qishlog'ida saqlangan. Rivoyatlarga ko'ra, qo'lyozma muqaddas yodgorlik sifatida qishloqda avloddan avlodga meros bo'lib kelgan.

Mus'haf dastlab 206 sahifadan iborat bo'lgan, hozirgi kungacha esa 97 sahifasi saqlanib qolgan.

XIX asr oxirlarida Mus'haf ning ayrim sahifalari noma'lum sabablarga ko'ra O'zbekistondan olib chiqib ketilgan. Mashhur sharqshunos, akademik I. Y. Krachkovskiy o'zining "Arab qo'lyozmalari ustida" [10] kitobida yozishicha, bu qo'lyozma 1936- yilda institut tomonidan notanish kekka ayoldan sotib olingan[1].

Bugungi kunda 81 sahifa Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburgdagi Sharq qo'lyozmalari institutida saqlanmoqda. O'zbekistonda esa 16 sahifa mavjud bo'lib, ulardan 13 tasi O'zbekiston musulmonlari idorasi kutubxonasida, qolgan sahifalari Toshkent va Buxoro saqlanmoqda.

Katta Langar Qur'oni bo'yicha xorijlik taniqli sharqshunoslar Fransua Derosh va Yefim Rezvan tomonidan amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarning ahamiyati beqiyosdir.

Fransuz sharqshunosi Fransua Deroshning Katta Langar Qur'oni ustida olib borgan ilmiy izlanishlari bir necha jihatdan alohida ilmiy va madaniy ahamiyat kasb etadi. Fransua Derosh Qur'on qo'lyozmalarini o'rganishda zamonaviy kodikologik (qo'lyozma ilmi) metodlarni qo'llagan yetakchi mutaxassislardan biridir. U qo'lyozmalarining paleografiyasi, kodikologiyasi va tasnifi bo'yicha zamonaviy fan asoschilaridan biri sifatida tan olinadi. Uning "*Les manuscrits du Coran*" (Qur'on qo'lyozmalari, 1983) [2] hamda "*Islamic Codicology*" (Islom kodikologiyasi, 2005) [3] nomli monografiyalari Qur'on qo'lyozmalarini tahlil qilish metodologiyasini ilmiy asosda shakllantirgan va bu borada xalqaro darajadagi soha standartlarini belgilagan.

Mazkur asarlarda muallif nafaqat qo'lyozmalarni tasvirlash va tahlil qilish usullarini ishlab chiqqan, balki Qur'on matnlarini o'rganishdagi yangi zamonaviy yondashuvlarni ham taklif qilgan.

"The Abbasid Tradition" [3] monografiyasida Derosh VIII–X asrlarga oid Qur'onlarni yozuv uslubiga qarab klassifikatsiya qilib, Huffazi Kufi va boshqa stilistik guruhlarini aniqladi, bu esa Katta Langar sahifalarini ham boshqa qo'lyozmalar bilan solishtirish imkoniyatini berdi. Xususan, Derosh VIII asr boshlariga oid bo'lgan va keng tarqalgan yozuv uslublarini tasniflab, ularga terminologik aniqlik kiritgan. Shular jumlasidan biri "**abbasside ancienne**", ya'ni "qadimgi Abbosiylar davridagi uslub" bo'lib, bu termin o'sha davrda ishlatilgan **kufiy yozuvning erta shakllarini** tavsiflashda qo'llaniladi [13].

Eng e'tiborlisi shuki, bu tasniflar Fransua Derosh tomonidan Yaqin Sharq hamda Markaziy Osiyoda topilgan ayrim Qur'on qo'lyozmalariga ham tadbiiq etilgan. Jumladan, Katta Langar Qur'oni parchalarining ba'zi yozuv xususiyatlari "abbasside ancienne" — ya'ni abbosiylar davrining qadimgi uslubi bilan muvofiqdir. Bu holat mazkur qo'lyozmaning VIII asr oxiri — IX asr boshlariga oidligini yana bir bor paleografik asosda tasdiqlaydi.

Fransua Derosh tomonidan 1999-yilda chop etilgan "Note sur les fragments coraniques anciens de Katta Langar (Ouzbékistan)" [2] nomli maqola — Katta Langar Qur'oni fragmentlarini o'zaro bog'laydigan birinchi rasmiy ilmiy dalil sifatida e'tirof etilgan. Derosh Sankt-Peterburgdagi E 20 raqamli fragment hamda O'zbekistondagi Langar, Buxoro va Toshkentda saqlanayotgan A, B va C fragmentlari ustida fundamental kodikologik tadqiqotlar olib borgan. Natijada, u quyidagi asosli xulosalarga kelgan:

1. Barcha fragmentlar bir xil o'lchamdagi sahifalardan iborat;
2. Barcha sahifalarda bir xil turdagi pergament va siyoh ishlatilgan;
3. Yozuv uslubi abbosiylar davrining qadimgi uslubi (abbasside ancienne) bilan bir xil;
4. Xattotlikdagi chiziq o'lchami va satrlar orasidagi masofa to'liq mos tushadi.

Kodikologik tahlillar natijasida fragmentlar o'rtasida material, yozuv uslubi va geometrik o'lchamlar jihatidan to'liq moslik mavjudligi aniqlangan. Bu esa yozuv uslubi, siyoh turlari va pergament xususiyatlariga asoslanib, mazkur qo'lyozmaning VIII asrga oid ekanini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Muallif maqolada shunday xulosa qiladi: "...fragments coraniques anciens de Katta Langar (Ouzbékistan)..." — ushbu parchalar yagona manbaga oid bo'lib, bir xil tarixiy va moddiy kontekstda yaratilgan.

**Olingan natijalar tahlili.** Mazkur kuzatuv va tasniflash ishlari natijasida bir nechta mintaqada saqlanayotgan fragmentlar yagona qo'lyozma majmuasi doirasida birlashtirildi. Bu esa, Qur'on qo'lyozmalarini o'rganishda mintaqaviy emas, balki umumiy madaniy-matnshunoslik asosida yondashuv zarurligini ko'rsatdi. Shu tariqa, Katta Langar fragmentlari Yaqin Sharq va boshqa hududlardagi qadimiy Qur'on nusxalari bilan teng ahamiyatga ega manba sifatida e'tirof etildi.

Fransua Derosh Katta Langar Qur'onini islom madaniyati tarixining dastlabki davrlariga oid muhim yozma manbalar qatorida qayd etadi. U bu qo'lyozmani Hijoz, Kufa va boshqa qadimiy yozuv an'analari bilan qiyoslab, mazkur Mus'haf ni o'zbek xalqining islomiy merosidagi noyob namunasi sifatida baholaydi.

*Yefim Rezvaning Katta Langar Qur'oni ustidagi izlanishlari: Ilmiy ahamiyati*

Rossiya Fanlar akademiyasining yetakchi ilmiy xodimi, professor Yefim Rezvan Katta Langar Qur'oniga oid izlanishlarini 1998-yilda boshlagan. U dastlab Sankt-Peterburgdagi Sharq qo'lyozmalari institutida saqlanayotgan sahifalarni kodikologik va paleografik nuqtayi nazardan o'rganib chiqqan. Aynan shu yildan boshlab olim mazkur qo'lyozma fragmentlarini xalqaro ilmiy doiralarga tanishtirishni boshlagan.

Rezvaning ingliz tilida chop etilgan "The Qur'an and Its World" (1998) nomli maqolasi Katta Langar Qur'oni fragmentlarini xalqaro ilmiy hamjamiyat e'tiboriga havola qilgan birinchi muhim tadqiqot sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada qo'lyozmaning tarixiy, material va yozuv xususiyatlari, shuningdek, ularning boshqa qadimiy Qur'on nusxalari bilan bog'liqligi tahliliy yondashuv asosida yoritilgan.

Rezvaning eng muhim ilmiy yutug'i - Sankt-Peterburgdagi sahifalar bilan O'zbekistonda (Toshkent, Buxoro, Langar) topilgan sahifalarning yagona Mus'haf ga tegishli ekanini aniqlashidir. U yozuv uslubi, siyoh, pergament sifati, harf tuzilishi, oyat oralig'i kabi belgilar asosida bu sahifalarning bitta dastxatga mansubligini ilmiy asosda isbotlagan.

2000- yilda Rezvan Gollandiya (Groningen universiteti) mutaxassislari bilan hamkorlikda Katta Langar Qur'onining bir nechta sahifasi bo'yicha radiokarbon tahlil o'tkazilishiga sababchi bo'ldi. Tadqiqot natijalari bo'yicha olim ushbu Mus'haf 775–995- yillar oralig'ida yozilgan bo'lishi mumkin, degan ilmiy xulosa chiqardi. Bu qo'lyozmaning VIII asr oxiriga oidligini yana bir bor ilmiy jihatdan asosladi.

Rezvan 1999- yilda O'zbekistonga ilmiy ekspeditsiya uyushtirdi. U Langar ota ziyoratgohida va Toshkentdagi musulmonlar idorasi kutubxonasida mavjud sahifalarni shaxsan o'rgandi. Keyinchalik ushbu sahifalarning barchasi bir qo'lyozmaga mansub ekanini ilmiy asosda tasdiqlandi. Mazkur ilmiy safar doirasida **"Usmon Qur'oni izidan"** nomli hujjatli film ham suratga olingan bo'lib, u nafaqat ilmiy izlanishlar jarayonini hujjatlashtiradi, balki uni islomiy madaniy meros va tarixiy xotira nuqtayi nazaridan muhim manba sifatida taqdim etadi. Hozirgi kunda Langar masjidida professor Y. Rezvan tomonidan amalga oshirilgan Langar Qur'onining fotonusxasi va xattot Habibulloh Solih tomonidan ko'chirilgan qo'lyozma saqlanmoqda.

Rezvaning izlanishlari natijasida Katta Langar Qur'oni ilk bor xalqaro hamjamiyatda keng muhokama qilina boshlandi. U YUNESKO doirasidagi bir qancha ilmiy yig'inlarda ushbu Mus'haf haqida ma'ruza qilgan, Luvr muzeyi bilan restavratsiya ishlari bo'yicha hamkorlik qilgan.

Yefim Rezvan 2004- yilda Katta Langar Qur'oni bo'yicha maxsus monografiya [5] chop ettirdi. Bu monografiya Katta Langar Qur'oni sifatida tanilgan qadimiy qo'lyozmaning kodikologik, paleografik va tarixiy jihatlarini chuqur va tizimli tahlil qiladi. Muallif quyidagi aspektlarni atroflicha yoritadi: yozuv uslubi, sahifa o'lchamlari, pergament sifati, siyoh tarkibi, va boshqa qadimiy Qur'on nusxalari bilan bog'liqligi.

Monografiya shu ilmiy jihatlar bilan mutaxassislar uchun islom qo'lyozmalarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi, Qur'onshunoslik, kodikologiya, paleografiya sohalarida asosiy ishlardan biri sifatida tan olingan.

Ma'lumki, O'zbekiston Prezidentining 2017- yil 24 mayda "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, qadimiy yozma asarlarni bus-butunligini saqlash borasida Diniy idora tomonidan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

2018–2021- yillar davomida Katta Langar Qur'oni sahifalari Fransiyaning Luvr muzeyi mutaxassislari hamda O'zbekistonlik olimlar ishtirokida uch bosqichli restavratsiyadan o'tkazildi.

**Muhokama.** Katta Langar Qur'oni O'zbekiston madaniy merosini dunyoga tanitish yo'lida muhim ahamiyat kasb etadi. 2017- yilda "O'zbekiston madaniy merosi dunyo to'plamlarida" loyihasi doirasida ushbu qo'lyozmaning faksimil nusxalari Yevropa texnologiyasi asosida chop etilib, ilmiy muassasalarga

yetkazildi. 2023- yilda Saudiya Arabistonining Jidda shahrida bo'lib o'tgan Islom san'ati biyennalesida Katta Langar Qur'onining to'rt sahifasi xalqaro jamoatchilikka namoyish etildi.

**Xulosa.** Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi xulosaga keldik.

1. Katta Langar Qur'oni qo'lyozmasi nafaqat islom madaniyatining betakror yodgorligi, balki o'rta asrlarda Markaziy Osiyo islom tamaddunining muhim markazi bo'lganini tasdiqlovchi bebaho madaniy, tarixiy va ilmiy merosdir. Uning saqlanishi, restavratsiya qilinishi va xalqaro miqyosda tadqiq etilishi O'zbekiston ilm-fanining va madaniyatining yuksakligidan dalolat beradi. Bu Mus'haf sahifalari, shubhasiz, o'zbek xalqining hamda butun insoniyatning ma'naviy mulkidir. Qo'lyozma xalqaro kataloglarda tilga olinadi, uning musulmon olami va Qur'on tarixi uchun ahamiyati ilmiy konferensiyalar va ko'rgazmalarda muntazam ta'kidlanib kelinadi. U O'zbekistonning milliy boyligi va madaniy merosi sifatida e'tirof etilgan.

2. Fransua Deroshning Katta Langar Qur'oni bo'yicha olib borgan tadqiqotlari quyidagi bir necha muhim ilmiy natijalarni berdi. Birinchidan, u parchalarni kodikologik jihatdan tahlil qilib, oldindan tarqoq holda saqlanayotgan fragmentlarni yagona manbaga mansub ekanini isbotladi. Bu orqali u manuskriptni qayta tiklash imkonini berdi.

Ikkinchidan, u paleografik usullar yordamida Katta Langar fragmentlarini aniq VIII–IX asrlarga tegishli ekanini ilmiy asosda belgiladi. Bu yozuv uslubi, satrlar orasidagi masofa, pergament va siyoh xususiyatlari orqali aniqlangan.

Uchinchidan, Derosh Qur'on qo'lyozmalarining yozuv uslublarini (xususan, erta abbosiy va hijoziy) sistemali ravishda tasniflab, har bir uslubga aniq ta'riflar berdi. Shu tariqa u erta abbosiy yozuv uslubi tushunchasini ilmiy atama sifatida shakllantirdi.

To'rtinchidan, u islom kodikologiyasi sohasida zamonaviy ilmiy metodologiyani yaratdi. Uning ish uslubi va yondashuvlari bu sohadagi tadqiqotlar uchun xalqaro standartlarga aylandi. Deroshning ushbu tadqiqotlari Katta Langar Qur'oni'ni nafaqat O'zbekiston, balki butun islomiy madaniyat tarixi uchun alohida ahamiyatga molik manba sifatida tan olinishiga yo'l ochdi. Bu ishlar qo'lyozmaning tarixini yanada aniq, kompleks va mantiqli kontekstda tushunishga zamin yaratdi.

3. Yefim Rezvaning Katta Langar Qur'oni ustida olib borgan izlanishlari bu Mus'haf ning ilmiy va madaniy qiymatini ochib berishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Uning tadqiqotlari nafaqat O'zbekiston, balki butun musulmon dunyosi va ilmiy jamoatchilik uchun bebaho ma'lumot manbayi bo'lib xizmat qiladi. Katta Langar Qur'oni shu tarzda nafaqat qadimiy yozma manba, balki ilm-fan tarixining muhim bo'lagi sifatida e'tirof etiladi.

### ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Prezidentining 2017- yil 24- mayda "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 24.05.2017 yildagi PQ-2995-son.

2. Déroche, François. "Note sur les fragments coraniques anciens de Katta Langar (Ouzbékistan)". *Cahiers d'Asie centrale 7: Patrimoine manuscrit et vie intellectuelle de l'Asie centrale islamique*. ed. Ashirbek Muminov. 65-73. Aix-en-Provence: Éd. ÉDISUD, 1999. / DÉROCHE F., *Les manuscrits du Coran: Aux origines de la calligraphie coranique [Bibliothèque Nationale, Catalogue des manuscrits arabes, 2e partie, Manuscrits musulmans, I/1]*, Paris, 1983.

3. Déroche, François. *The Abbasid Tradition: Qur'ans of the 8<sup>th</sup> to the 10<sup>th</sup> Centuries AD*. ed. Julian Raby. New York: The Nour Foundation, Azimuth Editions, Oxford University Press, 1992. DÉROCHE F., « Codicology », *Encyclopaedia of Islam* (3<sup>e</sup> éd.), 2017, DOI : 10.1163/1573-3912\_ei3\_COM\_24409 ; en ligne: [https://referenceworks.brillonline.com/entries/encyclopaedia-of-islam-3/codicology-COM\\_24409?s.num=0](https://referenceworks.brillonline.com/entries/encyclopaedia-of-islam-3/codicology-COM_24409?s.num=0).

4. Erkinov, Aftandil. "Les manuscrits du Khamsa de 'Ali Shir Nawa'i et la vie culturelle du khanat de Boukhara sous les Mangits". *Cahiers d'Asie Centrale* 5-6 (1998), 170180. / **Erkinov, A. (2020)** – "Katta Langar Qur'oni qanday topilgan edi?" maqolasi, Uza.uz

5. Rezvan, Efim. *The Qur'an of Uthman* (St. Petersburg, Katta-Langar, Bukhara, Tashkent). St. Petersburg: Russian Academy of Sciences, 2004.

6. Rezvan, Efim. "The Qur'an and Its World: VI. Emergence of the Canon: the Struggle for Uniformity". *Manuscripta Orientalia* 4/2 (1998), 13-54.

7. Rezvan, Efim. "Yet Another "Uthmanic Qur'an" (on the History of Manuscript E20 from the St. Petersburg Branch of the Institute of Oriental Studies)". *Manuscripta Orientalia* 6/1 (Mart 2000), 49-68.

8. Muminov, Ashirbek. "Fonds nationaux et collections privées de manuscrits en écriture arabe de l'Ouzbékistan". *Cahiers d'Asie Centrale* 7 (1999), 17-38.



## LITERARY CRITICISM

---

9. Ibrahimova, Diloram. *O'zbekiston: Katta Langar – Kadim Kur'on İzidan* [Özbekistan: Katta Langar - Kadim Kuran'ın İzinde] (Film, 2019). <https://www.youtube.com/watch?v=ILbMLDToZF0>
10. Kratčkovsky, Ignatij Julianovic. *Among Arabic Manuscripts: Memories of Libraries and Men*. çev. Tatiana Minorsky. Leiden: E. J. Brill, 1953.
11. Masson, Michail Evgenievich. “Katta Liangar v oblasti srednevekovogo Kesha [Ortaçağ Keş Bölgesinde Latta Langar]”. *Arkheologiya Sredney Azii (Taşkent Devlet Üniversitesi)* 7 (1966), 66-105.
12. Islamic Awareness. “The ‘Qur’ān of Uthmān’ At St. Petersburg (Russia), Katta Langar, Bukhārā and Tashkent (Uzbekistan), From 2<sup>nd</sup> Century Hijra”. Erişim 26 Ocak 2023. <https://www.islamic-awareness.org/quran/text/mss>.
13. [fr.wikipedia.org](https://fr.wikipedia.org).
14. <https://society.uz/ru/facsimile-publication/3>

SHERMUHAMMAD MUNISNING "TOPARMEN" G'AZALI TAHLILI

*Otamuratova Sadoqat To'liqinbek qizi,*

*Abu Rayxon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

*O'zbek tili va adabiyoti kafedrası doktoranti*

*sadoqatotamuratova@gmail.com*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada taniqli xorazmlik shoir Shermuhammad Munisning g'azali tasavvufiy mazmun asosida tahlil qilinadi. Asarda uchraydigan ramz va timsollar tariqat yo'lining asosiy ma'naviy bosqichlari – shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat konsepsiyasi bilan bevosita bog'liq holda izohlanadi. G'azaldagi ilohiy ishq, riyozat, ro'za, rindlik va piri komil obrazlari orqali shoirning chuqur tasavvufiy tafakkuri ochib beriladi. Shuningdek, Munisning badiiy mahorati, poetik ifoda vositalaridan foydalanishi, obraz yaratish uslubi hamda g'azal janri doirasida tasavvufiy g'oyalarni yetkazishdagi o'ziga xos yondashuvi ham tahlil qilinadi. Maqola Munisning g'azal ifodasidagi ma'naviy-estetik qarashlarini yoritishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** tasavvuf, g'azal, tariqat bosqichlari, shariat, ma'rifat, fano, ishq, ramziy obrazlar, ilohiy ishq.

АНАЛИЗ ГАЗЕЛИ ШЕРМУХАММАДА МУНИСА «ТОПАРМЕН»

**Аннотация.** В данной статье анализируется газель известного хорезмского поэта Шермухаммада Муниса с точки зрения суфийского содержания. Образы и символы, использованные в стихотворении, интерпретируются в контексте основных духовных ступеней суфийского пути – шариат, тарикат, маърифат и хакикат. Через мотивы божественной любви, риязата, поста, риндского вольнодумства и образа совершенного духовного наставника (пир-и комил) раскрывается глубокое суфийское мировоззрение поэта. Также рассматриваются поэтическое мастерство Муниса, использование художественно-выразительных средств, методы создания образов и оригинальная передача суфийских идей в рамках жанра газели. Статья направлена на раскрытие духовно-эстетических взглядов поэта через его газельное наследие.

**Ключевые слова:** суфизм, газель, этапы тариката, шариат, маърифат, фано, любовь, символические образы, божественная любовь.

ANALYSIS OF SHERMUHAMMAD MUNIS'S GHAZAL "TOPARMEN"

**Abstract.** This article analyzes a ghazal by the renowned Khorezm poet Shermuhammad Munis from a Sufi perspective. The images and symbols used in the poem are interpreted in the context of the main spiritual stages of the Sufi path - Sharia, Tariqa, Ma'rifat, and Haqiqat. Through the motifs of divine love, riyazat (spiritual discipline), fasting, rind free-thinking, and the image of a perfect spiritual mentor (pir-i kamil), the poet's profound Sufi worldview is revealed. The article also examines Munis's poetic mastery, his use of artistic and expressive devices, methods of creating imagery, and the original conveyance of Sufi ideas within the ghazal genre. The study aims to unveil the poet's spiritual and aesthetic views through his ghazal heritage.

**Keywords:** sufism, ghazal, stages of Tariqa, Sharia, Ma'rifat, fana, love, symbolic images, divine love.

**Kirish.** "Tasavvuf o'zi bir Buyuk bir romantik olamdir. Olamni Mutlaq Parvardigorning ijodi deb qarash, dunyoni Ilohning ko'zgusi deb tushintirish va barcha go'zalliklar, qudratni Ilohda deb hisoblash, Borliqni romantik ranglarda, shoirona xayoliy surat – timsollar tarzida, ilohiy nurning porlashdan doimiy harakatda va ijodda deb tasavvur etish – o'zi bir Buyuk Poeziya. Jami go'zalliklar, yaxshiliklar, ezguliklar manbayi Mutlaq Iloh. Qudrat va kuch, harakat va faoliyat ham Undan. Dunyodagi jami husn-u jamol – Uning jamolining aksi. Inson go'zalligi Uning jamolining jilvasi, bu Jamol olamda qancha ko'p jilo etgan bo'lsa, u shuncha go'zal bo'la oladi" [4;140].

"Haqiqiy dindor shoir so'fiy bo'lishi kerak", – deb yozgan edi tariqat ahli hayotini o'rgangan arab olimi Al-Johiz (vafoti 869-yil) [4;141]. Har bir so'fiy shoir o'z ijod namunalarida, albatta, birinchi navbatda, Ilohiy ishni kuylashgan, tasavvuf ilmidan ozuqa olib, uning go'zalligini o'z misralarida ifoda etishgan. Ilohni yori aziz sifatida ulug'lab, Uni hayotning mazmuni ekanligini ta'kidlashgan. XVIII asrning oxiri – XIX

asrning birinchi yarmida Xorazmda yashab ijod etgan iste'dodli shoir, tarixchi, mohir tarjimon, xattot bo'lgan Munis, zamonasining ustoz deb tan olingan namoyandalardan biri edi. O'ziga xos g'azal, ruboiy, tuyuq, muxammas, mustahzod, qasida, chistonlar yaratgan ijodkor o'zining har bir ijod namunasida badiiy obraz yaratishga alohida e'tibor qaratgan. Ma'lumki, Xorazm adabiy muhiti to'liq o'rganilgan emas, shu qatorda Munis Xorazmiy ijodi ham hali kashf qilinmagan xazinadek, biz adabiyotshunoslar uchun katta bir tadqiqot manbayi bo'lib turibdi.

Shermuhammad Munis – XIX asr o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakillaridan biri bo'lib, uning ijodida tasavvufiy g'oyalar alohida o'rin tutadi. Uning g'azallari, ayniqsa, majoziy yo'sindagi so'zlar bilan tasavvufiy haqiqatni ifoda etishda katta mahorat bilan yaratilgan. “Masiho mayi labingdin jon toparmen...” deb boshlanuvchi g'azali ham ana shunday asarlardan biri bo'lib, unda tariqat yo'lining asosiy bosqichlari – shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat ramziy obrazlar vositasida ochib berilgan.

Tasavvuf adabiyoti asrlar davomida o'zining chuqur falsafiy va ma'naviy mazmuni bilan Sharq she'riyatida alohida mavqega ega bo'lib kelgan. Ayniqsa, Ramazon oyining ruhiy va ma'naviy jihatlari so'fiy shoirlar tomonidan teran va ramziy obrazlar orqali ifoda etilgan. Ushbu holat, ayniqsa, XIX asr Xorazm adabiy muhitining yetuk vakillaridan biri bo'lgan Shermuhammad Munis ijodida yaqqol namoyon bo'ladi. Uning tasavvufiy qarashlari, diniy-falsafiy tushunchalarni she'riy ifoda orqali ifodalash mahorati, ayniqsa, Ramazon oyiga bag'ishlangan g'azalida o'z aksini topgan.

O'zbek adabiyoti taraqqiyoti tarixida tasavvuf alohida falsafiy-estetik oqim sifatida shakllangan va ijodkorlarning dunyoqarashi, badiiy tafakkuri hamda ruhiy-madaniy olamiga chuqur ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa, klassik adabiyotda tasavvuf nafaqat diniy-ma'naviy g'oya sifatida, balki inson ruhiyatini tahlil etish vositasi, estetik til, axloqiy tizim va badiiy mahorat maktabi sifatida namoyon bo'ladi.

Tasavvufiy fikr asosida shakllangan tariqat tushunchasi esa faqatgina diniy marosimlar majmuyi emas, balki insonni o'zligini anglash, komillikka yetishish, ya'ni botiniy poklanish va ma'naviy yuksalish yo'li sifatida sharhlanadi. Bunday yo'l shoir va mutafakkirlarning ruhiy kechinmalari, ichki iztiroblari va ilohiy ishqqa intilishlarini ifoda etishda muhim manba bo'lgan.

**Tadqiqot obyekti va usullari.** Shermuhammad Munis ijodida tariqat g'oyalarining asosiy manbayi islomiy tasavvuf ta'limoti, Qur'oni Karim va hadislar, shuningdek, buyuk mutasavvif adiblar merosidir. U o'z she'riyatida Navoiy, Jomiy, Attor, Hofiz, ayniqsa, Xorazmiy adabiy maktabi vakillaridan ta'sirlangan. Munisning diniy-falsafiy dunyoqarashi faqat nazariy emas, balki amaliy tariqat tajribasi bilan ham boyitilgan.

Avvalo, Munis devoniga oid asosiy manba sifatida 1980-yilgi Munis Saylanmasi[2] tahlil qilindi. Unda g'azallarning manbaviy-nasriy tavsifi keltirilgan bo'lsa-da, tasavvufiy ma'no qatlamlari chuqur tahlil etilmagan. Jumladan, Munis ijodi borasida N.Jumayevning “Munis g'azaliyoti”[3], O'zbek mumtoz she'riyati antologiyasining 31-tomida shoir ijod namunalari tahlilga tortilgan. Mavjud adabiyotlarda Shermuhammad Munis g'azallarining umumiy badiiy jihatlari yoritilgan bo'lsa-da, uning ayrim she'rlaridagi tasavvufiy obrazlar tizimi, ma'naviy-falsafiy qatlamlar chuqur ochilmagan. Shuning uchun maqola ana shu bo'shliqni to'ldirishga, Munis g'azaliy merosining tasavvufiy-estetik tahliliga yangicha yondashuv asosida baho berishga urinadi.

**Tadqiqot natijalari.** Shermuhammad Munisning g'azallari tasavvufiy g'oyalar, ayniqsa, tariqat tamoyillarini badiiy ifodalashda o'ziga xos she'riy maktab yaratgan. Uning she'riyatida tariqat yo'lining ichki bosqichlari, murshidga e'tiqod, nafs bilan kurash, ilohiy ishq, fano va baqo kabi asosiy tasavvufiy tushunchalar ramziy obrazlar orqali ifodalanadi.

Bu g'azal Shermuhammad Munis tomonidan yozilgan bo'lib, unda yuksak darajadagi tasavvufiy ma'nolar mujassam. G'azalni tasavvuf tariqatining bosqichlari – shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat asosida tahlil qilamiz. Har bir baytni ushbu manzillar nuqtayi nazaridan izohlash mumkin.

Masiho mayi labingdin jon toparmen,

Yuzingdin partavi iymon toparmen.

Bu yerda “masiho mayi” (Iso alayhissalomning sharobidek ruhi) va “labing” (ma'shuqaning labi) iboralari orqali ilohiy muhabbat va ruhiy quvvat nazarda tutiladi. Shoir uchun ma'shuqaning labi (ya'ni Haqning jamoli) jon bag'ishlaydi, uning yuzidagi nur iymonni mustahkamlaydi. Bu tasavvufda zohiriy iymondan boshlangan yo'lni anglatadi.

Adabiyotshunos Najmiddin Komilov esa ushbu obraz borasida quyidagicha fikrlarni bayon qiladi: “May” ramzining Umar Xayyom, Rudakiy, Hofiz Sheroziy asarlaridagi semantik tarkibini izchil tahlil etish jarayonida ma'lum bo'ldiki, bu leksema polisemantik xususiyatga ega. Ya'ni har bir shoir o'zining g'oyaviy pozitsiyasi qanday bo'lishi, dindormi, dinsizmi, so'fiymi yo faylasufmi bo'lishidan qat'iy nazar “may” yoki “sharob” yoki uning ko'plab mutarodif so'zlarini qo'llashdan ko'zlagan maqsadi samoviy va dunyoviy

voqea va hodisalarga o'z qarashlarini teran ma'nolarini ifodalash uchun ramz sifatida foydalanishdir" [5;200].

Adabiyotshunos Ibrohim Haqqul o'zining "Navoiyga qaytish" kitobida tasavvuf sohasiga quyidagicha fikrlar bildirgan: "Tasavvuf bizda uzoq yillik tanaffusdan so'ng endi erkin va kengroq o'rganilayotgan soha. Shuning uchun ayrim xatoliklar, munozarali fikrlar sodir bo'lishi mumkin. Lekin bunda she'riy matn mohiyatini teran tushunmasdan nazariy fikr aytish, katta umumlasmalar chiqarishdan nihoyatda ehtiyot bo'lishimiz shartdir" [7;68].

Harifi vasling o'lsam yo'q ajab kim,

Sani bu jonima jonon toparmen.

Bu baytda tasavvufda "jon fido qilmoq" bosqichi, ya'ni shogirdning Haqqa yetishish yo'lida o'z nafsini qurbon qilishi, vasl istagida fano bo'lishi tasvirlangan. "Jonon" – Haq, Alloh sifatida ko'rilgan. Shogird tariqatda murshid yordami bilan o'z nafsini tark qilib, jononi (Haqni) topadi.

Mayi lutfingdin et sarxush mani kim,

Xumor ichra o'zum nolon toparmen.

"Mayi lutf" – ilohiy inoyat, "sarxushlik" – fano holati. Shogird ilohiy lutfdan mast holga tushib, xumor (majoziy azob) ichra o'zini nola qiluvchi, nola-yu zor holatda topadi. Bu, tasavvufda "sahv va sukroning oralig'i", ichki kurash davridir.

Dahoningkim ziloli jonfizodur,

Oni sarchashmayi hayvon toparmen.

"Dahon" – so'z, til. Shoir Haqning kalomi (ilhom yoki Qur'on) jon bag'ishlovchi ekanini ta'kidlaydi. "Sarchashmayi hayvon" – hayot manbayi, bu Qur'on yoki Haqning kalomi ekanini anglatadi. Bu baytda Haqning so'zida yashirin sirlarni anglash – ma'rifat bosqichi ifodalanmoqda.

Qadingningkim qulidur sarvi ozod,

Chamanda ziynati bo'ston toparmen.

Bu yerda Haqning jamoli go'zallik sifatida tasvirlanadi. Uning qaddi – sarv, chamand – bu dunyo, ziynat esa uning jamolidir. Shoir ma'shuqaning go'zalligini barcha borliq ziynatidan ustun qo'yadi, bu esa tariqatda zohirdan botinga o'tishdir.

Visoling ganjin istarmen ko'ngulg'a,

Chu hajringdin oni vayron toparmen.

Shoir Haq visolini qalbining eng qimmatli xazinasini deb biladi. Hajr – ayriliq – qalbni vayron qiladi. Bu, ishqiy fano bosqichiga o'tishdir. Oshiq Haqdan judo bo'lganda o'zini yo'qotadi, lekin bu vayronlikdan visol istaydi.

Labingni kim tabassumdin berur jon,

Baloyi g'unchayi xandon toparmen.

Lab – Allohning lutfi, tabassum esa uning rahmati. Shoir Haqning bir jilvasidan hayot topadi. G'uncha kabi kulgan labda Allohning jamol go'zalligi mujassam. Bu haqiqat bosqichida jamolni mushohada qilishdir. Lab tasavvufiy adabiyotda purning muridlarga aytgan purnamo so'zlari, yoki so'fiy uchun ilohiy ishqqa erishish vositasiga ishora qilishini bilamiz. Baytning mazmuniga ko'ra ushbu purning purnamo so'zlari muridlarga jon bag'ishlaydi. Murid tasavvuf adabiyotida talab etuvchi, istovchi, pirga qo'l berib, tariqatga kirgan, kamolotga erishishni niyat qilgan, komil shayxga bog'lanib, unga bay'at (qo'l bergan) qilgan solik hisoblanadi.

Yamon ko'zdun yuzung Haq asrasunkim,

Oni xurshiddek raxshon toparmen.

Shoir iltijo qilmoqda: Haq o'z jamolini yomon ko'zdan (hasaddan, nafsdan) asrasin. Bu jamol quyoshdek porlaydi. Bu, botiniy muhabbat va ilohiy himoyani anglatadi. Oshiq Haq jamolini himoya etishni so'raydi – bu ishqda kamol belgisidir. Tasavvufda yuz oliy haqiqat, ilohiy husnning zuhur bo'lish ramzi. Solikning oliy haqiqatga, visolga, maqsadga, Alloh jamoliga yetishish ramzi hisoblanadi. Solik – irfon yo'lidan borayotgan yo'lovchi. Tasavvufda tariqatni ixtiyor etib, ruhiy poklanish yo'liga kirgan, hali biror maqom yoki martabaga erishmagan kishi. Yuz va zulf haqida tadqiqot olib borgan Y.E.Bertels yuzni – haqiqiy mavjud bo'lgan olam, zulf esa haqiqiy mavjud bo'lmagan olam deb tariflaydi. Zulf – dunyoning bepayonligi va zulmatiga ishoradir.

Jahon ahlig'a yo'q tobi nigohing,

Ko'zungni fitnayi davron toparmen.

Haqning nigohi – har kim ko'tara olmaydigan ilohiy nurlanish. "Ko'zing" (nigohing) butun davrni fitnaga soluvchi. Haq nigohi shiddatidan oshiqning hushyorligini anglatadi. Taqvo va hushyorlik bosqichi bu yerda aks etadi. Tasavvuf adabiyotida yuz – ilohiyot jamoli timsoli va komil inson chehrasi bo'lsa, ko'z – g'aybning manbayi, sir-u asror chashmasi hisoblanadi. Ayni damda, qalb ko'zi, oshiqni imtihon etuvchi,



sinovdan o'tkazuvchi kuchdir. So'fiylar nazdida ma'shuq ko'zi – basirat darajasi, ya'ni qalb ko'zining o'tkirligidir.

Asir etmak tilarsen ayla ehson,

Ki elni bandayi ehson toparmen.

Shoir iltijo qiladi: agar asir etmoqchi bo'lsang, bu ishni ehson (mehr-shafqat) bilan qil. Bu, muruvvat, ya'ni karamat va mehr orqali yo'lga boshlashni anglatadi. Bu tasavvufda murshidning yo'l ko'rsatuvchi rahmatli rolidir.

Nihon Munisdin o'lding to paridek,

Oni Majnuni sargardon toparmen.

Shoir o'zining "Munis" taxallusini ishlatib, oxirgi xulosa beradi: u paridek (yengil, ruhoniyl) bo'lib o'ldi – ya'ni fano holiga yetdi. Endi uni "Majnun" kabi sargardon holatda topish mumkin. Bu – oxirgi bosqich – fano filloh va baqo billohni bildiradi.

Shermuhammad Munis o'z davrining yetuk g'azalnavis shoirlaridan biri bo'lib, uning tasavvufiy-falsafiy dunyoqarashi aynan g'azal janri orqali chuqur badiiy ifodaga ega bo'lgan. G'azal, tasavvufiy adabiyotda ishqiy ramzlar orqali ilohiy haqiqatlarni bayon etish vositasi sifatida keng qo'llanilgan. Munis ham bu an'anani davom ettirgan holda, g'azallarida muhabbat, fano, murshid, sabr, riyozat, visol kabi tariqatga oid tushunchalarni ramziy-estetik yo'sinda ifodalagan. Uning g'azallarida ishq markaziy tushuncha bo'lib, bu ishq faqat dunyoviy emas, balki ilohiy mohiyatga ega. Ishq orqali shoir nafsni yengish, ruhni poklash, Haqqa yetish kabi tariqat bosqichlarini estetik tilda tasvirlaydi.

**Xulosa.** Munis ushbu g'azalida tasavvufiy tariqat bosqichlarini ramziy obrazlar orqali ketma-ketlikda tasvirlay olgan. Uning har bir bayti ma'naviy yuksalish yo'lidagi yangi bir pog'onani bildiradi. Ishqiy ifodalar ortida ilohiy ma'no yotadi. Tasavvufiy g'azallarni tahlil qilishda nafaqat tashqi shakl, balki ichki mazmunga chuqur e'tibor zarur. Munisda bu ichki mazmun yuksak badiiy til bilan ifodalangan. "May", "lab", "qad", "nigoh" kabi obrazlar oddiy ishqiy kontekstda emas, ruhiy ilohiy talqinda ishlatilgan. Shermuhammad Munisning "Masiho mayi labingdin..." g'azali tasavvufiy mazmunga boy bo'lib, unda solikning ma'naviy yetilish bosqichlari – shariatdan haqiqatgacha bo'lgan ruhiy yuksalish chizig'i majoziy va badiiy vositalar bilan yuksak poetik darajada ifodalangan. Bu g'azal o'zbek tasavvufiy she'riyati namunalari orasida alohida o'rin tutadi. Tasavvuf she'riyatini o'rganish asnosida tasavvuf shoirlari qo'llaydigan obrazlar anchayin cheklanganligini sezish qiyin emas. Lekin tasavvuf she'riyatida buning sababi boshqacha. Unda obrazning butunlay mustaqil ma'nosi yo'q, qaduning vazifasi faqat negizida haqiqiy falsafiy ma'no yashirin o'ziga xos belgi vazifasini bajarishdir. Negaki, har qanday tasavvuf she'rining asosiy mavzusi oldindan belgilangan, unda tavhid yoki vahdati vujudan o'zga narsani tarannum etish mumkin emas.

### ADABIYOTLAR:

1. Shermuhammad Munis. *Saylanma. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent, 1980.*
2. Shermuhammad Munis. *O'zbek mumtoz she'riyati antologiyasi. 31-tom. Toshkent: "O'zbekiston", 2022.*
3. N.Jumayev. *Munis g'azaliyoti. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent, 1991.*
4. Najmiddin Komilov. *Tasavvuf. Toshkent, "Movarounnahr" – "O'zbekiston", 2009.*
5. Najmiddin Komilov va boshqalar. *Tasavvuf adabiyoti lingvopoetikasi. (O'quv qo'llanma). Toshkent, 2011. 200-bet*
6. Iqboloy Adizova. *O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. Toshkent, "Fan", 2009*
7. Ibrohim Haqqul. *Navoiyga qaytish. Toshkent, "Fan", 2007. 68-bet.*
8. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. *To'rt tomlik. Toshkent, "Fan", 1983-1985.*
9. Munirov Q. *Munis, Ogahiy va Bayoniyning tarixiy asarlari. Toshkent:2000*
10. *Munis, Ogahiy. Firdavsul-iqbol. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.*
11. *Munis Xorazmiy. Savodi ta'lim. – Urganch: Universitet, 1997.*
12. *Munis. Tanlangan asarlar. – Toshkent. Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1957.*

## EXISTENSIAL HERO ARCHETYPE

**Radjabova Madina Rakhim kizi,**

Bukhara State University PhD student

m.r.radjabova@buxdu.uz, madinaradjabova550@gmail.com

**Abstract.** Modern literature's typology of the existential hero is the subject of this thesis. The introduction delineates the emergence of existentialism as a philosophical and literary movement, emphasising its influence on character development. The methods section delineates the comparative and hermeneutic methodology employed to evaluate important texts by authors including Albert Camus, Jean-Paul Sartre, and Cormac McCarthy. The findings indicate that the existential hero is characterised by recurring characteristics, such as the pursuit of meaning in an indifferent universe, absurdity, freedom of choice, and alienation. The discussion places these discoveries within the broader framework of literary theory, demonstrating how existential heroes challenge conventional heroic ideals and reflect the crisis of modern identity. This research contributes to the comprehension of the existential hero as a unique literary archetype that is in alignment with current philosophical issues.

**Keywords:** Existentialism, hero archetype, absurdity, alienation, freedom of choice, meaning of life, modern literature, hermeneutic analysis, identity crisis, philosophical novel.

## ЭКЗИСТЕНЦИАЛЬНЫЙ АРХЕТИП ГЕРОЯ

**Аннотация.** Типология экзистенциального героя в современной литературе является предметом данного исследования. Введение описывает возникновение экзистенциализма как философского и литературного направления, подчёркивая его влияние на развитие персонажей. В разделе «Методы» описывается сравнительный и герменевтический подход, применённый для анализа ключевых текстов таких авторов, как Альбер Камю, Жан-Поль Сартр и Кормак Маккарти. Результаты показывают, что экзистенциальный герой характеризуется повторяющимися чертами, такими как поиск смысла в безразличной вселенной, абсурдность, свобода выбора и отчуждённость. Обсуждение помещает эти выводы в более широкий контекст литературной теории, демонстрируя, как экзистенциальные герои бросают вызов традиционным идеалам героизма и отражают кризис современной идентичности. Это исследование способствует пониманию экзистенциального героя как уникального литературного архетипа, соответствующего современным философским проблемам.

**Ключевые слова:** экзистенциализм, архетип героя, абсурдность, отчуждённость, свобода выбора, смысл жизни, современная литература, герменевтический анализ, кризис идентичности, философский роман.

## EKZISTENSIAL QAHRAMON ARXETIPI

**Annotatsiya.** Ushbu tadqiqot zamonaviy adabiyotdagi ekzistensial qahramon tipologiyasini o'rganishga bag'ishlangan. Kirish qismida ekzistensializmning falsafiy va adabiy oqim sifatida paydo bo'lishi hamda uning qahramon obrazini shakllantirishdagi ta'siri yoritiladi. «Metodlar» qismida Albert Kamyu, Jan-Pol Sartr va Kormak Makkarti kabi mualliflarning asarlarini tahlil qilish uchun qo'llanilgan qiyosiy va germevtik yondashuv tavsiflanadi. Tadqiqot natijalari ekzistensial qahramonning asosiy xususiyatlari — ma'nosiz olamda ma'no izlash, absurtlik, tanlov erkinligi va begonalashuv ekanligini ko'rsatadi. Munozara qismi ushbu topilmalarni adabiyot nazariyasi doirasida talqin qilinib, ekzistensial qahramonlar an'anaviy qahramonlik ideallariga qarshi turishi va zamonaviy identitet inqirozini aks ettirishi tushuntiriladi. Tadqiqot ekzistensial qahramonni bugungi falsafiy masalalarga mos keluvchi noyob badiiy arxetip sifatida tushunishga hissa qo'shadi.

**Kalit so'zlar:** ekzistensializm, qahramon arxetipi, absurdlik, begonalashuv, tanlov erkinligi, hayot ma'nosi, zamonaviy adabiyot, germevtik tahlil, identitet inqirozi, falsafiy roman.

**Introduction.** In contemporary literature, the existential hero is often regarded as one of the most thought-provoking and paradoxical protagonists currently in existence. Having sprung from the philosophical foundations of existentialism, this particular sort of hero exemplifies the conflict that exists

between human liberty and absurdity, as well as the quest for meaning in a universe that is emotionally uncaring. The concept that individuals are not born with predefined goals but rather must create meaning through their own choices is highlighted by the assertion made by Jean-Paul Sartre that "existence precedes essence" (Sartre, 1946). Through the twentieth century, this approach brought about a fundamental shift in the way literary characters were portrayed.

Albert Camus, a prominent practitioner in the field of existential philosophy, is credited with making the famous statement that "the absurd is born of this confrontation between the human need and the unreasonable silence of the world" (Camus, *The Myth of Sisyphus*, 1942). Camus is credited with making this statement. On account of the fact that they traverse a cosmos that is devoid of any fundamental value while simultaneously attempting to assert their identity, the characters of *The Stranger* (1942), such as Meursault, are a good example of this confrontation. These kinds of personalities take a stand against standard moral frameworks and call into question the expectations of society, therefore redefining what it means to make a heroic sacrifice.

Furthermore, the existential hero tends to struggle with feelings of alienation and solitude along their journey. It is demonstrated by Cormac McCarthy in his novel *The Road* (2006) that the protagonists live in a post-apocalyptic wasteland where traditional systems of belief have collapsed. This leaves the father and son to discover their own sense of purpose and moral code. Existential literature is responsible for exposing the precarious nature of human identity and critiquing the illusion of certainty through the use of these narratives.

Within the context of the larger conversation about contemporary literature and philosophical thinking, this introduction places the study in its proper context. The purpose of this research is to demonstrate how existential heroes challenge classic heroic archetypes and resonate with ongoing problems about human existence in a world that frequently appears to be ridiculously uncaring. This will be accomplished by analysing the recurring characteristics and narrative roles of various existential heroes.

**Methods and Methodology.** To investigate the various types of existential heroes that may be found in contemporary works of literature, this study makes use of a comparative and hermeneutic approach to research technique. According to Hans-Georg Gadamer, who stated that "understanding is not a procedure of reconstructing a meaning, but of integrating ourselves into the meaning" (*Truth and Method*, 1960), the methodological framework is founded on the principles of philosophical hermeneutics. These principles were proposed by Gadamer. A more in-depth investigation into the ways in which existential issues are woven into the formation of characters and the framework of the story is made possible by this technique. The research starts off with a qualitative textual examination of main literary works that are examples of existential heroes. These works are *The Stranger* (1942) by Albert Camus, *Nausea* (1938) by Jean-Paul Sartre, and *The Road* (2006) by Cormac McCarthy. The selection of these books was based on their philosophical significance as well as their depiction of protagonists who are forced to confront the ludicrous, go through the feeling of alienation, and traverse the contradiction of freedom and meaninglessness.

The application of comparative analysis is utilised in order to recognise recurrent themes, narrative tactics, and symbolic components that compose the existential hero archetype across a variety of cultural and historical contexts. An example of this would be the protagonist Meursault in *The Stranger*, who rejects established moral rules. This is a reiteration of Camus's statement that "There is but one truly serious philosophical problem, and that is suicide" (*The Myth of Sisyphus*, 1942). This dramatic encounter with the absurdity of life acts as a methodological lens through which other existential figures might be interpreted. In addition, the research makes use of intertextual analysis in order to establish the presence of philosophical concepts inside literary language. In her work published in 1967, Julia Kristeva introduced the concept of intertextuality, which emphasises the fact that writings are "a mosaic of quotations". This is especially important to keep in mind while discussing existential literature, which frequently involves the intersection of philosophical texts and fictional narratives. For example, the existential crises that are depicted in Sartre's novel *Nausea* are informed by his philosophical treatises, which blurs the barrier between philosophical discourse and the representation of characters.

In addition, features of comparative literature are incorporated into the process in order to place Western existential heroes in the same literary context as comparable people from other parts of the world. This approach from a cross-cultural perspective reveals universal characteristics, such as absurdity and alienation, while simultaneously acknowledging local subtleties that are moulded by historical and social situations.

This study not only deciphers the fundamental characteristics of the existential hero, but it also demonstrates how this figure continues to be relevant in addressing contemporary questions about freedom,

identity, and the search for meaning in a world that appears to be indifferent. This is accomplished by combining hermeneutics, intertextuality, and comparative analysis.

**Results and Discussion.** Based on the findings of the analysis, it has been determined that the existential hero is characterised by a collection of recurrent thematic characteristics and narrative functions that distinguish this archetype from the conventional heroic model. There is a persistent presence of absurdity and alienation as essential experiences that shape the existential hero's worldview. This is one of the most noteworthy results. In his work "The Myth of Sisyphus," published in 1942, Albert Camus makes the following assertion: "The absurd is born of this confrontation between the human need and the unreasonable silence of the outside world." It is this existential conflict that lays at the core of characters such as Meursault in *The Stranger* (1942), who comes to terms with the indifference of the cosmos and, as a result, becomes a symbol of genuine existence.

As the story progresses, the data indicate that the existential hero experiences the freedom of choice as both a burden and an energising force throughout the course of the narrative. Sartre's argument that "man is condemned to be free," which he asserted in his book *Existentialism is a Humanism* in 1946, is shown by characters who reject external moral authority and construct their own nature via action. This assertion was made by Sartre. This existential freedom is exemplified by Roquentin in his work titled "Nausea," which was completed in 1938. In this piece, Roquentin experiences nausea as a reaction to the realisation that meaning is not something that is given but rather something that must be generated. This aspect of great freedom emphasises the hero's sense of isolation, given that heroes usually defy social norms and expectations. In addition, the research shows that existential heroes commonly inhabit liminal areas, whether they be physical, psychological, or moral, which are reflective of their uncertain status. One example of this is found in the novel *The Road* (2006) written by Cormac McCarthy. The story follows a father and son as they travel across a post-apocalyptic environment in which old certainties have been destroyed. The existential conflict that arises from the conflict between hopelessness and the human desire to discover meaning is mirrored in the man's fight to protect his child while also questioning the validity of hope. The only thing that he was aware of was that the child was his warrant, as McCarthy says. In his words, "If he is not the word of God, then God has never spoken". (2006) This is *The Road*. The father is positioned as an existential hero in this uncertain faith, which was formed from a godless wasteland. The parent's morality is derived from personal responsibility rather than divine mandate.

The conversation also sheds attention on the fact that existential heroes frequently undermine traditional heroic goals, such as glory, sacrifice, or moral superiority through their actions. In contrast to the epic hero, who strives to achieve immortality via accomplishments of vast magnitude, the existential hero acknowledges that death and meaninglessness are unavoidable circumstances. The character of Sisyphus, as portrayed by Camus, serves as a striking metaphor for this subversion: "One must imagine Sisyphus happy" (*The Myth of Sisyphus*, 1942). In this context, enjoyment is not derived from victory but rather from the conscious acceptance of the ludicrous. This concept resonates with contemporary characters who accept the futility of their situation but continue to fight for it, discovering authenticity in their rebellion.

The concept of the existential hero as a literary device for investigating fundamental concerns about life is strengthened by the intertextual connections that exist between philosophical treatises and literary narratives. As a result of the way in which Sartre's philosophical books influence his fiction, Julia Kristeva's concept of intertextuality, which she describes as "a mosaic of quotations" (Kristeva, 1967), is readily apparent. There is a blurring of the line between philosophical argument and fictional portrayal in Roquentin's observations in *Nausea*, which echo Sartre's ontological discussions.

Furthermore, the comparative approach reveals that the existential hero shows itself differently in different civilisations. analogous figures can be found in other traditions that are struggling with colonialism, war, or cultural change. While Western existential heroes frequently originate in metropolitan contexts that are alienating, analogous figures can also be found in other traditions. Existential motifs, for instance, may be found in Dostoevsky's *Notes from Underground*. These patterns predict many characteristics of the existential hero of the twentieth century, including the feeling of profound solitude and the refusal to adapt to rational systems. The assertion made by the *Underground Man*, which is attributed to Dostoevsky in 1864, that "I am alone, and they are everyone" brings the individual's defiance against the concept of collective identity to the forefront.

In conclusion, the findings of this research demonstrate that the existential hero continues to be an important literary paradigm in modern narratives that deal with dilemmas pertaining to faith, identity, and the human condition. Despite the fact that mankind is confronted with new kinds of uncertainty, such as the disruption of technological systems, the collapse of ecological systems, and moral ambiguity, the existential hero continues to personify the battle for authenticity and freedom. The fact that this is the case implies that



the existential hero typology is not fixed but rather malleable, with the ability to represent the ever-evolving concerns that people have about the meaning of their lives in the twenty-first century. As a conclusion, the findings and the subsequent discussion demonstrate that the existential hero is a character that is paradoxical in nature: they are alienated yet free, ludicrous yet true, and tragic yet robust. The existential hero encourages readers to reconsider what it means to live a meaningful life in a world that does not provide any assurances by encouraging them to confront the indifferent cosmos without any illusions surrounding them.

**Conclusion.** Based on the findings of this study, it has been established that the existential hero continues to be one of the most intriguing and perplexing figures in contemporary literature. In the course of conducting a comparative and hermeneutic analysis of seminal works by Camus, Sartre, McCarthy, and other authors, it becomes evident that the existential hero typology is characterised by recurrent themes such as absurdity, freedom of choice, alienation, and the ongoing search for meaning in a universe that is perceived to be indifferent. The existential hero, in contrast to traditional heroes, who find their significance in external principles such as grandeur, duty, or divine justice, discovers significance via the individual deeds of self-definition and the purposeful fight against the ludicrous.

According to Camus's argument, "One must imagine Sisyphus happy," which suggests that human dignity is found in the brave acceptance of the futility of existence (*The Myth of Sisyphus*, 1942). This concept is resonant with modern individuals who, like McCarthy's father in *The Road*, who is not identified, discover moral responsibility not through absolute truths but rather through personal relationships and decisions in the face of despair. It is also demonstrated by the research that this typology may be adapted to a variety of historical and cultural settings, demonstrating that it is applicable to existential issues that are prevalent in the twenty-first century, such as identity crises, technological disruption, and moral ambiguity.

At the end of the day, the existential hero encourages readers to confront unsettling concerns like freedom, isolation, and the precarious nature of meaning itself. This archetype continues to inspire fresh interpretations because it embodies the tension between authenticity and alienation. It also serves as a reminder that the search for meaning is an ongoing struggle that is very human.

### REFERENCES:

1. Camus A. *The Myth of Sisyphus* / A. Camus. – London : Penguin Books, 1955. – 212 p.
2. Camus A. *The Stranger* / A. Camus. – New York : Vintage International, 1989. – 123 p.
3. Sartre J.-P. *Nausea* / J.-P. Sartre. – London: Penguin Modern Classics, 2007. – 178 p.
4. Sartre J.-P. *Existentialism is a Humanism* / J.-P. Sartre. – New Haven: Yale University Press, 2007. – 91 p.
5. McCarthy C. *The Road* / C. McCarthy. – New York: Vintage Books, 2006. – 287 p.
6. Dostoevsky F. *Notes from Underground* / F. Dostoevsky. – New York: Vintage Classics, 2009. – 131 p.
7. Gadamer H.-G. *Truth and Method* / H.-G. Gadamer. – London: Continuum, 2004. – 601 p.
8. Kristeva J. *Desire in Language: A Semiotic Approach to Literature and Art* / J. Kristeva. – New York: Columbia University Press, 1980. – 312 p.
9. Kierkegaard S. *Fear and Trembling* / S. Kierkegaard. – Princeton: Princeton University Press, 1983. – 160 p.
10. Sartre J.-P. *Being and Nothingness* / J.-P. Sartre. – New York: Philosophical Library, 1956. – 811 p.

### ISAJON SULTONNING "BO'RI" HIKOYASI TAHLILI

**Sadullayeva Moxira Atavullayevna,**  
Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti,  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori  
Sadullayevamohira59@gmail.com

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bugungi davr o'zbek hikoyachiligida ijod qilayotgan serqirra yozuvchilardan Isajon Sultonning badiiy mahorati, yozuvchi ijodiga xos bir tomondan, o'zbek realistik nasr an'analari, ikkinchi tomondan, jahon badiiy prozasi tajribalaridan oziqlanganlik, ularni milliy zaminda mahorat bilan uyg'unlashtira olganligi kabi masalalar yuzasidan qisqacha so'z yuritilgan. Isajon Sultonning "Bo'ri" hikoyasi orqali uning hayvonot olami haqidagi tasavvuri, inson, tabiat va hayvon munosabati, hikoyadagi bo'ri shaxsiy erk, ozodlik, istak ramzi ekanligi, uning o'ldirilishi inson istaklarining o'ldirilishi, yo'q qilinishiga ishora ekanligi hikoya tahlili davomida ochiqqlangan. Shuningdek, Isajon Sultonning ushbu hikoyasida oila, bola tashvishlari, ro'zg'or deb butun umr o'z istak-xohishlarini berkitib, ulardan vos kechib yashashga majbur bo'lgan oddiy insonlar hayotining achinarli qismati aks etganligi, inson va hayvon o'rtasidagi bog'liqlik va tafovut, mushtarakliklar haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** ruhiyat, psixologik talqin, majoziylik, badiiy psixologizm, syujet, obraz, obrazlilik, qahramon, talqin, tahlil, hikoya, muallif, metafora, ramziylik, majoz, poetik shakl, uslub, ziddiyat, zidlash va qiyoslash, proza, badiy ijod.

### АНАЛИЗ РАССКАЗА «ВОЛК» ИСАДЖОНА СУЛТАНА

**Аннотация.** В данной статье кратко рассматриваются такие вопросы, как художественное мастерство Исаджона Султана, одного из многогранных писателей, творящих в современной узбекской новеллистике. Освещается, как его творчество, с одной стороны, питается традициями узбекской реалистической прозы, а с другой - опытом мировой художественной прозы, и как он мастерски сочетает их на национальной почве. На примере рассказа Исаджона Султана «Волк» в ходе анализа раскрывается его представление о животном мире, отношениях человека, природы и животных. Показано, что волк в рассказе является символом личной свободы, воли и желания, а его убийство символизирует подавление и уничтожение человеческих стремлений. Также в этом рассказе Исаджона Султана отражена печальная судьба простых людей, вынужденных всю жизнь подавлять свои желания и отказываться от них ради семьи, забот о детях и домашнем хозяйстве. Рассматриваются связь, различия и общность между человеком и животным.

**Ключевые слова:** психика, психологическая интерпретация, метафоричность, художественный психологизм, сюжет, образ, образность, герой, интерпретация, анализ, рассказ, автор, метафора, символизм, аллегория, поэтическая форма, стиль, противоречие, противопоставление и сравнение, проза, художественное творчество.

### ANALYSIS OF THE STORY «THE WOLF» BY ISADJON SULTAN

**Abstract.** This article briefly discusses the artistic mastery of Isajon Sultan, one of the versatile writers in contemporary Uzbek short story writing. It explores how his work is nourished by the traditions of Uzbek realistic prose on one hand, and the experiences of world artistic prose on the other, as well as his ability to skillfully combine these influences in a national context. Through an analysis of Isajon Sultan's story "The Wolf," the article reveals his understanding of the animal world, the relationship between humans, nature, and animals, and how the wolf in the story symbolizes personal freedom, liberty, and desire. The killing of the wolf is interpreted as a metaphor for the suppression and destruction of human desires. Additionally, the story reflects the poignant fate of ordinary people who are forced to conceal and abandon their desires throughout their lives for the sake of family, children's concerns, and household responsibilities. The article also discusses the connections, differences, and commonalities between humans and animals as portrayed in the story.

**Keywords:** psyche, psychological interpretation, metaphor, artistic psychologism, plot, image, imagery, hero, interpretation, analysis, story, author, metaphor, symbolism, metaphor, poetic form, style, contradiction, contrast and comparison, prose, artistic creation.

**Kirish.** Bugungi davr o'zbek hikoyachiligida ijod qilayotgan serqirra yozuvchilardan biri, shubhasiz, Isajon Sulton. Yozuvchi ijodi, bir tomondan, o'zbek realistik nasr an'analaridan, ikkinchi tomondan, jahon badiiy prozasi tajribalaridan oziqlanadi va ularni milliy zaminda mahorat bilan uyg'unlashtira oladi. Isajon Sulton istiqloq yillaridagi badiiy ijodda o'z o'rniga ega bo'ldi, adabiy-ilmiy jamoatchilik nazariga tushdi, hikoyalaridan namunalar "XX asr o'zbek hikoyachiligi antologiyasi"ga kiritildi. Adib hikoya va romanlari xususida A.Rasulov, Q.Yo'ldoshev, I.G'afurov, R.Rahmat, G.Sattorova, M.Qo'chqorova, P.Kenjayevalar ba'zi fikrlarini bildirib o'tganlar. Adib hikoya, qissa va romanlari mavzu, ifoda va tasvir jihatdan o'ziga xos bo'lib, ularning boshqalarga deyarlik o'xshamagan jihatlari ham yo'q emas. Buni, xususan, asardagi obraz yaratish, psixologik talqin, sujet qurilishi, badiiy tildan foydalanishdagi yangicha yondashuvlarda ko'ramiz.

**Mavzuga doir adabiyotlar tahlili.** Bugungi o'zbek nasrining yetakchi janrlaridan biri bo'lgan-hikoya janrining imkoniyatlari nihoyatda keng. Hikoya uchun voqeani quruqdan quruq so'zlab berish emas, balki obrazlar, ramzlar, badiiy detallar vositasi xarakter yaratish muhimdir. Badiiy asarlarning bosh qahramonlari, odatda, oliy hilqat bo'lgan – Inson obrazidir. Inson cheksiz koinotga hayrat bilan qaraydi, muhabbatdan mast yuradi, xiyonatdan azob chekadi, tirikchilik tashvishlariga komiladi, hayot va o'lim mohiyatiga yetishni istaydi. Badiiy adabiyotda inson tabiati va ruhiyatiga tegishli bunday azaliy hamda adabiy kayfiyat mavzulari hikoyada mo'jizaviy tarzda, o'ziga xos ravishda aks ettirilishi lozim. Hikoya inson tafakkuriga bir zarb bilan tezda muhrlanadigan, go'zal poetik shakl ko'rinishiga ega adabiy hodisa sanaladi. Istiqloq yillarida Isajon Sulton hikoya janrida ancha tajriba orttirdi. Adibning "Qismat" hikoyasi AQSHning Chikago shahrida o'tkazilgan xalqaro adabiy tanlov g'olibi bo'lgan va 2011-yilda jahonning o'nta yetuk hikoyachisi qatoridan o'rin olgan.

Yozuvchi hikoyalarida badiiy niyati va g'oyasini ifoda etishda hayvon obrazlaridan, ayniqsa, it va bo'ri obrazlariga murojaat qilinadi. Aynan nima maqsadda aynan shu hayvonlarga. Buning ham o'z faktorlari mavjud. Bir tomondan, it vafodorlik va sadoqat ramzi bo'lsa, bo'ri, o'zbek xalqining mard yigitlariga qiyos etiladi. Jumladan, yozuvchining "Bo'ri" hikoyasi syujeti ham o'ziga xos tarzda bo'lib, undagi "bo'ri" obrazi muallif g'oyasining asosini tashkil qiladi. Aslida, hikoyanavis juda qadimdan mavjud bo'lgan obrazni, bugungi kun nuqtai nazardan yangicha uslub va o'ziga xos ifoda tusini bergan. Isajon Sulton mazkur hikoyasida erkinlikni qo'msovchi erkak va bo'ri obrazlarini bir-biriga zidlash va qiyoslash orqali ular ruhiyatidagi mushtaraklikni falsafiy talqin qilish orqali zulm ko'rgan, jaholatda ezilgan inson qiyofasini ko'rish mumkin. Ushbu hikoyada bo'ri va inson o'rtasidagi bog'liqlik hamda tafovut bir qishloq kishisi tomonidan ko'rsatib beriladi. Hikoya syujeti bir bolaning asar qahramoniga *"kimsasiz dalalarda gala-gala bo'lib izg'igan daydi itlarni bo'ri deb o'ylaganini gapirib bergan"* bilan boshlanadi. Aynan mana shu voqea roviyning yoshlik xotiralarini esga solishiga turtki beradi. Hikoya boshdan-oyoq ruhiy tasvirlar bilan hikoya qilinadi. U vahshiy hayvonlar haqidagi tasavvurlarini kitobxonga so'zlab bergach, hayoti davomida bir necha bor "bo'ri"ga duch kelganini, ularning aqlli, xuddi insonlarday oila qurishini va umrining oxirigacha uni va o'z chegaralarini saqlashini aytadi. Asar qahramoni ilk bora bo'riga duch kelganida uni kuchuk bolasi deb o'ylaydi, u bilan o'ynashadi, dala-to'qayda yugurib bir-birlariga bir olam quvonch baxshida etadilar. Bola otasi bilan ketmon chopishga kelgan bo'ladi, bu voqeani otasiga gapirib berganidan so'ng butun qishloq ahli sergak tortib o'z oilasi va chorvalarini qo'riqlab chiqadigan bo'lishadi, ammo bo'ri keyinchalik ko'rinmaydi. O'sha payti bo'ri bolasini sal nariroqda otasi kuzatib turgan, ammo bolasini yoniga chorlagan ko'yi bolaga hamla qilmagan, qandaydir viqor bilan ikkita go'dakni kuzatib turgan edi. Ota bola va ota bola bo'rilar obrazlarini keltirish orqali Isajon Sulton butun hikoyaning mazmun-mohiyatini tashuvchi g'oyaga tamal toshini qo'yadi. Chunki asarda qahramon va insonlar ruhiyati bilan bo'rilar ruhiyatidagi yaqinlikni ilg'ab olish mumkin. Bo'ri bolasi va bolakay ular bir-birlarining "vahshiy" ekanliklarini bilmagan holatda hayotdan zavq olib o'ynab-kulishadi, ammo asar oxiriga kelib hayot ularni ham ota va ota bo'ri qiyofasiga soladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** "Yillar o'tdi, otam qartaydi, men esa er yetildim. Hayot shavqi qonimni qizdirar bo'ldi"[4;201]. O'sha bo'ri bolasi bilan sho'xlik qilgan, yugurib-yelgan bolakay endi ancha kattayib qoladi, uni har qanday "bo'rilar vahmidan" qo'riqlab kelayotgan ota esa qarib qoladi. *"O'sha mahallar, vaqt-soati kelib bir ro'zg'or quraman, bir-biridan sho'x bolalarim bo'ladi, el-yurt qatori birovdan kam, birovdan ko'p, ammo baxtiyor hayot kechiraman degan ishonchim dilimda mustahkam edi. Vaqti kelib, hayotimda bir tartib o'rnataman, otam qilgan xatolarni men takrorlamayman deb o'ylardim-da. Balki otam ham men singari turli-tuman xayoliy rejalar tuzgandir-u hayot mashaqqatlari u rejalarining amalga oshishiga yo'l qo'ymagandir? Kimdir ozorlaganida uyimizning ayvonida hammamizni chaqirib bag'riga bosganlari, "shu bolalarimdan boshqa hech kimim yo'q" deb o'ksinganlari esimda. Esimda nimasi, goh-goh to'satdan shuurimga qalqib chiqadi, bot-bot shuni o'ylab ham ketaman. Tegrada odam ko'p, qavm-u qarindoshlar ham o'ziga hollaricha kelib xabar olib turishibdi, nimaga otam "Bolalarimdan boshqa suyanchig'im yo'q" deb ozorlangan ekan deya, sababini topishga urinaman"*[4;203]. Mazkur parchada

qahramonning, umuman olganda, butun insoniyatning yashash uchun maqsadi nima ekanligi ayon bo'ladi. Chunki inson dunyoga kelibdiki, yaxshi nasl qoldirish, ularni oq yuvib oq tarash ilinjida o'zini o'qqa cho'qqa urib hayot bilan olishib keladi, xuddi och bo'ri misoli o'zining rizqini hech kimga bermay ular bilan kurashadi. Hikoyachining hayot shavqi to'lib toshgan damlari hammasini "boshqacha" qilish fikri asta-sekin so'na boshlaydi, go'yo hayot uni o'z girdobiga sudrab borayotgandek....

Shu bilan qahramon ham bola-chaqa boqish, ro'zg'or tashvishi bilan hayot kechira boshlaydi, qish qattiq kelgani uchun yaxshi o'tin g'amlay olmaganidan so'ng, to'qayga saksovuллarni terish uchun boradi va o'sha joyda umrida yana bir marta bo'riga duch keladi, u endi boshqacha bo'ri edi, bolaligida ko'rgan o'sha o'yinqaroq bo'ri bolasimi yoki boshqami bilmaydi, ammo o'sha paytda unda paydo bo'lmagan qo'rqinch hissi, ko'ksida qandaydir qoramtir jarohati bo'lgan, o'tkir nigohini bir daqiqa ham odamdan uzmay qarayotgan, ro'parasida turgan bo'rini ko'rganida paydo bo'ladi, u o'ylaydi hozir oldinga bir qadam tashlasam u mening bo'ynimga yopishadi, har qalay qo'limda oy boltam bor, u juda o'tkir deya o'ziga o'zi tasalli berib sekin bo'ridan uzoqlasha boshlaydi, shu payt uzqodan boshqa bir bo'ring uvlagani eshitaladi va qarshisida turgan vahshiy o'sha tomonga yugurib ketadi. Bo'ring odamga qaratilgan nigohidagi shiddat tovush kelganidan so'ng yo'qoladi. Shundan so'ng, qahramon shunday xayolga boradi: *"Har holda, u yerda bir oila yashar, erkak bo'ri esa mening, ya'ni cho'l bag'rida o'zicha kuymalanib o'tin to'plab yurgan odamning qiyofasidagi xatarni sezib, yo'l yoqasiga bola-chaqasini himoya qilgani chiqqanga o'xshaydi"*[4;203]. Bu bilan yozuvchi badiiy niyatini biroz bo'lsada anglash mumkin. Ya'ni hikoya qahramoni va bo'ri ikkalasi ham hozirda bir xil pozitsiyada, ikkalasining ham boshiga oila tashvishi tushgan. Shuning uchun qahramon ruhiyati bo'ri obrazi orqali ochib beriladi. Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, ayrim ma'lumotlarga qaraganda, hayvonlar orasida faqat bo'ridagina oilaga sadoqat hissi xuddi odamlar singari bor bo'lib, ular o'z juftini, bolalarini umrining oxiriga qadar himoya qilar ekanlar.

Asar voqealari qishloq va undagi odamlar qiyofasini tasviri bilan davom etadi, qish qattiq kelgani uchun bo'ri yemish izlab qishloqqa oralab qolishi mumkin deb o'ylab hamma erkaklar miltiq, bolta va shu kabi qurollarni olib navbatchilik qilishadi. *"Yo'qsa, hatto, shunday kuchli hayvon ham inson ko'zidan qo'rqadi, tik qaray olmaydi, odamlardan nari yurishga urinadi"*[4;204]. Xo'sh shu o'rinda savol tug'iladi, nima uchun hatto, bo'ri ham insonlar ko'ziga tik qarashdan qo'rqishi mumkin? Chunki yer yuzida jamiki jonzotlar ichida eng mehriboni ham eng yovuзи ham inson ekanligi ayni haqiqat. Shunday insonlar bor ulardan jannat ifori anqib turadi go'yo, ammo shunday insonlar borki ular (tarixiy manbalardagi ma'lumotlarga asosan) butun yer yuziga o't qo'yishdek vahshiyliklarni hech o'ylanmay o'z qo'li bilan amalga oshiradi.

*"Kunlar-oylar o'tar, bolalar ulg'ayar edilar. Turmush qiyin, urinib-tirishmasang sira bo'lmaydi. Bola-chaqa boqish, katta qilish osonmi? Ota olamdan o'tgan, ona kasal, bolalar ulg'aygan, yolg'iz o'zim urinib-tirishaman. Yonimga kiradigan, hamdard bo'ladigan biron kimsa yo'q. Tashvishim shu qadar ko'pki, qaylargadir bosh olib ketgim keladi. Ha, qaylardadir, uzoq-uzoqlarda bepoyon dashtlar bor. Hozir u yerlardagi butalarni ham oppoq bulduruqlar qoplagandir?"*[4;204] Aynan mana shu jumlar orqali qahramonning ruhiy kechinmalarini anglab olish mumkin. U juda charchagan edi... Nimadan? Tashvishlardan, insonni siqib qo'yadigan qoliplardan. Ota olamdan o'tgan, ona kasal, bolalar ulg'aygan... yonimda hamdard kimsa yo'q... Bu holat har bir o'quvchini chuqur mulohaza qilishga undaydi, oqibatda, qaddi bukilgan, ruhan charchagan ota obrazi ko'z oldimizda, butun sezgilarimiz ko'zgusida mutlaq namoyon bo'ladi. Bir narsa qahramonni o'ylantiradi, o'sha narsa uning ichidagi yovvoyi tug'yonlariga suv sepayotganday edi, bu narsa - otalik burchi. *"Nega uni vahshiy deb o'ylamasligim o'zimni hayratga soladi. Balki, bolaligimda beozor o'ynaganim uchunmi? Yoxud qay bir jihatlarimda o'zimni shu vahshiyga tenglashtirganim uchunmi?"*[4;205] Tugun yechildi... Qahramon o'zini bo'risifat ekanligini "tan oldi", nazarimda... Hikoya yana ruhiy kechinmalar bayoni bilan davom etadi. Asar qahrammoni o'zini bo'ri singari ov talashishlari, rizqini tortib olmoqchi bo'lgan odamlar bilan, hatto, urishganlarini eslaydi, o'zini hech yengilmas irodali inson sifatida ko'radi. Shundan so'ng "ikki oila boshlig'i" yana bir-birlariga duch keladilar. Shu tariqa ular yana to'qnashadilar, bu safar uning qo'lida oyboltasi bo'lmasa ham endi u bo'ridan qo'rqmaydi unga mag'rur qaray oladi, bu qismat qiyinchiliklarida toblangan metin irodaning kuchi edi...

*"Bo'ri-ku o'z yo'liga, ammo men insonman-ku? Tegramdagilar ham insonlar-ku? Nima uchun hududimni belgilab olishim, begona kirib kelishiga yo'l qo'ymasligim, nima uchun rizqimni talashib-tortishib topishim kerak? Uyim, dasturxonim doimo ochiq, birov kirib kelsa xushhollik bilan oldiga topgan-tutganimni qo'yaman, goh mo'l-ko'l, goh oz bo'ladi. Shu odam meni yo'qlab kelganidan boshim ko'kka yetadi. Ha, bir qarashda g'aribonman, bir qarashda kichik ko'ngilman, el qatori rizqini topib-tutib, el qatori bola-chaqasini katta qilayotgan bir mardumi musulmonman"*[4;205]. Qahramonning dilidagi bu gaplar, ruhiyatidagi g'alayonlar butun insonlarga hayqiriq edi, ya'ni "Hoy, insonlar, nima uchun hudud talashasizlar,



bu dunyo ne`matlari hammaga yetarli-ku, rizqni Olloh berguvchi, talashib tortishmasdan buni hal qilsa ham bo`ladiku?!”

“*Qishlog`im juda chetda, elektr ham tuzuk-quruq kelmagan, shamollarda, yomg`irlarda o`chib qoladi. Yozda hamma o`z tashvishi bilan ovora, qishda esa yumushlar bir oz kamayadi, shunda to`n kiygan, belbog` o`ragan kishilar ko`chalarda to`p-to`p to`planishadi*”[4;206]. Bu yerda yozuvchi to`p-to`p kishilarni yuqorida qishda to`da-to`da bo`lib yuruvchi bo`rilarga qiyos etmoqchi bo`lganday. Shundan so`ng qishloq ahlining kundalik hayotidan bir parcha beriladi, antenna yaxshi ishlamagni uchun kimdir uni to`g`irlayotgani tasviri va televizorda kino ko`rish uchun butun qishloq ahli to`planganini tasvirlab beradi. “U kino urushda fashistlar qo`liga tushib qolgan kishi haqida. Har yili ikki-uch marta ko`rsatiladi, voqea Polshada ro`y beradi, nimagadir qishlog`imning kishilariga o`sha kinoning voqealari ma`qul kelib qolgan. Fashist zobiti asirga bir stakan to`ldirib aroq quyib beradi. Asir och, ammo mag`rur. Aroqni bir simirishda ichadi, ustiga-ustak “Men birinchisidan keyin gazak qilmayman”[4;206] deydi xo`mrayib”. Ushbu kino detalini ham yozuvchi bejiz qo`llamagan, “Men birinchisidan keyin gazak qilmayman” so`zi qishloq ichuvchilari orasida “trend” ga aylanib ketadi. Shundan so`ng kimdir bo`ri qishloqqa orolab qolgani haqidagi xabarni olib keladi. Hamma “yovni daf qilish” uchun qurollarini olib o`sha tomonga ketishadi va oxir-oqibatda, bo`rini terisini shilib tirnog`ini sug`urib olib “o`z g`alabasidan xursand” bo`lgan odamlar qishloqqa qaytib kelishadi. Bu voqeani o`z ko`zi bilan ko`rgan hikoya qahramoni tuni bilan uxlamay chiqadi, o`sha odamlar qo`lida jon bergan bo`ri bolasini o`ylab uh tortadi. “*Shundan keyin to`liqib-to`liqib rosa gapiribman. Bilasanmi, ichimda bir bo`ri bor, debman. Meni ko`cha-ko`yda indamas, yuvosh bir odam bo`lib yurishimga qarama. Umrim bo`yi o`sha bo`ri tashqariga chiqib ketmasin deb urinib keldim. Endi esa, hech bo`lmasa shu kecha qorong`isida, hamma uxlab dong qotib yotgan mahalda oyga qarab bir martagina bo`lsin cho`zib-cho`zib uvillasam bo`lmaydimi axir, dermishman...*”[4;206]. Qahramonning ichidagi bo`risi bu voqeadan keyin uyg`onadi, ertasiga esa bu gaplarni xotinidan eshitganidan so`ng, uyalganidan “bo`lmagan gap” deb qo`ya qoladi. Odamlar qo`lida jon bergan bo`ri va kinodagi fashistlar qo`liga tushgan odam o`rtasidagi bog`liqlik borligi ma`lum bo`ladi. Bu ikki manzara bir-biriga taqqoslansa, aslida insonlar vahshiy maxluq ekanligi o`z isbotin topadi.

**Natija va muhokama.** Mazkur hikoya borasida yana ko`plab fikrlarni “kashf etish” mumkin, ammo quyidagicha xulosa yasash ham yetarlidir: Turkiy xalqlarda qadimdan Bo`ri kulti e`zozlanib kelinadi. “Bo`ri totemi” tushunchasi bizning adabiyotimizga ham asosiy motiv sifatida kiritiladi. Chunki bo`ri turkiylar xarakterida namoyon bo`luvchi shiddat, erkinlik, ozodlik, vafodorlik kabi xislatlarga ega jonzot hisoblanadi. Ushbu hikoyada ham aynan qahramon ruhiyati bilan bevosita bog`liqdir. Isajon Sulton ko`pgina asarlariga “Bo`ri” obrazini kiritgan. Ushbu hikoyalarda ko`pincha bo`rining “yaxshi” fazilatlarini tilga olinadi va shu bilan birgalikda uning “vahshiy” jihati bilan zid qo`yiladi. Yuqorida biz tahlil qilgan hikoyada ham aynan, shunday qarama-qarshilik ko`rsatib berilgan. Aslida insonlar bo`rilarni “vahshiy qonxo`r” o`ljasini mahf etmaguncha tinchimaydi deb hisoblaydilar, ammo o`zlari ularning terilarini shilib “omad keltiradi” qabilida tirnoqlarini ostonaga ilib qo`yishadi. Hikoyada ham bo`rining qishloqqa ziyon keltirishidan cho`chigan olomon bo`ri bolasini o`ldirib, aynan shu ishni qiladilar, asar qahramoni ichidagi “bo`ri”si shu onda ruhan yaralanadi. Shu o`rinda bitta savol tug`iladi, bunday vaziyatda kim “vahshiy” bo`rimi yoki uni tirnog`ini uyiga osib qo`yadigan odamlarmi? Bo`rilar ham xuddi insonlar singari o`z oilasini, shaxsiy hududlarini juda yaxshi himoya qiladilar, balki ular ham odamlarni “juda vahshiy” deb bilishar. Hikoyada ichida bo`rini turmush sabab ichiga qamab qo`ygan ota va oilasini odamlardan, ochlikdan himoya qilib yurgan erkak bo`ri ruhiyatlari juda bir-biriga yaqin qilib tasvirlanadi. O`sha erkak bo`ri va ota gardaniga oila yuki tushmasdan oldin qanday sho`x, erkin va mustaqil bo`lganliklari hikoya ibtidosida bo`ri va dehqon otaning bolalari bir-biri bilan mazza qilib, bolalalik gashtini surib o`tloqda chopqillashayotgan paytida sezishimiz mumkin.

**Xulosa.** Umuman aytganda, har bir inson erkin va mustaqil, hech qanday qoidalarga bo`ysunmasdan yashashni, “o`tloq” da to`yib-to`yib nafas olishni xohlaydi, ammo hayot bu xayollarni qoqio`t guliday har yonga to`zg`itib tashlaydi... Ko`rinadiki, hikoya syujeti bir qaraganda sodda, jo`n tuyilishi mumkin. Ammo uning qat-qatiga singgan ma`nolarni anglagan sari hikoya bir insonning erki, ozodlik istashi haqida yozilgandek. Yillar davomida qalbining to`rida berkitib kelgan his-kechinmalari haqida, erkinlik, ozodlik sog`inchi haqda. “Oyga qarab uvillagim kelyapti, xotin, – debman. Shundan keyin to`liqib-to`liqib rosa gapiribman. Bilasanmi, ichimda bir bo`ri bor, debman. Meni ko`cha-ko`yda indamas, yuvosh bir odam bo`lib yurishimga qarama. Umrim bo`yi o`sha bo`ri tashqariga chiqib ketmasin deb urinib keldim. Endi esa, hech bo`lmasa shu kecha qorong`usida, hamma uxlab dong qotib yotgan mahalda oyga qarab bir martagina bo`lsin cho`zib-cho`zib uvillasam bo`lmaydimi axir, dermishman...”[5;19]. Mazkur hikoyadan keltirilgan parchaga e`tibor qilsangiz, uning ichidagi bo`ri ramziy ma`noda shaxsiy erk, ozodlik, istakdir. Qishloqdagi odamlar bo`rini bolasini o`ldirishganda ota xuddi o`zi tilka-pora bo`ladi, o`lib tiriladi. Nima uchu? Bu ham bejiz emas. Majoziy ma`noda uning istaklari o`ldirildi, yo`q qilindi. Qisqa qilib aytganda, Isajon Sultonning ushbu

hikoyasida oila, bola tashvishlari, ro'zg'or deb butun umr o'z istak-xohishlarini berkitib, ulardan vos kechib yashashga majbur bo'lgan oddiy insonlar hayotining achinarli qismati aks etgan deyish mumkin.

### ADABIYOTLAR:

1. *Ғафуров И. Ёзувчи, табиат, табиёт // Исажон Султон насри бадийяти. –Тошкент. “Турон замин зиё”, 2017.19 б.*
2. *Boltaboyev H. Istiqlol imkoniyatlari: yangilangan an'analar va postmodernizm. Qarang: mustaqillik davri adabiyoti. –T., G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. 238-bet.*
3. *Xolbekov M. XX asr modern adabiyoti. Maqolalar to'plami. –T., "Mumtoz so'z", 2012. 18-19-betlar.*
4. *Султон И. Асарлар. Ҳикоялар. 2 жилд. «Бози Эрам» тўплами. Т.: Ғафур Ғулом. 201-б.*
5. *Sulton I. Bo'ri. Guliston, 2014. 5-son, 19-bet.*

## PAHLAVONQULI RAVNAQ QASIDASIDA CHARX MASALASI

*Xasanova Mashxura Jumanovna,  
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand  
davlat universiteti dotsenti, DSc doktoranti  
[ikaroy1984@gmail.com](mailto:ikaroy1984@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Pahlavonquli Ravnaqning dunyo mavzusidagi "nedur" radifli qasidasi g'oyaviy-badiiy tahlil etilgan. Ravnaq o'z qasidasida dunyoning olimga, donoga, suxandonga, pokizaga, mardga, kamol ahliga, rasolarga, tuz-to'g'rilarga, donish ahliga, yaxshilarga, fazl ahliga, ishga yaraydigan elga teskari yurib, johilni, nodonni, nomardni, norasolarni, egrilarni, yomonlarni, xiyonatgarni, laimni, ablahni, yer bilan ko'kning farqiga bormaydigan, nonko'rni, nokasni qo'llab-quvvatlab, qo'lini baland qilib, boshini ko'kka yetkazishidan noliganini bayon etadi. Maqola muallifi shoir dunyoning bori adolatsizlik asosiga qurilganidan shikoyat etib, qasida so'ngida bularning hammasi taqdiridan ekanini, ortiqcha so'z so'zlamasdan, tavba qilishini o'ziga uqtirganini yozadi. Pahlavonquli Ravnaqning dunyo borasidagi qarashlari qasidasi misolida bandma-band tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** dunyo, sharq she'riyati, tasavvuf, o'zlikni anglash, Pahlavonquli Ravnaq, Xiva, ta'rix, qasida, tazod.

## ПРОБЛЕМА МИРОЗДАНИЯ В КАСЫДЕ ПАХЛАВОНКУЛИ РАВНАКА

**Аннотация.** В данной статье представлен идейно-художественный анализ касыды Пахлавонкули Равнака на тему мироздания с редифом «недур». В своей касыде Равнак выражает сожаление о том, что мир противостоит учёным, мудрецам, красноречивым, чистым душой, смелым, совершенным людям, праведникам, честным, мудрым, добрым и добродетельным людям, а также тем, кто способен трудиться. Вместо этого мир поддерживает невежд, глупцов, трусов, несовершеннолетних, лживых, злых, предателей, подлецов, негодяев, тех, кто не отличает землю от неба, неблагодарных и никчёмных, возвышая их и вознося до небес. Автор статьи отмечает, что поэт жалуется на несправедливость, лежащую в основе мироустройства, но в конце касыды приходит к выводу, что все это предопределено судьбой, и призывает себя к покаянию, не произнося лишних слов. Взгляды Пахлавонкули Равнака на мироздание анализируются на примере касыды, строфа за строфой.

**Ключевые слова:** мироздание, восточная поэзия, суфизм, самопознание, Пахлавонкули Равнак, Хива, история, касыда, антитеза.

## THE PROBLEM OF CREATION IN PAKHLAVONKULI RAVNAQ'S QASIDA

**Abstract.** This article presents an ideological and artistic analysis of Pahlavonquli Ravnaq's qasida on the theme of creation with the redif "nedur" ("what is"). In his qasida, Ravnaq expresses regret that the world opposes scholars, sages, the eloquent, the pure of heart, the brave, the perfect, the righteous, the honest, the wise, the kind and the virtuous, as well as those capable of labor. Instead, the world supports the ignorant, the foolish, the cowardly, the imperfect, the deceitful, the wicked, traitors, villains, scoundrels, those who cannot distinguish earth from sky, the ungrateful and the worthless, elevating them to the heavens. The author of the article notes that the poet laments the injustice underlying the world order, but at the end of the qasida concludes that all this is predetermined by fate and calls himself to repentance without uttering unnecessary words. Pahlavonquli Ravnaq's views on creation are analyzed using the qasida as an example, stanza by stanza.

**Keywords:** creation, Eastern poetry, Sufism, self-knowledge, Pahlavonquli Ravnaq, Khiva, history, qasida, antithesis.

**Kirish.** Pahlavonquli Ravnaq XVIII asr o'zbek adabiyotining iste'dodli namoyandaligidan biridir. Ravnaq she'rlaridan namunalarning hayot davrida va undan keyin Xorazmda tuzilgan «Bayozi mutaffariqa», «Bayozi muxammasot» kabi majmualarga kiritilgan. Shermuhammad Munis esa o'zining «Firdavs ul-iqbol» tarixiy-badiiy xronikasida Ravnaqni o'z davrining mavlonalaridan biri sifatida ta'riflab,

uning Xorazm hukmdori Temurg'ozixon ibn Muhammad Rahim sulton vafoti munosabati bilan yozgan marsiyasidan parcha keltiradi:

Shah Temurg'oz jahondin borg'ach,  
Bo'ldi ta'rix anga "xurshid janob" [8, 106].

Bugungi kunda uning 258 g'azalni, 22 muxammasni, 5 qasidasini va bir mustazodini o'z ichiga olgan, umumiy hajmi 5251 misradan iborat 286 she'ri o'rin olgan devoni ham topilib, akad. V.A. Abdullayev va O. Rasulovalar tomonidan ilmiy muomalaga tortilgan. Devondagi she'rlardan namunalar «O'zbek adabiyoti» 5 tomlik majmuasining 5-jild, 1-kitobiga (1966 yil, 163-200 betlar) kiritilgan.

Pahlavonquli Ravnaq Xivadagi Sherg'ozixon madrasasida o'qigan. Dastlab Xiva xoni Abulg'oz Soniy (1742—47)ni maqtab she'rlar yozgan.

1768 - yilda taxtga o'tirgan G'oyibxon ta'qibidan qochib, bir necha yil sarson-sargardonlikda yurgan. So'ng Xiva madrasalaridan birining hujrasida faqirlikda hayot kechirgan. O'zbek, fors va arab tillarida, asosan, lirik janrlarda ijod qilgan. «Devoni Ravnaq» nomli qo'lyozmasi O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutida 922-I raqami ostida saqlanadi<sup>1</sup>. Ravnaqning "nedur" radifli qasidasi an'anaviy madh qasidalaridan farqli o'laroq dunyo-charxdan shikoyat ruhida yozilgan. U sitamkor dunyoning javri, zulmi haqidagi quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Muncha javring degil, ey charxi sitamkor, nedur,  
Har ne etmak bu qadar zulm padidor, nedur [1,77b].

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Dunyo – charx mavzusi mumtoz sharq she'riyatida, islomdan oziq olgan tasavvuf adabiyotida keng ishlangan mavzulardan sanaladi. Dunyo masalasiga ikki xil qarash bor: birinchi qarash, Tangri taolo dunyoni inson tufayli bino etgan. Undagi bor ashyo – tajalliy. Odam farzandlari dunyoda o'zlarini topmoq uchun yashaydilar.

Ikkinchi qarash, dunyo zindon. Dunyoga aldanib qolish, unga berilish insoniylikdan chiqaradi. Dunyo hayoti Tangri Taolo qoshida arzimasi bir matoh ekanligi borasida ko'plab oyatlar nozil bo'lgan. Payg'ambarimiz (s.a.v)dan ham bu borada ko'plab hadislar rivoyat qilingan. Xususan, Termiziy rivoyat qilgan Sahl ibn Sa'd roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda: «Nabiy sollallohu alayhi vasallam: «Agar Allohning nazdida dunyo chivinning qanotichalik qimmatga ega bo'lganida, kofirga undan bir ho'plam suv ham bermas edi», dedilar».

Shuning uchun ham Alloh taolo O'ziga kufr keltirgan kofirlarga ham bu dunyo ne'matlarini beraveradi. Agar dunyo Alloh taoloning nazdida biror qimmatga ega bo'lganida, undan kofirga hech narsa bermas edi (5, 17).

Dunyoning Yaratuvchi va Odam bolasi o'rtasidagi to'siq ekani tan olingan holda inson zoti o'zini yaratgan Zotni bilishi, uning mo'jizalarini anglashi uchun dunyoni bilishi zarur. Zero, Professor N.Komilov ta'kidlaganlaridek "...tashqi dunyo va undagi narsalar mohiyat emas, balki hodisadir. Mohiyat — ruhi mutlaq yoki orif ko'nglidagi ma'rifat. Ayni vaqtda, moddiy dunyo — shakl, ruh esa — mazmun. Inson hodisa va shakllarga mahliyo bo'lmasligi kerak, uning maqsadi va vazifasi mohiyat-mazmunni bilishga qarab borish. Demak, tasavvufda dunyo Mutlaq ruh bilan inson orasida to'siq deb hisoblansa-da, biroq baribir, dunyoni bilish shart qilib qo'yilgan, dunyoni bilmasdan turib, mohiyatni (haqni) idrok etish mumkin emasligi tan olingan"[9].

Shuning uchun tasavvuf ta'limotidagi dunyoni buyuk Yaratuvchidan to'suvchi mavjudlik deb qarash, unga berilib ketmaslik, Allohga yetish uchun undan qutulish kerakligini uqtirish, dunyo uchun g'am chekmaslik motivlari adabiyotga ham ilhom baxsh etgan. Xususan, dunyoga zindon sifatida qarash Alisher Navoiyning Suqrot tilidan bayon etilgan quyidagi baytlarda ham yorqin ifoda etilgan:

Muni bilkim, jahon foniydur asru,  
Haqiqat ahli zindoniydur asru.  
Agar topsa Skandar mulki zoting,  
Gar o'lsa Nuh umricha hayoting [3, 137].

(Agar zoting Iskandarning mulkicha mulk topib, Nuhning umricha yashasang ham, bu jahon foniydur. Haqiqat ahli esa zindoniydur). Haqiqat ahli – Haq ahli, ishq ilohiydan nasibador bo'lganlar uchun bu olam bir zindonday gap.

<sup>1</sup> Xiva xoni Muhammad Rahimxon II talabi bilan 1903-yilda Muhammad Ya'qub ibn usta Qurbonniyoz Xorazmiy tomonidan nasta'liqda qaymoqrang Qo'qon qog'oziga ko'chirilgan. Qo'lyozmada kotib "Alhamdulillah val minna hazrat Sulton uz-zamon va nodir ul-davron bois al-amn val omon al-xoqon ibnil xoqon Abulmuzaffar val mansur Abulg'oziy Sayyid Muhammad Rahim bahodirxoni soniy xullidallohu mulkahu va davlatahu. Ul janobi oliyning farmoni oliylari mavjincha bu faqir ul-haqir Muhammad Ya'qub ibn usto Qurbonniyoz Xorazmiy "Devoni Ravnaq" ning bir ming uch yuz yigirma birlanchi yilda mohi jumadul avvalning yigirma oltinanchisi muvofiq tovushqon yili yozib itmomg'a yetkardi. (1321, 26-jumadul avval, 1903-yil 19-avgust.)" izohini yozib qoldirgan.



**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, germevistik metodlardan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Pahlavonquli Ravnaq qasidasining har bir baytida charx-dunyo tazod san'ati vositasida ahli donish, yaxshilar, donolar, olimlar, bilim xazinasidagi toza durlar (ganjinai donishda duri nob), sarv kabi ozodalar, quyosh kabi o'rni balandlar, zamirida jilo borlar, sultonlar, mard eli, suxandonlar, tuzlar (to'g'ri kishilar), fasohat chamanida nihol ko'kartirganlar, zamiri sof el, ozodalarga teskari aylanib, ularga zulm qilishi badiiy vositalar orqali bayon etilgan. Dunyo Ravnaq fikricha ahli donish jigarini afgor qiluvchi, ularning ko'zlaridan jigar qonlarini oqizib, zahar dengizi qiluvchi, yomonlarga esa toqi a'lodan joy berib, yaxshilarni yerga uruvchi, kimki nodon bo'lsa el ichida aziz qilib, kimki dono bo'lsa uni xor qiluvchi, johilga iqbolni, olimga idbor (baxtsizlik, tushkunlik, ishi orqaga ketish)ni loyiq ko'ruvchi voqe'likdir:

Yuz tuman zaxm yetib xanjari bedodingdin,  
Ahli donish jigarini qilmoqning afgor, nedur.  
Lahza-lahza oqizib xuni jigar ko'zlaridin,  
Qilmoqning oni iki Qulzumi zaxxor, nedur.  
Toqi a'loda yomonlarga berib joyi qaror,  
Yaxshilarni urasen yerga, bu kirdor nedur.  
Kimki nodondur etib oni jahon ichra aziz,  
Kimki donodur, oni aylamaking xor, nedur.  
Kimki johildur, oni loyiqi iqbol ko'rub,  
Kimki olimdur, oni qismati idbor, nedur [1,77b].

Yana dunyoning egrilarni surayyo uzra yuqori qilib, bilimda a'lo dur bo'lganlarni qizg'in bozorda taxtaband etishiga, kimda fazl-u kamol ko'rsa uni muhtojlik-u faqirlikka duchor etib, bu gulshanda sarv kabi ozodalarni, quyoshday jahon sarafrozi bo'lganlarni qora tuproqqa qorishiga, egrilarni shohlar qoshida suv yo'li qilib, eshiklarida mahram sohibi qilishiga, sultonlarning boshlaridagi tojini barbod-u, darveshlarni jubbasiz-u (jubba-yaktak) sallasiz qilishiga, kimki egri bo'lsa, olamda mo'tabar aylab, u toifani oltin-u dinor sohibi etishiga, ularni bu teskari dunyo aro qimmatbaho gavhar etishiga, xiyonatgarlarni gavhar xazinachisi-yu ganjlarning sarkori etishiga "nedur" deb e'tiroz bildiradi.

Keyingi baytlarda dunyoni shoir ablahlarni zarrin to'nlari bilan siylab, ularning atrofida aylanuvchi, ishi mehr bo'lgan g'amginlar mukofotiga adovat urushini ochuvchi, suxandon bo'lganlarga jigar qonini tutib, elga uning me'yorini bildirmay ichiruvchi, onadan tug'ilgandanoq g'arq etish uchun zahar dengizi bo'luvchi, nomardlarning boshida bahor bulutiday har lahzada dur sochuvchi, osmon va zaminni farq etmaydigan odamni takabbur etuvchi sifatida ko'radi.

Vah, ne badmehr sen ey dahri dag'al, davringda  
Bilmaduk oniki, sayri guli gulzor nedur.  
Noqis el aysh surub, ahli maishat g'amdin  
Kim, kamol ahlidur olam ko'ziga tor, nedur.  
Norasolarga berib siymni xirman-xirman,  
Kim rasodur g'ami xarvor uza xarvor, nedur.  
Kimki dun himmat esa ko'kka chekib oni jahon,  
Jomi xurshid oning bazmida sarshor, nedur.  
Kimki tuz bo'lsa zamondin to'la sog'ar-sog'ar  
Qon yutub, kulbai ahzonda jigarxor, nedur [1, 78a].

Shoir charxga murojaat qilib, davringda gulzor guli sayrini bilmadik, nuqsonli el, noqis el aysh surib, maishat qilib kamol ahlining ko'ziga olamni tor qilganing nimasi? Norasolarga boylikni xirmon-xirmon berib, rasolarga xarvor uza xarvor – uyum-uyum g'am berganing nimasi? Pastkash, baxillarni ko'kka chiqarib, uning bazmida quyosh jomi bosh bo'lgani nimasi? To'g'rilarga esa xum-xum qon yuttirib, g'am uyida g'amgin qilishning nimasi?

Keyingi baytlarda Ravnaq dunyoni gadosifatlarni martabada uzukning ko'ziday qilib, moldorlar-boyligi ko'plarining karvoniga boshliq qilgani, ishga yaraydigan elni xor qilib, yaramaydiganni esa ularni tarbiya qilishga moyil qilgani, sayr qiluvchi nayrangboz yulduzday aylanib, dunyo elini g'avg'olardan oyoqosti qilgani, kimki fasohat chamanida nihol ko'kartirsa, uni bargsiz-u mevasiz etgani, zamiri, fitrati sof elga murod suvini ichishni ravo ko'rmasdan uning bag'riga qonli nishtar urishga shayligini mazammamat etadi.

Pahlavonquli Ravnaq soqiyga murojaat etib, shunday bir jom tutginki, uni ichib, jafokor charxning ravishini bilmayin, - deydi. Chunki kim sharir-yomon bo'lsa, sultonlar qoshida qurb-yaqinlik topib, ular chodirlarining loyiqi bo'ladi. Bu charxda kimki nokas bo'lsa, o'zini nuktagir-nozik ma'noli so'zlarni anglaguvchi hushyor donishmand odam biladi. Ey, charx mening gunohim nima ediki, sendan ranj ustiga

ranj, ozor ustiga ozor tushadi. Ozoda-pokizalarni zor-u zalil qilib, buncha malomatga sazovor qilishning nimasi?

Kimki nokasdur o‘zin turfaki odam sog‘inib,  
Nuktagiri suxani mardumi hushyor, nedur.  
Bilmanam ne edi jurmim manga sendin, ey charx,  
Ranj-ranj uzraki, ozor uza ozor, nedur.  
Kimki ozodadurur, aylab oni zoru zalil,  
Ko‘rmaking muncha malomatga sazovor, nedur [1,78b].

So‘nggi baytda shoir “bu so‘zlar nimasi”, - deb o‘ziga murojaat etadi. Bularning bari taqdirdan ekanini, undan boshqa narsa yozilmasligini va poyma-poy so‘zlashni bas qilib aytganlaridan tavba qilishni ta’kidlaydi:

Neki taqdirdurur o‘zga yozilmas, Ravnaq,  
Tavba qil, yova demakdinki bu guftor, nedur [1,78b].

**Xulosa va takliflar.** Pahlavonquli Ravnaqning bu qasidasida charx so‘zi uch marta, olam so‘zi uch marta, jahon so‘zi uch marta ishlatilgan bo‘lib, ularga sitamkor, jafokor, dun kabi sifatlar berilgan. Uning bori yurishi teskarichilik ekani, olamda nimaiki ezgu sifatlar bo‘lsa ularga qarshi, nimaiki noezgu sifatlar bo‘lsa, ularga xayrixoh ekani zidlantirish vositasida go‘zal ochib berilgan. Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, Pahlavonquli Ravnaq charxning olimga, donoga, suxandonga, pokizaga, mardga, kamol ahliga, rasolarga, tuz-to‘g‘rilarga, donish ahliga, yaxshilarga, fazl ahliga, ishga yaraydigan elga teskari yurib, johilni, nodonni, nomardni, norasolarni, egrilarni, yomonlarni, xiyonatgarni, laimni, ablahni, yer bilan ko‘kning farqiga bormaydigan, nokorni, nokasni qo‘llab-quvvatlab, qo‘lini baland qilib, boshini ko‘kka yetkazishidan noliydi. Dunyoning bori adolatsizlik asosiga qurilganidan shikoyat etadi. Dunyoni mazammat etish motivi mumtoz adabiyotda ko‘p uchraydigan hodisa bo‘lib, deyarli barcha janrdagi asarlarda bo‘y ko‘rsatadi. Bunga sabab esa yuqorida ta’kidlaganimizdek, islom dini va undan oziq olgan tasavvuf ta’limotida ham bu masala keng yoritilganligidir.

### ADABIYOTLAR:

1. *Devoni Ravnaq. O‘zRFASHI, 922/I inventar raqamli qo‘lyozma.*
2. *Ўзбек адабиёти. 4 жилдликка илова. 5-жилд. 1-китоб. Т.: “Тошкент” бадий адабиёт нашриёти, 1966. 163-200-betlar*
3. *Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. - Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006, 137-bet*
4. *Jabborov Nurboy, Alisher Navoiy asarlarida “dunyo” timsoli va uning talqinlari. “Alisher Navoiy va XXI asr”, Toshkent, (2021) 93-102*
5. *Шаїх Мухаммад Содиқ Мухаммад Юсуф. Зухд ва ҳаё. – Toshkent: HILOL NASHR, 2016 йил, 17-бем*
6. *Xasanova M.J. Jahon foniydurur, ey xoja, zinhor... “Alisher Navoiy va adabiy ta’sir masalalari: badiiy ijod, komparativistika va Renessans” mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari. Samarqand, 2025-yil 16-may*
7. *Xasanova M.J. “Ogahiy, chiq ondin-u faqr-u fano yo‘lig‘a kir”. Muhammad Rizo Ogahiy ijodining bugungi avlod ta’lim va tarbiyasidagi beqiyos o‘rni” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari, Xorazm, 2024-yil 7-dekabr*
8. *Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол. Т.: Янги аср авлоди, 2010, 106-бем*
9. <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/najmiddin-komilov-timsollar-timsoli-alisher-navoiy-gazaliga-sharh.html>

**ZAMONDOSH SHOIRLAR SHE‘RLARINING NAVOIYONA TAHRIRLARI XUSUSIDA**

**Eshonqulov Husniddin Pirimovich,**

Buxoro davlat universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası professori,

filologiya fanlari doktori (DSc)

husniddin.eshonqulov72@mail.ru, h.p.eshonqulov@buxdu.uz

**Hamidov Azimjon Hayotjon o‘g‘li,**

Buxoro davlat universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi

hamidov\_azimjon@mail.ru, a.h.hamidov@buxdu.uz

**Annotatsiya.** Maqolada Alisher Navoiyning zamondosh shoirlar she‘rlari ustida olib borgan tahrirlari, adabiy yig‘inlardagi bahslar xususida biografik metodga tayanilgan holda tahliliy mulohazalar yuritilgan. Buning uchun ulug‘ shoirning “Majolis un-nafois”, “Munshaot”, asarlari, “G‘aroyib us-sig‘ar” devonidagi qaydlar, o‘rni bilan zamondoshlari asarlariga ham murojaat qilingan. Alisher Navoiyning 15-23 yoshlaridan o‘z ijodi bilan ulug‘ shoirlar e‘tirofiga sazovor bo‘lishi bilan bir qatorda adabiy yig‘inlarda asosli mulohazalarini bayon qilib, hurmat qozongani, Samarqandda yashab yurgan kezlari yosh iste‘dodli shoirlarining ustoz sifatida tanilgani tahlillar asosida dalillangan. Hirot adabiy muhitida rahnamolik qilgan davrlarida ham ijodkorlar asarlari tahririga alohida e‘tibor bilan qaraganligi ko‘rsatib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** adabiy muhit, tahrir, adabiy yig‘in, oliy majlis, Xuroson, “Majolis un-nafois”, “Munshaot”, Navoiy hayotining Mashhad va Samarqand davri.

**О РЕДАКТИРОВАНИИ СТИХОВ СОВРЕМЕННЫХ ПОЭТОВ В СТИЛЕ НАВОИ**

**Аннотация.** В статье обсуждаются аналитические размышления Алишера Навои над стихами поэтов-современников, опираясь на биографический метод в контексте дебатов на литературных собраниях. Для этого были использованы произведения великого поэта «Маджолис ун-наfois», «Мунишаот», заметки из Девона «Гаройиб ус-сигар», а также отсылки к произведениям его современников. На основе анализа было доказано, что Алишер Навои с 15-23 лет заслужил признание великих поэтов своим творчеством, а также заслужил уважение, высказывая свои аргументы на литературных собраниях, будучи признанным наставником молодых талантливых поэтов в Самарканде. Было показано, что даже в период своего лидерства в литературной среде Герата он уделял особое внимание редактированию произведений авторов.

**Ключевые слова:** литературная среда, редактирование, литературное собрание, верховное собрание, Хорасан, «Маджолис ун-нафаис», «Мунишаот», месхеденский и самаркандский периоды жизни Навои.

**ON THE NAVOI-STYLE EDITS OF CONTEMPORARY POETS' POEMS**

**Abstract.** This article presents analytical reflections based on the biographical method concerning Alisher Navoi’s editorial work on the poems of his contemporaries and the literary debates held in poetic gatherings. To this end, references are made to the great poet’s works such as Majolis un-nafois, Munshaot, and notes from his Garoyib us-sigar divan, as well as, where relevant, to the works of his contemporaries. The study substantiates, through analytical evidence, that Alisher Navoi, from the age of 15 to 23, not only earned the admiration of prominent poets with his creative talent, but also gained respect for his well-founded opinions expressed at literary gatherings. It is also demonstrated that during his stay in Samarkand, he was recognized as a mentor to young and gifted poets. The article further highlights how, during his leadership in the Herat literary environment, Navoi paid particular attention to editing the works of other authors.

**Keywords:** literary environment, editing, literary gathering, supreme assembly, Khorasan, Majolis un-nafois, Munshaot, Navoi’s life in Mashhad and Samarkand.

**Kirish.** Alisher Navoiyning buyuk iste'dod sohibi sifatida shakllanishida temuriy hukmdorlar davrida Xuroson va Movarounnahrda tez-tez o'tkazilib turilgan adabiy yig'inlarning o'rni nihoyatda katta bo'lgan. Shoir ushbu yig'inlarda ishtirok etish bilan bir qatorda ularni boshqargan, ko'plab iste'dod sohiblarining yetishib chiqishiga rahnamolik qilgan. Haqli ta'kidlanganidek, *"XV asrning ikkinchi yarmi o'zbek adabiyotining eng rivojlanish davri bo'lib, bu yuksalish temuriylardan 1469-yildan 1506-yilgacha podshohlik qilgan Sulton Husayn hamda o'zbek adabiyotining porloq quyoshi Alisher Navoiy nomlari bilan bog'liq"* [1,11]. "Munshaot"da Sulton Husayn Boyqaro rahbarligida o'tkazilgan adabiy majlislar *"oliy majlis"* deya e'tirof etilib, Alisher Navoiy *"bu parishon holning oshufta xayolidin ne sodir bo'laolg'aykim, ul oliy majlis nulozimlari eshiturga loyiq bo'lgay"* [2. 163] deya o'z she'rlari xususida xokisorlik bilan maktub bitadi. Shoirning bu e'tiroflaridan badiiy ijodga bo'lgan talabchanlik nihoyatda yuksak bo'lgani, Sulton Husayn Boyqaro huzurida o'tkaziladigan yig'inlarda iste'dodli shoirlar she'rlari sharh-u tahlil qilinib, ular xususida bahslar uyushtirilgani anglashiladi. Alisher Navoiy davr adabiy muhitining faol ishtirokchisi, rahnamosi bo'lganligi, asarlarida adabiy-tanqidiy qarashlariga o'rin ajratganini [3, 15-77], o'z asarlari [4, 10], xususan, g'azallari ustida [5, 309-312; 6, 266-270] muallif tahrirlarini amalga oshirilganligi atroflicha o'rganilgan. Shoir asarlaridagi zamondosh ijodkorlar she'rlari ustida olib borilgan tahrirlari bilan bog'liq qaydlar ham uning davr adabiy muhitidagi keng ko'lamli faoliyatining bir ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur qaydlarni ilmy o'rganish Alisher Navoiyning badiiy ijodga nisbatan nihoyatda talabchanligini, yosh iste'dodlarni doimo qo'llab-quvvatlab, ularga to'g'ri yo'l ko'rsatib kelganini aniqlashtirish imkonini beradi.

**Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar.** Alisher Navoiy "Majolis un-nafois", "Munshaot", "G'aroyib us-sig'ar" devonidagi va boshqa ilmiy, badiiy asarlaridagi qaydlar ulug' shoirning zamondosh ijodkorlar she'rlarini isloh qilganiga doir muhim m'lumotlarni bera olishi bilan ahamiyatli sanaladi. Ularni biografik, qiyosiy-tarixiy va tasniflash metodlariga tayanilgan holda ilmiy o'rganishsh muhim ilmiy-nazariy xuosalarga kelishga asos bo'ladi.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Alisher Navoiyda muayyan bir she'rga nisbatan bahslarga ishtirok etib, adabiy-estetik qimmatga ega bo'lgan mulohazalarini bayon etish ko'nikmasi ancha erta shakllangan. 1456-yilda Abulqosim Bobur Mirzo poytaxtni Hirotidan Mashhadga ko'chirishi munosabati bilan Alisher Navoiy hayotining Mashhad davri boshlanadi. Bir yil o'tib bu ma'rifatparvar hukmdor vafot etgandan so'ng Abu Said Mirzo davrida Hirot yana poytaxtlik maqomida bo'lsa ham, shoir Mashhadga tahsilni davom ettiradi. "Majolis un-nafois"da qayd etilishicha, yosh shoir davrining iste'dodli ijodkori Shayx Kamol Turbatiyni ko'rish orzusi bilan yashardi. Abu Said Mirzo hukmronligi davrida Alisher Navoiy Mashhadagi bir buq'ada – muayyan bir joy, xonaqohda xasta holida yotardi. Qurbon bayrami arafasida dunyoning har tarafidan kelgan xalq imom ravzasiga yuz qo'yib, tavfiq – madad istar edilar. Odatlariga ko'ra, ular mutaayyin buq'a – tayin qilingan xonaqoh dashtiga borar edilar. Bu buq'a – xonaqohda Navoiy xastahol yotardi. "Jamoati malolivash el" – aziyat chekkan kishilar sayr qilib yurib, devordagi bir baytni o'qiydilar va bu bayt ustida bahsga kirishadilar. Ular orasidagi ulug'roq kishi bahslashganlarni mulzam qiladi. Yosh shoir xasta holidan u jamoat nomidan bir so'z aytadi. Haligi ulug' kishiga "Bu bemor yigit ham bir so'z aytmoqchi" deydi. U ulug' kishi Shayx Kamol bo'lib, ziyoratga kelgan ekan. Yosh Navoiyning oldiga kelib mabhas – bahs, munozarasini o'rta qo'yadi. Navoiy javobini aytgach, o'z so'zidan qaytib tahsinlar aytadi va yosh shoir holini surishtira boshlaydi [7, 35-36]. Alisher Navoiy ushbu hayotiy lavhani Shayx Kamol Turbatiydek ulkan iste'dod egasi bilan tanishganini xotirlab "Majolis un-nafois"da qayd etadi. Bir bayt ustida qilingan bahs ham ushbu asarning tabiatiga nihoyatda muvofiq kelgan. Ayni choqda Navoiyning yosh iste'dodli shoir sifatida bahsga ishtirok etib, Shayx Kamol Turbatiyga o'zining adabiy-estetik qarashlarining ma'qullatgani alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu lavhadan Alisher Navoiyda muayyan bir she'r xususida bahsga kirishib, o'zining qimmatli adabiy-estetik qarashlarini bildira olish ko'nikmasi ancha erta shakllanganligi ayonlashadi. Tabiiyki, bu ko'nikma unda bahs mavzusiga aylangan muayyan she'rni tahrirlash, isloh qilish qobiliyati shakllanganidan ham darak beradi. Navoiydagi ushbu fazilat uning Samarqand davridagi hayoti bilan bog'liq lavhalarda birmuncha kengroq namoyon bo'ladi.

Alisher Navoiy hayotining Samarqand davri (1465-1469) ham shoirning badiiy ijod bilan shug'ullanishi, atrofida iste'dodli shoirlarning to'planishi, Samarqand adabiy muhitining faol ishtirokchisiga aylanishi, fihiy ilmlarni o'rganishi, shuningdek, adabiyotning turli nazariy masalalari, she'r san'ati, aruz bahrlari ustidagi munozaralarda va hamkasblarining ba'zi bir she'rlari muhokama qilingan suhbatlarda doimiy qatnashida muhim bosqich bo'ldi. U Fazlulloh Abullaysiy, Aloyi Shoshiy, Muhammad Olim Samarqandiy, Xo'ja Xusrav kabi o'z davrining ko'zga ko'ringan kishilari mudarrislik qilib turgan madrasada tahsil olib, badiiy ijod bilan ham shug'ullandi. "Majolis un-nafois"dagi qaydlardan ma'lum bo'lishicha, Alisher Navoiy Samarqandda safdoshlari Mirzabek, Mirza Xoja Sug'diy, Harimiy Qalandar Samarqandiy kabi shoirlar bilan yaqin adabiy aloqada bo'lgan. Shoir Samarqandda yashagan davrda 24-28 yoshlarda edi.



Ayni yoshda ham Alisher Navoiyning yosh ijodkorlarga ustoz maqomida bo'lganligi kuzatiladi. Chunonchi, u "Majolis un-nafois" tazkirasida "Badiiy" taxallusi bilan ijod qilgan Mavlono Yusuf degan yosh shoirning she'rlarini tuzatishga yordamlashgani haqida quyidagilarni qayd etadi: *"Faqir tahsil uchun Samarqandg'a borg'onda, ul Andijondin keldi va anda faqir bila bo'lur erdi. Sig'ari sin jihatidin she'rida xomlik bo'lsa, faqir isloh qilur erdim. Bot buzurgmanish va mutasavvir yigit bo'ldi va Xurosong'a kelib ko'p salohiyatlar ham kasb qildi. Faqirdin o'zga kishi aning she'rida so'z, ayta olmas erdi"* [7, 55]. Mavlono Yusuf haqidagi ushbu qaydlarda bu yosh iste'dodli shoirning keyinchalik Xurosonga kelib ko'p salohiyat sohibi bo'lganligi, *buzurgmanish* – baland himmatli, *mutasavvir* – tasavvuri keng, qobiliyatli shaxs sifatida tanilgani xususida so'z boradi. Alisher Navoiy *"Faqirdin o'zga kishi aning she'rida so'z, ayta olmas erdi"* deganda, keinchalik uning salohiyatli ijodkor bo'lib tanilganini nazarda tutilgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Biroq ushbu qaydlardagi *"Sig'ari sin jihatidin she'rida xomlik bo'lsa, faqir isloh qilur erdim"* jumlasini e'tiborga loyiq. Negaki, ulug' shoir *"sig'ari sin"* deganda, Mavlono Yusufning kichik yoshligini nazarda tutadi. Anglashiladiki, Mavlono Yusufning kichik yoshligida she'rida xomlik bo'lsa, Navoiy ularni isloh qilib borgan. Mavlono Yusufning *"sig'ari sin"*lik davri uning Alisher Navoiy bilan Samarqandda o'tkazgan davrlariga to'g'ri keladi. Ayonlashadiki, Alisher Navoiy bu davrda yosh shoirlarning bir murabbiyi, ustoz sifatida ham taniladi.

Shoir hayotining Samarqand davrida uning she'r bahsiga doir barcha mulohazalari ham birday qabul qilinib ketilavermagan. "Majolis un-nafois"dagi Mavlono Riyoziy haqidagi qaydlar ushbu mulohazalarimizga dalil bo'la oladi. Alisher Navoiy uni *"samarqandlig'dur"* deya tanishtiradi. Manmanlikka berilgan, kibrli kishi sifatida tanilgan Riyoziy g'azalni juda ham chiroyli aytardi. Navoiy ayni o'rinda Riyoziyning g'azalni yaxshi yozishini nazarda tutadi. Jami fazilatlar sohibi bo'lgan bu kishining *"yetti qalam bilan xatni xub bitish"*i, mulloligi, hofizligi, *"Qur'oni majidni yetti qiroat bilan bil"*ishi va o'qishi, ham kotib, ham shoir sifatida *"maoliy"* – baland martabali kishi bo'lgani "Majolis un-nafois"da ta'kidlanadi. Uning *"mutakabbir"* – manmanlikka berilgan va *"mu'jib"* – kibrli, xudbinligi bir bayti ustida qilingan tahrirga munosabatida namoyon bo'ladi. Bu haqda Alisher Navoiy quyidagilarni ma'lum qiladi:

"Bu g'arro matla' aningdurkim:

*Sitorayest duri go'shi on hilolabro',*

*Zi ro'yi husn ba xurshed mezanad pahl.*

Ikki misra' orasida rabt jihatidin bir "ki" lafzi kerak. Faqir anga dedimki, bu nav' yaxshiroq bo'lg'ayki:

*Zi ro'yi husn duri go'shi on hilolabro'.*

*Sitoraestki, bo moh mezanad pahl.*

Insof yuzidin kerakki, musallam tutsa erdi, jadal bunyod qildi, faqir sokit bo'ldum. O'z yoronlari taloshtilar ham qabul qilmadi" [7, 55] Riyoziyning she'ridagi nomuvofiqlik yuzaki qaraganda ko'zga ko'rinmaydigan xatolikdir. Baytdagi nomuvofiqlikni anglash uchun shoirdan navoiyona topqirlik va yondashuv talab etiladi. Navoiy Riyoziy she'ridagi xatoni tezda ko'rish bilan chegaralanmaydi, uni o'sha ondayoq qanday tuzatish kerakligini aytib ham o'tadi. Riyoziy talqiniga ko'ra, seviklisining qulog'idagi inju yulduzga o'xshaydi. U husn – chiroyi yuzasidan quyoshga yondashib turadi. Navoiyning e'tiroziga ko'ra yulduz va quyoshning samoda yonma-yon turishi real voqeylikka uyg'un kelmaydi. Shu bois u husn – chiroylilik yuzasidan ul hilol qoshlining qulog'idagi inju shunday bir yulduzdurki, oy bilan yondashib turadi mazmunida baytni tahrir qilish lozimligini aytadi. Riyoziy insof yuzasidan tan berishi lozim edi, hatto uning yoronlar – do'stlari ham tahrirni qabul qilish yuzasidan taloshadilar, biroq Riyoziy qabul qilmaydi. Ushbu lavhadan Alisher Navoiyning she'rdagi mubolag'ani hayotiy haqiqatdan uzilib qolgan holatda namoyon bo'lmasligi kerak, degan tamoyilga qat'iy amal qilgani ayonlashadi.

Alisher Navoiy 1469-yilda Hirotga qaytib, bir muddat Astrobodga hokim bo'lganidan tashqari umrining asosiy qismini Xurosonning ana shu poytaxt shahrida o'tkazdi. Bu davrda shoir faoliyatida zamondosh ijodkorlar she'rlariga navoiyona tahrir nigohi bilan yondashilganiga ko'plab misollar keltirish mumkin. "Majolis un-nafois"ning Sulton Husayn Boyqaroga bag'ishlangan 8-majlisidagi Quddus va Hisor taraflardan Hirotga kelib, *"tab'i turkiy va forsiy nazmga muloyim"*, oliy majlisga ishtirok etib, *"podshohona tahsil va ehsonga ham sarafroz bo'l"*gan Mavlono Qabuliy nomli kichik yoshli shoir yigit haqidagi hikoyat aytilganlar nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir. Unda tasvirlanishicha, Qabuliy quyida matlasi keltirilgan bir turkiy g'azalini Alisher Navoiyga ko'rsatib, atroflicha ko'rib, ko'ngilga kelganini aytishni so'raydi:

Na'l kestim, dardi afzun bo'ldi-yu kam bo'lmadi,

Dog' qo'ydim, so'zi kam bo'lg'on debon, ham bo'lmadi [7, 203].

Alisher Navoiy matlani o'qib, undagi "ham bo'lmadi" qofiyasining yaxshi chiqmaganini, bundan yaxshiroq chiqarish mukinligini aytadi. Yigit esa ko'p tashvish tortib, bundan ortiq yaxshi qofiya bog'lay

olmaganligini bildirib, ustozdan qofiya bog'lashni so'raydi. Navoiy g'azalning keyingi baytini quyidagicha shakllantiradi:

Sarv moyil bo'ldikim, o'pgay ayog'ing tuprog'in,  
Yo'qsa har soat sabo tahrکیدin xam bo'lmadi [7, 204].

Xullas, Alisher Navoiy qo'shgan ikkinchi bayt bilan shakllantirilgan g'azal oliy majlisga yetkaziladi. Sulton Husayn Boyqaro g'azal bilan tanishib: *"ikkinchi bayti aning nazmining rangi emas"* [7, 204] deya e'tiroz bildiradi. Keyinchalik ushbu g'azal Alisher Navoiy tahriridan o'tkazilgani hukmdorga ma'lum qilinsada, u yosh iste'dod sohibini ko'pchilik oldida izza qilmaydi. Ushbu lavhadan Husayn Boyqaroning ham nazmga alohida hurmat bilan qaragani, she'rning *"rangi"* – uslubiga ko'ra farqlay olishda nihoyatda topqirligi o'z ifodasini topgan. Hukmdordagi bunday fazilat Hirot adabiy muhitining taraqqiy etishida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etgan. Shu bois Alisher Navoiy ham davlat va o'z ijodiy ishlari bilan band bo'lishiga qaramay butun bo'sh vaqtini *"kitob iboratlarini tuzatish, ma'nolarini tekshirish, dalillar bilan isbot etish"*ga sarf etgan [8, 65-66].

Sulton Husayn Boyqaro hukmronligi davridagi Hirot adabiy muhiti o'zidan keyingi davrlarda o'rnak bo'larli qator fazilarlarga ega bo'lib, yuzlab iste'dod sohiblarining yetishib chiqishiga zamin hozirladi. Bunda Alisher Navoiy faoliyatining bir jabhasini tashkil etgan zamondosh ijodkorlar she'rlarini navoiyona topqirlik bilan tahrir qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi. Ulug' shoir Xuroson adabiy muhitini 30 yildan ortiqroq vaqt mobaynida boshqarganligi haqida *"Muhokamat ul lug'atayn"* asarida faxr bilan quyidagilarni qayd etgan: *"Va o'ttuz yildan ortuq va qirq yilga yaqindurkim, Xuroson mulkikim, fazlu kamol ahliga olam mamolikining misri muazzami va savodi a'zamidir, bu mulkning jami nazm ahli shuaroysi shirin kamoli va fusahoyi vojibi-ixtiromi har ne, har ma'ni bilakim, avroq yuziga oroyish va alfoz bilakim, ajzo izorog'a namoyish beribdurlar, bu faqir suhbatig'a yetkurubdurlar va bu zaif ollida o'tkarubdurlar va haq va isloh iltimosin qilubdurlar va xotirg'a kelg'on nuqtaki aytilibdur, insof yuzidin mussallam tutupdurlar va agar ba'zi ibo qilubdurlar, daloyil bila alarg'a xotir nishon qililuptur, andi so'ngra qabul qilib, o'zlarin shokir va mamnun bilibdurlar"*. Ulug' shoir o'zining ziyrak nigohi bilan chorak asrdan ko'proq Hirot adabiy muhitining taraqqiy topishida o'z hissasini qo'shdi. Yosh avlodga o'rnak bo'lib ularning har birini asarlarini tahrir nigohidan o'tqazib mukammal holatga kelishiga xizmat qilishga harakat qildi.

**Xulosa.** Alisher Navoiy ijodi va faoliyati o'zbek adabiyotining gullab-yashnagan davri, ayniqsa Temuriylar hukmronligi davrida adabiy muhitning rivojlanishida beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan. Shoir Mashhadda o'qib yurgan kezaridayoq she'rdagi ma'nini teran idrok etib, u haqda muhim adabiy estetik qarashlarini ayta olish, o'rni kelganda, bahslashish fazilatiga ega ham bo'lgan. U Samarqandda tahsil olgan kezarida, yosh ijodkorlarning murabbiysi, ustoz sifatida ularning she'rlarini o'ziga xos topqirlik bilan tahrir etib turgan. Bu hol uning umri davomida asosiy ishlaridan biriga aylanib qolgan. Shoir she'rdagi mubolag'ani hayotiy haqiqatdan ajralgan holda badiiy ifodalanib qolmasligi tamoyili asosida badiiy ijodga munosabat ko'rsatish bilan badiiy kashfiyotlar yaratish tarafdori sifatida namoyon bo'lgan.

### ADABIYOTLAR:

1. Хайитметов А. Темурийлар даври ўзбек адабиёти. -Т. "Фан", 1996.
2. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 14 том. Тошкент: "ФАН", 1998.
3. Хайитметов А. Алишер Навоийнинг адабий-танқидий қараишлари. –Тошкент: "Фан", 1959.
4. Эркинов А. Матнишуносликка кириш. Тошкент, 1997.
5. Eshonqulov H. Hamidov A. Alisher Navoiy g'azallarida muallif tahriri: shakl va ma'no mukammalashuvi. O'zMU 2022 1/6 309-312.
6. Eshonqulov H., Hamidov A. Muallif tahririda ayrim baytlarning tushurilishi. BuxDU ilmiy axborotnomasi. 2023/5. B.266-270.
7. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 13 том. Тошкент: "Фан", 1997.
8. Хондамир. Makorim ul-axloq. –Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2015.
9. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 16 том. Тошкент: "Фан", 2000.
10. Eshonqulov H. Alisher Navoiy oshiqona g'azallarining badiiy qurilishiga oid o'ziga xosliklar. Oltin bitiglar – Golden scripts. 2021/1. B. 69-86.

## INTERNET TANQIDCHILIGIDA USLUB QIRRALARI

**Qodirova Nasima Saidburxonovna,**  
Buxoro davlat universiteti doktoranti  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
n.s.qodirova@buxdu.uz

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada internet tanqidchiligining uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Internet muhitida shakllanayotgan yangi tanqidiy ifoda vositalari va yondashuvlar an'anaviy adabiy tanqiddan farq qilishi, xususan, subyektivlik, jonlilik, soddalik, multimodallik hamda dialogik muloqotga tayanuvchanligi misollar asosida ochib beriladi. Ijtimoiy tarmoqlardagi tanqid shakllari, ayniqsa, Telegram va Facebook tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan blogger-munaqqidlarning estetik pozitsiyasi, tildagi o'zgarishlar hamda uslubiy tendensiyalar alohida tahlil qilinadi. Shuningdek, internet tanqidida erkinlik bilan birga tijorat omili, yosh auditoriyaning ustunligi va umumiy estetik madaniyat darajasi muhokama etiladi. Maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligida internet tanqidchiligi o'ziga xos hodisa sifatida shakllanib borayotgani va uni mustaqil ilmiy obyekt sifatida o'rganish zarurligi asoslanadi.

**Kalit so'zlar:** internet tanqidchiligi, adabiy tanqid, uslub, subyektivlik, ijtimoiy tarmoqlar, blogger-munaqqid, tanqid estetikasi, dialogik uslub, multimodallik, erkin fikr.

## СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ИНТЕРНЕТ-КРИТИКИ

**Аннотация.** В данной статье анализируются стилистические особенности интернет-критики. Рассматриваются новые способы выражения и критические стили, формирующиеся в цифровой среде, их отличие от традиционной литературной критики. Особое внимание уделяется таким чертам, как субъективность, живость, простота, мультимодальность и диалогичность. Исследуются формы критики в социальных сетях, в частности, деятельность блогеров-критиков на платформах Telegram и Facebook, их эстетический подход, изменения в языке и стиле. Также обсуждаются свобода высказывания в интернет-критике, коммерческий фактор, доминирование молодой аудитории и уровень эстетической культуры. В статье подчеркивается, что в современной узбекской литературоведческой науке формируется своеобразное явление интернет-критики, которое требует изучения как самостоятельный объект.

**Ключевые слова:** интернет-критика, литературная критика, стиль, субъективность, социальные сети, блогер-критик, эстетика критики, диалогичный стиль, мультимодальность, свободное мнение.

## STYLISTIC FEATURES IN INTERNET CRITICISM

**Abstract.** This article analyzes the stylistic features of internet-based literary criticism. It explores how newly emerging modes of expression and critical styles in the digital environment differ from traditional literary criticism, emphasizing aspects such as subjectivity, liveliness, simplicity, multimodality, and dialogic communication. The study focuses on the forms of criticism found on social networks—particularly the activities of blogger-critics on platforms like Telegram and Facebook—and examines their aesthetic approaches as well as shifts in language and style. The article also discusses the issues of freedom of expression in internet criticism, its connection to commercial influences, the dominance of a young audience, and the level of aesthetic culture. The author argues that a distinctive form of internet criticism is taking shape in contemporary Uzbek literary studies and highlights the need to study it as an independent scholarly phenomenon.

**Keywords:** internet criticism, literary criticism, style, subjectivity, social media, blogger-critic, aesthetics of criticism, dialogic style, multimodality, free expression.

**Kirish.** Adabiy tanqid har bir davrda o'z ifoda vositalari va baholash mezonlariga ega bo'lgan. Dastlab matbuot vositasida kirib kelgan adabiy tanqid, keyinchalik munaqqidlarning alohida monografiya va kitoblarida rivojlana bordi. Bugungi raqamli texnologiyalar asrida adabiy tanqid ham yangicha shakllarda namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, internet tanqidchiligi deb ataluvchi hodisa so'nggi yillarda o'zbek adabiy jamoatchiligida tobora kengayib bormoqda.




Internet tanqidchiligi rasmiy va norasmiy ijtimoiy tarmoqlarda namoyon bo'layotgan ekan, u haqda munosabat bildirish, uni tahlil qilish ham adabiyotshunoslik sohasining e'tiboridan chetda qolmasligi lozim. Chunki biz istaymizmi, istamaymizmi, bu hodisa davom etadi va kengayib boraveradi. Bosma matbuot nashrlari son va adadi jihatidan kamayib borayotgan bir davrda internet tanqidchiligi jamiyat ma'naviy saviyasi, adabiyotning rivoji uchun nihoyatda zarur. Global tarmoqda bugun ko'plab adabiy saytlar, ijtimoiy tarmoqlarda (Facebook, Instagram, X/Twitter, Telegram) yuzlab profil va kanallar, sahifalar bugungi o'zbek adabiyoti va adabiy tanqidining manbasi sifatida xizmat qilmoqda. Ularning dastlabgisi va eng yirigi sifatida "Xurshid Davron kutubxonasi" (<https://kh-davron.uz/>)ni qayd etish mumkin. Mazkur saytda e'lon qilinadigan adabiy-tanqidiy maqolalar o'zining imliy saviyasining yuqoriligi bilan e'tiborni tortadi, zero bu sayt ochiq maydon bo'lmay, unda saralangan va tahrirlangan maqolalar e'lon qilib boriladi. Ammo bugun internet tanqidchiligi deganda bu kabi adabiy-ma'rifiy saytlarni emas, balki ijtimoiy tarmoqlar orqali keng jamoatchilik hukmiga havola etilayotgan adabiy-tanqidiy ishlarni nazarda tutamiz.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Internet tanqidchiligi uslub jihatdan o'ziga xos bo'lib, unda munaqqid blogger, yozuvchi, adabiyotshunos yoki kitobxon bo'lishi mumkin. Bugun aksariyat ijodkorlarimiz va adabiyotshunos olimlarimiz shaxsiy profillari orqali tanqidchilik bilan ham shug'ullanmoqdalar. Masalan, U.Hamdani, Q.Yo'ldosh, Go'zal Begim shular jumlasidandir.

Internet tanqidchiligidan muhim uslubiy xususiyatlaridan biri **subyektivlik va shaxsiy ohangning kuchliligi** bilan ifodalanadi. Bunda, birinchidan, har bir munaqqid o'z shaxsiy profilidan turib faoliyat yuritishini inobatga olish lozim. Shu sabab tanqidchi o'zini «masofadagi tahlilchi» emas, balki «kitobxon bilan teng muhokamachi» sifatida tutadi. Matnda ko'pincha birinchi shaxs («men o'qiganimda», «menimcha») ishlatiladi, bu esa akademik tanqidagi betaraflilikdan farq qiladi. Shuningdek, tanqidchi akademik mezonlarga emas, balki shaxsiy taassurot va estetik zavqqa tayanadi. Bu holat ularning tanqidini o'quvchiga yaqin va tushunarli qilish barobarida auditoriyaning kengayishini ta'minlaydi. Masalan, telegram tarmog'idagi "Birburchak" nomli shaxsiy guruhni ko'rib chiqsak, unda muallif "Kitoblar va ularning atrofidagi shaxsiy fikrlarim..." degan umumiy nom qo'yadi va guruhda o'zbek va jahon adabiyotiga doir ko'plab asarlar kitobxon nuqtayi nazaridan talqin qilib boriladi. Yaqinda nashr etilgan Baxtiyor Abdug'afur nomli ijodkorning "Azal muhri" nomli asari borasida mulohaza yuritilgan fikrlar "Kitobni haqiqatda intellektual triller deyish mumkin. Yuqorida aytganimdek, muallif mikrobiolog olim. Asar mavzusi ham ayni shu narsa. Bunda o'quvchi badiiylilikdan tashqari ko'p ilmiy tushunchalar, yangiliklarga ham to'yinadi. O'zining mikroorganizmlari haqida bilimi ortadi. Qiziq eksperiment bo'lib tuyildi menga. O'qib ko'ring, baribir bahoni har bir o'quvchi o'zi qo'ygani yaxshi"[3] jumalari bilan yakunlanadi. Ko'rinadiki, asar va uning muallifi borasidagi mulohazalarda shaxsiy taassurot yetakchilik qiladi va tanqidchi kitob borasida boshqalarning ham fikrlariga qiziqadi va barchani kitobxonlikka da'vat etadi.

**Sodda va jonli tilda yozish** ham internet tanqidchiligi uslubiga xos bo'lib, bunda munaqqid ilmiy tildan voz kechib, sodda, obrazli va jonli tilda yozishga intiladi. Bu, o'z navbatida, kuzatuvchilar auditoriyasining kengayishiga omil bo'ladi.

Internet tanqidchiligidan yana bir uslubiy jihati **vizual uslub va multimodallik**da namoyon bo'ladi. Bunda tanqid ko'pincha rasm, video, ovoz, musiqa va matn uyg'unligida ifodalanadi.



Internet tanqidchisi kitobxon bilan suhbat quradi, fikriga javob oladi, bahs-munozara yuritadi. Bu esa **dialogik uslubni** yuzaga keltiradi. Mazkur uslubda bu holat murojaatlar, savollar va ochiq qoldirilgan fikrlar orqali yuzaga chiqadi. Munaqqid "Siz nima deb o'ylaysiz?", "Qanday fikrdasiz?" kabi ifodalar orqali kitobxonga savol berishi, komentariyalarda kitobxon javob yo'llashi, unga munaqqid munosabati tarzida jarayon davom etish imkoniyatiga ega. Bu vaziyatda internet tanqidchiligi nafaqat adabiy asarni baholaydi, balki uning muallifi va o'quvchisi bilan bevosita muloqotga kirishadi. An'anaviy tanqidda bu aloqalar



bilvosita va uzoq muddatli bo'lsa, internet tanqidida darhol javob olish, muhokama qilish va fikr almashish imkoniyati kengroq.

**Erkinlik va senzurasizlik** ham internet tanqidchiligi uslubida yaqqol seziladi. Odatda hech qanday rasmiy tashkilot yoki nashriyotga bog'liq bo'lmaganliklari sababli munaqqidlar fikrlarini erkin, keskin va ochiq bayon etadilar, hatto, akademik tanqidga xos bo'lmagan tarzda munaqqidlik etikasini buzish holatlari ham ko'p uchraydi.

**Natijalar va uning muhokamasi.** Telegramm kanallari ichida o'z nomiga ko'ra ham taniqlisi "Adabiy jarayon"(<https://t.me/adabiyjarayon>) kanalidir. Garchi unda jiddiy adabiy tanqid namunalari chiqib turgan bo'lsa-da, kanal o'z tashrif qog'ozi (vizitka) sida "Kitob va matbuotdan tashqari, jaydari mulohazalar..." deb yozib qo'yilgan. Va yana, yosh adabiyotshunos Akrom Malikning shu kanalda aytishicha, "Adabiy tanqid maqtov bo'lishi mumkin emas, u sarani saraga, puchakni puchakka ajratishdir. Tanqidchining esa qat'iy tamoyillari, mezonlari bo'lishi shart. U qalamni qo'lga olishdan avval falonchini maqtib berishim kerak yoki falonchini yerga urib chil-parchin qilaman degan xayoldan yiroq turishi o'z ishiga bo'lgan diyonat, sadoqatdir. Tanqidchilarga tokqaychi bilan adabiyot bog'iga kir deb uqtirishmoqda.

Yaxshi, nima qilamiz – sof professional tanqid bilan shug'ullanamizmi yoki tokqaychi ko'tarib parvona bo'lamizmi? Tanqid biror qalamkashning ko'nglini og'ritmaslik qasamini ichmagan, silab-siypashga ham majburiyati yo'q. Borni bor, yo'qni yo'q deyish kerak"[4].

Kanalning boshqa turdoshlaridan farqlanib turadigan joyi shundaki, u ayovsiz tanqid qiladi. El tanigan yo el tanimagan yozuvchi (shoir) ekan deb, ayab o'tirmaydi. Balki shu xususiyati uni taniqli qilgandir. Chunki bugungi kunda salbiy tanqidga qiziquvchular soni ko'p va bu orqali kanalning obunachilari ortishi kutiladi. Masalan, ko'pchilik ko'nglidan joy olib ulgurgan shoira Tillanisa haqida tadqidchi Alif Mahmud kanalda yozadi: "Gap kelganda otangni ham ayama deyishgan. Beg'araz, dangal aytaman; Tillanisoning she'riyati hech qachon meni o'ziga jalb qila olmagan. Sun'iy murakkablik va mavhumona alahsirashlarga toqatim yo'qroq..(Tillanisoning muxlislari bu qadar ko'pligi meni quvontiradi, albatta.) O'rtamiyona qoralamalar bilan ham, demak, xalqning ko'nglidan joy olish mumkin. Men uchun bu ajib holat!"[5] Tanqidchining shoira ijodi haqidagi bu mulohazalari tanqid estetikasiga zid. Ohang, so'z qo'llashlar so'zlashuv uslubida va bu munaqqid uslubiga salbiy ta'sir etgan, garchi tanqidchi o'zining xolisligi va beg'arazligini ta'kidlasa-da, yozganlaridan kitobxon uning shoiraga qandaydir xusumati borligi tabiiy degan shubhaga boradi. Maqolada muallif adabiyot nazariyasi, badiiyat qonunlarini nazarga olmaydi go'yo, faqat o'zining subektiv qarashlari nuqtayi nazaridan shoira ijodini baholashga intiladi, xususan, uning "Men oq she'rni she'r o'rnida ko'rmaydigan shoirlar toifasidanman! Beqofiya, bevazn yozilgan shoirona jummlar nazm emas, nasrning muayyan bir janriga kiradi, xolos"[5] kabi jummlari uning bir yoqlama va qarashini yaqqol aks ettiradi. Munaqqid Alif Mahmud Tillanisaning bir qancha she'rlaridan parchalar tahlil etadi. Tahlil jarayonida tanqidchi shoira she'rlarining nafaqat shaklidan, balki mazmunidan-da qoniqmagan ayonlashadi. Shakl borasidagi mulohazalar esa tanqidning yanada keskir bo'lishi uchun xizmat qilgan.

"Oy - Ulkan.

Qoplaydi zaminni oyning sinig'i.

Xudoning asabiga tegadi birdan

Qo'ng'izlar viz-vig'i.

Shoira nima demoqchi!? Qayta o'qiysan. Ma'no bordek tuyuladi. Xar tarafga burub ko'rasan. Balki, shoira qandaydir holat yoki voqeani obraz shaklida bayon qilgandir. Yo'q. "Oyning sinig'i"dan tashqari bu yerda hech qanday o'xshatish yo'q. "Oyning sinig'i", - buyam asli eski tashbeh.

Qayta o'qiysan. Balki shoira so'z o'yini qilayotgandir. Afsuski, so'z o'yini ham yo'q. So'z o'yinidan muayyan ikkilamchi bir ma'no chiqishi kerak.

Qayta o'qiysan. Balki, shoira qandaydir asarda kelgan ibora yo jumlaning "qarzga olib" qo'llayotgandir. Yo'q. Ramz desang, ramz ham emas.

Qayta o'qiysan. Savol tug'uladi. Xudoning asabi bormi o'zi? Balki "asab" deyilganda boshqa bir ifoda nazarda tutilyotgandir. Qo'ng'izlar-chi... Miyang g'ovlab ketadi. Xudoga bunday nisbat berish aqidaga binoan to'g'rimi? To'g'ri emas, albatta.(Chuqurlashsak, hattoki, kufr gap bu.)

Qayta o'qiysan. Oxir bilasanki, bu she'r emas, ma'nisi yo'q alahsirash, xolos..."[5]

Tillanisaning mazkur jummlaridan munaqqidning xunob bo'lganicha bor, munaqqid singari kitobxon ham qayta-qayta o'qisa ham mazkur she'rdan biror ma'no chiqara olmasligi tayin. Bu o'rinda tanqidchi fikrlarini nihoyatda erkin va dadil bayon etayorgani seziladi. "Qayta o'qiysan" jumlasini takror-takror qo'llaydi, bu bilan o'ziga xos uslubni yuzaga keltiradi – bayon uslubida, so'z qo'llashda, munosabatda nihoyatda erkinlik.

Mazkur maqola e'lon qilingandan keyin tarmoqda shoira Go'zal Begim tanqidchi borasidagi fikrlarini "Adabiy tanqid - populizm emas! maqolasi orqali bildiradi: "Alaf Mahmud deganni maqolasini o'qib

yo'zgandim. Roppa-rosa bir yil oldin! Haliyam uyg'onmabdi. Aljirayapti bechara!..."Ha" mish, oq she'rda ritm ham, vazn ham bo'lasmish, kamiga muallifning jini oq she'rlarni suymasmish (Mana sizga, XXI asr Adabiyot nazariyasi).

Nima adabiy oqim, she'r o'lchovlari yoki she'riy uslublar bir predmet yo buyummidiki yoqsa qo'ldan ushlab adabiyot eshigidan kirg'azib, yoqmasa ketiga bir shapat urib ko'chaga uloqtirgani?

Qaysi shoir qaysi adabiyotshunos yoki munaqqidning qoshu qovog'iga qarab she'r yozibdiki, bu yog'iga senikiga qarab yozilsa... Evi bilan-da endi.

Oq she'r, erkin vazn, sarbast haqida tushunchaga ega bo'lmasang, nima qilasan, adabiyot ishiga burningni tiqib"[6].

Ko'rinadiki, internet tanqidchiligi – ochiq maydon. Erkinlik xohlagan ijodkor haqida istagancha fikr bildirish imkonini beradi, har bir ijodkor o'z blogida yozishi, birovning uning mulohazalarini tahrir etmasligi bu tanqidning uslub jihatdan dag'allashishi, estetik vazifasiga putur yetishiga olib kelmoqda. Yuqoridagi misolda Shoir Go'zal Begim tanqidga g'azab va nafrat bilan munosabat bildiriyapti. Bosma nashr bo'lganida (uning o'z o'lchovi, tahrir qilish huquqi bor) "Aljirayapti bechara!... Qaysi shoir qaysi adabiyotshunos yoki munaqqidning qoshu qovog'iga qarab she'r yozibdiki, bu yog'iga senikiga qarab yozilsa... Nima qilasan, adabiyot ishiga burningni tiqib..." degan so'zlarini chop etmagan bo'lardi. Shoir, hatto, munaqqidni haqorat qilib, so'zining boshida uning ismini "Alif" deb emas, "Alaf" deb keltirgan.

Aslida, Go'zal Begim bejiz Tillanisoning himoyasiga chiqmaganga o'xshaydi. Chunki tarmoqda munaqqid uning ijodi haqida ham fikr bildirib shoiraning "Yomg'ir yonib ketdi" she'rini tahlil qilgan, uning kamchiliklari xususida to'xtalgan. Alif Mahmudning bir qator tanqidiy fikrlari bir qarashda asosliq tuyuladi. Lekin adabiy tanqidda asarning o'zi muhokama qilinishi lozim, uning muallifi emas. Alif Mahmud esa muallif bilan lirik qahramonni bir narsa deb qaraydi. Bu uning: "O'sha mavhum hisni yoniga shoir sochini ip qilib umrini tikibti... Bir tuyg'u Go'zal Begimni ichida yonib ketibti"[7], - degan kinoyali satrlarida ko'rinadi. Bu ham internet tanqidchiligidagi subektivlikning yuqori ekanligini asoslaydi.

Bundan tashqari yuqoridagi misollarda, ayniqsa, Alif Mahmud tanqidlarida **ironiya va sarkazmning yuqoriligi** kuzatiladi. Bu internet tanqidchiligidan tashqari Alif Mahmudning individual uslubini ham ko'rsatadi. Uning aksariyat maqolalarida asar kamchiliklari shu uslubda – satirik ohangda yozilgan. Jumladan, ko'plab she'rlari qo'shiq qilib kuylanuvchi shoir Botirjon Ergashev haqidagi maqolasida shunday yozadi: "Shuyam she'r-da endi... Bu kabi chalajon yo o'lik she'rlar hattoki, ayrim buyuk shoirlarda ham uchraydi... Falsafiy ko'lami tor, sodda she'riyatni tahlil va ayniqsa tanqid pichog'iga ilintirish andek mushkul kechadi. Nim kosa ostidagi ma'nolar qa'riga cho'ng'ib chuqur tahlil qilay desang, hammasi tushunarli, sharhga hojat yo'q. Tanqid kaltagida savalab changgini qoqay desang, mavhumlik va murakkablikka yo'g'rilgan adabiy chang ko'rinmaydi... Oqsoq diddan qaddi tik she'r tug'ulishi dargumon..."

Botirjon Ergashev hozirgi "Adabiyotimizning Vijdoni" bo'lsa, unda men adabiyotimizni xivchin-kaltagi bo'lsam kerak-o'v..."[8]

Internet tanqidchiligining muhim uslubiy xususiyatlaridan biri – **interaktivlikning kuchliligi** bilan izohlanadi. Bunda munaqqid – ijodkor – kitobxon bevosita, faol muloqotga kirisha oladi. Yuqorida keltirilgan Alif Mahmud tanqidiga shoir Botirjon Ergashev munosabat bildiradi. Unda shoirning mazkur tanqid har qancha qattiq va kesatuvchi bo'lsa-da, uni iliq kutib olgani aks etgan: "Avvalo, e'tibor uchun rahmat, ochig'i, bundan xursand bo'ldim! Ijodkor kim bo'lishidan, yoshidan qat'i nazar xolis tanqidni to'g'ri qabul qilishi kerak. Men o'z darajamni bilaman. Hech qachon buyuk shoirlik da'vo qilmaganman, ammo o'z ustimda ishlashdan, yangilanish, yaxshilanishdan to'xtamaganman. Siz misol keltirib, qamchilab o'tgan she'rlarga nisbatan mening ham fikrim siznikiday. Tag'inam ayabsiz, bu uchun rahmat, demayman. Chunki tanqidiy-tahliliy ishga kirishdingizmi, uni haspo'shlaymay, boricha, yana ham ko'proq she'rlaringa murojaat qilib, chuqurroq, ayovsizroq yondashishingiz kerak edi. Mayli, yaxshi otga bir qamchi, deganlaridek, shuginadan ham yetarli xulosani oldim [9].

Bu, aslida, qo'pol tanqidga nisbatan muloyim javob. Biroq ta'kidlash kerakki, har ikkala yozishmada ham chuqur adabiy tahlil, fikrni ilmiy asoslash ko'rinmaydi, yuzaki va subektiv fikrlar bayoni. Shunchaki, telegramm kanalda ikki kishi o'zaro tortishayotganday. Bundan tashqari munaqqid va shoir munosabatida kitobxon ham bemalol qo'shilishi, fikr bildirishi mumkin.

Bu kabi faol munosabatni yuqorida diqqat qaratilgan Alif Mahmud va Go'zal Begim yozishmalarida ham ko'rish mumkin. Go'zal Begimning munaqqid haqidagi maqolasi ostida ko'plab kuzatuvchilar – kitobxon, shoir, adabiyot ixlosmandlari munosabat bildiradi. Kimdir munaqqidni qo'llasa, yana kimdir shoirani himoya qiladi. Shu tariqa kichik bahslar yuzaga keladi.

Internet tanqidchiligi uslubiga ta'sir etadigan bir qator omillar bo'lib, ulardan eng muhimi **reklama va tijoratdir**. Aksariyat nashriyotlar o'zlarining bloglarini yaratib, turli taqrizlar nashri orqali kitob reklamasini amalga oshiradilar. Bunday faoliyat bilan shug'ullanuvchi bloggerlar ham talaygina. Bunda tanqid kitob

reklamasiga qaratiladi va xulosada asarni o'qishga da'vat etiladi. Masalan, "Taqrizlar" kanali "Akademnashr" nashriyotiga tegishli bo'lib, unda yangi asarlar borasida turli ijodkorlarning taqriz va maqolalari berib boriladi. Rauf Parfining yangi nashr etilgan "Iymon asiri" to'plami borasida yozilgan postni kuzatsak, u "So'ng so'z o'rinda sizlarga aytar gapim shuki: She'r o'qing! His qilib, o'qing! Va albatta Rauf Parfini o'qing!"[10] kabi da'vat bilan tugaydi, bu da'vat nafaqat kitobxonlikka, balki kitobni xarid qilishga ham qaratilgan.

**Yoshlar auditoriyasining ustunligi** internet tanqidchiligi uslubini shakllantiruvchi yana bir muhim omildir. Bu omil tufayli mazkur tanqidchilikda badiiy asarlarga yangicha qarash, bugungi global va raqamlashgan dunyo nuqtayi nazaridan baho berish ko'rinadi, badiiylilik, asar qatidagi tag ma'nolarga u qadar e'tibor qilinmaslik holatlari kuzatiladi. Mulohazalar qisqa izohlarda beriladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, akademik munaqqidlar U.Hamdam, Q.Yo'ldosh kabilarning shaxsiy kanallarida e'lon qilinadigan adabiy-tanqidiy maqolalar internet tanqidchiligi doirasiga kirmaydi. Chunki ular odatda qaysidir nashrda e'lon qilinib keng targ'ib etish maqsadida internet sahifalariga yuklanadi. Bu kabi ijodkorlar uslubini individual uslub nuqtayi nazaridan tekshirmoq maqsadga muvofiq bo'ladi.

**Xulosa.** Internet tanqidchiligi bugungi adabiy jarayonda faol ishtirok etayotgan zamonaviy hodisalardan biridir. Uslubiy jihatdan bu tanqid turi jonli, subyektiv, soddaligi bilan ajralib turadi. Biroq subyektivlikning haddan oshishi, adabiy-estetik mezonlarning e'tibordan chetda qolishi, ohangning dag'alligi va bahs-munozaralarning shaxsiy tus olishi tanqid madaniyati va vazifasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Raqamli texnologiyalar asrida adabiyot va adabiyotshunoslik ham mazkur jarayonlardan chetda qolmasligi tabiiy. Shu sabab internet tanqidchiligi o'ziga xos adabiy hodisa sifatida qarash bilan birga, uning uslubiy chegaralarini belgilash, estetik mezonlarini asoslash zarurati mavjud. Bu jarayonda tanqidchining mas'uliyati va estetik saviyasi muhim mezon sifatida o'zgarmay qoladi.

### ADABIYOTLAR:

1. *Ахмедов.Н.А. Баён қилиши ва индивидуал услуб масаласи. – Мюнхен: Globe, 2020.*
2. *Носиров Ў. Ижодкор шахс, бадий услуб, автор образи. – Тошкент: Фан, 1981.*
3. [https://t.me/qora\\_yigit/1525](https://t.me/qora_yigit/1525)
4. [https://t.me/adabiy\\_tanqid/3](https://t.me/adabiy_tanqid/3)
5. <https://t.me/adabiyjarayon/1033>
6. (15) Go'zal Begim - АДАБИЙ ТАНҚИД - ПОПУЛИЗМ ЭМАС! Алаф Маҳмуд деганни... |

Facebook

7. <https://t.me/adabiyjarayon/1238>
8. <https://t.me/adabiyjarayon/1359>
9. <https://t.me/adabiyjarayon/1361>
10. [https://t.me/akadem\\_taqriz/160](https://t.me/akadem_taqriz/160).



# Navoiy gulshani

## FANO MAYXONASIDAGI HAQIQAT

*Rajabova Ma'rifat,*

*Buxoro davlat universiteti professori,*

*Hamidova Sofiya,*

*Buxoro davlat universiteti 2-bosqich talabasi*

Alisher Navoiyning forsiy tilda yozilgan gʻazallari fors-tojik adabiy anʼanalari asosida, ayniqsa, Hofiz, Saʼdiy va Jomiy kabi shoirlarning taʼsiri ostida shakllangan. Ulugʻ shoir nafaqat oʻz gʻazaliyoti bilan mumtoz forsiy sheʼriyatga munosib hissa qoʻshdi, balki unda oʻziga xos ilohiy-irfoniy mazmunni ham yuksak darajada ifoda etdi.

Mutafakkir shoirning forsiy gʻazallarida ishq, hijron, vafo, sabr va komillik kabi mavzular bilan birga tasavvufiy qarashlar ustuvor ekanligiga ham guvoh boʻlish mumkin. Shu bois, uning sheʼrlarida “sharob”, “mastlik”, “soqiy”, “mayxona”, “dahr”, “fano” kabi ramziy obrazlarga duch kelamiz. Shoirning “Devoni Foni” taxallusi bilan yozgan forsiy sheʼrlari uning ikki tilda barobar badiiy salohiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Fikrimizni ulugʻ shoirning “Devoni Foni”siga kirgan 127- gʻazali ham tasdiqlaydi.

Gʻazal 9 baytdan iborat. Gʻazalda ilohiy ishq, fano va maʼnaviy yuksalish yoʻlidagi solikning ruhiy olami badiiy talqin qilingan. Buni gʻazalning dastlabki baytidayoq koʻrishimiz mumkin.

Dar maykada onro, ki ba kaf qomi sharob ast,

Aybash makun, ar shomu sahar mastu xarob ast.<sup>1</sup>

**(Tarjimasi:** *Agar sharob kosasi qoʻlida boʻlgan zotni mayxonada koʻrsang, uni tanqid qilma. Agar kecha – kunduz mastu xarob va beqaror boʻlsa ham uni ayblamang).*

Baytda “sharob” – ilohiy muhabbat ramzi. “Mayxona” – tasavvuf adabiyotida maʼrifat, ishq va haqiqatni topish maskani. Bu soʻz zohiriy sharobxona emas, balki botiniy maʼnoda insonning ruhiy kamolot yoʻlidagi safarini ifoda etadi. “Mastu xarob” boʻlish esa maʼnaviy mahv boʻlish, yaʼni nafsni yengib, Mutlaq ruh bilan birlashishni anglatadi. Alisher Navoiy bunday ruhiy holatdagi kishilarni tanqid qilishni nohaq, deb biladi. Chunki ular zohirda gʻayriodatiy koʻrinsa-da, botinda Iloh muhabbati bilan mast boʻlib yashaydilar. Yaʼni bu holat – tafakkur va muhabbat tufayli vujudga kelgan ruhiy holatdir.

Bardoshtan az may natavonad sari xudro,

Az boda havo dar sari on, k-y chu hubob ast.

**(Tarjimasi:** *Har kimning boshida may havasi boʻlsa, may ustidagi pufakchadek boshini maydan koʻtara olmaydi).*

Ikkinchi baytda oʻziga xos tasvir yaratilgan. **Hubob** – suv va boshqa suyuqliklar yuzasida paydo boʻladigan pufakcha. Shoirning taʼkidicha, kimniki, “boshi”da may havasi boʻlsa, yaʼni ishq istagi, lazzat va ruhiy tuygʻular havasi bilan toʻlgan boʻlsa, bunday insonlar xuddi “hubobdek” – maydan boshini koʻtara olmaydi.

Alisher Navoiy ushbu baytda ruhiy kamolotga erishish oson emasligini, buning uchun qalb va aql “may”ni koʻtara oladigan darajada mustahkam boʻlishi kerakligini taʼkidlaydi. Zohiriy ishq yoki ruhiy lazzat havosi bilan yashash insonni maqsadga yetkazmaydi. Agar inson ruhan hubob kabi zaif boʻlsa, u ilohiy ishqni koʻtara olmaydi va haqiqat yoʻlida parokanda boʻladi.

Sarrishtayi korash kashad oxir ba xarobā.

Har mast, ki aftoda dar in dayri xarob ast.

**(Tarjimasi:** *Kimki bu xaroba dayr ichida mast boʻlib qolgan boʻlsa, oqibat uning ishi xaroblikdir).*

Mumtoz adabiyotda “dayr” tushunchasi “dunyo” va “mayxona” maʼnosida qoʻllaniladi. Bu atama orqali shoir inson hayotning oʻtkinchiligiga ishora qiladi. Alisher Navoiyning fikriga koʻra, bu dunyo oʻtkinchidir, unga shuhrat, mol-mulk yoki havas bilan shaydo boʻlish insonning maʼnaviy tanazzuliga olib

<sup>1</sup> Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. XX жилд. XVIII жилд. -Т.: Фан, 2002. -Б.127.



keladi. Shu bois, dunyo hayotidagi asosiy vazifa – yaxshilik qilish, savobli amallar bajarish va ma'naviy poklikka intilishdir. Chunki insonning asosiy maqsadi bu dunyodagina emas, oxirtda amalga oshirilgan yaxshiliklar orqali jannatga erishishdir.

May kash, mai Kavsar zi kafi huri bihishtā,  
Dar dīzaxi maxmuriyat, ey dil, ki azob ast.

**(Tarjimasi:** *Ey dil, xumorlik do'xaxida azob tortding, shuning uchun jannat huri qo'lidā Kavsar mayini ichgin).*

“Kavsar” Qur'on Karimda uchraydigan muqaddas tushuncha bo'lib, asosan, jannatdagi bebaho suv va ne'matlarni ifoda etadi. Qur'oni Karimning “Kavsar” surasida shunday deyiladi “Albatta, Biz senga Kavsarni berdik. Bas, Robbingga namoz o'qi va jonliq so'y (1-2-oyatlar) Bu yerda Kavsar – jannatdagi pok suv ramzi sifatida tushuniladi. Tasavvuf falsafasida kavsar suvi – bu ilohiy qudrat va ma'naviy poklikni ifoda etuvchi ramziy tushuncha hisoblanadi. **Kavsar** – ruhiy tozalik, ma'rifiy nur. Ko'rinib turibdiki, Alisher Navoiy bu dunyoda ilohiy ishqdan mast bo'lgan, Haqni anglagan solikning Kavsar suvi – ilohiy rahmat va fazlga ega bo'lishiga urug'u beradi.

Dar dayri fano qomi yaqin q'yy, ki matlub,  
Az pardai pindori tu barbastā niqob ast.

**(Tarjimasi:** *Fano mayxonasida o'zlikdan kechib haqiqiy jomni ista, chunki matlub yuziga manmanlik parda bo'lgandir).*

Shoirning fikricha, solik **fano** – o'zlik, nafsni yo'qotish orqali ma'naviy jom – poklik va haqiqatga erishishi mumkin. Chunki manmanlik va nafs pindori (shubhali fikrlari yoki kibr) Haq va solik o'rtasida parda bo'lishi mumkin. Tasavvufda **“parda”** – nafs, havas, g'urur kabi dunyoviy istaklar ramzi sifatida talqin qilinadi. Ular insonning haqiqiy ma'rifatiga yetishiga to'siq bo'lib, qalbni yopib qo'yadi.

**“Fano mayxonasi”** da solik nafs bilan kurashadi, uning barcha shaxsiy manmanliklari va kibri sinovdan o'tadi. Ushbu jarayonda inson o'z nafsini mag'lub etib, poklanish yo'liga qadam qo'yadi.

Ey mug'bacha, chun r'yi tazarv ast uzorat,  
3-on r'yi ki chun xuni tazarvat mai nob ast.

**(Tarjimasi:** *Ey mug'bacha, yonog'ing qirg'ovulning yuzi kabidir, shuning uchun maying ham qirg'ovul qoniga o'xshaydi).*

Mug'bacha – may quyuvchi, u ishqdan sarmast bo'lgan, shu sababli yuzida nur alanganadi. Bu o'rinda qizillik ishqdan sarmast bo'lishlik ramzi. Baytda mug'bachaning yuzi qizilligi qirg'ovulning yuziga o'xshatilgan. May qizil rangda bo'ladi, qonning rangi ham qizil. Mayning qizilligi qon vositasida yanada oydinlashtirilgan. Baytdagi “xuni tazarvat” va “mayi nob” birikmalari tasavvufiy she'riyatda ilohiy muhabbat, ma'naviy poklik va haqiqatning ramzi sifatida qo'llaniladi.

In davr ba yak chashm zadan gashta digargun,  
Ey umr, ba raftan zi bari mo chā shitob ast?

**(Tarjimasi:** *Bu davr ko'z yumib-ochguncha boshqa shaklda aylanadi, ey umr (jonon), mening yonimdan ketishga muncha shoshilasan?)*

Sharq she'riyatda umrning o'tkinchiligi mavzusiga ko'p bora murojaat qilingan. Yuqorida keltirilgan baytda ham shu an'ana davom ettirilgan. Baytda inson hayoti va vaqtning tez o'tishi haqida teran falsafiy mulohazalar biddiy talqin qilingan. Shoir buni birinchi misradagi **“yak chashm zadan”** (ya'ni ko'z ochib-yumguncha) iborasi orqali aniq va lo'nda ifodalaydi. Ikkinchi misradagi **“shitob”** – shoshilish, tezlik ma'nosidagi so'z fikrga yanada oydinlik kiritadi. Shu orqali shoir insonlarni umrning qaytmas jarayon ekanligidan ogohlantiradi. Baytdagi asosiy g'oya – insonning vaqt oldidagi ojizligidir. Ushbu fikrlar insonni hayotga nisbatan ongli, shukronali munosabatda bo'lishga chaqiruvchi falsafiy o'ylarga olib boradi. Shoir vaqtning qadrini bilish, har lahzani samarali o'tkazish zarurligini bilvosita uqtiradi.

Dar maykada gar g'arqi mayam tavba shikasta,  
Ey shayx, zi mo darguzar, on olami ob ast.

**(Tarjimasi:** *Ey shayx, tavbani sindirib, mayxonada mayga g'arq bo'lsam, bizni kechir, chunki mayxona – suv olamidir).*

**Tavba** – xatoni tan olish va undan qaytishdir. Biroq mazkur baytdagi **“tavbani sindirmoq”** birikmasi an'anaviy tavba emas, balki majoziy ma'noda bo'lib, zohiriy qoidalarini buzib, ruhiy kamolot yo'liga kirishni anglatadi. Shoirning ta'kidicha, agar solik mayxonada (ya'ni irfoniy muhabbat olamida) may (ya'ni ma'rifat) ta'sirida “tavbani sindirib”, ya'ni zohiriy tavba qoidalarini buzsa, u holda uni malomat qilmaslik kerak. Chunki bu holatda solik aql bilan emas, ishq bilan harakat qiladi. “Tavbani sindirish” shariat nuqtai nazaridan nuqson sanalsa-da, tasavvufda u ruhiy ozodlikni anglatadi. Ishq yo'lidagi solik qonun-qoidalar bilan emas, balki ilohiy ehsoslari bilan harakat qiladi.

E'tibor bersak, baytda shariat va tariqat o'rtasidagi ziddiyat ramziy ifoda orqali berilgan. Chunki haqiqiy ruhiy holatda inson shariatning zohiriy ko'rsatmalari doirasida qololmaydi. Shoir buni "ob" (suv) ramzi orqali yanada badiiylashtiradi. Mayxonadagi holat shundayki, solik ishq ta'sirida, "oqib ketadi". Shoir baytda mayxonani – "suv olami" sifatida talqin qiladi. "Mayxona"da inson zohiriy qonunlar (masalan, tavba, aql) bilan emas, botiniy hislar, muhabbat va sarxushlik bilan harakat qiladi. **"G'arq bo'lish"** – ma'rifatga yuz burish (ya'ni ruhiy sarxushlik). Solik bunday holda o'zini nazorat qilolmaydi, o'zini xuddi suvda g'arq bo'lganday his qiladi. Shu ma'noda, "suv olami" – mayxonaga kirgan inson ixtiyoridan voz kechib, ishq va ilhom bilan harakat qiladi.

Fonī, chī shavī sheftayi dahr, ki kavnayn

Dar dashti fano chumla namudori sarob ast.

**(Tarjimasi:** *Ey Foni, dunyoga nima uchun maftun bo'lasan, holbuki, fano dashtida ko'ringan barcha narsalar sarobdir.*

Ibn Arabiyning ta'limotiga ko'ra, dunyodagi har bir narsa "zohiriy vujud"dir, ammo "haqiqiy vujud" – faqat Allohga xos. G'azal ma'qtasida xuddi shu g'oya ilgari surilgan. **"Sheftayi dahr"** – dunyoviy muhabbatga shaydolik. Bu ibora orqali muallif dunyo ishqida muhtalo bo'lishni qattiq tanqid qiladi.

**"Dashti fano"** – hayot sahrosi. Undagi har bir ko'rinish – "namudor" - sarob, ya'ni aldamchidir. Dahr inson qalbini tortadigan zohiriy ziynatdir.

G'azal maqta'si Alisher Navoiyning falsafiy, irfoniy qarashlarining she'riy ifodasi deyish mumkin. Dahr aldamchi, zohiriy narsalar – sarob, haqiqat esa botinda yashiringan. Insonni haqiqatga olib boruvchi yo'l – Haqqa yuzlanish, ishq va fano orqali yuksalishdir. Demak, ilohiy ishq yo'li – ruhiy poklanish, nafsni yengish va fanodan o'tib haqiqatga yetish yo'lidir. Bu yo'l shariatdan botinga, zohirdan ma'rifatga, aqldan qalbg'a olib boradi.

Umuman olganda, Alisher Navoiy g'azaliyotini anglash – shaklni emas, ma'nolar tizimini anglash demakdir. Bu ma'nolar esa tasavvuf nazariyasi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Demak, Navoiyni to'liq anglash uchun inson nafaqat ilmiy bilimga, balki ma'naviy tozalik va ma'rifat yo'liga ham ehtiyoj sezadi. Bu esa ulug' shoir merosini "ma'rifat maktabi" sifatida baholashimizga imkon beradi.

### YO RAB, UL OY HUSNIN EL FAHMIG‘A NOMAFHUM QIL...

*Hamidov Azimjon Hayotjon o‘g‘li,*

*Buxoro davlat universiteti*

*O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi*

Alisher Navoiy ijodida lirik qahramonning rashki badiiy talqin etilgan g‘azallar ham uchraydi. Ularda majoziy ishq yuksak san‘atkorlik bilan o‘zining badiiy ifodasini topgan bo‘lib, bunday nazm namunalarida kishining kishiga bo‘lgan samimiy muhabbati, insonning buyukligi, ishq degan ulug‘ tuyg‘udan ta’sirlanish kabilar badiiy talqin etiladi. Oshiqona-rashknoma ruhidagi bunday g‘azallarda oshiqning ma’shuqasini rashk qilishi orqali yuzaga keluvchi ruhiy iztiroblari badiiy aks etgani kuzatiladi. Navoiyona ruhda bitilgan bunday g‘azallar she’rxonga yuksak ehtiros baxsh etishi bilan o‘ziga xoslik kasb etadi. Ulug‘ shoir qalamiga mansub “*Yo Rab, ul oy husnin el fahmig‘a nomafhum qil*” (Alisher Navoiy. G‘aroyib us-sig‘ar. To‘la asarlar to‘plami. 5-jild. Toshkent – 2013. 402-bet) misrasi bilan boshlanuvchi yetti baytli g‘azal shunday nazm namunalaridan biri ekanligi bilan ahamiyatlidir.

Yo Rab, ul oy husnin el fahmig‘a nomafhum qil,  
Bo‘yla mavjud etmasang, avval meni ma’dum qil.  
Barcha yuzdin o‘ylakim ko‘zumni mahrum aylading,  
Barcha ko‘zni ul parivash yuzidin mahrum qil.  
Bo‘lsa ishqimda qusure ko‘nglini mendin sovut,  
Ishqim ar pok o‘lsa, toshdek ko‘nglin oning mum qil.  
Qilsa zulm ul zolim elni qilmag‘il, yo Rab, zabun,  
Chun tazallumdur ishim doim meni mazlum qil.  
To ko‘zum qutlug‘ yuzidin o‘zga sori tushmasun,  
Har ne ko‘z ko‘rgay mening baxting‘a ani shum qil.  
To tirikmen ishq harfidur ichimda, ey rafiq,  
O‘lsam oni-o‘q mazorim toshida marqum qil.  
Demakim, bormu ekin mehri Navoiy ko‘nglida,  
Anda sensen, bir taammul aylabon ma’lum qil.

G‘azalning “Ilk devon”da mavjud emasligi uning ulug‘ shoirning “sig‘ar” – yoshlik davrida yozilganini dalillash imkonini bermaydi. Dastlab “Badoyi’ ul-bidoya”da 434-g‘azal sifatida keltirilgan ushbu oshiqona ruhdagi nazm namunasining keyinchalik “G‘aroyib us-sig‘ar”dan o‘rin olganligi uning “sig‘ar” yoki ulug‘ shoirning “shabob” – yigitlik davrida yozilganini taxmin qilishga imkon hozirlaydi. G‘azalning matlasida lirik qahramonning Allohga munojoti badiiy ifodalangan bo‘lib, unda ma’shuqasi husni – chiroyini el, ya’ni begonalarning fahmlay olmaydigan darajada keltirish bilan bog‘liq o‘tinchi o‘z ifodasini topgan. Agarda bu hol yuz bermaydigan bo‘lsa, oshiq jismonan yo‘q – ma’dum bo‘lishga ham hozir. Oshiqning ayni tarzda o‘ziga xos munojotining matlada ibtido topishi uning rashk iztiroblarida o‘rtanayotganidan dalolat beradi. Navoiyning ushbu g‘azalini to‘la holatdagi rashknoma desa ham bo‘ladi. Oshiqning o‘z ma’shuqasiga ishq shu darajada yuqoriki, u hech kimning seviklisi husnini ko‘rishini, undan bahramand bo‘lishini xohlamaydi. Aksincha, bu hol yuzaga keladigan bo‘lsa, g‘ayr nigohi ma’shuqasiga tushadigan bo‘lsa, u o‘zining halok qilinishini iltijo qilib so‘raydi. Lirik qahramonning ushbu holatini xos ishqning yorqin namunasi sifatida anglash mumkin. Zero, xos ishqda rashk bo‘lmasligi, oshiqning o‘zi uchun barchadan aziz bo‘lgan ma’shuqasini qizg‘onmasligi mumkin emas. G‘azalning ikkinchi baytida matladagi poetik fikr tadrijiy davom ettirilib, oshiqning rashkdan iztirob chekayotgan ruhiy holati ayonlashib boradi. Uning ko‘zi ma’shuqa yuzidan o‘zgani ko‘rmay qolgan. Bunday mahrumiyatni unga Allohning o‘zi taqdir etgan. Bas shunday ekan, “ul parivash” – parisifat sevgilining rashkida o‘rtanayotgan oshiq barcha ko‘zlar – boshqalarning ham uning chiroyini ko‘rishdan mahrum qilishini o‘tinib so‘raydi. Oshiqning dardi shu holatdagi, u sevikli mahbubasini barchaning nigohidan asrashga urinadi. Uning o‘zi ham boshqa mahvashlarga qaramagani singari gayr nigohi ham ma’shuqasiga tushmasligini xohlaydi.

Uchinchi-to‘rtinchi baytlarda oshiqning ishqdagi qusur – kamchiligi, el – boshqa oshiqlarning seviklidan zulm ko‘rishi haqida so‘z yuritiladi. Oshiq ishqida nuqson – kamchilik bo‘ladigan bo‘lsa, ma’shuqaning ishqini undan sovutishini so‘rab iltijo qiladi, shuningdek, agar o‘z ishq pok bo‘ladigan bo‘lsa, seviklisining tosh qalbini mum kabi yumshoq qilishini o‘tinib so‘raydi. Ushbu baytda ijodkor oshiq holatini tasvirlashda alohida diqqat qaratib, ishqning har qanday hoy-u havaslardan pok bo‘lishi kerakligiga alohida

urg'u berib o'tadi. Baytdan ayonlashadiki, oshiq qalbida qanchalik ishq tug'yonlashgan bo'lsa-da, ma'shuqasi qalbi tosh kabi qattiq bo'lgani bois unga shunchalik beparvo. Bundan ma'shuqaning sitamkor ekanligi ayonlashadi. Uning bu xususiyati boshqalarga ham ozor beradi. Ma'shuqa zolimlik tabiati bilan elga zulm qiladigan bo'lsa, ularni zabun – ojiz holga tashlab qo'ymaslikni Allohdan iltijo qilib so'raydi, o'ziga kelganida esa tazallum – shikoyat qilish o'zining ishi ekanligini ta'kidlab, doimo mazlum – zulm ko'rishni nasib qilishini o'tinib istaydi. Bundan oshiq ma'shuqasining zulmini ham boshqalardan qizg'anishi sezilib qoladi. Tabiiyki, uning nazdida el – boshqa oshiqlarda bunday fazilat kuzatilmaydi. Negaki, ular pok ishqni u anglagani singari tushunib yetmaydilar. Shu o'rinda misralardagi holat kitobxonga ilohiy ishqning yetuk vakili bo'lgan Majnunning Ka'baga safarida Alloh taologa qilgan iltijosini esga keltiradi. Alisher Navoiy ushbu baytlar orqali oshiq qalbining holatini ayonlashtirib qo'yib, uni jununkor oshiq sifatida baholaydi. Ishqni tushunmaydigan johil el esa, oshiqqa ozor beradi. Shunday bo'lsa-da pok ilohiy ishq sohibi o'ziga ozor berganlarning gunohidan o'tishni yolvorib so'raydi. Lirik qahramon o'zini doimiy shikoyat qiluvchiligi bois mazlum bo'lishga loyiq ekanligini ta'kidlaydi. Lekin bunday ozor beruvchi ishq bilan boshqalarni sinamaslikni Allohdan so'rab yolvoradi.

Shu bois g'azalning beshinchi baytida ma'shuqasining zulmini ham boshqalardan qizg'ongan oshiq o'z ko'zining ma'shuqasi qutlug' yuzidan uzilmasligini, ayni choqda sevgilisiga tushgan nigohning ham oshiq baxti uchun tole'sizlikka muhtalo qilinishini iltijo qilib so'raydi. Ma'shuqa yuzining "qutlug'" sifatiga nisbatlanishida uning ilohiy mazhar – ilohiy sifatlarni o'zida mujassamlashtirib boruvchi bir ko'rinish ekanligi ayonlashadi. Bunday ko'rinish, tabiiyki, oshiqni ilohiy ma'rifatdan bahramand qiladi. Shu bois maqtadan oldigi baytda rafiq – do'st obraziga murojaat qilinib, undan hayotlik chog'imda ma'shuqa ishqining har bir harfi qalbimda ekan, vafotimdan so'ngra ham uning har bir harfini qabrim toshida yozgin, deya unga o'tinchini ma'lum qiladi. Shu o'rinda ishq oshiqqa har ikki olam: foni va boqiy dunyoda ham doimo zarurligi go'yasi ilgari suraladi. Zero, oshiq uchun hayotdan murod bu ishqdir. Shoir qabr toshiga ham shu ishq so'zini bitishni vasiyat qilish orqali nafaqat tiriklik, balki insonning yaratilishidan murod bu ishq ekanligi ta'kidlaydi. Maqtada esa shoir mahbubasiga murojaat qilib, Navoiy ko'nglida mehrim bormikan, deya so'ramagin, unda sen borsan, buni bir taammul, ya'ni yaxshigina mulohaza yuritish bilan ma'lum qil, deya yakunlaydi.

Ga'zaldagi bunday tasvirlar she'rxonga estetik zavq bag'ishlaydi. Unda tasvirlanishiga ko'ra, oshiqning o'z ma'shuqasiga ishq shunchalik kuchliki, u hech kimni unga yaqinlashtirgisi kelmaydi, iloji bo'lsa-yu, ma'shuqasini barcha g'ayr va begona kishilardan yashirsa, hech kimga uning jamolini ko'rish nasib qilmasa. Shu bois har bir bayt bir iltijoli qasamday jaranglaydi, ya'ni oshiqning o'zi ham lohiy mazhar vositasida Yordan o'zgaga boqmaslikka ont ichadi. Shu o'rinda haqiqiy muhabbat namoyon bo'ladi, u faqat sevgan yor vasfini talab qiladi, o'z yorini barchadan ustun deb biladi, fikr-u o'yi yor yodi bilan yashab uning yodi bilan o'lmoqlikni xohlaydi. Ayni holat oshiqni ilohiy ma'rifatdan ham voqif qilib, majozdan ilohga tomon yo'naltiradi.



## ZARAFSHON VOHASIDA OAV FAOLIYATINING YOSHLAR TARBIYASI VA MA'NAVİY KAMOLOTIDAGI AHAMIYATI

**Norov Shuxrat Suvonovich,**

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti  
Ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya kafedrası dotsenti,  
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
shuxrat.suvonovich@mail.ru  
0009-0008-4617-706 X

**Abduraxmonov Mirsaid Muzaffarovich,**

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti  
Ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya kafedrası assistenti  
mirsaidabduraxmonov854@gmail.com

**Annotatsiya.** Hozirgi globallashuv zamonida yosh avlod tarbiyasi va ularning ma'naviy kamolotini ta'minlash davlat va jamiyat hayotidagi eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bu jarayonda ommaviy axborot vositalarining ahamiyati juda muhim. Zero, ommaviy axborot vositalari nafaqat axborot yetkazuvchi, shuningdek, yoshlar ongini shakllantiruvchi, ularni sog'lom fikrlash, vatanparvarlik va ma'naviy qadriyatlarni hurmat qilishga undovchi katta ahamiyatga ega bo'lgan manba sanaladi. Zarafshon vohasi O'zbekistonning eng uzoq tarixga ega bo'lgan mintaqalaridan biridir. Bu hududdagi ommaviy axborot vositalari faoliyati yoshlar tarbiyasi, dunyoqarashi va ma'naviy hayotida katta ahamiyatga ega. Zarafshon vohasida faoliyat yuritayotgan jurnal, gazeta, teleko'rsatuv va internet nashrlari yosh avlod vakillarini adolat va insonparvarlik, sadoqat va bag'rikenglik ruhida tarbiyalash, milliy qadriyatlarga hurmatni oshirish borasida samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu maqolada sohaga oid eng asosiy yutuqlar va kamchiliklar bayon qilindi hamda ulardan olinadigan xulosalar, zarur o'rinlarda takliflar bayon qilindi.

**Kalit so'zlar:** Zarafshon vohasi, ommaviy axborot vositalari, yoshlar tarbiyasi, yoshlarga oid davlat siyosati, ma'naviy kamolot, ijtimoiy faollik, milliy qadriyatlar.

## ЗНАЧЕНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СМІ В ЗАРАФШАНСКОМ ОАЗИСЕ В ВОСПИТАНИИ И ДУХОВНОМ РАЗВИТИИ МОЛОДЁЖИ

**Аннотация.** В современную эпоху глобализации воспитание молодого поколения и обеспечение его духовного развития является одним из важнейших вопросов в жизни государства и общества. Особенно важна роль средств массовой информации в этом процессе. Ведь средства массовой информации являются не только источником информации, но и важным фактором, формирующим сознание молодёжи, побуждающим её к здравомыслию, патриотизму и уважению духовных ценностей. Зарафшанский оазис - один из регионов Узбекистана с самой древней историей. Деятельность средств массовой информации в этом регионе имеет большое значение в воспитании, формировании мировоззрения и духовной жизни молодёжи. Журналы, газеты, телепередачи и интернет-издания, действующие в Зарафшанском оазисе, эффективно работают над воспитанием молодого поколения в духе справедливости и гуманизма, преданности и толерантности, повышением уважения к национальным ценностям. В данной статье изложены основные достижения и недостатки в этой области, а также сделанные из них выводы и, где необходимо, предложения.

**Ключевые слова:** Зарафшанский оазис, средства массовой информации, воспитание молодёжи, государственная молодёжная политика, духовное развитие, социальная активность, национальные ценности.

## THE IMPORTANCE OF MEDIA ACTIVITIES IN THE EDUCATION AND SPIRITUAL DEVELOPMENT OF YOUTH IN THE ZARAFSHAN OASIS

**Abstract.** In the modern era of globalization, the upbringing of the younger generation and ensuring their spiritual maturity is one of the most crucial issues in the life of the state and society. The role of mass media in this process is particularly significant. Indeed, mass media serve not only as a source of

information but also as a powerful tool for shaping the consciousness of young people, encouraging them to think critically, fostering patriotism, and promoting respect for spiritual values. The Zarafshan Valley is one of the regions of Uzbekistan with the longest history. The activities of mass media in this region play a vital role in the upbringing, worldview, and spiritual life of young people. Magazines, newspapers, television programs, and online publications operating in the Zarafshan oasis are effectively working to educate the younger generation in the spirit of justice and humanism, loyalty and tolerance, and to enhance respect for national values. This article outlines the most significant achievements and shortcomings in the field, as well as the conclusions drawn from them and, where necessary, proposals for improvement.

**Keywords:** Zarafshan Valley, mass media, youth education, state youth policy, spiritual development, social activism, national values.

**Kirish.** Hozirgi kunda dunyo miqyosida raqamli texnologiyalar tez sur'atlarda rivojlanib bormoqda. Insoniyat taraqqiyotining hamma jabhalarida axborot texnologiyalari, zamonaviy texnika va yangicha tafakkur tarzi hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Ta'kidlash joizki, bugungi globallashuv jarayonida dunyo miqyosida yuzaga kelayotgan ko'plab global muammolar orasida ahamiyatsizdek tuyuladigan, aslida esa inson tafakkur tarzi, mafkurasi va ruhiyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatayotgan, milliy qadriyat va urf-odatlariga putur yetkazib, inson ongida begona g'oyaviy qiyofa shakllanishiga xizmat qiluvchi ayrim axborot oqimlari mavjudligi sir emas. Jumladan, turli g'arazli maqsadlarda ommaga axborot tarqatayotgan manbalar yoshlar tarbiyasi, ma'naviy olamiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu holat yoshlar dunyoqarashida ma'lum darajada mafkuraviy bo'shliq, ma'naviy inqiroz holatini yuzaga keltirish ehtimoli mavjud. Shu boisdan axborot tarqatish vositalarining xolisligi va g'oyaviy jihatdan xavfsizligi, milliy qadriyatlarimizga mosligi hamda yosh avlod ma'naviy dunyosini sof, milliy qiyofada saqlab qolish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Omma madaniyati, global fikrlash tarzi sifatida taqdim etilayotgan holatlar umum bashariyat manfaatlarini emas, o'z shaxsiy manfaatlarini o'ylayotgan ayrim soxta psixologlar, sotsiologlar, madaniyatshunoslar hamda faylasuflar tomonidan "ommaviy madaniyat" deya talqin qilinmoqda. Ushbu holatni chuqur tafakkur etishimiz juda muhim. Chunki, ayrim buzg'unchi siyosiy kuchlar va ba'zi davlatlar o'zlarining tajavuzkor madaniy siyosatini o'tkazishga, sog'lom ongni buzishga pinhona, ba'zida esa ochiqchasiga intilayotgan davrda zudlik bilan ogohlilni oshirish, barqaror mafkuraviy immunitetni shakllantirish hayotiy zaruriyatga aylanmoqda. Axborot makonidagi tezlik, oshkoralik va erkinlik tamoyillari jamiyatda yoshlarning axborot olishga bo'lgan ehtiyoji va qayta ishlash imkoniyatini tubdan o'zgartirdi. Shu boisdan ham har bir hudud, jumladan, Zarafshon vohasida ham OAVlar yosh avlodni ma'naviy-ma'rifiy jihatdan rivojlangan va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda asosiy vositalardan biri sanaladi. Dunyo davlatlari tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, yoshlar tarbiyasi masalasi davlat siyosatining kechiktirib bo'lmaydigan ustuvor maqsadi bo'lishi darkor. Ushbu fikrning tasdig'i o'laroq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Yoshlar – O'zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasini" [1], deya ta'kidlaganlar.

Xalqlar tarixining ushbu bosqichida axborot makoni xavfsizligi masalasida hukumatlar jiddiy choralar ko'rishga majbur bo'lmoqda. Davlatlar ommaviy axborot vositalarini o'z milliy manfaatlari doirasida faoliyat ko'rsatishiga intiladi. Ammo global axborot makonini to'liq nazoratga olishning ham iloji yo'q. Bunday vaziyatda "virusli" axborot qurboni bo'lmaslikning ta'sirli chorasi sifatida ogoh, sinchkov, atrofda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga nisbatan tanqidiy munosabatga ega bo'lgan avlodni tarbiyalashni keltirib o'tsak bo'ladi. Prezident Shavkat Mirziyoyev "... hozirgi vaqtda ko'z o'ngimizda dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya manzarasida chuqur o'zgarishlar ro'y berayotgan, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda, barchamizga ayonki, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish har qachongidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etmoqda" [2] degan fikrni bildirganlar. Zero, har bir millatning kelajagi yoshlarning qanday tarbiya olishi va qanday ruhiy-ma'naviy muhitda voyaga yetishiga bevosita bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan, OAV yoshlar ongini shakllantiruvchi, ularni to'g'ri hayotiy qarashlarga yo'naltiruvchi va ma'naviy immunitetini mustahkamlovchi vositaga aylanishi kerak. Ushbu tadqiqotda Zarafshon vohasi misolida ommaviy axborot vositalarining yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyatini o'rganish, ommaviy axborot vositalari orqali yoshlarga taqdim etilayotgan ma'naviy-ma'rifiy dasturlar, materiallarning sifati, mazmun-mohiyati, ta'sir darajasini tahlil qilish hamda aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga yordam beradigan yechimlarni aniqlashga harakat qilindi. Shuningdek, maqolada hududiy ommaviy axborot vositalarining yoshlar tarbiyasini yuksaltirish va sog'lom ma'naviy qadriyatlarga asoslangan tafakkur tarzini shakllantirish imkoniyatlari yoritildi.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Ommaviy axborot vositalari faoliyatining yosh avlod ma'naviy kamoloti va tarbiyasidagi o'rni juda muhimdir. OAV bugungi zamonaviy, ilg'or axborot kommunikatsiyalar

daqiqa sayin rivojlanayotgan davrda yoshlar tarbiyasi va ularning ma'naviy kamolotida tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi kunga kelib globallashuv jarayonlari barcha sohalarida bo'lgani kabi ommaviy axborot makoniga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli axborotlar ko'lamining oshishi yoshlar ongiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar soni ko'payishiga xizmat qilmoqda. Ommaviy axborot vositalari shunchaki axborot tarqatuvchi emas, balki tarbiya va ma'naviy-ma'rifiy qarashlar asosida voyaga yetgan yoshlarni kelajak uchun taqdim etuvchi muhim institutga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasida yoshlar tarbiyasi va ularning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni muhim ahamiyatga ega. Ushbu qonunning 5-moddasida yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash, axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondir muhim vazifa sifatida qayd etilgan [3].

Bugungi davr talablaridan kelib chiqqan holda Zarafshon vohasida ham ommaviy axborot vositalari faoliyatini zamon talablariga mos tashkil etish va yoshlar ongiga sog'lom, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdiruvchi axborotlarni yetkazib berish hayotiy muhim zaruriyat hisoblanadi. Jumladan, "Yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da yoshlarni milliy qadriyatlar, umuminsoniy tamoyillar asosida tarbiyalash, ularning intellektual va ma'naviy salohiyatini yuksaltirishda ommaviy axborot vositalari faoliyatining muhim rol o'ynashi, ularni rivojlantirish ustuvor ahamiyatga ega ekanligi qayd etilgan [4]. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga yillik murojaatnomalarida ham yoshlar ongini turli tahdidlardan asrash, ularni ma'naviy immunitetga ega, ijtimoiy faolligi yuqori avlod qilib tarbiyalashda media sohasi salohiyatidan samarali foydalanish zarurligi ta'kidlangan. Ushbu maqsadlarga erishish uchun tegishli vazifalar belgilab olindi. Jumladan, yoshlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan huquqiy bazani takomillashtirish; mamlakatda xavfsizlik, ekologik barqarorlik, adolat va teng huquqlilikni ta'minlashda yoshlarning rolini oshirish; yoshlarni ona Vatanga, oilaga, mustaqillik g'oyalariga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash kabilarni misol keltirsak bo'ladi. Ushbu mavzu bo'yicha bir qator milliy adabiyotlar yaratilgan. Bu tatqiqotlarda axborot xavfsizligi, samaradorligi kabi masalalar bo'yicha taklif va mulohazalar ilgari surilgan. Masalan, T.Eshbekov o'zining "Axborot xizmatlari" [5] o'quv qo'llanmasida axborot makoni monitoringini olib borish va tahlil qilish, tanqidiy va keng muhokama qilinayotgan axborot xurujlariga tezkor munosabat bildirish, ommaviy axborot vositalari va Internet tarmogida tegishli davlat organlari va tashkilotlari faoliyatiga aloqador axborotni tarqatish bo'yicha ishlarni samarali tashkil etish kabi jihatlarga keng urg'u berilgan. Bundan tashqari yana bir qator tatqiqot mualliflarini ta'kidlab o'tmoqchiman. Misol uchun, M.Najmiddinovning "Internet va axborot maydonidagi ma'naviy xavfsizlik muammolari" [6], M.Rasulov va G.Eshonqulova hammuallifligidagi "Ijtimoiy tarmoqdagi tuzoqlarning yoshlar ma'naviyatiga ta'siri" [7], M.Jo'rayeva va O.Avezov hammuallifligida yozilgan "Globallashuv jarayonida axboriy psixologik xavfsizlik muammosining dolzarb muammo sifatida o'rganilishi" [8], U.Vaxobovning "Axborot oqimi jadallashuvining yoshlar ma'naviy-axloqiy qiyofasiga ta'siri va muammolar" [9], D.Toliboyevning "Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar orasidagi ma'naviyatga ta'siri" [10] kabi tatqiqotlarni ko'rsatishimiz mumkin. Ushbu tatqiqotlarda mualliflar ijtimoiy tarmoqlar va OAVning yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga bo'lgan ijobiy va salbiy ta'sirlari, zamonaviy O'zbekiston yoshlarining ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish xususiyatlari, ularning jamiyatdagi roli, ayniqsa ularning axloqiy qadriyatlar, o'zlikni anglash va ijtimoiy faollikka bo'lgan ta'siri muhokama qilinadi.

Ushbu maqola mavzusining asosiy maqsadlariga mos keladigan bir nechta xorijiy adabiyotlarni qayd etish maqsadga muvofiqdir. Chunki, ommaviy axborot vositalarining yoshlar tarbiyasiga ta'siri masalasi deyarli barcha davlatlarda alohida e'tibor markazida turadi. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, D.McQuail. McQuail's mass communication theory [11], M.Castells. The rise of the network society [12], S.H.Chaffee, M.J.Metzger. The end of mass communication? [13] kabi tatqiqotlarni ta'kidlab o'tish joizdir. Yuqoridagi tatqiqotlarda ommaviy kommunikatsiya jarayonlari, media auditoriyasi va ijtimoiy ong shakllanishi jarayonidagi ommaviy axborot vositalari ta'siri, tarmoq jamiyatida axborot oqimlarining yoshlar hayoti va ijtimoiy ongiga ta'sir mexanizmlari o'rganilgan, virtual makonda yoshlarning ijtimoiy faolligi va ma'naviy kamolotini shakllantirishda axborot vositalari yordamida g'oyaviy jarayonlarni boshqarish usullarini taklif qilgan. Bundan tashqari Rossiya, Turkiya va boshqa Markaziy Osiyo mamlakatlari olimlari tomonidan olib borilgan yoshlar media madaniyati, qadriyatlar saqlanishi, internet psixologiyasi bo'yicha olib borilgan tatqiqotlar mavjud bo'lib, bu ilmiy ishlar mazmuni O'zbekistondagi mavjud holat va aynan Zarafshon vohasi shart-sharoitlaridan kelib chiqib tahlil qilindi. Masalan, E.Vartanova, M.Lukina. Russian journalism education: Challenging media change and educational reform [14], E.Vartanova. Media conflictology as a field of research: working out theoretical approaches [15], T. Gulasan. Sosial Medya

Güncel Tartışmalar: Sosyal Medyanın Kontrolü & Sosyal Medya Hizmet ve Gizlilik Sözleşmeleri & Yerli ve Milli Sosyal Medya [16] kabilarning tatqiqotlarida yoshlar tarbiyasi, ommaviy axborot vositalari xavfsizligi kabi ko'plab jihatlariga e'tibor qaratilgan.

Ushbu tadqiqot davomida Zarafshon vohasida faoliyat olib borayotgan "Zarafshon", "Samarqand yoshlari", "Buxoro yoshlari" gazetalari, Samarqand, Buxoro, Navoiy viloyatlarida faoliyat olib borayotgan telekanallar, mahalliy internet nashrlarining mustaqillik yillari davomida yoshlar tarbiyasiga doir materiallari, ularning ta'sir darajasi, uslubi, mazmun-mohiyati o'rganildi va tahlil qilindi.

Mazkur tadqiqot ishida bir nechta metodlardan foydalanildi. Masalan:

➤ **Tahliliy-solishtirma metodi.** Ushbu usul orqali milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarining yoshlar ma'naviy tarbiyasidagi ahamiyati, axborot siyosati va axborot strategiyalar tahlil qilinib, Zarafshon vohasidagi OAV faoliyatini boshqa hududlar va xalqaro tajriba bilan taqqoslashga yo'l ochadi.

➤ **Statistik tahlil metodi esa,** Zarafshon vohasida faoliyat yuritayotgan ommaviy axborot vositalari soni, yoshlarning yosh kategoriyalari va yoshlarning asosiy axborot iste'mol odatlari haqidagi statistik ma'lumotlarni yig'ish va ularning yosh avlodga qanchalik ta'sirga egaligi yig'ildi va ularning yoshlar tarbiyasiga ta'sir ko'rsatish darajasi baholandi.

➤ **Kontent tahlili metodi.** Bu metod samarali metodlardan biri bo'lib, mahalliy OAVning 1991-yildan to bugungi kungacha yoshlar ma'naviy tarbiyasiga oid materiallari mavzu va mazmun-mohiyat jihatdan o'rganilib, ular asosida kontentning asosiy yo'nalishlari, ijtimoiy-g'oyaviy, psixologik xususiyatlari va ta'sirchanlik darajasi tahlil etiladi. Masalan, 1991-yildan 2010-yilgacha bo'lgan davrda yoshlar ma'lumotlarning 90 foizga yaqinini bosma nashrlardan olganligi, 2010-yildan to 2024-yilgacha e'lon qilingan kontentlar esa, asosan, axborot kommunikatsiya texnologiyalari yordamida elektron tarzda iste'molchilarga yetkazilganligi, yoshlarning aksariyati online platformalardan foydalanishga o'tganligini ko'rsatmoqda.

➤ **So'rovnomalar va intervyu metodlari.** Ushbu metodlar xalqaro miqyosda ham juda mashhur sanaladi. Chunki, bunda shakllangan fikr, g'oyalar aynan o'rganilayotgan qatlam ichiga chuqurroq kirib borishga imkon yaratadi.

**Natijalar va muhokamalar.** Tadqiqot jarayonida Zarafshon vohasida istiqomat qiluvchi 200 nafar yosh respondent ishtirokida so'rovnomalar o'tkazildi, ularning ommaviy axborot vositalariga bo'lgan qarashlari, qanday axborot manbalari, qanday media kontent iste'mol qilishlari kabi savollarga javob olindi. Natijalar shuni ko'rsatmoqdaki, so'rovnomalar ishtirokchilarining 35 foizi o'zlari istifoda qilayotgan kontentlarning mazmun-mohiyatiga kam e'tibor qaratishi, 34 foiz respondentlar esa, kontentlarni tahlil qilishi, 31 foiz yoshlar esa, ishonchli manbalardan ma'lumotlar olishga harakat qilishi oydinlashdi. Bundan tashqari, Buxoro va Navoiy viloyatlarida faoliyat yuritayotgan 5 nafar gazeta nashrlari rahbari, 2 nafar jurnalist, 10 nafar mahallardagi yoshlar yetakchilari bilan intervyular o'tkazilib, ularning sohaga doir fikr-mulohazalari to'plandi.

Shuningdek, 2024-yilda o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnomalar ko'ra, Zarafshon vohasida faoliyat olib borayotgan OAVning yoshlar tarbiyasi va ularning ma'naviy kamolotiga ta'sir darajasi va yo'nalishlarini tahlil qilindi. Tadqiqotga Zarafshon vohasi hududida yashovchi turli yosh toifasidagi 400 nafar respondent ishtirok etdi. Ishtirokchilarning 77 foizi OAVning yoshlar ijtimoiy ongini shakllantirishda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini targ'ib qilishda, axborot berish va tarbiya berishda muhim vosita ekanligini qayd etdi. 45 foizi muntazam mahalliy gazeta va jurnallarni, radio va teleko'rsatuvlarni kuzatib borishini, ular orqali ma'naviy-ma'rifiy bilimlarini oshirayotganligini, yoshlarning 59 foizi esa, e'lon qilinayotgan tarbiyaviy va ma'naviy-ma'rifiy materiallar ularning tafakkuri, hayot pozitsiyasi, dunyoqarashiga hamda ijtimoiy faolligini oshirishga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishini, 49 foizi esa OAVda berilayotgan ma'naviy-ma'rifiy materiallarning hajmi va sifatiga qoniqishini, 43 foizi esa, materiallar sifatidan qoniqmasligini, ushbu materiallarni zamonaviy uslubda taqdim etish kerakligini ta'kidlagan.

Mahalliy ommaviy axborot vositalarida berib borilayotgan kontentlar mavzusiga kelsak, tahlil natijalariga ko'ra, Zarafshon vohasida ommaviy axborot vositalari, asosan, yoshlar tarbiyasi, sog'lom turmush tarzi, ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot, milliy qadriyatlarini keng yoritishga alohida e'tibor qaratayotganligini ko'rish mumkin. Masalan, yuqoridagi so'rovnomada ishtirok etgan yoshlar mahalliy radiokanallar va ijtimoiy tarmoqlar sahifalarida e'lon qilinayotgan materiallarning 67 foizi yoshlar ma'naviy kamolotiga ijobiy ta'sir qilishini, milliy qadriyat va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishini ta'kidlashgan.

Tadqiqot natijalari ko'ra, Zarafshon vohasida ommaviy axborot vositalari yosh avlod tarbiyasi va ularning ma'naviy, psixologik shakllanishida muhim vosita bo'lib xizmat qilayotganini ta'kidlashimiz mumkin. Chindan ham komil insonni voyaga yetkazishda ommaviy axborot vositalarining o'rni beqiyosdir. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, OAVlarda e'lon qilinayotgan ma'lumotlar asosan tarixiy meros, milliy qadriyatlar, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, xolis diniy bilimlar va sog'lom turmush tarsi kabi bir qator



mavzular yoritilmoqda. Bu esa yoshlar orasida faollikni oshirish, milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'usi, diniy bag'rikenglik tuyg'ularini kuchaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, yoshlar OAVning zerikarli sahifalardan emas, balki interaktiv, qiziqarli va zamonaviy formatdagi materiallardan iborat bo'lishi kerakligini istashlari aniqlandi. Shu bois, mahalliy OAV faoliyatini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida yanada rivojlantirish, ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanish kerakligi aniqlandi.

Boshqa hududlardagi o'xshash tadqiqotlar bilan taqqoslanganda, Zarafshon vohasida yoshlar ma'naviy kamoloti va tarbiyasida OAVning ta'sir darajasi sezilarli darajada yuqoriroq ekanligi kuzatildi. Mahalliy televideniye va radiokanallar, ijtimoiy tarmoqlarni rivojlantirish katta natijalar berishi, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishda ahamiyati beqiyosligini ta'kidlash lozim.

Yuqoridagi so'rovnoma ishtirok etgan yoshlar bir qator taklif va mulohazalarni bildirishdi. Jumladan, OAV materiallari sonini yanada ko'paytirish va sifatini oshirish, yoshlar ishtirokidagi ochiq muloqot, intervyu va turli mavzularda forumlar tashkil etish, ijtimoiy tarmoqlarda yosh toifalariga mos alohida sahifalar ochish va ularda milliy qadriyatlarni targ'ib qilish kabilarni ko'rsatsak bo'ladi. Ushbu tadqiqot Zarafshon vohasi hududida yoshlar tarbiyasi va ularning ma'naviy kamolotini ta'minlashda ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada rivojlantirish, mazmun va shakl jihatidan takomillashtirish, yoshlarning zamonaviy axborot makonidagi ehtiyojlarini to'liq qondirish zarurligini ko'rsatdi. Keyingi izlanish va tadqiqotlarda ushbu tadqiqot ishi ma'lum ahamiyatga ega. Soha rivoji uchun qilinishi kerak bo'lgan ishlar, dolzarb muammolar mavjudligini ko'rsatib berildi. Jumladan, internet nashrlari va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ma'naviy tarbiyasi, ma'naviy qadriyatlari shakllanishiga ta'sirini o'rganish, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini ilmiy asosda tahlil qilish istiqbolli yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda.

**Xulosa.** Ushbu tadqiqot ishidan kelib chiqib bir nechta xulosalarga kelishimiz mumkin. Jumladan, birinchidan, Zarafshon vohasida faoliyat yuritayotgan ommaviy axborot vositalari yoshlar ma'naviy tarbiyasi va kamolotini shakllantirishda muhim institut sifatida faoliyat olib bormoqda. Bugungi davrda globallashtirish jarayonlari axborot sohasiga ham ta'sir o'tkazmoqda. Axborot oqimi tezligi va hajmi aqlbovar qilmas darajada oshishi sharoitida yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi masalasi dolzarb muammolarga sababchi bo'layotganligi nomayon bo'lmoqda. Shu bois, OAVning yoshlar ongini sog'lom shakllantirish, milliy qadriyatlarni targ'ib etish va ma'naviy-ma'rifiy bilimlar berishdagi roli beqiyosdir. Ikkinchidan, Zarafshon vohasidagi mahalliy ommaviy axborot vositalari o'z materiallarida milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, sog'lom turmush tarzi, diniy-ma'rifiy bilimlar va ajdodlarimiz merosini yosh avlodlar orasida keng targ'ib etishga alohida e'tibor qaratish zarur. Uchinchidan, so'rovnoma natijalariga ko'ra, yoshlarning aksariyati ommaviy axborot vositalari orqali ma'naviy-ma'rifiy ko'rsatuvlar va maqolalarni muntazam kuzatib borishini bildirgan va ushbu materiallar ularning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda. To'rtinchidan, mahalliy OAVda taqdim etilayotgan materiallar tahlili yosh avlod vakillari uchun sog'lom ongni shakllantirish, insoniy tarbiyani shakllantirishda muhim vosita ekanligi qayd etildi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari va olingan ma'lumotlar tahliliga asoslanib, Zarafshon vohasida ommaviy axborot vositalarining yoshlar tarbiyasi sifat jihatidan oshirish va ularning kamolotiga erishish borasida, shuningdek, zamonaviy axborot makonidagi salbiy ta'sirlarga qarshi kurashishda ularning rolini oshirish maqsadida quyidagi tavsiya va takliflarni qayd etmoqchiman. Masalan:

1. Mahalliy OAV materiallarini diversifikatsiya qilish va yoshlar auditoriyasining ehtiyoj va qiziqishlarini inobatga olib zamonaviy, interaktiv dastur va ko'rsatuvlar tayyorlash;
2. Milliy qadriyatlar, sog'lom turmush tarzi, ekologik savodxonlik, tejamkorlik, sport va san'atni rivojlantirishga oid mavzularida materiallar hajmi va sifatini oshirish;
3. Ommaviy axborot vositalarida yoshlar ishtirokini oshirish. Yosh blogerlar, jurnalistlar ijtimoiy tarmoq sahifalariga ega faollarni rag'batlantirish;
4. Mahalliy ommaviy axborot vositalari jurnalistlari va muharrirlarini tomonidan yoshlar uchun masterklasslar tashkil etish. Bu orqali OAV xodimlarining yoshlar bilan ishlash, ularga mos axborot berish va zamonaviy media trendlarini o'zlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish;
5. Ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan zararli axborotlarga qarshi ma'rifiy-psixologik profilaktika olib boruvchi maxsus ko'rsatuvlar va maqolalar e'lon qilish. Axborot xavfsizligi va g'ayriinsoniy, yot g'oyalar ta'siriga qarshi kurashishda OAV imkoniyatlarini kuchaytirish;
6. Sog'lom raqobat muhitini yaratish maqsadida ta'lim muassasalari va jamoat tashkilotlari hamkorligida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, ochiq suhbatlar, davra suhbatlari va seminar-treninglar o'tkazish;
7. Milliy qadriyatlar, tarixiy shaxslar hayoti, ma'naviy meros va yoshlar qiziqishlariga mos onlayn-media resurslar, veb-portallar va mobil ilovalarni yaratish;

## HISTORY

8. “Eng faol yosh jurnalist”, “Yilning ma’naviyat targ‘ibotchisi” kabi ko‘rik-tanlovlarni tashkil etish orqali yosh avlod orasida ijtimoiy faollikni oshirish va ommaviy axborot vositalarida yoshlar salmog‘ini oshirish;

9. Sotsiologik so‘rovnomalar, yosh toifalari uchun maxsus guruhlar va ochiq muloqotlar tashkil qilish orqali yoshlarning ehtiyojlari va talablarini muntazam ravishda o‘rganish.

### ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. *Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik*. – Toshkent: Tasvir nashriyoti uyi, 2021. – 32-bet

2. Mirziyoyev Sh. *Yangi O‘zbekiston – taraqqiyot strategiyasi*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 224-bet

3. *Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 14.09.2016 yildagi O‘RQ-406-son.* <https://lex.uz/docs/-3026246?ONDATE=26.01.2022>

4. *O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 18.01.2021 yildagi 23-son.* <https://lex.uz/docs/-5234746?ONDATE2=19.01.2021&action=compare>

5. Eshbekov, T. L. *Axborot xizmatlari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2019.* – 21-bet

6. Najmiddin, M. (2025). Internet va axborot maydonidagi ma’naviy xavfsizlik muammolari. *Fan, Jamiyat va Innovatsiyalar*, 3(21), 88-90.

7. Madina, R., & Abduqaxxorovna, E. G. (2023). Ijtimoiy tarmoqdagi tuzoqlarning yoshlar ma’naviyatiga ta’siri. *Qo‘qon universiteti xabarnomasi*, 1259-1261.

8. Ravshanovich, A. O. (2025, May). Globallashuv jarayonida axboriy psixologik xavfsizlik muammosining dolzarb muammo sifatida o‘rganilishi. In *Interdiscipline innovation and scientific research conference* (Vol. 3, No. 31, pp. 121-126).

9. U. Vaxobov. *Axborot oqimi jadallashuvining yoshlar ma’naviy-axloqiy qiyofasiga ta’siri va muammolar.* *Innovative Development in Educational Activities*, 3(2), 141–146. <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/2115>

10. Tolliboyev, D. (2025). Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar orasidagi ma’naviyatga ta’siri: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14890922>. // *Journal of International science networks*, 1(4), 2-5.

11. McQuail, D. (2010). *McQuail's mass communication theory*. Sage publications.

12. Castells, M. (2011). *The rise of the network society*. John wiley & sons.

13. Chaffee, S. H., & Metzger, M. J. (2001). The end of mass communication?. *Mass communication & society*, 4(4), 365-379.

14. Vartanova, E., & Lukina, M. (2017). Russian journalism education: Challenging media change and educational reform. // *Journalism & Mass Communication Educator*, 72(3), 274-284.

15. Вартанова, Е. Л., & Дунас, Д. В. (2023). Media conflictology as a field of research: working out theoretical approaches. // *Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Литературоведение, журналистика*, 28(4), 724-733.

16. Gülaslan, T. (2021). *Sosyal Medya Güncel Tartışmalar: Sosyal Medyanın Kontrolü & Sosyal Medya Hizmet ve Gizlilik Sözleşmeleri & Yerli ve Milli Sosyal Medya. Uluslararası Yönetim Akademisi Dergisi*, 4(1), 1-21.

## SHIRBUDUN SAROYINING QURILISH TARIXI XORIJIY VA MAHALLIY TARIXCHILAR NIGOHIDA

**Nurulloyev Shahriyor Shavkatovich,**

*Buxoro davlat pedagogika instituti*

*Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Buxoro amirlari Amir Muzaffarxon va Amir Abdulazizxon davrida, Buxoro shahridan tashqarida barpo etilgan "Shirbudun" saroyi haqida, uning qurilish tarixi, vazifalari va keyingi taqdiri haqida so'z boradi. Ma'lumotlar turli tarixiy manbalar va tadqiqotlarning natijalaridan foydalangan holda tayyorlangan bo'lib, mahalliy tarixchilar hamda xorijiy sayyohlarning fikrlari iqtibos sifatida keltiriladi.

**Kalit so'zlar:** Buxoro, Shirbudun, Amir Muzaffarxon, Sadriddin Suniy, Dmitriyev-Kavkazskiy, Maks Albrext, usta Rahim Hayotov.

## ИСТОРИЯ СТРОИТЕЛЬСТВА ДВОРЦА ШИРБУДУН ГЛАЗАМИ ЗАРУБЕЖНЫХ И МЕСТНЫХ ИСТОРИКОВ

**Аннотация.** В данной статье рассказывается о дворце «Ширбудун», возведённом за пределами города Бухары в период правления бухарских эмиров Амира Музаффархана и Амира Абдулазизхана. Освещается история его строительства, назначение и дальнейшая судьба. Информация подготовлена на основе различных исторических источников и результатов исследований, приводятся цитаты местных историков и иностранных путешественников.

**Ключевые слова:** Бухара, Ширбудун, Амир Музаффархан, Садриддин Суни, Дмитриев-Кавказский, Макс Альбрехт, мастер Рахим Хаятов.

## THE CONSTRUCTION HISTORY OF THE SHIRBUDUN PALACE THROUGH THE EYES OF FOREIGN AND LOCAL HISTORIANS

**Abstract.** This article discusses the "Shirbudun" palace, which was built outside the city of Bukhara during the reigns of Bukhara's emirs Amir Muzaffar Khan and Amir Abdulaziz Khan. It covers the palace's construction history, functions, and subsequent fate. The information is compiled using various historical sources and research findings, incorporating quotes from local historians and foreign travelers.

**Keywords:** Bukhara, Shirbudun, Amir Muzaffar Khan, Sadriddin Suniy, Dmitriyev-Kavkazskiy, Max Albrecht, master craftsman Rahim Hayotov.

**Kirish.** Buxoro shahri juda uzoq tarixga ega. Bu ko'hna shahar tarixning ko'plab suronli davrlariga ham, dorulomon kunlarga ham shohidlik qilgani ayni haqiqat. Buxoro – nafaqat o'zining ilm-fan va Islom diniga qo'shgan hissasi bilan, balki dunyoning hech bir burchagida takrorlanmas ulug' me'morchiligi bilan ham barchani lol qoldiradi. Buxoroda azal-azaldan me'morchilik san'atining ko'plab durdonalari yaratilgan. Ark qal'asi, Arslonxon minorasi, Mir Arab madrasasi, Sitorayi Moxi xosa saroyi bulardan faqat ayrimlari xolos. Buxoro shahri tarix davomida ko'plab sulolalar davrida davlat poytaxti vazifasini ham o'tagan. Aynan Mang'itlar sulolasi davrida ham Buxoro amirlik poytaxti sifatida tan olingan. Mang'it hukmdorlari davrida sharif shahar ichida va uning atrofida ko'plab qurulish ishlari olib borilgan. Bunday me'morchilik durdonalaridan biri Sherbudin saroyi hisoblanadi. Ushbu maqolada biz Shirbudun saroyi, uning qurilish davri, tarixiga oid ma'lumotlarni keltirib o'tamiz.

**Mavzuga doir adabiyotlar tahlili.** Shirbudun — Shirbadan, Sherbudin tarzida talaffuz qilinib, bu so'zlar bir-biridan farq qiladi. Masalan, Shirbadan so'zi fors-tojik tilida Shir — sut, badan — tana degan ma'noni bildirsa, Shirbudun so'zi shir xalqi, elati ma'nolarini anglatadi. Shir, sir, chir, nomlari bilan qadimgi turkiy xalqlardan biri nomlangan. Sir budun — „sir xalqi“, „sir qavmi“ ma'nosida Kultegin yodgorligida (732-yil) uchraydi. Demak, Buxoro shahridan sharqda joylashgan Shirbudun qishlog'i nomi tarkibida saqlangan budun so'zi bu toponimning shu so'z qo'llanilgan davrga (ya'ni X—XI asrlarga) mansubligidan, shu vaqtlarda Buxoroning bir maskanida turkiy xalqlarga mansub shir (sir, chir) qavmi muqim bo'lganligidan dalolat beradi. Chunki ko'p hollarda shu qishloqda yashagan aholi — urug' (qavm, elat) nomi bilan atalib kelgan. Shirbudun so'zi hozirgi kunda asosan Sherbudin savdo majmuasi borligi sababli,

xalq orasida Sherbudin tarzida talaffuz qilinadi. 2007-yilda shu hududning mahalla fuqarolar yig'ininga Shirbudun nomi berilgan.

Shirbudun saroyi — Buxoro amirlarining siyosiy qarorgohlaridan biri. Saroy Buxoro amirligida hukmronlik qilgan Amir Muzaffarxon (1860–1885) va Amir Abdulahadxon (1885–1910) davrlarida qurib bitkazilgan. Saroy Buxoro registonidan janubi-sharqqa tomon 4 kilometr uzoqlikda, yangi Buxoro (hozirgi kongan shahri) yo'lida barpo etilgan. Saroyning qurilish ishlari taxminan 1870-yillarda boshlangan. Shirbudunda ganchkor (gilkor) usta Rahim Hayotov, durezgar Abdurasul va boshqalar ishtirokida saroy, masjid, tomoshagoh kabi binolar qurilgan.

Saroyning asosiy vazifasi turli xil sayllar, to'y va tomoshalar o'tqazish bo'lgan. Amir Muzaffarxon Shirbudun saroyida xorijlik elchilarni qabul qilganligi va ular uchun ziyofatlar uyushtirganligi tarixiy manbaalarda mavjud. Sayllar paytida saroy atrofida 500 dan ortiq chodirlar qurilib, u yerda yarmarkalar ham tashkil qilingan. Bundan tashqari Rempelning ma'lumotlariga qaraganda, "Soli nav" – Yangi yil, ya'ni Navro'z bayrami tomoshalari tashkil qilingan.

Saroyning tashqi ko'rinishidan Yevropa va Eron arxitekturasini belgilari sezilib turadi. Shirbudun saroyida Yevropa dizayniga xos mebellar, qandillar o'zining bebaholigi bilan ajralib turgan. Bunday shakldagi buyumlarning mavjudligi haqidagi ma'lumotlarni Buxoroga tashrif buyurgan fotograflarning kolleksiyasidan ham bilib olish mumkin.

1893- yilda gamburglik sanoatchi va siyosatchi Maks Albrext (1851-1925-yil) Markaziy Osiyo bo'ylab sayohat qilgan, shu jumladan, Buxorodagi Shirbudin saroyida ham bo'lgan. Maks Albrext sayohat taassurotlaridan kelib chiqib 1896- yilda o'zining "Russisch Centralasien.-Reisebilder aus Transkaspien Buxara und Turkestan" – "Rossiyaning Markaziy Osiyosi. Transkaspiy mintaqasi, Buxoro va Turkistondan sayohat rasmlari" nomli kitobini chop etgan. Ushbu kitobning 152-155- betlarida muallif o'zi tashrif buyurgan Shirbudin saroyini ta'riflab saroy haqida o'ta qiziqarli ma'lumotlarni keltirgan. Ushbu qaydlardan bilib olishimiz mumkinki: Shirbudun saroyi – Buxoro amirligida to'liq elektr tizimi bilan yoritilgan birinchi inshoot hisoblanadi.

1907- 1911- yillarda Buxoroda bo'lgan rus fotosuratshisi Sergey Mixaylovich Prokudin-Gorskiy (1863-1944) dastlabki rangli fotosuratlarini olishga muvassar bo'ladi. Jumladan, Amir Olimxon portreti, xalq ahvoli tushirilgan manzaralar, Shirbudun saroyining old qismi va orqa qismi, taxt saroyi, hamda bog'larning ko'rinishlarini suratga oladi. S.M. Prokudin-Gorskiyning 1907- yil Shirbudin saroyining yuqori martabali mehmonlarni qabul qilish xonasida olgan fotosuratda elektr orqali yoritiladigan xona va qandil ko'rsatilgan. Saroydagi xonalar dizel generator orqali yoritilgan.

1888- yil 20 -fevralda fotograf Dmitriyev-Kavkazskiy Buxoroga tashrif buyuradi. Sayyoh Sherbudin saroyiga tashrif buyurish uchun Buxoro amiridan ruxsat oladi. U o'z kundaligida Buxoroning 30 dan ortiq tarixiy-etnografik lavhalarini chizib qoldirgan. Dmitriyev-Kavkazskiy saroyini quyidagicha tariflaydi:

**Tadqiqot metodologiyasi.** "Taom tanovvulidan keyin saroyning bir nechta kichik arab-fors uslubida bezalgan xonalarini aylandik. Ba'zi xonalar devoriy suratlar bilan bezatilgan. Xonalardagi medalyonlar (trunjlar) ichidagi naqqoshlik namunalari sharq uslubida ishlangan. Nihoyat, men eng ajoyib oynali xonaga keldim. Xona devorlari hoshiyasiz oynalar bilan o'ralgan. Xuddi xona tugamaydigandek..."

Dane Ole Olufsen – (1885-1929) daniyalik professor, Daniya geografik jamiyati komandiri. U 1896, 1897-99- yillarda Buxoro amirligida bo'lgan. Sayohat xotiralari 1911- yilda "The Emir of Bokhara and his country" nomi ostida Londonda nashr qilingan. Kitobdagi noyob lavhalar: "Quyil hovli saroyi", "Amir Abdulaxadxonning surati", "Amirning Sherbudindagi taxti va amaldorlar", "Elchixona saroyi" (sayyoh shu yerda yashagan), "Qoplon", "Haram" saroylari va boshqalar shular jumlasidandir.

N.S.Voronets -1898-1902- yillarda Buxoroda oq-qora formatda fotosuratlar olgan. Jamoat inshootlari, shuningdek, Sherbudin saroyi va uning zali tasvirlangan fotosuratlar mavjud.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Shirbudun saroyida juda ko'plab xorijlik mehmonlar tashrif buyurishgan va o'z esdaliklarida yozib qoldirishgan. Ana shunday qimmatli qaydlardan biri mashhur sayyoh va fotograf Dmitriyev-Kavkazskiyga tegishli. 1888-yil 20-fevralda Buxoroga tashrif buyurgan sayyoh Sherbudin saroyi haqida quyidagi qimmatli qaydlarni yozib qoldirgan:

"Bulutli kunlarning birida amir saroyidagi inoq (amirga yaqin shaxs) mirzo orqali menga xabar yuborib, saroyini ko'rishim mumkinligini bildirdi. Biz saroyini tomosha qilishga yo'l oldik. U ko'p sonli xonalardan iborat bo'lib, arab-fors uslubida nihoyatda rang-barang bezatilgan edi. Ayrim xonalar ganch o'ymakorligi va rasmlar bilan qoplangan. Boshqa xonalarda esa shoirona ganch medalyonlar bor bo'lib, ularga sharqona uslubda bo'yalgan qog'oz suratlar yopishtirilgan.

Oxirida menga eng diqqatga sazovor joy – ulkan oynali (ko'zgu) zalni ko'rsatishdi. Zalning devorlari ramkasiz to'rt arshin balandlikdagi oynalar bilan qoplangan edi. Hatto, eshiklar ham to'liq oynadan yasalgan, shu sababli zal cheksiz bo'lib ko'rinardi. Pol fransuz gilamlari bilan qoplangan. Shiftdan osilib turgan katta



## HISTORY

lyustra fransuz bronzasidan ishlangan. Mebel ham yevropacha uslubda edi. Zalning markazida kichik gumbaz bo'lib, shift mavritancha uslubda ishlangan, ganch o'ymakorligi esa oltin va bo'yoqlar bilan bezatilgan. Bu zal hashamat va g'ayrioddiy xayoliy did bilan yaratilgan, biroq hech qanday me'moriy qonunlarga bo'ysunmaydi.

Saroyning tashqi ko'rinishi unchalik qiziq emas, lekin ichki hovlilari ustunli ayvonlar va nafis soyabonli eshiklar bilan chiroyli ko'rinishga ega. Hovlilarning markazida oq toshdan yasalgan hovuzli favvoralar joylashgan. Ba'zi hovlilar va binolar hanuzgacha qurib bitkazilmagan edi. Yana bir g'aroyib xona bor edi – vagon xonasi, ya'ni aniq nusxasi amirning Rossiyaga (ehtimol, toj kiyish marosimi vaqtida) borganda foydalangan vagoniga o'xshardi.

Saroyning yonida yaxshi bog' ham bor edi, lekin hali to'liq qurib bitkazilmagan. Aytilishicha, saroy amirning o'zi tomonidan mutaxassis quruvchilarsiz bunyod etilgan. Shu sababli unda hashamat bo'lsa-da, o'ta noodatiy, sharqona tasavvurga ega bo'lgan odamning yevropacha uslubni ko'rganidan keyin yuzaga kelgan g'alati uyg'unlik sezilib turadi." Biroq Dmitriev-Kavkazskiyning "O'rta Osiyo bo'ylab" asarida Shirbudun saroyi ichki qismiga oid hech qanday rasm uchramaydi. Shunga qaramay, Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasining fotofondida Shirbudun saroyiga oid 10 dan ortiq tarixiy suratlar saqlanadi. Ularning aksariyati Buxoraga turli yillarda tashrif buyurgan fotograf Orde, N.S. Voronets, Dane Ole Olufsen (1885–1929) tomonidan olingan. Hatto, XX asr boshlarida Prokudin-Gorskiy tomonidan rangli suratlar ham tushirilgan.

Olingan natijalar tahlili Shirbudun saroyi haqidagi qaydlar nafaqat xorijlik olimlar va sayohlarning esdaliklarida, balki mahalliy muarrixlarning asarlarida ham ko'p uchraydi. Jumladan: Mirzo Abdulazim Somiyning "Mang'it sultonlari tarixi yoki Buxoro xonligining inqirozi", Muhammad Ali Baljuvoniyning "Tarixi Nofeyi" asarlarida Shirbudun saroyi bir necha bor esga olingan.

**Olingan natijalar tahlili.** Sadriddin Ayniy o'zining "Esdaliklar"ida Shirbudun saroyi va chorbog'i to'g'risida shunday yozgan:

"Shirbadandagi asosiy saylgoh amir chorbog'i oldidan o'tadigan katta yo'lining ikki tomonida joylashgandi. Shahardan borayotganda chap tarafda atrofi devor olingan maydon bor edi, uni chil tanobi deyishardi, uning katta darvozasi bor. Bu o'rab olingan maydonda jome masjidi, chavki (bazm maydonlari) va tomoshaxonalar joylashgandi, maydonning bundan bo'lak joylarini qassoblar va oshxonalar egallagan. Bu maydonning oxiridan darvoza orqali katta yo'lga chiqilardi, bu yerning janub tarafida amir bog'ining darvozaxona yo'li va bog' darvozasi tomonida ayvon bo'lardi, mazkur yerni xalq ahli tomosha qilardi".

### 1-jadval.

#### Shirbudun saroyi haqida tarixiy manba va sayyohlar qaydlari

| № | Muallif / Manba                  | Tashrif yili / Asar          | Fikr / Ma'lumot mazmuni                                       | Qisqacha tavsif                                                 |
|---|----------------------------------|------------------------------|---------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------|
| 1 | Dr. Max Albrecht (Germaniya)     | 1893 / 1896-yil              | Shirbudun saroyi – Buxorodagi ilk elektr tizimiga ega inshoot | G'arbcha uslubdagi saroy, elektr chiroqlar, hashamatli mebellar |
| 2 | S.M. Prokudin-Gorskiy (Rossiya)  | 1907, 1911                   | Rangli fotosuratlar: saroy zali, bog'lar, qabulxonalar        | Saroyi tasvirlovchi ilk rangli fotosuratlar                     |
| 3 | Dmitriyev-Kavkazskiy (Rossiya)   | 1888 / "O'rta Osiyo bo'ylab" | Oynali zal, arab-fors uslubi, ganch medalyonlar, vagon xonasi | Detallangan ichki tasvir, Sharq va G'arb uyg'unligi             |
| 4 | Dane Ole Olufsen (Daniya)        | 1896–1899 / 1911             | Elchixona saroyi, Amirning taxti, favvoralar, bog'lar tasviri | Daniya Geografik jamiyati manbasi, noyob suratlar               |
| 5 | N.S. Voronets (Rossiya)          | 1898–1902                    | Oq-qora suratlar: hovlilar, saroy zali, xalq hayoti           | Saroy muhitining tasviriy manbasi                               |
| 6 | Mirzo Abdulazim Somiy (Buxoro)   | XIX asr oxiri                | "Mang'it sultonlari tarixi"da saroy haqida eslatmalar         | Mahalliy tarixiy asar                                           |
| 7 | Muhammad Ali Baljuvaniy (Buxoro) | XIX asr                      | "Tarixi Nofeyi" asarida saroyga doir ma'lumotlar              | Saroy tarixini yorituvchi yozma manba                           |
| 8 | Sadriddin Ayniy                  | XX asr                       | "Esdaliklar" asarida bazmlar,                                 | Saroy maydonlarining                                            |

## HISTORY

| № | Muallif / Manba           | Tashrif yili / Asar | Fikr / Ma'lumot mazmuni                               | Qisqacha tavsif                      |
|---|---------------------------|---------------------|-------------------------------------------------------|--------------------------------------|
|   | (Tojikiston)              | boshlarida          | chavki, jome masjid, tomoshaxonalar haqida tasvir     | ijtimoiy rolini yoritadi             |
| 9 | L.I. Rempel (O'zbekiston) | 1981                | "Soli nav" – Navro'z bayrami Shirbudunda nishonlangan | Bayramlar o'tkazilgan ijtimoiy makon |

Shirbudun saroyi me'morchiligi to'g'risida batafsil ma'lumotlar ko'p keltirilmagan. Hozirgi kunda qo'limizdagi bor ma'lumotlar asosida saroy me'morchiligi haqida quyidagilarni bayon etishimiz mumkin: Shirbudun saroyi devorlari balandligi 10 metr bo'lib, u aylana shaklidagi paxsa devor bilan o'rab olingan. U boshqa saroylar singari, tekis tomlar, atirgul butalari, mevali daraxtlar, ajoyib bog'lardan tarkib topgan. Majmua binolarining bir qismi yog'och, bir qismi esa g'isht bilan qurilgan.

Shirbudun saroyi bir qancha kichik arab-fors uslubida bezatilgan xonalardan iborat bo'lgan. Ba'zi xonalar devoriy suratlar bilan bezatilgan. Saroy xonalarida medalyonlar ichidagi naqqoshlik namunalari sharq uslubida bezatilgan. Shuningdek, oynali xona ham mavjud bo'lib, uning balandligi 4 arsh, devorlari esa hoshiyasiz oynalar bilan o'ralgan. Xonaga fransuz gilami to'shalgan va shiftida fransuz bronzasidan ishlangan qandil osilgan. Saroy xonasi o'rtasidagi gumbaz arab uslubidagi naqshlar bilan bezatilgan va oltin suvi yuritilgan.

Saroyda bir nechta hovlichalar markazida oq marmardan favvorali hovuzlar bo'lgan. Qarorgohda amirning elchilarni kutib olishi uchun qabulxonasi bo'lib, turli nashqlar bilan bezatilgan va jihozlangan, xona balkoni esa yog'och ustunlar bilan o'ralgan. Qabulxonaning to'rida amir taxti joylashgan bo'lib, bu taxt Rossiya imperatori tomonidan sovg'a qilingan. Barcha xonalarga qimmatbaho gilamlar to'shalgan.

Shirbudun saroyi turli xil bezaklar, xususan, yog'ochdan yasalgan ustunlar, verandalar va chiroyli balkonchalar bilan bezatilgan. Saroyda, shuningdek, haram, hovuz, hammomlar, keng gumbazli xonalar, favvoralar va ichki hovli atrofida bog'lar bo'lgan.

Majmua 1920–1924-yillarda Buxoro Xalq Sovet Respublikasining Ziroat nozirligi ixtiyoriga o'tkazilgan Shirbudun saroyi va bino o'rni bugungi kunga qadar saqlanib qolmagan. Saroy hududida bog' yangidan barpo etilgan va 1960-yillarda bog' hududida Buxoro viloyati suv xo'jaligi binosi qurilgan. SSSR qulab, O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, bog'dagi ushbu bino mahalla fuqarolar yig'iniga topshirilgan.

**Xulosa.** Shirbudun saroyi Buxoro amirligi tarixida alohida o'rin tutgan siyosiy va madaniy markazlardan biri hisoblanadi. Uning qurilishi XIX asrning ikkinchi yarmida, Amir Muzaffarxon va Amir Abdulahadxon davrlariga to'g'ri kelib, bu davr Buxoro amirligi me'morchilik taraqqiyotining nisbatan yuksalgan bosqichi bo'lgan. Ushbu saroy nafaqat amirlikning tashqi siyosiy aloqalarini mustahkamlashda muhim rol o'ynagan, balki davlat ichki hayotida – xalq sayllari, Navro'z bayramlari, elchilarni qabul qilish kabi muhim marosimlar o'tkaziladigan markaziy maskan sifatida faoliyat yuritgan.

Saroyning qurilishida ishtirok etgan mahalliy ustalar – Rahim Hayotov, Abdurasul va boshqalar, o'z davrining eng yetuk me'morlari bo'lib, ular yaratgan inshootlar o'ziga xos bezaklari, ganchkorlik san'ati, yog'och o'ymakorligi, me'moriy uyg'unligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, saroyning oynali zallari, Yevropa uslubidagi lyustralar, Fransiya gilamlari bilan bezatilgan xonalari, Sharqona va G'arbona arxitektura uyg'unligi o'z davrida noyob hodisa hisoblangan.

Maqola davomida keltirilgan xorijiy manbalar – Maks Albrext, Dmitriyev-Kavkazskiy, Ole Olufsen, S.M. Prokudin-Gorskiy kabi taniqli sayyohlar va tadqiqotchilar tomonidan yozib qoldirilgan esdaliklar hamda suratlar, Shirbudun saroyining xalqaro miqyosda qanday e'tibor qozonganini ko'rsatib beradi. Ayniqsa, Prokudin-Gorskiyning 1907-yilda rangli fotosuratlar tushirgani – bu saroy o'z davrida texnikaviy yutuqlardan foydalangan ilk inshootlardan biri bo'lganini isbotlaydi. Elektr yoritgichlar, dizel generatorlar va boshqa texnik qurilmalar saroyda mavjud bo'lib, u Buxoro amirligining zamonaviylikka intilganligini ham ko'rsatadi.

Bundan tashqari, mahalliy tarixchilar – Mirzo Abdulazim Somiy, Muhammad Ali Baljuvaniy, Sadridin Ayniylarning asarlarida Shirbudun saroyi tez-tez tilga olinishi, bu obidaning xalq hayotida, adabiy-badiiy tafakkurda va tarixiy xotirada qanday mustahkam o'rin egallaganini ko'rsatadi. Ayniyning "Esdaliklar" asarida saroy maydonlari, bazmlar, tomoshaxonalar va xalq yig'inlarining ta'rifi – bu joyning madaniy va ijtimoiy markazga aylanganidan dalolat beradi.

Bugungi kunga kelib, saroyning fizik holati saqlanmagan bo'lsa-da, u haqida saqlanib qolgan yozma manbalar, tarixiy fotosuratlar va sayyohlarning esdaliklari uning tarixiy qadriyat sifatida qayta tiklanishiga umid uyg'otadi. Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasida saqlanayotgan suratlar, Daniya, Rossiya va Germaniya

## HISTORY

---

arxivlaridagi manbalar, mahalliy arxeologik izlanishlar – bularning barchasi saroyi virtual yoki rekonstruksiya asosida tiklash imkoniyatini yaratmoqda.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Shirbudun saroyi faqat bir inshoot emas – u Buxoro amirligining siyosiy donishmandligi, madaniy taraqqiyoti, xalq urf-odatlarining timsoli, me'moriy fikrning yuksak namunasi va zamonaviy yondashuvlarning ilk qadamlaridir. Bu saroy tarixchilarga, arxitektorlarga, madaniyatshunoslarga va arxeologlarga kelgusida chuqur o'rganish, tahlil qilish va saqlashga doir ko'plab imkoniyatlar taqdim etadi.

Shirbudun saroyi bizga faqat o'tmishni emas, balki kelajakda tarixiy merosni qanday asrashimiz kerakligi haqida ham saboq beradi. U orqali biz o'z tariximizga bo'lgan hurmat, o'zlikni anglash, madaniy merosni asrab-avaylash tuyg'ularini yanada chuqur his qilamiz.

### ADABIYOTLAR:

1. Ремпель Л.И. Далёкое и близкое. -Т: Г.Гулям., 1981. -с. 122
2. Dr. Max Albrecht, "Russisch Centralasien", Reiserbilder aus Transkaspien, Buchara und Turkestan (mit 52 Abbildungen), 1896 г., Verlagsanstalt und Druckerei A.-G. (vormals J. F. Richter), Гамбург, XII+249 стр.
3. Дмитриев-Кавказский Л.Э. По Средней Азии. СПб.: 1894.–С.94-95
4. Мирза Салимбек. Тарих-и Салими (Источник по истории Бухарского эмирата). Перевод с персидского Н. К. Норкулова. Ташкент: Академия, 2009 – 330 с.
5. Айний С. Бухара II. Д.:1981.–С.314.
6. Джуроев Ш. Г. Фотоколлекция Прокудина-Горского, посвящённая Бухаре // Приоритетные векторы развития промышленности и сельского хозяйства. – 2020. – С. 20.

## MIRZO ULUG'BEKNING ILM-FAN SOHASIDAGI FAOLIYATI: SHARQ RENESSANSI YUZASIDAN ILMIY TADQIQ

*Rahmatov Murodjon Azam o'g'li,  
Buxoro davlat pedagogika instituti talabasi  
murodrahmatov14@gmail.com*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada buyuk mutafakkir va sulton — Mirzo Muhammad Tarag'ay Ulug'bekning ilm-fan sohasidagi ulkan xizmatlari, u yaratgan ilmiy maktabning mohiyati hamda faoliyatining Sharq Renessansidagi o'rni chuqur tahlil qilinadi. Ulug'bek tomonidan Samarqandda barpo etilgan rasadxona va madrasa Sharqdagi yirik ilmiy markazlardan biri sifatida baholanib, bu muassasalarda faoliyat yuritgan Qozizoda Rumi, G'iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi kabi olimlarning ilmiy ishlari ham tahlil qilinadi. Tadqiqotda Ulug'bek Mirzoning astronomiya, matematika, ta'lim va ilmiy muassasalar tashkil etish borasidagi faoliyatini tarixiy manbalar asosida ilmiy asoslash va uning jahon ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissasi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Ulug'bek Mirzo, astronomiya, Vyatkin, Samarqand, "Tarixi arba ulus", Shohruh, Amir Temur, V. Bartold, rasadxona, Ali Qushchi.

## НАУЧНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МИРЗО УЛУГБЕКА: НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В АСПЕКТЕ ВОСТОЧНОГО ВОЗРОЖДЕНИЯ

**Аннотация.** В данной статье глубоко анализируются великие заслуги великого мыслителя и султана - Мирзо Мухаммада Тарагая Улугбека в области науки, сущность созданной им научной школы и место его деятельности в Восточном Возрождении. Обсерватория и медресе, основанные Улугбеком в Самарканде, считаются одними из крупнейших научных центров на Востоке, а также анализируются научные труды таких учёных, как Казизода Руми, Гиёсиддин Коши, Али Кушчи, работавших в этих учреждениях. В исследовании рассматривается научное обоснование деятельности Улугбека Мирзо в области астрономии, математики, образования и создания научных учреждений на основе исторических источников и его вклад в развитие мировой науки.

**Ключевые слова:** Улугбек Мирзо, астрономия, Вяткин, Самарканд, «Тарихи арба улус», Шохрух, Амир Темур, В. Бартольд, обсерватория, Али Кушчи.

## MIRZO ULUGH BEK'S SCIENTIFIC ACTIVITIES: SCIENTIFIC RESEARCH FROM THE ASPECT OF THE EASTERN RENAISSANCE

**Abstract.** This article deeply analyzes the great services of the great thinker and sultan - Mirzo Muhammad Taragay Ulugbek in the field of science, the essence of the scientific school he created, and the place of his activities in the Eastern Renaissance. The observatory and madrasah founded by Ulugbek in Samarkand are considered one of the largest scientific centers in the East, and the scientific works of such scientists as Qazizoda Rumi, Ghiyosiddin Koshi, Ali Kushchi who worked in these institutions are also analyzed. The study considers the scientific substantiation of Ulugbek Mirzo's activities in astronomy, mathematics, education and the establishment of scientific institutions based on historical sources and his contribution to the development of world science.

**Key words:** Ulugbek Mirzo, astronomy, Vyatkin, Samarkand, «Tarihi arba ulus», Shohrux, Amir Temur, V. Bartold, observatory, Ali Kushchi.

**Kirish.** Temuriylar sulolasi davrida, ayniqsa, Ulug'bek Mirzo hukmronligi yillarida, O'rta Osiyo ilm-fan taraqqiyotining eng yuksak cho'qqilaridan biriga erishdi. Ulug'bek nafaqat siyosiy arbob, balki yetuk olim, ilm-fan homiysi sifatida tarixda o'chmas iz qoldirdi. Uning ilmiy merosi, ayniqsa, astronomiya va matematika sohasidagi yutuqlari, nafaqat Sharqda, balki butun dunyo ilm-fan tarixida yuksak baholangan. Mirzo Ulug'bek 1394-yil 22-martda bobosi Turon hukmdori Amir Temurning besh yillik urushlari davrida Sultoniya shahrida tug'ulgan. Otasi Amir Temurning to'rtinchi o'g'li Shohrux Mirzo, onasi turkiy qabila zodagonlaridan Gavharshod begim bo'lgan. Unga Mirzo Muhammad Tarag'ay ismi berildi. Ulug'bek asli ism emas, balki „Buyuk hukmdor (bek)“ ma'nosini beruvchi taxallus edi. Ulug'bekning ustozi shoir va olim Orif Ozariy bo'lgan. Bolaligida u Yaqin Sharq va Hindistonning katta qismini kezib chiqdi, chunki bobosi bu



hududlarda urushlar olib borgan. Hindiston yurishi davrida bobosi Amir Temurni Samarqanddan Kobulgacha kuzatib borgan[8; 19 6]. Temur 1404-yilda Xitoyga qarshi yurishidan oldin Sayram, Avliyoota va sharqiy hududlarni boshqarish huquqini nabirasi Mirzo Ulug'bekka berdi. Ulug'bek, Amir Temurning nabirasi sifatida, davlat boshqaruvi va harbiy ishlar bilan birga ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishni ham o'zining eng muhim vazifalaridan biri deb bilgan. Uning ta'lim olishga va ilmiy tadqiqotlarga bo'lgan qiziqishi yoshligidan boshlandi. Ulug'bek o'zining ilmiy faoliyatini shakllantirishda ota-bobolarining madaniy merosidan ilhom oldi. Amir Temurning miri, hukmdor sifatida madaniyat va ilm-fanga yuksak e'tibor berayotganini ko'rgan Ulug'bek bu an'ani davom ettirishni maqsad qildi. Ulug'bek o'z ta'limini Samarqandda olib, astronomiya, matematika va falsafa kabi sohalarida chuqur bilimga ega bo'ldi. Ulug'bekning ilmiy qiziqishlari uning hukmdor sifatidagi faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatdi.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** U ilm-fan va ta'limni rivojlantirish uchun o'z hukmronligi ostidagi hududda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirdi. Samarqandni ilm-fan va madaniyatning markaziga aylantirdi, ilmiy tadqiqotlarni rag'batlantirdi, va ilmiy markazlar yaratdi. Ulug'bek turkiy tilda yozilgan ma'naviy merosimizning kelgusi avlodlarga yetkazishga ham o'z hissasini qo'shgan. U o'zining hukmdorlik imkoniyatlarini ishga solib, 1444-yili Ahmad Yugnakiyning (XI-XII asr) "Hibat ul-haqoyiq" (Haqiqatlar tuhfas) asarini qayta ko'chirtiradi. Ko'plab qimmatli asarlarni arab va fors tillaridan turkiy tilga tarjima qildiradi. Ulug'bek matematikaga va astronomiyaga oid ko'plab risolalarning muallifi hisoblanadi. Shuningdek, uning 1445-yili yozib tugallagan "Ziji jadidi Ko'ragoniy" ("Ko'ragoniy yangi astronomik jadvallari") asari Ulug'bek va Ulug'bek astronomik maktabiga, aniqrog'i Ulug'bek akademiyasiga olamshumul shuhrat keltirdi.

Bu asarning ilmiy-ma'naviy qiymati bugungi kungacha ham o'zining ahamiyatini yo'qotmagan. Chunki, insoniyat tarixida ma'lum bo'lgan yulduzlar jadvallari ichida nisbatan mukammali mazkur "Zij" edi. Ulug'bekning jadvalida 1018 ta yulduzning aniq 43 koordinatlari berilgan bo'lib, bu katalog shu choqqacha dengizchilar uchun yulduzlarga qarab geografik koordinatlarni aniqlashda eng ishonchli vosita bo'lib kelmoqda. Ulug'bekning ilmiy faoliyatidagi eng yirik yutuqlaridan biri – Samarqandda qurdirgan rasadxonadir. 1420-yillarda qurilgan bu rasadxona o'z davrining eng ilg'or ilmiy markazlaridan biri bo'lgan. Ulug'bekning asosiy maqsadi – astronomiya sohasida yangi kashfiyotlar qilish va yulduzlar harakatini yanada aniqroq o'rganish edi. Rasadxona ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun zarur bo'lgan barcha asboblardan va uskunalar bilan ta'minlangan edi. Bu yerda nafaqat astronomik kuzatuvlar amalga oshirilgan, balki yirik ilmiy asarlar ham yaratilgan. Ulug'bekning o'zi ham rasadxonada ishlagan va o'z qo'llari bilan astronomik jadval yaratgan. Uning yozgan "Zij-i Sultoni" nomli asari o'sha davr astronomiyasining eng muhim asariga aylandi[7; 84 6]. Bu asar orqali Ulug'bek yulduzlarning kordinatalarini aniqladi va geodeziya sohasida ham muhim yutuqlarga erishdi. Ulug'bekning rasadxonada olib borgan tadqiqotlari nafaqat astronomiya, balki matematikaga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Ulug'bekning shogirdlari va zamondoshlari, xususan, al-Qushchi, Ziya'uddin Jamshid va Ali Qushchi, uning rasadxonasi asosida yangi ilmiy yutuqlarga erishdilar. Bu yerda o'tkazilgan tadqiqotlar nafaqat o'rta asrlar ilm-fani uchun, balki keyinchalik Yevropaning ilmiy inqilobi uchun ham asos bo'lgan.

Ulug'bekning ilmiy ishlarini davom ettirgan olimlar keyinchalik astronomiya va matematika sohalarida yirik muvaffaqiyatlarga erishdilar. Ulug'bek rasadxonasi 1449-yilda Ulug'bekning o'limidan so'ng omadsizlikka uchradi va keyinchalik Samarqandni zabt etgan turkmanlar tomonidan buzilib tashlangan. Rasadxona haqidagi ma'lumotlar yo'qolgan va uzoq vaqt davomida uning joylashuvi haqida aniq ma'lumotlar mavjud bo'lmagan. Ammo XX asrda, ayniqsa, 1908-1915- yillarda sovet arxeologi va astronomi Petr Ivanovich Vyatkin Samarqand va uning atrofidagi hududlarda qazish ishlarini olib bordi. Vyatkin, Samarqandda o'tkazgan arxeologik tadqiqotlari davomida, Ulug'bek rasadxonasining qoldiqlarini topdi. U 1908-yilda Samarqandning Ulug'bek madrasasi joylashgan hududida qazish ishlari olib borib, rasadxonaning qoldiqlarini qayta aniqladi. Bu kashfiyot, ayniqsa, O'rta Osiyo ilmiy jamoasida katta shov-shuvga sabab bo'ldi. Vyatkinning bu yutuqlari Ulug'bekning ilmiy merosini tiklashga va uning astronomik asarlarini qayta baholashga yordam berdi. Ulug'bekning ilmiy faoliyatidagi yana bir muhim jihati – u qurdirgan madrasalari va ilmiy ta'lim tizimidir. Ulug'bek Samarqandda ilm-fan va ta'limning rivojlanishi uchun katta sa'y-harakatlar ko'rsatgan.

Uning eng mashhur madrasasi Samarqandda joylashgan va bu madrasada nafaqat diniy ilmlar, balki ilmiy sohalarida ham ta'lim berilgan. Samarqand madrasasi o'z davrida eng ilg'or ilmiy markazlardan biri bo'lib, bu yerda astronomiya, matematika, tibbiyot, falsafa va boshqa ilmiy fanlar o'qitilgan. Ulug'bekning madrasasida ta'lim olgan talabalar ko'plab ilmiy kashfiyotlar qilishgan va o'z davrining buyuk olimlariga aylanishgan. Ulug'bekning qurdirgan madrasalaridan yana biri G'ijduvonda joylashgan bo'lib, bu madrasada ham ilmiy ta'lim o'tkazilgan. G'ijduvon madrasasi, Samarqandga nisbatan kichikroq bo'lsa-da, ilmiy tadqiqotlar va ta'lim berish borasida katta ahamiyatga ega edi. Bu yerda ilm-fan, madaniyat va falsafaning

rivojlanishiga katta hissa qo'shilgan. Ulug'bekning madrasalari ilm-fan va ta'limni rivojlantirishda juda muhim rol o'ynagan va bu yerda o'qigan talabalar ilm-fan sohasida katta yutuqlarga erishganlar[1; 88 6].

**Natijalar va muhokama.** Mirzo Ulug'bekning ilmiy merosi nafaqat o'z davrida, balki keyingi asrlarda ham o'rganilgan va qadrlangan. Uning ilmiy ishlari, xususan, astronomiya, matematika va geodeziya sohalaridagi kashfiyotlari, keyingi ilmiy tadqiqotlar uchun poydevor bo'lib xizmat qilgan. Chingizxonning nevarasi Huloguxon saroyining munajjimi taniqli olim Nasiriddin at-Tusiy XIII asrda Tabriz yaqinidagi Marog'a shahrida rasadxona qurdirtdi. Ko'pyillik kuzatishlar asosida Tusiy yangi astronomik jadvallar tayyorladi va uni Huloguxonga bag'ishlab, "Ziji Elxoniy" deb atadi. Biroq, ko'p o'tmay, ya'ni XIV asrning oxirlariga kelib Nasiriddin tuzgan jadvallarda keltirilgan ma'lumotlar ham kuzatish natijalaridan sezilarli farq qila boshlagani ma'lum bo'ldi. Shu munosabat bilan yanada aniq ma'lumotlar olish imkonini beradigan, oldingilaridan afzalroq va aniqroq astronomik qurilmalarga ega bo'lgan rasadxona bunyod etish ehtiyoji tug'ildi.

Shularni e'tiborga olib, Ulug'bekning otasi Shohrux hukmron bo'lgan mamlakatning Koshon shahrida istiqomat qilayotgan matematik va astronom G'iyosiddin Jamshid "Ziji Xoqoniy" dan takmil "Ziji Elxoniy" ("Xoqon ziji" — "Ziji Elxoniy"ning takomillashtirilgani) degan mashhur risolasini bitdi. 1413-yili yozib tugallangan bu asar Ulug'bekning otasi Shohruhga bag'ishlangan edi. "Xoqon Ziji"ning nazariy qismi va astronomik jadvallari "Ziji Elxoniy"ning bunday qismlaridan biroz farq qilib, yangi ma'lumotlar bilan boyitilgan edi. Biroq mazkur tuzatishlar Quyosh, Oy va sayyoralarning topilgan holatlari aniqligini faqat bir necha yil mobaynidagina ta'minlay olardi, xolos. Quyosh, Oy va sayyoralarning bir necha o'n yillarga doir holatlarini oldindan aniq topish uchun esa, ularning orbita elementlarini (Quyoshning yillik ko'rinma yo'li ekliptikaga og'maligini, ularning davrlarini, Oy va planetalarning ekliptikani kesib o'tish onlarini, ekliptikaning osmon ekvatoriga og'maligini, kuzatishlar uchun muhim bo'lgan bahorgi teng kunlik nuqtasining o'rnini aniq belgilashni va boshqa bir qancha astronomik kattaliklarni) yangidan aniqlash talab etilardi.

Bu, o'z navbatida, Quyosh, Oy va planetalarning koordinatalarini, shu asosda yerda joyning geografik uzunlama va kenglamalarini, Quyosh va Oy tutilishlarining vaqtlarini, astrologik tole'nomalar tuzish uchun Oy va sayyoralarning o'zaro yaqinlashish va "qo'shilish" paytlarini, yulduz yili va tropik yil uzunliklarini, yil fasllarini aniq belgilash uchun juda muhim hisoblanardi. Aynan shu masalalarni hal qilish uchun kuzatishlar va o'lchashlarga imkon beradigan aniqlik darajasi yuqori astronomik asboblarni ishga tushirish, ya'ni yangi rasadxona qurish astronomlar uchun dolzarb muammo edi. Shohruh mamlakati hududida yangi rasadxona qurish niyati o'sha paytlari matematika va astronomiya sohasida bir necha e'tiborli asar yozib tanilgan koshonlik G'iyosiddin Jamshid Koshiyni anchadan buyon o'rtab kelardi. Shu boisdan Koshiy Shohruhga bo'lgan hurmatini unga bag'ishlab bitgan "Ziji" orqali izhor etish bilan chegaralanmay, unga yangi rasadxona qurish rejasi borligini ham bildirgan deb taxmin qilinadi. Bu asar, o'z davrining eng to'g'ri yulduzlar kordinatalarini berishi bilan juda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Ulug'bekning ilmiy ishi faqat astronomiya bilan cheklanmaydi. U matematika, geodeziya, fizikadan ham muhim ishlarga imzo chekkan. Unga o'xshash buyuk ilm-fan homiylari va olimlar bugungi kunda ham ilm-fan va ta'lim sohasida yuksak e'tirof etiladi.

Ulug'bekning rasadxona va madrasalaridagi faoliyatlari ilm-fan va madaniyatning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan va bu uning ilmiy merosini yanada boyitgan. Ulug'bekning ilmiy faoliyatida Samarqand va G'ijduvon madrasalarining o'rnini juda katta. Samarqand madrasasi, ayniqsa, o'z davrining eng ilg'or ilmiy markazi bo'lib, butun Islom olamidan olimlarni o'ziga jalb qilgan. Madrasada ilm-fan sohalarida yuqori darajadagi ta'lim berilgan. Ulug'bekning ilmiy yutuqlari va uning shogirdlarining ishlari bu madrasalarning ilm-fan tarixidagi o'rnini yanada mustahkamladi. G'ijduvon madrasasi ham Samarqanddagi madrasadan keyin ilm-fan markazi sifatida keng tarqalgan. Bu yerda ham astronomiya va matematika sohalarida ta'lim berilgan va G'ijduvon ilm-fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Ulug'bekning madrasalari o'z davrining ilmiy va madaniy markazlari sifatida, o'rta asrlar ilm-fanining rivojlanishida muhim rol o'ynagan[3; 56 6].

Mirzo Ulug'bekning yana bir tarixiy ilmiy merosi "Tarixi arba ulus" asari, bo'lib, 1425-yilda yozib tugallangan. Ushbu asarning yozilishida Mirzo Ulug'bekning ilmiy, tarixiy va falsafiy qarashlari muhim o'rin tutadi. Masalan, kitobning ingliz tiliga qisqartirilgan tarjimasini o'rgangan ingliz sharqshunos olimi Mayls asarni "Shajrat at-atrak" (Turklar shajarasi) deb tanqidiy baholagan. Keyinchalik asar olim va tadqiqotchilar tomonidan chuqur o'rganilgan. Natijada, uning faqat Yofas O'g'lon, o'g'li Turkxon va farzandlari, tatar-mo'g'ul turk tabaqalari, shuningdek, ularning podsholarigina "Shajaratul atroq" asosida yozilgani ma'lum bo'ldi. Chunki tarjima qilingan asarning oxirgi sahifasida u: "Bu qo'lyozma – "Ulusi arbayi Chingizi"dir deb ta'kidlaydi. Shuningdek, u ushbu risolada turk hukmdorlari bo'lgan Turk xoqoni ibn Yofas, ibn Nuh ismini keltiradi va ular Turkiston zaminida hukmronlik qilganini aytib o'tadi. Asarning

asosiy qismi “Tarixi arba ulus” deb ataladi. Unda Chingizxon va uning avlodlari, jumladan, Chig‘atoy hukmronligi tarixi haqida ma‘lumot berilgan. Yuqoridagilardan bilish mumkinki, “Shajaratul atroq” bilan “Tarixi arba ulus” boshqa boshqa asarlardir[6; 48 b].

Demak, asarni o‘rganish jarayonidagi qaydlardan Mirzo Ulug‘bek “Tarixi arba ulus” asarini yozishda “Shajaratul atroq” asaridan foydalanganini bilish mumkin. Mirzo Ulug‘bekning ushbu asaridan qator olim va tadqiqotchilar o‘zining bir qator tarixiy, ijtimoiy va falsafiy asarini yozishda foydalangan. Jumladan, V.Bartold “Turkiston mo‘g‘ullar istilosi davrida”, “Ulug‘bek va uning davri” kabi asarlarini yozishda foydalangan. V.Bartoldning ta’kidlashiga ko‘ra, muallif asarda ko‘proq mo‘g‘ul xonlari nomini qayd etgan. Ammo mamlakat va xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayoti haqida ma‘lumot bermasdan, ularning nomini keltirish bilan cheklangan. V.Bartold ushbu asar adabiy yodgorlik va tarixiy tanqid uchun manba sifatida ma‘lum darajada qiziqish uyg‘otishi, shuningdek, mo‘g‘ullar mamlakati parchalanishi natijasida paydo bo‘lgan davlatlar tarixi haqidagi ma‘lumotlarni sezilarli darajada boyitishi mumkin, deb ta’kidlaydi. Chunki bugungi kungacha asrning qisqartirilgan shakli saqlanib qolgan va uning to‘liq nusxasi topilmagan. Mirzo Ulug‘bekning ushbu asaridan O‘rta asrlarning ko‘plab muarrixlari o‘z asarini yozishda foydalangan. Misol tariqasida, “Xulasotul-axbor”, “Habibus siyar”, “Tavorixi guzidayi nusratnoma”, “Bahrul asror” va “Tarixi Rashidiy” asarlari shular jumlasidandir.

**Xulosa.** Mirzo Ulug‘bekning ilmiy-ma‘rifatparvarlik faoliyati o‘zining ta’sirini faqatgina o‘z davrida emas, balki butun insoniyat tarixida sezdirgan. U o‘zining ulkan ilmiy yutuqlari bilan nafaqat o‘z zamonasi, balki keyingi asrlar uchun ham ilm-fan rivojiga asos bo‘lgan. Uning Samarqandda tashkil etgan rasadxonasi va madrasalari ilmiy markazlar sifatida faoliyat ko‘rsatib, yuzlab olimlarni o‘ziga jalb etdi. Ulug‘bekning ilm-fan va ta’limga qo‘shgan hissalar, uning ilmiy asarlari, astronomik kuzatishlari va ilmiy metodologiyalari nafaqat uning davri uchun, balki o‘rta asrlar ilm fanining poydevorini shakllantirdi. Ulug‘bekning o‘zi ham bir nechta ilmiy sohalarida, xususan, astronomiya, matematika, geometriya va falsafada yangi yondashuvlarni ishlab chiqqan.

Uning astronomik jadvallari va yulduzlar katalogi o‘rta asrlarda eng yuqori darajaga erishgan ishlardan biri bo‘lib, keyingi yuz yilliklarda ilmiy tadqiqotlar uchun asos bo‘lgan. U ilm-fanni qo‘llab-quvvatlab, Samarqandni ilmiy va madaniy markazga aylantirishga katta e’tibor qaratdi. Ulug‘bekning siyosiy va ilmiy faoliyatidagi muvaffaqiyatlar, shuningdek, ta’lim va madaniyatni rivojlantirishga bo‘lgan mustahkam ishtiyoqi uning keng ko‘lamdagi ilmiy islohotlari bilan o‘z ifodasini topgan. U o‘z zamonasida ilm fan va ta’limni yuqori darajaga ko‘targan, bundan tashqari, ilmiy salohiyatni kengaytirishga qaratilgan siyosiy va madaniy islohotlar olib borgan.

Ulug‘bekning ilmiy-ma‘rifatparvarlik faoliyatining ahamiyati bugungi kunda ham o‘zining kuchli ta’sirini ko‘rsatadi. U zamonasi uchun ilg‘or va yuksak fikrga ega bo‘lgan, o‘zining ilmiy ishlari orqali nafaqat o‘z davrini, balki kelajakni ham yoritishga muvaffaq bo‘lgan. Ulug‘bekning ilmiy merosi, ayniqsa, astronomiya va matematika sohalaridagi yutuqlari hozirgi kunda ham ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar uchun qadrlanadi. Shunday qilib, Mirzo Ulug‘bek nafaqat o‘z davrining buyuk olimi, balki umumbashariy ilm-fan tarixida o‘chmas iz qoldirgan ilmiy-ma‘rifatparvar shaxs sifatida yodda qoladi.

### ADABIYOTLAR:

1. *Амир Тему́р ва темурийлар даврида маданият ва санъат.* -Т.: *Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва наир.*, 1996. - 88 б.
2. *Амир Тему́р ва Улуғбек замондошлари хотирасида: (Рисола)* / Б. Аҳмедов, У. Уватов, Ғ. Каримов ва бошқ. -Т.: Ўқитувчи, 1996.-312 б.
3. *Бартольд В.В. Улуғбек и его время.* – Петроград. - 1918. – 160 с.
4. *Файзиев Т. Мирзо Улуғбек авлодлари: монография* / Т.Файзиев-Тошкент: Ёзувчи, 1994.- 39 б.
5. *Муҳаммаджонов А. Тему́р ва темурийлар салтанати (тарихий очерк).* – Т.: Қомуслар Бош тахририяти, 1994. – 160 б.
6. *Улуғбек Муҳаммад Тарагай* / А. Аҳмедов. - Т.: О‘zbekiston, 2011.-48 б.
7. *Улуғбек, Мирзо. Илми нуҷум (Таржимоно, изоҳлар муаллифи ва наирга тайёрловчи: А. Аҳмад. Т., А. Қодирий номидаги халқ мероси наирйети, 1994, 112 б.*
8. *Вохид Абдулло. Улуғбекнинг ўн бир ёши: Шеърый кисса [Мирзо Улуғбек таваллудининг 600 йиллиги олдидан]* // Мулоқот. 1994.- №1-2.-Б.18-20.

## CENTRAL ASIAN ARCHAEOBOTANY: A HISTORICAL REVIEW

**Shukurov Javlonbek Alisher ugli,**

Samarkand archaeology institute named after  
Yakhyo Gulyamov, Samarkand, Uzbekistan  
javlonbekshukurov42@gmail.com

**Badirdinov Doston Rustam ugli,**

National Center of Archeology Academy of Sciences  
of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan  
dastan.badirdinov@gmail.com

**Abstract.** This article synthesizes the historical development of archaeobotanical research in Central Asia, tracing its origins, evolution, and key contributions. It examines early studies from the early 20th century, methodological advancements, and significant findings from sites like Anau, Gonur Tepe, Bozor-Dara, and Poykend. The contributions of scholars such as Raphael Pumpelly, Naomi Miller, Robert Spengler, and Basira Mir-Makhamad are highlighted, alongside challenges and future prospects. The study underscores the role of plant remains in understanding ancient agrarian systems, ecological adaptations, and cultural exchanges in Central Asia.

**Keywords:** Archaeobotany, Central Asia, Crop Diversity, Irrigation Systems, Trans-Eurasian Trade.

## ЦЕНТРАЛЬНОАЗИАТСКАЯ АРХЕОБОТАНИКА: ИСТОРИЧЕСКИЙ ОБЗОР

**Аннотация.** В данной статье обобщается историческое развитие археоботанических исследований в Центральной Азии, прослеживаются их истоки, эволюция и ключевые достижения. Рассматриваются ранние исследования начала XX века, методологические усовершенствования и значимые находки из таких мест, как Анау, Гонур-Тепе, Бозор-Дара и Пойкенд. Особое внимание уделяется вкладу таких учёных, как Рафаэль Пампелли, Наоми Миллер, Роберт Шпенглер и Басира Мир-Махамад, а также обсуждаются проблемы и перспективы дальнейших исследований. В работе подчёркивается роль растительных остатков в понимании древних аграрных систем, экологических адаптаций и культурных обменов в Центральной Азии.

**Ключевые слова:** археоботаника, Центральная Азия, разнообразие сельскохозяйственных культур, ирригационные системы, трансевразийская торговля.

## MARKAZIY OSIYO ARXEOBOTANIKASI: TARIXIY SHARH

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Markaziy Osiyodagi arxeobotanik tadqiqotlarning tarixiy rivojlanishi umumlashtirilgan, ularning ildizlari, takomillashuvi va asosiy yutuqlari tahlil qilingan. XX asr boshlaridagi dastlabki izlanishlar, uslubiy yuksalishlar hamda Anau, Gonurtepa, Bozordara, Poykent kabi yodgorliklardan topilgan muhim kashfiyotlar ko'rib chiqiladi. Rafael Pampelli, Naomi Miller, Robert Shpengler va Basira Mir-Mahamad singari olimlarning hissasiga alohida e'tibor qaratilgan, shuningdek, kelgusi tadqiqotlarning muammolari va istiqbollari muhokama etiladi. Maqolada Markaziy Osiyodagi qadimgi dehqonchilik tizimlarini, ekologik moslashuvlarni va madaniy almashinuvlarni tushunishda o'simlik qoldiqlarining ahamiyati ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar:** Arxeobotanika, Markaziy Osiyo, qishloq xo'jalik ekinlari xilma-xilligi, sug'orish tizimlari, Trans-Yevrosiyo savdosi.

Таким образом, история Бухары в XVIII веке была ознаменована сложными временами, социальными разделениями и значимыми культурными достижениями. С XI по XIII века произошли значительные изменения в строительстве Бухары, включая начало использования жжёного кирпича. Этот период стал одним из самых тяжёлых в истории города из-за захвата его различными захватчиками.

Марко Поло, побывавший здесь, описывал Бухару как «город большого величия». При Тимуре Бухара стала региональным центром, а во времена его внука Мирзо Улугбека она приобрела статус крупного культурного центра в Центральной Азии. Уже в то время в Бухаре насчитывалось сотни мечетей, что сейчас является одной из её главных черт.

На основании вышесказанного, мы можем сделать вывод о том, что этнографический ландшафт Бухарского оазиса на протяжении веков претерпевал значительные изменения. В различные исторические периоды на территории города проживали многочисленные народы и этнические группы, как кочевники, так и оседлые жители. Этот факт подтверждается множеством источников. Этнографическое разнообразие существенно влияло на образ жизни и культурные практики городского населения. Расположение города на краю Великого шёлкового пути способствовало его быстрому восстановлению даже после многочисленных нашествий и интенсивных миграционных процессов. Основной причиной этого восстановления можно считать приход к власти различных династий, каждая из которых оставила значительный след в истории города. Например, во времена правления Саманидов Бухара в IX веке приобрела статус столицы Хорасана и Мавераннахра. В этот период основными языками, на которых говорили жители, были хорезмийский и согдийский. В период правления Саманидов Фергана, Самарканд и Бухара начали переходить на персидский язык [21]. Хотя город был разрушен в марте 1220 года во время монгольского завоевания Хорезма, Бухара быстро восстановила своё социально-экономическое состояние. В формировании этнографически устойчивого населения города значительную роль сыграли саки, персы, таджики, татары, турки, арабы и другие народности.

**Выводы.** Проведённый анализ источников, посвящённых архитектуре Бухары XVI века, свидетельствует о постепенной эволюции научных подходов – от описательного и ограниченного в методологии уровня к междисциплинарному, основанному на критическом анализе, типологическом сопоставлении и изучении в культурно-историческом контексте.

Ранние работы, такие как исследования В.А. Шишкина и Б.Н. Засыпкина, заложили основу источниковой базы, несмотря на ограничения своего времени. Современные подходы, представленные в трудах Г.А. Пугаченковой, Л.И. Ремпеля, О.А. Сухаревой и других, продемонстрировали более глубокое осмысление архитектурных форм, их социокультурной функции и интеграции в городскую среду.

Таким образом, архитектура Бухары XVI века, ранее трактуемая как «упадочная», в свете новых исследований раскрывается как самостоятельное явление с устойчивыми типологическими и художественными чертами, отражающими специфику времени, идеологические установки и урбанистическую традицию.

### **Предложения:**

– актуализировать значение архитектуры XVI века в рамках общего дискурса по культурному наследию Центральной Азии, в том числе путём включения данных в учебные и исследовательские программы по истории архитектуры.

– продолжить систематизацию и цифровую документацию архитектурных памятников Бухары данного периода с опорой на вакуфные документы, архивные планы и современные методы 3D-реконструкции.

– развивать междисциплинарные исследования, объединяющие архитекторов, историков, востоковедов и специалистов по исламской культуре для более комплексного осмысления архитектурного ландшафта эпохи Шейбанидов.



–поддерживать реставрационные инициативы, базирующиеся на научно обоснованных реконструкциях, что позволит не только сохранить памятники, но и сделать их частью живого культурного пространства.

### ЛИТЕРАТУРА:

1. Засыпкин Б.Н. Архитектура Бухары XVI века. – Ташкент, 1936. - с.64
2. Ворониной В.Л. Народные традиции архитектуры Узбекистана. - М., 1951 – 86 с.
3. Азимов И.М. Архитектура Узбекистана XVIII-нач. XX вв.: Традиции и локальные особенности.
4. Сухарева О.А. Бухара XIX - начало XX века (Позднефеодальный город и его население) М.: Наука, ст-94,101,102.
- 5.История Саудовской Аравии// <https://ru.wikipedia.org/>.
6. Жабборов И. Этнография Узбекского народа. С. 23.
7. Халиков А.Г. Общая характеристика Авесты как источника зороастрийского права// <https://cyberleninka.ru/>.
8. Мейендорф Е. К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. Предисл. <http://az.lib.ru/>/(Дата обращения 23.04.2024).
9. Бартольд В. В. Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии. – С. 29.
10. Узбеки – дворяне тюркских народов, а сарты – предприниматели Центральной Азии.
11. «Государство Шейбанидов // <https://ru.wikipedia.org/wiki>».
12. Презентация лекции на тему: «Этническое формирование узбекского народа // <https://staff.tiiame.uz/>».
13. Презентация лекции на тему: «Этническое формирование узбекского народа <https://staff.tiiame.uz/>».
14. «Узбекские племена [https://ru.wikipedia.org](https://ru.wikipedia.org/)».
15. Формирование узбекского народа. // <https://ru.wikipedia.org/>».
16. Наршахи М. История Бухары. Ташкент, 1897. . 62–63 с.
17. Персидская душа Бухары // <https://fergana.agency>».
18. Монгольское завоевание Средней Азии // <https://ru.wikipedia.org/wiki>».
19. Ибрагимов.Н. Ибн Баттута и его путешествия по Средней Азии // <https://www.ziyouz.com/>.
20. Бухара, XIX-начало XX в: Позднефеодальный город и его население. – С.92.
21. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Сочинения. Т.1. - М., 1963 - 759 с.

# БУХОРО АМИРЛИГИДА ВАҚФ МУЛКЛАРИНИ ТАЪСИС ЭТИШ МЕХАНИЗМИ (XIX АСР ИККИНЧИ ЯРМИ – XX АСР БОШЛАРИГА ОИД ҲУЖЖАТЛАР АСОСИДА)

*Исматова Наргиза Адхамовна,*

*Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқишунослик институти  
катта илмий ходими, т.ф. ф. д. (PhD)*

*nargiza5555@yahoo.com*

**Аннотация.** Мазкур мақолада архив ҳужжатлари асосида Бухоро амирлигида вақф мулкларини таъсис қилиш механизми ҳамда даромадларни тақсимлаш тартиби ёритилади. Бу жараённинг умумий ва ўзига хос жиҳатлари очиб берилади. Шунингдек, мақолада вақф турлари, иқтисодий-ижтимоий ва сиёсий нуқтаи назардан ҳар бирининг ўзига хос хусусиятлари ҳусусида сўз юритилади.

Мақолада Бухоро амирлигида вақф мулкларини яратиш механизми ва даромадларни тақсимлаш тартиби архив ҳужжатлари асосида баён этилган. Бу жараённинг умумий ва хусусий томонлари очиб берилади. Шунингдек, мақолада вақфларнинг турлари, ҳар бирининг иқтисодий, ижтимоий ва сиёсий нуқтаи назаридан ўзига хос хусусиятлари ҳақида сўз боради.

**Калит сўзлар:** Бухоро амирлиги, Россия империяси, вақф, воқиф, мутавалли, вақфи хайрий, вақфи аҳлий, ушр, даҳяк.

## МЕХАНИЗМ УЧРЕЖДЕНИЯ ВАКУФНОЙ СОБСТВЕННОСТИ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ (НА ОСНОВЕ ДОКУМЕНТОВ ВТОРОЙ ПОЛОВИНЫ XIX – НАЧАЛА XX ВЕКА)

**Аннотация.** В данной статье на основе архивных документов рассматривается механизм учреждения вакуфной собственности в Бухарском эмирате, а также порядок распределения доходов от неё. Раскрываются как общие, так и специфические особенности данного процесса. Кроме того, в статье рассматриваются виды вакуфов, их особенности с экономической, социальной и политической точек зрения.

В статье на основе архивных документов описывается механизм создания вакуфных имений в Бухарском эмирате и порядок распределения доходов. Раскрываются общие и специфические аспекты этого процесса. Также в статье говорится о видах вакуфов, специфических особенностях каждого из них с экономической, социальной и политической точки зрения.

**Ключевые слова:** Бухарский эмират, Российская империя, вакуф, вакиф, мутевалли, вакфи хайри, вакфи ахли, ушр, дахяк.

## THE MECHANISM OF ENDOWING WAQF PROPERTIES IN THE BUKHARAN EMIRATE (BASED ON THE DOCUMENTS REGARDING THE SECOND HALF OF 19TH – THE BEGINNING OF 20TH CENTURIES)

**Abstract.** Based on archival documents, the article highlights the mechanism of the establishment of waqf properties in the Bukharan Emirate and the order of income distribution. General and specific aspects of this process have been revealed. Besides, the article talks about the types of waqf, the specific characteristics of each of them from the economic, social and political point of view.

The article describes the mechanism of creation of waqf estates in the Bukhara Emirate and the procedure of income distribution based on archival documents. General and specific aspects of this process are revealed. The article also discusses the types of waqfs, specific features of each of them from the economic, social and political points of view.

**Keywords:** The Bukharan Emirate, Russian Empire, waqf, wāqif, mutawallī, waqf-i khayriy, waqf-i ahliy, 'ushr, dahyak

**Кириш.** XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Бухоро амирлигида мулкларни вақф этишда анъанавий ҳолат сақланган эди. Гарчи Россия империяси билан тузилган шартномага кўра амирнинг ички ва ташқи сиёсатдаги мустақиллиги сезиларли даражада чекланган бўлса-да, рус ҳукумати бу ердаги мулкчиликнинг муҳим тури бўлган вақфлар ишига тўғридан-тўғри аралашмаган. Чунки вақф мулкчилиги аҳолининг бевосита диний эътиқоди, асрлар давомида шаклланиб бўлган

турмуш тарзи билан чамбарчас боғлиқ эди. Қолаверса, жамиятда катта таъсир кучига эга бўлган дин пешволарининг вақф хўжаликлари бошқарувида ҳам ўзига хос ўрни бўлган. Албатта, Россия империясининг вақф таъсис жараёнига аралашуви амирлик аҳолиси орасида катта норозиликларни келтириб чиқарган бўларди. Бунинг ташқи омили ҳам мавжуд бўлиб, чуқур тарихий илдизларга эга бўлган вақф мулкчилиги ишларига империянинг аралашуви халқаро миқёсдаги зиддиятларга ҳам сабаб бўлиши мумкин эди.

Анъанавийликнинг асрлар давомида сақланиши хайр-эҳсон ва шу асосда шаклланган вақф мулкчилигининг давомийлик хусусияти, вақфлар бўйича мукаммал қонун-қоидалар ишлаб чиқилгани билан бевосита боғлиқ эди. Хусусан, ҳадисларда моҳиятан вақфни англатувчи “садакаи жория”, яъни “давомли садақа” атамаси келтирилган бўлиб, қилинган хайр-эҳсоннинг давомий бўлишига ишорадир. Шунингдек, ҳадисларда инсон вафотидан кейин ҳам тўхтамайдиган амаллар қаторида “давомли садақа” қилиш алоҳида таъкидлаб кўрсатилган.

Қарийб минг йилдан ортиқ даврдан буён мусулмон оламида жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий ҳаёти негизини ташкил этган бу анъаналар аниқ бир тизим, яъни институтни ҳосил қилган эди. Вақф ҳужжатлари ва тарихий манбалардаги маълумотлар асосида XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Бухоро амирлигида амалда бўлган вақф таъсис этиш механизми ҳақида маълум бир тарихий манзарани ҳосил қилиш мумкин.

**Мавзуга доир адабиётлар таҳлили.** Мулкни таъсис этиш жараёни вақф этишга қарор қилган шахснинг бевосита қозихонага мурожаати билан бошланган. Бухорода қози ёки қозикалоннинг уйи бир вақтнинг ўзида қозихона вазифасини ҳам ўтаган [26; б. 37]. Мавжуд тартиб-қоидалар шартли равишда қуйидагича тизимга солиб, таҳлил қилинди:

1. *Воқифнинг шахсиятига қўйилган талаблар.* Қози томонидан мурожаат қабул қилинар экан, ўз навбатида таъсис этувчининг вақф қилишга лаёқати ҳам аниқланган. Шу ўринда эслатиб ўтиш жоизки, шаклланган анъанага мувофиқ воқиф қуйидаги талабларга жавоб бериши лозим бўлган:

- балоғатга етганлик
- руҳий соғлом
- ҳуқуқий жиҳатдан ишга лаёқатлилик

Вақфномаларда таъсис этувчининг саломатлигини, шаръан вақф этишга ҳаққи борлигини билдирувчи махсус иборалар – “حال جواز اقراره شرعا” (*шаръан иқрор [вақф] этишга ижозат берилган ҳолатида*), айрим ҳужжатларда эса, “در حالت صحت ذات و نفاذ جميع تصرفات” (*соғлом ҳамда барча ишларни амалга оширишга муносиб ҳолатида*) вақф қилганлиги қайд этилган.

2. *Воқифнинг ташқи қиёфаси.* Ҳужжатларнинг кўпчилигида вақф қилувчининг ташқи кўриниши аниқ тасвирланган бўлиб, бу қисмни шартли равишда “*воқиф паспорти*” деб аташ ҳам мумкин. Масалан, 1867 йилга оид ҳужжатда ўзининг дўконини талабалар фойдасига вақф қилган Мизроббой валади Раҳимбой Андхўйи [андхўйлик] “*қизилдан келган, қора соқоллик ҳамда ўрта бўйлик*” эканлиги қайд этилган [5]. Вақф қилувчининг шахсини тасдиқловчи бундай аниқ далиллар кейинчалик юзага келиши мумкин ҳар қандай низоли ҳолатларда вазиятга ойдинлик киритган.

3. *Вақф қилинувчи мулкка нисбатан қўйилган талаблар.* Вақф сифатида ажратилган мулк воқиф тасарруфидаги мулкларнинг энг яхшиси ва ўзгаларнинг ҳақидан ёки вақф бўлишига тўсқинлик қиладиган ҳар қандай ҳолатлардан холи бўлиши вақф шартларининг муҳим жиҳатларидан саналган. Бу жиҳатлар Бухоро вақфномаларида

“از اخلاص اموال و اطيب املاك; خاليا عن حق الغير و عما يمنع جواز الوقف و لزومه” (*ўзгаларнинг ҳақидан ва вақф бўлишга тўсқинлик қиладиган ҳар қандай ҳолатлардан холи бўлган энг пок моллар ва энг яхши мулкларимни*) жумласи билан келтирилган.

4. *Гувоҳлар.* Шариатда гувоҳлик ва уларнинг сони борасида маълум бир қоидалар белгиланган. Бурҳониддин Марғиновий (1123-1197)нинг “Ҳидоя” асарида келтирилишича, камида икки эркак ёки бир эркак ва икки аёлнинг гувоҳликлари талаб этилган [19; с. 114].

Албатта, даврлар ўтиши билан гувоҳларнинг шахси ва сони масаласининг аҳамияти янада ортиган. Уларнинг ижтимоий мақоми ва сони вақф қилувчининг жамиятдаги мавқеини кўрсатиб, унинг ишончлилиги даражасини белгилаган.

1867 йилга оид юқоридаги вақфномада гувоҳлар сифатида 10 дан ортиқ кишининг исмлари келтирилган бўлиб, “*Саййид Аминбой, Туроббой, Мулла Мир Ҳоди, Мирзобой Оқсоқол, Мавлонберди Карвонбоши, Мулла Ҳайит Мурод, Олимбой, Остонақул, Султонхожа, Ҳайит Ниёз ва бошқалар*”нинг [5] исмлардаги “бой”, “мир” қўшимчалари, шунингдек, “оқсоқол”, “карвонбоши” лавозимларнинг ҳам учраши гувоҳларнинг обрў-эътиборли, ўзига тўқ кишилар бўлганликларини англатади.

5. *Вақф мулкнинг ҳужжатлаштирилиши.* Вақф мулкларини ҳужжатлаштириш халифа Умар (р.а.) давридаёқ амалга оширилган ва ўзининг муайян тузилиши (структураси)га эга бўлиб борган. Вақфномалар куйидаги муҳим шартларни акс эттирган:

- мулк эгасининг расмий (шаърий) иқрори;
- вақф қилинган мулкнинг жойлашган ҳудуди ва чегараларининг аниқ кўрсатилиши;
- вақф субъектлари;
- вақф мулклари бошқарувчиси – мутаваллининг тайинланиши;
- мулк даромади тақсимоти масаласи;
- мулк эвазига талаб этиладиган хизмат ва амаллар (вокифнинг шартлари);
- вақф мулки дахлсизлигининг таъминланиши.

**Олинган натижалар таҳлили.** Келтирилган шарт ҳамда талаблар бевосита вақф қилиш жараёни ҳақида аниқ ва яхлит манзарани ҳосил қилади.

*Мулк эгасининг расмий (шаърий) иқрори.* Вақф таъсис этишнинг ҳукукий асоси, бевосита, вокифнинг шаръий иқрори билан белгиланган ҳамда ҳужжатда “*اقرار معتبر شرعى نمود...وقف كردم و تصدق*” (вақф қилишга шаръий иқрор қилдим) жумлалари билан мустаҳкамланган ҳамда қози, муфтий, раис, баъзи ҳолатларда ҳукмдор мухри билан тасдиқланган.

*Вақф қилинган мулкнинг жойлашган ҳудуди ва чегараларининг аниқ кўрсатилиши.* Вақф ҳужжатларида берилган мулк номи, унинг жойлашуви (локацияси) ҳамда чегаралари аниқ кўрсатилган. Бу ҳолат мулкка нисбатан турли субъектларнинг эгалик ҳуқуқини даъво қилиши ва оқибатдаги турли можаролардан ҳимоя қила олган. 1867 йилда тузилган ҳужжатда Лаби Ҳовузи Девонбеги растасидаги 4 та шамфурушлик дўкон чегараси “... *гарбдан Фозилжон валади Абдуллоҳ тасарруфидаги вақф дўконига, шимолдан умумий йўлга, шарқдан ... валади Абдуллоҳ тасарруфидаги вақф дўконига, жанубдан Мир Убайд валади Мир Ҳомиднинг нонвойлик дўконига туташган*” дея вақф қилинган мулкнинг ажратиб турувчи чегаралари жами ҳуқуқ ва белгилари билан кўрсатилган [5].

*Вақф субъекти.* Вақф мулклари йўналтирилган субъект вақфномада аниқ кўрсатилган бўлиб, бунда асосан масжид, мадраса, хонақоҳ, зиёратгоҳ сингари диний-маърифий муассасалар назарда тутилган. Мазкур муассасалар жойлашган ҳудуд ва унинг чегаралари ҳам вақфномада қайд этилган. Мисол учун 1866 йилда тузилган вақф ҳужжатида вақф субъекти бўлган Қалтигиён гузари масжидининг чегаралари “*гарбдан Мир Хожя валади Мир Абунаср ҳовлисига, шимолдан умумий йўлга, шарқдан қисман умумий йўлга, қисман тор кўчага, жанубдан [эса] қисман гарбдагидай ва қисман шарқдагидай туташган*”лиги акс этган [6]. Агар муассаса ўша даврда кўпчиликка маълум ва машҳур бўлса, чегараларининг тавсифга муҳтож эмаслигини англатувчи махсус “*مستغنى از تحديد است*” (ҳудудлари тавсифига ҳожат йўқ) ибораси орқали ифодаланган. Масалан, Бухородаги Мирзо Ҳайдар гузарида жойлашган Мирзо Абдурахмон Аълам мадрасасига тегишли вақфномада мадраса чегаралари келтирилмай, чегараларининг “*тавсифга муҳтож эмас*”лиги таъкидланган [2].

*Вақф мулклари бошқарувчиси – мутаваллининг тайинланиши.* Вақфномаларда мазкур лавозимга ким тайинланиши, унинг қандай фазилатларга эга бўлиши вокиф томонидан қўйилган шартларда алоҳида кўрсатилган. Ҳужжатлардан мисол тариқасида келтиришимиз мумкин: 1867 йилги андхўйлик талабалар фойдасига тузилган ҳужжатда “... *ушбу вақфнинг шаръий мутаваллиси мазкур [вокиф] Мизроббой то ҳаёт экан [унинг] ўзи, вафотидан сўнг ўғил авлодларидан кимки солиҳ ва лойиқ бўлса, ўша бўлишини*” [5], 1872 йил Баҳрин мавзесидаги мактаб учун расмийлаштирилган ҳужжатда “... *мазкур вақфнинг шаръий мутаваллиси сифатида мазкур вокифларнинг ўзлари тайин этилиб, уларнинг вафотларидан сўнг ушбу мавзе аҳолисидан энг тақводори ва муносиби*” [13] мутавалли бўлиши қайд этилган.

*Вақф мулки даромади тақсимоти масаласи.* Даромадлар тақсимоти одатда вақфнома шартларида қайд этилган. Хусусан, келадиган фойда

- вақф муассаси таъмирига (масжид, мадраса, хонақоҳ, зиёратгоҳ)
- вақф бошқарувчиси ва хизмат кўрсатувчи ходимларга
- мударрисларга
- талабаларга
- қориларга (мураттаб қори, сомёе қори, мақсурахон, бухорийхон)га шунингдек, диний маросим ва тадбирларга сарф этилган.

Муайян муассаса вақф ҳужжатлари мисолида даромадлар тақсимотини кўриб чиқиш мумкин. Бухоро шаҳридаги Мулла Мирза Абдурахмон Аълам мадрасасига тегишли (1888 м./1305 х.) вақфномада даромадлар тақсимоти куйидаги тартибда белгиланган [2]:



Мутаваллига 1/10 (ушр), ушрдан қолганини беш қисмга бўлинган:

1) *имомга* – 2/5 қисм

2) *муаззинга* – 1/5 қисм

Қолган фойда яна тўрт қисмга ажратилган:

1) *хатм қилувчи қорига* – 2/4 қисм

2) *соеъ қорига* – 1/4 қисм

3) *хатм кечасида ҳолвайтар тайёрлашга* – 1/4

Вақфноманинг даромад тақсимоти қисмида воқифнинг ҳар бир деталгача эътибор қаратгани аҳамиятга лойиқдир. Ҳаттоки, таҳсил олаётган талабаларни ичимлик суви билан таъминлаш масаласи ҳам инобатга олинар эдики, улар бошқа маиший нарсаларга чалғимасдан фақат илм олиш билан банд бўлишлари лозим эди. Хусусан, 1889 м./1307 х. йилда Мулло Абдуллоҳ мадрасаси фойдасига расмийлаштирилган вақфномада мазкур таълим муассасаси ҳужраларидаги талабаларга сув келтириши учун мешкобга ҳам ойлик ажратилиши белгиланган [4].

*Мулк эвазига талаб этиладиган хизмат ва амаллар.* Вақфномада мулклар даромади тақсимланар экан, бунинг учун нима амаллар бажарилиши шартлиги уқтирилади. Мисол учун агар мулк мадраса ёки масжидга таъсис этилган бўлса, у ердаги имом ва муаззиннинг Қуръондан “*Фотиҳа*”, “*Ихлос*”, “*Мулк*” сингари сураларни тиловат қилиб, бу жараёни узрли сабабларсиз қолдирмаслиги таъкидланади. 1892 м./1310 х. йилги Лаби Ҳовузи Арбоб гузари масжиди вақфномасида масжид имоми “... *жума ва душанба (пайшанба ва якшанба) кечки пайт қаерда бўлса ҳам бир маротаба Фотиҳа, уч маротаба Ихлос, жума намозидан сўнг мулк сураларини ўқиб, савобини воқиф ва унинг аجدодлари руҳига баҳишда этиши ҳамда бу [амал]ни шаръий узрларсиз тарк этмаслиги*” хусусида кўрсатма берилган [10]. Худди шундай маънодаги шартларни яна кўплаб вақфномаларда учратиш мумкин. Жумладан, 1909 м./1327 х. йил Ҳожи Омонбой гузаридаги мактаб фойдасига расмийлаштирилган ҳужжатда мактабдорнинг: “... *ҳар жума ва душанба кечки вақт Мулк сурасидан 2-3 оят ўқиб, савобини воқиф ва унинг аجدодлари руҳига баҳишлаши*” [8] уқтирилган.

*Вақф мулки дахлсизлигининг таъминланиши.* Вақф ҳужжати таъсис этилган мулкнинг дахлсизлигини белгилаб берувчи юридик ҳужжат саналади. Шу билан бирга вақфномада бу дахлсизликни янада таъминлаш мақсадида ўзига хос услубдан фойдаланганлар. Яъни турли кучайтирувчи жумлаларни қўллаган ҳолда кишилар руҳиятига таъсир қилишга ҳаракат қилганлар. Масалан, кўпгина вақфномаларда “кимда-ким вақфга дахл этса, уни суистеъмол қилса, азобга йўлиқиши” маъносидаги жумлалар учрайди.

*Яхлит мулкни тўғридан-тўғри таъсис қилишда* воқифнинг ўзи бевосита қозихонага бориб, ўзига тегишли мулкни тўлалигича вақф этгани тушунилади. Шунингдек, ўзига тегишли мулкнинг муайян қисми таъсис этилган вақфномалар ҳам учрайди. 1890 м./1307 х. йилга оид шундай ҳужжатлардан бирида қайд қилинишича, воқифга тегишли тегирмоннинг  $\frac{3}{4}$  қисми вақфга айлантирилган [12].

Шунингдек, вақф қилишнинг яна бошқа шакли ҳам учраб, унга кўра мулк таъсисчиси вафотидан илгари мулкни вақф сифатида қолдиришни васият қилган.

*Шерикликдаги мулкни вақф қилиш* ҳолати ҳам учраб турган. Бунда воқиф ўзига тегишли улушнигина таъсис эта олган [25; б. 324]. Масалан, 1916 м./1334 х. йилда битилган ҳужжатда шерикликдаги мулк бўлган ҳовлининг воқифга тегишли қисми вақф этилган [9].

*Бошқа ҳудуд ёки давлатга вақф қилиш.* Мавжуд манбалар таҳлили кишилар мулкларини нафақат ўзлари истиқомат қилган жой, балки бошқа ҳудудларга ҳам таъсис этганлар. Вақф қилишнинг бу шаклини шартли равишда “*масофавий вақф*” деб номлаш мумкин. Масалан, 1900 м./1318 х. йилдаги ҳужжатда Мулла Мусулмонқули исмли шахс ўзи ҳамда биродарларининг номидан вакил сифатида Қўқоннинг Чирик Жийда мавзеси қозисидан олган ваколат хати билан Бухоро шаҳри қозихонасига ташриф буюрган. Унинг иқрорига биноан Бухородаги Тўпчибоши мадрасасининг жанубий тарафи пастки ҳужрасидаги асбоб-анжомлар акаси Мулла Усмонқули ҳамда мазкур иқрор қилувчиларнинг мулки бўлган. Мулла Усмонқули вафотидан сўнг ушбу анжомларни мадрасага вақф қилинишини васият қилган. Ҳужжатда қайд этилишича, унинг вафотидан сўнг ворислари бўлмиш биродарлари марҳумнинг васиятини имзолаб, ҳужрадаги асбоб-анжомларни мадрасага топширганлар [14].

**Муҳокама.** Демак, ҳужжатдан шуни англаш мумкинки, Қўқон хонлиги фуқаролари таҳсил олиш учун Бухорога келганлар. Бу ердаги мадраса ҳужралари учун сотиб олган жиҳозларини ўзлари илм олган мадрасага вақф этганлар. Бу ўринда эътиборли жиҳат, вақф қилувчилардан бир нафари вафот этган бўлиб, тириклик чоғида бу хусусда васият қилган.

Яна шу маънодаги ҳужжатлардан 1909 м./1327 х. йилда амирликдаги амалдорлардан Мирзо Шаҳобиддин тўқсоба ҳаётлик чоғида мулкларидан ер, ховли ҳамда 50 минг танга маблағини Саудия Арабистонининг Макка шаҳридаги максурахон фойдасига вақф этган [11].

*Воситачи орқали вақф этиш.* Вокиф ўз мулкани вакил орқали ҳам таъсис этиш имкониятига эга бўлиб, бу ҳуқуқдан асосан ҳукмдорлар, йирик амалдорлар ҳамда аёллар фойдаланганлар. Бу ўринда вакилнинг шахсиятига ҳам алоҳида эътибор қаратилган. Вакиллик ваколат берувчи [вокиф]нинг розилигини “эшитган” ҳамда “مقبول الشهادة” (*шаҳодат беришга муносиб*) гувоҳларнинг шохидлиги билан тасдиқланиб, вақф ҳужжатларида қайд қилиб борилган. Масалан, 1909 м./1327 х. йилдаги вақфномада Зухраой исмли аёл номидан қозихонага борган “*Қори Мир Бақо валади Мир Асомиддин*”нинг вакиллиги “*Мулло Мансур валади Мулло Хайруллоҳ ва Фатҳуллоҳ валади Насруллоҳ шохидликларида*” тасдиқлангани қайд этилган [7].

Вақфнинг уч хил, яъни “*вақфи хайрий*”, “*вақфи авлод*” ҳамда “*аралаш*” турлари бўлган. Аслида ҳуқуқий қўйилган талаблар жиҳатидан хайрий, авлодий ҳамда аралаш вақфлар ўртасида деярли катта фарқ бўлмаган. Бироқ иқтисодий-ижтимоий ва сиёсий нуқтаи назардан ҳар бирининг ўзига хос хусусиятлари кўзга ташланади.

“*Хайрий*” вақф турида келадиган фойда тўлалигича у йўналтирилган диний-маърифий муассаса фойдасига сарфланиши назарда тутилган. Ўзига хос жиҳати бундай вақфларнинг бошқарувчиси ҳам вокиф авлодидан тайин этилмаган, яъни вақф қилган томоннинг мазкур вақфдан ҳеч қандай улуши, манфаати бўлмаган.

“*Вақфи авлод*” шунингдек, “*вақфи аҳлий*” деб ҳам номланган бўлиб, ўз оиласига, авлодлари фойдасига таъсис этилган вақф. Бу турдаги вақфларни “*оилавий вақф*” деб ҳам аташ тўғри бўлади.

Тарихда кўплаб йирик мулкдорларнинг хайрий вақфлар қилганликлари хусусида маълумотлар мавжуд. Шу билан бирга улар ўз авлодлари мавқеини, иқтисодий қудратини таъминлаш мақсадида “*вақфи авлод*” ҳам таъсис этганлар. XX аср бошларида ҳам машҳур кишилар вакиллари фаолият юритганлари ҳақида маълумотлар сақланиб қолган. Ҳаттоки, Бухорода ушбу асрда ўзларини Исмоил Сомоний авлодлари деб ҳисоблаган муайян шахслар фаолият юритиб, ушбу ҳукмдорга тегишли вақфнома асосида вақф даромадидан ўз улушларини олганлар [24; с.259-270]. Масаланинг яна бир ўзига хос жиҳати, мазмунан X асрга оид вақфноманинг ҳуқуқий асос сифатида қабул қилинганлигидир.

Тадқиқ қилинган ҳужжатлар Бухоро амирлигида то XIX аср биринчи чорагига қадар авлодлар фойдасига вақф таъсис этиш анъанаси кенг давом этганини кўрсатади. Бироқ ушбу аср ўрталаридан бошлаб, авлодлари фойдасига вақф этиш деярли кузатилмайди. Бунда аввало авлодий вақф қилувчи кишилар табақаси камайган бўлиши билан изоҳлаш мумкин. Қолаверса, мазкур ҳолат бевосита вақф субъекти жисмоний шахс бўлганлиги билан боғлиқ, деган мулоҳаза пайдо бўлади. Агар тадқиқ қилинаётган давр хусусияти, минтақада рўй берган сиёсий ўзгаришлар нуқтаи назаридан ёндашсак, кишилар мулкларини қўлдан бой беришдан хавфсираган бўлишлари мумкин. Зеро, мулк масжид-мадрасалар фойдасига таъсис қилинганда – ушбу муассасалар ҳозирги замон тили билан қайд этганда юридик шахс бўлиб, муайян ҳуқуқларга эга яхлит тизим сифатида шаклланган. Албатта, бу тизимнинг дахлсизлиги давлат томонидан ҳимоя қилинар эди. Шу жиҳатдан, оддий аҳоли мулкларни аниқ муассасага таъсис этишни маъқул топганлар.

Ўрганилаётган давр авлодий вақф таъсисчиларидан бири сифатида жўйбор хожалари вакиласи номини келтириш мумкин. 1890 м./1307 х. йилда Ҳурабону исмли аёл ўзига тегишли бўлган мулкларини биродарининг авлодлари фойдасига вақф қилган [12]. Демак, ўрта асрларда, хусусан, шайбонийлар даврида жуда ҳам катта нуфузга эга бўлган жўйбор хожалари [17; с. 3-19; 18; с. 22-55] ўрганилаётган даврда ҳам ўзларининг мақомларини нисбатан сақлаб тура олганлар.

Адабиётларда ҳукмдор қатлам, йирик мулкдорлар, шунингдек, шажараси саййид, хожаларга бориб тақалувчи кишиларгина авлодий вақфларни таъсис қилишлари мумкинлиги хусусида фикрлар мавжуд [15; с. 70]. Бироқ бу билан оддий аҳоли авлодлари фойдасига вақф таъсис қилмаганлар, деган фикрга асос бўла олмайди. Зеро, бундай вақфларга ўзлари ёки яқин қариндошларини мутавалли сифатида тайинлаш орқали ҳам авлодларини вақф улушидан баҳраманд бўлишини таъминлашга интиланлар. Бундай ҳолатда вақфнинг “*хайрий*” ҳамда “*авлодий*” турлари, яъни жамоа муассасалари ҳамда оила аъзоларини қўллаб-қувватлаш сингари мақсадлар муштараклиги кўзга ташланади. Шунинг учун ушбу вақфни шартли равишда “*аралаш/муштарак*” деб аташ тўғри бўлади. Бундай вақфларда даромаднинг маълум қисми хайрия туркумидаги вақф субъектига, муайян қисми вокифнинг ўзи ёки фарзандларидан тайинланган мутавалли ва авлодлари ўртасида тақсимланган. Масалан, 1907 м./1325 х. йилда расмийлаштирилган вақфномалардан бирида Ҳожи Қурбон исмли шахс вақф этган мулкларига мутавалли сифатида ўзи, вафотидан сўнг авлодлари бўлишини тайин

этган. Мутавалли ўз навбатида ҳар бир вақфга берилган мулкдан алоҳида ушр олишини шарт қилганлиги ҳужжатда акс этган. Бундан ташқари, мадрасанинг 4 та ҳужраси воқиф авлодлари учун ажратилиб, уларга ҳам муайян улуш ажратилган [3]. Демак, гарчи мулк мадраса учун таъсис этилса-да, олинадиган даромаддан воқиф авлодлари ҳам мутавалли, ҳам ҳужра тасарруфчиси сифатида ўз ҳиссаларини олганлар.

Илмий адабиётларда қайд этилишича, Бухоро хонлиги/амирлигида алоҳида “*вақфи даҳяк*” ёки “*вақфи ушр*” деб номланган вақф тури ҳам бўлиб, вақф ерларидан келадиган фойданинг 1/10 қисми илк халифалар, азиз авлиёлар авлодларига йўналтирилган [21; с. 343] ёки мадрасадаги мударрисларга, ҳамда таҳсил олувчи талабаларга “*стипендия*” тарзида берилган [16; с. 71; 21; с. 343; 5; с. 69; 27; с. 35-36].

Тарихчи Садриддин Айний ўз хотираларида даҳякнинг манбаини “ҳар йилги ҳосилдан даҳяк (ўндан бир) олинадиган экин ерлар” деб қайд этади [22; б. 282]. Жумладан, Кармана, Сўғд, Офаринкент туманларида даҳяк тўлайдиган ерлар бисёр бўлгани таъкидланади [27; с. 36]. Муаллиф шунингдек, даҳякни қўлга киритиш учун қўйилган талаблар [22; б. 283], уни топшириш маросимини [22; б. 128-130] батафсил тасвирлаб беради. Хусусан, у келтирган маълумотларга мувофиқ, даҳяк олиш учун “*Ҳидоя*” китобини араб тили қондасига мувофиқ ўқиб, тўғри таржима қила олиш талаб этиларди. Даҳяк олиш ҳуқуқи мадрасани тугаллашига “*кўпи беш йил, ками бир йилгача вақти қолган ҳар бир талаба*”га берилар ва бу талаба таълим муассасини битиргандан сўнг яна икки йил давомида мазкур “*инъом*”дан баҳраманд бўлар эди [22; б. 283]. Бухоро мадрасалари ўқув йилининг охирларида – март ойи бошида муайян кунда амир арки олдида бериларди. Даҳяк миқдори 120 тангадан бўлиб, уни олувчилар нафақат Бухоро шахридан, балки амирликнинг бошқа вилоятларидан, шунингдек, Туркистондан ҳам етиб келар эдилар [22; б. 128-130].

Рус муаллифларидан М.Н. Ростиславов имтиҳон асосида даҳяк олишга муносиб деб топилган мулалар (даҳякхўр) сафида нафақат талабалар, балки мударрислар ҳам бўлганлигини таъкидлайди. Мазкур даҳякхўрлар ораларидаги мутавалли топширилган маблағни тенг миқдорда тақсимланганини ҳам қайд этади [21; с. 340].

Гарчи аксарият илмий адабиётларда “*даҳяк*” ҳамда “*ушр*” га бир хил таъриф берилса-да, М.А. Абдураимов уларни амалиётда қўлланиш жиҳатдан фарқлайди. Унинг таъкидлашича, ушр тўлалигича давлат хазинаси (девонхона)га тушган, “*даҳяк*” ҳам хазинага йўналтирилса-да, давлат уларни мадрасалардаги талабаларга ва бошқа хайрли ишларга сарфлаган. Ушбу сабабдан муаллиф даҳякни ҳукумат таъсис этган вақф деб фикр билдиради [15; с. 54].

Бироқ Аҳмад Дониш ўзининг манғит амирлари тарихига бағишланган рисоласида талабаларга ажратилган улуш сифатида ушр атамасини қўллайди [16; б. 73]. XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошларида яшаган тарихчи Муҳаммадали Балжувоний эса, даҳякни, “*султоний даҳяк*” сифатида тилга олади [20; б. 24].

Тадқиқ қилинаётган давр замондошлари фикрича, даҳякдан фойдаланиш борасида амалдорлар мансабларини суистеъмол қилганлар, эътиборсизликка, маъсулиятсизликка йўл қўйилган. Жумладан, Аҳмад Дониш, вақфдан олинадиган даромаднинг 1/10 қисмини муҳтож талабаларга эмас, балки хазинага йўналтирилганини, бу ҳолат эса қонун (*шариат*)га зид эканлигини таъкидлайди. Оқибатда бунга масъул шахслар ва талабалар ижарачиларга даъво қилаётганларини ҳам қайд этади [16; б. 70]. Демак, ижарачилар вақфдан ажратиладиган ушрни мадрасага эмас, балки давлат хазинасига топширганлар, деган фикр пайдо бўлади. Тарихий ҳужжатларда ҳам айрим илмий адабиётларда ҳам “*ушр*” ҳам “*даҳяк*” дастлаб давлат хазинасига йўналтирилгани хусусида маълумотлар ўрин олган. Шу жиҳатдан, мазкур ҳолатда шариатга зидлик мавжуд эмаслиги намоён бўлади. Даҳяк қўп ҳолларда солиқ маъносида эмас, балки стипендия, маблағ, тушум маъноларида бўлиб, давлат хазинасига тўланган ушр солиғи ҳисобига ҳукумат томонидан таълим муассасаларига йўналтирилган ҳамда Балжувоний қайд этганидек, “*султоний даҳяк*” ҳисобланган.

Кейингиси бевосита вақф мадрасаларига тўланадиган даҳяк бўлиб, бу маблағ мутавалли томонидан бошқа ходимлар ўртасида тақсимланган, яъни бу ҳолатда даҳяк вақф ерларидан олинадиган улушни тушуниш лозим.

Умуман олганда, даҳяк Бухоро амирлигида давлатнинг таълим тизимига йўналтирилган эътибори сифатида намоён бўлади. Буни талқин қиладиган бўлсак, ҳукмдорларнинг ўз ҳокимиятини легитимация қилиш ҳолати билан ҳам боғлаш мумкин. Яъни ҳукумат етакчилари ўз мавқеларини янада мустаҳкамлаш, ўзларини тахтга қонунийликларини асослаш мақсадларида доимий тарзда уламоларни, зиёлиларни қўллаб-қувватлаганлар.

**Хулоса.** Бухоро амирлигида вақф мулкларини таъсис этишда аввалдан амалда бўлиб келаётган қонун-қоидалар устувор эканлигини тасдиқлайди. Вақфлар анъанавий тарзда, вакил орқали, гувоҳлик

асосида таъсис этилган. Бундан ташқари, воқиф вафотидан аввал мулкани вақф сифатида васият этиб қолдирган.

Тадқиқ этилаётган даврда вақфнинг асосан “*хайрий*” ҳамда “*аралаи*” турлари оммалашиб борган. Шунингдек, амирликда “*вақфи даҳяк*” ҳам бўлиб, ўз навбатида, икки маънода қўлланилгани хусусидаги мулоҳазани билдириш мумкин. Биринчиси “*султоний даҳяк*” саналиб, давлат хазинасига тўланган ушр солиғи ҳисобига ҳукумат томонидан таълим муассасаларига йўналтирилган. Кейингисини эса, бевосита вақф мулклари ижарасидан вақф муассасаларига тўланадиган тўлов сифатида тушуниш мумкин.

### АДАБИЁТЛАР:

1. Ўзбекистон Миллий Архиви (ЎзМА), И-323-фонд, 1-рўйхат, 28-йиғмажилд.
2. ЎзМА, И-323-фонд, 1-рўйхат, 58-йиғмажилд.
3. ЎзМА, И-323-фонд, 1-рўйхат, 59-йиғмажилд.
4. ЎзМА, И-323-фонд, 1-рўйхат, 95-йиғмажилд.
5. ЎзМА, И-323-фонд, 1-рўйхат, 127-йиғмажилд.
6. ЎзМА, И-323-фонд, 1-рўйхат, 134-йиғмажилд.
7. ЎзМА, И-323-фонд, 1-рўйхат, 326-йиғмажилд.
8. ЎзМА, И-323-фонд, 1-рўйхат, 327-йиғмажилд.
9. ЎзМА, И-323-фонд, 1-рўйхат, 415-йиғмажилд.
10. ЎзМА, И-323-фонд, 1-рўйхат, 565-йиғмажилд.
11. ЎзМА, И-323-фонд, 1-рўйхат, 825-йиғмажилд.
12. ЎзМА, И-323-фонд, 1-рўйхат, 869-йиғмажилд.
13. ЎзМА, И-323-фонд, 1-рўйхат, 993-йиғмажилд.
14. ЎзМА, И-323-фонд, 1-рўйхат, 1035-йиғмажилд.
15. Абдураимов М.А. *Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве в XVI – первой половине XIX века.* – Тошкент: Фан, 1970. – 286 стр.
16. Аҳмад Дониш. *Рисола ёҳуд мангитлар хонадони салтанатининг қисқача тарихи / Таржима, изоҳлар ва кириш сўзи муаллифи Қиёмиддин Йўлдошев.* – Тошкент, 2014. – 141 бет.
17. Вяткин В.Л. *Шейхи Джуйбари. 1. Ходжа Ислам / В.Л. Вяткин // Сборник “Икд-ал-джуман” В.В. Бартольд.* – Тошкент, 1927. – С. 3-19.
18. Иванов П.П. *Хозяйство джуйбарских шейхов. К истории феодального землевладения в Средней Азии в XVI-XVII вв.* – Москва-Ленинград, 1954. – 377 стр.
19. Маргинани Бурхануддин. *Хидоя. Комментарий мусульманского права.* – Ч. 1. Т. 1-2. / Пер. с англ. под ред. Н.И. Гродекова / отв. ред. авт. предисл. вступ. ст. и науч. комм. проф. А.Х. Саидов. – Москва: “Волтерс Клувер”, 2010. – 820 стр.
20. Муҳаммадали Балжувоний. *Тарихи нофеий / Тоҷик тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари Шодмон Воҳидов, Зоир Чориев.* – Тошкент: Академия, 2001. – 122 бет.
21. Ростиславов М.Н. *Очерк видов земельной собственности и поземельный вопрос в Туркестанском крае // Труды III международного съезда ориенталистов в Санкт-Петербурге 1876. Т. 1.* – С. 329-359.
22. Садриддин Айний. *Асарлар. 7-т. Эсдаликлар. IV қисм / Тоҷикчадан А. Ҳакимов таржимаси.* Тошкент, 1966. – 321 бет.
23. *Трактат Ахмада Дониша “История мангитской династии”/ Перевод, предисловие и примечания И.А. Наджафовой.* – Душанбе: Дониш, 1967. – 142 стр.
24. Чехович О.Д. *Крестьянские обязательства 1914 г. на основании мнимой грамоты Исмаила Самани // Исторические записки. Т. 33.* – 1950. – С. 259-270.
25. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. *Кифоя.* – 3-жуз. – Тошкент: “HILOL-NASHR”, 2015. – 638 бет.
26. Юсупов М.С. *Суд в Бухаре. Судостроительство и судопроизводство в Бухарском эмирате в конце XIX – начале XX в. / Текст и вводная статья: Ульфат Абдурасулов и Паоло Сартори.* – Тошкент-Вена, 2016. – 169 стр.
27. Қушматов А. *Вақф (Намудҳои заминдорӣ вақф дар шимоли Тоҷикистон дар солҳои 1870-1917).* – Душанбе: Ирфон, 1990. – 192 стр.



## ОТРАЖЕНИЕ ЭТНОИСТОРИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ ЮЖНОГО ПРИАРАЛЬЯ В ТРУДАХ ИССЛЕДОВАТЕЛЕЙ XVIII ВЕКА

**Сайманов Султанбай Сыргабаевич,**

доцент кафедры «История Узбекистана и Каракалпакстана»

Каракалпакского государственного университета

sultan\_71@mail.ru

ORCID: 0000-0003-3025-2711

**Аннотация.** Статья посвящена анализу социально-экономического положения каракалпаков в XVIII веке на основе материалов Оренбургской экспедиции. Автор подчёркивает значимость данных источников как основы для изучения ранней истории Каракалпакстана, отражающих как внутренние трансформации каракалпакского общества, так и его взаимодействие с соседними народами и Российской империей. Особое внимание уделено дипломатическим контактам, этнографическим наблюдениям и описаниям быта, хозяйственной жизни и культурных особенностей каракалпаков, зафиксированных участниками экспедиций - П.И. Рычковым, Г.Ф. Миллером, Д. Гладышевым и И. Муравиным. Рассматриваются также причины и последствия вступления каракалпаков в подданство России, противоречия с ханом Абулхаиром и утрата надежд на покровительство со стороны царского правительства. Представленные материалы имеют высокую историческую ценность и являются важным вкладом в изучение народов Южного Приаралья.

**Ключевые слова:** Оренбургская экспедиция, каракалпаки, XVIII век, Российская империя, социально-экономическое положение, этнография, Абулхаир хан, дипломатические отношения, Южное Приаралье, исторические источники.

## REFLECTION OF ETHNO-HISTORICAL PROCESSES IN THE SOUTHERN ARAL SEA REGION IN 18TH CENTURY RESEARCHERS' WORKS

**Abstract.** The article analyzes the socio-economic situation of the Karakalpaks in the 18th century based on materials from the Orenburg expedition. The author emphasizes the significance of these sources as a foundation for studying the early history of Karakalpakstan, reflecting both the internal transformations of Karakalpak society and its interactions with neighboring peoples and the Russian Empire. Special attention is given to diplomatic contacts, ethnographic observations, and descriptions of Karakalpaks' daily life, economic activities, and cultural characteristics recorded by expedition participants - P.I. Rychkov, G.F. Miller, D. Gladyshev, and I. Muravin. The article also examines the reasons for and consequences of the Karakalpaks' acceptance of Russian suzerainty, their conflicts with Khan Abulhair, and the loss of hope for patronage from the Tsarist government. The presented materials have high historical value and make an important contribution to the study of the peoples of the Southern Aral Sea region.

**Keywords:** Orenburg expedition, Karakalpaks, 18th century, Russian Empire, socio-economic situation, ethnography, Khan Abulhair, diplomatic relations, Southern Aral Sea region, historical sources.

## XVIII ASR TADQIQOTCHILARI ASARLARIDA JANUBIY OROLBO'YI ETNOTARIXIY JARAYONLARINING AKS ETTIRILISHI

**Аннотация.** Ushbu maqola Orenburg ekspeditsiyasi materiallariga asoslanib, XVIII asrda qoraqalpoqlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini tahlil qilishga bag'ishlangan. Muallif mazkur manbalarning Qoraqalpog'iston ilk tarixini o'rganishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi, chunki ular qoraqalpoq jamiyatining ichki o'zgarishlarini hamda uning qo'shni xalqlar va Rossiya imperiyasi bilan o'zaro aloqalarini aks ettiradi. Ekspeditsiya a'zolari - P.I. Richkov, G.F. Miller, D. Gladishev va I. Muravin tomonidan qayd etilgan diplomatik munosabatlar, etnografik kuzatishlar hamda qoraqalpoqlarning turmush tarzi, xo'jalik faoliyati va madaniy xususiyatlari tavsifiga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, qoraqalpoqlarning Rossiya fuqaroligiga o'tish sabablari va oqibatlarini, Abulxayrxon bilan ziddiyatlari, podsho hukumatining homiyligidan umid uzishlari masalalari ko'rib chiqiladi. Taqdim etilgan materiallar yuksak tarixiy qimmatga ega bo'lib, Janubiy Orolbo'yi xalqlarini o'rganishga muhim hissa qo'shadi.

*Kalit so'zlar: Orenburg ekspeditsiyasi, qoraqalpoqlar, XVIII asr, Rossiya imperiyasi, ijtimoiy-iqtisodiy ahvol, etnografiya, Abulxayrxon, diplomatik munosabatlar, Janubiy Orolbo'yi, tarixiy manbalar.*

**Введение.** Интерес к познанию и научное исследование социально-экономического положения может привести к коренному обновлению социально-экономической и духовной сфер жизни нашего общества. Такой интерес, как правило, обуславливается, как стремлением оценить современное состояние нашего общества с помощью поиска глубинных истоков исторических процессов прошлого, так и попытками понять его, исходя из оценок общественных явлений и процессов, свидетелями которых мы являемся. С этой точки зрения особенно поучительны страницы социально-экономической истории каракалпаков, отражённые в документах Оренбургской экспедиции, играющие важную роль для исторической науки Каракалпакстана. Более того, на наш взгляд, именно эти источники в настоящее время являются основной базой для изучения истории каракалпаков XVIII столетия.

**Анализ литературных источников.** В начале XVIII века русские мало что знали о каракалпаках, жизни каракалпаков, их занятии, культуре и быте. Однако стратегические цели Российского государства, к тому же интерес к среднеазиатским народностям, в том числе и каракалпакам, настойчиво призывали к их широкому исследованию. В политических проектах царской России территория каракалпаков занимала особое место в силу своего выгодного географического расположения. Об этом свидетельствует нижеследующий документ Оренбургской экспедиции, где говорится о том, «что же надлежит до каракалпакского народа, который в 1731 году в подданство Ея императорского величества пришёл, тому сомнения нет, что этот народ в верном подданстве к Российской Империи. Большая польза от каракалпаков для Российской Империи может быть такая, что живут они близ Аральского озера, по реке Сырдарья, где эти места могут служить пристанью для Российских купеческих караванов, которые ходят из России в Бухару, Вадакшан и через них в Индию» [1]. (Грамматику и стилистику языка оставили как в оригинале документа – авт.).

В 1735 году в Российской империи был основан город Оренбург, игравший главную роль в Российско-Центральноазиатских экономико-политических отношениях. Именно отсюда и началась экспедиция, которую в истории называли Оренбургской. Оренбургская экспедиция была вызвана, в первую очередь, внешнеполитическими задачами, с целью установления торгово-экономических связей с Центральной Азией, постепенного их присоединения к России.

Сложная и противоречивая история покорения каракалпаков, которая была начата в 30-х годах XVIII в., закончилась только в конце XIX столетия. Аннексия Центральной Азии дала возможность царизму победить в конкуренции с Британской империей. Со временем, получив бесконтрольную власть над большей частью населения, царская Россия постепенно расширяла свою политику в регионе. Вместе с тем, создавались условия для хозяйственного взаимобмена и взаимодействия между местными и пришлым населением, закладывалась почва для оживления торговли.

Некоторые вопросы этнической культуры и истории каракалпаков (само название каракалпаков, их этническая территория, кочевья и родоплеменная структура) рассматривались тайным советником Российской империи В.Татищевым в его работе «История Российская» (1739-1750 гг.). Первые две части этой книги увидели свет в 1768-1769 гг. В ней автор дал лингво-этнографическую классификацию народов, отнеся каракалпаков в так называемую «скифскую» группу [2].

В этой же работе автор одним из первых указал, что европейские исследователи определённо ошибаются, нарекая некоторые народы Азии, в том числе и каракалпаков, татарами, а их землю – всеобщим названием «Великая Татария».

Однако тот же Татищев, в своём другом сочинении утверждает, что «Каракалпаки татарский народ, имя значит чёрная шапка, живут великими деревнями при Аральском море».

Документы Оренбургской экспедиции впервые были проштудированы и использованы коллежским консультантом и корреспондентом Императорской Академии наук П.И.Рычковым. По его мнению, «каракалпаки как мужского, так и женского пола, носили на головах своих Каракалпаки, то есть Чёрные шляпы, от чего и звание своё получили»[3].

Другой участник Оренбургской экспедиции Г.Ф.Миллер (1705-1783 гг.) в своей научной деятельности уделил непосредственное внимание вопросам изучения каракалпакского народа. Миллер проник в ориенталистику посредством исследования древнерусских архивных документов, касающихся азиатских этносов. Он отмечает, что «Чёрные Клобуки есть Российское название, данное

народу, может статься потому, что оный таковые Клобуки носил, так как и ныне называем мы некоторый народ каракалпаками» [4].

**Анализ результатов исследования.** Архивные материалы Оренбургской экспедиции дают понять, что каракалпакский народ в первой половине XVIII столетия ведёт полукочевой образ жизни и делится на две части: – верхних каракалпаков, кочующих около города Туркестана, на берегах реки Чирчик, берущей начало в горах джунгарских кочевий, и нижних каракалпаков, кочующих на восточной стороне Аральского моря по берегам Сырдарьи, «где и хлеб пашут, почему живут более в одном месте, да и кочуют, не отдаляясь от оной реки Сырдарьи; ружьё имеют они огненное с фитилем, которое сами делают, так же и в Хиве покупают, а селитру и порох делают сами же и киргиз-кайсакам продают. Они же имеют сайдаки, коня и сабли. Содержание их и богатство состоит более в скотоводстве... Они упражняются также и в ловле зверей и потому находятся у них волки, лисицы, корсаки, барсы и другие звериные кожи. А лошадей у них весьма мало, чего ради в работы, и в разъезды, и в телеги принуждены они больше употреблять быков. В прочем оной каракалпацкой народ из тамошних степных кочевых народов состояния спокойнейшего и к воровству не склонен» [5].

В дополнение к этому, в этой же обстановке, стала усиливаться тенденция к высвобождению каракалпаков из-под влияния Абулхаир хана, и каракалпаки начинают вести переговоры с русским правительством о непосредственном переходе в подданство России. С этой целью в 1743 году в Петербург было отправлено посольство каракалпаков, возглавляемое Маман батыром. В августе 1743 году каракалпакские послы прибыли в Петербург и были приняты императрицей Елизаветой Петровной. На приёме глава посольства Маман батыр говорил речь, и просил «о содержании их со всем народом в высочайшей императорской милости».

С ответным словом выступил государственный канцлер А.П.Бестужев-Рюмин, который от имени царского правительства объявил о принятии каракалпаков в подданство России.

Каракалпакским послам была вручена грамота, в которой говорилось:

«Вашу к нам верную подданность милостиво повелеваем и приемлем все в числе наших подданных и обнадёживаем нашею императорскую высочайшею милостью». Но после этого каракалпаки должны были платить налог царскому правительству.

Вслед за переходом каракалпаков в прямое подданство России начались агрессивные нападения Абулхаира. Он опасался того, что каракалпаки после освобождения от его влияния, могут превратиться в опасных для себя противников и ближних союзников России.

Зимой 1743 года, когда каракалпакские послы находились ещё в пути из Петербурга, казахский хан Абулхаир напал на каракалпакские аулы и совершенно разорил их. Затем он ограбил послов, когда они проехали через владения, насильственно отобрал грамоту о принятии подданства России.

Таким образом, под влиянием Абулхаир хана тесная связь каракалпаков с Россией, продолжавшаяся до конца 1743 года была прервана окончательно. В Оренбурге русское правительство сообщало об этом следующее «...сей народ оным ханом и киргиз-кайсаками (казахами-авт.) ещё утесняем и разоряем был и в такое бедное состояние приведён, что после того в Оренбург почти никто из них не ездывал» [6].

В конечном результате обещание, данное в 1731 году со стороны Российской Империи «каракалпакский народ охранять и защищать, если какие-нибудь нашествия будут» было не выполнено, а надежда найти себе опору и защиту в лице русского правительства так и не оправдалась.

Что же касается самой Оренбургской экспедиции, то она спустя год после прекращения русско-каракалпакской связи, то есть в марте 1744 года после формирования Оренбургской губернии остановила своё существование.

Таким образом, материалы Оренбургской экспедиций дают уникальные сведения о неизвестных страницах истории каракалпаков. В них сохранились столь редкие исторические факты не только о каракалпаках, но и о казахах, киргизах, узбеках и других народах Центральной Азии, с которыми каракалпаки имели тесные связи.

Дипломатические отношения Российского государства с Хивинским ханством, начатые во времена правления Петра I, в отечественной историографии в целом изучены достаточно подробно. Значительное количество исследований, представленных в ней, позволяет составить условную периодизацию. Первый этап охватывает целиком XVIII и первую половину XIX века, и вышедшие в это время труды представляют собой особую ценность. В это время правительством России делаются попытки применения военной силы (поход А.Бековича-Черкасского в 1717 году), а также мирного

решения двусторонних отношений. Так, с конца XVIII века между Россией и Хивой наметился активный виток дипломатических обменов, посольства следовали одно за другим, как со стороны России, так и из Хивы.

**Обсуждение результатов.** Наиболее продуктивной и информативной в этот период оказалась поездка Д.Гладышева и И.Муравина в Хиву. Предпосылкой для организации экспедиции явилось обращение хана Младшего жуза Абулхаира, который просил построить ему город близ устьев реки Сырдарьи. В 1739 году ему ответили, что перед постройкой необходимо провести исследовательскую работу местности. Для сбора геодезического материала всего пройденного пути на территорию Младшего жуза были отправлены поручик Оренбургского драгунского полка Дмитрий Гладышев, знающий татарский язык, геодезист Иван Муравин, инженерный надзиратель Назимов и переводчик Усман Арысланов, и несколько казаков [7].

Наряду с собиранием ряда разведывательных сведений им удаётся сбор данных относительно населения низовьев Сырдарьи и Амударьи. Эти материалы помещены в книгу «Поездка из Орска в Хиву и обратно, совершённая в 1740-1741 годах поручиком Гладышевым и геодезистом Муравиным». Результатом этой поездки стали показания Д. Гладышева и М. Муравина с приложениями и карта пройденного пути от Орской крепости через устье Сырдарьи до города Ханки и обратно. Их документы составляют первые достоверные географические сведения о линии берегов Аральского моря и о положении народов, которые проживали в низовье Амударьи. Кроме этого, во время своей поездки русские офицеры составили первую топографическую карту киргизской степи и план города Хивы до разорения её Надир шахом, которые до начала XIX века оставались единственными в своём роде.

Также в отчёте содержатся сведения о каракалпаках. В частности, Гладышев пишет: «Около того моря народы жительствоуют Каракалпаки и Аральцы, а Хивинцы городами вверх по Улу-Дарье, по правую сторону хлебопашество имеют, о чем выше в 4 пункте показано. Каракалпаки торг производят в Хиве, Бухарии и в Аральцах, скотом, лисицами и корсаками. Аральцы торг имеют у себя, также ездят и во оные города, со скотом же» Также в отчете содержатся сведения о родоплеменном разделении каракалпаков. Управлялся Кунград в 40-е годы XVIII века своими старшинами, в числе которых Д. Гладышев упоминает Бердали-бека, Бекназар-бия, Балта-аталыка, Рахманкули-бия и Авез-инака [8].

В показаниях И.Муравина содержатся ценные сведения о культуре и быте каракалпаков и аральцев (жителей Аральского владения). «Оные Каракалпаки платье носят такое же, как и Киргис-Кайсаки, только не имеют таких поясов из красной кожи; только те имеют которые по-знатнее. Жёны их такое же носят как и Киргиския, только касавые их зделаны из меди, луженые серебром, а иные имеют серебряные; и наверху их сделаны шишечки небольшие, и во оных шишках вставлены камешки простые, больше марьян; также пришиты шевкали к сделанной нарочной из холста, которую надевают под касавую; и между означенных шишек мало накрыто белой бязью и урамалом, и подвязывают под бороду, и назад спускают также как киргиския касынки; и косы завивают таким же манером. Дочери их как и Киргиския, только волосы заплетают в две косы по плечам, пока волосы станут, а потом совьют вместе к сделанной нарочной белой бязи до земли.

Означенные Каракалпаки живут по обе стороны Сыр-Дарьи и Адам-Аты и Куван-Дарьи рек, и близ оных рек на озерах; и сеют в niskих местах около оных рек и озер хлеб, пшеницу, ячмень, просу; земля песчаная с илом; и пашут на быках; и на пашню из рек и из озер напускают воду; ездят больше на быках в телегах, а по их арбы, которые сделаны на двух колесах; оные колеса вышиною в 2 1/2 и в 3 аршина, сделаны из лесу турангану. Скотина у них: лошади, овцы, козы (против Киргизских меньше), коровы; верблюдов редкой имеет; сено косят камыш, а лошади больше сыты бывают от травы юшану» [9].

А вот что пишет И.Муравин об аральцах: «Оные Аральцы платье носят как и Каракалпаки; а знатные их старшины имеют при себе за кушеком кинжал, которой сделан из булату, величиною и с череном в 6 вершков; череня из белой рыбьей кости; и врезано в череня камешки разных цветов, яханты и алмасцы; ножны золотые, у многих-же серебряны вызолочены, а которые не столько богаты, те имеют череня простые без каменьев, ножны из зеленой сжатой кожи.

Жены их платье носят такое ж, как и Каракалпакия, только, на головах сделаны на клею круглые, подобно так как росиския женщины носят, цепцы, и ко оным пришиты, сделанные на клею души, и обшиты чёрным бархатом иль, иным чем от чёрных вещей шёлковых; и как наденет, то оныя души лежать по счекам, и подвязывают под бороду, а сверх того мало обвяжут бязью иль платком; такожде и назад свешивают косыней и завивают косы, как и Каракалпакия; и куда пойдет, то всегда надевает сверх всего на голову чепан, какой есть.



Дочери их платье носят такое ж, как и бабы; на головах тафейки, и сверх того на лбу повязывают сверченым тафтяным платком, иль какой есть, и завивают две косы, пока волосы станут, а потом вместе совьют к сделанной нарочной бязи, иль белой тафты, и до земли.

Означенные Аральцы живут близ Аральского моря около реки Улу-дарьи и по обе стороны, от самого устья вверх: по правую сторону до речки Кула-Бий, а по левую — до гор Биш-Тюбя; а город у оных Аральцов Шахтемир, построен, не доехав Улу-Дарьи реки 53 версты на канале, которой пропущен из реки Узень-Дарьи, и сделан был из глины, и ныне весь развалился; а прочие кочуют вместе кибиток по сту и до пятисот; и в означенном городе построения нет, кроме кибиток; оные сеют хлеб около оных рек Улу-Дарьи и Кувань-Дарьи, а близ озёр пшеницу, просу, ячмень, зюгар, из которого делают крупу, а цельной кормят лошадей: пашут на быках, и на пашню напускают из рек и из озер воду; земля иловатая с чернью; места ровные и камышастые; также имеют телеги как у Каракалпаков, впрягают быков и лошадей. Скотина у них по малому делу коров, овец, коз, лошадей, а у иных есть и аргамаки; верблюдов редкой имеет; курят для яиц, а их не ядят; сено косят камыш. Овощ: арбузы, дыни (по их кауны), тыквы, огурцы, морковь, репа, редька, свекла, чеснок, лук, горчица» [9].

К середине XVIII века в результате различных миссий, экспедиций и частных сведений был накоплен обширный материал об азиатских соседях Оренбургской области, что обусловило появление первого топографического описания Оренбургской губернии и прилегающих к ней территорий современного Казахстана и Средней Азии. Авторы уделили особое внимание описанию территорий народов, граничивших с Оренбургской губернией, а именно Хиве и хивинцам, туркменам, аральцам, каракалпакам и киргизам. Сведения о Хивинском ханстве касались описаний природы, географии, населения, хозяйства, а также перспектив развития российской торговли [10].

**Заключение.** Таким образом, сведения исследователей XVIII века, собранные во время посещения ими с низовьев Амударьи, являются бесценным источником для изучения истории народов Южного Приаралья данного периода, т.к. изучение истории края на основе данных очевидцев — это одна из наиболее важных задач современной отечественной историографии.

### ЛИТЕРАТУРА:

1. Сапарниязов А. История каракалпаков в документах Оренбургской экспедиции (1734-1744 гг.). Автореферат дисс. доктора философии (PhD) по историческим наукам. Н.2021, с.40
2. Татищев В. История Российская с самых древнейших времен. Кн. 1. Ч. 2. Москва: АН СССР, 1962. — сс. 274-294
3. Рычков П. Топография Оренбургская, то есть: обстоятельное описание Оренбургской губернии / Сочиненное коллежским советником и Императорской Академии наук корреспондентом Петром Рычковым. Ч. 1. Санкт-Петербург: при Императорской Академии наук, 1762. — с. 173.
4. Миллер Г. О народах издревле в России обитавших. С немецкого на Российский язык переведено Иваном Долинским. Санкт-Петербург: 1773. — с. 83.
5. Бирзе А. К истории каракалпаков XVIII в. // Красный архив. Москва: Государственное социально-экономическое издательство, 1938. №6 (91). — с. 225.
6. Сапарниязов А. История каракалпаков в документах Оренбургской экспедиции (1734-1744 гг.). Автореферат дисс. доктора философии (PhD) по историческим наукам. Н.2021, с.42
7. Кочнев А.В. Политика России в отношении Хивинского ханства в начале XVIII – второй половине XIX в. // [https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/66254/1/urfu1929\\_d.pdf](https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/66254/1/urfu1929_d.pdf)
8. Поездка из Орска в Хиву и обратно, совершенная в 1740-1741 гг. поручиком Гладышевым и геодезистом Муравиным. Санкт-Петербург, 1851. с. 15-20.
9. Поездка из Орска в Хиву и обратно, совершенная в 1740-1741 гг. поручиком Гладышевым и геодезистом Муравиным. Санкт-Петербург, 1851. с. 47-49.
10. Кочнев А.В. Политика России в отношении Хивинского ханства в начале XVIII – второй половине XIX в. // [https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/66254/1/urfu1929\\_d.pdf](https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/66254/1/urfu1929_d.pdf)

## БУХОРО АМИРЛАРИНИНГ ТАХТ МАРОСИМИ (Бухоро давлат музей-қўриқхонаси экспонатлари мисолида)

*Халилов Жамшид Набиевич,  
Бухоро давлат университети мустақил тадқиқотчиси  
Бухоро давлат музей-қўриқхонаси  
Илмий ишлар бўйича директор ўринбосари  
ark-bukhara@yandex.ru*

**Аннотация.** Мазкур мақола Бухоро давлат музей-қўриқхонаси кўргазма ва фонд сақлов хоналарида турган Бухоронинг сўнгги мангит амирларининг тахт учун мўлжалланган маросим либослари, тахтга чиқариш маросими, ҳукмдорларни муғулча одат билан оқ кигизга ўтқазиб кўтаришида гилам четини ушлашга муваффақ бўлган амалдорлар, "Шахнишин"нинг умумий кўриниши, маросим вақтида айтиладиган сўзлар, халққа берилган енгилликлар, ўзбек уруғларининг ушбу маросимлардаги ўрни ҳақида сўз боради.

**Калит сўзлар:** Амир Абдулахадхон, "Шахнишин", оқ кигиз гилам, удайчи, хўжа, ўзбек уруғи, чопон, салла, фотиҳа.

## ЦЕРЕМОНИИ КОРОНАЦИИ БУХАРСКИХ ЭМИРОВ (на примере экспонатов Бухарского государственного музея-заповедника)

**Аннотация.** Данная статья посвящена церемониальным одеяниям последних мангытских эмиров Бухары, хранящимся в выставочных залах и фондохранилищах Бухарского государственного музея-заповедника. В ней рассматриваются церемония восшествия на престол, обычай поднятия правителей на белом войлоке по монгольской традиции, чиновники, которым удавалось держаться за края ковра во время этого ритуала, обиходный вид «Шахнишина», слова, произносимые во время церемонии, льготы, предоставленные народу, а также роль узбекских родов в этих церемониях.

**Ключевые слова:** Эмир Абдулахадхан, «Шахнишин», белый войлочный ковёр, удайчи, ходжа, узбекский род, чапан, чалма, благословение.

## CORONATION CEREMONIES OF BUKHARA EMIRS (based on exhibits from the Bukhara State Museum-Reserve)

**Annotatsiya.** This article discusses the ceremonial robes intended for the throne of Bukhara's last Mangit emirs, which are preserved in the exhibition and storage rooms of the Bukhara State Museum-Reserve. It covers the coronation ceremony, officials who managed to grasp the edge of the carpet during the Mongol-style ritual of raising rulers on white felt, the general appearance of the "Shakhnishin" (royal seat), words spoken during the ceremony, concessions granted to the people, and the role of Uzbek clans in these ceremonies.

**Keywords:** Amir Abdulahad Khan, "Shakhnishin," white felt carpet, udaychi (court official), khoja (noble), Uzbek clan, robe, turban, blessing.

**Кириш.** Маълумки, Бухоро давлат музей- қўриқхонаси юртимиздаги энг нуфузли музейлар сирасига киради. Бугунги кунда мамлакатимизда музейларга катта эътибор қаратилмоқда, уларнинг ноёб ва нодир ашёларидан иборат кўчма кўргазмалар жаҳоннинг машҳур Парижнинг Лувр, Араб дунёси институти, Берлиндаги Жеймс Симон галереяси, Озарбайжоннинг Гейдар Алиев маданият маркази, Қозоғистоннинг Остона шаҳрида, Саудия Арабистонининг Жидда шаҳрида, Италиянинг Венеция шаҳарларида намоиш этилди. Шулар қаторида Бухоро музейининг амирлик коллекциясидаги буюмлар ҳам бор. Ҳозирда вилоятдаги музейларда янги экспозициялар қуриш, улардаги экспонатлар орқали маҳаллий ва хорижий сайёҳларни жалб этишга саъий ҳаракатлар олиб борилмоқда.

Бухорода музей 1922 йилда ташкил топган вақтда кўргазмага 300 дан ортиқ амирга тааллуқли ашёлар қўйилган эди. Кейинчалик музейлар сони ортиб бориб кўргазмаларда сарой анжомлари кўплаб миқдорда қўйилди. Музей экспозицияларининг аксарияти Бухоро сўнгги мангит амирларига тегишли либослар, уй-рўзгор буюмлари, мебеллар ва бошқа ашёлар билан бойитилган. Бу ашёлар

турли хунар турларининг юртимизда гуллаб-яшнаганлигини, нафақат оддий аҳоли, балки ҳукмдорлар учун тайёрланган буюмларнинг санъат даражасига етганлигини кўрсатади. Сарой коллекцияси ичида турли зардўзи либослар сақланиб қолган. Зардўзлик Бухорода XIX асрда гуллаб- яшнаган. Айниқса, “Арк” вилоят ўлкашунослик музейининг “Тарих” илмий бўлимига тегишли “Бухоро хонлиги/амирлиги тарихи” экспозициясининг 5-залида Бухоро манғит амирларининг маросим либоси- тахтга чиқиш учун кийиладиган тўни намойишга қўйилган. Ушбу либос музей-қўриқхонанинг 2- Асосий кимим китоби (КК)да 1789/9 инвентарь рақами остида берилган бўлиб, унинг таърифида қуйидагилар келтирилган: “Қизил, яшил, кўк рангли бахмал бўлакчалари ишлатилган “Заминдўзи” услубида тайёрланган зардўзи тўн. Ипак астарли, ипак ипли жияк билан хошияланган”.

**Мавзуга доир адабиётлар таҳлили.** Ушбу либос тахтга кўтариш маосими пайтида амирлар кийишлари учун фойдаланилган ва кейинги маросим 20-25 йил кутилган, шунда янги амир уни кийган ва кигизга кўтарилган.

Хўш, манғит амирларининг тахтга чиқиш маросими қандай ва қай тартибда ўтказилган? Аввало, Арк қалъасидаги “Маросимхона” қачон бунёд этилганлиги ҳақида тўхталсак.

Бухоро Аркида XVII аср ўрталарида бунёд қилинган тахт ҳовлиси тўртбурчак кўринишда, уч томони 26 та ёғоч устунли айвонлар билан ўралган, шифти ҳаузақли, айвонлар 1,5 м баландликдаги суфа устида қурилган. Шарқ томон айвони икки қаторли устунлар билан ишланган бўлиб, уларнинг юқори қисми икки ён томондан фарқ қилган ҳолда, ёғоч мукарнасли. Марказида усти ёғоч соябонли билан ишланган мармар устунларга бириктирилган тахт-“Шохнишин” турибди. Устунлар Ғозгон мармаридан қовурғали ва арабий ёзувлар билан безатилган. Ўрта Осиё ҳукмдорларини тахтга чиқаришга фойдаланилган Самарқанддаги машҳур “кўк-тош”га қиёсан тахт тайёрлаш фикри Бухоро ҳукмдорларини кўп ўйлантирган ва Бухоронинг ўзида шу мақсад учун ўз тахт тошини яратишга ундаган.

“Тахт” тошида ва соябонни ушлаб турган тўртта мармар устунда ёзувлар ўйилган, улар Чехович илтимосига кўра 1940 йилда бухоролик хаттот Мирзо Абдуфаттоҳ томонидан кўчирилган. Аввал, матн тошдан, кейин устунлардан, яъни шимоли-ғарбдан бошлаб ва кейин соат милага тескари йўналишда кўчирилган. Амирни кигизда қўйиб тахтга чиқариш маросими Европа тахтга ўтказиш маросимларига ўхшаб кетган. Бухоро амирлари ҳаётида тахтга чиқиш ва тож кийдириш тасаввурлари Европа қиролларидагидан кескин фарқ қилган. Бироқ улар ўртасидаги муддат жуда қисқа бўлган. Бунинг учун уруғларни хабардор қилиш ва йиғиш, тантана учун тегишли тайёргарликларни кўришда маълум вақт талаб қилинади.

Айниқса, тахтга чиқувчи амир учун отасининг вафоти ва унинг амир сифатида эълон қилиниш вақти хавотирли тарзда ўтган. Бу хавотир бежизга юзага келмаган, яъни тахтга даъвогарлар ёки уларнинг тарафдорлари томонидан уюштирилган фитна бўлиши, тахтни эгаллашга уриниш, ёки тахт вориси ҳаётига суиқасд бўлиши мумкин эди.

Янги ҳукмдорнинг номи халққа икки йўл билан етказилган: биринчидан, “удайчи” томонидан дуо вақтида ундаги сўзларнинг тезда ўзгартирилиши билан; бунда олдинги тахт ворисини йўлда келаётган вақтда, баъзи вақтларда унинг бирор жойда бўлиб турган вақтида, ҳузурига келаётган кишиларнинг қисқа дуо қилиши сабаб бўлган. Тахт вориси рикобидаги икки удайчи, яъни бошқалардан ажралиб туриши ва даражасини билдирувчи кўк рангга бўялган асога эга “тўра”лар йўлда ёки шаҳарда яшаб турган вақтларида, унинг доимий яшаш манзилгоҳида ўзбек тили(манғит саройи расмий тили)да яқою ягона ибора-“Ҳазрати тўрамга худо умри давлат берсун”, - деб айтишган. Амир олдида эса зарҳал асога эга удайчилар Бухоро шаҳрида бўлган пайтда: “Ҳазрат амиримни эсонлиғларига худо тавфиқу адолат берсин” -деб айтишган. Бухоро шаҳридан ташқарида, яъни йўлда кетаётган вақтда бу иборалар қуйидаги тартибда алмашган: “Ҳазрати амиримни худо музаффару мансур қилсун”. Бунда иштирок этувчилар, жумладан, амир ҳам қўлларини юқори кўтариб, дуо охирида соқоллари устидан қўлларини югуртиришган.

**Методология.** Янги амир номини эълон қилишнинг иккинчи усули Жума намози вақтидаги хутбада амир исминини қўшиб айтиш бўлган. Янги амир ҳақида зарб қилинган тангаларда унинг исминини киритилиши ҳам маълумот берган.

Яна бир белги бу- қоидага кўра одатга айланган амирнинг Аркка кириши ва чиқишида катта нағоралар зарб билан чалиниши бўлган. Бундан Бухоро аҳолиси тахтга янги амир ўтказилганлигини билишган.

Амирга тож кийдириш- “жулус” катта дабдабали тарзда амалга ошириларди. Бунинг учун қулай кун мунажжимлар томонидан белгилаб бериларди. Агар яқин кунлар хатарли бўлса, масалан сафар ойига тўғри келса, тож кийдириш маросими бошқа вақтга қолдириларди.

Европа халқлари тахт маросимларидан фарқ қилган ҳолда (қадимги Римда совутлар устига янги ҳукмдорни кўтариб тахтга ўтказишган), ўзбек манғит амирлари сулоласи турк-муғул одатларига кўра оқ кигизга ўтказиб тахтга кўтарганлар. Бухоро хазинахонасида махсус маросимлар учун мўлжалланган ашёлар ичида нақш-нигорли ва ҳошияли оқ кигиз ҳам сақланган. Бундан ташқари, малла рангли қавилган кўрпача ва кичик гилам бўлган.

Тож кийдириш маросими эрталаб “тахт” турган маросимхона ҳовлисида амалга оширилган. Амир маросим вақтида унинг аجدодлари кийган махсус зардўзи либосларда бўлган. Бу буюмлар амирлик хазинахонасида сақланган ва ҳар бир амир ҳаётида бир марта улардан фойдаланган.

“Жиға”- Европа тожларидан фарқ қилган, яъни “сўзан” кўринишида бўлиб, олтин безаклар ва қимматбаҳо тошлардан ташкил топган. У салланнинг олд томонига санчилган, пастидан йиқилиб тушмаслиги учун тилла занжирчалар билан мустаҳкамланган. Агар у тушиб кетса, бахтсизлик белгиси ҳисобланган.

Яна шуни таъкидлаш лозимки, тахтга ўтказиш маросимида амирни тахт томон кигизга ўтказишда барча ўзбек уруғлари иштирок этган. Бироқ амирликнинг қўшинлари - элнавқари сафида фақатгина 12 уруғ-аймоқли бўлинмалар бор эди. Улар ўз йўлбошчилари - саркарда атрофида бирлашганлар ва “даста” деб юритиларди.

Сўнгги манғитлар даврида қуйидаги уруғ-аймоқли “даста”лар шаклланган эди:

|           |          |         |
|-----------|----------|---------|
| Манғит    | Баҳрин   | Марка   |
| Оча-майли | Қўнғирот | Сарой   |
| Қутчи     | Хитой    | Найман  |
| Жалойир   | Қалмоқ   | Қирқ-юз |

Қолган қабилаларнинг ушбу маросимда иштирок этмаслигига улар яшаш манзилгоҳларининг узоқлиги, шунингдек, майда уруғларнинг унчалик аҳамиятга эга эмаслиги ваз ж қилинган ва элнавқарликка олинган 12 уруғ таклиф этилган. Тахтга ўтказиш маросимига нафақат саркардалар, юқори лавозимли шахслар, шунингдек, мирохўрлар таклиф этилган. Маросимга яна мулалардан: охун, аълам, қози калон, раислар ва 12 муфти, булардан ташқари “мударрисойи банораспўш” (Банорас кийган мударрислар) ҳам таклиф этилган. Бунақалар 40 киши бўлиб, қози калон таклифига кўра амир томонидан тайинланган, ҳафтанинг пайшанба куни кечга томони аркдаги Раҳимхон меҳмонхонасида тўпланиб, сулоланинг аجدодлари руҳига дуои фотиҳа ўқишган. Улардан ташқари қуйи даражадаги “душанбеги” деб номланувчи 30 мударрис ҳам бўлиб, улар ҳам ўша жойда дуойи фотиҳа амалларини бажаришган. Булар қаторида яна 30 киши бўлиб, амир аجدодлари руҳига дуойи фотиҳа қилиш учун ҳар куни ташриф буюришган. Булар “саловатхони ҳар рўза” (ҳар куни саловат ўқувчилар) деб юритилган. Улар асосан анча ёш ва унчалик кўзга ташланмаган мударрислардан тайинланган.

**Олинган натижалар таҳлили.** Вақт ўтиши билан ҳар кунликлар “душанбеги”га, “душанбеги”ликлар эса “мударриси банораспўш”га ўтказилган.

Қозилар, қушбеги ва бошқа асосий амалдорларнинг умумий кенгаши асосида ишда омад олиб келувчи бахтли кунда амирни наमत устига қўйиб кўтариш куни аниқ бўлганда, белгиланган кунда эрталаб соат 10 га қараб ҳамма тўпланган. Илгари, ҳамма нарсаси - бино ҳам, томошабинлар ҳам-бухороликларнинг катта жамоат йиғилишларида бўлгани каби, биринчи навбатда, “ҳазори испанд” ўсимлигининг қуриган шохчаларини ёндирилган тутуни билан (ёвуз руҳларни, бахтсизликларни, касалликларни ва ҳоказоларни олдини олиш учун мўъжизавий ўсимлик), кейин алое - “уд” , шунингдек сандал дарахти ва ҳоказолар билан хушбўй ҳидлантирилган.

Кейин улар Амир кўтарилиши керак бўлган кигизни тайёрлашни бошлардилар. Гилам билан қопланган полга кичкина махсус гиламча ёйилган ва устига юқорида айтиб ўтилган кўрпача қўйилган, сўнгра унинг устига кичкина кигиз қўйилган.

Бу пайтда Амир ўз ётоқхонасида бўлиб, анъанавий миллий либосларни кийиб, салласига тож (эгрет) суқиб тайёр турарди.

Ҳамма нарсаси тайёр бўлгач, Амир тахт хонасига чиқиб, тахтдан унчалик узоқ бўлмаган томондан, Раҳимхон меҳмонхонаси томонидан кириб келади ва уни ўзи ўтириши учун тайёрланган кигиз томонга кузатиб қўйишади. Кигизни тўрт томонидан энг қари ва энг ҳурматли зодагонлар ва рухонийларнинг вакиллари кўтаришади..

Шуни таъкидлаш керакки, олдинги даврдаги энг машҳур қабилалар иштирокидаги бундай маросимлар кейинги даврларда ўз аҳамиятини йўқота борди ва уруғлар даражаси пасайиб кетганлигини кўрсатади. Одатда, энг қари ва энг ҳурматли хўжалар танланган; бироқ Амир Олимхон тахтга ўтирганда, бунақалар йўқ эди. Абдулаҳадхон даврида асосан қуйидаги шахслар кигиз кўтаришда иштирок этган:



1. Охунд Домло Орифхўжа, садр.
2. Мулло Абдушукур, садр, қози-калон.
3. Мулло Муҳаммади, қушбеги.
4. Улуғхўжа, жуйбор хўжаларининг садри.

Шундай қилиб, ҳатто Абдулахадхон тахтга чиққан 1885 йилда ҳам кўрамизки уруғ-қабила вакилларида бирор киши кигиз четини ушлашда иштирок этмаган. Уларнинг ўрни тўлиқ хўжалар вакиллари (2 киши) ва олий насаб зодагон (2 киши) лар билан алмашган эди. Миллий жиҳатдан учтаси тожик ва биртаси (қушбеги) келиб чиқиши куллардан бўлган форслардан эди.

Афсуски, ҳозиргача Музаффархон даврида кигиз ушлаган тўрт вакилни номи сақланиб қолмаган. Сўнгги амир Олимхонни тахтга чиқаришда қуйидаги вакиллар иштирок этган:

1. Охунд Домулло Бой Маҳмад. Келиб чиқиши Қаршидан, камбағал оиладан бўлиб, Бухоро мадрасасида ўқиган. Кейинчалик мударрис, муфти, аълам, сўнгра охун, шунингдек, барча муллалар бошлиғи сифатида мансаб пиллапояларидан кўтарилиб борди. Миллати бўйича қаршилиқ бўлганлиги учун ўзбек эди, бироқ уни бирор лавозимга тайинланишида ҳеч қандай монеълик бўлмаган, “ўзбек” сифатида ҳеч қандай тўсқинлик бўлмаган (машхур бўлмаган ва камбағал оиладан бўлганлиги назарда тутилмоқда)

2. Қози-калон Мулло Бақохўжа, садр. Бир муддатдан сўнг шайхулисом лавозимига тайинланган. Бухоролик, тожик, хўжалардан бўлган.

3. Қушбеги Мирзо Насрулло. Бухоролик, унча бой бўлмаган тожик оиладан эди. Яхши хизматлари эвазига амир Музаффар ва Абдулахад даврларида лавозимлари кўтарила борган. Отасининг Бухорода кичкина дўкончаси бўлиб, унда чўян қозонлар сотиш билан шуғулланган.

4. Ахмад-хўжа судур, кейинчалик Жўйбор хўжалари садри бўлган. Унинг зарур киши эканлиги ўзи бошлиқ бўлган Бухородаги энг таъсирли хўжалар уруғидан эканлигида эди.

Бошқача айтганда, 1756 йилги Муҳаммад Раҳимхонни оқ кигизга тахтга ўтказилгандек, кигизни тўрт томонидан кўтарувчи кишилар таркиби, яъни “сайидлар, қозилар ва хўжалар иштирокида амирни тахтга чиқарилганлигини кўрамиз.

**Муҳокама.** Тахт деб юритиладиган мармар тошнинг тўрт бўрчагида чуқурчалар бўлиб, амирни тахтга кўтариш маросимидан олдин тилла тангаларга тўлдириб қўйилган. Тилла тангалар сони 92 та бўлиб, ўзбек уруғлари сони билан тенг эди (баъзида 97 та). Амир бу пуллари уни кўтаришда иштирок этган ҳар бир кишига беришни буюрган. Ҳар бир кишига биртадан танга берилган. Агар тангалар кам ёки кўп бўлса, унда амир номини кўрсатган кишиларга ортиқчасини бериш ёки қўшимча беришни буюрган.

Асосий тўрт вакилнинг гиламни тўрт бурчагидан тутгандан сўнг, уни кўтаришда бошқалар гиламни қолган жойларидан тутиб ёрдам берганлар. Қолган энг муҳим кишилар 70 кишига етар эди. Бир оз четрокда минг кишига яқин катта тўдада амалдорлардан иборат кишилар тўпланиб турганлар.

Амирни кўтариб бориб, “тахт” деб номланувчи ҳеч қандай тўшама ташланмаган мармар тош ёнидаги гиламга туширардилар.

Маросим тугаши билан қўшиндан ва муллалардан бир кишидан якуний дуо қилиб, амирни тахтга чиқаришда Оллоҳнинг марҳаматини сўраб эдилар.

Бундан сўнг халққа енгилликлар эълон қилиш вақти келарди. Амирни кўлига уни талаби билан қоғоз ва қалам тутқазар эдилар ва унда амир нимадир ёзар эди. Кейин бу қоғоз қушбегига бериларди ва у баланд овозда халққа берилган енгилликларни эълон қиларди. Масалан, Амир Олимхон, шу йилги буғдойнинг ҳар бир “ман”ига солиқни бир тангага камайтиришни (солиқнинг миқдори буғдойнинг бозордаги нархи билан белгиланар эди) ёзган эди. Боғлардан олинадиган хирож миқдори Абдулахадхон даврида “таноб” дан йилига 20 танга этиб белгиланган бўлса, Олимхон даврида ярмигача туширилиб, 10 танга этиб белгиланган. Бухоро “зиндони”да қамалганларнинг 70 таси авф этилиб озод қилинган ва 14 киши қамокда қолган. Шунингдек, доимий сургун жойи Қабоқлидан бир қанча кишини қайтариш кўрсатилган эди.

Аҳолига енгилликлар эълон қилингандан сўнг фотиҳа ўқилган, амир ўрнидан туриб, ўз хонасига кириб кетган. Унинг ортидан тўпланган аҳоли ҳам тарқалиб, Арқдан чиқиб кетган. Шуниси қизиқки, маросимни ўтказишдан ташқари ҳеч қанақа байрам, зиёфатхўрлик ёки бошқа маросимлар ўтказилмаган.



*Янги амирни халққа таништирув (Оқ отда Амир Олимхон). 1911 йил*



*3132/4 (КП-3) Салла - оқ майин докадан тайёрланган. Бухоро, XIX аср охири. узунлиги-13250 см.*



*2060/8 (КП-2) Қутича. Россия, XIX аср охири. Кумушдан тайёрланган, ичкари қисми тилла суви юритилган. Салла шаклида бўлиб, юқорисида кулоҳнинг тепа қисми кўриниб турган ҳолатда. Остида Туркистон генерал-губернаторлигидан деган ёзуви мавжуд. Ўлчами: баландлиги-15 см, ости дм -23 см*




*Амир Аҳадхон фотосурати.  
Ҳуқронлик даври 1885-1910 йиллар*





*Янги амирни тахт маросими тугабини сарой олдида қутиш.  
Бухоро, 1911 йил*







*Бухоро Аркидаги “Шахнишин” мармар тахти. 1669 й.*



*Бухоро Арки Тахт (Маросимхона) ҳовлиси*



*Амир Олимхоннинг ёғоч тахти. 1911 йил*



*1789/9 КП-2 Эркаклар чопони. Маросим либоси. Бухоро, XIX аср боши. Зардўзи-заминдўзи усулида тикилган. Остки қисми ипакдан. Узунлиги 152 см.*



*9311/9 (КП-5). Эркаклар чопони. (олди ва орқаси). Бухоро, XIX аср охири. Қизил бахмалдан тайёрланган, зардўзликнинг «зардўзи-гулдўзи-тағдўзи-биришимдўзи» усулида тикилган. Остки қисми шойи ипакдан. Узунлиги 150 см.*





*Амир Олимхоннинг маросим либоси. Француз велюрида “зардўзи-тагдўзи-гулдўзи” услубида тикилган. Бухоро, XX аср боилари.*



*1795/9. Зардўзи тўн. Яшил бахмал матосига “гулдўзи” услубида тайёрланган. Атрофи “йўрма” услубда қўр қилинган. Бухоро, XIX аср ўрталари.*

### *АДАБИЁТЛАР:*

1. Бухоро давлат музей –қўриқхонаси II Асосий Кирим Китоби (КК);
2. Чехович О.Д., Андреев М.С. “Арк Бухары”. Изд-во “Дониш”. Душанбе, 1972 г. – С. 43-50.
3. Туркестанский сборник. Сборник и заметки из русских и иностранных газет. Том 445. Ташкент-1907. –Стр. 88-92
4. Бухоро давлат музей –қўриқхонаси. Инв №1795/9.
5. Бухоро давлат музей –қўриқхонаси. Инв № 3132/4 (КП-3)
6. Бухоро давлат музей –қўриқхонаси. Инв № 2060/8 (КП-2)
7. Бухоро давлат музей –қўриқхонаси. Инв № 9311/9 (КП-5).
8. Бухоро давлат музей –қўриқхонаси. Инв № 1789/9



## “BAHR UL-ASROR” ASARIDA BUXORO XONLIGIDAGI MA’MURIY BOSHQARUV

*Rajabov San’atjon Sunatovich,  
Buxoro davlat pedagogika instituti  
Ijtimoiy fanlar kafedrası katta o’qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Mahmud ibn Valining “Bahr ul-asror” asarining Buxoro xonligida mavjud bo’lgan ma’muriy boshqaruv tizimini o’rganishdagi ahamiyati bayon etilgan. B.Ahmedov tadqiqotlari asosida “Bahr ul-asror” asarining o’rganilishi, Buxoro xonligida davlatchilik va boshqaruv, yer-suv islohotiga oid bir qator muhim ma’lumotlar, shuningdek, saroyda mavjud bo’lgan turli lavozim egalarining vazifalari batafsil yoritib berilgan.

**Kalit so’zlar:** Buxoro, boshqaruv, saroy, marosim, tartibot, lavozim, vakil, mansab, manbalar, saltanat, zodagonlar, hukmronlik.

## АДМИНИСТРАТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ В БУХАРСКОМ ХАНСТВЕ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «БАХР УЛЬ-АСРОР»

**Аннотация.** В данной статье рассматривается значение труда Махмуда ибн Вали «Бахр уль-асрор» в изучении системы административного управления, существовавшей в Бухарском ханстве. На основе исследований Б. Ахмедова подробно освещается изучение произведения «Бахр уль-асрор», анализируются вопросы государственности и управления в Бухарском ханстве, земельно-водной реформы, приводится ряд важных сведений, а также детально описываются обязанности различных должностных лиц при дворе.

**Ключевые слова:** Бухара, управление, дворец, церемония, порядок, должность, представитель, пост, источники, империя, аристократия, господство.

## ADMINISTRATIVE ADMINISTRATION IN THE BUKHARA KHANATE IN THE WORK «BAHR UL-ASROR»

**Abstract.** This article discusses the importance of Mahmud ibn Vali's work «Bahr ul-asror» in studying the administrative management system that existed in the Bukhara Khanate. Based on B. Ahmedov's research, the article provides a detailed examination of «Bahr ul-asror», including its insights into statehood and governance in the Bukhara Khanate, land and water reforms, and other significant information. Additionally, it elaborates on the duties of various officials within the palace hierarchy.

**Keywords:** Bukhara, governance, palace, ceremony, protocol, position, representative, office, sources, empire, nobility, rule.

**Kirish.** Mahmud ibn Valining “Bahr ul-asror” asarida XVII – XVIII asr boshlari davriga oid ma’muriy-davlat boshqaruvi haqida bir qator qimmatbaho va noyob materiallar taqdim etiladi[1-3]. Muallif o’z asarida Nodirmuhammadxon saroyining tantanali marosimi haqida batafsil ma’lumot beradi. Ma’lumotlari ahamiyati shundaki, u tasvirlangan voqealarning bevosita guvohi bo’lgan, ushbu ma’lumotlar boshqa shunga o’xshash o’rta asr yozma manbalarida uchramaydi. Mahmud ibn Valining yozishicha, Buxoro saroyining barcha ulug’lari ikki guruhga bo’lingan: asosiy va ikkinchi darajali. Qabul chog’ida ular ushbu belgilangan tamoyillar asosida o’z o’rinlarini egallashgan [2-390]. Marosimga ko’ra, xonning chap tomonida oliy martabalardan bo’lgan naqib va otaliq bo’lgan. Mahmud ibn Valining yozishicha, o’rnatilgan davlat tartibotlariga ko’ra naqiblarning joylari xoqonlarning chap tomonida bo’lgan. Muallifning ta’kidlashicha, naqiblarning salmog’i katta bo’lgan va ularning ta’siri shu darajada bo’lganki, barcha shahzodalar, hatto, podshohning merosxo’ri va noibi ham ulardan pastda o’tirgan [2-390]. Bu lavozimni asli sayyidlar egallagan[3-394]. Naqibning mavqeyi sulolaviy davom etgan. Balxda XVII asr boshlarida naqib mansabi Sayyid ota avlodlariga tegishli bo’lgan. Bu xonadon vakillaridan biri Nodirmuhammadxon Balxda hukmronligining dastlabki yillarida Xazorasp hukmdori bo’lib, u yerda bosqinchilik janglari olib borgan. Bu davrda bu oiladan Alavxo’jdan boshqa hech kim hukmdor bo’lmagan. Keyinchalik u naqib etib tayinlangan. U kasallikdan vafot etgandan so’ng, naqiblik lavozimi Xoja Bahouddin Naqshband avlodlariga o’tgan. Bundan avval ham marhum va tirik barcha sulton va xoqonlar naqib mansabini Sayyid ota avlodlariga bergan bo’lsa, Nodirmuhammadxon bu mansabni Naqshbandlarga bergan [4-148].

Buxoro xonligida XVIII asr boshlarida naqib mansabi Maxdumi A'zam Kosoniy avlodlariga o'tgan. Ulardan biri Muhammad Saidxo'janing mamlakat davlat hayotidagi ta'siri va qudrati shu darajaga ko'tarildiki, u hatto, qo'g'irchoq xonlar Sanjarxon va Muhammadxon bilan raqobatlashdi [5-41]. Hofizi Tanish Buxoriyning yozishicha, davlat boshqaruvida naqibning o'rni shu qadar yuqori bo'lganki, qabul va bayramlarda u Kulba ko'kaldosh og'lonlari va boshqa amaldorlardan yuqori o'tirardi [6-286; 6-149].

**Mavzuga doir adabiyotlar tahlili.** Yozma manbalarda yozilishicha, XVI asr boshidan Movarounnahrda ko'chmanchi o'zbeklar hukmronligi o'rnatilgandan so'ng otaliqning mavqei kuchaygan. XV asrda shahzodalarning voyaga yetguncha tarbiyachisi va regenti ma'nosini bildiruvchi bu atama sobiq Shaybon ulusida qo'llanilgan. O'sha davrda ikki qabila – qushchi va uyg'ur qabilasining harbiy xizmatchilari va nufuzli amirlari orasidan otaliqlar saylangan. O'z vaqtida Dashti Qipchoqning sharqiy qismida ko'chmanchi o'zbeklar davlatining asoschisi Abulxayrxon uyg'ur qabilasidan bo'lgan amir Qorachinbekni o'ziga otalik qilib olgan, shu qabiladan bo'lgan amir Bayshayx avval Shoh Budog' Sultonning otalig'i, to'ng'ich o'g'li Abulxayrxon, so'ngra uning kichik o'g'li Mahmudxon va Shaybxonlar edi [4-150].

Otalikning xuddi shunday vazifasi XVI – XVII asrlarda ham saqlanib qolgan. Shunday qilib, 1582-yillarda Abdullaxon tomonidan o'n to'rt yoshli Abdulmo'min Sulton Balxga hukmdor etib tayinlanadi, amir Jonkeldibey esa unga otaliq qilib, mamlakat boshqaruvi jilovini o'z qo'liga oladi. Mahmud ibn Valining yozishicha, o'n besh yoshli Nodirmuhammadxon Balxga hukmdor etib tayinlanganida, Valimuhammadxon unga aholiga nisbatan shafqatsizlik va zolimlik ko'rsatib, mamlakatni amalda boshqargan amir Shohbek Ko'keltoshni otaliq etib tayinlaydi [1-145]. Keyinchalik otaliqning vazifalariga sug'orish suvini taqsimlash kiritilgan [7-144].

Buxoro xonligining boy va nufuzli amirlaridan biri Alchin qabilasiga mansub Yalangto'shbiy XVII asrning 20-30-yillarida otaliq lavozimini egallagan. Yalangto'shbiy Nodirmuhammad va Imomqulixonlarning harbiy yurishlarida faol qatnashgan. Bu faxriy unvonga nafaqat Yalangtushbiy, balki ko'plab ko'chmanchi zodagonlarning boshqa vakillari ham ega edilar. Otalik vazifalarining o'zgarishi yosh sultonlarning tarbiyachisi roli asta-sekin ikkinchi o'ringa tushib qolganligi va otaliqning birinchi vazir sifatidagi rolining ahamiyati birinchi o'ringa chiqqanidan dalolat beradi. Harbiy vazifalardan tashqari, otaliqqa ma'lum sud funksiyalari ham berilgan [8-79].

“Baxr ul-asror” materiallarini yuqoridagi kabi boshqa manbalar bilan taqqoslash Mahmud ibn Valining otaliq haqidagi ma'lumotlari to'g'ri ekanligini va bu mavqening sulolaviy o'rni va ahamiyatini tushunishni ko'p jihatdan to'ldirishini ko'rsatadi.

Mahmud ibn Vali “Baxr ul-asror” asarida yozishicha, Buxoro xonligida yig'inlar shodligi uchun chaqirilgan marosimda shayx ul-islom xonning o'ng tomonida joy egallagan. Bu birinchi faxriy o'rin hisoblangan. Ammo har qanday musofir hovlidan boshpana so'rasa, u saltanatning ziynatiga aylanadi va podshoh hovlisida, shayx ul-islom huzurida ziyofat chog'ida unga xonning o'ng tarafidan joy berilgan. Ba'zi hollarda bunday mehmonlarga alohida gilam yotqizilgan [2-394].

“Habib us-siyar” muallifi Xondamirning xabar berishicha, shayx-ul-islom lavozimiga Qur'on va hadislar tafsirini mukammal bilgan zodagonlar tayinlangan [9-343].

Shayboniylar Iskandarxon va Abdullaxon davrida Buxoroda shayx ul-islom lavozimini Jo'ybar shayx Xoja Muhammad Islom va uning avlodlari hamda Xoja Ubaydulloh Ahror avlodi Xoja Hoshimiy egallagan. Shariat bo'yicha taloq masalalarini hal qilish shayx ul-islom ishtirokida amalga oshirilgan. Ba'zan ular yetimlar va bedarak yo'qolganlarning mulki masalalarini hal qilishgan.

Ashtarxoniylar davrida Buxoroda shayx ul-islom lavozimini Xoja Ahror avlodlari, Balxda esa Xoja Abu Nasr Pars avlodlari egallagan [4-151]. Marosimga ko'ra, shayxulislomdan keyin bosh qozi (oliy qozi) o'rin egallagan. Sayyidlar bu joyni ulardan talashib olishlari mumkin edi [2-394]. “Buxoro unvonlar va martabalar haqidagi risola”da aytilishicha, barcha kishilar oliy qoziga apellyatsiya bilan murojaat qilish huquqiga ega bo'lgan [7-139].

Oliy sudya lavozimi merosiy bo'lib, u vazir lavozimiga tenglashtirilgan edi. Ashtarxoniylar hukmronligi davrida Balxdagi bu lavozim Xoja Ubaydulloh Ahror avlodlariga tegishli edi [1-242]. Mahmud ibn Valining ma'lum qilishicha, ayrim shahar va viloyatlarda oddiy qozilarning lavozimlari avloddan-avlodga o'tib kelgan.

Mahmud ibn Vali ma'lumot berishicha, harbiy qozilardan so'ng a'lam (bosh muftiy) uchun alohida joy ajratilgan. Muftiylar shariat qonunlariga asoslanib huquqiy qarorlar (fatvolar) va farmonlar chiqarganlar. Muftiylar tomonidan tayyorlangan barcha qaror va farmonlar faqat a'lamning muhri bilan tasdiqlangandan keyingina qonuniy kuchga ega bo'lgan [2-395].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Marosim vaqtida xonning o'ng tomonida oxirgi o'rinda rais uchun ajratilgan. Nodirmuhammadxon hukmronligi davrida Hasanxo'ja Balxning raisi lavozimini egallab turgan. Buxoro xonligining barcha aholi punktlarida o'z raislari mavjud edi. Agar biror hududda sayyid yoki xo'ja

unvoniga ega kishilar bo'lmasa, halol oddiy odamlar orasidan birortasini rais etib tayinlashlari mumkin edi [4-152]. Mahmud ibn Vali Kishm shahri haqida ma'lumot keltirgan bo'limida, bu shahar aholisi bir necha bog'larda yashashini va har bir bog'ning o'z ra'isi borligini yozadi. Ularning buyruqlari aholi uchun shunchalik kuchli ekanki, ular na mol-mulkklarini, na oilalarini e'tiborga ola olishar ekan [2-396].

"Bahr ul-asror" asari muallifi Mahmud ibn Valining ma'lumotlariga ko'ra, Ashtarxoniylar davlati mansablar tizimida devonbegi (devon boshlig'i, vazir) lavozimi muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Marosim tartibiga binoan, uning o'zni uchinchi pog'ona yonida joylashgan edi [2-396].

Sharqshunos A.A. Semyonovning "Buxoro risolasi" ma'lumotlariga ko'ra, devonbegi mamlakatning xiroj soliqlarini boshqarish va daftar yozuvlarini yuritish vazifalarini bajargan. U devonxona boshlig'i sifatida moliyaviy ishlarni ham nazorat qilgan. Bundan tashqari, devonbegi Qorako'lda suv taqsimotini ham kuzatib brogan [7-147].

Buxoroda bo'lgan rus elchisi B.A. Pazuxinning ma'lumot berishicha, devonbegi xorijiy elchilarni qabul qilish va jo'natish bilan shug'ullangan. B.A. Pazuxin devonbegini otaliqdan keyingi ikkinchi muhim shaxs deb hisoblab, uni rus podshohlarining "yaqin boyar" unvoniga tenglashtirgan [10-49]. Mir Muhammad Amini Buxoriy "Ubaydullanoma" asarida Buxoro xonligining davlat mansabdorlarini sanab o'tganda, ko'pincha devonbegi lavozimi haqida to'xtalib, bu mansabni egallagan shaxslarning nomlarini keltiradi. Uning ta'kidlashicha, davlatda otaliqdan keyin eng nufuzli va yaqin kishilar devonbegilar bo'lgan.

Buxoro ma'muriy boshqaruvida parvonachi lavozimi eng yuqori unvon sanalib, otaliq va devonbegidan so'ng uchinchi o'rinni egallagan [1-207]. "Ta'rix Muqimxoniy" va "Ubaydullanoma" asarlarida ham bu tasdiqlangan. Parvonachi davlat hukmdori tomonidan amirlarga va taniqli shaxslarga in'om etilgan yorliqlarni podshohning farmoyishi bilan yetkazib bergan. Mahmud ibn Valining so'zlariga ko'ra, u ayrim viloyatlarni qamal qilish chog'ida yirik harbiy qismlarga qo'mondonlik qilishga va alohida qal'alar mudofaasini tashkil etishga majbur bo'lgan [1-193].

Buxoro xonligi boshqaruv tizimidagi keyingi muhim lavozim dodxohlik edi. Bu mansab davlat hayotida juda katta ahamiyatga ega edi. Mahmud ibn Valining ma'lumot berishicha, Nodirmuhammadxon hukmronligi davrida dodxohlik lavozimi mashhur qozi Shohimning o'g'li, Balxning nufuzli amiri Mansurxo'jaga topshirilgan. Mansurxo'ja muallif bilan yaqin tanish bo'lib, u bilan tez-tez uchrashib, turli mavzularda suhbatlashar edi. Mahmud ibn Vali ta'kidlashicha, Mansurxo'ja bilimdon va zukko kishi bo'lgan. Shu bois xon biror muhim maktub yoki yorliq jo'natishdan avval ularni albatta Mansurxo'ja dodxohga ko'rsatib, uning fikrini olardi [4-156].

Davlat apparatidagi yana bir muhim lavozim ko'kaldosh edi. Mahmud ibn Valining ma'lumotlariga ko'ra, Buxoro xonligida ko'plab yuqori mansabdor shaxslar "ko'kaldosh" unvoniga ega bo'lganlar. To'fon ko'kaldosh, Shohbek ko'kaldosh, Nazar ko'kaldosh, Nodir ko'kaldosh kabi taniqli amirlar va amaldorlar xonning buyrug'i bilan mamlakatda turli muhim vazifalarni bajarganlar. Misol uchun, To'fon ko'kaldoshga yosh shahzodalar Imomqulixon va Nodirmuhammadxonni tarbiyalash vazifasi yuklatilgan edi [4-158].

Muhammad Yusuf Munshiyning "Ta'rix Muqimxoniy" asarida ham ko'kaldosh unvonini olgan amaldorlarning vazifalari haqida ko'plab muhim ma'lumotlarni keltirilgan. Uning ma'lumotlari aksariyat hollarda Mahmud ibn Valining xabarlarini bilan mos tushadi. A.A. Semyonov "Buxoro risolasi"da yozishicha, ko'kaldosh mamlakat bo'ylab hukmdorning do'stlari va dushmanlari haqida ma'lumot to'plash, podshohning g'animlariga qarshi choralar ko'rish bo'yicha qarorlar qabul qilish, shuningdek, xonning maxfiy xabar yetkazuvchilar tarmog'ini nazorat qilish kabi vazifalarni bajargan [7-148].

Mahmud ibn Vali saroy amaldorlarining martabalar jadvalidagi muhim va oliy darajali mansablarni tasvirlab bo'lgach, ularning orqasida joylashgan amaldorlarni sanab o'tishga o'tadi. Muallif ularni ikkinchi darajali amaldorlar deb atab, chap va o'ng tomonlarda joylashgan bu amaldorlarning o'zni va joylashish tartibini belgilaydi. Muallifning ta'kidlashicha, chap tomondagi birinchi o'rin xon yasovuliga berilgan. Bu joyda doimo o'g'lonlardan biri o'tiradi. Uning vazifalariga sultonlar va shahzodalardan podshohga kelgan sovg'alarni yetkazish hamda ularning ma'ruzalarini mamlakat hukmdoriga taqdim etish kiradi [4-158]. Mahmud ibn Valining xabarlariga ko'ra, Imomqulixon 1639-yil yanvarida Nodirmuhammadxonning Buxoroga tashrifi sharafiga rasmiy qabul marosimi uyushtirgan. Bu marosimda Imomqulixon nomidan uning yasovuli Bekmuhammad Nodirmuhammadga qimmatbaho sovg'alar taqdim etgan. Qabul marosimining so'ngida, bunga javoban, Nodirmuhammadning yasovuli Imomqulixonga o'ziga berilgan sovg'alardan ikki barobar qimmatli sovg'alar taqdim etgan. XVI-XVIII asrlarda yasovul xon yoki amir saroyida, shuningdek, viloyat hokimiyatida ham o'ziga xos kichik amaldor bo'lib, maxsus topshiriqlarni bajaruvchi shaxs hisoblangan. Mir Muhammad Amin Buxoriyning ma'lumotlariga ko'ra, yasovullik lavozimiga o'g'lonlardan tashqari, ko'chmanchi qabilalarning eng nufuzli sardorlari ham tayinlangan.

Mahmud ibn Vali yana shuni yozadiki, yasovuldan keyin eshik og'aboshi (darvozabonlar boshlig'i) o'zni belgilangan. U xabar berishicha, bu lavozimni egallash huquqi uch ulusga, ya'ni do'rmonlar,

qo'shchilar va naymanlarga tegishli bo'lgan. Agar ular orasida bu vazifaga munosib odam topilmasa, huquq qo'ng'irotlar, buyraqlar, qiyotlar va xitoylarga o'tgan[2-396]. Далее наш автор говорит, что должность ишик агабаши была одной из почетных и ее обладатель занимал в государстве видное положение. Eshik og'aboshi mansabi eng faxrli lavozimlardan biri bo'lib, uni egallagan shaxs davlatda yuqori mavqega ega bo'lgan.

Eshikog'aboshi lavozimi vazifalariga davlat rahbari saroyda bo'lganda oliy saroyni qo'riqlash bunga qo'shimcha ravishda, Shopurkam tumanini boshqarish va uning sug'orish tizimini nazorat qilish ham yuklatilgan[7-150]. Eshik og'aboshilari o'ng va chap tomon qorovullariga bo'linib, harbiy harakatlarda bevosita ishtirok etgan. Ularning soni ko'p bo'lganligi manbaalarda uchraydi.

**Olingan natijalar tahlili.** Mahmud ibn Valining ma'lumot berishicha, eshik og'aboshidan keyin miroxurning o'zni keladi [2-396]. Xon va sulton otxonalariga bir necha kishi biriktirilgan bo'lib, ularning boshida bosh miroxur turgan. Bunday ma'lumotlar boshqa o'rta asr mualliflarida ham mavjud. Odatda, hukmdorlar o'zlariga yaqin kishilarni miroxur etib tayinlar edilar. Masalan, Nodirmuhammadxon 1639-yilda akasi Imomqulixonning taklifiga ko'ra Balxdan Buxoroga yo'l olganida, unga eng sara amaldorlar hamroh bo'lgan. Ular orasida sakkizinchi o'rinda qang'li qabilasidan bo'lgan Qubod miroxur ham bor edi[4-161].

Mahmud ibn Valining guvohlik berishicha, miroxurdan keyin shig'ovul (marosim boshqaruvchisi), mirzaboshi (kotiblar boshlig'i) va xazinachining o'rinlari belgilab qo'yilgan. Shig'ovul boshqa mamlakatlardan kelgan elchilar va yuqori martabali shaxslarni qabul qilishni tashkil etish uchun mas'ul bo'lgan maxsus amaldor edi. U saroyda alohida o'rin egallagan. Uning vazifalari faqatgina chet ellik mehmonlar va elchilarni qabul qilishni tashkil etish bilan cheklanmagan edi.

Manbalar uni harbiy shaxs va xonning yurish hamda safarlaridagi eng yaqin hamrohlaridan biri sifatida ta'riflaydi. Hofizi Tanishning ma'lumotlariga ko'ra, harbiy yurishlarda unga g'oyat mas'uliyatli vazifalar topshirilgan. Jumladan, Abdullaxon 1572-yilda Andxud va Sheberganga yurish qilganda, Ganji Ali shig'ovul nufuzli lashkarchilar bilan birga o'z qo'shinini boshqarib, ilg'orda borgan. Xondamirning xabar berishicha, shig'ovulning davlatdagi o'zni va ahamiyati salmoqli bo'lgan. Shayboniyxon 1500-yilda Samarqandni qamal qilganda, Sultonali Mirzo chora topolmay, Shayboniyxonga taslim bo'lishga rozilik bildirib, elchilar jo'natgan. Elchilar orasida Abdulvahob shig'ovul ham bo'lgan.

Ashtarxoniylar xizmat pog'onasida mirzaboshi rahbarlik qilgan kotiblar ko'rsatilgan. Bu lavozim xon va shohlarning shaxsiy kotibi bo'lgan hamda mirzaboshidan biroz yuqoriroq turgan munshiy lavozimidan farq qiladi[4-161].

Munshiylarning vazifalariga quyidagilar kirgan: xon yoki amirning xohish-irodasini ifodalovchi yorliqlar va xizmat xatlarini yozish, turli shaxslarni lavozim, mansab va unvonlarga tasdiqlash haqidagi farmonlarni tayyorlash, shuningdek, ma'lum vazifalarni topshirish yoki boshqa majburiyatlar haqidagi hujjatlarni tuzish bo'lgan.

Munshiyning vazifalariga g'alaba haqidagi xabarlarni tayyorlash va yuborish ham kirgan bo'lib, ularni belgilangan manzilga maxsus chopar - mubashshir yetkazib bergan. Xondamirning ta'kidlashicha, munshiy yirik janglar arafasida qo'shin sonini hisobga olib borgan ekan[9-283].

Ashtarxoniylar saltanati davrida xazinadorlik lavozimi saroydagi eng muhim mansablardan biri hisoblangan. Bu lavozimga, boshqa yuqori martabalarga tayinlash kabi, nomzodning alohida xizmatlarini inobatga olgan holda tayinlov amalga oshirilardi[4-162].

Mahmud ibn Valining ma'lumotlariga ko'ra, davlat apparatida **xazinabonlar** muhim o'rin tutgan va bu lavozimga tayinlashda nomzodning alohida xizmatlari ham e'tiborga olingan. Masalan, uning yozishicha, Valimuhammadxonning yaqin a'yonlaridan biri bo'lgan Bekmuhammad uning hukmronligi davrida xon xazinasiga boshchilik qilgan. Valimuhammadxon mag'lubiyatga uchrab, halok bo'lgach, Bekmuhammad Nodirmuhammadxon tomoniga o'tib, uning saroy xizmatkorlari safiga qo'shilgan, ammo ko'p o'tmay xon xazinaboni etib tayinlangan. Ashtarxoni zodagonlaridan yana biri - Hojibek kenagas 1631-1632-yillarda Meruchoq qal'asini qamal qilish chog'ida jasorat ko'rsatgan, shundan so'ng Abdulaziz sulton bu xizmatlari evaziga uni xazinachi lavozimiga tayinlagan.

Ashtarxoniylar davlatidagi yana bir muhim mansab **qushbegi** unvoni edi. U ma'muriy boshqaruvda xon ovchiligi masalalarini hal qilardi. Bu lavozimning nomi yozma manbalarda turlicha yozilgan. "Bahr-ul-asror"da bu mansabning turli darajalari qayd etilgan: ovchilar boshlig'i, butun mamlakat qushbegisi, mamlakatning bir qismi qushbegisi, xon qushbegisi. Xon qushbegisi lavozimni egallab, o'z vazifasini fidokorlik va jasorat bilan bajargan shaxs keyinchalik yanada yuqoriroq mansabga ko'tarilish imkoniyatiga ega bo'lgan.

Muhrdor eng yuqori va sharaflı lavozimlardan biri hisoblanardi. Muhrdorning asosiy vazifasi xon yoki sulton muhrini saqlash hamda uni oliy hukmdorlar tomonidan chiqarilgan yorliqlar, farmonlar va boshqa



rasmiy hujjatlarga bosishdan iborat edi. Bundan tashqari, ularga yirik qurilish ishlariga rahbarlik qilish, harbiy qismlarni boshqarish va boshqa muhim vazifalar ham topshirilardi.

Chamasi, shu yerning o'ng tomonida "qalam ahli" (ahli qalam) vakillari, xususan ularning eng nufuzlilari – xon madrasasining bosh mudarrisi, xon kutubxonachisi, saroy tabibi, saroy shoirlari sardori va boshqalarning o'rinlari joylashgan edi. Dastlabki ikki mansab haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz [4-166].

Ashtarxoniylar hukmronligi davrida oliy musulmon madrasasi **mudarrisi** lavozimi nihoyatda mas'uliyatli hisoblanardi. Ayrim hollarda bosh mudarris vazifalari qozilarga yuklatilgan [4-166]. Mahmud ibn Valining ma'lumotlariga ko'ra, Abdulmo'minxon noiblik qilgan davrda Mulla Qozi bir vaqtning o'zida ham qozilik vazifasini bajargan, ham Abdullaxon madrasasida bosh mudarris bo'lgan ekan. Shuningdek, Juzjonlik mavlono Mirza kuchak ismli zot Valimuhammadxon tomonidan Xo'ja Hayron qishlog'idagi Ali mozorining mutavallisi hamda Xo'ja Muhammad Porso madrasasining mudarrisi etib tayinlangan. O'sha paytda Balxdagi Abdullaxon madrasasida to'rt mudarris faoliyat yuritgan bo'lib, ularning eng kattasi Mir Hoshim (1616- yil) edi.

Yana bir mas'uliyatli lavozim **kutubxonachi** edi, uni xonning o'zi tayinlagan. Mahmud ibn Valining "Bahr ul-asror" asarida bu mansab kitobdori xossa (xon kutubxonachisi nazarda tutilgan), kitobdori madrasai oliy (madrasa kutubxonachisi) va kitobdor (kutubxonachi) deb nomlangan. Uning yozishicha, o'sha paytda madrasa asoschilari va yuqori martabali shaxslar kutubxonachilarga vaqf sifatida ko'plab kitoblar in'om etganlar. Masalan, Nodirmuhammadxon shaxsiy kutubxonasidan Balxning yangi qurilgan kutubxonasiga ikki ming jildli kitob topshirgan. Shuningdek, Balxda Qulbobo ko'kaldosh va Ollohyor devonbegining, Buxoroda esa Xoja Muhammad Islomning kutubxonalari kabi shaxsiy kutubxonalar ham mavjud bo'lgan. Ba'zan kitobdor qo'shimcha ravishda yanada muhimroq mansablarni ham egallab turgan [4-167].

Buxoro amirligining mansablar tizimida **qo'rchiboshi** lavozimi ham muhim o'rin egallagan. Mahmud ibn Vali o'zbek xonlari saroyidagi marosimlarni tasvirlar ekan, oliy taxtning orqa qismida shaxsiy qo'rchilar (tansoqchilar) va ichkilar (xona xizmatkorlari) uchun joy ajratilganini qayd etadi. Ichkilar lavozimi asosan yig'inlar uchun mo'ljallangan. Eng oldingi o'rin esa qo'rchiboshi, ya'ni tansoqchilar boshlig'iga tegishli bo'lgan. Muallifning aytishicha, qo'rchiboshi lashkarboshi va viloyat hokimi vazifasini bajargan. Qo'rchiboshining majburiyatlaridan xom va tayyor porox hamda qo'rg'oshinning soz holatini nazorat qilib turgan. Shuningdek, unga ayrim kanallarda boshqaruv va miroblik vazifalari ham yuklatilgan.

Ashtarxoniylar davlat tizimidagi keyingi mansab saroy xizmatkorlari boshlig'i edi. Mahmud ibn Valining ma'lumotlariga ko'ra, marosim tartibiga muvofiq saroy xizmatkorlari boshlig'ining o'rni qo'rchiboshi va qushbegidan keyin joylashgan edi [4-170]. Mahmud ibn Valining xabar berishicha, ashtarxoniylar davrida saroy xizmatkorlari boshlig'i (chuhra og'asi) mansabi ham bo'lgan va bu mansabga ming urug'idan bo'lgan O'razbiy otaliqning o'g'illaridan biri - Muhammad Rahimbek musharraf bo'lgan. Ushbu lavozim egasi zimmasiga asosiy vazifalardan tashqari, oliy hukmdorning boshqa mas'uliyatliroq topshiriqlari ham yuklatilgan. Masalan, ular ba'zan maxsus xon choparlari hamda elchilar vazifasini bajarganlar.

Mahmud ibn Valining ma'lumotlariga ko'ra, Buxoro xonligi mansab tizimida yuqorida ko'rsatilgan lavozimlardan tashqari, mamlakat hayotida muhim o'rin egallagan boshqa lavozimlar ham mavjud edi. Shunday qilib, "Bahru-l-asror" asari muallifi Mahmud ibn Valining Buxoro xonligi davlat boshqaruvi haqidagi materiallarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mamlakatdagi murakkab siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga qaramay, davlat boshqaruv tizimi yetarli darajada yo'lga qo'yilgan edi. Bu yerda xon va nufuzli amirlarning buyruqlarini bajaruvchi ko'p sonli amaldorlar guruhi faoliyat yuritgan. Mahmud ibn Valining ma'lumotlarini boshqa shu kabi tarixiy yodgorliklar materiallari bilan solishtirish natijasida, "Bahr-ul-asror" asari Buxoro xonligidagi mavjud bo'lgan mansab va unvonlar haqidagi ma'lumotlar ishonchli ekanligi aniqlandi.

Mahmud ibn Valining XVII asr birinchi yarmida bitilgan "Bahru-l-asror fi manoqibi-l-axyor" asari Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga oid noyob yozma yodgorlik hisoblanadi. Ushbu asar qo'lyozmalarining ayrim qismlari kam saqlanib qolganligi sababli, u Movarounnahr va Xuroson, shuningdek, Markaziy Osiyo hududida istiqomat qiluvchi boshqa xalqlar tarixi bilan shug'ullanuvchi barcha tadqiqotchilar uchun to'liq darajada foydalanish imkonini bermagan.

B. Ahmedov asar o'ziga xos uslubga ega ekanligini, jumladan, tarixiy voqealarni tasvirlashda muallif guvoh va ishtirokchi sifatida o'z fikrini bildirib, ularga shaxsiy qarashlari va e'tiqodiga muvofiq baho berganini ta'kidlagan. Uning ma'lumotlarini tanqidiy o'rganish shuni ko'rsatadiki, u feodal yuqori tabaqaning vakili sifatida hukmron doiralarga xayrixohlik bilan yondashgan va ba'zi voqealarni o'zining ijtimoiy kelib chiqishidan kelib chiqib baholagan. Shu sababli, ayrim faktlarning talqinini xolis deb hisoblash mumkin emas. Asar tarixiy va geografik ma'lumotlarga boy bo'lib, B. Ahmedov tomonidan asarning aniqlik

darajasi va ishonchliligini aniqlash maqsadida boshqa yozma manbalar bilan qiyosiy tahlil o'tkazilgan[4-168].

**Muhokama.** Ko'pchilik tarixiy voqealar tavsifi va geografik ma'lumotlarni taqqoslash natijalari shuni ko'rsatadiki, "Bahru-l-asror fi manoqibi-l-axyor" asari muallifining ma'lumotlari ishonchli ekan. Mahmud ibn Vali ilk tarixiy voqealarni bayon etishda o'zidan oldingi mualliflarning ma'lumotlaridan foydalangan bo'lib, ularning ko'plab asarlari nomlarini o'z asarida sanab o'tgan. Ammo shunday holatlar ham uchraydiki, u biron-bir manbadan foydalanganda, o'sha manbaning nomini keltirmaydi va muallifini ham aytmaydi. Mahmud ibn Valining asari, ayniqsa, o'tmishdagi voqealarni tasvirlashda ko'p jihatdan boshqa manbalardan foydalanilgan bo'lsa-da, ushbu qismlarida ham u ko'pincha yangi ma'lumotlarni keltiradi. Bu muhim tarixiy yodgorlikni yaratishda Mahmud ibn Vali ko'plab yozma manbalardan tashqari, voqealarning guvohlari va ishtirokchilarining hikoyalari, shuningdek, o'zining shaxsiy kuzatuvlari va taassurotlaridan foydalangan. Bu asarning qimmati va ilmiy ahamiyati shundaki, u bizgacha yetib kelmagan ko'plab tarixiy, geografik va tilshunoslik asarlaridan olingan muhim va g'oyat qimmatli iqtiboslarni o'z ichiga oladi. Movarounnahr va Xurosonga oid geografik materiallar nafaqat o'zining geografik qismida aniq va to'liq bo'lib ajralib turadi, balki qimmatli tarixiy-etnografik va iqtisodiy ma'lumotlarni ham ko'p miqdorda o'z ichiga oladi. Muallif ma'lumotlarining qimmati yana shundaki, u tasvirlangan mamlakatlar aholisi, ularning urf-odatlar va mashg'ulotlari haqida ma'lumot beradi, shuningdek, ular ishlab chiqaradigan mahsulotlarning nomlarini ham keltiradi.

**Xulosa.** Alohida ta'kidlash joizki, bu faktik materiallarni muallif o'zi Movarounnahr, Xuroson, Hindiston va boshqa hududlarning turli shaharlarida bo'lgan paytida to'plagan. U shaxsan kuzatish hamda boshqa mamlakatlardan Balxga kelgan savdogar va sayyohlarni so'rov qilish orqali ma'lumotlarni yig'gan. Ushbu ma'lumotlar muallif tasvirlagan shahar va aholi manzilgohlarining o'sha davrdagi holatini aks ettirgan. "Bahr ul-asror fi manoqib il-axyor" asari[1-167] muallifning o'zi haqida ham qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan. Mahmud ibn Valiy tarjimaiy holini tiklash manbashunoslik tadqiqotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Uning tarjimaiy holi tasvirlangan voqealarga yondashuvini va tarixiy hamda tarixiy-geografik materiallarni tanlash mezonlarini tushunish uchun kalit vazifasini o'taydi. "Bahr-ul-asror fi manoqib-il-axyor" asarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, unda Movarounnahr va Xurosonning XVI asr - XVII asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy va siyosiy hayoti haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Bundan tashqari, ushbu asarda o'sha davr shaharlarining holatini aniqlash va ularning madaniy hayot darajasi bilan tanishish imkonini beruvchi ko'plab muhim geografik va biografik ma'lumotlar keltirilgan.

## ADABIYOTLAR:

1. Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных; введ., пер. с перс., примеч. и указ. Б.Ахмедова. – Ташкент: Фан, 1977. – 167 с.
2. Бартольд В.В. Церемониал при дворе узбекских ханов в XVII веке. // Соч. -Т. 2, ч. 2. - М.: Наука, 1964. -С. 390-399;
3. О различных классах сейидов в Бухаре: Ханыков Н.А. Описание Бухарского ханства. СПб., 1843. –С. 182.
4. Ахмедов Б.А. История Балха (XVI - первая половина XVIII в.). Ташкент: Фан, 1962. – 294 с.
5. Абдурахман-и Тали'. История Абулфейз-хана / пер. с тадж., предисл., примеч. и указ. Проф. А.А. Семенова - Ташкент, 1959. –С.41.
6. Ҳофиз Таниш Бухорий. Абдулломо (Шарафномаи Шоҳий). – Ж. I / Ҳофиз таниш Ибн Мир Муҳаммад Бухорий; форс тилидан С.Мирзаев таржумаси; муҳаррир Б.Аҳмедов. – Тошкент: Фан, 1966. – 400 б.; Ахмедов Б.А. История Балха (XVI-первая половина XVIII в.). Ташкент: Фан, 1962. –С. 149.
7. Семенов А. А. Бухарский трактат о чинах и званиях и об обязанностях носителей их в средневековой Бухаре, — "Советское востоковедение", т.V,1948. - С. 144-145.
8. Абдураимов М. А. Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве в XVI - первой половине XIX века, т. 1, Ташкент, 1966.
9. Хондамир. Хабиб ус-сияр фи ахбар афрад-и башар. –Тегеран, 1333 г.х. –Т. III. –Ч. 4. –С. 343.
- 10.Наказ Борису и Семену Пазухиным, посланным в Бухару, Балх и Юргенчъ, 1669 г. / Изд. под ред. А. Н. Труворова // РИБ. - Т. 15. – СПб., 1894. – С. 49.

KORRUPSIYANING TARIXIY ILDIZLARI VA ZAMONAVIY KO'RINISHLARI

**Axmedova Dilnora Kobiljonovna,**  
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti,  
Navoiy innovatsiyalar universiteti  
"Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasi o'qituvchisi  
dilnoraaxmedova4@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada korrupsiyaning tarixiy shakllari va zamonaviy ko'rinishlari tahlil qilinadi. Qadimgi Misr, Vavilon, Rim va Xitoy imperiyalaridagi korrupsiya holatlari misolida bu illatning ildizlari tarixiy jarayonlar bilan uzviy bog'liq ekani ko'rsatib beriladi. Zamonaviy davrda esa korrupsiya siyosiy, ma'muriy, iqtisodiy va raqamli shakllarda namoyon bo'lmoqda. Maqolada korrupsiyaning jamiyatga salbiy ta'siri, huquqiy va ijtimoiy oqibatlarini hamda unga qarshi kurashishning samarali usullari yoritilgan. Tarixiy tajribalar orqali zamonaviy yechimlar izlangan.

**Kalit so'zlar:** korrupsiya, tarixiy ildizlar, siyosiy korrupsiya, poraxo'rlik, zamonaviy ko'rinishlar, davlat boshqaruvi, halollik, tarixiy misollar, raqamli korrupsiya, huquqiy islohotlar.

ИСТОРИЧЕСКИЕ КОРНИ И СОВРЕМЕННЫЕ ПРОЯВЛЕНИЯ КОРРУПЦИИ

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются исторические истоки и современные проявления коррупции. На примерах из истории Древнего Египта, Вавилона, Рима и Китая показано, что коррупция имеет глубокие корни в развитии человеческих обществ. В современную эпоху она принимает политические, административные, экономические и цифровые формы. В статье анализируется негативное влияние коррупции на государственное управление, социальную справедливость и экономическое развитие, а также рассматриваются эффективные способы борьбы с этим явлением. Исторический опыт используется для поиска решений в настоящем.

**Ключевые слова:** коррупция, исторические корни, политическая коррупция, взяточничество, современные формы, государственное управление, прозрачность, цифровая коррупция, правовые реформы.

HISTORICAL ROOTS AND MODERN APPEARANCES OF CORRUPTION

**Abstract.** This article analyzes the historical roots and modern manifestations of corruption. Using examples from ancient Egypt, Babylon, Rome, and China, it demonstrates that corruption is deeply rooted in the historical development of societies. In the modern era, corruption takes political, administrative, economic, and digital forms. The article discusses the negative impact of corruption on governance, social justice, and economic development, and explores effective strategies to combat it. By studying historical experiences, the article seeks insights for present-day anti-corruption efforts.

**Keywords:** corruption, historical roots, political corruption, bribery, modern forms, governance, transparency, digital corruption, legal reforms.

**Kirish.** Korrupsiya insoniyat jamiyatida uzoq tarixga ega bo'lgan murakkab ijtimoiy illatdir. U nafaqat siyosiy tizimlarga, balki iqtisodiy taraqqiyot, ijtimoiy adolat va axloqiy qadriyatlarga ham jiddiy putur yetkazadi. Bugungi kunda korrupsiya global muammoga aylangan bo'lsa-da, uning ildizlari qadimiy sivilizatsiyalar tarixida chuqur ildiz otgan. Ushbu maqolamizda korrupsiyaning tarixiy shakllari va zamonaviy ko'rinishlarini ko'rib chiqamiz.

**Mavzuga doir adabiyotlar tahlili.** Korrupsiya qadimgi davlatlar davridayoq mavjud bo'lgan. Tarixiy manbalarda qadimgi Misr, Vavilon, Xitoy va Rim imperiyalarida mansabdor shaxslarning poraxo'rlik, lavozim vakolatlaridan suiiste'mol qilish holatlari qayd etilgan. Qadimiy Misrda markazlashgan hokimiyat bo'lishiga qaramay, mahalliy amaldorlarning nazoratsizligi korrupsiya paydo bo'lishiga zamin yaratgan. Fir'avnlarning davrida soliq yig'uvchilar ko'pincha ortiqcha soliq undirish orqali o'z manfaati uchun foydalanishgan. Bu holatlar rasmiy hujjatlarda qayd etilgan. Qadimgi Vavilonda (Babil) Hammurabi qonunlarida (miloddan avvalgi XVIII asr) sudyalarning pora olishlari qat'iy man qilingan va poraxo'rlar og'ir jazoga tortilgan. Bu qonunlar shuni ko'rsatadiki, korrupsiya allaqachon ijtimoiy muammo sifatida tan olingan va unga qarshi qonuniy choralar ishlab chiqilgan. Qadimgi Gretsiyaning Afina shahrida davlat

lavozimlariga saylanish jarayonlarida ayrim nomzodlar ovozlarni “sotib olish”ga urinib, fuqarolarga pul taklif qilishgan. Bu holat korrupsiyaning ilk siyosiy shakllaridan biri sifatida ko‘riladi. Qadimgi Rim respublikasi davrida (mil. avv. II–I asrlar) “ambitus” deb atalgan jinoyat mavjud bo‘lib, bu lavozimlar uchun pora berish demak edi. Masalan, siyosiy arbob Yuliy Tsezar katta miqdorda qarzga kirib, imperatorlik lavozimiga yo‘l ochgan. Korrupsiya Rim imperiyasining inqiroziga olib kelgan omillardan biri sifatida tarixiy manbalarda tilga olinadi. O‘rta asr Yevropasi katolik cherkovi vakillari “indulgensiya” (gunohdan poklanish guvohnomasi) sotish orqali boyib ketishgan. Bu cherkovning obro‘sig a jiddiy putur yetkazgan. Martin Lyuter bu korrupsion amaliyotga qarshi chiqib, Reformatsiya harakatini boshlab bergan. Qadimgi Xitoyda (Imperatorlik davri) Min va Tang sulolalari davrida byurokratik amaldorlar soliq yig‘ishda va yer ajratishda poraxo‘rlik bilan shug‘ullangan. Hatto, ba‘zi imperatorlar poraxo‘rlikka qarshi qat‘iy qonunlar joriy qilishgan. Xitoyda tarixiy asarlarda korrupsiya “imperiya inqirozining ildizi” deb hisoblangan. Usmonli imperiyasi XVII–XVIII asrlarda davlat lavozimlarini sotish (mansab savdosi) keng tarqalgan. “Bakshish” (sovg‘a) nomi bilan pora berish odatiy hol bo‘lgan. Bu holat imperiyaning markaziy hokimiyati zaiflashishiga va mahalliy amaldorlar mustaqillashuviga olib kelgan. Feodal hukmdorlar va cherkov arboblari o‘rtasida pora va manfaatlar almashinuvi oddiy holga aylangan. Bu esa xalq orasida ishonchsizlik va befarqlikning kuchayishiga olib kelgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Korrupsiya deyarli barcha davrlarda va barcha hududlarda mavjud bo‘lgan. U ko‘pincha siyosiy inqiroz, adolatsizlik va islohotlar bilan chambarchas bog‘liq. Kuchli nazorat, qonuniylik, axloqiy qadriyatlar va fuqarolik nazorati korrupsiya darajasini pasaytiruvchi muhim omillardir.

Bugungi kunda korrupsiya ko‘proq tizimli va murakkab tus olgan. Texnologik taraqqiyot va globallashuv natijasida u faqat pul shaklidagi pora bilan cheklanmay, balki quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘lmoqda:

1. Ma‘muriy korrupsiya-davlat idoralarida xizmat ko‘rsatish evaziga noqonuniy ravishda haq talab qilish, hujjatlarni sun‘iy cho‘zish va mansabdorlarning o‘z vakolatlarini suiiste‘mol qilishi.
2. Siyosiy korrupsiya-Saylovlarni soxtalashtirish, lavozimlarni tanish-bilishchilik asosida taqsimlash, qonunchilikni o‘z manfaatlariga moslashtirish.
3. Iqtisodiy korrupsiya-Davlat xaridlarida tanish firmalarni yutkazish, byudjet mablag‘larini talon-taroj qilish, soliqdan bo‘yin tovlash.
4. Raqamli korrupsiya-Zamonaviy texnologiyalar orqali korrupsion sxemalarni yashirish, soxta hujjatlarni raqamli muhitda yaratish.

Yana ba‘zi manbalarda korrupsiyaning quyida eng ommalashgan (keng tarqalgan) ko‘rinishlari keltiriladi. Bu shakllar deyarli barcha mamlakatlarda uchraydi, biroq darajasi va tarqalish hududiga qarab turlicha bo‘ladi:

1. Poraxo‘rlik (pora olish va berish). Eng keng tarqalgan shakl. Davlat xizmatchisi, inspektor, politsiya yoki boshqa mansabdor shaxsga pora berish orqali muammo hal qilish. Misol uchun: haydovchilik guvohnomasini pora evaziga olish, tenderda yutish uchun pora berish holati.
2. Mansabni suiiste‘mol qilish. Rasmiy vakolatidan shaxsiy manfaat uchun foydalanish. Davlat mulkini o‘zlashtirish, qarindosh-urug‘larni lavozimga joylashtirish (nepotizm), o‘ziga alohida shartlar yaratish.
3. Qonunchilik va hujjat soxtalashtirish. Qonunni ataylab buzish yoki rasmiy hujjatlarni soxtalashtirish orqali foyda olish. Masalan, Soliq hisobotlarini yashirish, arxiv hujjatlaridagi sanalarni o‘zgartirish.
4. Akademik korrupsiya.Ta‘lim tizimida keng tarqalgan: bahoni sotib olish, diplomni pul evaziga olish, o‘qituvchiga pora berish. Misol uchun, talabaniq imtihonlardan “sotib o‘tishi”.
5. Sog‘liqni saqlash tizimidagi korrupsiya. Bemorlarni noqonuniy pul talab qilish orqali navbatsiz qabul qilish yoki muolaja qilish. Operatsiya qilish uchun shifokorga “norasmiy” to‘lov qilish.
6. Davlat xaridlari va tenderlardagi korrupsiya. Ochiq tanlovlar soxta o‘tkaziladi yoki ma‘lum kompaniyalarga oldindan sharoit yaratib beriladi. Qurilish, IT yoki transport sohalarida “uyg‘unlashgan” tenderlar.
7. Ruxsatnoma va litsenziya olishdagi firibgarlik. Ruxsatnoma, litsenziya, patent, yer ajratish kabi hujjatlarni olish uchun pora berishga majbur bo‘lish. Savdo do‘koni ochish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni olish jarayonida noqonuniy to‘lovlarni amalga oshirish.
8. Raqamli korrupsiya (zamonaviy shakl). Elektron tizimlar orqali pul o‘g‘irlash, sun‘iy intellektdan noto‘g‘ri foydalanish. Davlat bazalarini manipulyatsiya qilish, IT sohasidagi firibgarlik.Korrupsiyaning har bir shakli — jamiyat taraqqiyotiga to‘siq bo‘ladi. Eng ko‘p uchraydigan shakllar — bu pora olish, mansabni suiiste‘mol qilish va tenderlardagi firibgarliklar. Bu holatlar davlatga, jamiyatga va ishonch muhitiga katta zarar yetkazadi. Kurashish uchun esa har bir darajada — qonuniy, axloqiy, texnologik va fuqarolik yondashuvlari kerak.



**Olingan natijalar tahlili.** Bugungi kunda ko'plab davlatlar va xalqaro tashkilotlar korrupsiyaga qarshi qat'iy kurashni yo'lga qo'ygan: Xususan, Transparency International tashkiloti dunyo mamlakatlaridagi korrupsiya darajasini baholaydi. Ko'plab davlatlar raqamlashtirish orqali inson omilini kamaytirib, shaffoflikni oshirishga intilmoqda. Fuqarolik jamiyati, OAV va ijtimoiy tarmoqlar korrupsiya holatlarini fosh qilishda faol qatnashmoqda. Quyida dunyo davlatlari bo'yicha korrupsiya darajasiga oid eng so'nggi statistik ko'rsatkichlarni Transparency International tashkilotining 2024-yil uchun tuzilgan "Corruption Perceptions Index" (CPI) hisobotiga asoslanib keltirib o'tamiz:

Korrupsiya ko'rsatkichlari (2024 CPI) — Umumiy ma'lumot: CPI (Corruption Perceptions Index) reytingida davlatlar 0 dan 100 gacha baholanadi: 0 – juda korrupsiyalashgan, 100 – juda halol va ochiq davlat.

2024-yilgi CPI hisobotida 180 dan ortiq mamlakat qamrab olingan. Eng kam korrupsiyaga ega davlatlar (eng yuqori ball): Reyting Davlat CPI ball (2024)

- 1 Daniya 90
- 2 Finlyandiya 88
- 3 Yangi Zelandiya 87
- 4 Norvegiya 85
- 5 Singapur 84

Bu davlatlarda korrupsiyaga qarshi siyosiy iroda kuchli, ochiqlik va qonun ustuvorligi yuqori. Eng ko'p korrupsiyalashgan davlatlar (eng past ball): Reyting Davlat CPI ball (2024)

- 180 Somali 12
- 179 Janubiy Sudan 13
- 178 Suriya 13
- 177 Venesuela 14
- 176 Yaman 15

Bu davlatlarda urushlar, siyosiy beqarorlik, huquqiy tizimning ishlamasligi korrupsiya darajasini oshirgan. O'zbekistonning 2024-yilgi ko'rsatkichi: Davlat CPI ball Reyting (180 ta davlat orasida) O'zbekiston 33 126-o'rinda. O'zbekiston so'nggi yillarda CPI ballarini biroz yaxshilagan bo'lsa-da, hali ham korrupsiya darajasi yuqori bo'lgan davlatlar qatorida qolmoqda. Hududiy ko'rsatkichlar (o'rtacha ballar):

- Mintaqa O'rtacha CPI ball
- G'arbiy Yevropa 66
  - Sharqiy Yevropa & Markaziy Osiyo 35
  - Osiyo Tinch okeani 45
  - Afrika 33
  - Lotin Amerikasi 43
  - Yaqin Sharq 38

Tahliliy jihatdan yuqori ballga ega davlatlarda, mustaqil sud tizimi mavjud, davlat xaridlari shaffof, ombudsman va antikorrupsiya agentliklari faol. Past ballga ega davlatlarda, avtoritar boshqaruv, erkin matbuot yo'q, sud tizimi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar korrupsiyalashgan

**Muhokama.** Fikrimiz yakunida ushbu sohada bir qancha takliflar keltirib o'tamiz.

1. Korrupsiyaga qarshi ta'limiy tizimni kuchaytirish

-maktabgacha, maktab va oliy ta'lim bosqichlarida korrupsiyaga nisbatan muvofiqlik madaniyatini shakllantirish. Ha, aynan qonuniy yo'ldan ham ko'ra ma'naviy olam bilan yondashish va oldini olishga erishish.

-korrupsiya bo'yicha maxsus fanlar, treninglar, interaktiv mashg'ulotlar tashkil etish.

2. Davlat boshqaruvida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash

-tenderlar, davlat xaridlari va moliyaviy hisobotlar bo'yicha ochiq ma'lumotlar bazasini yuritish.

-amaldorlarning daromad va mol-mulk deklaratsiyalarini ommaga taqdim etish.

3. Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish

-davlat xizmatlarini elektron shaklga o'tkazish, inson omilini kamaytirish orqali korrupsiyaviy xavflarni kamaytirish.

-sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalaridan foydalangan holda nazorat mexanizmlarini kuchaytirish.

4. Fuqarolik jamiyati va OAV rolini kuchaytirish

-jurnalistlar, bloggerlar va jamoatchilik faollarining korrupsiyaga qarshi kurashdagi ishtirokini qo'llab-quvvatlash.

-“Halollik elchilari” harakatlarini rivojlantirish.

5. Korrupsion jinoyatlar uchun javobgarlikni kuchaytirish

-jazo muqarrarligi va adolatli jazolash tizimini ta'minlash.

-sud-huquq tizimida mustaqillik va shaffoflikni oshirish.

6. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish

-korruptsiya bilan bog'liq jinoyatlarni aniqlash va tergov qilishda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish.

-chet el tajribasidan faol foydalanish.

**Xulosa.** Korruptsiya — insoniyat tarixida eng qadimiy va murakkab ijtimoiy illatlardan biri bo'lib, u turli davr va jamiyatlarda turlicha ko'rinishda namoyon bo'lgan. Qadimgi davlatlardagi amaldorlarning suiiste'mollari, o'rta asrlardagi diniy va siyosiy tizimlardagi korruption holatlar, zamonaviy jamiyatlarda esa raqamli texnologiyalar orqali amalga oshirilayotgan korruptsiya — bularning barchasi mazkur illatning tarixiy ildizlari chuqur va murakkab ekanligini ko'rsatadi. Korruptsiya — tarixiy ildizlarga ega bo'lgan, lekin zamonaviy dunyoda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan jiddiy muammodir. Unga qarshi kurashda faqat qonunchilik va jazolar emas, balki aholi ongini yuksaltirish, halollik madaniyatini shakllantirish va raqamlashtirish kabi kompleks yondashuvlar zarur. Tarixiy saboqlar bizga shuni o'rgatadiki, korruptsiyaga qarshi kurash — jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismidir.

Bugungi globallashtirish va raqamlashtirish davrida korruptsiya nafaqat iqtisodiy taraqqiyotga, balki jamiyatda ishonch muhitining yemirilishiga, adolatsizlik va tengsizlikning kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun korruptsiyaga qarshi kurash faqatgina huquqiy choralarga emas, balki har tomonlama yondashuvga asoslangan bo'lishi lozim. Bu borada O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar — qonunchilikni takomillashtirish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish — ijobiy natijalar bermoqda.

### ADABIYOTLAR:

1. Карл Фридрих. *Коррупция: концепции и практики*. Москва, 2020.
2. Transparency International. *Corruption Perceptions Index Reports, 2015–2024*.
3. Жаҳон банки. *Коррупцияга қарши кураш бўйича тадқиқотлар ва тавсиялар, 2019*.
4. Конституция ва Ўзбекистон Республикасининг “Коррупцияга қарши курашни тўғрисида”ги Қонуни, 2017.
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти қарорлари ва фармонлари тўплами, 2020–2024.
6. Салаев, Ш. *Коррупция ва унинг ҳуқуқий олдини олиш механизмлари*. Тошкент, 2021.
7. OECD. *Fighting Corruption: What Works? Paris, 2022*.
8. Ўзбекистонда “Ёшлар – коррупцияга қарши” дастури доирасида амалга оширилаётган ишлар, 2023.

**O'ZBEKISTON HAMDA XALQARO TAJRIBALAR MISOLIDA YOSHLARGA OID  
DAVLAT SIYOSATI MEKANIZMLARINING HUQUQIY, BOSHQARUV VA AMALIY  
ASOSLARI****Arslonov Zafar Doniyorovich,**

*O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi  
Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli  
kadrlarni tayyorlash instituti tayanch doktoranti  
zafararslonov@gmail.com*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy, boshqaruv va amaliy asoslari tizimli tahlil qilingan. "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun, Prezident farmonlari va hukumat qarorlariga tayangan holda, Yoshlar ishlari agentligi, Yoshlar ittifoqi va boshqa tegishli tuzilmalar faoliyati o'rganilgan. Shuningdek, "Yoshlar daftari", "Yoshlar – kelajagimiz" dasturi, volontyorlik harakati va yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash kabi amaliy tashabbuslarning ahamiyati yoritilgan. AQSh, Germaniya va Janubiy Koreya tajribalari asosida xalqaro taqqoslama tahlil o'tkazilib, O'zbekistonda yoshlarga oid siyosatni yanada takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqola yoshlar bilan ishlashda samarali boshqaruv va qonunchilik mexanizmlarini shakllantirishga bag'ishlangan.

**Kalit so'zlar:** yoshlar siyosati, huquqiy asos, boshqaruv tizimi, Yoshlar ishlari agentligi, Yoshlar ittifoqi, yoshlar daftari, xalqaro tajriba, AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya, volontyorlik, yoshlarga oid dasturlar, davlat siyosati, O'zbekiston.

**ПРАВОВЫЕ, УПРАВЛЕНЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕХАНИЗМОВ  
ГОСУДАРСТВЕННОЙ МОЛОДЁЖНОЙ ПОЛИТИКИ: НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКИСТАНА И  
МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА**

**Аннотация.** В данной статье проводится системный анализ правовых, управленческих и практических основ государственной молодёжной политики в Республике Узбекистан. На основе Закона «О государственной молодёжной политике», указов Президента и постановлений правительства исследована деятельность Агентства по делам молодёжи, Союза молодёжи и других соответствующих структур. Также освещается значимость таких практических инициатив, как «Молодёжная тетрадь», программа «Молодёжь - наше будущее», волонтёрское движение и поддержка молодёжного предпринимательства. На базе опыта США, Германии и Южной Кореи проведён международный сравнительный анализ, и разработаны рекомендации по дальнейшему совершенствованию молодёжной политики в Узбекистане. Статья посвящена формированию эффективных механизмов управления и законодательства в работе с молодёжью.

**Ключевые слова:** молодёжная политика, правовая основа, система управления, Агентство по делам молодёжи, Союз молодёжи, молодёжная тетрадь, международный опыт, США, Германия, Южная Корея, волонтёрство, молодёжные программы, государственная политика, Узбекистан.

**LEGAL, ADMINISTRATIVE, AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF YOUTH STATE  
POLICY MECHANISMS: THE CASE OF UZBEKISTAN AND INTERNATIONAL EXPERIENCES**

**Abstract.** This article provides a systematic analysis of the legal, administrative, and practical foundations of state youth policy in the Republic of Uzbekistan. Based on the Law «On State Youth Policy», Presidential decrees, and government resolutions, the activities of the Youth Affairs Agency, the Youth Union, and other relevant structures have been examined. The significance of practical initiatives such as the «Youth Notebook», the «Youth - Our Future» program, the volunteer movement, and support for youth entrepreneurship is also highlighted. Drawing on the experiences of the USA, Germany, and South Korea, an international comparative analysis has been conducted, and recommendations for further enhancement of youth policy in Uzbekistan have been developed. The article focuses on the formation of effective management and legislative mechanisms for engaging with youth.

**Keywords:** youth policy, legal framework, management system, Youth Affairs Agency, Youth Union, Youth Notebook, international experience, USA, Germany, South Korea, volunteering, youth programs, state policy, Uzbekistan.

**Kirish.** Bugungi davrda yoshlarga oid davlat siyosati har bir mamlakat taraqqiyotida strategik ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston misolida, aholining yarmidan ko'prog'ini tashkil etuvchi yosh avlodni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi [1]. Yoshlarga qaratilgan siyosat orqali mamlakatning demografik barqarorligi, ijtimoiy-iqtisodiy o'sishi va kelajakdagi raqobatbardoshligi belgilanadi. Ushbu maqolada O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslari, boshqaruv tizimi va amaliy dasturlari ilmiy-analitik tarzda tahlil qilinadi. Shuningdek, AQSh tajribasi bilan solishtirma tahlil o'tkazilib, Germaniya va Janubiy Koreya kabi ilg'or davlatlar tajribasidan iqtiboslar keltiriladi. Tahlil asosida mavjud muammolar, istiqboldagi vazifalar va O'zbekiston uchun tavsiyalar bayon etiladi.

O'zbekistonda yoshlarga oid siyosatning huquqiy asoslari. O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati mustahkam huquqiy bazaga ega bo'lib, uning asosi 2016-yil 14-sentabrda qabul qilingan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunga tayangan. Ushbu Qonun yoshlarga oid siyosat sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi va unda asosiy tushunchalar hamda tamoyillar belgilab berilgan. Mazkur qonunga muvofiq, "yoshlar" deganda 14 yoshga to'lgan va 30 yoshdan oshmagan shaxslar tushuniladi. Qonunda yoshlarga oid davlat siyosati yoshlarni ijtimoiy shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi deya ta'riflangan [2].

**Mavzuga doir adabiyotlar tahlili.** Yoshlar masalalarini tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlar ham mazkur siyosatning huquqiy asosini boyitadi. Xususan, 2017-yil iyul oyida davlat rahbari tashabbusi bilan sobiq "Kamolot" harakati negizida O'zbekiston Yoshlar ittifoqi tuzildi [3]. Shu munosabat bilan 2017-yil 5-iyulda Prezidentning PF-5106-son Farmoni qabul qilinib, Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi. Keyinchalik, yoshlar sohasidagi institutsional islohotlar doirasida 2020-yil 30-iyunda Prezident Farmoni bilan Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi. Mazkur Agentlik davlat boshqaruvi tizimidagi maxsus vakolatli organ sifatida belgilandi va yoshlar siyosati bo'yicha barcha normativ hujjatlar loyihalarini majburiy tartibda u bilan kelishish tartibi joriy qilindi. Agentlik huzurida Yoshlar media xoldingi, Yoshlar simfonik orkestri va Yoshlar muammolarini o'rganish instituti kabi tuzilmalar tashkil etilib, yoshlar siyosatini amalga oshirishda ilmiy-tahliliy va axborot-ma'rifiy asos yaratilgan [4, 5].

Umuman, O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati puxta huquqiy poydevorga ega bo'lib, Konstitutsiya va maxsus qonun normalaridan tortib Prezident farmonlari va hukumat qarorlarigacha bo'lgan hujjatlar majmuasi yosh avlodning huquq va manfaatlarini himoyalash, ularni qo'llab-quvvatlash masalalarini qamrab oladi. Bu huquqiy asos yoshlarga oid barcha dastur va tashabbuslarning izchil amalga oshirilishiga zamin yaratmoqda.

Yoshlar siyosatini amalga oshirishning boshqaruv tizimi. O'zbekistonda yoshlar siyosatini hayotga tatbiq etish uchun ko'p bosqichli boshqaruv tizimi shakllantirilgan. Bu tizim markaziy darajada maxsus davlat organlarini, joylarda esa mahalliy hokimiyat va jamoat tuzilmalarini o'z ichiga oladi.

Markaziy boshqaruv darajasi – O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi va unga bog'liq tuzilmalarni o'z ichiga oladi. Yoshlar ishlari agentligi Prezident Farmoniga binoan Vazirlar Mahkamasining tarkibiy bo'linmasi sifatida faoliyat olib boradi va yoshlar siyosati bo'yicha davlat nazorati hamda muvofiqlashtirish vakolatiga ega. Agentlik huzurida yuqorida qayd etilganidek, Yoshlar muammolarini o'rganish instituti faoliyat yuritib, siyosatning ilmiy asoslanishi va monitoringiga xizmat qiladi. Markaziy darajada, shuningdek, turli vazirlik va idoralar (Ta'lim, Bandlik, Sport, Madaniyat, Mudofaa, Ichki ishlar vazirliklari va h.k.) o'z vakolatlari doirasida yoshlar bilan bog'liq dastur va tadbirlarni amalga oshiradi. Masalan, Ichki ishlar organlari yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik profilaktikasi bilan shug'ullansa, Bandlik va mehnat organlari yoshlarning bandligini ta'minlashga ko'maklashadi. Shu tariqa, markaziy idoralar o'rtasida vazifalar taqsimoti mavjud bo'lib, Agentlik ushbu faoliyatni umumiy muvofiqlashtiradi [6].

Mahalliy boshqaruv darajasi – yoshlar siyosatini bevosita amalga oshiruvchi quyi bo'g'indir. Har bir viloyat va tuman (shahar) hokimligi tuzilmasida yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha hokim o'rinbosarlari lavozimi joriy etilgan. Ushbu mas'ullar hududiy darajada yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish, mahalliy dasturlarni muvofiqlashtirish va yoshlar muammolarini hal etishga mas'uldir. Joylardagi hokimliklar qoshida Yoshlar bilan ishlash bo'limlari faoliyat yuritib, ular Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo'linmalari bilan hamkorlikda ish olib boradi. Mahalliy darajada shuningdek, sektorlar kesimida ham idoralararo hamkorlik mavjud – masalan, tuman bandlikka



ko'maklashish markazi, tuman ta'lim bo'limi, sport bo'limi kabi tuzilmalar yoshlar bandligi, ta'limi va bo'sh vaqtini tashkil etishda birgalikda ishlaydi.

Xulosa qilish mumkinki, O'zbekistonda yoshlar siyosatini boshqarish tizimi markazdan mahallagacha bo'lgan bir-biriga bog'liq bo'g'inlardan tashkil topgan. Bunda davlat organlari va yoshlar ittifoqi hamda nodavlat sektor o'zaro hamkorlikda ishlaydi. Mazkur tizimni takomillashtirish jarayonida AQSh va Germaniya kabi mamlakatlar tajribasi o'rganilmoqda – masalan, AQShda mavjud bo'lgan federal-shtat-mahalliy boshqaruv modeli hamda Germaniyadagi subsidiarlik tamoyillarini qo'llash orqali yoshlar siyosatini mahalliy sharoitlarga moslashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Amaliy dasturlar va tashabbuslar. O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati doirasida ko'plab amaliy dasturlar va tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Ular orqali yoshlarning turli ehtiyojlarini qondirish, muammolarini hal etish va imkoniyatlarini kengaytirish maqsad qilingan. Quyida eng muhim amaliy mexanizmlarning tahlili keltiriladi:

**1. “Yoshlar daftari” va manzilli qo'llab-quvvatlash:** 2017-yildan joriy etilgan “Yoshlar daftari” tizimi ehtiyojmand va yordamga muhtoj yoshlarni manzilli qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Ushbu tizim doirasida mahallalarda ishsiz, ta'lim olayotmagan yoki ijtimoiy muammolari bor yoshlar maxsus ro'yxatlarga kiritilib, ular bilan individual ishlash yo'lga qo'yildi. Yoshlar daftari orqali yoshlarning bandligi, ta'lim olishi, salomatligi kabi yo'nalishlarda muammolarini hal etishga davlat ko'magi safarbar qilindi. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, Yoshlar daftari dasturi tufayli **yoshlar ishsizligi 50% ga qisqarib**, 155 ming yoshga 345 milliard so'mdan ortiq moliyaviy yordam ko'rsatildi. Dastur natijasida yosh tadbirkorlar soni uch baravar oshib, bugungi kunda biznes subyektlarining 40% yoshlar tashkil etmoqda [7]. Yoshlar daftari orqali ko'plab talabalar va yoshlarga bir martalik moddiy ko'maklar, kontrakt to'lovlarini qoplash, kasb-hunarga o'qitish, hatto uy-joy va sog'liq bo'yicha yordamlar ko'rsatildi. Ushbu tashabbus xalqaro miqyosda e'tirof etilib, O'zbekiston BMTning “Youth-2030” strategiyasini eng faol amalga oshirayotgan 10 ta davlat qatoriga kirdi.

**2. “Yoshlar – kelajagimiz” dasturi va yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash:** 2018-yilda Prezident farmoniga muvofiq qabul qilingan “Yoshlar – kelajagimiz” davlat dasturi va uning doirasida tashkil etilgan jamg'arma yoshlar biznes tashabbuslarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga xizmat qildi. Ushbu jamg'arma orqali yosh tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar ajratish, startap loyihalarni grantlar bilan qo'llab-quvvatlash mexanizmi ishga tushirildi. Natijada qisqa muddatda ko'plab yoshlar o'z biznesini yo'lga qo'yishga muvaffaq bo'ldi. Xususan, 2018-2021-yillar davomida minglab loyihalarga milliardlab so'mlik imtiyozli kreditlar berildi, yoshlar tadbirkorligiga oid maxsus kurslar va inkubatsiya dasturlari yo'lga qo'yildi. 2021-yilda esa Yoshlar ishlari agentligi huzurida **Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish jamg'armasi** tashkil qilindi. 2025-yilga borib ushbu jamg'arma orqali **\$100 million ajratib**, har bir istiqbolli loyiha uchun 2,5 milliard so'mgacha imtiyozli kreditlar berish belgilandi [8]. Shu tariqa, davlat yoshlarni ishbilarmonlikka keng jalb etish va bandlikni oshirishni maqsad qilgan.

**3. Yoshlar markazlari va infratuzilma:** Yurtimizda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishi, ijtimoiy faolligi va iste'dodini rivojlantirish uchun maxsus **Yoshlar markazlari** tarmog'i shakllantirildi. Har bir viloyat markazida va ko'plab tumanlarda zamonaviy **Yoshlar markazi** binolari qurilmoqda. Masalan, yaqinda Toshkent shahri Olmazor tumanida yangi yoshlar markazi foydalanishga topshirildi. Ikki qavatli bu markazda kutubxona, internetga ulangan axborot-resurs markazi, kovorking maydonlari, ma'ruza zallari va ochiq havoda kinoteatr maydonchalari mavjud bo'lib, yoshlar bu yerda ta'lim olishi, ijodiy mashg'ulotlar bilan shug'ullanishi va o'zaro muloqot qilishi uchun barcha sharoit yaratilgan [9]. Bunday markazlar butun mamlakat bo'ylab bosqichma-bosqich ochilmoqda. Bundan tashqari, mahallalarda **yoshlar sport klublari**, kutubxonalar, IT markazlar va boshqa infratuzilma obyektlari ko'paytirilmoqda. Ushbu maskanlar yoshlarning turli qiziqishlarini ro'yobga chiqarish va ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

**4. Imtiyozli kreditlar va moliyaviy dastak:** Yoshlarning ta'lim olishi, uy-joy sotib olishi yoki biznes boshlashi uchun bir qator **imtiyozli kredit va subsidiyalar** yo'lga qo'yilgan. Xususan, oliy ta'lim muassasalarida kontrakt asosida tahsil olayotgan talabalarga davlat tomonidan past foizli ta'lim kreditlari berilmoqda. Talabalar turar joylari qurilishi uchun imtiyozli ipoteka kreditlari joriy qilingan. Yosh oilalarga ipoteka kreditlari bo'yicha boshlang'ich badal yoki foiz stavkalarini qoplash uchun subsidiya ajratiladi. Shuningdek, “Yoshlar – kelajagimiz” jamg'armasi va tijorat banklari orqali biznes boshlayotgan yoshlarga yillik 7-8% li past stavkali kreditlar taklif etilmoqda. Finlit.uz ma'lumotiga ko'ra, yosh tadbirkorlarga lizing xizmatlari ham yengillashtirilgan tartibda (yillik 14% stavkada) taqdim etilmoqda [10]. Bu kabi moliyaviy qo'llab-quvvatlash vositalari tufayli minglab yoshlar o'z mustaqil hayotini boshlashi, tadbirkorlik bilan shug'ullanishi osonlashdi.

**5. Grantlar va stipendiyalar:** Yoshlar uchun ilm-fan, ta'lim va ijtimoiy sohalarda turli **grant dasturlari** amal qiladi. Masalan, iqtidorli talabalar va olimlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida “El-Yurt

Umidi” jamg’armasi orqali xorijda o’qish va stajirovka grantlari ajratilmoqda. Ushbu jamg’arma yordamida so’nggi 7 yilda 2300 nafar yoshlar dunyoning nufuzli oliygohlarida tahsil olish imkoniyatiga ega bo’ldi [8]. Shu bilan birga, mamlakat ichida ham Prezident, Nomli Davlat stipendiyalari, vazirlik va tashkilotlar stipendiyalari orqali yosh iste’dodlar rag’batlantirilmoqda. Ijtimoiy sohada esa BMT, YXHT kabi xalqaro tashkilotlar grantlari jalb qilinib, yoshlarning startap loyihalari va jamiyat uchun foydali tashabbuslari moliyalashtirilmoqda.

**6. Volontyorlik va fuqarolik faolligi tashabbuslari:** So’nggi yillarda O’zbekistonda **volontyorlik harakatini** rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. 2019-yilda “Volontyorlik faoliyati to’g’risida”gi qonunning qabul qilinishi bu sohada muhim qadam bo’ldi. Yoshlar ishlari agentligi volontyorlikni rivojlantirish bo’yicha maxsus vakolatli organ etib belgilandi. Natijada, mamlakat bo’ylab “Yosh volontyorlar” harakati shakllanmoqda – ular pandemiya davrida, tabiiy ofatlar paytida va boshqa ijtimoiy loyihalarda faol qatnashdilar. Masalan, 2020-yilda pandemiya vaqtida minglab yosh volontyorlar bemor va ehtiyojmand oilalarga yordam ko’rsatish ishlariga jalb qilindi. Shuningdek, har yili 5 dekabr – Xalqaro volontyorlar kuni arafasida volontyorlik forumlari o’tkazilib, eng faol volontyorlar taqdirlanmoqda. Volontyorlikni rag’batlantirish uchun maxsus sertifikatlash tizimi joriy etilib, ko’ngilli faoliyat soatlari yoshlarni ishga qabul qilishda yoki o’qishga kirishda inobatga olinmoqda. Bu tashabbuslar yoshlar orasida ijtimoiy hamjihatlikni kuchaytirib, ularning jamiyatga foydali ishlar bilan band bo’lishiga xizmat qiladi.

Yuqoridagi amaliy dasturlar O’zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati qanchalik kompleks va keng ko’lamli ekanini ko’rsatadi. Ta’lim, bandlik, tadbirkorlik, ijtimoiy himoya, madaniyat va boshqa sohalarini qamrab olgan bu tashabbuslar orqali yoshlarning hayot sifatini oshirish, ularning salohiyatini yuzaga chiqarish maqsadi ko’zlangan. Kelgusi yillarda ushbu dasturlar samaradorligini oshirish uchun moliyaviy manbalarni ko’paytirish, monitoring tizimini kuchaytirish va hamkorlikni kengaytirish zarur bo’ladi.

AQSh tajribasi bilan solishtirma tahlil. Yoshlar siyosatini amalga oshirish bo’yicha AQSh tajribasi dunyodagi eng rivojlangan va samarali modellaridan biri hisoblanadi. AQShda yoshlar siyosati boshqaruvi uch pog’onaligi tizimga ega: federal, shtat va mahalliy darajalar. Har bir daraja o’zining aniq vakolat va mexanizmlariga ega bo’lib, ular o’zaro uyg’unlashgan holda ishlaydi. Bu bo’limda AQSh tajribasi qisqacha tahlil qilinib, O’zbekiston bilan solishtirma nuqtai nazardan qaraladi.

Federal daraja (markaziy): AQShning federal hukumatida yoshlar masalalari bo’yicha yagona vazirlik mavjud emas, biroq vazifalar turli federal idoralar o’rtasida taqsimlangan. Xususan, Mehnat vazirligi, Ta’lim vazirligi, Sog’liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar vazirligi kabi asosiy departamentlar yoshlar siyosatining turli jihatlari uchun mas’uldir [11]. Masalan, Mehnat departamenti orqali 16-24 yoshdagi yoshlar uchun Job Corps, YouthBuild kabi bandlik va kasbga o’rgatish dasturlari amalga oshiriladi, shtatlardagi mehnat markazlariga grantlar ajratiladi. Ta’lim departamenti esa kam ta’minlangan talabalarga Pell grantlari, GEAR UP, TRIO dasturlari orqali moliyaviy yordam berib, ularning oliy ta’limga kirishini va muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Sog’liqni saqlash departamenti (HHS) tarkibidagi SAMHSA agentligi orqali yoshlarning ruhiy salomatligini mustahkamlash, giyohvandlikka qarshi kurash dasturlari moliyalashtiriladi. Federal darajada, shuningdek, butun mamlakatga daxldor yoshlar jinoyatchiligi profilaktikasi, erta homiladorlikning oldini olish kabi muammolar bo’yicha milliy tashabbuslar olib boriladi.

Federal hukumatning muhim xususiyati – idoralararo muvofiqlashtirish tizimi yo’lga qo’yilgani. Masalan, AQShda 20 dan ortiq federal idora vakillarini birlashtirgan Yoshlar dasturlari bo’yicha idoralararo ishchi guruh (Interagency Working Group on Youth Programs) tuzilgan bo’lib, u youth.gov internet-portalini yuritadi. Ushbu portal orqali barcha yoshlar dasturlari haqidagi ma’lumotlar, resurslar yagona platformada taqdim etiladi va turli idoralar hamkorligi ta’minlanadi. Federal darajada shakllantirilgan strategik yondashuv va moliyaviy ko’mak tizimi mamlakat bo’yicha yagona standartlarni belgilaydi. Biroq, AQSh Konstitutsiyasiga muvofiq ko’plab ijtimoiy masalalar shtatlar vakolatiga kirgani uchun, yoshlar siyosatining amaliy ijrosi shtatlar zimmasiga tushadi.

Shtat darajasi: AQShning har bir shtati o’z ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlaridan kelib chiqib yoshlar siyosatini mustaqil olib boradi. Federal hukumat umumiy fondlar va qonuniy ramkalar bersa-da, shtatlar ularni o’ziga xos tarzda tatbiq etadi. Masalan, federal Workforce Innovation and Opportunity Act (WIOA) qonuni asosida har bir shtat yoshlar bandligi bo’yicha o’z dasturlarini ishlab chiqadi – kimdir kasb-hunar markazlariga urg’u bersa, boshqasi stajirovka va mentorlikka e’tibor qaratadi. Shu sabab, AQShda bir xil qonun asosida ham Kaliforniya kabi iqtisodiy qudratli shtatda raqamli platformalar, STEM markazlari, ekologik loyihalar ko’proq rivojlangan bo’lsa, Mississippi kabi qishloq hududlari ko’p shtatda ijtimoiy yordam, sog’liqni saqlash va jinoyatchilikning oldini olish ustuvor yo’nalish bo’ladi. Kaliforniya shtatida masalan, Youth Empowerment Commission kabi maxsus komissiyalar tuzilib, innovatsion yondashuvlar joriy etilayotgan bo’lsa, Mississippi shtati asosan federal grantlarni bandlik xizmatlari va psixologik yordamga yo’naltirmoqda.

**Olingan natijalar tahlili.** Har bir shtat gubernatori ma'muriyati tarkibida yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchilar yoki kengashlar mavjud bo'lib, ular shtat miqyosida siyosatni muvofiqlashtiradi. Ko'plab shtatlarda Yoshlar maslahatchi kengashlari, Yoshlar ishchi guruhlari tuzilgan – ular yoshlarning davlat qarorlarini qabul qilishdagi ishtirokini ta'minlaydi. Shtatlarning tegishli vazirlik va departamentlari (Ta'lim, Inson xizmatlari, Bandlik va boshqalar) federal grantlarni taqsimlash, shtat byudjetidan mablag' ajratish orqali yoshlar dasturlarini moliyalaydi. Masalan, ko'p shtatlar o'z byudjetidan maxsus “Gubernatorning yoshlar innovatsiyasi granti” kabi mablag'lar ajratib, yangi loyihalarni rag'batlantiradi. Shu bilan birga, shtatlar yil sayin o'z hududida yoshlar siyosati samaradorligini baholash indikatorlari orqali kuzatib boradi – bandlik darajasi, jinoyatchilik ko'rsatkichi, maktabni tark etganlar soni kabi statistikalar tahlil qilinadi. Bu natijalar asosida dasturlar takomillashtirilib boriladi.

Mahalliy (munitsipal) daraja: AQShda yoshlar siyosatining eng quyi va ahamiyatli pog'onasi – bu shahar va tuman hokimiyatlari (munitsipalitetlar) hisoblanadi. Aynan mahalliy hukumatlar yoshlar bilan kunlik bevosita ishlaydi: ular ijtimoiy xizmatlar ko'rsatadi, sport-madaniyat inshootlarini boshqaradi, xavf ostidagi yoshlarni aniqlab ularga yordam beradi. Ko'plab shaharlarda yoshlar markazlari, jamoat kutubxonalari, maktabdan tashqari ta'lim markazlari, sport klublari mavjud bo'lib, ular orqali to'garaklar, kurslar, maslahatlar tashkil etiladi. Misol uchun, Nyu-York shahrida “Beacon” jamoa markazlari dasturi mavjud bo'lib, har bir mahallada maktab binosi negizida kechki payt va ta'til kunlari yoshlar va ota-onalar uchun xizmat ko'rsatuvchi markazlar faoliyat yuritadi. Bu markazlar mahalliy byudjet, shtat hamda federal grantlar hisobidan moliyalashtirilib, notijorat sektor va xususiy homiylar ham jalb qilingan. Los-Anjeles shahrida esa “Gang Reduction and Youth Development (GRYD)” dasturi orqali jinoyatchilikka moyil yoshlar bilan alohida ishlanadi – ularga psixologik maslahat, sport orqali ijtimoiylashuv va ishga yo'naltirish choralari ko'riladi. Bu kabi mahalliy loyihalar politsiya, maktab ma'muriyati va NNTlar hamkorligida integratsiyalashgan holda amalga oshiriladi.

Mahalliy darajada moliyalashtirish manbalari ham xilma-xil: shahar byudjeti, shtat va federal grantlar, xususiy sektor hamkorligi (masalan, ayrim yirik kompaniyalar CSR dasturi orqali yoshlar markazlarini qo'llab-quvvatlaydi). Shuningdek, shaharlarda Yoshlar kengashlari tuzilib, ular hokimiyatga maslahat beradi, yoshlarning ovozini yetkazadi. Ko'plab joylarda yoshlar vakillari shahar kengashlari yig'ilishlarida qatnashib, o'z jamoalariga oid muammolarni ko'tarish huquqiga ega. Shu tariqa, mahalliy daraja AQShda yoshlar siyosatining eng interaktiv va ta'sirchan darajasi bo'lib, u muammolarni o'z joyida tezkor hal qilish va yoshlarning ishonchini qozonishda muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston va AQSh taqqoslaganda, boshqaruv tizimidagi asosiy farq shuki, AQShda tizim desentralizatsiyalashgan, ya'ni shtat va mahalliy organlar vakolati keng. O'zbekistonda esa so'nggi yillarda mahalliy hokimiyatlarga ayrim vakolatlar berilayotgan bo'lsa-da, umuman siyosatning ishlab chiqilishi va asosiy dasturlar markaziy tashabbus bilan amalga oshirilmoqda. AQSh tajribasi O'zbekiston uchun nimani ko'rsatadi? Avvalo, ko'p darajali boshqaruv modeli har bir hudud xususiyatini inobatga olgan holda siyosat yuritish imkonini beradi. O'zbekistonda ham viloyat, tuman kesimida yoshlar muammolari farq qiladi (masalan, yirik shaharlarda yoshlarning bandligi va uy-joy masalasi dolzarb bo'lsa, olis qishloqlarda ta'lim sifati va migratsiya muammosi ko'proq). Shu bois, hududiy differensiasiyani kuchaytirish, ya'ni mahalliy hokimiyatlarga yoshlar dasturlarini moslashtirish vakolatini kengaytirish foydadan xoli bo'lmaydi.

Umuman olganda, AQSh tajribasi O'zbekistonga yoshlar siyosatini markazlashgan boshqaruvdan bosqichma-bosqich pastga yaqinlashtirish, ya'ni “mahalla – tuman – viloyat – respublika” zanjirida pastki tashabbuslarni yuqori darajada qo'llab-quvvatlash modeliga o'tish muhimligini ko'rsatadi. Bu esa siyosatning joylardagi samaradorligini oshirish, har bir yoshga individual yondashuvni kuchaytirish imkonini beradi. Shuningdek, AQShning yoshlar bandligi, ruhiy salomatligi, jinoyatchilikning oldini olish borasidagi maxsus dasturlari (Job Corps, SAMHSA, JJDP Act va h.k.) O'zbekiston uchun ham dolzarb tajriba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Ilg'or xorijiy tajribalardan iqtiboslar (Germaniya va Janubiy Koreya). Dunyoning boshqa rivojlangan davlatlarida ham yoshlar siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga doir qiziqarli tajribalar to'plangan. Jumladan, Germaniya va Janubiy Koreya misolida ayrim yondashuvlarni qayd etish maqsadga muvofiq. Quyida ushbu davlatlar tajribasidan qisqa iqtibos va ularni O'zbekiston sharoitiga tatbiq etish nuqtai nazaridan izohlar keltiriladi.

Germaniya tajribasi: Germaniyada yoshlar siyosati federal tuzilishga mos holda amalga oshiriladi. Federal hukumat darajasida Bolalar va yoshlar masalalari bo'yicha vazirlik (BMFSFJ) mavjud bo'lib, u umumiy milliy strategiyani belgilaydi. Biroq, asosiy ishlar yer (Land) darajasida hal etiladi – har bir federal yerning o'z Yoshlar vazirligi yoki bo'limi va Yoshlar idoralari (Jugendamt) mavjud. Mazkur idoralar bevosita bolalar va yoshlar bilan ishlash xizmatlarini rejalashtiradi va moliyalashtiradi [12]. Eng muhimi, Germaniyada subsidiarlik tamoyili qat'iy amal qiladi: davlat muassasalari faqat jamoat va nodavlat

tuzilmalar bajara olmagan vazifalarnigina bajaradi. Yoshlar bilan ishlash asosan nodavlat notijorat tashkilotlari (masalan, sport ittifoqlari, skautlar, diniy yoshlar uyushmalari va b.) tomonidan amalga oshirilib, davlat ularni moliyaviy va metodik qo'llab-quvvatlaydi.

Germaniyaning yoshlar siyosatidagi yirik huquqiy hujjati – Ijtimoiy kodeksning VIII kitobi (SGB VIII) bo'lib, u yoshlar va bolalar xizmatlari to'g'risidagi qonunchilikni o'z ichiga oladi [13]. Ushbu kodeksga asosan, har bir mahalliy hokimiyat (kommuna) o'z hududidagi yoshlar uchun zarur xizmatlarni (tarbiya, maslahat, bo'sh vaqtni tashkil etish) ta'minlash majburiyatiga ega. Mablag' taqsimoti federatsiya, yer va kommunalar o'rtasida kelishilgan tartibda amalga oshadi; masalan, Federal yoshlar jamg'armasi orqali har yili o'nlab million yevro miqdorida grantlar ajratiladi [14].

2019-yilda Germaniya federal hukumati yoshlar siyosatini yangi bosqichga ko'tarish maqsadida Milliy yoshlar strategiyasini e'lon qildi. Bu strategiya doirasida idoralararo ishchi guruh tuzilib, yoshlar ishtiroki, xilma-xillik, shahar-qishloq tafovuti, raqamli mobil imkoniyatlar, ekologiya, sog'liq va xavfsizlik kabi yo'nalishlarda ustuvor vazifalar belgilandi. Shu bilan birga, Germaniyada so'nggi yillarda eng dolzarb masalalardan biri – yosh muhojirlar va qochoqlarni integratsiya qilish bo'lib, yoshlar siyosati doirasida ularga ko'maklashish bo'yicha alohida dasturlar qabul qilindi [12].

O'zbekiston uchun Germaniya tajribasining ahamiyatli jihati – bu davlat va nodavlat sektorlar hamkorligi va subsidiarlik tamoyilidir. Bizda ham yoshlar bilan ishlashda NNT va jamoat tashkilotlari salohiyatidan to'liq foydalanish, ularni rag'batlantirish muhim. Shuningdek, Germaniyadagi kabi yoshlar masalalari bo'yicha ministrlar konferensiyasi yoki idoralararo kengash joriy etish, ilmiy tadqiqotlar asosida siyosat yuritish kabi elementlar bizning siyosatni boyitishi mumkin.

Janubiy Koreya tajribasi: Janubiy Koreyada yoshlar siyosati so'nggi o'n yilliklarda demografik o'zgarishlar va iqtisodiy sharoitlar ta'sirida yangi ustuvorliklarga ega bo'ldi. Mamlakatda "Yoshlarga oid asosiy qonun (Framework Act on Youth)" amal qilib, uning asosida turli yo'nalishlarni qamrab olgan maxsus qonunlar qabul qilingan (masalan, Yoshlar faoliyatini rag'batlantirish to'g'risidagi qonun va boshqalar) [15]. Yoshlar siyosatini muvofiqlashtirish funksiyasi Gender tengligi va oilaviy masalalar vazirligi (MOGEF) ga yuklatilgan. MOGEF so'nggi yillarda yoshlar duch kelayotgan turli xatarlar (internet qaramlik, ishsizlik, stress va b.) bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqmoqda. Masalan, yuqori xatarli toifadagi yoshlar uchun reabilitatsiya va maslahat markazlarini kengaytirish rejalari e'lon qilingan [16].

Shunga ko'ra, Vazirlar Mahkamasining 12.06.2014 yildagi "Garov reestri to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida" 155-son qaroriga tegishli o'zgartirishlarni kiritish orqali davlat ijrochilarini "Garov reestri"ga bepul asosda ma'lumot kirituvchi sub'ektlar qatoriga qo'shish va ijro ishi bo'yicha davlat ijrochisi tomonidan qarzdorga tegishli ko'chmas mulk, avtotransport va maxsus texnika vositasi xatlanib, planshet orqali dalolatnoma rasmiylashtirilganda xatlangan mulk haqidagi ma'lumotlar garov reestriga avtomat ravishda kiritilishi tartibini joriy etish maqsadga muvofiq.

5) Bundan tashqari, Majburiy ijro byurosi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining ma'lumotlar bazasi o'rtasida yo'lga qo'yilgan amaldagi integratsiyaga qo'shimcha kiritish orqali raqamlashtirilgan tartibda amalga oshirish mumkin bo'lgan ijro harakatlari doirasini kengaytirish yo'li bilan davlat ijrochilarining yuklamalarini kamaytirish mumkin.

– O'zbekiston Respublikasi "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonunining 21-moddasi 2-bandi 2, 3-xatboshilariga asosan Kadastr agentligining organlari:

– “sudning yoki davlat ijrochisining qarori yoxud davlat ijrochisi tomonidan tasdiqlangan undiruvchi va qarzdor oʻrtasidagi koʻchmas mulkni topshirish dalolatnomasi asosida koʻchmas mulkka, shu jumladan er uchastkasiga boʻlgan mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarni davlat roʻyxatidan oʻtkazadi”;

– “qonunchilikda belgilangan tartibda, davlat ijrochisining yozma topshirigʻi asosida kadastr ishini shakllantiradi hamda koʻchmas mulkka, shu jumladan er uchastkasiga boʻlgan mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarni davlat roʻyxatidan oʻtkazadi”.

Yuqorida qayd etilgan harakatlar bugungi kunda qogʻoz shaklida pochta aloqa xizmatlari orqali olib borilishi oqibatida amalga oshirilishi lozim boʻlgan ijro harakatlariga ortiqcha vaqt va resurslar sarflanishi bilan bir qatorda, ijro hujjatlarini ijro etish muddatlari ham kechikishiga olib kelmoqda.

Shunga koʻra, Oʻzbekiston Respublikasi “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish toʻgʻrisida”gi Qonunining 21-moddasi 2-band 2, 3-xatboshilariga tegishli oʻzgartirish hamda Majburiy ijro byurosining “MIB-Portal” dasturi va Kadastr agentligining “E-YER NAZORAT” axborot tizimi oʻrtasida yoʻlga qoʻyilgan integratsiyaga qoʻshimcha kiritish orqali yuqoridagi ijro harakatlarini elektron tartibda amalga oshirish mumkin.

6) Qozogʻiston Respublikasida yaratilgan tizimga koʻra, Qozogʻiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Huquqiy statistika va maxsus hisobotlar qoʻmitasi tomonidan maʼmuriy huquqbuzarlikka oid jarimani qarzdor 50 kun ichida ixtiyoriy ravishda toʻlamagan taqdirda, qaror ijro etish uchun “Raqamli sud ijrochisi”ga yuboriladi va u tomonidan qarzdorga jarima 5 kunlik ixtiyoriy muddat ichida toʻlanishi lozimligi haqida xabarnoma yuboriladi. Jarima ushbu muddat davomida toʻlanmasa, qarzdorga nisbatan ijro ishi qoʻzgʻatilib, u haqidagi maʼlumotlar “Yagona elektron reestr”ga kiritiladi va mol-mulkklariga nisbatan band solinadi. Qarzdorlik elektron toʻlov tizimlari orqali toʻlangach, barcha taqiqlar avtomat ravishda olib tashlanib, ijro ishi tamomlanadi. Qarzdorlik bartaraf etilmagan taqdirda ijro ishi Xususiy sud ijrochilari palatasiga yuboriladi.

Oʻzbekiston Respublikasida ham ijro ishlarini xuddi shu kabi soddalashtirilgan tartibda ijro qilish uchun moʻljallangan “MIB Lite” axborot tizimi ishlab chiqilgan boʻlib, ushbu tizim qarzdorlarning mol-mulkiga (pul mablagʻlari bundan mustasno) daxl qilmagan hamda ularga nisbatan huquqiy taʼsir va javobgarlik choralari qoʻllanilmaydigan tartibda sunʼiy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda qarzdor bilan muloqot oʻrnatish va SMS xabarnoma yuborish orqali majburiy ijro etish mexanizmini amalga oshiradi.

Bugungi kunda ushbu tizim orqali sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlari asosida berilgan qarzdor jismoniy shaxslardan maʼmuriy jarima, soliq qarzi, davlat boji, pochta xarajatini undirish toʻgʻrisidagi ijro hujjatlari ijro etiladi.

Ushbu portal orqali ijro ishini soddalashtirilgan tartibda yuritishda davlat ijrochisi tomonidan qarorlar qabul qilinmaydi (bundan ijro yigʻimini undirish toʻgʻrisidagi qaror mustasno), undiruv qarzdorning yashash joyiga yoki mol-mulki turgan joyga bormagan holda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qoʻllash yoʻli bilan masofadan turib amalga oshiriladi.

Ushbu dastur orqali amalga oshiriladigan ijro harakatlari uchun qogʻoz sarfi 100 foizga qisqartirilgan.

SHunga koʻra, kelib tushayotgan ijro ishlari boʻyicha qarzdorlikni ixtiyoriy bartaraf etuvchi qarzdorlarga tegishli ishlarni oʻziga xos filtdan oʻtkazish orqali hujjatlarni umumiy tartibda ijro qiluvchi davlat ijrochilarining ish hajmini kamaytirish maqsadida jismoniy shaxslardan bazaviy hisoblash miqdorining 5 baravaridan oshmaydigan miqdordagi summa undirishni nazarda tutuvchi ijro ishlarini soddalashtirilgan tartibda ijro qilish uchun yoʻnaltirish, bir oylik muddatda ijro ishini soddalashtirilgan tartibda ijro qilish imkoni boʻlmagan hollarda ularni umumiy tartibda ijro qilish uchun yuborish mexanizmini joriy etish taklif etiladi.

**Xulosa.** Yuqorida qayd etilgan ijro harakatlarini Majburiy ijro byurosi maʼlumotlar bazasi orqali avtomatlashtirish mexanizmining joriy etilishi davlat ijrochilarining ish hajmini kamaytirish bilan bir qatorda, qarzdorlikni undirishning yangi vositalari joriy etilishiga va oʻz navbatida undiruv samaradorligi ortishiga xizmat qiladi.

### ADABIYOTLAR:

1. Oʻzbekiston Respublikasi 2001-yil 29-avgustdagi 258-II-son “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish toʻgʻrisida”gi Qonuni // Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 10.10.2024 y., 03/24/974/0804-son.

2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning Taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni // Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 28.12.2024 y., 06/24/227/1089-son.



3. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.10.2020 y., 06/24/185/0944-son.*
4. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-martdagi PQ-4236-son "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.*
5. *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 12-iyundagi 155-son "Garov reyestri to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida"gi Qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.05.2022 y., 09/22/255/0412-son.*
6. <https://www.lex.uz>
7. *Hamidov A.O. Sud qarorlari ijrosini taminlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish masalalari. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent, 2024.*
8. *O'razaliyev M. Ijro ishini yuritish isloh qilinishi – sud-huquq sohasida muhim qadam // "Ijro ishi yuritish sohasini yanada takomillashtirish masalalari: nazariya va amaliyot uyg'unligi" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya maqolalar to'plami. Toshkent, 2019.*
9. *O'razaliyev M.Q. Ijro ishini yuritish isloh qilinishi – sud-huquq sohasida muhim qadam // "Ijro ishi yuritish sohasini yanada takomillashtirish masalalari: nazariya va amaliyot uyg'unligi" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya maqolalar to'plami. Toshkent, 2019*
10. *Dovletov Sh.A. Majburiy ijro byurosi va uning huquqiy maqomini takomillashtirish masalalari // Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari (maqolalar to'plami) I- jild. Toshkent, 2019 y.*
11. *Egamberdiyev E.E. Ijro bosqichi va uning ahamiyati // Ijro ishi yuritish sohasini yanada takomillashtirish masalalari: nazariya amaliyot uyg'unligi mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiya maqolalar to'plami. 22.05.2019 y.*

## YOSHLARNING TURIZMGA QIZIQISHI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

**Norov Shuhrat Suvonovich,**

Navoiy davlat kon-texnologiya universiteti,  
Ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya kafedrası dotsenti,  
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), O'zbekiston  
shuxrat.suvonovich@mail.ru  
0009-0008-4617-706 X

**Islomov Ozodbek Ikromovich,**

Navoiy davlat kon-texnologiya universiteti,  
Ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy  
tarbiya kafedrası o'qituvchisi, O'zbekiston  
ozod2920@gmail.com  
0009-0006-4711-7232 X

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yangi O'zbekiston sharoitida yosh avlodning turizmni rivojlantirishga bo'lgan qiziqishi va ishtiyoqi, ularning turizmdagi ishtirok darajasi va mavjud imkoniyatlar tahlil qilinadi. Shuningdek, aholi o'rtasida, ayniqsa, ijtimoiy jihatdan kam ta'minlangan yoshlar orasida turizm sohaslariga qiziqishni oshirish, ularga qulay shart-sharoitlar yaratish va davlat-ijtimoiy hamkorligida amalga oshirilishi kerak bo'lgan chora-tadbirlar, shuningdek, olib borilgan tadqiqotchilarning fikr mulohazalari haqida so'z boradi. Maqolada yoshlarning turizmga oid ehtiyoj va intilishlari tahlil qilinadi hamda takliflar asosida turizmni yoshlar o'rtasida ommalashtirish ilgari suriladi.

**Kalit so'zlar:** turizm, yoshlar, ichki turizm, ijtimoiy ehtiyoj, taklif va talab, turizm infratuzilmasi, madaniy sayohat, imkoniyatlar.

## ИНТЕРЕС МОЛОДЁЖИ К ТУРИЗМУ И ПУТИ ЕГО РАЗВИТИЯ

**Аннотация.** В данной статье анализируются интерес и стремление молодого поколения к развитию туризма в условиях нового Узбекистана, уровень их участия в туризме и существующие возможности. Также рассматриваются меры по повышению интереса населения, особенно социально незащищенной молодёжи, к сферам туризма, созданию для них благоприятных условий и мероприятия, которые должны быть реализованы в рамках государственно-общественного партнёрства, а также приводятся мнения исследователей. В статье анализируются потребности и стремления молодёжи в области туризма, и на основе предложений продвигается популяризация туризма среди молодёжи.

**Ключевые слова:** туризм, молодёжь, внутренний туризм, социальная потребность, предложение и спрос, туристическая инфраструктура, культурное путешествие, возможности.

## YOUTH INTEREST IN TOURISM AND WAYS TO DEVELOP IT

**Abstract.** This article analyzes the interest and enthusiasm of the younger generation in developing tourism in the context of the new Uzbekistan, their level of participation in tourism, and existing opportunities. It also discusses measures to increase interest in tourism among the population, especially among socially disadvantaged youth, create favorable conditions for them, and implement these measures through public-private partnerships. Additionally, the article presents opinions of researchers on this topic. The paper examines the needs and aspirations of young people in tourism and, based on proposals, promotes the popularization of tourism among youth.

**Keywords:** tourism, youth, domestic tourism, social need, supply and demand, tourism infrastructure, cultural travel, opportunities.

**Kirish.** Hozirgi kundagi globallashuv davrida turizm sohasi dunyoning ko'plab davlatlarida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim sohalardan biri sifatida rivojlanmoqda. Turizm sohasining rivojlanishida eng faol qatlami bo'lgan yoshlar ishtiroki alohida e'tiborni talab etadi. Chunki aynan yoshlarning dunyoqarashi, zamonaviy tafakkuri va harakatchanligi, sohaning yo'nalishlariga bo'lgan qiziqishlari bu sohaning kelajagini ta'minlovchi muhim ijtimoiy kuch sifatida qaraladi. Mamlakatimizda ham

turizm yoʻnalishida keng islohotlar olib borilmoqda. Hozirgi kunlarda Oʻzbekistonda yoshlar bilan ishlash masalasi yurtimiz siyosatining markaziy tarmoqlaridan biriga aylandi. Xususan, “Yangi Oʻzbekiston-yangi imkoniyatlar” tamoyiliga asoslangan holda qabul qilinishi kerak boʻlgan huquqiy-meʼyoriy hujjatlar, strategik dasturlar va islohotlar yoshlarning turizm sohasida ham faol ishtirokini taʼminlashga qaratilgan.

Turizm sohasining dolzarbligi hozirgi kundagi ichki turizm imkoniyatlarida yoshlarning ishtirok darajasi va bu sohadagi qiziqish hamda ehtiyojlari, ushbu sohaning rivojlanishidagi muammolar va kamchiliklar ilmiy jihatdan oʻrganilishi va imkoniyatlarimizdan foydalangan holda yechimlarga erishishga muhtojdir.

Yurtimiz yoshlari oʻrtasida turizmga boʻlgan qiziqishning ortib borayotgani yaqqol namoyon boʻlib qolgan. Biroq yoshlarning qiziqishi sohadagi amaliy ishtirokiga aylanayotgani yoʻq, hattoki, yoshlarning katta qismida, hattoki, ichki turizm faqatgina orzu sifatida qolmoqda. Bunga sabab sifatida bir nechta omillarni aytsak boʻladi. Avvalo infratuzilmaning yurtimiz hududlarida bir xil rivojlanmaganligi, sayohatlarni tashkil qiladigan xizmatlarning narxlari va bu yoshlarning iqtisodiy tomonlari uchun qulay emasligi, yoshlar orasida maʼlumot va targʻibotlar kerakli darajada tashkil etilmaganligi muammolar deb eʼtirof qilish mumkin.

Muammolarni bartaraf etish va yoshlarning turizmga qiziqishini oshirish borasida davlat tomonidan bir qator dasturlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, “Yoshlar daftari”, “Yoshlar sayohati” kabi ijtimoiy loyihalar orqali turizmga ishtiroklari ragʻbatlantirilmoqda. Shular bilan bir qatorda, yoshlar uchun turizm yoʻnalishlari boʻyicha kasbiy tayyorgarliklar va taʼlim tizimlari kengaytirilayotgani, misol uchun davlat va xususiy oily oʻquv yurtlarida turizm yoʻnalishlari faoliyat olib borayotgani ham yoshlarning sohaga nisbatan qiziqishini mustahkamlashga xizmat qilmoqda, lekin haliyam yaratilgan imkoniyatlar va tashabusslar yoshlarning barchasini toʻliq qamrab olgani yoʻq. Ayniqsa, ijtimoiy va iqtisodiy tomondan zaif qatlam vakillari boʻlgan yoshlar, yaʼni kam taʼminlangan oilalardagi va uzoq hududlardagi yoshlar, oliygohlarda oʻqimayotgan, shuningdek, ishsiz yoshlar uchun turizmga ishtirok imkoniyatlari ancha cheklangan. Bu esa, sohaning demokratik va inklyuziv holda rivojlanishiga toʻsiq boʻlishi mumkin. Yuqoridagi omillarni inobatga olgan holda, yoshlardagi turizmga qaratilgan munosabatini kengroq oʻrganish, ulardagi ehtiyojlar va intilishlarni tahlil etish, bor muammolarni aniqlash va bartaraf etish uchun takliflarni oʻrganib kerakli ishlarni amalga oshirish zarur boʻlmoqda. Shuni aytish kerakki, mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, nafaqat yoshlarning turizmga boʻlgan qiziqishini yoritib beradi, shuningdek, sohadagi mavjud infratuzilmaviy, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni oʻrganadi uning yechimlari uchun bir qator takliflar beradi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Tadqiqotda yoshlarning turizm sohasidagi ishtiroki, ularning ehtiyojlari, sohaning mavjud infratuzilmasining holati va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar kontekstida tahlil qilinadi. Tadqiqotda nazariy va amaliy manbalarga eʼtibor qaratgan holda kompleks metodologik yoʻnalish qoʻllanildi. Tadqiqot quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirildi:

1. Nazariy-tahliliy yondashuv - yoshlar va turizmga oid ilgari chop etilgan ilmiy adabiyotlar tadqiq etilib, asosiy kontseptual yondashuvlar aniqlab olindi.

2. Solishtirma va taqqoslash metodi - Oʻzbekistonning turli joylarida yoshlarning turizmga nisbatan munosabati va ishtirok darajasi solishtirildi.

3. Empirik tahlil – ochiq manbalar, shuningdek, rasmiy statistikalar asosida tahlillar oʻtkazildi. Oʻzbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi, Davlat statistika qoʻmitasi maʼlumotlari asos vazifasida xizmat qildi.

4. Tavsifiy usul – mavjud muammolar oʻrganilib, ularni hal etish uchun takliflar ishlab chiqish.

Oʻzbekistonda turizm sohasi va uning yoshlar bilan oʻzaro bogʻliqligini ilmiy tomondan tadqiqotlar hozirgi yillarda sezilarli holda faollashdi. Olib borilgan tadqiqotlar asosan ichki turizmning rivojlanish mexanizmlari, yoshlarning ijtimoiy faolligi, madaniy meros obyektlariga qilinadigan sayohatlar oʻrtasidagi aloqalar, hududiy farqlar, hamda Yoshlarning turizm sohasiga nisbatan munosabatlari kabi jihatlarni yoritishga qaratilgan.

R.B.Ibragimov oʻzining turizmga oid monografiyasida yurtimizda mavjud turistik imkoniyatlarni hammasini ishga solinmaganligini ilmiy asosda tahlil etgan. Muallif yoshlar toifasining turizm xizmatlari isteʼmolchilari sifatida katta ahamiyatga ega ekanligini taʼkidlab, yoshlarni talab va ehtiyojlarini inobatga olgan xolda yoʻnalishlar yaratish zaruratini eʼtirof etgan. Qoʻshimcha sifatida u turizm infratuzilmasini ijtimoiy segmentga yoʻnaltirish boʻyicha takliflar bildirgan [1].

Sh.U.Tursunov oʻzining “Yoshlar siyosati va ijtimoiy faoliyatda ishtiroki” deb nomlangan tadqiqot ishida yoshlarning jamiyatdagi ishtirokini oshirishda sayohat va turizmning vositasi sifatida tutgan oʻrnini takidlaydi [2]. Tadqiqotchi tomonidan yoshlarning turizm sohasidagi faolligi ularning ishtirok oʻrnini mustahkamlash, madaniy va ijtimoiy bilimlarini shakllantirishda kerakli omil sifatida asoslab berilgan.

Izlanishlari davomida yoshlar siyosatining samaradorligini oshirishda turizmning aks aloqali ijtimoiy aloqalari tahlil qilingan.

Z.Sh.Odilova “Madaniy meros va turizm integratsiyasi” nomli dissertatsiyasida milliy qadriyatlar bilan turizmni yuksaltirishga alohida e’tibor qaratgan. Tadqiqotchi o’z ishida yoshlarning tarixiy merosga nisbatan qiziqishini orttirishda turizm vositasining samarali ekanligi ko’rsatilgan. Asosan, madaniy meros obyektlar bor bo’lgan hududlar turizmning yoshlar munosabatiga ta’siri alohida takidlangan [3].

N.X.Ashurova olib borilgan ilmiy izlanishlarida davlat siyosatining yoshlar ishtirokiga ta’siri o’rganilib, turizm sohasining bandlikni ta’minlash bo’sh vaqtni samarali va mazmunli o’tkazish va ijtimoiy faollikni oshirishdagi o’rni nazariy jihatdan yoritilgan. Tadqiqotchi davlat tomonidan amalga oshirilayotgan “Yoshlar-kelajagimiz” dasturi, yuzasida turizm yo’nalishidagi loyihalarni kuchaytirishni tavsiya qiladi [4].

A.S.Yo’ldoshev o’z monografiyasida viloyatlar kesimida yoshlarning turizmga ishtiroki bo’yicha mavjud farqlarini raqamli ko’rsatkichlar asosida o’rgangan. Olib borgan tahliliga ko’ra, ayrim hududlarda turizm resurslari kerakli darajada bo’lishiga qaramay, yoshlar faolligi pastligicha qolmoqda. Bular infratuzilma, targ’ibot va moliyaviy omillar bilan o’zaro bog’liq ekanligi aniqlanganligi takidlangan [5].

T.Karimova o’zining “Zamonaviy turizmدا innovatsion yondashuvlar” nomli tadqiqotida yoshlarni turizmga jalb etishga raqamli texnologiyalar, mobil ilovalar, virtual sayohat platformalarining ahamiyatini o’rgangan. Muallif yoshlarning raqamli tafakkuri va zamon talablariga mos texnologiyalar bilan o’zaro yaqinligi ularni yangi turistik mahsulotlarning muhim auditoriyasiga aylantirishni asoslab bergan [6].

J.K.Qurbonova turizm sohasi bo’yicha olib borgan tadqiqotida yoshlarning rivojlanishida sayohatning pedagogik va psixologik ta’sirini o’rganadi. Tadqiqotchi yoshlarning jamiyatga integratsiyalashuvi, estetik didi va madaniy ma’lumotlarga egaligiga turizm orqali ijobiy ta’sir ko’rsatish mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab bergan [7].

Aytish kerakki turizm sohasida olib borilgan ilmiy izlanishlar va normativ-huquqiy manbalar tahlili ko’rsatadiki, oxirgi yillarda yurtimizda ichki turizmni rivojlantirishga yo’naltirilgan kompleks chora-tadbirlar davlat siyosatining muhim tarkibiy bo’lagiga aylangan. Xususan, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “Ichki turizmni rivojlantirish to’g’risida”gi qarori ichki turizmni rivojlantirishda strategik huquqiy asos bo’lib xizmat qilmoqda. Bu qarorda yoshlar bilan ishlash, madaniy va ma’naviy ehtiyojlarini inobatga olgan holda turizm sohasining imkoniyatlaridan to’liq foydalanish ijtimoiy harakatini oshirish, zamonaviy dunyoqarashini shakllantirish bo’yicha aniq yo’llar belgilangan. Shuningdek, mazkur hujjat ilmiy manba sifatida tahlil etilib, yoshlar orasiga yo’naltirilgan turistik dasturlarni yaratishda huquqiy tayanch vazifasini o’taydi. Qaror asosida ishlab chiqilgan amaliy mexanizmlar hozirgi kunda turizm sohasida yoshlarning faol ishtirokini ta’minlashda muhim bo’lib qolmoqda [8].

**Muhokamalar va natijalar.** Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, O’zbekistonda yoshlarning ichki turizmga bo’lgan qiziqishini rag’batlantirish borasida mavjud imkoniyatlar yetarli darajada safarbar etilmayapti. Xususan, ichki turizmni rivojlantirish bo’yicha huquqiy-me’yoriy hujjatlar qabul qilinayotgan bo’lsa-da, ularning real hayotga joriy etilishida muayyan kamchiliklar kuzatilmoqda. Turizm infratuzilmasining viloyatlar kesimidagi notekis rivojlanganligi, ayniqsa ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar uchun turistik xizmatlardan foydalanishda teng sharoitlarning yaratilmagani muhim muammolardan biri sifatida baholanmoqda.

R. M. Ibragimov (2021), Z. Sh. Odilova (2020) va A. S. Yo’ldoshev (2022) kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlari tahlili asosida aniqlanishicha, turizm nafaqat iqtisodiy foyda manbayi, balki yoshlarning madaniy, ijtimoiy va intellektual rivojida muhim omil bo’lib xizmat qilishi mumkin. Ammo amaliyot shuni ko’rsatmoqdaki, mavjud davlat dasturlarida yoshlarning ehtiyojlariga mo’ljallangan individual yondashuv yetarli darajada shakllanmagan. Bu esa yoshlar orasida turizmga nisbatan passiv munosabat, sayohat madaniyatining yetarlicha rivojlanmaganligi va kam ishtirok darajasini yuzaga keltirgan [9].

Bundan tashqari, turizm sohasi bilan ta’lim tizimi o’rtasidagi aloqaning zaifligi, maktab va oliy o’quv yurtlarida turizm madaniyati, yurtshunoslik va sayohat psixologiyasiga oid darslarning yetishmasligi — bu sohaning uzoq muddatli rivojiga salbiy ta’sir ko’rsatmoqda. Ko’plab hududlarda yoshlar uchun mo’ljallangan turistik kontentning jozibador emasligi, ularning ehtiyojlari va zamonaviy dunyoqarashiga mos kelmasligi aniqlangan. Bu esa, yoshlar bilan ishlashda zamonaviy raqamli platformalar, interaktiv materiallar va mobil ilovalar orqali innovatsion yondashuv zarurligini ko’rsatmoqda [10].

Tadqiqot davomida, shuningdek, yoshlar ichki turizmda faqat iste’molchi emas, balki faol ishtirokchi, tashabbuskor va hatto xizmat ko’rsatuvchi subyektlar sifatida ham e’tiborga olinishi zarurligi asoslab berildi. Buning uchun ularni turizm sohasi bo’yicha maxsus dasturlarga jalb qilish, turizm tadbirlarida ko’ngilli ishtirokchi sifatida qatnashish imkoniyatlarini kengaytirish, startup loyihalarga grantlar ajratish mexanizmlarini joriy etish taklif qilinmoqda.



Shu jihatdan qaraganda, yoshlarning ichki turizm sohasidagi rolini faqatgina madaniy ko'ngilochar darajada emas, balki strategik resurs sifatida baholash lozim. Bu esa, davlat siyosatida turizmga oid qarorlar qabul qilishda yoshlar segmentining alohida guruh sifatida inobatga olinishi, ularning fikr-mulohazalari va tashabbuslarini eshitish mexanizmlarini ishlab chiqishni talab etadi.

Tadqiqot davomida olib borilgan nazariy va empirik tahlillar asosida quyidagi muhim natijalar aniqlangan:

1. Ilmiy adabiyotlar tahlili asosida aniqlanishicha, O'zbekistonda turizm sohasi, ayniqsa, ichki turizmga bo'lgan e'tibor keyingi yillarda sezilarli darajada ortgan. Xususan, yoshlar segmentining turizmga qiziqishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining turizmni rivojlantirishga doir qator qarorlarida alohida ta'kidlangan. Bu hujjatlar yoshlarga mo'ljallangan turizm dasturlarini ishlab chiqish, turizmga oid ta'lim va madaniyat komponentlarini rivojlantirishni nazarda tutadi.

2. Mintaqaviy taqqoslov tahlillari shuni ko'rsatdiki, poytaxt Toshkent shahri, Samarqand, Buxoro va Xorazm viloyatlaridagi yoshlar ichki turizm tadbirlarida nisbatan faolroq ishtirok etmoqda. Aksincha, Navoiy, Qashqadaryo, Sirdaryo va boshqa chekka hududlarda yoshlarning turizmga jalb qilinishi sust bo'lib qolmoqda. Bu esa, hududlar o'rtasida infratuzilma va axborot tengsizligining mavjudligidan dalolat beradi.

3. O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi hamda Davlat statistika qo'mitasi tomonidan e'lon qilingan statistik ma'lumotlarga tayanilsa, 2020–2023 yillar oralig'ida yoshlar ishtirokidagi ichki turizm hajmi o'rtacha 30 foizga oshgan. Ushbu ko'rsatkich pandemiyadan keyingi davrda yoshlar orasida sayohatga bo'lgan ehtiyojning qayta tiklanganini bildiradi.

4. Ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda o'tkazilgan ekskursiyalar, madaniy festival va turistik loyihalar yoshlar o'rtasida ichki turizmning ommalashuviga xizmat qilgan. Jumladan, umumta'lim maktablari, kollej va oliy ta'lim muassasalari bilan tuzilgan hamkorlik memorandumlari orqali mahalliy yurtshunoslik va tarixiy joylarga tashriflar tashkil etilgan.

5. Biroq o'rganilgan amaliy holatlar, ayniqsa so'rovnomalalar va kuzatuvlar natijasida aniqlanishicha, mahalliy infratuzilmaning ayrim hududlarda zaifligi, ishonchli axborot manbalarining yetishmasligi hamda iqtisodiy imkoniyatlarning cheklanganligi yoshlarning ichki turizmga faol ishtirok etishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj va qishloq hududidagi yoshlar uchun turizm xizmatlari moliyaviy jihatdan qulay emasligi kuzatilgan.

**Xulosa va takliflar.** O'zbekistonda yoshlar qatlamining turizm sohasida faol ishtirok etishi nafaqat iqtisodiy o'sish, balki ijtimoiy barqarorlik va madaniy ongni shakllantirishning ham muhim omillaridan biridir. Ushbu maqolada o'tkazilgan ilmiy tahlillar, mavjud adabiyotlar va amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, yoshlarning turizmga bo'lgan qiziqishi kuchli, biroq ularning real ishtiroki va imkoniyatlari hali to'liq shakllanmagan.

Tadqiqot davomida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

- Mamlakatda turizm sohasi tizimli rivojlanayotgan bo'lsa-da, yoshlarning ehtiyojlari va qiziqishlariga moslashtirilgan turistik mahsulotlar yetarli emas. Aksariyat yo'nalishlar kattalar, xorijiy turistlar yoki ommaviy guruhlar uchun mo'ljallangan.

- O'zbekiston hududlari bo'yicha yoshlar turizmini rivojlantirishda mintaqaviy tafovutlar mavjud. Ayrim viloyatlarda bu soha yo'nalishli rivojlanayotgan bo'lsa, boshqalarida potensial salohiyat yetarli darajada ishga solinmagan.

- Madaniy-ma'naviy qadriyatlar asosida tashkil etilgan turizm dasturlariga yoshlarning ishtiroki nisbatan yuqori bo'lishi aniqlangan. Bu holat yoshlar orasida tarixiy ong, milliy g'urur va ma'naviy merosga e'tibor kuchayganini ko'rsatadi.

- Yoshlarning turizmga oid faoliyatida axborot texnologiyalarining roli yetarli darajada baholanishi lozim. Ayniqsa, raqamli platformalar, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri turizmga jalb qilishda muhim vosita sifatida qaralmoqda.

Shunga asoslanib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari suramiz:

1. Yoshlar uchun maxsus turizm dasturlarini ishlab chiqish. Davlat va xususiy sektor hamkorligida yoshlar auditoriyasi uchun arzon, qulay va maqsadli turistik marshrutlar va xizmat turlarini yaratish zarur. Bu, ayniqsa, ijtimoiy jihatdan himoyaga muhtoj qatlam uchun ahamiyatli bo'ladi.

2. Turizmni yoshlar ta'lim tizimiga integratsiyalash. Maktab, kollej va universitetlarda "Madaniy turizm", "Mahalliy tarix va sayohat" kabi tanlov fanlari orqali yoshlarning turizmga qiziqishini erta yoshdan shakllantirish mumkin. Bu orqali milliy identitet ham mustahkamlanadi.

3. Raqamli turizm loyihalarini qo'llab-quvvatlash. Yoshlar o'rtasida mashhur bo'lgan Telegram, Instagram kabi platformalarda mahalliy turizm resurslari haqidagi kontentlar, bloglar, virtual ekskursiyalarni kengaytirish lozim. Raqamli marketing vositalari bilan yoshlarni jalb qilish samarali natijalar beradi.

4. Yoshlar uchun mahalliy gidlik va volontyorlik tizimini joriy etish. Hududlardagi tarixiy, tabiiy va madaniy obidalar atrofida yoshlar gidlar maktabini tashkil etish orqali ularni ish bilan ta'minlash, turizmga integratsiyalash va ularning faolligini oshirish mumkin.

5. Yoshlar turizmini rag'batlantiruvchi moliyaviy mexanizmlarni joriy qilish. Yoshlar uchun turizm paketlari, tematik sayohatlar bo'yicha soliq imtiyozlari, chegirmalar, grantlar ajratish tizimini shakllantirish ularning ushbu sohadagi ishtirokini sezilarli darajada kuchaytiradi.

6. Hududiy yoshlar turizm markazlarini yaratish. Har bir viloyatda, ayniqsa, tarixiy va tabiiy salohiyati yuqori hududlarda "Yoshlar turizm markazi" tashkil etilishi kerak. Ular yoshlarga sayohat qilish, ko'ngilli bo'lish, loyihalarda qatnashish uchun platforma bo'lib xizmat qiladi. Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarning turizmga ishtirokini faqatgina sayohat bilan bog'lash yetarli emas. Ular bu sohaning to'laqonli ishtirokchisi, tashabbuskor va tashkilotchisi sifatida qaralishi kerak. Turizm orqali yoshlarning ijtimoiy faolligi, iqtisodiy bilimlari, milliy g'ururi va dunyoqarashi shakllanadi. Shunday ekan, turizmni yoshlar siyosatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida ko'rish va bu yo'nalishda chuqur islohotlarni amalga oshirish davr talabi hisoblanadi.

### ADABIYOTLAR:

1. Ibragimov. R.M. "O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirish mexanizmlari". 2021 y. Toshkent: Iqtisodiyot. 42–47 b.

2. Tursunov. Sh.U. "Yoshlar siyosati va ijtimoiy faoliyatda ishtiroki". 2019 y. Toshkent: Ma'naviyat. 65–70 b.

3. Odilova. Z.Sh. "Madaniy meros va turizm integratsiyasi" (PhD dissertatsiyasi). 2020 y. Samarqand: Samarqand davlat universiteti. 33–38 b.

4. Ashurova. N.X. "Yoshlar ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirishda davlat siyosatining o'rni" (PhD dissertatsiyasi). 2018 y Toshkent: Iqtisodiyot va pedagogika ilmiy markazi. 28–35 b.

5. Yo'ldoshev. A.S. "Turizmning hududiy rivojlanishi va yoshlar harakati". 2020 y Buxoro: BuxDU nashriyoti. 51–59 b.


6. Karimova. T.M. "Zamonaviy turizmga innovatsion yondashuvlar". 2020 y Toshkent: Iqtisodiy taraqqiyot. 70–75 b.

7. Qurbonova. J.K. "Yoshlarning madaniy dunyoqarashini shakllantirishda sayohatning o'rni" (PhD dissertatsiyasi). 2017 y. Toshkent: TDPU. 44–49 b.

8. Qodirov. M. "Turizm geografiyasi va hududiy rivojlanish". 2016 y. Toshkent: Universitet. 88–93 b.

9. Sultonova. X.R. "Yoshlar va jamiyat: o'zaro munosabatlar dinamikasi". 2021 y. Qarshi: QDU nashriyoti. 36–42 b.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 30.04.2022 yildagi PQ-232-son "Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.



**"SCIENTIFIC REPORTS  
OF BUKHARA STATE  
UNIVERSITY"**

The journal was composed  
in the Editorial and  
Publishing Department of  
Bukhara State University.

**Editorial address:**

Bukhara, 200117  
Bukhara State University, main  
building, 2<sup>nd</sup> floor, room 219.  
Editorial and Publishing  
Department.  
[https://buxdu.uz/32-buxoro-  
davlat-universiteti-ilmiy-  
axboroti/131/131-buxoro-davlat-  
universiteti-ilmiy-axboroti/](https://buxdu.uz/32-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/131/131-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/)  
e-mail:  
[nashriyot\\_buxdu@buxdu.uz](mailto:nashriyot_buxdu@buxdu.uz)

Printing was permitted  
30.07.2025 y. Paper format  
60x84,1/8. Printed in express  
printing method. Conditional  
printing plate – 35,30.  
Circulation 70. Order № 30.  
Price is negotiable.

Published in the printing house  
"BUKHARAHAMD PRINT" LLC  
Address: Bukhara, Hofiz tanish  
Bukhari street, 190 B-house